



A.A.KARIMOV, I.K.OCHILOV, Z.U.G'ANIYEV

BUXGALTERIYA HISOBI

(II QISM)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KARIMOV AKROM ABBASOVICH
OCHILOV ILYOS KELDIYOROVICH
G'ANIYEV ZAFAR USANOVICH

BUXGALTEIYA HISOBI (II QISM)

DARSLIK

5230900- "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo`nalishi uchun

TOSHKENT-2020

Ushbu darslik Davlat ta'lim standartlari talablari, buxgalteriya hisobi o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, 5230900-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Darslikda buxgalteriya hisobining nazariy va amaliy asosi yoritilgan bo'lib, u korxonalarda asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi, tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, hisobotlarni tuzish va taqdim etish, boshqaruv hisobini tashkil etish, xarajatlarni turkumlash va ularning hisobi, xarajatlarni baholash va ular dinamikasi, material xarajatlarining hisobi, mehnat xarajatlari hisobi, ustama xarajatlari hisobi, buyurtmali kalkulyatsiya qilish usuli, jarayonli kalkulyatsiya qilish usuli, kompleks ishlab chiqarish xarajatlarining taqsimlanishi va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlari bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish usuli, smeta tuzish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, transfert bahoni shakllantirish, korxonaga segmentar hisoboti hamda o'zbekiston respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishning rivojlanish yo'nalishlarini o'rgatadi.

Mazkur darslik talabalar uchun “Buxgalteriya hisobi II qism” fanidan asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan boshqa iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mutaxassislari, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

Karimov A.A. TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori.

Ochilov I.K. TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

G'aniyev Z.U. TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Xajimuratov N. TDIU, “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrasida dotsenti, PhD.

Norbekov D.Ə. TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

BUXGALTYERIYA HISOBI (3-4-5 MODUL)

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV HISOB

15-BOB. ASOSIY VOSITALAR HISOBI

- 15.1. Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish hamda uning vazifalari.
- 15.2. Asosiy vositalarni turkumlash va ularni baholash.
- 15.3. Asosiy vositalarni xo‘jalik sub’ekti balansiga kirim qilish yo‘llari.
- 15.4. Kapital qo‘yilmalarni hisobga olish.
- 15.5. Asosiy vositalar xarakatini hujjatlashtirish.
- 15.6. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari.
- 15.7. Asosiy vositalarni ta’mirlash operatsiyalarini hisobga olish.
- 15.8. Asosiy vositalarni qayta baholash muomalalarini hisobda aks ettirish.
- 15.9. Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi.
- 15.10. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi.

Tayanch so‘z va iboralar: boshlang‘ich qiymat, amortizatsiya, to‘g‘ri chiziqli, kumiliyativ, jadallashgan, eskirish, qoldiq qiymat, tugatish qiymati, inventar kartochkalar, moliyaviy ijara, joriy ijara, texnik qarov, texnik xizmat ko‘rsatish, joriy ta’mirlash, kapital qo‘yilmalar, kapital ta’mir, asosiy vositalarni rekonstruksiyasi, asosiy vositalarni qayta baholash, ta’mirlash, hisobdan chiqarilishi, inventarizatsiya, joriy baholash, bozor bahosi.

15.1. Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish hamda uning vazifalari.

Asosiy vositalar deb, uzoq muddat o‘zining tabiiy ko‘rinishini saqlab turadigan, asta-sekin eskiradigan va ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga o‘z qiymatini asta-sekin o‘tkazadigan mehnat vositalari(qurollari)ga aytiladi. Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, mashina, uskuna, ho‘jalik inventarlari, asbob-uskunalar va boshqalar kiradi. “Asosiy vositalar” deb nomlangan 5-sonli O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)da berilgan

ta'rif quyidagicha: **asosiy vositalar** - korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir.

5-son "Asosiy vositalar" nomli BHMS xo'jalik sub'ektlari tomonidan barcha asosiy vositalarni, jumladan, muddatli ijarani ham hisobga olish holda qo'llaniladi, buxgalteriya hisobining boshqa standarti shartlari bo'yicha asosiy vositalar buxgalteriya hisobining boshqa uslubi qo'llanishi talab etilsa, yoki shunga yo'l qo'yish hollari bundan mustasno. Shuningdek asosiy vositalar hisobini yuritishda "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-son BHMS, "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar" nomli 2-son BHMS, «Ijara hisobi» nomli 6-son BHMS, "Buxgalteriya balansi" nomli 15-son BHMS, "Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi kutilmagan hodisa va xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan voqealar" nomli 16-son BHMS, "Kapital qurilish bo'yicha pudrat shartnomalari» nomli 17-son BHMS, "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" nomli 21-son BHMSlaridan keng foydalaniladi.

Iqtisodiyotni moderinizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda asosiy vositalarning o'rni nihoyatda kattadir. Asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish jarayonida juda katta rol o'ynaydi, chunki ular barcha xo'jalik yurituvchi sub'ekt tayanadigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezoni bo'lgan ishlab-chiqarish texnika bazasini tashkil etadi.

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishda asosiy e'tibor beriladigan jihatlari, bu asosiy vositalarni aktiv sifatida tan olingan paytini belgilash, asosiy vositalarni guruhlarga ajratish, mazkur aktivlarga nisbatan qo'llaniladigan baholash qiymatini va amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek asosiy vositalarning qiymatidagi o'zgarishlarni, asosiy vositalar xarakati hisobi va ularning chiqib ketishi hisobini belgilashdan iborat. Asosiy vositalarni hisobga olishdagi nizom

hamda yo‘riqnomalar asosida tashkil etish. Asosiy vositalarning chiqib ketishi va ularni ijaraga berilishidan moliyaviy natijalarni aniqlash tartibini belgilash va hisobga olish asosiy qoidalarini korxonada buxgalteriya xizmati bo‘limida tashkil qilish hisoblanadi.

“Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMSga asosan, asosiy vositalar uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ortiq vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda asosiy vositalarni hisobga olish quyidagilarni ta’minlashi lozim:

- asosiy vositalarning olinishi, hisobdan chiqarilishi, joyi o‘zgartirilishini hisobda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish;

- asosiy vositalarni boshqa aktivlardan ajratilgan holda guruhlariga bo‘lib, ularni hisobga olishni tashkil qilish;

- asosiy vositalarni joriy hisobda va buxgalteriya balansida tegishli andozalarga va me‘yoriy hujjatlarga asosan to‘g‘ri va o‘z vaqtida baholash;

- ularni sotib olinganidan keyin hisobdan chiqarilishiga qadar turgan joyi (foydalanish joyi) bo‘yicha mavjudligi va asralishini, ayrim hollarda ularning asralishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar bo‘yicha nazorat qilish;

- asosiy vositalarning eskirishini to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqish va uni hisobda to‘g‘ri aks ettirish;

- ta‘mirlash bo‘yicha xarajatlarni aniqlash va bu maqsadlar uchun ajratilgan vositalarning oqilona ishlatilishini nazorat qilish;

- eskirgan, xo‘jalik uchun oshiqcha bo‘lgan asosiy vositalarni o‘z vaqtida hisobdan chiqarishni ta‘minlash;

- hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar bo‘yicha moliyaviy natijalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida aniqlash.

Hisob va rejalashtirishda asosiy vositalar ma‘lum guruhlariga bo‘linib hisobga olinadi va rejalashtiriladi. Chunki asosiy vositalarni hisobga olish,

rejalashtirishni to'g'ri tashkil qilishning muhim sharti bo'lib, ularni ilmiy jihatdan turkumlash va baholash hisoblanadi.

16 sonli (IAS) BHXS da "Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo'ljallangan moddiy aktivlardir: (a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko'rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan; (b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan" deb tarif berilgan.

Mol-mulkdarni asosiy vositalar tarkibiga o'tkazish tartibi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2003 yil 9 oktyabrdagi 114-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-BHMS) "Asosiy vositalar" (2004 yil 20 yanvarda 1299-son bilan bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ("O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2004 yil, 3-son, 35-modda)ga muvofiq va ushbu mol-mulknini xarid qilish vaqtida olingan pasport va tavsiflar, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma va boshqa texnik hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- a) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;
- b) bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Korxonalar rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- a) maxsus asboblardan va moslamalardan (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli yo'naltirilgan asboblardan va moslamalardan);
- b) maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;
- v) ko'rpa-to'shak anjomlari;

g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblar va boshqalar);

d) oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;

e) tiklanishi bo'yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;

j) kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;

z) ov qurollari (trallar, to'rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).

Asosiy vositalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq korxonalar mulkiga o'tkazilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi.


Ko'p yillik ko'chatlarga, yerni tubdan yaxshilashga, ijaraga olingan asosiy vositalar ob'ektlariga kapital qo'yilmalar har yili butun ishlar majmuasi yakunlangan sanadan qat'i nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi.

15.2. Asosiy vositalarni turkumlash va ularni baholash.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt va firmalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni soddalashtirish maqsadida ular muayyan tasnif ko'rsatkichlari orqali guruhlariga bo'linadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy vositalarni turkumlash guruhlariga bo'lishning tasnif belgilari quyidagilardir:


- iqtisodiy mazmuniga ko'ra, ya'ni, bajaradigan vazifasiga ko'ra;
- ob'ektlardan foydalanish darajasiga ko'ra;
- ob'ektlarning joylashgan joyi (javobgarlik markaz)lari bo'yicha
- soliq solish maqsadida guruhlash



15.1-rasm: Asosiy vositalarni turkumlash

Makroiqtisodiy hisob-kitoblarni yuritish maqsadida asosiy vositalar bajaradigan vazifasiga ko‘ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarishdagi asosiy (fondlar) vositalariga bo‘linadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari bevosita moddiy ne‘matlarni yaratishda ishtirok etadigan vositalaridir. Noishlab chiqarish asosiy vositalari guruhiga uy-joy hamda kommunal-xo‘jalik, maishiy xizmat, sog‘liqni saklash, ta‘lim va boshqalarning asosiy vositalari kiritiladi. Makroiqtisodiy darajada iqtisodiyot tarmoqlarining turkumlanishiga muvofiq asosiy vositalar quyidagi tarmoqlar va faoliyat turlariga bo‘linishi mumkin: sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa, qurilish, savdo va boshqalar tarmoqlar bo‘yicha turkumlanadi.

Mikroiqtisodiy darajada, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning hisob-kitoblarni yuritish maqsadida asosiy vositalar bajaradigan vazifasiga ko‘ra quyidagicha turkumlanadi:



15.2-rasm: Asosiy vositalarni bajaradigan vazifasiga ko'ra turkumlash

Yer - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikka binoan xo'jalik yurituvchi sub'ektga mulk tarzida berilgan yer maydonidir. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 17-moddasiga binoan, "Yuridik shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin". Yerning qiymatiga uni xarid qilishda auksiondan yutub olingan bayonnomada ko'rsatilgan narxi, ko'chmas mulk agentlariga to'lanadigan komission to'lovlar, advokatlar xizmati uchun haq, xarid qilishdagi soliq to'lovlari, drenaj qiymati, yerni tozalash va boshqa xarajatlar ko'shiladi. Bu yuridik shaxslar qishloq yoki o'rmon xo'jaligini yuritishdagi korxonalar binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanayotgan yerlar, korxonalar binolar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi o'tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari bo'lishi mumkin.

Yerni obodonlashtirish bo'yicha kapital xarajatlar tarkibiga yerning unumdorligini oshirish, avtomobil va boshqa transport turlariga to'xtash joylarini barpo etish hamda shunga o'xshash boshqa xarajatlar kiradi.

Yerni obodonlashtirish - o'tish yo'llari, avtomobillar va boshqa transport vositalari to'xtash joylari, to'siqlar va obodonlashtirishning boshqa turlari qiymati bilan birgalikda yer maydonini obodonlashtirishga taalluqli xarajatlar.

Yer uchastkalari, o'rmon va suv mulklari, ko'p yillik o'simliklarga inventar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalar asosiy vositalar tarkibiga har yili o'z jami ishlari nihoyasiga yetkazilgan yoki yetkazilmaganligidan qat'iy nazar, foydalanish uchun qabul qilingan maydonlarga oid xarajatlar summasida kiritiladi. Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish - uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish bilan bog'liq kapital xarajatlar.

Binolar, inshootlar va uzatgich moslamalari – ularga ishlab chiqarish, ma'muriy, ijtimoiy-maishiy maqsadli binolar kiradi.

Ushbu bo'linmaning tasnif ob'ekti bo'lib har bir alohida turuvchi bino hisoblanadi. Agar binolar bir-biriga tutashib ketgan va umumiy devorga ega bo'lsa, lekin har biri mustaqil konstruktiv yaxlitlikni tashkil qilsa, ular alohida ob'ektlar hisoblanadi.

Mustaqil xo'jalik yuritish ahamiyatiga ega bo'lgan binoning tashqi qo'shimcha qurilmalari, qozonxonalarning alohida binolari, xovlidagi imoratlar (omborlar, garajlar, to'siqlar, devorlar, quduqlar va boshqalar) mustaqil ob'ektlar hisoblanadi.

Binoga qo'shib qurilgan xonalar va do'konlar, oshxonalar, sartaroshxonalar, atelelar, xo'jalik buyumlari punktlari, bolalar bog'chalari, yaslilar, aloqa bo'limlari, banklar va binoning asosiy vazifasidan farqli boshqa vazifaga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar uchun moslashgan boshqa xonalar mustaqil inventar ob'ektlari hisoblanadi.

Binolar tarkibiga ulardan foydalanish uchun zarur bulgan binoning ichidagi quyidagi kommunikatsiyalar kiradi:

isitish uchun kozonxona uskunalari ham hisobga olgan holda isitish tizimi;
barcha mexanizmlar bilan suv , gaz ta'minoti va kanalizatsiyaning ichki tarmoklari;

ichki telefon va signalizatsiya tarmoklari;

yukkutargichlar va liflar.

Binolarga ishlab chiqarish korpuslari, sexlar, ustaxonalar, boshqarma binosi, omborxonalar, turar-joy binolari va boshqa ishlab chiqarish, ma'muriy-xo'jalik va ijtimoiy-maishiy maqsadlardagi ob'ektlar, shuningdek, ulardan to'g'ri foydalanish

uchun zarur bo'lgan jami kommunikatsiya vositalari (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta'minoti tizimi, ichki telefon va signalizatsiya vositalari, lift xo'jaligi) kiradi.

Inshootlar. Ularga ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadigan yoki turli noishlab chiqarish vazifalarini amalga oshiradigan muhandislik-qurilish ob'ektlari kiradi.

Har bir alohida ob'ekt u bilan yagona yahlitlikni tashkil qiladigan barcha qurilmalari bilan birga inshoot sifatida chiqadigan ob'ekt hisoblanadi. Misol uchun, neft qudug'i o'z ichiga minora va atrofiga qurilgan trubalarni oladi, to'g'on o'z ichiga to'g'onning butun maydonini, filtrlar va drenajlarni, sementlangan qoplamalarni, suv darvozasi va oqavalarni, qiya yerlarni mustahkamlashni, to'g'onning maydoni bo'ylab avtomobil yo'llarini, ko'priklarni, maydonchalarni, to'siqlarni, ko'priklar o'z ichiga panjara qurilmalarini, tirgovichlarni, ko'priklar ko'tarmasini, himoya to'sinlarini o'z ichiga oladi va shu bilan birga osma yo'llar, quvurlar, transport va yo'lovchi tunnellari, ko'cha yoritish chiroqlari, shaharni sanitariya-tozalash inshootlari va boshqalar ham kiradi.

Inshootlarga mehnat jarayoni va uning natijalarini o'zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonlarining texnikaviy yoki umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladigan ob'ektlar (neft va gaz quduqlari, shaxta yo'llari, avtomobil yo'llari, ko'priklar, estakadalar, suv omborlari va boshqalar) kiradi.

Mashina va asbob-uskunalar. Mashina va uskunalar – asosiy vositalarning eng asosiy turi hisoblanadi va o‘z navbatida quyidagi guruhlardan tarkib topadi:

- energetik uskunalariga - kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib beradigan generator-mashinalar, dvigatel mashinalar (qozonxonalar, bug‘ dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar) dir;

- ish mashinalari va uskunalariga - mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo‘sinda texnologik ishlov berishga, ularni ishlab chiqarish jarayonida qo‘zg‘atish, qazib olish, eritish, tayyorlashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar) dir;

- o‘lchov va roslash moslamalariga ma’lumotlarini tahlili qilish, qayta ishlash va taqdim qilish uchun ulchov asboblari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jarayonlarini roslash uskunolari, blokirovka apparaturasi, dispecher nazoratining chizikli uskunolari, signalizatsiya inshootlari va uskunolari, dispecher nazoratining markaziy va translyatsiya punktlari, samolyotlarni boshqarishning yerga joylashgan radionavigatsiya vositalari – radiomayaklar, lokatsiya kurilmalari.

- uchish-kunish yulaklarining yoruglik texnik inshootlari. Shuningdek tarozilar, dozatorlar, manometrlar, termostatlar, ilmiy-tadkikot laboratoriyalari, seysmik stansiyalar apparaturasi va boshqalar kiradi;

- boshqa mashina va uskunalariga -- yuqorida sanab o‘tilmagan mashina va jihozlar (o‘t o‘chirish va boshqa maxsus mashinalar) kiradi.

Uzatish moslamalari. Energiya va axborotlarni yetkazish uchun tugallangan funksional uskunalar. Bunga elektr uzatish liniyalari, issiqlik o‘tkazgichlar, turli vazifali quvur o‘tkazgichlar, radiorele liniyalari, aloqa kabel liniyalari inshootlari va qator shunga o‘xshash ob’ektlardir.

Bular mashina-dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek, suyuq va gazsimon moddalarni bir ob’ektdan boshqa ob’etga yetkazib berishga xizmat qiladi.

Uzatuvchi moslamalarga mashina-dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek, suyuq va gazsimon moddalarni bir ob'ektdan boshqa ob'ektga yetkazib berishga xizmat qiladigan qurilmalar (elektr uzatish yo'llari, quvur yo'llari, issiqlik va gaz tarmog'i hamda boshqalar) kiradi.

Mashina va jihozlarning asosiy vositalarning eng asosiy turi hisoblanadi va o'z navbatida quyidagi guruhlardan tarkib topadi:

kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib boradigan generator-mashinalar, dvigatel mashinalar (qozonxonalar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar)dir;

ish mashinalari va jihozlari mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo'sinda texnologik ishlov berishga, ularni ishlab chiqarish jarayonida qo'zg'atish, qazib olish, eritish, tayyorlashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar) dir;

o'lchov va rostlash asboblari hamda qurilmalari va laboratoriya jihozlari foydalaniladigan texnika ishida turli parametr (ko'rsatkich)larni o'lchash, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, xom ashyo, TMZlar va tayyor mahsulotlar sifatini tekshirish, namlik darajasi, shovqin ta'siri va boshqalarni o'lchashda ishlatiladi. Ularga manometrlar, tarozilar, mikroskoplar, dispetcherlik nazorati va boshqalar kiradi;

hisoblash texnikasi ma'lumotlarni elektron hisoblash mashinalarida qayta ishlaydigan vositalardir. Ularga kompyuterlar, printerlar va boshqa kompyuter vositalari kiradi;

boshqa mashina va jihozlarga yuqorida sanab o'tilmagan mashina va jihozlarning (o't o'chirish va boshqa maxsus mashinalar) kiradi.

Mebel va ofis jihozlari. Mebel va idora anjomlari - ishlab chiqarish va ma'muriy foydalanish uchun mo'ljallangan mebel va anjomlar. Ushbu guruhga stollar, javonlar, mebel to'plamlari, kreslolar, temir sandiqlar va hokazolar kiradi.

Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi. Kompyuter uskunalari va hisoblash texnikalari ma'lumotlarni o'zgartirish va saqlashga mo'ljallangan uskunalar. Ularga aloqa tizimlari inshootlari, o'lchash va tashkiliy texnika vositalari, ma'lumotlarni saqlash vositalari, teatr-sahna uskunalari kiradi.

Hisoblash texnikalariga ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlaydigan, shunga o'xshash va aynan raqamli mashinalar, elektron, elektromexanik va mexanik hisoblash komplekslari va mashinalari, turli masalalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni saqlash, qidirish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan moslamalar kiradi. Tashkiliy texnikaga – ko'paytirish, nusxa olish texnikasi, yozuv mashinalari, kalkulyatorlar va boshqalar kiradi.

Transport vositalari. Transport vositalari kishilar hamda yuk va turli maqsadlardagi narsalarni tashishga mo'ljallangan harakat vositalari (temir yo'l, suv, avtomobil, kommunal transporti va muhim neft quvur yo'llari)dir. Transport vositalari - odamlar va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan harakat vositalari – temir yo'l harakat tarkibi; suv transporti harakat tarkibi; avtomobil transporti harakat tarkibi; havo transporti harakat tarkibi; shahar transporti harakat tarkibi, shuningdek boshqa turdagi transport vositalari kiradi. Boshqa turdagi transport vositalariga yuk va odamlarni tashishga mo'ljallangan maxsus kuzovli transport vositalari kiritilishi mumkin.

Asosiy vazifalari yuk va odam tashish uchun emas, balki ishlab chiqarish yoki xo'jalik-maishiy vazifalar hisoblangan ixtisoslashtirilgan va qaytadan uskunalangan avtomobillar va avtomobil va traktor tirkamalari, temir yo'l vagonlari (ko'chma elektrostansiyalar, ko'chma transformator uskunalari, ko'chma ustaxonalar, vagon-laboratoriyalar, ko'chma diagnostik uskunalar, vagon-uylar, ko'chma oshxonalar, magazinlar, dushxonalar, klublar, idoralar va shu kabilar) transport vositalari emas, tegishli vazifani bajaruvchi harakatdagi korxonalar deb hisoblanadi va binolar (tegishli statsionar korxonalariga o'xshab) va uskunalari sifatida hisobga olinadi.

Tasnif ob'ekti bo'lib barcha asboblari va jihozlari bilan har bir alohida ob'ekt hisoblanadi.

Asbob va uskunalar ko'l mehnati jarayonida ishlatiladigan yoki ish qismlarini kuchaytirish, oshirish uchun mashinaga biriktiriladigan vositalar (elektro-drellar, vibratorlar)dir.

Ishlab chiqarish inventarlari ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirishda ishlatiladi. Ularning tarkibiga bak, konteyner, inventar idishlari kiradi.

Xo'jalik inventari idora (ofis) ishlarini va xo'jalikni yuritishda zarur bo'lgan narsalardir.

Ishchi va mahsuldor hayvonlar. Ish hayvonlari va mahsuldor chorva har bir yetilgan mol (ot, ho'kiz, sigir)lar bo'lib, alohida inventar ob'ekti sifatida hisobda aks ettiriladi. Ish hayvonlari va mahsuldor mollar - ishchi kuchi sifatida foydalaniladigan mollar - otlar, ho'kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ish hayvonlari (ot arava transporti sifatida foydalaniladigan transport otlari va boshqa hayvonlarni hisobga olganda), shuningdek mahsulot beradigan (tug'ilgan nasl, sut, jun va boshqalar) qoramollar, qo'toslar, ayg'ir buqalar, nasldor biyalar (ishchi hayvonlardan tashqari), sovliq qo'ylar va hokazolar. Tasnif ob'ekti bo'lib, har bir katta hayvon hisoblanadi.

Ko'p yillik o'simliklar. Ko'p yillik o'simliklar - yoshidan qat'iy nazar sun'iy yo'l bilan yetishtirilgan ko'p yillik o'simliklarning barcha turlari. Ko'p yillik daraxtlar alohida xiyobon, park, bog'dagi miqdori va yoshidan qat'iy nazar eqilgan daraxtlar guruhidir. Shu jumladan:

- meva-rezavor o'simliklarning barcha turlari (daraxtlar va butalar); ko'chalardagi, maydonlardagi, bog'lardagi, hiyobonlardagi, korxonada xududlaridagi, uy-joy xovlilaridagi ko'kalamzorlashtiruvchi va dekorativ o'simliklar;

- chakalak g'ov, qor va dalani to'sadigan yo'llar, qumlar va daryo qirg'oqlarini mustahkamlash uchun eqilgan o'simliklar, jar va soy yoqalariga ekiladigan o'simliklar va shu kabilar;

- ilmiy-tadqiqod maqsadlari uchun botanika bog'lari, boshqa ilmiy-tadqiqod tashkilotlari va o'quv yurtlarida sun'iy tarzda yetishtirilgan o'simliklar.

Ushbu bo'linmaning tasnif ob'ektlari bo'lib soni, yoshi va turidan qat'iy nazar har bir bog', hiyobon, ko'cha, xovli, korxonada xududidagi yashil o'simliklar to'laligicha;

har bir o'simlikni alohida o'rashni hisobga olgan holda ko'cha, yo'l yoqasidagi yashil o'simliklar;

dalani to'sadigan yo'lning har bir uchastkasining o'simliklari hisoblanadi.

Boshqa asosiy vositalar - yuqorida keltirilgan guruhlarda sanab o'tilmagan asosiy vositalar. Ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan, lekin inshootlarga ham, uskunalarga ham kiritilmaydigan texnik maqsadli vositalar. Bular suyuqliklarni saqlash idishlari (chanlar, bochkalar, baklar va shu kabilar), inshootlarga kirmaydigan, sochiladigan, to'kiladigan, donali va idish-donali mahsulotlar uchun jihozlar va idishlar, ishlab chiqarish operatsiyalarini yengillashtirishga xizmat qiladigan mebel va jihozlar (ish stollari, muzlatgich peshtaxtalari va issiqlik peshtaxtalaridan tashqari peshtaxtalar, savdo javonlari, stellajlar va shu kabilar);

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita foydalanilmaydigan idora va xo'jalik anjomlari vositalari – yong'inga qarshi kurashish vositalari, sport inventarlari;

- kutubxona jamg'armalari va boshqalar.

Tasnif ob'kti sifatida faqat mustaqil vazifaga ega bo'lgan va biror bir boshqa ob'ektning qismi hisoblanmagan vositalargina bo'lish mumkin.

Konservatsiyalangan asosiy vositalar - hukumat idoralarining qarorlari asosida zaxiraga o'tkazilgan va konservatsiyalangan asosiy vositalar. Qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni va asosiy fondlarni konservatsiyalash va konservatsiyalashdan chiqarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 20 avgustdagi 397-son maxsus qarori bilan tasdiqlangan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriyasida asosiy vositalar korxonada faoliya (ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi) qarab ishlab chiqarishga

taalluqli bo'lgan asosiy vositalar va ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan ob'ektlarga bo'linadi.


Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va unga xizmat qiladigan mehnat vositalari *ishlab chiqarishning asosiy fondlari* deb ataladi. Ularning ishlab chiqarish jarayonida qatnashishdagi roli har xil, ba'zilari, masalan, mashinalar, uskunalar, asbob-uskunalar ishlab chiqarishda mehnat qurollari sifatida qatnashadi, ba'zilari esa ishlab chiqarish jarayonining to'htovsiz ishlab turishini ta'minlaydi, masalan, inshootlar, yana boshqalari esa, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoit yaratib beradi. Masalan, ishlab chiqarish binolari, yo'llar va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydigan ob'ektlarga uy-joy-kommunal ho'jaligi vositalari, sog'liqni saqlash muassasalarining asosiy vositalari (ka-salhona, ambulatoriya, poliklinika), madaniyat va maorif muassasalariga qarashli ob'ektlar (zavod klublari, teatrlar, kutubhona, bolalar muassasalari) va boshqalar kiradi.

Foydalanilishi nuqtai nazaridan asosiy vositalar harakatdagi (foydalanishdagi), zaxiradagi va foydalanilmaydigan (konservatsiyadagi) ob'ektlarga bo'linadi.


U yoki bu xo'jalik yurituvchi sub'ektga qarashliligi nuqtai-nazaridan asosiy vositalar korhonaning o'ziga qarashli va ijaraga olingan ob'ektlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida asosiy vositalar ob'ektlardan foydalanish darajasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:



15.3-rasm: Asosiy vositalardan foydalanish darajasiga ko‘ra turkumlanishi

Asosiy vositalarning bunday guruhlanishi ulardan foydalanish samaradorligini baholash, eskirgan vositalarni almashtirish, keraksiz asosiy vositalarni boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektga berish yoki sotish to‘g‘risida qaror qabul qilish, shuningdek, ularning eskirishini to‘g‘ri hisob-kitob qilish uchun zarur.




15.4-rasm: Asosiy vositalarni joylashgan joyi (javobgarlik markaz)lari bo‘yicha turkumlanishi

Masalan, sanoat xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida “Sanoat” tarmog‘iga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda xo‘jalik

yurituvchi sub'ektning transport moddiy-texnika ta'minoti, ombor xo'jaligi va boshqa bo'limlarining asosiy vositalari kiradi.

Sanoat xo'jalik yurituvchi sub'ektlari balansida aks ettiriladigan yordamchi qishloq xo'jalik bo'limiga qarashli ob'ektlar "Qishloq xo'jalik tarmog'i", uy-joy-kommunal xo'jaligiga qarashli ob'ektlar "Aholiga maishiy hizmat ko'rsatish" va "Uy-joy-kommunal ho'jaligi" tarmog'iga kiradi.

"Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalar quyidagi baholarda baholanadi:



15.5-rasm: Asosiy vositalarning baholanishi

Boshlang'ich (dastlabki) qiymat aktivni xarid qilishda haqiqatda to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir. Xarid qilishning haqiqiy qiymati asosiy vositani xarid qilish va uni ishlatish uchun tayyor holga keltirishda qilingan barcha xarajatlarni, ya'ni: xarid narxi, yuridik yig'imlar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalarni xarid qilish evaziga sotib olingan asosiy vositalar ob'ektining boshlang'ich qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- asosiy vositalarni yetkazib beruvchilarga hamda shartnoma bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan summalar;
- asosiy vositalar ob'ektiga doir huquqni sotib olish (olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish yig'imlari, davlat bojlari va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

- bojxona bojlari va yig'implari;
- asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig'implar summolari (agar ular qoplanmasa);
- asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) bilan bog'liq informatsiya va maslahat xizmatlari uchun to'langan summalar;
- asosiy vositalar ob'ektlarini yetkazib berish (barpo qilish) xatarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;
- asosiy vositalar ob'ektini sotgan vositachilarga to'lanadigan haqlar;
- asosiy vositalarni o'rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;
- aktivdan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashga doir xarajatlar qarzga olingan sarmoya hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi.

Asosiy vositalar asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarda quyidagi ob'ektlar uchun aniqlanadigan boshlang'ich qiymatda hisobga olinadi:

- korxonaning ustav kapitaliga ta'sischi tomonidan ularning ulushi hisobidan kiritilgan ob'ektlar - tomonlarning kelishuviga asosan;
- korxonaning o'zida tayyorlangan shuningdek, to'lov evaziga boshqa korxonadan sotib olingan ob'ektlar - ushbu ob'ektlarni (inshoot, qurish, tiklash) barpo etishga ketgan haqiqiy xarajatlardan kelib chiqib yoki ushbu ob'ektlarni xarid qilishda, to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (boshqa majburiy to'lovlar) shuningdek, yetkazib berish, yig'ish, o'rnatish, ishga tushirish va ushbu aktivni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda; (O'zR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i taxriridagi kichik band);
- boshqa korxonadan sotib olingan shuningdek, hukumat idoralari tomonidan subsidiya ko'rinishida olinganlari - qabul qilish sanadagi bozor bahosi yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarida ko'rsatilgan qiymat bo'yicha.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati faqat qayta qurilganda, ta'mirlanganda va qisman tugatilganda hamda qayta baholangan hollarda o'zgartirilishi mumkin.

Tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko'rsatilgan aktivning boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi;

Qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

16 sonli BHXS(IAS) "Asosiy vositalar" deb nomlangan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida asosiy vositalarni baholashda quyidagicha qiymatlaridan foydalanadi:

Balans qiymati – bu har qanday jamg'arilgan eskirish va yig'ilgan qadrsizlanish bo'yicha zararlar chegirib tashlanganidan so'ng aktivning tan olinadigan summasidir.

Tannarx – bu aktivni uning xaridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to'langan pul mablag'i yoki pul mablag'i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki, tegishli hollarda, boshqa BHXS'larning, masalan BHXS 2 "Aksiyaga asoslangan to'lov"ning aniq talablariga muvofiq ushbu aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatdir.

Eskirish hisoblanadigan qiymat – bu aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannarxi yoki tannarx o'rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatdir.

Eskirish – bu aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borishdir.

Tadbirkorlik sub'ektiga xos qiymat - bu tadbirkorlik sub'ekti tomonidan aktivdan davomiy foydalanishidan va foydali xizmat muddati oxirida balansdan chiqarishdan yoki majburiyat so'ndirilganida kutiladigan pul oqimlarining keltirilgan qiymatidir.

Joriy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. (MHXS 13 "Haqqoniy qiymatni baholash" ga qarang).

Qoplanadigan qiymat – bu aktivning quyidagi qiymatlaridan yuqorirog'i: sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymati va uning foydalanishdagi qiymati.

Aktivning tugatish qiymati - bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan harajatlarni chegirilgan holda, tadbirkorlik sub'ekti ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek aktivning chiqib ketishidan oladigan baholangan qiymatidir.

"Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalarni tashkilot tekinga olgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati ekspert yo'li bilan bozor narxida baholangan qiymat bo'yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy vositani kirim qilingan sanada amal qilgan narx asosida joriy bozor qiymati shakllantiriladi. Amaldagi narx to'g'risidagi ma'lumotlar ham hujjatlar va ekspert yo'li bilan tasdiqdanishi kerak.

Sotish qiymati asosiy vositalarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

Asosiy vositani pulga xarid qilinsa, uning qiymati kontraktida ikkilamchi bozorda faol ishlayotgan shu singari aktivga aniqlangan bozor narxi bo'yicha ko'rsatilishi mumkin.

Asosiy vositani xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo'lgan hollarda asosiy vosita haqiqiy tannarx bo'yicha aks ettiriladi.

“Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalarni ba’zi vaqtlarda qayta baholashga ehtiyoj tug’iladi. Asosiy vositalarni qayta baholaganda asosiy vositaning butun zanjiri qayta baholanishi kerak. Qayta baholash natijasida asosiy vositaning balans qiymati ko‘paygan holda ushbu ko‘payish avvalgi bahodan oshadigan summada 8510-“Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining kreditida aks etirilishi lozim. Qayta baholash natijasida asosiy vositaning balans qiymati kamaygan bo‘lsa, bu kamayish avvalgi bahodan oshadigan summada xarajat sifatida tan olinadi.

Korxonada ustav sarmoyasiga ulush hisobidan olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb, agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, korxonada muassislari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosi tan olinadi.

Korxonada tomonidan tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb mazkur standartning 11-bandida nazarda tutilgan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning joriy qiymati tan olinadi.

Tayyor mahsulot tarkibidan asosiy vositalarga o‘tkazilgan ob’ektlarning boshlang‘ich qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlarni tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami, 1999 y., 2-son, 9-modda) muvofiq belgilanadigan ularning ishlab chiqarish tannarxiga teng bo‘ladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan (tayyor mahsulotlardan tashqari) asosiy vositalarga o‘tkazilgan ob’ektlarning boshlang‘ich qiymati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda 44-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ga (ro‘yxat raqami 486, 1998 yil 28 avgust, Me‘yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y., 5-son) muvofiq belgilanadigan ularning balans qiymatiga teng bo‘ladi

15.3. Asosiy vositalarni xo‘jalik sub’ekti balansiga kirim qilish yo‘llari.

Asosiy vositalarni korxonaga balansiga kirim qilinishi quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

a) kapital qo‘yilmalar tugaganidan so‘ng tiklangan ob’ektni qabul qilish-topshirish;

- ◆ oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha ob’ektni sotib olish;
- ◆ ustav sarmoyasiga ta‘sischi ulushi ko‘rinishida kelib tushish;
- ◆ tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo‘yicha);
- ◆ ayirboshlash;
- ◆ tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan o‘tkazish;
- ◆ uzoq muddatli ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olish;
- ◆ qiymati belgilangan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar;
- ◆ asosiy vositalarning ortiqcha (hisobga olinmagan) ob’ektlarini aniqlash.

Asosiy vositalar xo‘jalik yurituvchi sub’ektga qabul qilinayotganda maxsus tuzilgan komissiya tomonidan asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini (AV-1 shakl) tuzish bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomada asosiy vositalarning dastlabki bahosi, eskirish summasi, qabul qilinayotgan vositaning qisqacha tavsifi, komissiya a‘zolarining ismi-sharifi, moddiy javobgar shaxs tomonidan qabul qilinishi ko‘rsatiladi. Bunda ushbu dalolatnomaga ta‘riflovchi texnik va boshqa hujjatlar ilova qilinadi va dalolatnoma xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tasdiqlangandan so‘ng xo‘jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriyasiga beriladi, shu dalolatnoma asosida har bir ob’ektga inventar varaqasi ochiladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha asosiy vositalarni sotib olish

Haq to‘lash evaziga qabul qilingan asosiy vositalarni baholashda dastlabki qiymatiga quyidagilar kiritiladi:

- oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha asosiy vositalar ob’ektlari yetkazib beruvchisiga to‘lanadigan summalar;

- boshqa tashkilotlarga asosiy vositalarni qabul qilish bilan bog‘liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to‘lanadigan summalar;

- olinayotgan asosiy vositalarni tashib va kuzatib berganligi uchun tashuvchilarga to‘lanadigan summalar;

- sotib oluvchi korxonaning asosiy vositalar ob‘ektlarini olish bilan bog‘liq o‘z xarajatlari, masalan, asosiy vositalarni sotib olish uchun xizmat safariga yuboriladigan xodimlarning safar xarajatlari;

- ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imlari, davlat bojlari va asosiy vositalar ob‘ektlariga bo‘lgan huquqni olish bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan shunga o‘xshash to‘lovlar;

- bojxona bojlari va boshqa to‘lovlar;

- asosiy vositalar ob‘ektlarini sotib olish bilan bog‘liq holda to‘lanadigan, o‘rni qoplanmaydigan soliqlar;

- asosiy vositalarni sotib olishda vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan haq;

- asosiy vositalar ob‘ektlarini sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Asosiy vositalar ob‘ektlarini sotib olishda o‘rni qoplanmaydigan soliqlar va yig‘imlarga bojxona to‘lovlari, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, asosiy vositalarning alohida ob‘ektlari bilan bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda to‘lanadigan davlat boji, qonun hujjatlariga asosan davlat idoralariga to‘lanadigan turli majburiy to‘lovlar va boshqalar kiradi.

Asosiy vositalarni yetkazib beruvchiga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i miqdori hisobdan chiqarishga qabul qilinmaydi, balki asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga kiritiladi.

Keyinchalik asosiy vositalarning dastlabki qiymati asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash tizimi orqali qoplanishi kerak bo‘ladi. Asosiy vositalarning dastlabki qiymatidan “Asosiy vositalar” 5-son BHMS tavsiya qilayotgan barcha tavsiyalarni qo‘llagan holda amortizatsiyani hisoblashda foydalaniladi.

Asosiy vositalar chet el valyutasiga olinishi mumkin. Lekin hatto ushbu hollarda ham ularni baholash Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 16 noyabrda

1085-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Chet el valyutasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan so'mda amalga oshirilishi kerak. Baholash chet el valyutasini asosiy vositalar ob'ekti xarid qilingan sana holatida Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Qabul qilingan sana deb ushbu ob'ektga mulk, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqarish huquqi o'tgan sana hisoblanadi.

Bunday hollarda to'lov va asosiy vositalarni hisobga qabul qilish sanasi o'rtasida vaqtinchalik uzilish sababli kurs farqi vujudga keladi. Kurs farqi xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy natijalariga moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari (xarajatlari) sifatida kiritiladi va «Moliyaviy natijalar to'g'risida» gi hisobotda (2-son shakl), "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlar" satri bo'yicha "Korxonada moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisoboti"» statistik hisobotida (1-f-son shakl) "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlari" satri bo'yicha, "Korxonaning xarajatlari to'g'risida hisobot"da va boshqa statistik hisobotlarda tegishli moddalar bo'yicha aks ettiriladi.

Manfiy kurs farqi vujudga kelgan aksincha holatda ushbu farqni moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar tarkibida zarar sifatida aks ettirish kerak.

Asosiy vositalar ob'ektlariga import operatsiyalari orqali ega bo'lishda va chet el valyutasida haq to'lashda kurs orasidagi farqlar yuqorida keltirilgan misolga o'xshash tartibda aks ettiriladi. Chet el valyutasiga olingan asosiy vositalar ob'ektlari kirim qilinganidan so'ng balansning valyuta moddalari sifatida har oyda qayta baholanishi kerak bo'lmaydi.

Ustav kapitaliga ulush sifatida olingan asosiy vositalar. Korxonaning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'yilgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati ob'ektning korxonada ta'sischi bilan kelishilgan pul bahosidir.

Korxonaning ustav kapitaliga pulsiz ulushlarni baholash ko'p hollarda korxonaning tashkiliy huquqiy shakllariga bog'liq.

Chunonchi, mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitaliga ulush sifatida kiritiladigan asosiy vositalarning qiymat bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi (2001 yil 6 dekabrda 310-P-son "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasi).

Aksiyadorlik jamiyatlarining nizom jamgarmasiga hissa sifatida kiritiladigan asosiy vositalarni baholashda shuni yodda tutish lozimki, agar jamiyatning shu yo'sinda sotib olinayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariniig nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordagi ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, asosiy vositalarning puldagi bahosini mustaqil baholovchi (auditor) chiqarishi kerak. Bu narsa 1996 yil 26 apreldagi 223-I-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasida nazarda tutilgan.

Tekinga olingan asosiy vositalar. Korxonadan hadya shartnomasi va tekinga olishning boshqa hollari bo'yicha olingan asosiy vositalar ob'ektining dastlabki qiymati bo'lib uning kiritilish sanasiga bo'lgan qiymati yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarida ko'rsatilgan qiymati hisoblanadi (21-son BHMS 5-bandi).

Soliq solish maqsadida tekinga olingan asosiy vositalarning qiymati daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliq solinadigan bazaga kiritiladi (Adliya vazirligida 2002 yil 13 martda 1109-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 10 "d"-bandi).

Ko'chmas mulk ob'ektlari buxgalteriya hisobiga faqat ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan boshlabgina olinishi kerak. Bunda korxonaning barcha xarajatlari, shu jumladan, huquqni ro'yxatdan o'tkazish va maqsadli foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish asosiy vositalar ob'ektining dastlabki qiymatiga kiritiladi.

Xo'jalik usuli bilan yaratilgan asosiy vositalar. Korxonadan o'z kuchi bilan, ya'ni xo'jalik usuli bilan asosiy vositalar ob'ektini yaratishda 0810-

“Tugallanmagan qurilish” hisobvarag‘i debeti bo‘yicha o‘sib boruvchi yakun bilan ushbu ob‘ektning yaratish bo‘yicha barcha xarajatlarni hisobga olishi kerak. Bunda 0810-hisobvaraqa smetalari, smeta moliyaviy hisob-kitoblari va kapital qurilishga (ushbu qurilish pudrat asosida yoki xo‘jalik yuritish yo‘li orqali amalga oshirilishidan qat‘iy nazar) titul ro‘yxatlarda nazarda tutilgan bino va inshootlarni qurish, uskunalari, asbob va boshqa vositalarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olinadi. 0810-hisobvaraqa debeti bo‘yicha yig‘ilgan barcha xarajatlarni foydalanishga topshirilayotgan asosiy vositalar ob‘ektning dastlabki qiymatini tashkil qiladi. Foydalanishga topshirish 0110-0190 hisobvaraqlar debeti va 0810-“Tugallanmagan qurilish” hisobvarag‘i krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvida aks ettiriladi.

Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar.

Uzoq muddatli ijara shartnomasi shartlarida ijaraga oluvchining ijaraga beruvchining roziligi bilan ijaraga olingan mol-mulqdan ajralmas hisoblanadigan mulkni takomillashtirish huquqi ko‘zda tutilishi mumkin. 21-son BHMSda “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olinadigan asosiy vositalarni o‘zlashtirish” 0112-maxsus hisobvarag‘ida uzoq muddatli ijara shartnomasi asosida olingan asosiy vositalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan kapital xarajatlarni hisobga olish tartibi nazarda tutilgan. Uzoq muddatli ijara shartnomasi asosida olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish bo‘yicha kapital xarajatlarga, shuningdek, asosiy vositalar ob‘ektlarini qayta qurish va zamonaviylashtirish xarajatlari kiradi. Ijaraga olingan asosiy vositalarga tugallangan kapital qo‘yilmalar ijaraga oluvchi tomonidai o‘zining asosiy vositalari tarkibiga kiritiladi. Bunday ob‘ektlarni baholash haqiqatda qilingan xarajatlarni summasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

15.4. Kapital qo‘yilmalarni hisobga olish.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarga investitsiyalari, shuningdek, mahsuldor va ishchi hayvonlarning (qiymatidan qat‘iy nazar, korxonaning aylanma mablag‘lariga kiruvchi parrandalar, quyonlar, asalarilar, qo‘riqlovchi itlar, tajriba uchun mo‘ljallangan hayvonlardan tashqari)

asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun quyidagi schyotlarda yuritiladi:

0810 "Tugallanmagan qurilish";

0820 "Asosiy vositalarni xarid qilish";

0830 "Nomoddiy aktivlarni xarid qilish";

0840 "Asosiy podani tashkil qilish";

0850 "Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar";

0860 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar";

0890 "Boshqa kapital qo'yilmalar".

Tegishli shartnomalar asosida xo'jalik yurituvchi sub'ekt mutaxassislari va chetdan jalb etilgan mutaxassislar kuchi bilan barpo etilgan asosiy vositalar ob'ektlari 0810-"Tugallanmagan qurilish" schyotining krediti bilan korrespondensiyada 0110-0190-schyotlar debeti bo'yicha haqiqiy tannarxiga qarab asosiy vositalar sifatida kirim qilinadi.

Qurilish tugallanishigacha qadar bino 0120-"Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar" schyotida hisobga olinmaydi, chunki u hali foydalanishga topshirilmagan. Qurilish tugallanganidan keyin va foydalanishga topshirilganida 0810-schyotda jamlangan barcha xarajatlar summasi 0120-"Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar" schyotiga o'tkaziladi hamda keyingi oydan boshlab undan amortizatsiya hisoblanishi lozim.

Misol.

"MALIKA" hissadorlik jamiyati sex binosini o'z kuchi bilan qurib, foydalanishga topshirdi. Qurilishga xarajatlangan jami xarajat 92179000 so'mni tashkil qildi. Ushbu muomalaga hisobda quyidagicha provodka beriladi:

D-t 0120-"Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar" -92179000 so'm

K-t 0810-"Tugallanmagan qurilish" - 92179000 so'm.

Boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ekt va shaxslardan sotib olingan asosiy vositalarni 0830-"Asosiy vositalarni sotib olish", 0840-"Asosiy podani

shakllantirish”, 0890-“Boshqa kapital ko‘yilmalar” schyotlarining krediti bilan korrespondensiyada 0110-0190-schyotlar debeti bo‘yicha kirim qilinadi.

Misol.

2020 yil 1-fevralda “MALIKA” hissadorlik jamiyati yangi ishlab chiqarish faoliyati uchun bino sotib oldi, uning xarid qiymati – 6 000 000 ming so‘m, broker xizmati uchun 20000 ming so‘m hamda yurist xizmatiga 4500 ming so‘m to‘lagan, hujjatlarni rasmiylash-tirishga 2500 ming so‘m xarajat qilingan. Ushbu muomalaga hisobda quyidagicha provodka beriladi:

- bino xarid qilindi:

D-t 0820-“Asosiy vositalarni sotib olish”- 6 027 000 ming so‘m

K-t 5110-“Pul mablag‘lari” - 6 027 000 ming so‘m.

- bino balansga qabul qilindi:

D-t 0120-“Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar” -6 027 000 ming so‘m

K-t 0820-“Asosiy vositalarni sotib olish” - 6 027 000 ming so‘m

Foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalar bo‘yicha QQS ularning dastlabki qiymatini ko‘paytiradi hamda eskirish qiymatini oshirgan holda, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xarajatlariga sekin-asta o‘tkaziladi.

Boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ekt yoki jismoniy shaxslardan tekinga, shuningdek, hukumat organlarining subsidiyasi sifatida olingan asosiy vositalar 8530-“Tekinga olingan mol-mulk” schyoti bilan korrespondensiyada 0110-0190-schyotlar debeti bo‘yicha kirim qilingan sanada ekspert yo‘li bilan, bozor qiymati bo‘yicha belgilangan bahoda aks ettiriladi.

Misol.

Transport vositasi bepul olindi. Ushbu muomalaga hisobda quyidagicha provodka beriladi:

D-t 0160-“Transport vositalari”;

K-t 8530-“Tekinga olingan mol-mulk”.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, bepul olingan asosiy vositalarning qoldiq qiymati (idora ichida beriladiganidan tashqari) foyda (daromad) solig'ini hisoblash bazasiga kiritiladi va undan soliq undiriladi.

Ta'rischilar ustav kapitaliga ulush sifatida kiritgan yoki aksiyalar haqini to'lash hisobiga bergan asosiy vositalarni kirim qilish 4610-"Muassislarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari" schyoti krediti hamda 0110-0190-schyotlar debetida aks ettiriladi.

Misol.

Kompaniyaning muassislaridan biri "MAN" rusumidagi yuk tashuvchi avtomashinani ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha qarzini mazkur transport vositasini qo'shish yo'li bilan uzdi. Qiymati – 800 000 ming so'm. Ushbu muomalaga hisobda quyidagicha provodka beriladi:

D-t 0160-"Transport vositalari" - 800 000 ming so'm

K-t 4610-"Muassislar qarzlari" - 800 000 ming so'm.

Mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko'rsatish yoxud tashkilotni boshqarish uchun foydalanilmayotgan asosiy vositalar ob'ektlarining qiymati buxgalteriya balansidan hisobdan chiqarilishi kerak.

15.5.Asosiy vositalar xarakatini hujjatlashtirish.

Asosiy vositalar harakatini hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi.Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalar harakatini hisobga olishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

AV-1 shakli. Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi. Dalolatnoma har bir ob'ekt uchun yozilib, buxgalteriyaga beriladi va asosiy vositani hisobga olish inventar kartochkalariga yozish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

AV-2 shakli. Ta'mir qilingan, tiklangan va takomillashtirilgan ob'ektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi.

AV-3 shakli. Asosiy vositalarni tugatish to'g'risida dalolatnoma.

AV-4 shakli. Avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi.

AV-6 shakli. Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi. Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va ushbu ob'ekt texnik hujjatlari asosida har bir ob'ektga inventar kartochkasi ochiladi.

AV-7 shakli. Asosiy vositalarni hisobga olish bo'yicha inventar kartochkalari ro'yxati.

AV-8 shakli. Asosiy vositalar harakatini hisobga olish kartochkasi. Turkum guruhlari bo'yicha asosiy vositalar harakatini hisobga olish uchun ko'llaniladi. Kartochka ma'lumotlari asosida asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot to'lg'aziladi.

AV-9 shakli. Asosiy vositalar inventar ro'yxati.

Asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi sub'ektga kelib tushganda rahbar tayinlagan komissiya har bir ob'ekt bo'yicha alohida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (yukxat)ni rasmiylashtirishi lozim (AV-1 shakli).

Dalolatnomada ob'ekt tavsifi, turgan joyi, sotib olingan manbai, chiqarilgan yoki qurilgan yili, ishga tushirilgan sana, ob'ektning sinov natijalari, uning texnik shartlarga muvofiqdigi va boshqalar ko'rsatilishi lozim.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish umumiy dalolatnomasi bilan bir turdagi va narxi bir xil xo'jalik inventari, asboblari, stanoklar olinganligini rasmiylash-tirish mumkin. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga pasportlar, ishlatish tartibi, yo'riqnomalar ilova qilinadi.

Hisobga qabul qilingan asosiy vositalar har bir ob'ektiga inventar raqami (soni) beriladi, masalan 001 dan 099 gacha inventar raqamlari binolarga, 100 dan 199 gacha inshootlarga, 100 dan 299 ga qadar bo'lgan raqamlar uzatish qurilmalariga beriladi va hokazo. Berilgan inventar raqami asosiy vositalar ob'ektiga elektron shtrix kodlar, metall jetonni biriktirib qo'yish, bo'yoq bilan belgi qo'yish va boshqa usullarda belgilab qo'yiladi. Bu belgi ob'ekt foydalanishda bo'lgan jami davr uchun saklanadi va buxgalteriya hisobining barcha boshlang'ich hujjatlari hamda registrlarida ko'rsatiladi. Ob'ekt chiqim qilinganda uning inventar raqami yangi kirim qilingan asosiy vositalarga berilmaydi.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolat-nomasi ilova hujjatlar bilan birga xo‘jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriyasiga topshiriladi. Buxgalteriya dalolatnoma asosida belgilangan namunadagi inventar varaqasi ochadi (AV-6 shakli). Bu varaqada ob’ekt haqidagi barcha malumotlar qayd etiladi (dastlabki yoki tiklanish qiymati, amortizatsiya ajratmalari me’yori, kirim qilingan paytdagi eskirish darajasi). So‘ngra inventar varaqalari asosiy vositalarning tasnif guruhlari bo‘yicha maxsus ro‘yxat tuziladi (AV-7 shakli).

Ro‘yxatda qayd qilingan varaqalar asosiy vositalar kartotekasida tarmoq tasnif guruhlari, guruh ichida esa turgan joyi, foydalanish joyi va turlari bo‘yicha guruhlangan tartibda saqlanadi.

Harakatsiz asosiy vositalar ob’ektlari varaqalari alohida guruhlanadi. Asosiy vositalarning chiqimi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va bu haqida inventar varaqasiga qayd qilinadi, so‘ngra varaqa kartotekadan olib ko‘yiladi.

Qayta baholangan asosiy vositalar ob’ektlari tiklanish qiymati bo‘yicha varaqaning «tamirlash, modernizatsiyalash» bo‘limiga yoziladi.

Qayta baholash chog‘ida belgilangan eskirish summasi varaqaning tegishli bo‘limida ko‘rsatiladi.

Asosiy vositalar ishlatiladigan joylarda (xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sexlari, uchastkalari, bo‘limlari) hisob asosiy vositalarning inventar ro‘yxati bo‘yicha olib boriladi (AV-9).

shakli). Bunda hamma moddiy javobgar shaxslar bilan belgilangan namunada va ikki nusxada moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuziladi. Shartnomaning bir nusxasi har bir moddiy javobgar shaxsning buxgalteriya (shaxsiy) delosi (hujjatlari majmui)da, ikkinchi nusxasi shu xodimlarning o‘zida saqlanadi.

Hamma moddiy javobgar shaxslar asosiy vositalarni o‘z javobgarligiga olganini inventarizatsiya ro‘yxatiga imzo qo‘yib tasdiqdash beradi, asosiy vositalarning keyingi tushumlarida esa birlamchi hujjatlarga imzo ko‘yadi. Asosiy vositalarning har qanday ko‘chishi (boshqaga berish, tugatish va boshqalar) moddiy javobgar shaxslarning ishtirokida rasmiylashtiriladi.

Olingan, hisobdan chiqarilgan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ichida joyi o‘zgartirilgan (ko‘chirilgan) asosiy vositalarning inventar varaqalari tegishli qaydlar o‘tkazilganidan keyin oy oxirigacha joy-joyiga qo‘ymay, alohida saqdanadi. Chunki har oyda shu varaqalar asosida asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirish) hisob-kitoblari tuziladi, ularning har bir turi bo‘yicha kirim, chiqim oborotlari jamlanadi va asosiy vositalar harakatini hisobga olish varaqasi to‘ldiriladi.

Asosiy vositalar harakatini hisobga olish varaqasi (AV-8 shakli) joriy yil uchun yanvar oyi boshida ochiladi. Varaqada dastlab asosiy vositalarning borligi, turlari bo‘yicha ma’lumot 1 yanvar holatiga ko‘rsatiladi, so‘ngra har oyda oy davomidagi oborotlar yozuvidan keyin keyingi oyning 1 kunidagi holat bo‘yicha asosiy vositalarning mavjudligi qayd etiladi. Shu malumotlar asosida asosiy vositalarning harakatining oborot ro‘yxati (vedomost)tuziladi. Uning yakunlari asosiy daftardagi yakunlar bilan solishtirilib chiqiladi va shu asosda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy vositalari mavjudligi va ularning harakati to‘g‘risida hisobot tuziladi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi AV-1 va AV-3 shakllaridagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Bu shakllarda chiqim qilinadigan ob’ektlarning dastlabki qiymati va eskirish summasi qayd etiladi. Inventar varaqasi kartotekadan olinib, dalolatnomaga ilova qilinadi. Asosiy vositalarning turgan o‘rni bo‘yicha inventar ro‘yxatida tegishli qaydlar qilinadi.

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida hisobga olish uchun quyidagi schyotlar ochilgan:

0110 "Yer";

0111 "Yerni obodonlashtirish";

0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish";

0120 "Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar";

0130 "Mashina va asbob-uskunalar";

- 0140 "Mebel va ofis jihozlari";
- 0150 "Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi";
- 0160 "Transport vositalari";
- 0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar";
- 0180 "Ko'p yillik o'simliklar";
- 0190 "Boshqa asosiy vositalar";
- 0199 "Konservatsiya qilingan asosiy vositalar".

Ushbu schyotlar aktiv bo'lib, ularning debet tomonidagi saldo xo'jalik yurituvchi sub'ektda mavjud asosiy vositalarning qiymatini aks ettiradi. Asosiy vosita ob'ektlarining ko'payishi schyotlarning debet tomonida, kamayishi esa kredit tomonida aks ettiriladi. Mazkur schetlarning tarkibida analitik hisobning tashkil qilinishi respublika hududi va xorijdagi asosiy vositalarning mavjudligi va ularning harakati to'g'risidagi axborotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

15.6. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari

Amortizatsiya asosiy vositaning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va ko'chirish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasidir. Asosiy vositaning amortizatsiya qiymati taxmin qilinayotgan tugatilish qiymatini chiqarib tashlagan holda aktivning dastlabki qiymati yoki moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan qiymat o'rnini bosadigan boshqa qiymatning summasidir.

Asosiy vositaning eskirishi bilan amortizatsiya o'rtasida mustahkam aloqa bor. Biroq ular bir xil tushunchalar emas. Eskirish asosiy vositalaridan foydalanish vaqtida ularning ishlab chiqarish ishtiroki davomida texnik(fizik) xossalarini asta-sekin yo'qotish jarayonini aks ettiradi.

Amortizatsiya ancha murakkab jarayon bo'lib, iste'mol qilingan asosiy vositalar qiymatini ularning eskirishiga muvofiq ravishda mahsulot tannarxiga, davr xarajatlari va boshqa xarajat ob'ektlariga o'tkazish, iste'mol qilingan asosiy vositalarning o'rnini qoplash maqsadida pul fondini jamg'arish jarayonini aks ettiradi. Demak, eskirish amortizatsiyaning dastlabki shart-sharoitidir.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashda «Asosiy vositalar» nomli 5-son BHMAga hamda Uzbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga amal qilish lozim.

Quyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- ◆ er, yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- ◆ mahsuldor hayvonlar, buqa va ho'kizlar;
- ◆ kutubxona fondi;
- ◆ muzey ashyolari;
- ◆ budjet tashkilotlari, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik va texnologik tashkilotlarning vositalari;
- ◆ belgilangan tartibda konservatsiyaga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- ◆ asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar
- ◆ to'liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Uzoq muddatli ijara hollarida ijaraga olingan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini ijaraga oluvchi o'tkazadi. Qisqa muddatli ijarada amortizatsiya ajratmalarini ijaraga beruvchi hisoblaydi.

2020 yil 1-yanvardan amaldagi (yangi tahrirdagi) O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 306-moddasi "Amortizatsiya xarajatlari" ga binoan asosiy vositalarning amortizatsiya normalari quyidagicha belgilangan:

15.1-jadval

Asosiy vosita ob'ektlariga amortizatsiya hisoblash me'yorlari

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	
	1	Binolar, imoratlar	3
	2	Neft va gaz quduqlari	5
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	

	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarining temir yo'llari	
	9	Qirg'oq mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'implar	
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'lkalari, to'xtash joylari	
	14	Istirohat bog'larining va hayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		Uzatish qurilmalari	
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	8
	4	Magistral quvurlari	
	5	Boshqalar	
III		Kuch mashinalari va asbob-uskunalar	
	1	Issiqlik texnik asbob-uskunalar	
	2	Turbina asbob-uskunalar va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	8
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch mashinalari va asbob-uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va asbob-uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va asbob-uskunalar	
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va asbob-uskunalar	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron asbob-uskunalar, raqamli tizimlar uzatish asbob-uskunalar, raqamli aloqa o'lchov	15

		texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va tranking aloqa asbob-uskunolari	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash asbob-uskunolari	
	6	Kinostudiyalarning maxsus asbob-uskunolari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati asbob-uskunolari	
	7	Kompressor mashinalari va asbob-uskunolari	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunolari, tuproq, karer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunolari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunolari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagi sig'imlar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunolari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V		Harakatlanuvchi transport	
	1	Temir yo'lining harakatdagi tarkibi	4
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	
VI		Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunolari	
	1	Kompyuterlar	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarga ishlov berish uskunolari	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqa kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarga ishlov berish	

		uskunalari	
VII		Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar	15

Amortizatsiyalanuvchi qiymat muntazam ravishda asosiy vositani foydali ishlatishning butun davriga taqsimlanadi. Amortizatsiya turli xil usullarni koʻllash yoʻli bilan amalga oshiriladi:

Toʻgʻri chizikli usul asosiy vositani foydali ishlatishning butun davri mobaynida eskirishning doimiy summalarini hisoblab yozishdan iborat.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuliga binoan amortizatsiya miqdori faqat asosiy vosita qancha marta ishlatilishiga yoki qancha mahsulot birligi ishlab chiqarilishi koʻtilayotganiga bogʻliq boʻladi.

Kamayib boruvchi qoldiq usuli boʻyicha muntazam hisoblab yozilayotgan summalar foydali ishlatish muddati davomida kamayadi.

Kumulyativ usulda amortizatsiya summasi hisoblash koeffitsiyentining maxraji boʻlgan obʻektning xizmat muddati yigʻindisi bilan aniqlanadi. Bu koeffitsiyentning suratida obʻektning xizmat muddati oxirigacha qoladigan yillar soni teskari tartibda koʻrsatiladi.

Amortizatsiyani hisoblashda uning tugatilish qiymatiga eʼtibor berish lozim. Agar boshqa summani ishonchli tarzda hisob-kitob qilish mumkin boʻlmasa, asosiy vositaning qoldiq qiymati nolga teng boʻladi.

Toʻgʻri chizikli usulda amortizatsiya hisoblash. Toʻgʻri chizikli usul deb tugatilgan qiymati ayrilgan asosiy vositalar obʻekti qiymatini davrlar boʻyicha foydalanish muddati davomida teng nisbatda hisoblash usuliga aytiladi. Amortizatsiya summasi amortizatsiyalanayotgan qiymatni (tugatish qiymati ayrilgan obʻektning dastlabki qiymatini) koʻzda tutilgan foydalanish davrlari soniga boʻlish yoʻli bilan topiladi:

Illik amortizatsiya summasi (dastlabki qiymati—tugatish qiymati) /xizmat qilish muddati.

Misol. «MALIKA» hissadorlik jamiyatida asosiy vositaga eskirish hisoblash boʻyicha quyidagi maʼlumotlar mavjud;

- Asosiy vositaning balans qiymati- 900000 ming so‘m;
- Tugatilish qiymati- 20000 ming so‘m;
- Xizmat muddati — 5 yil.

Yillik amortizatsiya summasi = $(900000-20000)/5 = 176\ 000$ ming so‘m.

Amortizatsiyani to‘g‘ri chiziqli usulda hisoblashda uning summasi foydalanish muddati davomida bir xil bo‘ladi, jamg‘arilgan eskirish bir tekisda oshib boradi, qoldiq qiymati esa, baholangan tugatish qiymatiga yetguncha bir tekisda kamayib boradi.

15.2-jadval

Amortizatsiyani to‘g‘ri chiziqli usulda hisoblash jadvali

Yillar	Balans qiymati	Iillik amortiza-tsiya summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya	Qoldiq qiymati
1-yil	900000	176 000	176 000	724000
2-yil	900000	176 000	352000	548000
3-yil	900000	176 000	528000	372000
4-yil	900000	176 000	704000	196000
5-yil	900000	176 000	880 000	20000

Bajarilgan ish hajmiga ko‘ra amortizatsiya hisoblash. Bajarilgan ish hajmiga nisbatan amortizatsiyani hisoblash usuli asosiy vositalarning har hisobot yilida bajargan ishining hisobiga asoslangan. Mazkur usul bilan eskirishning har yilgi qiymatini hisoblash uchun jami foydalanish muddati davomida umumiy baholangan ishlab chiqarishni hamda har bir aniq yildagi ishlab chiqarishni oldindan aniqlash lozim. Ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlangan soatlar miqdori va hokazolar olinishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektda shu davr mobaynida 17780000 dona mahsulot ishlab chiqariladi. 1-yilda - 3780000, 2-yilda -4500000, 3-yilda - 3800000, 4-yilda - 3300000, 5-yilda - 2400000 dona mahsulot ishlab chiqarildi. Mahsulot birligiga ketgan amortizatsiya xarajatlari quyidagiga teng:

$$(900000-20000)/ 17780000=0,049 \text{ har bir mahsulot uchun}$$

15.3-jadval

Bajarilgan ish hajmiga ko‘ra amortizatsiya hisoblash jadvali

Yillar	Balans qiymati	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg'arilgan amortizatsiya	Qoldiq qiymati
1-yil	900000	3780000*0,049	189000	189000	711000
2-yil	900000	4500000*0,049	221400	410400	489600
3-yil	900000	3800000*0,049	189000	599400	300600
4-yil	900000	3300000*0,049	163000	762400	137600
5-yil	900000	2400000*0,049	117600	880000	20000

Bajarilgan ish hajmiga ko'ra amortizatsiya hisoblash usuli ob'ektlardan foydalanish muddati, ularning tuzilish xususiyatlari bilan cheklangan hamda mazkur aktivlarning xo'jalik faoliyati hajmi yilma-yil o'zgargan hollarda ko'llaniladi.

Jadallashtirilgan (tezkor) usullar. Qoldikli kamayish hamda kumulyativ usullar tezkor usullar bo'lib hisoblanadi. Tezkor usullar mohiyati shundaki, asosiy vositalardan foydalana boshlagan dastlabki yillarda hisoblangan amortizatsiya summasi ob'ekt xizmat muddatining yakunida hisoblangan amortizatsiya summasidan ancha yuqori bo'ladi.

Tezkor usullar, xususan, texnologiyalar takomillashtirilishi tufayli ko'p turdagi uskunalar o'z qiymatini yo'qotishi (ma'naviy eskirishi) bilan ham tushuntiriladi. Shunday qilib, eskirishning katta summasini kelgusida emas, balki joriy hisobot davrida hisobdan chiqarish to'g'riroq bo'ladi.

Yangi kashfiyotlar va TMZlar ilgari xarid qilingan uskunaning ma'naviy eskirishiga olib keladi va uni jismoniy eskirishdan ancha oldinroq almashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Tezkor usullarning yana bir afzalligi shundaki, ta'mirlash bo'yicha xarajatlar, odatda, ob'ektdan foydalanish muddatining boshidagiga nisbatan oxirida ko'proq bo'lishi hisoblanadi. Bu esa ta'mirlash xarajatlarning umumiy summasi va amortizatsiya ajratmalari bir necha yillar davomida amalda doimiy bo'lib qolishiga olib keladi. Natijada asosiy vositalar ob'ektlarining foydaliligi ko'p yillar davomida bir xilligicha qoladi.

Ikkala tezkor usulda ham dastlabki yillarda hisoblangan amortizatsiya summalari ancha yuqori bo'ladi, bajarilgan ishlar hajmiga proporsional ravishda

eskirish summasini hisoblash usuli esa amortizatsiya hajmining yildan-yilga keskin o'zgarib turishi tufayli amortizatsiya o'zgarishining aniq tamoyili haqida tasavvur bera olmaydi. Har yili amortizatsiyaning keskin o'zgarishi asosiy vositalarning qoldiq qiymatida ham o'z aksini topadi. To'g'ri chiziqli usulda esa qoldiq qiymat miqdori tezkor usullardagi qoldiq qiymatga nisbatan har doim ancha yuqori bo'ladi.

Asosiy vositalarning har xil turlariga amortizatsiya-ning turli usullari ko'llanilishiga ruxsat etilganligini, biroq bunda bir turdagi asosiy vosita uchun faqatgina bitta usul qo'llanilishi mumkinligini nazarda tutish lozim.

Soliqqa tortish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga binoan amortizatsiya me'yorlari qo'llanilishi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatiga ko'ra hisoblangan amortizatsiya bilan Soliq Kodeksiga muvofiq hisoblanadigan amortizatsiya o'rtasidagi farq vaqtinchalik farq deyiladi, u vaqtinchalik farqlar hisobining soliq samarasi yordamida hisobda aks ettiriladi.

Misol.

«MALIKA» kompaniyasida faoliyatning dastlabki yilida soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasi 4250000 so'mni tashkil etgan.

Bunda 2-shaklning 240 satrida aks etirilgan hisob(buxgalteriya) foydasi va soliqqa tortiladigan foyda o'rtasida farq mavjud, hisob siyosatiga muvofiq ishlab chiqarish usulida hisoblangan amortizatsiya 3130000 so'mni, soliqqa tortish maqsadlari uchun amortizatsiya esa (to'g'ri chiziqli usulda)- 2000000 so'mni tashkil qilganligidan yuzaga keladi. Bu aynan vaqtinchalik farq bo'lib, soliqqa tortiladigan foyda uni hisobga olganda $4250000 + (3130000 - 2000000) = 6630000$ so'mga teng. Foyda solig'ining 12%lik stavkasi bo'yicha hisoblangan foyda solig'i $(4250000 * 12\%) = 510000$ so'mni tashkil etadi, lekin budjetga $(6630000 * 12\%) = 795600$ so'm to'lash kerak bo'ladi, bu ikki miqdor o'rtasidagi farq vaqtinchalik farqdar bo'yicha muddati uzaytirilgan foyda solig'i hisoblanadi va u qaysi hisobot davrida so'ndirilishiga qarab bog'liq ravishda 0930 yoki 3210-schyotlarida aks ettiriladi.

Ushbu muomalalar bo'yicha quyidagicha provodkalar beriladi:

D-t 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» - 510000so'm

D-t 0950, 3210-«Vaqtinchalik farqdar bo'yicha muddati uzaytirilgan daromad solig'i» - 285600 so'm

K-t 6410-«Foyda solig'i bo'yicha budjetga qarzar» - 795600 so'm. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatiga muvofiq hisoblangan amortizatsiya Soliq Kodeksi bo'yicha amortizatsiyadan yuqori bo'lgan holatda mazkur farq summasiga soliq bo'yicha muddati uzaytirilgan qarz yuzaga keladi. Yuqorida keltirilgan misolning aksini ko'rib chiqamiz, bunda hisob foydasi 6630000 so'mni, soliqqa tortiladigan foyda esa - 4250000 so'mni tashkil qilgan.

Buxgalteriya yozuvi quyidagicha bo'ladi:

D-t 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» - 795600 so'm

K-t 6410-«Foyda solig'i bo'yicha budjetga qarzar» - 510000 so'm

K-t 6250, 7250-«Soliqdarga oid vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar» - 285600 so'm.

Qoldiqdi kamayish usulida amortizatsiya hisoblash. Kamayib boruvchi qoldiq usuli aktivdan foydalanish muddatida amortizatsiya summasining doimo kamayib borishini ifodalaydi. Ushbu usulda eskirish me'yori asosiy vositalarning qoldiq qiymatiga ko'paytiriladi. Odatda, bu usulda amortizatsiya me'yori ikki hissa qilib olinadi.

15.4-jadval

Qoldiqli kamayish usulida amortizatsiya hisoblash jadvali

Yillar	Balans qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg'arilgan amortizatsiya	Qoldiq qiymati
1-yil	900000	$(900000*40\%=360000)$	360000	360000
2-yil	900000	$(360000*40\%)=144000$	504000	396000
3-yil	900000	$(396000*40\%)=158400$	662400	237600
4-yil	900000	$(237600*40\%)=95040$	757440	142560

5-yil	900000	$(142560 \cdot 40\%) = 57024$	880000 $(815000 + 65000 = 880000)$	20000
-------	--------	-------------------------------	---------------------------------------	-------

Kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash. Kumulyativ usul (yillar yig'indisi usuli)da har yilgi amortizatsiya me'yorini amortizatsiya muddati yakuniga qadar qolgan amortizatsiyalanayotgan qiymatning bo'lagi sifatida belgilanadi. Bo'lak amortizatsiya hisobining tugagunicha qolgan to'liq yillar yig'indisini amortizatsiya muddatini belgilaydigan yillarning tartib soniga bo'lib aniqlanadi.

5 yil foydalanish muddatiga mo'ljallangan asosiy vositalar uchun yillik raqamlar yig'indisi quyidagicha bo'ladi:

$$5+4+3+2+1=15.$$

15.5-jadval

Kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash jadvali

Yillar	Balans qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg'arilgan amortizatsiya	Qoldiq qiymati
1-yil	900000	$(5/15 \cdot 880000) = 293305$	293305	606695
2-yil	900000	$(4/15 \cdot 880000) = 234960$	528265	371735
3-yil	900000	$(3/15 \cdot 880000) = 176000$	704265	195735
4-yil	900000	$(2/15 \cdot 880000) = 117040$	821305	78695
5-yil	900000	$(1/15 \cdot 880000) = 58695$	880000	20000

Jadvallardan ko'rinib turibdiki, amortizatsiya hisoblashning oxirgi ikki usulida asosiy vositalardan foydalanish muddatining boshida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari ob'ekt xizmat muddatining oxirida hisoblangan amortizatsiya qiymatidan ortiq bo'ladi.

Ushbu usullar ishlab chiqarishga taallukli asosiy vositalarni hisoblash uchun ko'llaniladi, chunki mazkur vositalardan foydalanishning birinchi yillarida samaraliroq foydalaniladi va ta'mirlashga xarajatlar unchalik ko'p bo'lmaydi. Keyingi yillarda amortizatsiya xarajatlari kamayadi, ta'mirlash xarajatlari esa odatda oshib boradi.

Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari ular hisoblab o'tkazilgan hisobot davrida buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladi. Asosiy vositalarning ayrim ob'ektlari bo'yicha ajratmalar tegishli summalarni jamg'arish yo'li bilan yoki ob'ektlarning dastlabki qiymatini kamaytirish yo'li buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning eskirishini hisobga olish uchun schyotlar rejasida quyidagi schyotlar ochilgan:

0211-«Obodonlashtirilgan yerning eskirishi»;

0212-«Moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha olinib o'zlashtirilgan asosiy vositalarning eskirishi»;

0220-«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalarning eskirishi»;

0230-«Mashina va jihozlarning eskirishi»;

0240-«Mebel va ofis jihozlarining eskirishi»;

0250-«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi»;

0260-«Transport vositalarining eskirishi»;

0270-«Ish hayvonlarining eskirishi»;

0280-«Ko'p yillik ekinlarning eskirishi»;

0290-«Boshqa asosiy vositalarning eskirishi»;

0299-«Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi».

Ushbu schyotlarning kreditida asosiy vositalarga hisoblangan va hisoblanayotgan eskirish summalari ko'rsatiladi. Hisobvarakdarning debetida asosiy vositani hisobdan chiqarish paytida unga hisoblangan eskirish summasining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblanganida, eskirish summalari xarajatlariga o'tkaziladi. Eskirish summasi ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkazilganida quyidagicha yozuv qilinadi:

D-t Ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari

K-t Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schyotlar. Agarda eskirish davr xarajatlariga o'tkazilsa, quyidagicha yozuv qilinadi:

D-t 9420-«Ma'muriy xarajatlar»

K-t 0200 Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schyotlar.

15.7. Asosiy vositalarni ta'mirlash operatsiyalarini hisobga olish.

Asosiy vositalar foydalanish maboynida vaqti-vaqti bilan ta'mirlanib turiladi. Bu esa, o'z navbatida, ularning xizmat qilish muddatini uzaytiradi. Asosiy vositalar ob'ektini ishchi holatida saqlab turish, ularni ta'mirlash (TQ-texnik qarov, joriy, o'rtacha va kapital tarzda) vositasida amalga oshiriladi.

Texnik qarov (xizmat)- asosiy vositalar ob'ektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida kunlik yoki ma'lum grafik asosida reysga chiqishdan oldin texnik sozligini, agregatlarining ishlash jarayoni va texnik moylarini hamda suvlarini ko'rikdan o'tkazish hisoblanadi.


Xozirgi zamon asbob-uskunalar bilan jihozlangan ta'mirlash ustaxonalarida poyezd eshalon tarkibi va vagonlari, asosiy vositalari, avtomashinalar, yo'lovchi tashuvchi avtobuslar hamda boshqa sanoat mashinalarga texnika xizmati ko'rsatiladi. Bundan tashqari, u yerda murakkab bo'lmagan ehtiyot qismlar tayyorlanadi va turli mayda texnik ishlar bajariladi.

Joriy ta'mirlash - asosiy vositalar ob'ektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

O'rtacha ta'mirlashda ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Kapital ta'mirlash. Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash - agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir.

Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash - bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.



15.6-rasm: Asosiy vositalarni ta'mirlash turlari

Asosiy vositalar ta'mirlanishi hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

bajarilgan tamirlash ishlarining tannarxi va hajmini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash;

ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarning mahsulot yoki bajarilgan ish tannarhiga to'g'ri o'tkazilishini ta'minlash;

ta'mirlash ishlari uchun ajratilgan mablag'dan to'g'ri foydalanilishi ustidan nazorat olib borish;

ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida va yaxshi sifatli qilib olib borilishi ustidan nazorat olib borish va boshqalar.

Tamirlash harajatlari ikki hil usul bilan tegishli schyotlarga yozilishi mumkin:

1) tamirlash bo'yicha hamma harajatlarni vujudga kelish jarayonida ishlab chiqarish harajatlari schyotlariga yozish bilan

2) mahsus rezerv fondi tashkil qilish yo'li bilan.

Misol. Passajir vagonlar uchun quyidagi texnik xizmat turlari mavjud (TQ):

1. Har bir reysga chiqishdan oldin poyezdlarda va passajir vagonlar da, shuningdek yo'nalishda va oraliq stansiyalarda TQ-1 texnik xizmat ko'rsatiladi;

2. Yozgi va qishki passajirlarni tashish boshlanishidan oldin poyezdlar(sostavni)ni shakllantirish punktlarida amalga oshiriladigan TQ-2 texnik xizmat;

3. TQ-3 –passajir vagonlarning poyezd sostavidan ajratib olinib, ishlab chiqarilgandan keyin yoki rejalashtirilgan ta'mirdan so'ng 6 oyda o'tkaziladigan asosiy tarkibiy qismlarning va vagonlar to'liq maxsus ixtisoslashtirilgan yo'llarga amalga oshiriladigan yagona reviziya qilinish;

4. Vagonlarni poyezd yoki sostavlar(esholon tarkibi)dan ajratib olinib maxsus ixtisoslashtirilgan yo‘llarga o‘tkazib joriy ta’mirlash (JT).

Passajir vagonlari quyidagi texnik xizmat ko‘rsatish turlari o‘tkaziladi - TQ-1, TQ -2 va TQ -3.

TQ -1 da xizmat ko‘rsatish paytida quyidagi ishlar amalga oshiriladi(bajariladi):

- yurish(shossi) uzatmalarni tekshirish va instrumental nazoratdan o‘tkazish;
- Zarba -tortish uskunalarni tekshirish va nazoratdan o‘tkazish;
- tormoz uskunalarni tekshirish va nazoratdan o‘tkazish;
- ichki jihozlarni tekshirish va nazoratdan o‘tkazish;
- generator uzaimalarini tekshirish;
- elektr jihozlari, sovutish va radio jihozlarining ishlashini tekshirish;
- suv ta’minoti va isitish tizimlarining ishlashini tekshirish;
- tormoz uskunalarining ishlashini tekshirish, tormozlarni sinash;
- ekologik toza hojatxonaning ishlashini va najasni to‘ldirish darajasini tekshirish.

TQ-2 ga texnik xizmat ko‘rsatish (mavsumiy) bu avtoullovni qishda yoki yozda ishlashga tayyorlash. Harorat past bo‘lgan hududlarda ishlaydigan vagonlarni qishki saqlash 1 oktabrga, qolgan vagonlar yesa 15 oktyabrga qadar yakunlanadi. Yozgi xizmat 15 mayda tugaydi.

Vagonlarga qish va yozda texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni bajarish uchun ixtisoslashgan kombinat ajratilgan.

TO-2 ga xizmat ko‘rsatish paytida TQ-1 ning barcha texnik ishlari va quyidagi ishlar bajariladi:

- qayta zaryadlanuvchi batareyalarga elektrolitlar zichligi sozlangan holda texnik xizmat ko‘rsatish (elektrolitlar zichligini sozlash faqat qayta zaryadlanuvchi batareyalar yordamida amalga oshiriladi, uni ishlab chiqaruvchi taqdim etgan bo‘lsa);

- barcha elektr mashinalarini qopqoq (qopqoq), tekshirish lyuklarini (DC mashinalari), terminal qutilarini va kondensatni drenajlash uchun vilkalarni olib tashlash bilan tekshirish;

Yelektr isitgichlar va pechlarni tekshirish, isitish elementlarining yaxlitligini tekshirish (vagonlarni qishki transportga tayyorlashda);

- Yo'lovchi bo'linmasida joylashgan termal avtomatlashtirish tizimining issiqlik aloqalarini tozalash va tekshirish;

- tormoz silindrlarini ochish, ularni moylash va mashinada sinovdan o'tkazish;

369A ulash qisqichlarining elektr kontaktlarini tozalash;

- issiq va sovuq suv ta'minoti tarmog'ining tashqi yuzasini chang va chiqindilardan tozalash, quvurning dezinfeksi qilish (bahorda);

- isitish tizimini yuvish;

- avtomatik ulash moslamalarini tekshirish;

- old va yon eshiklarning ishlashini tekshirish;

Yong'in signalizatsiyasi va konditsioner tizimining ishlashini tekshirish;

- rolikli rulmanlarni isitish uchun terminal qutilarini va boshqaruv tizimining ajratib olinadigan ulanishlarini ochib tekshirish.

Yengil passajir vagonlarining TQ-3 (bitta texnik reviziya) ga xizmat ko'rsatilishi rejalashtirilgan ta'mirlashlar orasida avtoulavlarni yaxshi texnik holatda saqlash uchun mo'ljallangan. Tekshirish poyezddan olib tashlanmagan holatda passajir vagonlari deposida amalga oshiriladi. Tekshiruvdan o'tgan barcha passajir vagonlar uchun VU-23 shaklini chiqarish to'g'risida bildirishnomalar chiqariladi.

Passajir vagonlarining TQ-3ni bajarish uchun maxsus integratsiyalashgan guruhlar tuziladi, ularning soni har bir holatda mavjud standartlar asosida aniqlanadi. Passajir vagonlarining TQ-3 o'tkazish uchun odatda ixtisoslashgan jihozlangan punkt ajratiladi, texnik vositalar bilan jihozlangan bo'ladi, shuningdek zarur ehtiyot qismlar va materiallarning ta'minlangan hamda ixtisoslashgan tajribaga ega ishchi zaxirasi mavjud bo'lishi kerak.

TQ-3 tugagandan so'ng, depo boshlig'i o'rinbosarining buyrug'i bilan vagon qabul qiluvchi tomonidan qabul qilinishi kerak.

TQ-3dan o'tgan passajir vagonlarni hisobga olish maxsus jurnalda amalga oshiriladi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ta'mirlash jarayoni ikki xil usulda tashkil qilinishi mumkin:

1) xo'jalik usulida

2) pudrat usulida

5-son BHMSning 23-bandiga ko'ra, binoni rekonstruksiya qilishga doir xarajatlar u tugatilganidan so'ng uning boshlang'ich qiymatini ham oshiradi, ya'ni kapitallashtiriladi, shu sababli ularni kapital qo'yilmalar deb ham nomlanadi.

Bunda qurilish ishlari:

- binodan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydani oshirishi;
- bino faoliyat yuritishining dastlab qabul qilingan me'yoriy ko'rsatkichlarini (foydali ishlatish muddati, quvvati, maydoni, qo'llash sifati va h.k.) yaxshilashi (oshirishi) shart.

Binoni mukammal ta'mirlash xarajatlari ular taalluqli bo'lgan hisobot davri xarajatlari:

- ishlab chiqarish binosi bo'yicha – ishlab chiqarish tannarxiga;
- ma'muriy bino bo'yicha – davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi (5-son BHMSning 48-bandi).

Shu tariqa, binoning qiymatini ob'ektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga ruxsat berish tartibi to'g'risidagi nizomda (VMning 9.03.2016 yildagi 70-son qaroriga 2-ilova) belgilangan tartibda kelishilgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan rekonstruksiya xarajatlari hisobiga oshirish mumkin.

Pudrat usulida ta'mirlashda korxonada ta'mirlash yoki ta'mirlash-qurilish tashkiloti bilan pudrat shartnomasi tuzadi.

Xo'jalik usulida ta'mirlash o'z kuch va vositalari yordamida ya'ni, AV ob'ektidan foydalanish joyidagi o'z ishchilari (TQB) ixtisoslashtirilgan ta'mirlash brigadasi bajaradi.

Ta'mirlash ishlari boshlanishigacha AVning har bir ob'ekti bo'yicha ularni ta'mirdan o'tkazishning zarurligini asoslash uchun ob'ektni (yoki uning ayrim qismlarini) ko'rikdan o'tkazish natijalari bo'yicha nuqsonlar dalolatnomasi tuziladi. Uda ob'ekt (yoki uning qismlari) texnik holatining tavsifi, shuningdek nosozlik, nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiya qilinadigan tadbirlar va zarur ta'mirlash ishlaining hajmi bo'yicha takliflar keltiriladi. Nuqsonlar dalolatnomasi korxonra rahbari tomonidan tsdiqlanadi, ta'mirlash pudrat usulida o'tkazilganda esa ta'mirlash tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Nuqsonlar dalolatnomasi asosida loyihalash tashkiloti tomonidan loyiha tuziladi. Loyiha asosida smeta hujjatlari tayyorlanadi. Smetada xarajatlar ta'mirlash ishlarining muayan turi birligiga mehnat va material resurslarining, mashina-mexanizmlarning ishlatish bo'yicha sarflash me'yorlari hisob-kitoblar qilinadi.

Ta'mirlash tugagach (shuningdek, ob'ektni rekonstruksiya qilishva modernizatsiya vaqtida) davlat qabul komissiyaning dalolatnomasi va qaroriga muvofiq asosiy vositalarning ta'mirlangan, rekonstruksiya qilingan, modernizatsiyalangan ob'ektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-3 shakl) tuziladi. Pudrat tashkiloti tomonidan pudrat usulida 2-shakl bajarilgan ishlar dalolatnomasi va 3-shakl schyot-faktura rasmiylashtirish uchun buyuritmachiga taqdim qiladi. Ob'ektlar mukammal ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilish vaqtida ta'mirlash qurilish ishlari bajarilgan taqdirda dalolatnoma bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) to'g'risidagi ma'lumotnoma-schet-faktura shaklida rasmiylashtiriladi.

AVni ta'mirlash bo'yicha haqiqatdagi xarajatlarni hisobga olish tartibi uning hammiga, yil mobaynida ta'mirlash ishlarini bir maromda o'tkazish va ularni bajarish usuliga bog'liqdir.

Odatda, buxgalteriya hisobida ta'mirlash xarajatlarini hisobga olishning 3 usulida foydalaniladi:

1-usul ta'mirlashning haqiqatdagi xarajatdagi xarajatlar joriy davr xarajatlariga hisobdan chiqariladi;

2-usul bir maromsiz (teng ulushlar) amalga oshiriladigan haqiqatdagi xarajatlar oldindan kelgusi davr xarajatlari tarkibida (3190-hisobvarq) jamlanadi va keyingi xarajatlariga teng maromda hisobdan;

3-usul haqiqatdagi xarajatlar AVni ta'mirlashga ilgari barpo etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqariladi.

Birinchi usulda ta'mirlash xarajatlari ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan hisobot davri xarajatlariga kiritiladi. Bu usul AVlarni joriy va o'rtacha ta'mirlashni o'tkazish vaqtida ko'p qo'llanadi. Bunda haqiqatdagi xarajatlar ob'ektdan foydalangan javobgarlik markazlari (xarajat ob'ektlari 2010, 2310, 2510, 9420, 9430) va ta'mirlashni o'tkazish usuliga – xo'jalik yoki pudrat – bog'liq holda xarajatlarni hisobga oluvchi schetlarning debeti bo'yicha o'tkaziladi.

Asosiy vositalarni ta'mirlashda alohida zahira fondi tuzmasdan amalga oshirilganda xarajatlarni ikki xil usulda hisobga olib boriladi:

- haqiqiy xarajatlar bo'yicha;
- kelgusi davr xarajatlari hisobidan.

Amalga oshirilgan xarajatlar "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 1.5.1.2 bandiga muvofiq, ishlab chiqarish ahamiyatida foydalanilayotgan mashina va uskunalarni o'z kuchi bilan bajargan barcha turdagi (joriy, o'rta, mukammal) ta'mirlashlarga sarflangan xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari bo'yicha mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Korxonada o'z imkoniyatidan foydalangan holda xo'jalik usuli qo'llanganda ta'mirlash ob'ekti bo'yicha xarajatlar xarajatlarining tegishli elementlari bo'yicha mahsulot tannarxiga o'tkaziladi. Xarajatlar 2310 schyotda hisobga olib boriladi va ta'mirlash ishlari tugagach, asosiy vositalar ob'ektidan foydalanish joyi hisobga olingan holda barcha xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkaziladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ta’mirlash fondi tuzmagan holda ta’mirlash ishlarini xo‘jalik usuli bilan amalga oshirganda quyidagicha ikki yoqlama yozuv amalga oshiriladi

	Debet	Kredit
1.	2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”	1000-“Materiallar” 6710-“Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar” 6510-“Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar” 0200-“Asosiy vosilarni eskirishi” 1500-“Materiallarni tayyorlash va sotib olish”
2.	2010-“Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari” 2510-“Umumishlab chiqarish xarajatlari”	2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar pudrat usulida haqiqiy xarajatlar ta’mirlash ob’ektining foydalanish joyi va xarajatlar xarakteriga qarab, xarajatlarni hisobini yuritishda schyotlarda pudratchi tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlar bo‘yicha hisoblashishlar schyoti bilan ikki yoqlama amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt alohida ta’mirlash fondi tuzmagan holda pudrat usuli bilan ta’mirlashni amalga oshirganda quyidagicha ikki yoqlama yozuv qilinadi:

№		Debet	Kredit
1.	Pudratchi tashkilotga oldindan avans o‘tkazildi	4330-“Boshqa berilgan bo‘naklar”	5110-“Hisob-kitob schyoti”
2.	Dalolatnomalarga binoan asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari hisobdan chiqarildi	2010-“Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari” 2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”	6010-“Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilarga to‘lanadigan hisobvaraqlar”
3.	Amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari bo‘yicha QQS hisobga olindi	4410-“Budjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘naklar” 6410-“ Budjetga to‘lovlar bo‘yicha	6010-“Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilarga to‘lanadigan hisobvaraqlar”

		qarz”	
4.	Pudratchi tashkilot bilan o‘zaro taqqoslama vedomost tuzilgandan so‘ng bo‘nak hisobga olindi	6010-“Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilarga to‘lanadigan hisobvaraqlar”	4330-“Boshqa berilgan bo‘naklar”

Ikkinchi usulda maromsiz (teng ulushlar) amalga oshiriladigan xaqiqatdagi xarajatlar oldindan kelgusi davr xarajatlari tarkibida (3190-hisobvarq) jamlanadi va keyingi xarajatlariga teng maromda hisobdan chiqariladi;

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ayrim hollarda ta‘mirlash ishlarining hajmi oshib ketadi yoki mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarishlarning xususiyatlarini inobatga olib ta‘mirlash xarajatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga o‘tkazilmaydi. Bunga qishloq xo‘jaligi korxonalari, paxtani qayta ishlash zavodlari, meva va poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni misol keltirish mumkin. Bunda ta‘mirlash ishlari doimiy bir maromda olib borilmagan hamda ayrim hisobot oylarida ta‘mirlash xarajatlari keskin o‘zgarishi ishlab chiqarish tannarxiga xarajatlarni bir maromda o‘tkazish imkoniyatini bermaydi. Turli davrlarda ta‘mirlash xarajatlarining hajmi turlicha bo‘lishiga qaramasdan mahsulot tannarxini bir maromda bo‘lishini ta‘minlash maqsadida 3190-“Boshqa kelgusi davr xarajatlari” schyotidan foydalanish mumkin. Bu tartibda hisobni olib borishda avvalo 3190-“Boshqa kelgusi davr xarajatlari” schyotining debetida ta‘mirlashga qilingan barcha haqiqiy xarajatlar yig‘iladi (materiallar, ish haqi, ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, amortizatsiya va boshqalar) va yil davomida ushbu yig‘ilgan xarajatlar mahsulot tannarxiga teng ulushlarda o‘tkazib boriladi.

Masalan. Mevalardan tabiiy sharbat ishlab chiqaruvchi zavod mavsumiy ishlash xususiyatidan foydalanib yanvar oyida asosiy vositalarni pudratchi tashkilotga ta‘mirlashga topshirdi. Pudratchi tashkilot asosiy vositani nuqsonlar vedomosti asosida ta‘mirlashga ketadigan xarajatlarni aniqladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning hisob siyosatiga muvofiq har oyga tegishli ta‘mirlash xarajatlari asosiy

ishlab chiqarish xarajatlariga teng ulushlarda o‘tkazildi. Bajarilgan ta‘mirlash ishlarining umumiy qiymati 1650000 so‘m(QQS bilan birga)ni tashkil etdi

№		Summa, ming so‘m	Provodka	
			Debet	Kredit
1.	Pudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ta‘mirlash ishlari qiymati aks ettirildi.	1375,0	3190	6010
2.	Ta‘mirlash ishlari bo‘yicha QQS hisobga olindi	275,0	4410	6010
3.	Asosiy vositalarni ta‘mirlash xarajatlarini joriy yil davomida har oy hisobdan chiqarib borilgan summaga	114,6		
4.	Pudratchiga pul o‘tkazildi	1650,0	6010	5110

Ta‘mirlash ustaxonasining xarajatlari. Xozirgi zamon asbob-uskunalari bilan jihozlangan ta‘mirlash ustaxonalarida asosiy vositalari, avtomashinalar, yo‘lovchi tashuvchi avtobuslar hamda boshqa sanoat mashinalarga texnika xizmati ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, u yerda murakkab bo‘lmagan ehtiyot qismlar tayyorlanadi va turli mayda ishlar bajariladi. Ba‘zi xo‘jaliklarda poyezd eshalonlari, o‘z avtomashinalari, yo‘lovchi tashuvchi avtobuslari va dvigatellarini boshqa tashkilotlarning ta‘mirlash-ishlab chiqarish korxonalarida ta‘mirlashdan chiqaradi. Ta‘mirlash xarajatlari hisobini tashkil etilishi bu ishning qayerda bajarilishiga bog‘liq.

Avtomobil, yo‘lovchi tashuvchi avtobuslari va boshqa mashinalarning ta‘mirlashi xo‘jalikning ta‘mir ustaxonasida bajarilsa, har bir ta‘mirlash qilinyotgan ob‘ekt uchun ikki nusxada nuqsonlar vedmosti tuziladi. Bu hujjatda har bir ta‘mirlash qilinyotgan ob‘ekt bo‘yicha mehnat haki, bajariladigan ish va sarflanadigan ehtiyot qismlar ko‘rsatiladi. Nuqsonlar vedmostining bir nusxasi zarur bo‘lgan ehtiyot qism va ta‘mirlash materiallarini tayyorlash uchun ombor mudiriga beriladi, ikkinchi nusxasi ta‘mirlash qilish uchun smeta hujjat tariqasida ta‘mirlash ustaxonasida qoldiriladi. Ta‘mirlash

ustaxonasida bu hujjatga asosan ta'mirlash xodimlariga naryadlar yoziladi va ehtiyot qismlar beriladi. Ta'mirlash ishlari tugagach boshqa hujjatlar bilan birga nuqsonlar vedomosti buxgalteriyaga topshiriladi. Buxgalteriyada ta'mirlashning umumiy qiymati aniqlanadi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra, xarajatlar ma'lum iqtisodiy elementlari bo'yicha turkumlanishi kerak bo'lib, hisobga olinishi makroiqtisodiy ahamiyatga ega. Xo'jaliklarning yordamchi ishlab chiqarish xususiyatini e'tiborga olib quyidagi xarajat elementlari bo'yicha yuritiladi.

- ✓ ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;
- ✓ ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnat haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari xarajatlari;
- ✓ ishlab chiqarishga bog'liq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya xarajatlari;
- ✓ ishlab chiqarishga bog'liq ish va xizmat xarajatlari;
- ✓ boshqa ishlab chiqarish xususiyatidagi xarajatlar;

Ta'mirlash ustaxonalarida bajarilgan barcha ishlarning xarajatlari ularni hisobga olish jurnalida yuritiladi. Bu jurnalda ta'mirlangan ob'ekt va tayyorlangan buyumlarning har bir turi bo'yicha alohida analitik schyotlar ochilib, xarajatlar nuqsonlar vedomosti va boshqa dastlabki hujjatlarga asosan aks ettiriladi.

Xarajatlar jurnalga belgilangan xarajat moddalari bo'yicha yozib boriladi.

Mehnat haqi ajratmalari bilan (ishlangan kishi-kunlar va kishi-soatlar ko'rsatilgan holda). Bu moddadagi tegishli hujjatlar (naryad, yig'ma vedomost)ga muvofiq slesar va boshqa ta'mirlash xodimlarining mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmasi, ta'til haqi rezervi va boshqa qo'shimcha mehnat haqi kiritiladi.

Ehtiyot qismlar va ta'mirlash materiallari. Bu moddada ta'mirlash uchun sarflangan ehtiyot qismlar qiymati haqiqiy tannarxi bo'yicha baholanib yoki ko'pincha o'zgarmaydigan (preyskurant) narxda hisobga olinadi. Keyinchalik

preyskurant bahosidan ortiq summasi sarflangan ehgiyot qismlar qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Yonilg'i va moylash materiallari. Bu moddada ta'mir qilingan mashinalarni sinab ko'rish (obkatka) qilish, detallarni yuvish va boshqa maksadlar uchun sarflangan yonilg'i va moylash materiallarining qiymati aks ettiriladi.

Yordamchi materiallar. Bu moddada remopt uchun sarflangan qalay, po'lat, oyna, bo'yoq, kaustik soda va shunga o'xshaganlar qiymati hisobga olinadi.

Basharti yonilg'i va moylash materiallari hamda yordamchi materiallar bir necha mashina va agregatlar ta'mirlashi uchun foydalanilsa, ularning qiymati ustaxona, sex xarajatlariga qo'shiladi.

Boshqa asosiy xarajatlar. Bunda yuqoridagi xarajat moddalariga qo'shilmagan turli xarajatlar aks ettiriladi. Masalan, chet tashkilotlarning ta'mirlash qilishga doir xizmatlari, elektr payvand ishlarining qiymati va boshqa asosiy xarajatlar.

Umumiy ishlab chiqarish (sex) xarajatlari, bu xarajatlar ta'mirlash ustaxonasi miqyosida qilingan umumiy sarflardan iborat bo'lib, ta'mirlangan ob'ektning qiymatiga bilvosita yo'l bilan taqsimlanadi. Bu xarajatlar alohida tarzda quyidagi moddalarga bo'lib hisobga olinadi.

a) ta'mirlash ustaxona xodimlari (ustaxona mudiri, injeneri, mexanigi, normalovchi va shu kabilar)ning mehnat haqlari ajratmalari bilan ularning ishlagan kishi-soatlari miqdori ham alohida aks ettiriladi.

b) ishlab chiqarish ehtiyojlari va yoritish uchun iste'mol qilingan elektr energiyaning qiymati.

v) ta'mirlash ustaxona bino va asbob-uskunalarining amortizatsiyasi.

g) ta'mirlash ustaxona asosiy vositalarining ta'mirlash fondiga ajratma.

d) mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi (to'siqlar, signallar, ventilyatsiya o'rnatish, plakatlar xarid qilish, maxsus kiyim-bosh, himoya moslamalari va shu kabilar) xarajatlari.

e) Boshqa sex xarajatlari. Bu moddada yuqoridagi xarajat moddalariga qo‘shilmagan turli umumiy ustaxona xarajatlar aks ettiriladi. Ularga, masalai, avtotransport, ot-arava xizmatlari, ustaxona asosiy vositalari sug‘urta bo‘yicha vzposlar va shu kabilar kiradi.

Ta‘mirlash ustaxonasining bu sanab o‘tilgan umumishlab chiqarish xarajatlari ta‘mirlashlangan ob‘ektlar qiymatiga ikki yo‘l bilan qo‘shilishi mumkin:

a) remont ishchilarining ish haqlariga nisbatan rejadagi belgilangan norma miqdorida. sex xarajatlarining plandagi normadan ortiq yoki kam qismiga yil oxirida qo‘shimcha yozuv bilan tuzatish kiritiladi.

b) sex xarajatlarining jami haqiqiy summasi ustaxonaning asosiy xarajatlariga kiritilgan bevosita mehnat haqiga pro-porsional taqsimlanadi.

Xarajatlarni hisobga olish jurnalida har bir analitik schyotlarda barcha xarajatlar aks ettirilgandan so‘ng ta‘mirlash ustaxonasida bajarilgan ish, tayyorlangan buyum va ta‘mirlashlangan ob‘ektlarnng haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Ta‘mirlash ishlari tugagach, tegishli hujjatlar (akt, nakladnoy)ga asosan ta‘mirlashlangan ob‘ekt, ish va buyumlar foydalanishga qabul qilinadi. Bu vaqtda ta‘mirlash uchun sarflangan xarajatlar quyidagi yozuvlar bilai hisobdan chiqariladi:

D-t “Boshqa kapital qo‘yilmalar”-kapital remont xarajatlar summasiga, yoki joriy ta‘mirlash xarajatlar summasiga.

K-t 2310-schyotining yordamchi ishlab chiqarish.

Ta‘mirlash ehtiyojlari uchun turli xarajatlar qilipganda 2300-schyoti debetlanib, quyidagi schyotlar kreditlanadi:

ta‘mirlash uchun 1010-“ta‘mirlash materiallari”, 1030-“neft mahsulotlari”, 1020-“qurilish materiallari”, 1040-“ehtiyot qismlar”, sarflanganda;

2310-schyoti bo'yicha ochilgan analitik schyot-ta'mirlash ustaxonasining umumishlab chiqarish xarajatlari ta'mirlanlangan ob'ektlar qiymatiga o'tkazilganda;

2310-schyot—yordamchi ishlab chiqarishlarning turli tarmoklari tomonidan ko'rsatilgai xarajatlar qiymatiga

5000-va 4290-ta'mirlash ustaxonasining mayda xarajatlari kassadan yoki hisobdor jaxslar orqali to'lansa;

2600-schyot - brakdan ko'rilgan zararlar summasiga;

6700-schyot - ijtimoiy sugurta organlariga hisoblangan summaga va ustaxona asosiy vositalari sug'urtasi bo'yicha davlat sug'urta organlariga to'lashga tegishli summaga;

6700-schyot-ta'mirlash xodimlariga hisoblangan mehnat haqi summasiga;

8900-schyot - opuska haqi rezerv qilinganda;

0200-schyot-ta'mirlash, ustaxona bino va asbob-uskunalarining to'la qayta tiklashga ajratilgan amortizatsiya summasiga.

Ta'mirlash ustaxonalarida yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo'lishi mumkin.

Ishlar o'z kuchi bilan bajarilganda ta'mirlash ishlari borishida foydalanilayotgan materiallar QQSsiz hisobdan chiqariladi. Materiallar xarid qilingani-da ular bo'yicha QQS mahsulot yetkazib beruvchining hisobvaraqa-fakturasiga ko'ra hisobga qabul qilinadi. Ta'mirlash ishlari qiymatiga QQSni hisoblab yozish kerak emas

Misol. Korxonada o'z kuchi bilan ofisdagi kirish eshigini yangiladi. Uni xarid qilish xarajatlari 600 ming so'mni tashkil etdi (shujumladan QQS - 700 ming so'm). Ishchilarga eshikni o'rnatish bo'yicha 15 ming so'm miqdorida ish haqi hisoblandi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar 3,75 ming so'mni tashkil etdi.

Hisobda ta'mirlash quyidagi provodkalar bilan aks ettiriladi:

N	Xo'jolik operatsiyasining mazmuni	Summa (ming so'm)	21-son BHMS bo'yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			debet	kredit
1	Eshikni yetkazib beruvchiga bo'nak o'tkazilgaya	600	4310	5110
2	Eshik olingan va kirim qilingan	500	1050	6010
3	QQS hisobga kiritilgan	100	4410 6410	6010 4410
4	Bo'nakni hisobga olish aks ettiriladi	600	6010	4310
5	Eshik qiymati ta'mirlash xarajatlarida aks ettiriladi	500	2310	1050
6	Ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bo'yicha xarajatlar aks etshiriladi	153,75	2310	6710 6520
7	Ta'mirlash xarajatlari hisobdan chiqarilgan	518,75	9420	2310

Ta'mirlash ishlari pudrat usulida bajarilganida QQS odatay tartibda pudrat tashkilotining hisobvaraqlar-fakturasini bo'yicha hisobga qabul qiliadi.

Misol. Korxonada ofisning bir necha xonasida isitish tizimlarini ta'mirladi. Ta'mirni chet tashkilot bajardi. Ta'mirlash ishlarining qiymati 2400 ming so'mni, shu jumladan QQS 400 ming so'mni tashkil etdi. Hisobda chet tashkilot bajargan ta'mirlash quyidagi provodkalar bilan aks ettiriladi:

	Xo'jolik operatsiyasining mazmuni	Summa (ming so'm)	21-son BXMS bo'yicha	
			debet	kredit
1	Ta'mirlash tashkilotiga bo'nak o'tkazilgan	1200	4330	5110
2	Chet tashkilot tomonidan isitish tizimlari ta'mirlangan	2000	9420	6010

3	QQS hisobga kiritilgan	400	4410 6410	6010 4410
4	Bo‘nakni hisobga olish aks ettiriladi	1200	6010	4310

Korxonalar ta'mirlash qiymatini arzonlashtirish uchun o'zlari zarur qurilish materiallarini (bo'yoq, gulqog'oz, isitish batareyalari va boshqa) xarid qiladilar va ularni ta'mirlash paytida olib kelingan material sifatada ta'mirlash ishlarini bajarayotgan tashkilotga topshiradilar. Bunda ta'mirlash tashkiloti bilan shartnoma bajarishga va, tegishincha, faqat ta'mirlash ishlari qiymatiga tuziladi. Bunday hollarda chet tashkilotga olib kelingan xom ashyo shartlarida beriladigan materiallarga QQSni hisoblab yozish kerak emas. Ta'mirlash tashkilotining bajarilgan ta'mirlash ishlari qiymatidan hisoblab yozilgan hisobvara-q-fakturasi bo'yicha QQSni hisobga qabul qilish kerak. Agar materiallar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan bo'lsa, ular QQSsiz ta'mirlash ishlari qiymatiga hisobdan chiqariladi.

Misol. Korxonada ofisning bir necha xonasida isitish tizimlarini ta'mirlaydi. Ta'mirni chet tashkilot bajargan. Shartnoma bo'yicha ta'mirlash ishlari qiymati - 600 ming so'm, shujumlzdan QQS - 100 ming so'm (materiallarsiz, faqat ta'mirlash ishlarining qiymati). Isitish tizimlarini al-mashtirish uchun korxonada quvurlar va isitish batareyalarini xarid qildi, ularni ta'mirlash paytida pudratchi tashkilotga tolshirdi, Quvur va materiallar qiymati - 2400 ming so'm, shujumladan QQS -400 ming so'm.

Chet tashkilot bajargan, biroq o'z materiallari ishlatilgan tamirlash hisobda quyidagi provod-kalar bilan aks ettiriladi:

N	Xo'jolik operatsiyasining mazmuni	Summa (ming so'm)	21-son BHMS	
			debet	kredit
1	Ta'mirlash tashkilotiga bo'nak o'tkazilgan	600	4330	5110

2	Ta'mirlash uchun quvur va isitish batareyalari hisobdan chiqariyagan	2000	9420	1050
3	Chet tashkilot tomonidan isitish tizimlari ta'mirlangan	500	9420	6010
4	QQS hisobga kiritilgan	100	4410 6410	6010 4410
5	Bo'nakning hisobga kiritilishi aks ettiriladi	600	6010	4310

Bino rekonstruksiya va mukammal ta'mirlanishi buxgalteriya hisobida quyidagi provodkalar bilan aks ettiriladi.

Binoning mukammal ta'mirlanishi:

Pudrat usuli (pudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan)

1) Pudrat tashkilotiga bo'nak hisoblab o'tkazildi (15%)

Debet 4330-«Boshqa berilgan bo'naklar»

Kredit 5110-«Hisob-kitob raqami»

3) Pudrat ishlari bajarildi

Debet 9420-«Ma'muriy xarajatlar» (ma'muriy bino)

Debet 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» (ishlab chiqarish binosi)

Kredit 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

3)Bo'nak hisobga kiritil(olindi)di (15%)

Debet6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

Kredit 4330-«Boshqa berilgan bo'naklar»

4) Pudrat tashkilotiga pul mablag'lari (85%) hisoblab o'tkazildi

Debet 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

Kredit 5110-«Hisob-kitob raqami»

5) Ta'mirlash xarajatlari o'tkazilgan schyotlar moliyaviy natijalarni aks ettiradigan schyotlarga yopiladi

a) ma'muriy binoning ta'mirlash xarajatlari

Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija»

Kredit 9420-«Ma'muriy xarajatlar»

b) Ta'mirlashdan chiqarilgan asosiy vositalarning xarajatlari asosiy ishlab chiqarishga o'tkazilib, tayyor mahsulot tannarxiga qo'shilganda:

Debet 2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» (ishlab chiqarish binosi)

Debet 9130-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi»

Kredit 2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Xo'jalik usuli

1) Ishlab chiqarish sex binosini mukammal ta'mirlash xarajatlari aks ettirildi

Debet 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» (ishlab chiqarish binosi)

Kredit 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar»

Kredit 6520-«Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar (YaIT)»

Kredit 0200-«Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

2) ma'muriy-boshqaruv binosini mukammal ta'mirlash xarajatlari aks ettirildi

Debet 9420-«Ma'muriy xarajatlar» (ma'muriy bino)

Kredit 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar»

Kredit 6520-«Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar (YaIT)»

Kredit 0200-«Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

3. Ta'mirlash xarajatlari o'tkazilgan schyotlar moliyaviy natijalarni aks ettiradigan schyotlarga yopiladi

a) ma'muriy binoning ta'mirlash xarajatlari

Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija»

Kredit 9420-«Ma'muriy xarajatlar»

b) Ta'mirlashdan chiqarilgan asosiy vositalarning xarajatlari asosiy ishlab chiqarishga o'tkazilib, tayyor mahsulot tannarxiga qo'shilganda:

Debet 2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» (ishlab chiqarish binosi)

Debet 9130-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi»

Kredit 2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Misol. Ta'mirlash xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotga o'tkazilganda:

Bino rekonstruksiyasi:

Pudrat usuli

1) Pudrat tashkilotiga bo'nak hisoblab o'tkazildi (15%)

Debet 4330-«Boshqa berilgan bo'naklar»

Kredit 5110-«Hisob-kitob raqami»

2) Pudrat ishlari bajarildi

Debet 0810-«Tugallanmagan qurilish»

Kredit 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

3) Bo'nak hisobga kiritildi (15%)

Debet 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

Kredit 4330-«Boshqa berilgan bo'naklar»

3) Pudrat tashkilotiga pul mablag'lari (85%) hisoblab o'tkazildi

Debet 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar»

Kredit 5110-«Hisob-kitob raqami»

4) Bino rekonstruksiyadan so'ng foydalanishga topshirildi

Debet 0120-«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar»

Kredit 0810-«Tugallanmagan qurilish»

Xo'jalik usuli

Ishlab chiqarish sex binosiga kapital qo'yilmalar aks ettirildi ta'mirlash xarajatlari aks ettirildi

Debet 0810-«Tugallanmagan qurilish»

Kredit 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Kredit 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashlar»

Kredit 6520-«Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar (YaIT)»

Debet 0200-«Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar»

Rekonstruksiya so'ng binoning foydalanishga topshirilganligi aks ettirildi

Debet 0120-«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar»

Kredit 0810-«Tugallanmagan qurilish»

Ob'ektni ishchi holatida tutib turish va undan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydaning belgilangan boshlang'ich summasini olish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar ular daxldor bo'lgan hisobot davridagi xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turishga doir xarajatlar (texnik ko'rikdan o'tkazish va holatini yaxshilashga oid xarajatlar) hamda ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar ob'ektlarining barcha turdagi ta'mirlanishini (joriy, o'rtacha, kapital tarzda) o'tkazish xarajatlari mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar ob'ektlari bo'yicha esa - davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Agar bitta asosiy vositada turlicha foydali ishlatish muddatiga ega bo'lgan bir nechta mustaqil ob'ektlar mavjud bo'lsa, tiklash chog'ida har bir bunday ob'ektni almashtirish chiqib ketish va mustaqil inventar ob'ektini xarid qilish sifatida hisobga olinadi.

Uchinchi usul xaqiqatdagi xarajatlar AVni ta'mirlashga ilgari barpo etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqariladi.

Rezerv fondining tashkil qilinishi asosiy vositalar tamirlash xarajatlarini yil davomida mahsulot va bajarilgan ish, xizmat tannarxiga bir tekis o'tkazilishini ta'minlaydi.

Ta'mirlash ishlarini olib borish uchun rezerv xo'jalik yurituvchi sub'ektda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ruhsati bo'yicha tashkil bo'ladi. Rezerv summasi har oyda, korxonadan tomonidan mustaqil belgilanadigan normativ miqdorda mahsulot tannarxiga ko'shiladi. Normativ besh yil muddatga qat'iy belgilangan summada ishlab chiqilishi lozim yoki asosiy vositalar dastlabki qiymatiga nisbatan foiz ko'rinishida bo'ladi. Rezerv summasining to'g'ri tashkil qilinganligi va undan to'g'ri foydalanish vaqti-vaqti bilan tekshirib turiladi.

Tekshirish smeta, hisob-kitob ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Rezerv summasi 8910- «Kelgusida qilinadigan harajat va to'lovlar rezervi» schyotida hisob qilinadi.

Asosiy vosita ob'ekti foydalanishda bo'lgan sex kuchi bilan bajarilgan, ta'mirlash ishlari qiymatiga quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Ta'mirlash ishlari xo'jalik yoki pudrat usulida olib boriladi. Xo'jalik usulida ta'mirlash ishlari xo'jalik yurituvchi sub'ektning remont-mexanika sexi yoki asosiy ishlab chiqarish sexlari ishchilari tomonidan bajariladi. Pudrat usulida esa ta'mirlash ishlari mahsus remont-qurilish tashkiloti tomonidan shartnoma asosida bajariladi.

Tamirlash ishlari pudrat usulida bajarilsa, tugallangan ta'mirlash ishlari «qabul qilish-topshirish akti» hujjati bilan rasmiylashtiriladi. Aktda ta'mirlash ishlarining smeta qiymati, haqiqiy qiymati, ob'ektning nomi va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Akt ikki nusxada yozilib, bir nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi.


Pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari qiymatiga, pudratchi schyotiga asoslanib quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Asosiy vositalar tamirlash xarajatlarini schyotlarga yozish, 8910- «Kelgusidagi harajatlar rezervi va to'lovlari» schyotidan foydalanilgan holda aks ettirilishi buxgalteriya provodkalari quyidagicha:

Asosiy vositalarni ta'mirlash jarayonida olingan, qaytariladigan chiqindilar, ulardan foydalanish bahosi bo'yicha qabul qilinadi va asosiy vositalarning tamirlash bo'yicha haqiqiy harajatlarning kamayishiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi bilan yoziladi:

15.8. Asosiy vositalarni qayta baholash muomalalarini hisobda aks ettirish.

Asosiy vositalarni qayta tiklash qiymati yoki qayta baholanishining ikkita tartibini berib o'tish mumkin.



15.7-rasm Asosiy vositalarni qayta baholash tartiblari.

Asosiy vositalarni indeks usulida qayta baholanishi ularning amal qilib kelingan qayta baholashni tavsiflaydi, ya'ni yuqori organ tomonidan asosiy vositalarning turi va foydalanishga topshirilgan yillari bo'yicha indeksleri tushuniladi. Ushbu indekslar asosida asosiy vositalarning dastlabki qiymati qayta korrekcirovka qilinadi. Asosiy vositalarning eskirish qiymatlari ham ushbu koeffitsentlar asosida qayta o'zgartiriladi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashdan maqsad ularni o'rnini tiklash hisoblanadi. Shunday ekan, asosiy vositalarni qayta baholashda ularni eskirish qiymatini qayta baholash koeffitsiyentlari bilan korrekcirovka qilmaslik lozim. Negaki, o'rtadagi eskirish sifatida aks ettirilgan tafovut xarajatlar tarkibida aks etmagan. Fikrimizga to'liqroq sharx beradigan bo'lsak, asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summaları xarajatlar tarkibiga kiritilib, mahsulot tannarxi bilan yoki davr xarajatlarini daromadlar orqali qoplanishi bilan pul ko'rinishida qaytarib olinadi. Qayta baholash natijasida korrekcirovka qilingan amortizatsiya summasi bilan shu

kungacha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq pul ko'rinishida qaytarib olinmaydi, bu esa asosiy vositalarning o'rnini qayta tiklash uchun boshqa aktivlardan foydalanishga, ya'ni haqiqiy hisoblangan amortizatsiya qiymati bilan asosiy vosita qiymati o'rtasidagi qiymat boshqa mablag'larni sarflash bilan qoplanadi.

Bozor bahosida va indeks usulida baholashlar hisobot yilining birinchi yanvar holatiga, ya'ni moliyaviy hisobot tuzish vaqtiga amalga oshirilishi mumkin. Asosiy vositalarni bozor bahosida qayta baholanishi hisobot tuzish sanasiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mavjud bo'lgan va foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarning haqiqiy bozordagi qiymatidan kelib chiqqan holda tuzatishlar kiritiladi. Asosiy vositalarning eskirish qiymatlarining oshirilishi ushbu farqlar foiziga o'zgartiriladi.

O'z o'rnida, bozor bahosida baholash usulini amaliyotga joriy etishning huquqiy va tashkiliy mezonlari belgilanmog'i lozim bo'lib, shuning uchun hozirgi kunga kelib uni qaysi organ va tashkilot tomonidan amalga oshirilishi, uning tartib qoidalari belgilanmagan. Bu tartiblarni belgilashda yagona organ ochilishi yoki uning xizmat funksiyalarining boshqa organga berilishi bilan hal etilishi o'z yechimini topishi mumkin bo'lgan masala sifatida bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Tiklangan qiymat - asosiy vositalarning qayta baholashni hisobga olgan holdagi qiymati. Asosiy vositalarning tiklash qiymati asosiy fondlarni qayta hosil qilish qiymati bilan, ya'ni ularning qurilishi yoki ularni muayyan muddatda joriy bozor narxida sotib olish bilan bog'liq.

2002 yil 1 yanvardan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining asosiy fondlarini har yili 1 yanvar holatiga qayta baholashlari kerak.

2009 yil 19-noyabrdagi 1192-2 soni O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan (20.10.2009 y. 2 sonli O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasining, 20.10.2009 y. N 2009-30 sonli, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasining, 20.10.2009 y. N 98

O'zbekiston respublikasi moliya vazirligining, 20.10.2009 y. N 90 O'zbekiston respublikasi iqtisodiyot vazirligining qarori) 1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qaror asosida qayta baholash o'tkaziladi.

Ham o'z asosiy vositalari, ham uzoq muddatga ijaraga olingan, shu jumladan uzoq muddatli lizing bo'yicha olingan asosiy vositalar qayta baholanishi kerak. Shuningdek, o'rnatilishi kerak bo'lgan uskunalar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar ham qayta baholanadi.

Misol. Ishlab chiqarish uskunasi 800 ming so'mlik dastlabki qiymatga va 460 ming so'mlik jamlangan eskirishga ega. Uskuna qiymatini qayta baholash 5,6 koeffitsiyenti bo'yicha amalga oshirilgan.

Asosiy vositalarning tiklash qiymati 4480 ming so'mni tashkil qiladi. Eskirish summasi ta'kidlangan koeffitsiyent bilan tuzatilgan – 2576 ming so'm, Asosiy vositalar qiymatidagi 3680 ming so'mlik farq korxonaning zaxira hisobidagi kapitalini ko'paytiradi, eskirishdagi – 2116 so'mlik farq, esa kamaytiradi.

Asosiy vositalarni qayta baholash shuningdek, korxonalar mulk egasining qaroriga asosan asosiy vositalar boshqa korxonalar ustav fondiga ulush sifatida kiritilayotganda ham amalga oshirilishi mumkin.

Misol. Korxonalar boshqa korxonaning ustav fondiga o'zining ulushi sifatida 18600 ming so'mlik dastlabki qiymatga ega bo'lgan, 3162 ming so'mlik eskirish hisoblangan kompyuterni kiritadi. Ta'sisчилarning kelishuviga asosan kompyuter qiymati 22500 ming so'mga baholangan.

Yuqorida nomi keltirilgan yo'riqnomaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan aylanma bo'lib ulushning qiymati 25662 ming so'm va qoldiq qiymati 18600 ming so'm o'rtasidagi farq, ya'ni 7062 ming so'm hisoblanadi. QQS summasi 921.1 ming so'mni tashkil qiladi ($7062 \cdot 15 : 115$).

T/r	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so'm	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			21-son BHMS bo'yicha	
			debet	kredit
1	Kompyuterning dastlabki qiymati hisobdan chiqarildi.	18600	9210	0150
2	Eskirish hisobdan chiqarildi	3162	0250	9210
3	Ulush uzoq muddatli investitsiyalar sifatida aks ettiriladi	22500	0610- 0690	9210
4	QQS hisoblandi	921.1	9210	6410

Keltirilgan hisobvaraqlar korrespondensiyasidan shu narsa ko'rinib turibdiki, ulush sifatida berilayotgan komp'yuter qiymatini buxgalteriya hisobida qo'shimcha baholash boshqa korxonaga berilgunga qadar amalga oshirilmagan. Shuning uchun kompyuter qiymatini hisobdan chiqarish 18600 ming so'm dastlabki bahosi bo'yicha amalga oshiriladi, - 22500 ming so'm ulush summasi esa shartnomaviy narxda aks ettiriladi.

Soliq to'lovlarini, xususan QQS bo'yicha, maqbullashtirish maqsadida ulush qo'yuvchi korxonalarga asosiy vositalarni qo'shimcha baholash summasini ularni boshqa tashkilotning ustav fondiga bergunga qadar amalga oshirishni tavsiya qilish mumkin.

Bunda yuqoridagi misol ma'lumotlari bo'yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi va QQS summasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

t/r	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so'm	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			21-son BHMS bo'yicha	
			debet	kredit

1	Kompyuterning muassislar bilan kelishilgan qiymatigacha bo‘lgan qo‘shimcha baholanishi aks ettiriladi	3900	0150	8510
2	Eskirishning qo‘shimcha baholangan summasi aks ettiriladi	632,4	8510	0250
3	Kompyuterning dastlabki qiymati hisob-dan chiqarildi	22500	9210	0150
4	Eskirish hisobdan chiqarildi	3794,4	0250	9210
5	Ulush uzoq muddatli investsiyalar sifatida aks ettirildi	22500	0610-0690	9210
6	QQS hisoblendi	494,8	9210	6410

Asosiy vositalarni qayta baholash natija sifatida asosiy vositalar qiymatining turli sabablarga ko‘ra (ma‘naviy eskirishi va texnologiyaning o‘zgarishi, avariya oqibatida qiymatning yo‘qolishi) pasayishiga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu hollarda asosiy vositalar qiymatini arzonlashtirish (kamaytirish) qiymati «Mol-mulkni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» 8510-hisobvarag‘i debeti bo‘yicha avvalgi qayta baholash doirasida aks ettiriladi. Avvalgi qayta baholash summasi yetmagan holda arzonlashtirish summasi va qayta baholashning avvalgi summasi o‘rtasidagi farq xarajat sifatida tan olinadi va «Boshqa operatsion xarajatlar» 9430-hisobvarag‘ida aks ettiriladi.

Misol.

Kompyuterning 202X yil 1 yanvar holatiga dastlabki qiymati 2200 ming so‘mni, hisoblangan eskirish esa 1600 ming so‘mni tashkil qildi. Shu yilning oxiriga kelib shunga o‘xshash kompyuterlarning bozor narxi 2800 ming so‘mgacha ko‘tarildi.

Bir yildan so‘ng kompyuterlarning bozor narxi 1000 ming so‘mga tushib ketdi.

T/r	Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so‘m	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
			21-son BHMS bo‘yicha	
			debit	kredit

1	Kompyuter dastlabki qiy-matini qo‘shimcha baholash aks etgiriladi.	600	0150	8510
2	Eskirish summasini qo‘shimcha baholash aks ettiriladi	438,5	8510	0250
3	Kompyuter qiymatining avvalgi qayta baholash doirasidagi arzonlashuvi aks ettiriladi	600	8510	0150
4	Arzonlashuv summasi va avvalgi qayta baholash summasi o‘rtasidagi farq aks ettiriladi	400	9430	0150

Tiklash qiymatidan asosiy vositalarni qayta sotib olish bilan uzoq muddatli ijaraga berishda, korxonani aksiyadorlik jamiyatiga aylantirishda ob’ektning qayta sotib olish bahosini hisoblashda foydalaniladi. Tiklash qiymati ushbu hollarda ekspert yo‘li bilan aniqlanadi.

2009 yil 19-noyabordagi 1192-2 soni O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan (20.10.2009 y. 2 sonli O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasining, 20.10.2009 y. N 2009-30 sonli, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasining, 20.10.2009 y. N 98 O‘zbekiston respublikasi moliya vazirligining, 20.10.2009 y. N 90 O‘zbekiston respublikasi iqtisodiyot vazirligining qarori) 1 yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

Davlat statistika qo‘mitasi Yangi yil arafasida asosiy fondlarni qayta baholash indekslarini e‘lon qildi. 1 fevralga qadar quyidagilar tomonidan AF qayta baholanishi lozim:

1) so‘nggi marta qayta baholashni 2017 yil yanvarda o‘tkazgan kichik biznes sub’ektlari;

2) kichik tadbirkorlik sub’ektlari jumlasiga kirmaydigan boshqa korxonalar, shu jumladan 2019 yilda tashkil etilgan korxonalar.

Quyidagilarni qayta baholang:

- 1) asosiy vositalar (0100-schyot);
- 2) o‘rnatiladigan uskunalar (0700-schyot);
- 3) qurilishi tugallanmagan ob’ektlar (0810-schyot);

4) moliyaviy ijara shartnomasi, shu jumladan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar (0310-schyot).

Quyidagilarni qayta baholamang:

1) yer uchastkalari, belgilangan tartibda xususiylashtirilgan yer uchastkalari bundan mustasno;

2) tabiatdan foydalanish ob'ektlari.

Qayta baholash qanday o'tkazilishi. Ob'ektlarni qayta baholash 1 yanvar holati bo'yicha o'z tanloviga ko'ra – indeks usuli yoki bevosita baholash usulida o'tkaziladi:

indeks usuliga muvofiq - qayta baholashni o'tkazish sanasidagi holatga ko'ra buxgalteriya hisobida qayd etilgan ob'ektlarning dastlabki (tiklanish) qiymati va ular bo'yicha eskirish summasini (eskirish to'liq hisoblangan ob'ektlar ham kiradi) tegishli indekslarga ko'paytiring. Ular asosiy fondlar turlari bo'yicha va ularni xarid qilish davrlariga bog'liqlikda tabaqalangan;

bevosita qayta baholash usuliga muvofiq - qayta baholash o'tkaziladigan davrda hujjatlar asosida tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha ob'ektlar qiymatini qayta hisoblang.

Qayta baholash oldingi qayta baholash natijasida olingan ob'ektlarning tiklanish qiymatidan amalga oshiriladi. Oxirgi qayta baholashdan keyin qo'shilgan ob'ektlar esa hisobga olish qiymatidan qayta baholanadi.

Korxonangiz kichik biznes sub'ekti hisoblanmasa, 2020 yilda AF tiklanish qiymatini, ya'ni 2019 yil 1 yanvarga oldingi qayta baholash natijasida olingan qiymatini qayta baholashingiz lozim. 2019 yilda xarid qilingan ob'ektlar bo'yicha ular hisobga olingan dastlabki qiymatini qayta baholang.

Korxonangiz kichik biznesga mansub bo'lsa, indeks usulini qo'llash chog'ida navbatdagi qayta baholashni o'tkazish davrida (3 yilda 1 marta) so'nggi qayta baholashdan keyin o'tgan yillar uchun har yili tasdiqlanadigan indekslarni hisobga oling. Ya'ni, siz so'nggi marta asosiy fondlarni 2017 yil 1 yanvarda qayta baholagan bo'lsangiz, ularni 2020 yil 1 yanvarga so'nggi qayta baholashdan (2018-2020 yillar) keyin o'tgan yillar uchun qayta baholash indekslarini hisobga

olgan holda qayta baholashingiz kerak. 2018 yilda xarid qilingan asosiy fondlar uchun 2019 va 2020 yillardagi qiymatni o'zgartirish indekslarini hisobga olish lozim.

Ob'ektlarning dastlabki (tiklanish) qiymatini hisoblash bilan bir vaqtda jamlangan eskirish summasini (0200-schyot) ham qayta hisoblang. Eskirish to'liq hisoblangan ob'ektlar bo'yicha ham shunday hisoblang:

indeks usulida -asosiy fondlar qiymatini o'zgartirishning tegishli indekslariga;

bevosita qayta hisoblash usulida - qayta baholashdan keyingi tiklanish qiymatining qayta baholashgacha bo'lgan qiymatga nisbati bilan hisoblab chiqariladigan qayta hisoblash koeffitsiyentiga.

Keyinchalik amortizatsiya qayta baholangan qiymatdan hisoblanadi.

3 YIL UCHUN QAYTA BAHOLASHGA MISOL

№	<i>Asosiy vositalar nomi</i>	<i>Xarid qilingan sanasi</i>	<i>1.01.2020 yilga dastlabki (tiklanish) qiymati</i>	<i>1.01.2020 yilga jamlangan eskirish</i>
	1	2	3	4
1	Metall kesuvchi dastgoh	2003 y.	510 000	510 000
2	Kompyuter	1 kv. 2019 y.	6 000 000	900 000
3	Mebel to'plami	2014 y.	1 150 000	862 500

	<i>baholash indekslari</i>			<i>Qayta baholangan qiymat (3-ust. x 5-ust. x 6-ust. x 7-ust.)</i>	<i>Qayta baholangan eskirish (4-ust. x 5-ust. x 6-ust. x 7-ust.)</i>
	<i>1.01.2018 yilga</i>	<i>1.01.2019 yilga</i>	<i>1.01.2020 yilga</i>		
	5	6	7	8	9
Metall kesuvchi dastgoh	1,463	1,012	1,040	785 287	785 287
Kompyuter			1,000	6 000 000	900 000
Mebel to'plami	1,144	1,080	1,039	1 476 261	1 107 196

Qayta baholash natijasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

asosiy vositalar (0100), moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar (0300), kapital qo'yilmalar (0800), o'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700) hisobga olish schyotlari debeti - asosiy vositalar ob'ektlarining dastlabki (tiklanish) qiymatini qo'shimcha baholash summasiga;

✓ asosiy vositalar eskirishini hisobga olish schyotlari krediti (0200) - asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishini qo'shimcha baholash summasiga;

✓ 8510-«Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti krediti - asosiy fondlar ob'ektining dastlabki (tiklanish) qiymatini qo'shimcha baholash va jamlangan eskirishi summalari o'rtasidagi farq summasiga.

Misolimizda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo'ladi:

<i>Asosiy fondlar nomi</i>	<i>Summa, so'm</i>	<i>Debet</i>	<i>Kredit</i>
Metall kesuvchi dastgoh	275 287 (785 287 - 510 000)	0130- «Mashina va asbob-uskunalar»	0230-«Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi»
Kompyuter	-	-	-
Mebel to'plami	244 696 (1 107 196 – 862 500)	0140-«Mebel va ofis jihozlari»	0240-«Mebel va ofis jihozlarining eskirishi»
	81 565 (1 476 261 – 1 150 000 – 244 696)		8510-«Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»

Balansda qanday aks ettiriladi?

1 yanvar holatiga ko'ra qayta baholash natijalarini qayta baholash o'tkazilgan joriy davr uchun moliyaviy hisobotda aks ettiring. Bu 2020 yil yanvarda o'tkazilgan qayta baholash natijalari 2020 yil uchun hisobotda uni tuzish

chog'ida (2020 yil I choragi uchun hisobotda uni tuzuvchilar uchun) aks ettirilishi kerakligini anglatadi. Ular 2019 yil uchun hisobotda aks ettirilmaydi.

Shu tariqa, 2019 yil uchun moliyaviy hisobotda asosiy fondlar qiymati yil oxiriga qayta baholashsiz aks ettiriladi. 2020 yil uchun moliyaviy hisobotda ushbu qiymat yil boshiga qayta baholash natijalarini hisobga olgan holda ko'rsatiladi. O'tgan yil oxiridagi va hisobot yili boshidagi ma'lumotlarning bunday nomuvofiqligi 2020 yil uchun moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida tushuntirib berilishi lozim.

15.9. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishini hisobga olish

Quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida asosiy vositalar ob'ektlarining qiymati xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivlari tarkibidan chiqib ketadi:

sotilganda;

➤ undan buyon foydalanish maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra hisobdan chiqarilganida;

➤ chet xo'jalik yurituvchi sub'ekt va shaxslarga bepul berilganida;

➤ boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shilganida;

➤ moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshirilganida;

➤ kamomad yoki yo'qotish aniqlanganida.

Asosiy vositalar chiqib ketganida ularning dastlabki qiymati asosiy vositalarni hisobga olishning tegishli schyotlari kreditidan 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» schyoti debetiga hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalarni chetga sotishdan tushgan tushum 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» schyoti krediti bo'yicha 4890-«Boshqa shaxslarning qarzlari-joriy qismi» va 0990-«Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyotlari bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Asosiy vositalar chiqib ketganida ular bo'yicha hisoblangan eskirish summasi 0210-0290-schyotlari debetidan 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» schyoti kreditiga hisobdan chiqariladi.

To'liq amortizatsiya qilinmagan asosiy vositalarning sotilishidan ko'rilgan foyda (zarar) asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati, QQS (faqat QQS to'lovchilari uchun) hamda sotish xarajatlari va tushumlariga to'g'rilangan, o'yning 1-sanasiga hisoblangan eskirish o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Misol.

«MALIKA» hissadorlik jamiyatida may oyida asosiy vosita hisobdan chiqarildi: balans qiymati 120000 so'm, eskirish qiymati 30000 so'm.

Asosiy vositaning sotish qiymati 80000 so'm. Moliyaviy natijani aniqlab, muomalaga quyidagicha provodka beramiz:

◆ dasturiy ta'minotning sotish qiymatiga:

D-t 4890-«Boshqa shaxslarning qarzlari-joriy qismi» - 200000 so'm

K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 200000 so'm.

◆ balans qiymati hisobdan chiqarildi:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 120000 so'm

K-t 0130-«Mashina va jihozlar» -120000 so'm.

◆ eskirish qiymati hisobdan chiqarildi:

D-t 0230-«Mashina va jihozlarning eskirishi» - 30000 so'm K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 30000 so'm.

◆ QQS hisoblab yozildi. QQS summasi asosiy vositalarning shartnomaviy qiymati va qoldiq qiymati o'rtasidagi farqdan aniqlanadi. Soliqqa tortiladigan oborot $200 - (120 - 30) = 110000$ so'mdan iborat.

$QQS = 110000 * 20 / 100 = 18300$ so'm;

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 18300 so'm

K-t 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari» -18300 so'm.

◆ Asosiy vositani sotishdan foyda olindi (200000+30000-120000-18300)=91700so'm:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 91700 so'm.

K-t 9310-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan foyda» - 91700 so'm.

To'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni bepul berishdan ko'rilgan zararlari mazkur asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati hamda berilgan oydan oldingi oyning 1-sanasiga hisoblab yozilgan va berayotgan taraf tomonidan to'lanadigan QQS summasiga ko'paytirilgan eskirish o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Misol.

Boshlang'ich qiymati 70000 so'm bo'lgan stanok boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektga bepul berilgan, eskirish summasi-30000 so'm.

Bunda asosiy vositalarning qoldiq qiymati QQSga tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi, ya'ni $70000-30000=40000$ so'm.

Hisoblab yozilgan QQS summasi $40000*20/100=6700$ so'm.

Asosiy vositani bepul berishdan ko'rilgan zarar summasi quyidagiga teng: $70000-6700-30000=33300$ so'm. Ushbu muomalalarga quyidagicha provodka beramiz:

◆ balans qiymati hisobdan chiqarildi:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 70000 so'm

K-t 0130-«Mashina va jihozlar» - 70000 so'm.

◆ eskirish qiymati hisobdan chiqarildi:

D-t 0230-«Mashina va jihozlarning eskirishi» - 30000 so'm K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 30000 so'm.

◆ QQS hisoblandi:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 6700 soʻm

K-t 6410-«Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarzarlar» - 6700 soʻm.

◆ Stanokni bepul berishdan zarar koʻrildi (70000-6700-30000)^33300 soʻm:

D-t 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» - 33300 soʻm

K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 33300 soʻm.

Mol-mulknı bepul berishdan koʻrilgan zararlar teskari hisoblash yoʻli bilan berayotgan xoʻjalik yurituvchi subʻektda soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladi.

Asosiy vositalar boshqa xoʻjalik yurituvchi subʻektning ustav kapitaliga badal sifatida kiritilishi mumkin.

Misol.

Xoʻjalik yurituvchi subʻekt boshqa xoʻjalik yurituvchi subʻektning ustav kapitaliga boshlangʻich qiymati 350000 soʻm boʻlgan, 500000 soʻm shartnoma bahosiga ega boʻlgan hamda eskirishi 140000 soʻm boʻlgan stanokni ulush sifatida kiritdi. Ushbu muomalalarga quyidagicha provodkalar beriladi:

◆ Boshlangʻich qiymatni hisobdan chiqarish:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 350000 soʻm

K-t 0130-«Mashina va jihozlar» - 350000 soʻm.

◆ eskirish qiymati hisobdan chiqarildi:

D-t 0230-«Mashina va jihozlarning eskirishi» -140000 soʻm K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 140000 soʻm.

◆ shartnomaviy bozor bahosi boʻyicha uzoq muddatli investitsiyalar:

D-t 0620-0690-«Uzoq muddatli investitsiyalar» - 500000 soʻm K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 500000 soʻm.

15.10. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi.

Hozirgi davrda sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligida yangi iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarishga keng joriy qi-lish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, korxonalar mablag'larini ijaraga olish (lizing) munosabatlari.

Ijara munosabatlari deganda nima tushuniladi?

Ijara munosabatlari tushunchasining mohiyati shundan iboratki, bunda ijarachi ijara beruvchidan shartnoma asosida ishlab chiqarish vositalari, yer va boshqa mol-mulklarni ma'lum bir muddatga ijara to'lovi asosida foydalanish uchun oladi. Ijara munosabatlarida ijara haqi muhim rol o'ynaydi va ijarachi bilan ijara beruvchi munosabatlarini keltirib chiqaradi.

Asosiy vosita ijarasi bu, ijaraga oluvchini ho'jalik faoliyatini mustaqil amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan asosiy vosita ob'ektlaridan foydalanishi yoki mulkchilik huquqiga ega bo'lishga asoslangan shartnomadir.

Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat ijara shartnomasi bilan tartibga solinadi. Ijara shartnomasi, ijara haqi miqdori, ijara muddati, tomonlarning ijara shartlarini bajarish bo'yicha majburiyatlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'zida mujassam etishi lozim.

Ijaraning quyidagi turlari mavjud:

Ijara muddatiga qarab:

uzoq muddatli ijara - bir yil va undan ortiq muddatga;

qisqa muddatli ijara - bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga;

Mulkni topshirish shartiga ko'ra:

moliyalashtirilgan;

joriy.

Asosiy vositalarni moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshirishda asosiy vositalarni joriy qiymatigacha qayta baholash amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati (agar topshiriladigan ob'ektdan foydalanilmagan bo'lsa) yoki qoldiq qiymati (agar topshirishgacha ob'ektdan foydalanilgan bo'lsa) va joriy qiymati orasidagi farq, ular moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshirilgan takdirida kelgusi davrlar daromad (xarajat)lari

sifatida aks ettiriladi. Lizing to'lovi hisoblab yozilishi davomida ular bir maromda (har oyda) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadga kiritiladi.

Misol. Lizing beruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshlang'ich qiymati 350000 so'mlik bo'lgan uskunani moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshiradi, 300000 so'mlik shart-noma qiymati bo'yicha hisoblab yozilgan eskirish 140000 so'm.

Provodkalar quyidagicha bo'ladi:

- shartnoma bahosi bo'yicha chiqib ketish hamda joriy va uzoq muddatli qismini ajratgan holda butun lizing davri uchun belgilangan lizing to'lovlarining aks etishi:

D-t 0920, 4810-«Moliyaviy lizing bo'yicha olinadigan to'lovlar» - 300000 so'm

K-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 300000 so'm.

Boshlang'ich qiymatni hisobdan chiqarish:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 350000 so'm

K-t 0130-«Mashina va uskunalar» - 350000 so'm.

- hisoblangan eskirishni hisobdan chiqarish:

D-t 0230-«Mashina va uskunalarining eskirishi» -140000 so'm

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 140000 so'm.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi natijasini aks ettirish quyidagicha bo'ladi:

D-t 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» - 90000 so'm

K-t 7230,6230-«Muddati uzaytirilgan daromad» - 90000 so'm.

- lizing to'lovlari kelib tushganda:

D-t 5110-«Hisob-kitob schyoti»

K-t 4810-«Lizing bo'yicha olinadigan joriy to'lovlar».

Bir vaqtning o'zida moliyaviy faoliyatdan olingan daromaddan muddati uzaytirilgani daromadning tegishli qismini hisobdan chiqarish buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 6230-«Muddati uzaytirilgan daromad»

K-t 9550-«Moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra mol-mulkni topshirishdan olingan daromad».

Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat ijara shartnomasi bilan tartibga solinadi. Ijara shartnomasi, ijara haqi miqdori, ijara muddati, tomonlarning ijara shartlarini bajarish bo'yicha majburiyatlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'zida mujassam etishi lozim.

Moliyaviy ijara ob'ektlarini keyinchalik moliyaviy ijaraga berish maqsadlarida xarid qilish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara ob'ektlari ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini qo'shgan holda (agar ular qoplanmasa) kirim qilinganda:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" yoki 6120 "Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schyotlar" yoki turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoxud boshqa tegishli schyotlar;

b) moliyaviy ijara ob'ektlarini xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarga:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti, 6110 "Ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schyotlar", 6120 "Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schyotlar", turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) va boshqa tegishli schyotlar;

v) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan qoplanadigan va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan moliyaviy ijara ob'ektini yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo'yicha

foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bogʻliq xarajatlar amalga oshirilganda:

debit kapital qoʻyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi boʻyicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sugʻurta va maqsadli davlat jamgʻarmalariga toʻlovlar boʻyicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

g) moliyaviy ijara shartnomasi boʻyicha ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan qoplanmaydigan va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan moliyaviy ijara obʻektini yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi boʻyicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bogʻliq xarajatlar amalga oshirilganda:

debit 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi boʻyicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sugʻurta va davlat maqsadli jamgʻarmalariga toʻlovlar boʻyicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

d) ijara obʻektini xarid qilish va uni belgilangan maqsadi boʻyicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bogʻliq xizmatlarni koʻrsatgan mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa xoʻjalik yurituvchi subʻektlar oldidagi qarzlarning toʻlanishi (qoplanishi):

debit 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga toʻlanadigan schyotlar", 6120 "Shoʻba va qaram xoʻjalik jamiyatlariga toʻlanadigan schyotlar", turli kreditorlarga boʻlgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) va boshqa tegishli schyotlar;

kredit pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar.

Agar moliyaviy ijara shartnomasining sharti boʻyicha moliyaviy ijara obʻekti sotuvchi tomonidan ijaraga beruvchini (lizingga beruvchini) chetlab bevosita ijaraga oluvchiga (lizingga oluvchiga) yetkazib berilsa, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida moliyaviy ijara obʻektining kirimi va

chiqimi to'g'risidagi yozuvlar moliyaviy ijara ob'ektining harakatini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Agar moliyaviy ijara shartnomasining sharti bo'yicha ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan moliyaviy ijara ob'ekti sotib olingan bo'lsa, lekin ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) ma'lum sabablarga ko'ra uni qabul qilishdan bosh tortsa, mazkur moliyaviy ijara ob'ekti undan foydalangunga yoki chiqib ketgunga qadar kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlarda (0800) hisobga olinadi.

Agar minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymatidan past bo'lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati bo'yicha tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymatidan yuqori bo'lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymati bo'yicha tan olinishi lozim.

Moliyaviy ijara ob'ektlari berilganda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida tan olinadigan qiymat bilan moliyaviy ijara ob'ektining boshlang'ich (agar berilayotgan ob'ekt oldin foydalanilmagan bo'lsa) yoki qoldiq (agar ob'ekt berilgunga qadar foydalanishda bo'lgan bo'lsa) qiymati o'rtasidagi farq 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida hisobga olinadigan moliyaviy ijara ob'ektlarining qayta baholash natijalarini, ya'ni ushbu moliyaviy ijara ob'ekti bahosining oldingi o'sishi summasining, ijara ob'ekti bahosining oldingi pasayishi summasidan ortgan summasini hisobga olgan holda tuzatishlar qilingandan so'ng, kechiktirilgan daromad (xarajat) sifatida aks ettiriladi va ijara (lizing) to'lovining hisoblanishiga qarab bir maromda (oyma-oy) asosiy faoliyatning boshqa daromadlariga (boshqa operatsion xarajatlariga) olib boriladi.

Moliyaviy ijara ob'ektlarining ijaraga oluvchiga (lizingga oluvchiga) berilishi, agar berilayotgan ob'ekt oldin foydalanilmagan bo'lsa, buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara ob'ektlari moliyaviy ijaraga berilganda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida tan olinadigan qiymatiga:

debit 0920 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

kredit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

b) moliyaviy ijara ob'ektlarining balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

v) moliyaviy ijara ob'ektining qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debit 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar";

kredit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

g) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarini berish natijasida kechiktirilgan daromadlar paydo bo'lganda:

debit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit 7230 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar" schyoti;

d) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarini berish natijasida kechiktirilgan xarajatlar paydo bo'lganda:

debit 0990 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar" schyoti;

kredit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti.

Moliyaviy ijara ob'ektlarining ijaraga oluvchiga berilishi, agar berilayotgan ob'ekt oldin foydalanishda bo'lgan bo'lsa, ya'ni asosiy vositalar tarkibida bo'lgan holatda, buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) asosiy vositalar moliyaviy ijaraga berilganda, ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida tan olinadigan qiymatiga:

debit 0920 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

b) asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100);

v) asosiy vositalarning jamlangan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200);

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

g) ijaraga beruvchi tomonidan moliyaviy ijara ob'ektini yetkazib berish va uni belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq xarajatlar summasiga:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

d) asosiy vositalarning ushbu ob'ektini qayta baholash natijalari (qoldig'i) summasiga:

debet 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

e) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha asosiy vositalarni berish natijasida kechiktirilgan daromadlar paydo bo'lganda:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit 7230 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar" schyoti;

j) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha asosiy vositalarni berish natijasida kechiktirilgan xarajatlar paydo bo'lganda:

debet 0990 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

Moliyaviy ijara ob'ektlarining moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilishi natijasida paydo bo'lgan kechiktirilgan daromadlar va kechiktirilgan xarajatlarning hisobdan chiqarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida paydo bo'lgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 7230 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar" schyoti;

kredit 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar" schyoti;

b) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida paydo bo'lgan kechiktirilgan daromadlarning joriy qismining hisobot davri davomida bir maromda moliyaviy natijalarga o'tkazib borilishi:

debet 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar" schyoti;

kredit 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" schyoti;

v) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyoti;

kredit 0990 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar" schyoti;

g) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida paydo bo'lgan kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismining hisobot davri davomida bir maromda moliyaviy natijalarga o'tkazib borilishi:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyoti.

Mulkni moliyaviy ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalar joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) hisoblangan daromadi summasini (ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiradi:

debet 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

kredit 9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyoti.

Mulkni moliyaviy ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblanmagan korxonalar joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) hisoblangan daromadi summasini (ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiradi:

debet 4830 "Olinadigan foizlar" schyoti;

kredit 9550 "Moliyaviy ijaradan daromadlar" schyoti.

Mulkni moliyaviy ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalarda ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) ijara (lizing) to'lovlarning kelib tushishi bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan uzoq muddatli to'lovlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 0920 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

b) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) pul mablag'lari kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyoti;

v) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to'lovlari bo'yicha ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) bo'nak kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

g) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelganda ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) oldin olingan bo'naklar qoplashga (hisoblashishga) olib borilganda:

debet 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Mulkni moliyaviy ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblanmagan korxonalarda ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) ijara (lizing) to'lovlarining kelib tushishi bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan uzoq muddatli to'lovlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 0920 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

b) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) pul mablag'lari kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 4830 "Olinadigan foizlar" schyoti;

v) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to'lovlari bo'yicha ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) bo'nak kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

g) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelganda, ijaraga oluvchidan (lizingga oluvchidan) oldin olingan bo'naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 4830 "Olinadigan foizlar" schyoti.

Moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugagandan keyin ijara oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara ob'ektining qaytarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijara ob'ektining qoplanmagan qiymati summasiga:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

b) ijara oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini yaxshilash xarajatlarining ijara beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan qoplash uchun tan olinishi:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

v) moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijara beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini qaytarish bo'yicha xarajatlar (buzish, tashish va boshqalar) summasiga:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

g) ijara oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini yaxshilash bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun pul mablag'lari o'tkazilganda:

debet turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar.

Ijara oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara ob'ektini muddatidan oldin qaytarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara to'xtatilgan sanadagi moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijara ob'ektining qoplanmagan qiymati summasiga:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit 4810 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 0920 "Moliyaviy ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti - uzoq muddatli qismi;

b) ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini yaxshilash xarajatlarining ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan qoplash uchun tan olinishi:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

v) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida vujudga kelgan kechiktirilgan daromadlarning qolgan summalarini moliyaviy natijalarga o'tkazish:

debet 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar" schyoti - joriy qismi;

debet 7230 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar" schyoti - uzoq muddatli qismi;

kredit 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" schyoti;

g) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha moliyaviy ijara ob'ektlarining berilishi natijasida vujudga kelgan kechiktirilgan xarajatlarning qolgan summalarini moliyaviy natijalarga o'tkazish:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyoti - joriy qismi;

kredit 0990 "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar" schyoti - uzoq muddatli qismi;

d) moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini qaytarish bo'yicha xarajatlar (buzish, tashish va boshqalar) summasiga:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

e) ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara ob'ektini yaxshilash bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun pul mablag'lari o'tkazilganda:

debet turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);
kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar.

*Ijaraga oluvchida (lizingga oluvchida) moliyaviy ijara bo'yicha
operatsiyalarning hisobi*

Agar minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymatidan past bo'lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati bo'yicha tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to'lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymatidan yuqori bo'lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida moliyaviy ijara ob'ektining joriy qiymati bo'yicha tan olinishi lozim.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olib kelingan moliyaviy ijara ob'ektlari buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara ob'ektlarini ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida tan olinadigan qiymati bo'yicha kirim qilish:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit 7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyoti;

b) moliyaviy ijara ob'ektlarini belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar summasiga:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

v) moliyaviy ijara ob'ektlarini boshlang'ich qiymat bo'yicha foydalanishga topshirish (ularning asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilishi):

debet 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti;

kredit kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800).

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda:

debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2100, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400 va boshqa schyotlar - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning belgilangan maqsadiga qarab);

kredit 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyoti;

b) Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni ishchi holatda saqlab turish (joriy, o'rtacha yoki kapital ta'mirlash va boshqalar) bilan bog'liq xarajatlar summasiga:

debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2100, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400 va boshqa schyotlar - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning belgilangan maqsadiga qarab);

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar.

Moliyaviy ijara bo'yicha foizlarni hisoblash va ijaraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) ijara (lizing) to'lovlarini to'lash bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyoti;

kredit 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti;

b) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo'yicha hisoblangan foizlar summasiga:

debet 9610 "Foiz ko'rinishidagi xarajatlar" schyoti;

kredit 6920 "Hisoblangan foizlar" schyoti;

v) ijaraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) ijara (lizing) to'lovlarining joriy qismi to'langanda:

debet 6920 "Hisoblangan foizlar" schyoti;

debet 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

g) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to'lovlari bo'yicha ijaraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) bo'nak to'langanda:

debet 4330 "Boshqa berilgan bo'naklar" schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

d) ijara (lizing) to'lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to'lov muddati yetib kelganda, ijaraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) oldin to'langan bo'naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6920 "Hisoblangan foizlar" schyoti;

debet 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti;

kredit 4330 "Boshqa berilgan bo'naklar" schyoti.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash (obodonlashtirish, qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va boshqalar) xarajatlari summasi moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar qiymatini ko'paytiruvchi kapital qo'yilmalar sifatida buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) kapital qo'yilmalar amalga oshirilganda:

debet 0860 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga

kapital qo'yilmalar" schyoti;

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

b) kapital qo'yilmalar asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilganda:

debet 0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti;

kredit 0860 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar" schyoti;

v) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish bo'yicha eskirish hisoblanganda:

debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2100, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400 va boshqa schyotlar - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning belgilangan maqsadiga qarab);

kredit 0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi" schyoti.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning obodonlashtirilishini qayta baholash buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari o'sishi summasiga:

debet 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar ob'ektlari boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining o'sishi summasiga;

debet 0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining o'sishi

summasiga;

kredit 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishi bahosining o'sishi summasiga;

kredit 0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirishi bahosining o'sishi summasiga;

kredit 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bahosining o'sishi va jamlangan eskirishlar bahosining o'sishi summalari o'rtasidagi farq summasiga;

b) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari pasayishi summasiga:

debet 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishi bahosining pasayishi summasiga;

debet 0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirishi bahosining pasayishi summasiga;

debet 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti - ilgari qayta baholash natijasida moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar ob'ektlarining va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari o'sishi summasiga yoki ushbu ob'ektlarning ilgarigi baholari o'sishi summasining ilgarigi baholari pasayishi summasidan oshgan qismi doirasidagi summaga;

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti - moliyaviy ijara

shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar ob'ektlarining va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari pasayishi summasining ushbu ob'ektlarni ilgari qayta baholash natijasida baholari o'sishi summasidan oshgan qismiga yoki ushbu ob'ektlarning ilgari baholari o'sishi summasining ilgari baholari pasayishi summasidan oshgan summasiga (ya'ni ushbu ob'ektlar bo'yicha bahosining pasayishi summasining 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida hisobga olingan qoldiq summasidan ortgan qismiga);

 kredit 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar ob'ektlari boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining pasayishi summasiga;

 kredit 0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining pasayishi summasiga.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) mulkiga o'tishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

 a) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning o'z asosiy vositalari tarkibiga o'tkazilishi, agarda ushbu ob'ektlar bo'yicha amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari qiymati mavjud bo'lsa, ularni ham qo'shgan holda:

 debet asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100 - asosiy vositalarning turlari bo'yicha);

 kredit 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga;

 kredit 0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga;

b) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning obodonlashtirishini o'z asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilganda, ular bo'yicha jamg'arilgan eskirish summalarini o'tkazish (ko'chirish):

debet 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishi summasiga;

debet 0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirishi summasiga;

kredit asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200 - asosiy vositalarning turlari bo'yicha);

v) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldig'ini to'lash summasiga:

debet 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti - joriy qismi;

debet 7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyoti - uzoq muddatli qismi;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar.

Ijaraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish ob'ektlari qaytarilganda, buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

a) boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit 0310 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga;

kredit 0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga;

b) jamlangan eskirish summasiga:

debet 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirish summasiga;

debet 0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi" schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirish summasiga;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

v) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish qiymatining ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan qoplanadigan summasiga:

debet 4890 "Boshqa debitorlar qarzlari" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

g) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan mazkur asosiy vositalar ob'ektlarini va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish ob'ektlarini qayta baholash natijasi (qoldiq) summasiga:

debet 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

d) ijara (lizing) to'lovlari jadvali (tartibi) bo'yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldig'i summasiga:

debet 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti;

debet 7910 "To'lanadigan moliyaviy ijara" schyoti - uzoq muddatli qismi (moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugagunga qadar qaytarilish amalga oshirilgan hollarda qo'llaniladi);

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

e) moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni qaytarish bo'yicha xarajatlar (buzish, tashish va boshqalar) summasiga:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

j) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni qaytarish natijasida olingan foyda summasiga:

debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit 9310 "Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda" schyoti;

z) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni qaytarish natijasida ko'rilgan zarar summasiga:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyoti;

i) moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun ijaraga beruvchidan (lizingga beruvchidan) pul mablag'lari kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4890 "Boshqa debitorlar qarzlari" schyoti.

Mulknii keyinchalik qayta ijaraga olish (lizingga olish) sharti bilan sotish hollarida, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) mulkini sotish operatsiyalari oldi-sotdi sifatida qaraladi va sotuvchining buxgalteriya hisobida O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002 yil 9 sentyabrdagi 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga (2002 yil 23 oktabr, ro'yxat raqami 1181 - Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 2002 y., 20-son) muvofiq amalga oshiriladi.

Keyinchalik ijara hisobi ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan mazkur Nizomda o'rnatilgan tartibda yuritiladi.

Opyerativ ijara hisobi

Operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar ijarachida balansdan tashqari schyot hisoblangan 001 "Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar" schyotining debetida aks ettiriladi. Bunda, operativ ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar ijaraga beruvchida xuddi oldingi kabi asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

Operativ ijara bilan bog'liq operatsiyalar ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) operativ ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200);

b) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalarda joriy davrga tegishli bo'lgan va ijaraga oluvchidan kelib tushadigan ijara to'lovlari (ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq) hisoblanganda:

debet 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

kredit 9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyoti;

v) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblanmagan korxonalarda joriy davrga tegishli bo'lgan va ijaraga oluvchidan kelib tushadigan ijara to'lovlari (ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq) hisoblanganda:

debet 4820 "Operativ ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

kredit 9350 "Operativ ijaradan daromadlar" schyoti;

g) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalarda ijara to'lovlarning kelib tushishi:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

d) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblanmagan korxonalarda ijara to'lovlarning kelib tushishi:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4820 "Operativ ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

e) ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq to'lov muddati yetib kelmagan ijara to'lovlari bo'yicha bo'nak kelib tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

j) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalarda ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq to'lov muddati yetib kelganda, ijarachidan oldin olingan bo'naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti;

kredit 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

z) mulkni operativ ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblanmagan korxonalarda ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq to'lov muddati yetib kelganda, ijarachidan oldindan olingan bo'naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6390 "Boshqa olingan bo'naklar" schyoti,

kredit 4820 "Operativ ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schyoti;

i) ijarachi tomonidan amalga oshirilgan operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha xarajatlarning ijaraga beruvchi tomonidan qoplash uchun tan olinganda:

debet asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100);

kredit turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

k) ijarachi tomonidan amalga oshirilgan operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun ijarachiga pul mablag'lari o'tkazilganda:

debet turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar.

Operativ ijara bilan bog'liq operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) ijaraga beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan va hisobot davriga tegishli (ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq) ijara to'lovlari hisoblanganda:

debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2100, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400 va boshqa schyotlar - operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning belgilangan maqsadiga qarab);

kredit 6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyoti;

b) ijaraga beruvchiga ijara to'lovlari to'langanda:

debet 6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

v) ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq to'lov muddati yetib kelmagan ijara to'lovlari bo'yicha ijaraga beruvchiga bo'nak to'langanda:

debet 4330 "Boshqa berilgan bo'naklar" schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

g) ijara to'lovlari jadvaliga (tartibiga) yoki operativ ijara shartnomasiga muvofiq to'lov muddati yetib kelganda, ijaraga beruvchiga oldin to'langan bo'naklarni qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyoti;

kredit 4330 "Boshqa berilgan bo'naklar" schyoti;

d) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha kapital qo'yilmalar amalga oshirilganda:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va boshqa tegishli schyotlar;

e) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar qaytarilganda, kapital qo'yilmalar summasini hisobdan chiqarish:

debet 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800);

j) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha kapital qo'yilmalar qiymatining ijaraga beruvchi tomonidan qoplanadigan summasiga:

debet 4890 "Boshqa debitorlar qarzlari" schyoti;

kredit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

z) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha kapital qo'yilmalarning berilishi natijasida olingan foyda summasiga:

debet 9220 " Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

kredit 9320 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda" schyoti;

i) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha kapital qo'yilmalarning berilishi natijasida ko'rilgan zarar summasiga:

debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti;

kredit 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyoti;

k) operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash bo'yicha kapital qo'yilmalar qiymatini qoplash uchun ijaraga beruvchidan pul mablag'lari tushganda:

debet pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4890 "Boshqa debitorlar qarzlari schyoti.

Operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar qaytarib berilganda, balansdan tashqari schyot hisoblangan 001 "Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar" schyoti kreditlanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Asosiy vositalar tushunchasiga ta'rif bering?
2. Asosiy vositalarga nimalarni kiritamiz?
3. Asosiy vositalar harakati qaysi hujjatlarga asosan olib boriladi?
4. Asosiy vositalar hisobi qaysi BHMS lar bilan tartibga solinadi?
5. Amortizatsiya hisoblashning qanday usullari bor?
6. Asosiy vositalar qanday baholanadi?

7. Asosiy vositalar ta'mirlanishi qanday hisobga olinadi?
8. Asosiy vositalar qanday hisobdan chiqariladi?
9. Asosiy vositalar bilan bog'liq ijara munosabatlarini izohlang?
10. Asosiy vositalarning ijaraga berishning turlari qanday?
11. Asosiy vositalarning sintetik va analitik hisobini yoritib bering?
12. Assiy vositalar bilan bog'liq soliq hisobini tushuntiring?
13. Asosiy vositlarni inventarizatsiyasi va uning ahamiyati nimadan iborat?
14. Asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog'liq daromadlarni aniqlash tartibi va hisobi qanday yuritiladi?

16- BOB. NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI

- 16.1. Nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish.
- 16.2. Nomoddiy aktivlarni turkumlash va baholash.
- 16.3. Nomoddiy aktivlarni kirim qilish va xarakatini hujjatlashtirish.
- 16.4. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari.
- 16.5. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi.
- 16.6. Biznes birlashuvining qismi sifatida sotib olish. Gudvill hisobining xususiyatlari.

Tayanch soʻz va iboralar: dastlabki qiymat, amortizatsiya, kumulyativ, toʻgʻri chiziqli, ishlab chiqarish hajmiga bogʻliq, qoldiq qiymat, tugatish qiymati, patent, foydali xizmat muddati, savdo belgilari, foydalanish huquqi, itelektual mulk, gudvill, litsenziya, royalti, dasturiy taʼminot, tovar belgisi, nou-hau, mualliflik huquqlari, franshiza.

16.1. Nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish.

Nomoddiy aktivlar - xoʻjalik yurituvchi subʻektlarga xoʻjalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish, uzoq vaqt (bir yildan ortiq) mobaynida foydalanish uchun moʻljallangan moddiy xususiyatga ega boʻlmagan mol-mulk obʻektlaridir.

Nomoddiy aktivlarning hisobga olinishi moliyaviy hisobotlarni tuzuvchi xoʻjalik yurituvchi subʻektlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Uni yuritish tartibi "Nomoddiy aktivlar" nomli 7-son BHMAda aks ettirilgan. 7-son BHMAda nomoddiy aktivlar, aktivni tan olinish payti va nomoddiy aktivlarning hisobga olinish tartibi tushunchasining aniq taʼrifi bayon qilingan.

Korxonadan tovarlar ishlab chiqarish, ularni realizatsiya qilish, ishlar bajarish va xizmatlar koʻrsatish, boshqarish, ijaraga berish ehtiyojlaridan foydalanuvchi, moddiy ashyoviy asosga ega boʻlmagan, aniq baholash imkoni mavjud, oʻzida kelgusida iqtisodiy naf keltirish xususiyatini mujassamlashtirgan va unga nisbatan mutlaq xuquqni tasdiqlovchi rasmiy hujjati boʻlgan, identifikatsiyalanuvchi uzoq muddatli aktiv.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olishning vazifalari:

- nomoddiy aktivlarni boshqa aktivlardan ajratilgan holda guruhlarga bo'lib, ularni hisobga olishni tashkil qilish

- nomoddiy aktivlarni joriy hisobda va buxgalteriya balansida tegishli andozalarga hamda me'yoriy hujjatlarga asosan to'g'ri va o'z vaqtida baholash

- nomoddiy aktivlardan samarali foydalanishni tashkil qilish

- eskirgan, xo'jalik uchun oshiqcha bo'lgan nomoddiy aktivlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash

- hisobdan chiqarilgan nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash

Tadbirkorlik sub'ektlari nomoddiy aktivlariga masalan, ilmiy yoki texnik bilim, yangi jarayonlar yoki tizimlar dezayni va amalga oshirilishi, litsenziyalar, intellektual mulk, bozor bilimi va savdo mulklarini (jumladan, brend nomlar va chop etish nomlari) sotib olishda, takomillashtirishda, saqlash yoki yaxshilashda tez-tez resurslarni kengaytiradilar yoki majburiyatlarni tan oladilar.

Ushbu keng ko'lamni qamrab oladigan oddiy misollarga kompyuter dasturi, patentlar, avtorlik huquqlari, tasviriy filmlar, mijozlar ro'yxatlari, ipotekaga xizmat ko'rsatish huquqlari, baliq ovlash litsenziyalari, import kvotalari, franchayzinglar, mijoz yoki ta'minotchi aloqalari, mijoz sodiqligi, bozor ulushi va marketing huquqlarini keltirish mumkin.

Aktiv nomoddiy bo'ladi, qachonki:

Uni kompaniyadan ajratish va sotish mumkin, xadya qilish, unga litsenziya olish mumkin, alohida o'zini yoki bo'lmasa u bilan bog'liq tuzilgan shartnoma, aktiv yoki majburiyatlar bilan birga ijaraga berish yoki almashtirish mumkin;

Uni kompaniyadan yoki bo'lmasa boshqa xuquq va majburiyatlardan ajratish va boshqa kompaniyaga berish mumkin yo mumkin emasligidan qat'iy nazar, shartnomaviy yoki boshqa yuridik xuquqlardan yuzaga keladi.

Nomoddiy aktivlarning xalqaro standart BHXS 38 "Nomoddiy aktivlar" bo'yicha aniqlanishi:

Nomoddiy aktiv – bu moddiy-ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmagan, identifikatsiya qilinadigan monetar bo'lmagan aktiv.

Monetar aktiv – bu aniqlangan va miqdori ulchay olinidigan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti ko‘rinishidagi kelajakda olinadigan pul mablag‘lari va aktivlar.

Nomoddiy aktivlar sifatida hisobga olinishini aniqlash uchun, tadbirkorlik sub’ekti qaysi jihat ahamiyatliroqligini baholashda qaror chiqarishdan foydalanadi.

Masalan, aniq bir kompyuter dasturisiz faoliyat ko‘rsatmaydigan kompyuter-nazorat-qiladigan uskuna uchun kompyuter dasturi tegishli ehtiyot qismning ajralmas qismidir va u asosiy vosita sifatida hisobga olinadi. Aynan shu yondashuv kompyuterning operatsion tizimiga nisbatan qo‘llaniladi.

Qachonki dastur tegishli ehtiyot qismning ajralmas qismi bo‘lmasa, kompyuter dasturi noddid aktiv sifatida hisobga olinadi.

BHXS 38 “Nomoddiy aktivlar” da quyidagi atamalardan foydalaniladi:

Balans qiymati - bu shunday qiymatki, bunda aktiv har qanday jamg‘arilgan amortizatsiya va yig‘ilgan qadrsizlanish bo‘yicha zararlarni chegirilgandan so‘ng moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinadi.

Tannarx - bu aktivni uning xaridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to‘langan pul mablag‘i yoki pul mablag‘i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki, tegishli hollarda, boshqa BHXSslarning, masalan BHXS 2 “Aksiyaga asoslangan to‘lov” ning aniq talablariga muvofiq ushbu aktivni dastlabki tan olinishidagi qiymatdir.

Eskirish hisoblanadigan qiymat - bu aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannarxi yoki tannarx o‘rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatdir.

Tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish - bu tijorat maqsadlarida ishlab chiqarish yoki foydalanishni boshlashdan oldin, yangi yoki sezilarli tarzda takomillashgan materiallar, uskunalar, tovarlar, jarayonlar, tizimlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish rejasiga yoki dizayniga nisbatan tadqiqot topilmalarini yoki boshqa bilimlarni qo‘llashdir.

Tadbirkorlik sub’ektiga xos qiymat - bu tadbirkorlik sub’ekti tomonidan aktivdan davomiy foydalanishidan va foydali xizmat muddati oxirida balansdan

chiqarishdan yoki majburiyat uchun hisob-kitob qilinganda kutiladigan pul oqimlarining keltirilgan qiymatidir.

Joriy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. (MHXS 13 "Haqqoniy qiymatni baholash" ga qarang)

Qadrsizlanish bo'yicha zarar - bu aktivning balans qiymatining uning qoplanadigan qiymatidan ortiq qismidir.

Nomoddiy aktiv - bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan aniqlanadigan nomonetar aktiv.

Monetar aktivlar - bu egalikdagi pul mablag'lari va qat'iy belgilangan yoki aniqlanadigan pul miqdorlarida olinadigan aktivlardir.

Tadqiqot - bu yangi ilmiy yoki texnik bilimga va tushunchaga erishish istiqbolini ko'zlab amalga oshirilgan asl va rejalashtirilgan izlanishdir.

Nomoddiy aktivning tugatish qiymati - bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan harajatlar chegirilgan holda, tadbirkorlik sub'ekti ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek aktivning chiqib ketishidan oladigan baholangan qiymatidir.

Foydali xizmat muddati - bu:

(a) tadbirkorlik sub'ekti aktivdan foydalanishi uchun ushbu aktivning yaroqli bo'lishi kutilgan davr; yoki

(b) tadbirkorlik sub'ekti tomonidan aktivdan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) yoki shunga o'xshash birliklar soni.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilishda, nomoddiy aktivlarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun quyidagi schyotlar yuritiladi:

0410 "Patentlar, litsenziyalar va nou-xau";

0420 "Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari";

0430 "Dasturiy ta'minot";

0440 "Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari";

0450 "Tashkiliy xarajatlar";

0460 "Franchayz";

0470 "Mualliflik huquqlari";

0480 "Gudvill";

0490 "Boshqa nomoddiy aktivlar".

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-sonli BXMS "Nomoddiy aktivlar"ga asosan nomoddiy aktiv identifikatsiya qilingan hisoblanadi, agar u:

a) ajraladigan bo'lsa, ya'ni uni korxonadan ajratish va yakka holda yoki u bilan bogliq aktiv, shartnoma yoki majburiyat bilan birga (gudvilldan tashkari) sotish, topshirish, ijaraga berish yoki ayirboshlash mumkin bo'lsa.

Agar dasturiy ta'minot tegishli (shu jumladan o'rnatilmagan) asosiy vositaning tarkibiy qismi bo'lsa, u moddiy aktiv hisoblangan asosiy vosita bilan bir deb karaladi. Agar dasturiy ta'minot tegishli asosiy vositaning tarkibiy qismi bo'lmasa, u nomoddiy aktiv hisoblanadi;

b) shartnoma xuquqlaridan va boshqa yuridik xuquqlardan - ular o'tkaziladigan yoki korxonadan ajraladigan huquqlar ekanligidan qat'iy nazar, yoki boshqa huquqlar va majburiyatlardan kelib chiqqan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-sonli BXMS "Nomoddiy aktivlar"ga asosan korxonada nomoddiy aktivdan kelgusida iqtisodiy naf ko'rishi extimoli fakat quyidagi hollarda mavjud bo'ladi:

a) agar aktiv kelgusida korxonaning iqtisodiy salohiyatini (daromadini) oshirishga qodirligi, shuningdek korxonada aktivdan shu maksadda foydalanish niyatida ekanligi ayon bo'lsa;

b) korxonada kelgusida mazkur aktivdan foydalanishdan iqtisodiy naf ko'rishi uchun yetarli resurslar mavjud bo'lsa yoki bunday resurslardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lsa.

7-sonli BXMS "Nomoddiy aktivlar" ning 6-bandida keltirilgan barcha shartlarga javob beruvchi quyidagi ob'ektlar nomoddiy aktivlarga kiritilishi mumkin:

- patent egasining kashfiyot, sanoat namunasi, foydali modelga bo'lgan mutloq huquqi;
- muallif yoki boshqa huquq egasining EXM uchun mo'ljallangan dasturlar, ma'lumotlar bazalariga bo'lgan mutloq huquqi;
- muallif yoki boshqa huquq egasining integral mikrosxemalar topologiyalariga bo'lgan mutloq huquqi;
- huquq egasining mahsulot belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutloq huquqi, shuningdek mahsulot kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi;
- patent egasining seleksiya sohasidagi yutuklarga bo'lgan mutloq huquqi;
- gudvill;
- tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, ya'ni yer osti boyliklaridan, tabiiy muhitdagi boshqa resurslardan, geologiyaga oid ma'lumotlardan va tabiiy muhit haqidagi boshqa axborotdan foydalanish huquqi;
- mol-mulkdan foydalanish huquqlari, ya'ni yer uchastkasi, binodan foydalanish huquqi, binoni ijaraga berish huquqi va sh.k.;
- boshqa nomoddiy aktivlar (mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy va boshqa imtiyozlardan foydalanish huquqi va sh.k.).

Ta'ris xujjatlariga muvofiq ishtirokchilar (muassislar) korxonaga ustav kapitaliga qo'shgan xissaning bir qismi deb e'tirof etilgan tashkiliy xarajatlar (yuridik shaxsni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar) ham nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadi. Korxonaga xodimlarining intellektual va ishbilarmonlik fazilatlarini, ularning malakasi va mehnat kobiliyati nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilmaydi, chunki ular o'z egalaridan ajratilishi va ulardan alohida ko'llanilishi mumkin emas.

16.2. Nomoddiy aktivlarni turkumlash va baholash.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning nomoddiy aktivlari tarkibida 0400-son shchyotida quyidagilar aks ettiriladi: patentlar, litsenziyalar, aqliy mulk, savdo

markalari (bunga firma markalari va nashr etiladigan nomlar ham kiradi), mutlaq huquqlar, kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, mualliflik huquklari, mijozlarning ro'yxatlari, litsenziyalar, marketing huquqlari, import kvotalari, tashkiliy xarajatlar (yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil qilish xarajatlari, yani "boshlang'ich xarajatlar"), nou-xau, bozor to'g'risidagi bilimlar, gudvill (firma bahosi), texnikaga oid ko'nikmalar va h.k.

Nomoddiy aktiv aktiv ko'rinishida faqatgina, agar u:

- aktiv talabini qondirsa;
- o'lchash imkoniga ega bo'lsa;
- o'z ahamiyatiga ega bo'lsa;
- ishonchli bo'lsa;
- kelgusida iqtisodiy foyda keltirsa;
- aniq (ya'ni, undan u ishlatiladigan ishlab chiqarishdan alohida ajratilgan

holda foydalanilishi mumkin) bo'lganidagina tan olinadi.

Aktiv, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt undan kelgusida olinadigan alohida sotish, almashtirish yoki taqsimlash imkoniga ega bo'lsagina, bo'linishi mumkin.

Quyidagilar nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy qoidalari bo'lib hisoblanadi:

-xarid qilish, vaqtidagi tannarx qoidasi;

-ko'rilgan zararlar va mazkur xarajatlarning qilinishi natijasida olinadigan daromadning bir vaqtning o'zida aks ettirilishini talab qiluvchi foydalanish davridagi muvofiqlik qoidasi;

-hisobdan chiqarish vaqtida, yani chiqib ketishlardan ko'rilgan foyda yoki zarar hisobdan chiqarish vaqtida aktivning olingan to'lov va balans qiymati o'rtasidagi farqqa teng deb tan olinganidagi daromadni tan olish qoidasi.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-sonli BXMS "Nomoddiy aktivlar"ga asosan nomoddiy aktivlarning quyidagicha turkumlanadi:

Patent - bu yuridik jihatdan tan olingan va ro'yxatga olingan mutloq huqukdir. Patentga tegishli huquq uning egasiga tashqaridan boshqa shaxslar

aralashmasligi sharti bilan buyumdan yoki g'oyadan foydalanish, ularni ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish imkonini beradi.

Patentning tegishli organlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi uning himoyalashiga kafolat bermaydi. Ushbu huquqdar sudda muvaffaqiyat bilan himoyalashmaguniga qadar raqobatbardosh bo'la olmaydi. Shuningdek, sudda huquq himoya qilinishi bilan bog'liq barcha xarajatlarni patent bahosining bir qismi sifatida kapitallashtirish lozimligi to'g'risida umumiy kelishuv mavjud.

Mabodo sud jarayonida yutqazilsa, u bilan bog'liq xarajatlari ham amortizatsiya qilinmagan patent qiymati ham hisobdan chiqariladi

Nou-hau - ishlab chiqarish ho'jalik faoliyati jarayonida foyda keltiruvchi yangi texnologiyadir.

Nou-xau xo'jalik yurituvchi sub'ekt ta'sischi kelishuvida aniqlangan qiymat bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ekt ustav kapitaliga ulush hisobida ta'sischi kiritishi ham mumkin.

Tashkiliy xarajatlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil qilish davomida vujudga keladi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt har bir ishtirokchisi faoliyatning boshlang'ich davridagi tashkiliy xarajatlari va yo'qotishlardan tashqari, maslahatchilar xizmatlari, reklama tadbirlari, hujjatlarni tayyorlash, ro'yhat olish va xarajatlardan iborat bo'ladi.

Savdo markalari yoki tovar belgilari (misol uchun "Artel, Biliss, Coca-cola")-mahsulot yoki xizmatlarga oid berilgan nomlar, ramzlar yoki boshqa xil (aniqlab beruvchi) identifikatsiyalar. Ular egalik qilishni asoslash uchun ro'yxatga olinishi, ro'yxatga olinganlari esa-ularning faoliyat muddatlarini ma'lum bir davrga uzaytirish asosida yangilanib borishi mumkin. Bunday hollarda nomlanishlar, ramzlar va mahsulotni boshqa aniqlovchi identifikatsiyalari yuridik jihatdan himoyalashadi.

Savdo markasining sotib olinishi vaqtida to'langan pul mablag'lari qiymati kapitallashtirib boriladi. Uning foydalanilishi, himoya qilinishi, kengaytirilishi, ro'yxatdan o'tkazilishi yoki sudda himoya qilinishi natijasida yuzaga kelgan pul summalari ham kapitallashtiriladi.

Bu tariqa kapitallashtirilgan summalar savdo markasi-ning foydali xizmat qilishi muddati mobaynida yoki ushbu muddatlardan qaysi biri nisbatan qisqa bo'lib chiqishidan kelib chiqqan holda - 40 yil mobaynida amortizatsiya qilinishi lozim.

Sanoat dizaynini ro'yxatdan o'tkazish ishlab chiqarishda yaratilgan buyumning namunasi yoki patentga o'xshab ketadi. Ammo patent faoliyatni himoya qilsa, sanoat dizaynini ro'yxatga olish esa tashqi ko'rinishni himoya qiladi.

Dasturiy ta'minot - texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi

Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqi — xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta'minlovchi huquq, ammo yerdan foydalanish huquqi mazkur yer uchastkasini mulk qilib olishni bildirmaydi

Tashkiliy xarajatlar - yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektni barpo etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari Tashkiliy xarajatlar - xo'jalik faoliyatni tashkil qilinishi vaqtida yuz bergan xarajatlardir. Unga bevosita tegishli bo'lgan xarajatlar (masalan, yuridik, buxgalteriya, kanselyariya va harakatlanish xarajatlari) tashkiliy xarajatlar sifatida kapitallashtiriladi. Faoliyatning birinchi yilida jami summalarni xarajatlarga kiritish xarajatning daromad bilan muvofiq kelmasligiga olib keladi.

Franshizalar — bir korxonadan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi, buning ustiga, bevosita belgilanishi bo'yicha mazkur aktivlardan foydalanish hamda taqdim etiladigan xizmatlar (tovarlar)ning belgilangan sifat standartlariga rioya qilish bunday huquq berilishlarining majburiy sharti hisoblanadi.

Franshizalar odatda davlat tomonidan davlat mol-mulkidan (masalan, kabel televideniyesi kompaniyasi) foydalanish huquqiga egalik qilish uchun yoki kommunal xizmatlar ko'rsatish (elektr energiyasi), shuningdek, xo'jalik

yurituvchi sub'ektlar tomonidan aniq maqsadlar va aniq xizmatlardan ("Uzbekiston havo yo'llari") foydalanish huquqiga egalik qilishlari uchun beriladi.

Ko'pgina hollarda franshizani olish qiymati yuqori bo'ladi va odatda franchayzi franchayzorga uning boshlang'ich qiymatini to'lashi talab etiladi. Franshizaning boshlang'ich qiymati kapitallashtirilishi va undan keyingina xarajatlar yuzasidan hisobdan chiqarilishi lozim. Franshizalardan amortizatsiya qilish uning oldingi davriy baholari bilan birgalikta aniq belgilangan xizmat qilish muddatiga asoslanadi. Biroq to'liq amortizatsiya davri 40 yildan oshib ketishi mumkin emas.

Mualliflik huquqlari- musiqa, adabiyot, ilmiy, tasviriy sanat asarlariga taqdim etiladigan mualliflik himoyasidir. Mualliflik huquqi sohiblariga o'z ishlarini nashr qilish, qayta nashr qilish va ko'paytirish, ko'chirma nushalarini sotish, yozib olish huquqi beradi.

Mualliflik huquqi qiymati tannarx qoidasiga binoan o'lchanadi, deb faraz qilinadi. U ko'pincha butun amal qilish muddati mobaynida iqtisodiy qiymatga ega bo'lmaydi va uning qiymati mualliflik huquqiga oid ishning daromad keltira boshlashi ko'tilayotgan davr davomida amortizatsiya qilinishi lozim bo'ladi. Ammo u har qanday holatda ham butun amal qilish muddatidan ortiq vaqt davomida (muallifning hayot ekanligi davrining yana 50 yil) amortizatsiya qilinmasligi kerak.

Gudvill - korxonani xarid qilish chog'ida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxonaga uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o'rtasidagi farq

Eng ommaviy tarqalgan va oddiy aktivlar bo'lib gudvill (firma bahosi) hisoblanadi. U o'zida firmaning aniqlanadigan aktivlaridan olinishi ko'tilayotgan daromadlariga qo'shimcha ravishda daromadlarning ko'payishiga olib keluvchi firmaning imidji natijasida yuzaga kelgan qimmatlikni aks ettiradi.

Gudvill, faqat, bir xo'jalik yurituvsu sub'ekt ikkinchi-sini sotib olgan hollardagina ro'yxatdan o'tkaziladi. U sotib olish dalilisiz ham amal qilishi

mumkin, biroq buxgalteriya hisobida, bir korxonaga boshqasini sotib oladigan bo'lsa yoki ularning ko'shilishi yuz beradigan bo'lsagina tan olinadi.

Gudvill (firma bahosi)"ning buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2005 yil 25 maydagi 35-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standartiga (7-BHMS) "Nomoddiy aktivlar"ga (2005 yil 27 iyunda 1485-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ("O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2005 yil, 25-26-son, 188-modda) muvofiq amalga oshiriladi. (O'zR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i taxriridagi band)

Nomoddiy aktivlar quyidagicha baholanishi mumkin:

- 1) tomonlar kelishuvi bahosi bo'yicha;
- 2) ularni ta'sischi ustav kapitaliga ulush hisobidan kiritganda;
- 3) nomoddiy aktivlar ob'ektlarini tayyorlik holatiga keltirish va sotib olish haqiqiy harajatlari bahosi bo'yicha boshqa tashkilotlar va shahslardan sotib olinganda;
- 4) ekspert yo'li bilan belgilangan baho bo'yicha - boshqa korxonaga va shahslardan bepul olinganda.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-sonli BXMS "Nomoddiy aktivlar"ga asosan nomoddiy aktivlarning quyidagicha baholash turkumlanadi:

boshlang'ich qiymat - nomoddiy aktivlarni yaratish (ishlab chiqish) yoki ularni xarid qilish bo'yicha amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar qiymati (pul mablaglari yoki ularning ekvivalentlari summasi yoki boshqa koplamaning joriy qiymati), shu jumladan to'langan va koplamaydigan soliqlar (yigimlar), shuningdek foydalanishga topshirish xarajatlari hamda aktivdan mo'ljallanganligiga qarab foydalanish uchun uni ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bogliq bo'lgan boshqa xarid kandy xarajatlar;

joriy qiymat - nomoddiy aktivlarning muayyan sanaga qadar bo'lgan holatga ko'ra amaldagi bozor narxlaridagi qiymati yoki bitim tuzishni xoxlagan,

xabardor, bir-biriga bogliq bo'lmagan tomonlar o'rtasida bitim tuzilgan holda aktivni egallash yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

qoldiq (balans) qiymati - boshlangich (qayta tiklash) qiymat bilan jamgarilgan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi nomoddiy aktiv moliyaviy hisobotda (buxgalteriya balansida) aks ettiriladigan o'lchovi;

tugatish qiymati - aktivning foydali xizmat muddati oxirida uni tugatish vaqtida aktiv evaziga olish mo'ljallangan, aktivni hisobdan o'chirish xarajatlari chiqarib tashlangan aktivning taxminiy (baholangan) qiymati;

amortizatsiya qiymati - moliyaviy hisobotda aks ettirilgan aktiv boshlangich (qayta tiklash) qiymatining mo'ljallangan (baholangan) tugatish qiymati chiqarib tashlangan summasi;

Nomoddiy aktivlar barcha turlarining boshlang'ich qiymati ularning dastlabki bahosi hisoblanadi va ular buxgalteriya hisobiga mana shu qiymat bo'yicha qabul qilinadi.

Pul to'lash evaziga tassarruf qilingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- huquqni o'tkazish (egallash) shartnomasiga muvofiq huquq egasiga (sotuvchiga) to'lanadigan summalaridan;

- ro'yxatga olish yig'implari, davlat poshlinalari, patent poshlinalaridan va huquq egasining mutloq huquqlari o'tkazilishi (egallanishi) munosabati bilan amalga oshirilgan boshqa shunga o'xshash to'lovlardan;

- bojxona boji to'lovlari va yig'implaridan;

- nomoddiy aktivlarning egallanishi munosabati bilan to'lanadigan soliqlar, yig'implar va to'lovlarning summalaridan (agar ular koplanmagan bo'lsa);

- nomoddiy aktivlarning egallanishi bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to'lanadigan summalaridan;

- nomoddiy aktivlarni egallashda vositachilik qilgan shaxslarga to'lanadigan haqdan;

- nomoddiy aktivlarni yetkazish (yaratish) tavakkallarini sugurta qilish bilan bogliq xarajatlardan;

- aktivdan mo'ljallanganligiga qarab foydalanish uchun uni ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bogliq bo'lgan boshqa xarajatlardan.

- tassarruf qilingan nomoddiy aktivlarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish xarajatlari, pulni o'tkazganlik uchun bank vositachilik haqi, nomoddiy aktiv chet el valyutasiga olinganida valyutani konvertatsiya qilish vositachilik haqi va boshqa bank xizmatlari), shuningdek egallash shartnomalarini tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bogliq xarajatlar hamda aktivlarni egallash bilan bevosita bogliq bo'lmagan boshqa xarajatlar nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi, balki ular vujudga kelgan hisobot davrida xarajatlar deb e'tirof etilishi lozim.

- tassarruf qilingan nomoddiy aktivlarga haq to'lash vaqtida, agar shartnoma shartlarida to'lov muddatini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, amaldagi xarajatlar buxgalteriya hisobiga kreditorlik qarzining qayd etilgan boshlang'ich summasi bo'yicha qabul qilinadi. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz tarzidagi xarajatlar to'la yoki qisman qarz kapitali hisobiga egallangan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi.

Nomoddiy aktiv tan olinishi lozim, faqatgina agarda:

- (a) tadbirkorlik sub'ekti tomonidan nomoddiy aktiv bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy manfaatlar olinishi ehtimoli mavjud bo'lsa; va

- (b) aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

Aktivning foydali xizmat muddati davomida mavjud bo'ladigan iqtisodiy sharoitlar majmui bo'yicha rahbariyatning eng yaxshi baholashini aks ettiradigan oqilona va tasdiqlovchi farazlardan foydalangan holda, tadbirkorlik sub'ekti kutilgan kelgusi iqtisodiy manfaatlarning ehtimolini baholashi lozim.

Tadbirkorlik sub'ekti aktivdan foydalanishdan keladigan kelgusi iqtisodiy manfaatlar oqimining aniqlik darajasini baholashda malakali mulohaza qilishdan foydalanadi, bunda dastlabki tan olish paytida mavjud dalillarga, ko'proq tashqi dalillarga asoslanadi.

Tarmoq korxonalarida nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymatini shakllantirish tartibini quyidagicha ifodalash mumkin (16.1-Jadval).

Nomoddiy aktivlarning tashkil etish manbalari bo‘yicha dastlabki qiymatini shakllanishi

Dastlabki qiymatni shakllantiruvchi omillar	Nomoddiy aktivlarning shakllanish manbalari				
	Ustav kapitaliga hissa sifatida qo‘yish	Xarid qilish	Korxonaning o‘zida yaratish	Boshqa aktivlarga almashtirish	Grantlar asosida olish
Nomoddiy aktivlarning bahosi:					
– shartnoma bahosi		+			
– bozor (joriy) bahosi				+	+
– balans bahosi (qiymati)	+	+	+	+	+
Xarid qilish xarajatlari;					
– davlat bojlari va yig‘imlari (ro‘yxatdan o‘tish)	+	+		+	
– soliqlar	+	+		+	
– ijaraga berish xarajatlari	+	+	+	+	+
– reklama xarajatlari		+			
– boshqa xarajatlar	+	+	+	+	

Nomoddiy aktivlarni hujjatlashtirish ma’lum xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich hisobini to‘g‘ri tashkil qilishga imkoniyatlar beradi. Xalqaro tajribada nomoddiy aktivlarni tan olish BHXS 38 “Nomoddiy aktivlar” asosida moddani nomoddiy aktiv sifatida tan olish tadbirkorlik sub’ektidan modda quyidagilarni qanoatlantirishini namoyish etishini talab etadi:

Nomoddiy aktiv tan olinishi lozim, qo‘chonki:

(a) tadbirkorlik sub’ekti tomonidan nomoddiy aktiv bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy manfaatlar olinishi ehtimoli mavjud bo‘lsa; va

(b) aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

Aktivning foydali xizmat muddati davomida mavjud bo‘ladigan iqtisodiy sharoitlar majmui bo‘yicha rahbariyatning eng yaxshi baholashini aks ettiradigan oqilona va tasdiqlovchi farazlardan foydalangan holda, tadbirkorlik sub’ekti kutilgan kelgusi iqtisodiy manfaatlarning ehtimolini baholashi lozim. Tadbirkorlik sub’ekti aktivdan foydalanishdan keladigan kelgusi iqtisodiy manfaatlar oqimining aniqlik darajasini baholashda malakali mulohaza qilishdan foydalanadi, bunda dastlabki tan olish paytida mavjud dalillarga, ko‘proq tashqi dalillarga asoslanadi. Nomoddiy aktiv dastlab tannarxda baholanishi lozim.

16.3. Nomoddiy aktivlarni kirim qilish va xarakatini hujjatlashtirish.

Buxgalteriya hisobi tizimidagi yangi ob’ekt nomoddiy aktivlarning dastlabki hisobini tashkil etish, korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyatlarida buxgalteriya hisobi ishlarini to‘g‘ri olib borish, xarajatlarni tannarxga yoki davr xarajatlariga qo‘shish, moliyaviy natijalarni aniqlash imkonini beradi.

BHXS 38 “Nomoddiy aktivlar” asosida nomoddiy aktivlarni tasarruf qilish yo‘llari:

- alohida shartnoma asosida nomoddiy aktivni sotib olish
- biznes birlashuvining qismi sifatida nomoddiy aktivni sotib olish
- nomoddiy aktivlarning davlat granti yordamida olinishi
- nomoddiy aktivlarni ayirboshlash yo‘li bilan tasarruf qilish
- ichki yaratilgan gudvill
- ichki ishlab chiqilgan nomoddiy aktivlar

Nomoddiy aktivlarning sotib olish manbalari baholash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Nomoddiy aktivlarning baholari quyidagi turlarga bo‘linadi: shartnoma bahosi, kelishilgan baho, bozor bahosi, balans bahosi.

Mulkning, dastlabki qiymati harajatlarga bevosita bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida korxonalarda nomoddiy aktivlarni to‘g‘ri guruhlanishini taqozo qiladi. Hujjatlashtirish orqali nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobi schyotlarida vaqtida aks ettiriladi va ularni uzluksiz nazorat qilib borish mumkin bo‘ladi.

Nomoddiy aktivlar hisobini yurituvchi korxonalar buxgalteriya hisobi hujjatlarini tuzish va ularning aylanishini amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida mustaqil ravishda belgilaydilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qayd etilayotgan hujjatlarda nomoddiy aktivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, nomoddiy aktivlarning kelib tushishi, chiqib ketishi, tavsifnomasi, foydali xizmat qilish muddatlari, dastlabki qiymati, amortizatsiya me'yorlari kabi muhim rekvizitlarni o'z ichiga olishi kerak.

Nomoddiy aktivlar ob'ektlari analitik hisobi OS-6 shakldagi inventar kartochoqlarda yuritiladi, unda ob'ektning ro'yhat qilish nomeri, ularning dastlabki qiymati, texnik-iqtisodiy harakteristikasi, foydali foydalanish muddati va boshqalar aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BXMS) "Nomoddiy aktivlar"ga asosan aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda ular bir paytning o'zida quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

- a) moddiy-ashyoviy (jismoniy) tuzilishga ega emaslik;
- b) aktivdan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoki korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalarini amalga oshirishda uzoq vaqt, ya'ni 12 oydan ortik bo'lgan foydali xizmat muddati yoki muddati 12 oydan oshuvchi odatdagi operatsion siklda foydalanilishi;
- v) korxonada mazkur aktivni kelgusida qayta sotishni mo'ljallamasligi;
- g) ishonchlilik, ya'ni aktivning mavjudligini va korxonada intellektual faoliyat natijalariga nisbatan mutloq huquqqa egaligini tasdiqlovchi lozim tarzda rasmiylashtirilgan xujjatlarning (patentlar, guvohnomalar, boshqa ko'riklash xujjatlari, patentga, tovar belgisiga bo'lgan huquqini o'tkazish (egallash) shartnomasi va sh.k.) mavjudligi;
- d) korxonada uni boshqa aktivlardan farqlash (ajratish) imkoniyatiga egaligi, ya'ni undan ayni ishlab chiqarishdan alohida foydalanish mumkinligi.

O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BXMS) "Nomoddiy aktivlar"ga asosan kelib tushgan nomoddiy aktivlar qiymati korxonaga buxgalteriya balansiga kiritilishi lozim.

Nomoddiy aktivlar korxonaga buxgalteriya balansiga:

- a) ishlov yakunlanganidan keyin yaratilgan ob’ektning qabul qilinishi-topshirilishi;
- b) oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha ob’ektning egallanishi;
- v) muassislar ulushi tarzida ustav kapitaliga kiritilishi;
- g) tekinga (xadya shartnomasi bo‘yicha) berilishi;
- d) davlat subsidiyalari hisobiga egallanishi;
- e) ayirboshlash;
- j) nomoddiy aktivlarning ortikcha (hisobga olinmagan) ob’ektlari aniqlanishi natijasida kiritiladi.

Nomoddiy aktivlarni hujjatlashtirish ma’lum xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich hisobini to‘g‘ri tashkil qilishga imkoniyatlar beradi. Ushbu xujjat Patent idoralarida qayd etilgan bo‘lishi lozim. Tabiiy resurslarga bo‘lgan (yer, suv, geologiya) huquqlarini sotib olish yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida belgilanadi. Shuningdek, ayrim nomoddiy aktivlar ham borki, ular korxonaga faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, oshkor etilmagan axborotlar va ularni himoya qilinishi.

Korxonaga va firmalarda nomoddiy aktivlar harakatini hisobga olish ularning maxsus hisob kartochkalarida yuritilishi kerak. Chunki, keyingi yillarda avtomobilsozlik korxonalarida nomoddiy aktivlarning salmog‘i sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu o‘z navbatida buxgalteriya hisobi oldiga hujjatlashtirish jarayonlarini to‘g‘ri va aniq tashkil etish hamda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Asosiy vositalar bo‘yicha yuritiladigan analitik hisob kartochkasining keraksiz bo‘lgan rekvizitlaridan ozod qilib nomoddiy aktivlarga xos bo‘lgan qo‘shimcha rekvizitlarni qo‘llash mumkin.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunga asosan boshlang‘ich hisob

hujjatlari xo‘jalik muomalalari amalga oshirib bo‘lingandan so‘ng tuziladi. Nomoddiy aktivlarni hisobga olishda dastlabki hujjatlar (shartnoma, dalolatnoma) quyidagi asosiy rekvizitlariga ega bo‘lishi lozim; hisob (arxiv) raqami, nomi va shartli shifri, axborotlarning material ko‘rinishi, ob’ektlardan foydalanish muddatlari, asl nushalarining saqlash joyi, joriy etgan shaxslar (korxonalar, tashkilot), ob’ektdan foydalanuvchilar, hujjatlarni saqlash raqamlari, xarajatlarga olib borish ob’ektlari va boshqa ko‘rsatkichlar. Shuningdek, qonunga ko‘ra hisobot davriga tegishli bo‘lgan xo‘jalik muomalalari va ular amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo‘lsa, tegishli boshlang‘ich hujjatlar rasmiylashtirilib, buxgalteriya hisobida aks ettirilishi ko‘rsatiladi.

Nomoddiy aktivlarni kiringa olish uchun quyidagi hujjatlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

1. Nomoddiy aktivlarni qabul qilish-toshirish dalolatnomasi (NMA –I shakl).

Mazkur dalolatnomaning shakli amaliyotda me‘yoriy - huquqiy jihatdan o‘z tasdig‘ini topmoqda, uning shakli dissertatsiya ilova qismida namuna sifatida taqdim etildi. Nomoddiy aktivlar qaysi manba hisobidan qabul qilinmasin (xarid qilish, ustav kapitaliga qo‘shish, boshqa aktivlarga almashtirish, grant yoki subsidiya ko‘rinishida olish, korxonaning o‘zida shakllantirish va boshqalar), ular shartnomalarga muvofiq «*Nomoddiy aktivlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi*» *NMA-I shakl* bo‘yicha rasmiylashtirilishi lozim.

Dalolatnoma nomoddiy aktivni qabul qiluvchi guruh hay‘ati tomonidan har bir ob’ekt uchun bir nushada tuziladi. Shuningdek, bir turdagi nomoddiy aktivlar uchun oldin tuzilgan dastlabki dalolatnomalar umumlashtirilib “*Umumiy dalolatnoma*” tuziladi. Masalan, sanoat namunasiga bo‘lgan bir necha xil ishlab chiqarish huquqiga egalik qiluvchi patentlar yoki turli xil o‘lchamdagi bir nechta yer maydonlaridan foydalanish huquqlari uchun ruhsatnoma (litsenziya) lar bo‘lishi mumkin. Dalolatnomaning asosiy vositalarni hisobga oladigan dalolatnomasidan farqli tomonlari shundaki, avvalo bu shaklning sodda hamda kerakli rekvizitlarga ega bo‘lganligidadir.

Nomoddiy aktivlarni qabul qilish dalolatnomasi tuzilib soʻng buxgalteriyaga topshiriladi. Dalolatnoma bilan birga obʻektlarning boshqa hujjatlari ham taqdim etiladi. Shuni ham taʼkidlash joizki, ayrim nomoddiy aktivlar obʻektlari boʻyicha dalolatnomani toʻldirish aktivning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hisob yuritish siyosatida belgilanadi.

Nomoddiy aktivlar xarid qilish bahosi boʻyicha aks ettiriladi. Xarid qilish qiymati barcha xarajatlarni, shu jumladan- sotib olish bahosi, tashish boʻyicha xarajatlar, shuningdek, sotib olish bilan bogʻliq boʻlgan boshqa har xil xarajatlarni oʻz ichiga oladi. Nomoddiy aktivlarning sotib olinishiga oid buxgalteriya provodkalari quyidagicha:

Dt 6010 Kt 5110 Yetkazib beruvchiga toʻlov

Dt 0830 Kt 6010 Kapital qoʻyilmalar hisobidan sotib olish

Dt 0400 Kt 0830 Kapital koʻyilmalar hisobidan kirim qilish

Agar nomoddiy aktivlar pulsiz yoki begʻaraz almashish (barter) yoʻli bilan sotib olinsa ularning qiymati bozor narxi asosidan kelib chiqib, olingan huquqlar asosida aniqlanishi mumkin:

Dt0830 Kt8530

Dt 0400 Kt 0830

Nomoddiy aktivning firmaning oʻzi tomonidan tashkil qilinishi vaqtida va xarajatlar summasini aniq belgilab olish mumkin boʻlsa, ushbu aktiv haqiqiy tannarx boʻyicha aks ettiriladi.

Dt 0830 Kt 1010,6710,6520,2010

Nomoddiy aktivning tashkil qilinish xarajatlari

Dt 0400 Kt 0830

Kapital qoʻyilmalar hisobiga kirimga olishda

Nomoddiy aktivlar harakatini hisobga oluvchi dastlabki va jamlama xujjatlar tarkibida bizning fikrimizcha koʻra quyidagi hujjatlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- *Nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish jarayonida qoʻllanganishi boʻyicha korxonalar rahbarining buyrugʻi (NMA-4 shakl);*

- *Nomoddiy aktivlar ob'ektlaridan foydalanish muddatlari to'g'risidagi bayonnoma (NMA-5 shakl);*

- *Nomoddiy aktivning maxfiyligi to'g'risidagi korxonah rahbarining buyrug'i (NMA-5a shakl); (8-ilova).*

Bunday hujjatlar o'z mazmuni va ahamiyatiga ko'ra, bir-biriga mos kelishi va unda ob'ektlarni hujjatlarda aks ettirishga asos bo'ladi. Nomoddiy aktivlarning o'zini yoki uning ishlatilish tartibini bayon etuvchi hujjatlar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning u yoki bu mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar ana shunday hujjatlar jumlasiga kiradi.

Sanoat namunasi bo'yicha olgan patent yoki guvohnomalar maxsus hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt biror bir huquqni sotib olgan taqdirda ular ana shu mualliflik huquqlarini sotgan huquqiy va jismoniy shaxs bilan tuzilgan, kuchga kirgan shartnoma asosidagina hisobda qayd etiladi, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan dastlabki va yig'ma xujjatlarning sonini qisqartirish, to'ldirish tartibini soddalashtirish, sifatini yaxshilash va ularni kompyuter dasturlariga moslashtirish kerak.

Nomoddiy aktivlar xarid qilish bahosi bo'yicha aks ettiriladi. Xarid qilish qiymati barcha xarajatlarni, shu jumladan, sotib olish bahosi, tashish bo'yicha xarajatlar, shuningdek, sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa har xil xarajatlarni o'z ichiga oladi. Nomoddiy aktivlarning sotib olinishiniga oid buxgalteriya provodkalari quyidagicha:

Dt 6010 Kt 5110- Yetkazib beruvchiga to'lov

Dt 0830 Kt 6010-Kapital qo'yilmalar hisobidan sotib olish

Dt 0400 Kt 6010-Mol yetkazib beruvchilardan sotib olish.

Agar nomoddiy aktivlar pulsiz yoki beg'araz almashish (barter) yo'li bilan sotib olinsa ularning qiymati bozor narxi asosidan kelib chiqib, olingan huquqlar asosida aniqlanishi mumkin:

Dt 0830 Kt 6010 Dt 0400 Kt 0830

Nomoddiy aktivning firmaning o‘zi tomonidan tashkil qilinishi vaqtida va xarajatlar summasini aniq belgilab olish mumkin bo‘lsa, ushbu aktiv haqiqiy tannarx bo‘yicha aks ettiriladi.

Dt 0830 Boshqa aktivlarni sotib olish

Kt 1010,6710,6520,2010 Nomoddiy aktivning tashkil qilinish xarajatlari

Dt 0400 Nomoddiy aktivlarni hisobvarag‘i

Kt 0890 Boshqa aktivlarni sotib olish

Nomoddiy aktivlar harakatini hisobga oluvchi dastlabki va jamlama xujjatlar tarkibida bizning fikrimizcha ko‘ra quyidagi hujjatlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- *nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanganishi bo‘yicha korxonah rahbarining buyrug‘i (nma-4 shakl);*

- *nomoddiy aktivlar ob‘ektlaridan foydalanish muddatlari to‘g‘risidagi bayonnoma (nma-5 shakl);*

- *nomoddiy aktivning maxfiyligi to‘g‘risidagi korxonah rahbarining buyrug‘i (NMA-5a shakl); (8-ilova).*

Bunday hujjatlar o‘z mazmuni va ahamiyatiga ko‘ra, bir-biriga mos kelishi va unda ob‘ektlarni hujjatlarda aks ettirishga asos bo‘ladi. Nomoddiy aktivlarning o‘zini yoki uning ishlatilish tartibini bayon etuvchi hujjatlar, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning u yoki bu mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar ana shunday hujjatlar jumlasiga kiradi.

Sanoat namunasi bo‘yicha olgan patent yoki guvohnomalar maxsus hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt biror bir huquqni sotib olgan taqdirda ular ana shu mualliflik huquqlarini sotgan huquqiy va jismoniy shaxs bilan tuzilgan, kuchga kirgan shartnoma asosidagina hisobda qayd etiladi, shuningdek, yuqorida ko‘rsatilgan dastlabki va yig‘ma xujjatlarning sonini qisqartirish, to‘ldirish tartibini soddalashtirish, sifatini yaxshilash va ularni kompyuter dasturlariga moslashtirish kerak.

Nomoddiy aktivlar xarid qilish bahosi bo‘yicha aks ettiriladi. Xarid qilish qiymati barcha xarajatlarni, shu jumladan, sotib olish bahosi, tashish bo‘yicha

xarajatlar, shuningdek, sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa har xil xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Nomoddiy aktivlarning sotib olinishiga oid buxgalteriya provodkalarini quyidagicha:

Dt 6010 Kt 5110- Yetkazib beruvchiga to‘lov

Dt 0830 Kt 6010-Kapital qo‘yilmalar hisobidan sotib olish

Dt 0400 Kt 6010-Mol yetkazib beruvchilardan sotib olish.

Agar nomoddiy aktivlar pulsiz yoki beg‘araz almashish (barter) yo‘li bilan sotib olinsa ularning qiymati bozor narxi asosidan kelib chiqib, olingan huquqlar asosida aniqlanishi mumkin:

Dt 0830 Kt 6010 Dt 0400 Kt 0830

Nomoddiy aktivning firmaning o‘zi tomonidan tashkil qilinishi vaqtida va xarajatlar summasini aniq belgilab olish mumkin bo‘lsa, ushbu aktiv haqiqiy tannarx bo‘yicha aks ettiriladi.

Dt 0830 Boshqa aktivlarni sotib olish

Kt 1010,6710,6520,2010 Nomoddiy aktivning tashkil qilinish xarajatlari

Dt 0400 Nomoddiy aktivlarni hisobvarag‘i

Kt 0890 Boshqa aktivlarni sotib olish

Nomoddiy aktivlar quyidagi hollarda hisobdan chiqarilishi mumkin:

- xizmat muddati tugagandan so‘ng;
- to‘liq eskirishi vaqtida ;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga sotilishi vaqtida ;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga tekinga berilishi vaqtida ;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga ustav kapitaliga badal sifatida

berilishi vaqtida .

Hisobdan chiqarishga oid buxgalteriya provodkalarini keltiramiz.

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga sotish hollarida:

Dt 5110 Kt 4010 Tushum summasiga

Dt 9220 Kt 6410 QQS summasiga

Dt 9220 Kt 0400 Nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha

hisobdan chiqarilishi

Dt 0500 Kt 9220 Hisoblangan eskirishning hisobdan chiqarilishi Dt
9220 Kt 9320 Sotishdan ko‘rilgan foyda

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga tugatish hollarida:

Dt 9220 Kt 0400 Nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha
hisobdan chiqarilishi

Dt 0500 Kt 9220 Hisoblangan eskirish

Dt 9220 Kt 6710,6520 Tugatishga oid xarajatlar

Dt 9430 Kt 9220 Tugatishdan ko‘rilgan zarar

Dt 1040 Kt 9320 Temir-tersaklarning kirim qilinishi

Nomoddiy aktivlarning sotilishi va tekinga berilishiga oid oborotlar QQSga
tortiladi.

Tekinga berish vaqtida QQS to‘lovchisi bo‘lib, uni beruvchi tomon
hisoblanadi (qabul qiluvchi tomon foyda solig‘ini to‘laydi).

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar odatda huquqiy himoya qilinadigan va
litsenzion shartnomalar bilan rasmiylashtiriladigan nomoddiy aktivlar ob‘ektlarini
emas, balki ulardan foydalanishga oid huquqni sotadilar. Bunday hollarda
nomoddiy aktivlar qiymati va ularning eskirish summasi o‘zgarmaydi va sotish
hisobvarag‘i bo‘yicha faqatgina tegishli nomoddiy aktivlar ob‘ektlariga bo‘lgan
huquqni sotishdan tushgan tushum summasigina aks ettiriladi.

Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni yuritish
muhim masalalardan bo‘lib, «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun hamda
«Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son milliy standart talablari asosida amalga
oshiriladi. Nomoddiy aktivlarni to‘g‘ri hisobga olish va doimiy ravishda nazorat
qilinib turilishi kerak. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlaridagi nomoddiy aktivlar
quyidagi manbalardan qabul qilinadi:

- pul mablag‘lari evaziga;
- kreditlar hisobiga;
- sotib oluvchi korxonalar kapitali aksiyalariga almashish orqali;
- boshqa korxonalardan hadya (tekinga) sifatida;
- o‘zida yaratish;

- davlat granti;
- ustav kapitaliga ulush sifatida va h.k.

Boshlang'ich xujjatlar asosida nomoddiy aktivlar qaysi manbalardan kelib tushishidan qat'iy nazar qabul qilish hujjatlari bo'yicha kiringa olinishi lozim. Nomoddiy aktivlarni kiritishda ularning huquqiy egaligini tasdiqlovchi (muhofaza etuvchi hujjatlarga) alohida e'tibor berilishi kerak. Ushbu hujjatlar nomoddiy aktivlarni hisobga olishga asos bo'ladi. Ushbu monografiyada nomoddiy aktivlarni buxgalteriya balansida aks ettirish masalalari ilmiy va nazariy jihatdan chuqurroq tadqiq etildi. Pul mablag'lari evaziga xarid qilingan nomoddiy aktivlarning qiymati ularni sotib olish, yig'implar, soliq va boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Kreditga olingan nomoddiy aktivlarning qiymati, quyidagilardan tashkil topadi:

1. Sotib olishning pul o'lchovidagi bahosi (bozor qiymati);
2. Qarzdorlik summalari bo'yicha kelajakda to'lanishi lozim bo'lgan pul to'lovlarining tegishli bo'lgan bozordagi foiz stavkasi bo'yicha diskontlashgan qiymat.

Diskontlashgan qiymat shunday tushunchaki, u kelgusi aktivlarning kirimi yoki chiqimining bugungi qiymati deb baholanadi. Agarda qarzdorlik hujjati foizsiz va aktivning joriy pul qiymatini aniqlash imkoni bo'lsa, unda puldagi qiymatidan ko'p to'lanadigan summa foiz bo'yicha xarajatlar ko'rinishida tan olinadi va butun qarzdorlik davrlari bo'yicha taqsimlanadi. Agar, nomoddiy aktivlarning puldagi qiymatini aniqlash imkoni bo'lmasa, foiz bo'yicha umumiy xarajatlarni aniqlashda va bu aktivning joriy qiymatini hisoblash uchun ustunlikka ega bo'lgan foiz stavkasidan foydalaniladi. Shunday qilib, nomoddiy aktivlar puldagi qiymatiga ekvivalent bo'lgan bahoda ifodalanishi mumkin.

Korxonalar aksiyalari evaziga almashtirish orqali kiringa olinadigan nomoddiy aktivlar quyidagicha tartibda hisoblanishi kerak: korxonalar kapitalining aksiyalari nomoddiy aktivlarni sotib olish maqsadida chiqarilgan taqdirda, nomoddiy aktivlar yoki ularning haqiqiy bozor qiymati bo'yicha yoki chiqarilgan aksiyalarning bozor

qiymati bo'yicha ularning qaysi biri haqqoniy va ob'ektivligiga qarab aks ettiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar biron bir sub'ektga ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish maqsadida nomoddiy aktivlarni hadya sifatida berishi ham mumkin. Hadya qilingan nomoddiy aktivlar hisobi faqat haqiqiy qiymati bo'yicha baholash tamoyiliga qat'iy rioya qilingan holda ifodalanadi. Hadya qilingan nomoddiy aktivlarning qiymati mavjud bo'lmasa, unda, nomoddiy aktivlar qiymati yetkazib berish xujjatlaridagi qiymat asosida baholanadi.

Nomoddiy aktivlar va xususiy kapital schyotlari hadya qilishda aktivning joriy bozor qiymatini haqiqiy baholash natijasida ko'payib boradi.

Xususiy kapital schyotining ko'payishi xadya qilingan nomoddiy aktiv va korxonaga kapitalining ko'payishini ifodalaydi. Shuningdek, hadya tariqasida olingan amortizatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar hisob registrlarida aks ettirilgan baholar asosida oddiy usulda amortizatsiya qilinishi kerak.

Davlat granti asosida olingan nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda quyidagi mezonlar asos qilib olinishi kerak deb hisoblaymiz;

- joriy xarajatlar yoki daromadlarga taalluqli bo'lgan yordam summasi davrining sof foydasini aniqlashda hisobga olinishi lozim;

- kelgusi davrlarga taalluqli bo'lgan yordam summasi muddatini uzaytirish kerak va daromadlarga olish u bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar paydo bo'lganda amalga oshirilishi lozim;

- nomoddiy aktivlarni olish bilan bog'liq yordam yoki nomoddiy aktivning amortizatsiyasi olib tashlangan holdagi boshlang'ich bahosidan chegirib tashlanishi kerak.

Masalan, tovar belgisi uchun guvoynomaga egalik qilinganda (Sotib olish qiymati-300000 so'm) uning qiymatini 40 foizi davlat tomonidan ajratilgan granti hisobiga qoplanadi. Guvoynomadan foydalanish muddati 10 yil (o'z kuchini yo'qotish muddati).

Biz yuqoridagi har ikki usulni, ya'ni sof qiymat va muddatini uzaytirish usullari hisob-kitob qilish tartibini buxgalteriya jurnal yozuvlarida quyidagicha aks ettiramiz:

1. Sof qiymat usuli bo'yicha:

a) Sotib olishni aks ettirish (mamlakat valyutasida):

Debet: 0420-«Tovar belgisi» schyoti -300000 so'm.

Kredit: 5110-«Hisob-kitob» schyoti-300000 so'm.

b) Grant olishni aks ettirish:

Debet: 5110-«Hisob-kitob» schyoti-120000 so'm.

Kredit: 8810-«Grantlar» schyoti –120000 .

v) Xizmat qilish muddatlari mobaynida har yilning oxirida amortizatsiya xarajatlarini aks ettirish:

Debet: 2000, 2300, 2500, 9400-«Xarajatlarni hisobga oluvchi» schyotlar - 18000 so'm.

Kredit: 0520-«Tovar belgilarining amortizatsiyasi» schyoti-18000 so'm.

2. Muddatini uzaytirish usuli.

a) Sotib olishni aks ettirish:

Debet: 0420 –«Tovar belgisi» schyoti -300000 so'm.

Kredit: 5110-«Hisob-kitob» schyoti-300000 so'm.

b) Grant olishni aks ettirish:

Debet: 5110-«Hisob-kitob» schyoti-120000 so'm.

Kredit: 8810-«Grantlar» schyoti –120000

v) Xizmat qilish muddatlarida amortizatsiya xarajatlarini aks ettirish:

Debet: 2000, 2300, 2500, 9400-«Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar» - 30000 so'm. ($1/10 \cdot 300000$).

Kredit: 0520-«Tovar belgisining amortizatsiyasi» schyoti-30000 so'm.

Debet: 8810 “Grantlar” schyoti –12000 so'm. ($1/10 \cdot 120000$).

Kredit: 2000, 2300, 2500, 9400-«Xarajatlarni hisobga oluvchi» schyotlar- 12000 so'm.

Ikkala usulning qo'llanilishi korxonalar daromadlarga bir hilda ta'sir qiladi. Farq esa buxgalteriya balansida bo'lib, muddatini uzaytirish usulini qo'llaganda nomoddiy aktivlar (bizning misolda tovar belgisiga guvohnoma)ning umumiy qiymati amortizatsiyalanmagan kompensatsiya summasiga kamaytirilgan holda aks

ettiriladi. Sof qiymat usulida esa, nomoddiy aktivlarning sof qiymati aks ettiriladi.

Harid qilib olinayotgan nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati ham soliq solinadigan bazaga ta'sir etish mumkin. Bunda olinayotgan nomoddiy aktivning bozor qiymati bilan balansdagi qoldiq qiymatlari olinadi.

«Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar» 10-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartida nomoddiy aktivlar bilan bog'liq subsidiyalarni odatda daromad sifatida tan olinishi ta'kidlangan.¹

Aktivlarga kiritiladigan davlat subsidiyalari, shu jumladan, nolikvid subsidiyalar maqsadli tushumlar deb aks ettiriladi va shu aktivning foydali xizmat muddati davomida daromad sifatida muntazam asosida e'tirof etiladi. Davlat subsidiyasi nomoddiy aktivlarning balans qiymatini kamaytiradi va hisoblanadigan amortizatsiyani qiqartirish yo'li bilan uning foydali xizmat qilish muddati davrlarida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda aks ettirilib borilishi lozim.

Korxonada faoliyatida nomoddiy aktivlarning bir necha turini umumiy tarzda xarid qilib olish mumkin. Chunki ko'p holatlarda bu aktivlar to'plamining bahosi ularning alohida sotib olish bahosidan kamroq bo'lishi, o'z navbatida, bu xaridorlar e'tiborini jalb etish maqsadida amalga oshiriladi. Boshqa holatlarda nomoddiy aktivlar ilova ko'rinishida xarid qilinadi, ya'ni firma bahosi (gudvill) qiymatiga kadrlar malakasi va tashkiliy xarajatlar qo'shib sotib olinadi. Guruhli yoki umumiy summaga sotib olish usuli deb ataladigan sotib olishning ushbu turi umumiy qiymatini sotib olingan bir necha xil nomoddiy aktivlar bo'yicha taqsimlash muammosini keltirib chiqaradi. Bunday aktivlarni alohida identifikatsiyalanishi mumkin emas, aksincha, ularning qiymati korxonaning boshqa aktivlari bilan o'zaro aloqadorlik tufayli oshadi. Umumiy qilingan xarajatlarni taqsimlashda har bir nomoddiy aktivlarni alohida ob'ekt sifatida bo'lib olish zarur. Chunki, har bir ob'ekt uchun xarajatlarni aniqlab olish, kelgusida

¹ «Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumot». (BXMS-10) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 1998 yil, 19-oktyabr, 52-son

amortizatsiya uchun asos bo‘ladi.

Yangi schyotlar rejasiga muvofiq nomoddiy aktivlarni buxgalteriyada hisobga olish tartibi quyidagi mazmunga ega;

1. Shartnomaga asosan kompyuter dasturiga ega bo‘lish. Kelishilgan narxi-1000000 so‘m (QQS bilan birga):

a) Debet: 0830-«Nomoddiy aktivlarni sotib olish» schyoti -1000000 so‘m.

Kredit: 6010 «Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar» schyoti-1000000 so‘m.

b) Debet: 0430 «Dasturiy ta’minot»- schyoti-1000000 so‘m.

Kredit: 0830 «Nomoddiy aktivlarni sotib olish» schyoti -1000000 so‘m.

2. Ta’rischilardan ulush asosida nomoddiy aktivlarning olinishi (er maydonlaridan foydalanish uchun guvohnoma);

- **Dastlabki qiymati:**

Debet: 0440 «Yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqi»-schyoti-500000 so‘m.

Kredit: 4610 «Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta’rischilarning qarzlari»-schyoti-500000 so‘m.

- **amortizatsiya qiymati;**

Debet: 4610 «Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta’rischilarning qarzi»-schyoti-200000 so‘m.

Kredit: 0540 «Yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi»- schyoti-200000 so‘m.

- **qoldiq qiymati:**

Debet: 4610 «Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta’rischilar qarzi»-schyoti-300000 so‘m.

Kredit: 8510 «Aktivlar qayta baholash bo‘yicha, tuzatishlar» schyoti-300000 so‘m.

Yuqoridagi buxgalteriya yozuvlarini yana quyidagi ko‘rinishda ham aks ettirish mumkin:

Debet: 0440 «Yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqi» scheti-500000

so‘m.

4610 «Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta‘sischilarning qarzi» chyoti-200000 so‘m.

Kredit: 0540 «Yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi» schyoti-200000 so‘m.

Korxonalarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobini jurnal-order shakli tanlab olingan bo‘lsa, 0400-«Nomoddiy aktivlar» va 0500-«Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi» schyotlari turkumlari bo‘yicha sintetik hisobi 10 va 13-sonli jurnal-orderda olib borilishi kerak.

Nomodiy aktivlardan, jumladan, patent yoki litsenziyalar uchun royalti va «paushal-to‘lov» ko‘rinishidagi summalarni o‘tkazib beradi. Litsenziya egasi-bu nomoddiy aktivlarga egalik qiluvchi hamda Davlat Patent Idorasi (DPI)da ro‘yhatga olingan litsenziyalar shartnomasi asosida nomoddiy aktivdan foydalanish huquqini uchinchi shaxsga topshirgan yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Litsenziat esa, bu litsenziya shartnomasiga asosan nomoddiy aktivdan foydalanish huquqini olgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Har ikkisinining faoliyati uchun asos tuzilgan litsenziya shartnomasi (bitim) hisoblanadi. Bu yerda litsenziya shartnomasi patent egasi (litsenziar)ning aqliy mulkini muhofaza qiladigan ob‘ektidan shartnomada ko‘zda tutilgan hajmda foydalanish huquqini topshirish to‘g‘risidagi bitimi hisoblanadi.

Bu bitimga muvofiq boshqa shaxs (litsenziat) shartnomada ko‘zda tutilgan royalti va paushal-to‘lovlari ko‘rinishida to‘lovlarni litsenziarga o‘tkazish hamda shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa xarajatlarni bajarish majburiyatini oladi. To‘lovlarga kelsak ularni quyidagicha ifodalash mumkin.

Royalti to‘lovi litsenziat litsenziya bitimga binoan mahsulot qiymatidan vaqti-vaqti bilan ajratma sifatida yoki savdo-sotiqdan tushgan mablag‘ miqdoridan foiz tarzida yoki mahsulot birligidan yig‘im tarzida litsenziarga to‘laydigan mablag‘dir.

«Paushal-to‘lovi» esa sotiladigan litsenziyali mahsulotning amaldagi miqdori qanchaligidan qat’iy nazar litsenziya shartnomasiga binoan aqliy mulk

ob'ektlaridan foydalanish huquqini berganligi uchun to'lanadigan mablag'ning qat'iy belgilab qo'yilgan miqdori bo'lib, uni to'liq yoki bo'lib-bo'lib to'lashni ifodalaydi. Bu to'lovlar operatsion faoliyatdan olingan daromadlar bo'lib, «Pul oqimlari to'g'risidagi» buxgalteriya hisobi milliy standartining 11-bandi bilan tartibga solinadi.

Shunday holatlar ham bo'lishi mumkinki, litsenziya shartnomasi-da ko'zda tutilmagan hizmatlarga litsenziat to'lovlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu to'lov turini biz «plast-kost» ya'ni qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar deb ataladi. Litsenziya shartnomasiga ko'ra litsenziat (patentdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs) litsenziarga royalti bo'yicha to'laydigan summalarni quyidagi buxgalteriya yozuvlarda o'z ifodasini topadi;

1. Royalti bo'yicha to'lanadigan summalarning hisoblanishi:

Debet: 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»schyoti-10000 s

Kredit:6930 «Royalti bo'yicha qarzar»schyoti-10000 s.

2. Bankdagi hisob-kitob schyotidan o'tkazib berish:

Debet: 6930 «Royalti bo'yicha qarzar» schyoti-10000 so'm.

Kredit: 5110 «Hisob-kitob» schyoti-10000 so'm.

3. Litsenziar faoliyati bo'yicha daromadlar quyidagicha aks ettiriladi;

Debet: 4850 «Olinadigan royalti» schyoti –40000 so'm.

Kredit: 9510 «Royalti ko'rinishidagi daromadlar» schyoti-40000 so'm.

Debet:5110 «Hisob-kitob» schyoti-40000 so'm.

Kredit: 4850 «Olinadigan royalti» schyoti –40000 so'm.

Litsenziar «Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar» (2-son BHMS) buxgalteriya hisobi milliy standartining 20-bandiga asosan, litsenziya uchun to'lanadigan haqni quyidagi tartibda hisoblash mumkin: «Aktiv sifatida foydalanilgan litsenziyalar va royaltilar uchun to'lovlar bitimning mazmuni va shartiga muvofiq ravishda odatda daromad hisoblanadi».²

«Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. «Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar» (BHMS-2 son) 1998 yil 20-avgust.№41

asos»ning 50-bandida xo‘jalik yurituvchi korxonalar xususiy kapitali tarkibiga ustav, qo‘shilgan, zahira kapitali va taqsimlanmagan foydadan iboratligi ko‘rsatib o‘tilgan. Zahira kapitali sub’ektlar ustaviga muvofiq sof foyda hisobidan tashkil topadi, shuningdek, u mulkni qayta baholash natijasida tashkil bo‘ladigan inflyatsiya zaxiralari, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulk qiymatlarida ham hisobga olinadi.

Nomoddiy aktivlar buxgalteriya balansiga olingandan so‘ng, u qayta baholash sanasida bozor qiymati bo‘yicha qayta baholanadi, unda jamg‘arilgan amortizatsiya chiqarib tashlanadi. Demak, nomoddiy aktivlarni qayta baholashdan olingan daromadlar ham moliyaviy hisobotlarda aks ettirishi lozim. Biroq, «Korxonalarining chorakli va yillik moliyaviy hisobot shakllarini to‘lg‘azish bo‘yicha ko‘rsatma»³ga muvofiq «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» 5-shaklda nomoddiy aktivlarning qayta baholashdan olingan qiymatning miqdori uchun alohida satr (kodi) belgilanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 31-moddasi 13-bandiga asosan, quyidagi yuridik shaxslarning nomoddiy aktiv ob’ektlaridan olgan daromatlari (foyda) solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi;

1. Patent egasi (litsenziar) o‘ziga tegishli ishlab chiqarishda nomoddiy aktivlardan foydalanishdan, shuningdek, ularga litsenziyalarni sotishdan olingan daromadlar harakat muddati doirasida foydalanish muddatlari boshlangan paytidan;

- patent bo‘yicha ixtirolar va seleksiya yutuqlari 5 (besh) yil davomida; dastlabki patent bo‘yicha ixtirolar va guvohnoma bo‘yicha seleksiya yutuqlari, patent bo‘yicha sanoat namunalari 3 (uch) yil davomida; dastlabki patent bo‘yicha sanoat namunasi 2 (ikki) yil davomida.

2. Litsenziat (litsenziya shartnomasi buyumidan foydalanish huquqini olgan shaxs) nomoddiy aktivlardan olgan daromatlari undan foydalana boshlangan davrdan boshlab;

- patent bo‘yicha ixtirolar seleksiya yutuqlari 5 (besh) yil davomida;

³ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 7-fevral Buyrug‘iga 2-Ilova.

dastlabki patent bo'yicha sanoat namunasi 2 (ikki) yil davomida; guvohnoma bo'yicha tovar belgisi va hizmat ko'rsatish belgisi-1 (bir) yil davomida.

Ushbu Soliq kodeksning 58-moddasi "T" bandiga muvofiq jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadiga quyidagilar qo'shilmaydi. Patent egasi bo'lgan jismoniy shaxs (litsenziar) o'z ishlab chiqarishida intellektual mulkdan foydalanishdan yoki ularga litsenziyani sotishdan olingan daromad miqdori harakat muddati darajasida foydalanish boshlangan paytdan, shuningdek, litsenziat sanoat mulkidan foydalana boshlangan paytdan:

- patent bo'yicha ixtirolar va seleksiya yutuqlari-5 (besh) yil davomida; dastlabki patent bo'yicha ixtirolar va guvohnomalar bo'yicha sanoat namunalari- 3 (uch) yil davomida; dastlabki patent bo'yicha sanoat namunasi-2 (ikki) yil davomida.

Nomoddiy aktivlaridan foydalanib olingan daromadlar (foyda)dan Soliq Kodeksinig 31-moddasi 13-bandlarida ko'rsatilgan soliq imtiyozlarinig muddatlari tugatilgandan so'ng korxonada buxgalteriyasida olingan daromad miqdori aniqlanib, belgilangan foizlarda daromad solig'i hisoblab chiqiladi.

Nomoddiy aktivlardan foydalanishdan olinadigan daromadni yalpi daromad miqdoridagi ulushi haqida axborotlarga ega bo'lish maqsadida yangi schyotlar rejasida alohida schyot ochish kerak deb hisoblaymiz. Ushbu schyotlar rejasida «Daromadlar va xarajatlar» deb nomlangan 9-bo'limidagi 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari»ga nomoddiy aktivlardan foydalanishdan olingan daromad ulushini to'liq hisobga olish maqsadida 9060-«Patent yoki litsenziya asosida ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar» schyotini kiritishni taklif qilamiz. Soliq Kodeksining 31-moddasiga asosan sub'ekt schyotida mahsulot (ishlar, hizmatlar) sotishdan kelgan daromadlaridan hisoblanayotgan soliq stavkalaridan ma'lum vaqt davomida to'lovlardan ozod qilinadi. Shuningdek Soliq Kodeksining 71-moddasida intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni olganlik uchun patent bo'yicha bojlar, ro'yxatga olish yig'imlari va litsenziya to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilingan.

Xo'jalik sub'ektlari o'zlarining mol-mulkidan, shuningdek, nomoddiy aktivlariga ega bo'lganligi uchun, ushbu kodeksning 90-moddasiga asosan, nomoddiy aktivlarining yillik balansi o'rtacha qoldiq qiymatidan 3,5 foiz miqdorida mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatini oladi. Tarmoq korxonalarida «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobotida pul mablag'larining harakatini 9-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti qoidalariga muvofiq tarzda tuzadilar. Mazkur standartning 11-bandida operatsion faoliyatdan pul oqimi sub'ektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi deb belgilanadi va royalti bilan bog'liq pul mablag'lari tushumi operatsion faoliyatining asosiy pul oqimlari sifatida ifodalanadi. Patent egasi (litsenziar) royalti, "Paushal-to'lov» va «plast-kost» ko'rinishidagi (sanoat mulki ob'ektlaridan foydalanish huququni berganligi uchun) litsenziatdan olgan daromadlarini, shuningdek, litsenziat esa royalti, «Paushal-to'lov» va «plast-kost» ko'rinishidagi (intellektual mulkdan foydalanganligi uchun) litsenziarga to'lovlarning umumiy qiymati «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» shaklida ham aks ettirilishi lozim. Tomonlar o'rtasida tuzilgan litsenziya shartnomasiga ko'ra litsenziat litsenziarga qat'iy belgilab qo'yilgan bir yo'la yoki davriy shaklda haq to'laydi.

Xo'jalik sub'ektlarining birlashuvida yoki bir sub'ekt ikkinchi bir sub'ektning sof aktivlari va ishlab chiqarish faoliyati huquqini sotib olishi oqibatida bir iqtisodiy birlikka qo'shilishidan gudvill (Goodwill) paydo bo'ladi.

Gudvillning paydo bo'lishini quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$G_s = (T_p + L) - (G_a + N_a);$$

Bu yerda: **G_s**-gudvill sumasi;

T_p-to'lanadigan pul mablag'lari;

L-majburiyatlar;

G_a-joriy aktivlarning bozor qiymati;

N_a-uzoq muddatli aktivlarning bozor qiymati.

Korxonalarining birlashuvidan inventarga o'tgan barcha sotib olingan aktivlar va passivlar konsolidatsiyalashgan va hisobot ma'lumotlariga, odatda, sotib olish sanasiga bo'lgan qiymat bo'yicha kiritiladi. Sotib olish narxini

aktivlarning hisob narxidan, shartnoma bo'yicha o'tkaziladigan majburiyatlarni chegirib tashlaganda ortiq bo'lishi gudvill sifatida qayd qilinishi lozim. Sotib olish sanasiga oluvchi korxonadan konsolidatsiyalashgan balans tuziladi va bu asosida ishchi jadvallari tayyorlanadi. Bu ishchi jadvalida balans moddalari va uning qiymatlari, tuzatuvchi yozuvlar keltiriladi: Masalan, bir korxonadan ikkinchi korxonaning 100 foiz oddiy aksiyalarini 1500000 so'mga sotib oldi, bu summa aktivlarning qoldiq qiymatidan 300000 so'mga ko'p. Bu ortiq summani birinchi korxonadan investori quyidagicha ifodalaydi: 180000 so'm sotib olingan korxonaning aktivlari qiymatini ko'paytirish hisobiga va qolgan 120000 so'm esa investor oladigan gudvill hisobiga. Shuningdek, sotib olish qiymati nominal qiymatidan oshganida amalga oshiriladigan tuzatishlarni ko'rsatuvchi ishchi jadvalini tuzadi.

16.4. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari.

Nomoddiy aktivning bahosi amal qilish muddati mobaynida yoki muvofiqlik qoidasiga binoan nomoddiy aktivning taxmin qilinayotgan xizmat qilish muddati mobaynida muntazam ravishda hisobdan chiqarib borilishi lozim. Mazkur jarayon nomoddiy aktivlarning amortizatsiya qilinishi deb ataladi.

Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi bo'yicha asosiy qoidalar «Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son buxgalteriya hisobining milliy standartida amortizatsiyani hisoblash usullarini amaliyotga qo'llash tartibi keltirilgan. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur ob'ekt nomoddiy aktivlar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlanadi hamda mazkur nomoddiy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq so'ndirilgunga qadar yoki bu nomoddiy aktivni balans hisobidan chiqarilguniga qadar amalga oshiriladi. Ularga amortizatsiya hisoblashni to'xtatish esa amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq so'ndirilgach yoki ushbu nomoddiy aktiv balans hisobidan chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan amalga oshiriladi. Masalan, biz nomoddiy aktivni 2020 yil 5 yanvarda balans hisobidan chiqarsak, unga 2020 yil yanvar oyi uchun bir oylik amortizatsiyani to'liq

hisoblaymiz va 2020 yil 1 fevraldan amortizatsiya hisoblashni to'rtatishimiz lozim bo'ladi.

Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati - aktivdan foydalanish mo'ljallangan davr yoki korxonada mazkur aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallagan mahsulot (ish va xizmat)lar miqdori (xajmi) tushuniladi. 7-son BHMS ning 39-bandida nomoddiy aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymati muntazam asosda quyidagi tarzda taqsimlab borilishi lozim bo'lgan amortizatsiya qilish muddatlari belgilangan:

- uning foydali xizmat ko'rsatish muddati mobaynida (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyat ko'rsatish muddati doirasida);

- foydali foydalanish muddatlarini aniqlash imkoni bo'lmagan 5 yil hisobida (biroq, xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyat muddati doirasida). Foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari me'yori besh yil etib belgilanadi, ammo mazkur muddat korxonada faoliyat ko'rsatish muddatidan oshmasligi lozim.

Nomoddiy aktivning iqtisodiy xizmat ko'rsatish muddatini belgilash odatda qiyin bo'lgani sababli, uning xizmat ko'rsatish muddatini aniqlash uchun quyidagi omillar hisobga olinishi lozim:

- xizmat ko'rsatishning eng ko'p muddatini cheklashi mumkin bo'lgan yuridik, tartibga soluvchi va shartnoma qoidalari;

- mo'ljal qilinayotgan xizmat qilish muddatini o'zgartirishi mumkin bo'lgan yangilash yoki muddatni uzaytirishga oid shartlar;

- xizmat qilish muddatini kamaytirish mumkin bo'lgan eskirish, talab va boshqa xil iqtisodiy omillar;

- kutilayotgan ish muddati yoki xodimlar guruhiga muvofiq kelishi mumkin bo'lgan xizmat qilish muddati;

- nomoddiy aktivning mavjud raqobatbardoshligini cheklashga qodir raqobatchilar va boshqa sub'ektlarning ko'tilayotgan xatti- harakatlari;

- turli xizmat ko'rsatish muddatlaridagi ko'pgina alohida aktivlarning asosi bo'lishi mumkin bo'lgan nomoddiy aktiv.

Korxonalarida nomoddiy aktivlardan foydalanish jarayonida ular o'zining dastlabki qiymatini yo'qotib boradi. Ushbu aktivlar buxgalteriya hisobi milliy standart qoidalariga asosan nomoddiy aktivda mujassamlashgan iste'mol xususiyatlari sarflanganda, balans qiymati tegishli summaga kamayib boradi. Bu esa, nomoddiy aktivlarning butun foydali xizmat qilish muddatlari davomida qoldiq qiymati chegirilgan holda, dastlabki qiymatini xarajatga muntazam o'tkazish hisobiga amalga oshiriladi. Demak, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanganda belgilangan me'yorlarga asosan «Nomoddiy aktivlariga amortizatsiyani hisoblash qaydnomasi» tuzilishi kerak.

Nomoddiy ob'ektlarga amortizatsiyasini hisoblash qaydnomasi (NMA-3 shakl).

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, iqtisodiy adabiyotlarda amortizatsiya qaydnomasining tegishli bo'lgan ustunlarida nomoddiy aktivlar amortizatsiya me'yorlari ham keltiriladi. Lekin, ushbu me'yorlar ilmiy jihatdan to'liq asoslanilmagan. Buning asosiy sababi amortizatsiya me'yorlari haqidagi maxsus hujjatlar ishlab chiqilmagan. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiyani hisoblash qaydnomasining amaldagi namunaviy shakliga amortizatsiya me'yorlarini qayd etuvchi ustunini kiritish mumkin.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisob-kitob qilishda ishchi jadvali korxonada bo'yicha hisobot oyida yoziladigan nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasini belgilash uchun foydalaniladi. Ushbu jadvalning qo'llanilishi amortizatsiya hisoblash jarayonini yanada soddalashtirishga olib keladi. Bunda hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi: oy boshidagi amortizatsiya summasiga kelib tushgan nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi qo'shib, o'tgan oyda hisobdan chiqqan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya summasi chegirib tashlanadi. Bunda hisob-kitob ma'lumotlari faqat amortizatsiya qismida keltirilib, u nomoddiy aktivlar dastlabki qiymati asosida belgilanadi.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining qiymati guruhlashagan me'yorlar bo'yicha belgilanib, bular patentlar, litsenziyalar kabilarning turlariga qarab ajratiladi. Shuningdek, bu ishlanma jadvalida amortizatsiya summasi har bir

foydalanish ob'ektlari bo'yicha belgilanadi. Bunda amortizatsiya ajratmalari xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi nomoddiy aktiv ob'ektlari dastlabki bahosi va foydali xizmat muddati asosida hisoblaniladi.

Bu muddat xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishlab turgan davr mobaynida dastur mahsulotlari, monopol huquklar, mahsulot ishlab chiqarish va boshqalardan foydalanish davri uzunligiga bog'liq.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi quyidagicha tartibda hisoblanadi:

No	Nomoddiy aktivlar turi	Dastlabki qiymati	Foydali foydalanish sanasi	Illik amortizatsiya normasi, % hisobida	Oylik amortizatsiya normasi, % hisobida	Oylik amortizatsiya summasi	Foydalanish joi
1	2	3	4	5	6	7	8

Amortizatsiya boshlang'ich qiymat bilan tugatish (qoldiq) qiymati o'rtasidagi farq sifatida shakllanuvchi amortizatsiya qilinadigan qiymat yuzasidan hisoblab yoziladi.

O'zbekiston Respublikasida "Nomoddiy aktivlar" nomli 7-sonli BHMSga muvofiq nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash to'rtta usulda amalga oshiriladi. Jumladan:

1. To'g'ri chiziqli usul, ya'ni bir maromli usul.
2. Ishlab chiqarish usuli, ya'ni bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash usuli.
3. Kamayib boruvchi qoldiq usuli, ya'ni ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli.
4. Kumulyativ usul, ya'ni yillar summasi usuli.

1. *To'g'ri chiziqli usul (Straight-line method)*, bu usulda aktivdan foydalanishning butun davri mobaynida eskirishning doimiy summalarini hisoblab yozishdan iborat bo'ladi. Bu ob'ektning amortizatsiyalanadigan qiymati xizmat qilish muddatlari mobaynida teng ulushlarda hisobdan chiqarib boriladi. Demak,

bu usulda nomoddiy aktivlarning har yildagi amortizatsiya summalari bir xil ko‘rinishda bo‘ladi, qoplanayotgan amortizatsiya bir xil sur‘atda ortadi, natijada ob‘ektning ichki qiymati bir xil darajada kamayib boradi. Shunga muvofiq to‘g‘ri chiziq usulida amortizatsiya ajratmalarini hisob-kitob qilish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$A_s = \frac{D_q - T_q \cdot e_{\text{KI}} \cdot (T_F - T_H)}{H_M} ;$$

bu yerda:

A_s -amortizatsiya summasi;

D_q -dastlabki qiymati;

T_q -tugatilish qiymati;

T_F -tugatishdan olingan foyda;

T_H -tugatilish bo‘yicha xarajatlar;

H_M -xizmat qilish muddati.

Masalan, Mahsulotlar belgisiga bo‘lgan guvohnomaning dastlabki qiymati 6000000 so‘m, undan foydalanish muddati 10 yil. Bu muddat ichida guvohnomaga har yili bir xil me‘yorda amortizatsiya hisoblanadi.

Ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, birinchidan, guvohnoma uchun 10 yil davomida amortizatsiya ajratmasi bir hil tartibda hisoblangan, ikkinchidan, qoplanayotgan amortizatsiya summasi ham bir darajada ortib borgan, uchinchidan esa qoldiq qiymati proporsional ravishda kamayib boradi. Ushbu usulda amortizatsiya aktivning xizmat muddatini uzoq davom etishiga bog‘liqligiga asoslanadi va amortizatsiya me‘yorlari doimiy hisoblanadi.

1. To‘g‘ri chiziqli usul shunga asoslanadiki, amortizatsiya teng maromda, nomoddiy aktivlarni foydali xizmat muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi.

Masalan, “Iqtisod-moliya” DUK mualliflik shartnomasi bo‘yicha 25 mln. so‘m to‘lab, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” kitobini 5 yil davomida 750 ming nusxada nashr qilish huquqini sotib oldi. Mazkur nomoddiy aktiv uchun

amortizatsiyani to'g'ri chiziqli usul bo'yicha hisoblash vaziyatini ko'rib chiqamiz.

Amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya nomoddiy aktivning qiymati va uning foydalanish muddati (5 yil) dan kelib chiqqan holda, teng ulushlarda hisoblanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining to'rt yillik summasi:

$25\ 000\ 000 / 5 = 5\ 000\ 000$ so'mni tashkil qiladi.

To'rt yil davomida amortizatsiya hisoblashni quyidagicha aks ettirishimiz mumkin:

16.2-jadval.

Nomoddiy aktivlarga to'g'ri chiziqli usul bo'yicha amortizatsiya hisoblash

(so'mda)

Sanalar	Dastlabki qiymati	Amortizatsiyaning yillik summasi	Jamlangan eskirishi	Qoldiq qiymati
Xarid sanasida	25 000 000	-	-	25 000 000
1-chi yilning oxiri	25 000 000	5000 000	5000 000	20 000 000
2-chi yilning oxiri	25 000 000	5000 000	10000 000	15 000 000
3-chi yilning oxiri	25 000 000	5000 000	15 000 000	10000 000
4-chi yilning oxiri	25 000 000	5000 000	20 000 000	5000000
5-chi yilning oxiri	25 000 000	5000 000	25000000	0

2. *Bajarilgan ishlar xajmiga mutanosib taqsimlash usuli (Rroduction method) yoki ishlab chiqarish usuli.* Bu usul ob'ektning foydaliligi ishlatishning butun davrida uning jami ishlab chiqarish tegishli o'lchov birliklari (natura, qiymat va mehnat o'lchovlari) da baholanishiga asoslangan. Hisob-kitob qilinayotgan amortizatsiya ekspluatatsiya natijasi bo'lib, unda hisobot vaqtlari hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Amortizatsiya ajratmalari bilan mahsulot birligi o'rtasida bog'liqlik bo'lib, jang'arilayotgan amortizatsiya (accumulated depreciation) ortib boradi, aktivning qiymati esa, aksincha kamayib boradi. Ushbu holda foydalanishning i- yildagi nomoddiy aktiv amortizatsiyasi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$A_i = \frac{(D_q - T_q) \Pi_i}{\sum_{i=1}^n \Pi_i};$$

bunda

D_q - nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati;

T_q foydalanishning oxirgi n-yildagi tugatish qiymati;

P_i - n-yildagi ishlab chiqarish;

P –foydalanishning butun davridagi jami ishlab chiqarish;

n – ob’ektning xizmat qilish muddati.

Masalan, sanoat mulk ob’ektlaridan foydalanib (foydalanish uchun huquqiy muhofaza patent) olingan mahsulotlar birligi shartnoma bo‘yicha kiringa olingan patentning dastlabki qiymatiga nisbatan aniqlanadi.

2. Amortizatsiya hisoblashning ishlab chiqarish usuli, ya’ni bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash usuli har bir muayyan yilda nomoddiy aktivdan foydalanishdan olinadigan mahsulotlarni hisobga olishga asoslangan.

Mazkur usul bo‘yicha har yillik amortizatsiya miqdorini hisoblash uchun butun foydali xizmat muddatidagi dastlabki bahodagi nomoddiy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini va amortizatsiya davrining muayyan yilida ishlab chiqarish, ish bajarish mo‘ljallangan ishlar hajmini aniqlashimiz lozim bo‘ladi. Ishlar hajmi sifatida mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni va boshqalarni olishimiz mumkin.

Nomoddiy aktivga amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko‘rsatkichidan hamda amortizatsiyalanadigan qiymatni nomoddiy aktivning butun foydali xizmat muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan, “Iqtisod-moliya” DUK mualliflik shartnomasi bo‘yicha 25 mln. so‘m to‘lab, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” kitobini 5 yil davomida 750 ming nusxada nashr qilish huquqini sotib oldi. Mazkur nomoddiy aktiv uchun

amortizatsiyani ishlab chiqarish usuli bo'yicha hisoblash vaziyatini ko'rib chiqamiz.

Birinchi ikki yilda har yili 200 mingdan, uchinchi yilda 150 ming, to'rtinchi yilda 125 ming, beshinchi yilda 75 ming nusxa kitob chiqarish rejalashtirildi.

Ushbu vaziyatda yillik amortizatsiya ajratmalari bir yilda nashr qilinishi rejalashtirilayotgan kitob nusxalari miqdoriga bog'liq holda hisoblab chiqiladi, ya'ni:

1 nusxaga amortizatsiya xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$25\,000\,000 \text{ so'm} / 750\,000 \text{ nusxa} = 33,33 \text{ so'm/nusxa}$$

So'ngra yillik amortizatsiya ajratmalari summasi har bir yilda rejalashtirilgan nusxalar miqdorini 1 nusxa amortizatsiya xarajatlariga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, birinchi yilda amortizatsiya summasi 6 666 666,68 so'm (200 ming nusxa x 33,33 so'm/nusxa) ni tashkil qiladi. Mazkur bir yillik amortizatsiya summasini quyidagi usulda ham aniqlash mumkin:

$$25\,000\,000 - 750\,000$$

$$x - 200\,000$$

$$x = 25\,000\,000 * 200\,000 / 750\,000$$

$$x = 6\,666\,666,68 \text{ so'm}$$

Navbatdagi yillik amortizatsiya summalari ham xuddi shunday tartibda hisoblanadi.

Amortizatsiya hisoblash jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

16.3-jadval.

Nomoddiy aktivlarga ishlab chiqarish usuli bo'yicha amortizatsiya hisoblash

(so'mda)

Sanalar	Dastlabki qiymati	Nusxalar miqdori, donada	Amortizatsiyaning yillik summasi	Jamlangan eskirishi	Qoldiq Qiymati
Xarid sanasi	25 000 000	-	-	-	25 000 000

Sanalar	Dastlabki qiymati	Nusxalar miqdori, donada	Amortizatsiyaning yillik summasi	Jamlangan eskirishi	Qoldiq Qiymati
1-chi yilning oxiri	25 000 000	200000	6 666 666,68	6 666 666,68	18333333,4
2-chi yilning oxiri	25 000 000	200000	6 666 666,68	13333333,4	11666666,7
3-chi yilning oxiri	25 000 000	150000	5 000000,00	18333333,4	6666666,7
4-chi yilning oxiri	25 000 000	125000	4166666,7	22500 000	2500000
4-chi yilning oxiri	25 000 000	75000	2500000	25 000 000	0

Ushbu usulda amortizatsiyani hisoblashda amortizatsiyaning yillik summasi va kitob nusxalarining chiqarilgan miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni kuzatib borish mumkin. Yig'ilgan eskirish ushbu mahsulotning ishlab chiqarish hajmiga bog'liq holda har yilda ko'payib boradi.

3. *Jadallashtirilgan hisobdan chiqarish usuli (Accelerated methods)*. Bu usulda amortizatsiya to'g'ri chiziqli usulga nisbatan ikki barobar tez hisoblanadi. Aktivning qiymati birinchi yilda oxirgi yilga nisbatan deyarli sezilarli qismi hisobdan chiqariladi. Shuning uchun amortizatsiyaning bu usulini ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda «Soliq amortizatsiyasi» deb ham yuritiladi. Bunday amortizatsiyadan soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda foydalanilishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashib borishi nomoddiy aktivlardan foydalanish muddatlarini qisqartirish, ularni muddatida hisobdan chiqarish kerakligini taqozo etadi. Jadallashtirilgan amortizatsiya usulining mohiyati shundan iboratki nomoddiy aktivlardan foydalanishning dastlabki yillarida ular boshlang'ich qiymatining asosiy qismi hisobdan chiqariladi. Bizning fikrimizcha ko'ra bunga:

birinchidan, nomoddiy aktivlardan eng ko'p muddatda foydalanish ularning dastlabki yillariga ko'p to'g'ri keladi;

ikkinchidan, amortizatsiya qilinadigan nomoddiy aktiv tezlikda ma'naviy eskirgan taqdirda uni almashtirish yoki yangisini xarid qilib olish uchun maxsus

zaxira yaratish maqsadga muvofiqdir;

uchinchidan, amortizatsiya qilinadigan ob'ektlardan foydalanishning oxirgi yillariga to'g'ri keladigan, ularni tuzatishga sarflanadigan harajatlar ulushini ishlab chiqarish tannarxiga ko'paytirmasdan (amortizatsiya summasining bu yillarda kamayishi hisobiga) aks ettirilishi lozim.

3. Amortizatsiya hisoblashning kamayib boruvchi qoldiq usuli, ya'ni ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuliga ko'ra, amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yili boshidagi nomoddiy aktivning qoldiq qiymatidan va mazkur nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatidan kelib chiqqan holda, hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me'yoridan kelib chiqib aniqlanadi. Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo'yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang'ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Masalan, "Iqtisod-moliya" DUK mualliflik shartnomasi bo'yicha 25 mln. so'm to'lab, "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" kitobini 5 yil davomida 750 ming nusxada nashr qilish huquqini sotib oldi. Mazkur nomoddiy aktiv uchun amortizatsiyani kamayib boruvchi qoldiq usuli bo'yicha hisoblash vaziyatini ko'rib chiqamiz.

Kamayib boruvchi qoldiq usuli bo'yicha hisoblab yoziladigan summalar foydali foydalanish muddati davomida muntazam kamayib boradi.

Ushbu usulda ikki barobar oshirilgan stavka qo'llaniladi. Agarda, xizmat muddatining 5-yilida amortizatsiya me'yori 20 % ($100\% / 5$) ni tashkil etsa, kamayib boruvchi qoldiq usulida u 40% ($20\% \times 2$) ni tashkil qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, agarda mazkur nomoddiy aktiv uchun xizmat muddati 6 yil bo'lganida, unga yillik amortizatsiyaning 16.66 foizi ($100/6=16.66\%$) to'g'ri kelar edi. Chunonchi, shunga muvofiq ikki baravar eskirish me'yori ham 50 foizni emas, balki 40 foizni tashkil etgan bo'lar edi, ya'ni $16.66 \times 2 = 33.33\%$.

Endi 5 yillik xizmat muddatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivga qaytsak. Bunda 40 foizlik amortizatsiya me'yori oldingi yilning qoldiq qiymatiga qo'llaniladi. Amortizatsiya summasi (birinchi yilda eng yirik) muntazam kamayib,

oxirgi yilda qoldiq qiymatni tugatish qiymatigacha kamaytirish uchun zarur boʻlgan summa bilan cheklanadi.

16.4-jadval.

**Nomoddiy aktivlarga kamayib boruvchi qoldiq usuli boʻyicha
amortizatsiya hisoblash**

(soʻmda)

Sanalar	Dastlabki qiymati	Amortizatsiyaning yillik summasi	Jamlangan eskirishi	Qoldiq qiymati
Xarid sanasi	25 000 000	-	-	25 000 000
1-chi yilning oxiri	25 000 000	$(25\,000\,000 \times 40\%) = 10\,000\,000$	10 000 000	15 000 000
2-chi yilning oxiri	25 000 000	$(15\,000\,000 \times 40\%) = 6\,000\,000$	16 000 000	9 000 000
3-chi yilning oxiri	25 000 000	$(9\,000\,000 \times 40\%) = 3\,600\,000$	19 600 000	5400 000
4-chi yilning oxiri	25 000 000	$(5400\,000 \times 40\%) = 2160000$	21760 000	3240000
5-chi yilning oxiri	25 000 000	$(3240\,000 \times 40\%) = 1296000$	23056000	1944000

Jadallashtirilgan usulda amortizatsiyani hisoblanganda sonlar yaʼni kumulyativ usulini ham qoʻllash maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz. Chunki amaldagi meʼyoriy hujjatlarda bu masalaga yetarlicha yondashilmagan.

Amortizatsiya boʻyicha sonlar yigʻindisi usulini qoʻllash yaxshi samara keltiradi. Sonlar yigʻindisi (Sum-of-the-ears-digits method) boʻyicha hisobdan chiqarish yaʼni kumulyativ usul aktivni xizmat qilish yillari summasi orqali aniqlanadi va bu summa hisoblash koeffitsiyentida mahraj boʻlib xizmat qiladi. Koeffitsiyentning surʼatida aktivning xizmat muddati oxirigacha qolgan yillar soni turadi, bu teskari tartibda koʻrsatiladi. Sonlar yigʻindisi-nomoddiy aktivdan foydalanishda yillar mobaynidagi tartib raqamlarini qoʻshishdan olingan summa boʻlib, tegishli yilning amortizatsiya meʼyori obʼektning dastlabki qiymati bilan uning likvidlik qiymati oʻrtasidagi farqqa koʻpaytiriladi. Umumiy formula quyidagi koʻrinishda boʻladi.

$$A_i = \frac{(n - i + 1) * (D_q - T_q)}{S} ;$$

bunda – S- jami yillar.

Amortizatsiya boshlanadigan ob'ektlardan foydalanish muddati yetarlicha davomli bo'lgan taqdirda sonlar yig'indisi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = n(n+1) / 2.$$

bunda n – amortizatsiya ob'ekti faoliyat ko'rsatadigan yillar soni.

Jadallashtirilgan amortizatsiyaning qoldiqni kamayib borish usuli (Declining-balance mehtod)- sonlar yig'indisi usuli tamoyil-lariga asoslangan bo'lib, har qanday qat'iy me'yor qo'llanilishi mumkin bo'lsa ham, lekin to'g'ri chiziqli usulda foydalangan me'yorga nisbatan ikki marotaba ko'paytirilgan me'yor qo'llaniladi. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning kumulyativ usuli, ya'ni yillar summasi usuliga ko'ra har yili amortizatsiya me'yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to'liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari yig'indisiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Kumulyativ usulda amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi nomoddiy aktivning tugatish qiymati chegirilgan holda boshlang'ich (tiklash) qiymatidan hamda suratida nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati oxiriga qadar qoladigan yillar soni, maxrajida esa – nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati yillari soni yig'indisining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan, ARTEL korxonasi ACER tovar belgili noutbuklarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Kompaniyadan tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquqni sotib oldi va tovar belgisini sotib olish kunidagi dollar kursiga muvofiq ravishda uning so'mdagi hajmi qo'shimcha xarajatlari bilan birga 750 mln. so'mni tashkil etdi. Mazkur vaziyatda ushbu nomoddiy aktivning boshlang'ich qiymati 750 mln. so'mni, besh yillik foydalanish muddati oxiridagi tugatish qiymati 7,5 mln. so'mni, xizmat muddati esa 5 yilni tashkil etsin.

Ushbu tovar belgisi uchun amortizatsiyani kumuyativ usul bo'yicha

hisoblash vaziyatini ko‘rib chiqamiz.

Kumulyativ usul maxraji foydali foydalanish yillari soni yig‘indisiga, surati esa teskari tartibda xizmati oxirida qoladigan yil soniga teng bo‘lgan hisob-kitob koeffitsiyentini aniqlashga asoslangan. Ushbu koeffitsiyent foydalanishning turli davrlarida turlicha bo‘ladi, lekin o‘zgarmas amortizatsiyalanadigan qiymatga qo‘llanadi. Kumulyativ usul qo‘llanilganda birinchi yillardagi amortizatsiya summasi keyingi yillarnikiga qaraganda ancha katta bo‘ladi.

Nomoddiy aktivdan foydalanish yillari sonlarining yig‘indisi (kumulyativ son) 15 ga teng: $(1+2+3+4+5)$. So‘ngra har bir kasr ($5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15$) ni $742\,500\,000$ so‘m ($750\,000\,000 - 7\,500\,000 = 742\,500\,000$) miqdoridagi amortizatsiyalanadigan qiymatga ko‘paytirgan holda har yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi.

Ushbu vaziyatda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

16.5-jadval.

Nomoddiy aktivlarga kumulyativ, ya’ni yillar summasi usuli bo‘yicha amortizatsiya hisoblash

(so‘mda)

Sanalar	Dastlabki qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	Jamlangan eskirishi	Qoldiq qiymati
Sotib olish sanasi	750 000 000	-	-	750 000 000
1-chi yil oxiri	750 000 000	$(5/15 \times 742\,500\,000) = 247\,500\,000$	247 500 000	502 500 000
2-chi yil oxiri	850 000 000	$(4/15 \times 742\,500\,000) = 198\,000\,000$	445 500 000	304 500 000
3-chi yil oxiri	750 000 000	$(3/15 \times 742\,500\,000) = 148\,500\,000$	594 000 000	156 000 000
4-chi yil oxiri	750 000 000	$(2/15 \times 742\,500\,000) = 99\,000\,000$	693 000 000	57 000 000
5-chi yil oxiri	750 000 000	$(1/15 \times 742\,500\,000) = 49\,500\,000$	742 500 000	7 500 000

Ushbu usulda eng katta amortizatsiya summasi birinchi yilda hisoblanadi.

Jamlangan eskirish oz-ozdan o'sib borib, qoldiq qiymat har yili amortizatsiya summasiga kamayadi va tugatish qiymatigacha yetib boradi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashda yillik amortizatsiya summasi eng ko'p hisoblanadigan usul bo'lib, qoldiqni kamaytirish usuli (ikki baravar amortizatsiya me'yorini qo'llash) hisoblanadi. Chunki mazkur usulda, birinchi navbatda, uning tugatish qiymati boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatidan ayrilmaydi va boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining o'zi amortizatsiyalanadigan qiymat bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, birinchi yilning o'zida, agar nomoddiy aktivning xizmat muddati 4 yil bo'lsa 50 foizga, xizmat muddati 5 yil bo'lsa 40 foizga birdaniga nomoddiy aktivning yillik eskirish summasi ko'payadi (3-jadval). Ushbu usuldan asosan bajariladigan ish, xizmatlar juda katta hajmni tashkil etadigan va ikki smenada ish tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mazkur nomoddiy aktivlardan foydalanilganda qo'llaniladi.

Yillik eskirish summasi katta miqdorni tashkil etadigan keyingi usulga kumulyativ, ya'ni yillar summasi usuli misol bo'la oladi. Mazkur usulda nomoddiy aktivning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatidan uning tugatish qiymati ayriladi va undan qolgan summa amortizatsiyalanadigan qiymat bo'lib hisoblanadi. Ushbu usulda nomoddiy aktivning xizmat muddati 5 yil bo'lgan taqdirda birinchi yili yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatning 33,3 foizini tashkil etadi, ya'ni: $247\,500\,000 / 742\,500\,000 \times 100$ (4-jadval).

Amortizatsiya qoldiqni kamayib borish usuli bilan hisoblanayotganda tegishli koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlarga davlatning amortizatsiya siyosatiga bog'liq ravishda ikki marotaba tezlashtirilgan usulda hisoblanishi lozim. Xorij davlatlarida bu koeffitsiyentlar turli hil ko'rinishda bo'ladi: xususan, Fransiyada aktivning xizmat qilish muddati 4 yilgacha bo'lsa, 1.5, 5 yildan 6 yilgacha 2.0 va 6 yildan ortiq bo'lsa 2.5 koeffitsiyentlar qo'llaniladi. Italiyada 2.0, Kanadada 2.0 va 3.0, AQShda 1.5 va

2.0, Germaniyada 1.3 dan 2.0 gacha koeffitsiyentlardan foydalaniladi.⁴

Nomoddiy aktivlarning yuqorida takidlab o'tilgan amortizatsiyasini hisoblash usullari taqqoslansa, hisobot davrlari bo'yicha amortizatsiya summalarining ortishi, qoldiq qiymatlarining kamayib borishini ko'rish mumkin. Agar ma'lum yildagi raqamlarga e'tibor berilsa, to'g'ri chiziqli va bajarilgan ishlar hajmiga taqsimlash usullariga qaraganda jadallashtirilgan usulda aktiv qiymatining deyarli 70-80 foizi amortizatsiya xarajatlari ko'rinishida mahsulotlar tannarxiga yoki davr xarajatlariga olib borilishini ko'rish mumkin. Bu esa avvalgi ikki usullarda 50-55 foizni tashkil etadi.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, g'arb davlatlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida amortizatsiyani alohida hisoblab chiqishga yo'l qo'yiladi. Biz soliqqa tortiladigan foydani hisoblab chiqish uchun buxgalter qaysi usuldan foydalanishdan qat'iy nazar, nomoddiy aktivlar bo'yicha jadallashtirilgan amortizatsiya usullaridan foydalanib xarajatlarni jadallashtirilgan qoplash tizimini joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Xarajatlarni jadallashtirilgan qoplash tizimiga muvofiq xarajatlarni qoplash davri nomoddiy aktivlarning turli ob'ektlari uchun 1 yildan 20 yilgacha bo'ladi. Bunda xarajatlarni qoplash davri 1 yildan 10 yilgacha bo'lgan nomoddiy aktivlar uchun 2.0 koeffitsiyent bilan qoldiq qiymat usulidan foydalaniladi.

Shuningdek, qoplash davri 10-20 yilgacha bo'lgan nomoddiy aktivlar uchun 1.5 koeffitsiyent bilan qoldiq qiymat usulidan foydalanish korxonalar uchun samarali bo'lishi mumkin.

Nomoddiy aktivlardan kutilayotgan iqtisodiy samara o'zgaradigan bo'lsa, ularga nisbatan qo'llaniladigan amortizatsiya usuli har yili hisobot davri oxirida qaytadan ko'rib chiqilishi kerak. Amortizatsiya usuli o'zgargan taqdirda joriy davr uchun hisoblab yozilgan amortizatsiyaga tuzatish kiritiladi.

«Nomoddiy aktivlar» nomli 7-son buxgalteriya hisobi milliy standartining 41-bandiga ko'ra, hisobot davri uchun amortizatsiya me'yorlarini qayta ko'rib

⁴ Мещерякова О. «Налоговые системы развитых стран» (Справочник)- М.: Фонд «Правовая культура», 1995г. 125стр.

chiqish va tuzatish mumkinligi e'tirof etiladi. Amortizatsiya summasi qolgan davrlar uchun taqsimlanadi, bu esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliqqa tortiladigan bazasiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi misolda dasturiy ta'minotning xizmat qilish muddati 10 yil, dastlabki qiymati 500000 so'mga teng. Lekin bu ob'ektdan yana 4 yil foydalanish mumkinligi aniqlandi. Demak, dasturning foydalanish muddati 10 yildan 5 yilgacha kamaydi. Dasturiy ta'minotga yillik amortizatsiya summasi buxgalteriya yozuvlarida quyidagi tartibda aks ettiriladi;

Debet:0430 «Dasturiy ta'minoti» schyoti-45000 so'm.

Kredit:0530 «Dasturiy ta'minot amortizatsiyasi» scheti - 45000 so'm.

Dasturiy ta'minotning qolgan qiymati esa to'rt yil uchun teng bo'lgan summada hisob-kitob qilinadi:

$(500000-45000-5000=405000 \text{ so'm})$.

Qoldiq qiymati 405000 so'mga teng bo'lib u 4 yilga taqsimlanadi. $(405000/4)$;

Debet: 9400 «Davriy xarajatlari» schyotlari – 101250 so'm.

Kredit: 0530 «Dasturiy ta'minot amortizatsiyasi» schyoti-101250 so'm

Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyalangan qiymatini hisobdan chiqarish buxgalteriya o'tkazmalarida quyidagicha aks ettiriladi:

amortizatsiya qiymati 5000 so'm bo'lgan nomoddiy aktiv hisobdan chiqarildi.

Debet: 0510-0590-«Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi» schyotlari-5000 so'm

Kredit: 9220-«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti- 5000 so'm.

G'arb davlatlarida buxgalter xodimlar aktivlarning amortizatsiya me'yorlarini qayta ko'rib chiqishgani bilan ularning bahosini o'zgartirmaydilar, chunki aktivlarning bahosi o'zgarganda muvofiqlilik yoki taqqoslash tamoyili buziladi. Bunda hisobot yilidagi daromad (foyda) bilan xarajatlar bilan o'zaro solishtirish imkoniyatiga ega bo'linmaydi.

Amortizatsiyalanadigan mulk ko'pgina hollarda aktivlarning asosiy qismini

tashkil etadi. Bu haqda iqtisodchi olim M.Yusupova quyidagi fikrni bildiradi: «Amortizatsiya hisobi, faqatgina boshqaruv hisobinagina emas, balki moliyaviy hisobning ham asosiy bo‘lagidir».⁵ Bu fikrlarga iqtisodchi olim B.Hasanov. esa quyidagicha yondashadi: «Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash ularning boshlang‘ich qiymati unumli foydalanish muddatiga teng ravishda amalga oshiriladi».⁶

Nomoddiy aktivlarga hisoblanayotgan amortizatsiya summasini xarajatlar tarkibiga to‘g‘ri aks ettirishning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar olimlari, jumladan amerikalik olimlar Nidlz. B, Anderson. X va Kolduell. D lar quyidagicha izohlaydilar: «Asosiy vositalar bo‘yicha egri tartibda, nomoddiy aktivlar bo‘yicha esa to‘g‘ri usul bilan amortizatsiya hisoblanishi kerak.»⁷

Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, bizning fikrimizga ko‘ra, xuddi shu ob‘ektning yana qayta xarid qilib olishni anglatmaydi. Korxonada xo‘jalik faoliyatida bir necha nomoddiy aktivlarni xarid qilib olishi mumkin. Amortizatsiya xarajatlarini bir marotaba qoplash kerak bo‘ladi. Bu esa ularga hisoblanayotgan amortizatsiyaning to‘g‘ri chiziqli usulidan foydalanish kerakligini taqozo qiladi.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblanganda belgilangan me‘yorlarga asosan «Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya» qaydnomasi (NMA 5-shakl) joriy davrda tuziladi. Mazkur qaydnomada nomoddiy aktivlarning dastlabki (balans) qiymati, foydalanish (hizmat) muddati yillik amortizatsiya me‘yorlari, jami amortizatsiya summalari, oy davomidagi amortizatsiya summalari va qoldiq qiymati ko‘rsatib boriladi.

16.5. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi.

Iqtisodiyotni moderinizatsiyalash davrida bozor raqobatiga javob beradigan mahsulot (ishlar, hizmatlar)larni ishlab chiqarishda eski mulk o‘rniga yangisini

⁵ Yusupova M.B, Jumaboyev G‘.B “ Moliyaviy hisob tamoyillari” Andijon-1999 yil, 22-bet.

⁶ Xasanov. B.A "Moddiy va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi". "O‘IA", 2000 y. 8-son.

⁷ B. Nidlz, D. Kolduell, X. Andeson. “Prinsipy buxgalterskogo ucheta”. M.; “FiS”. 1999 g. 229s.

sotib olib ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, eskisini sotish hisobiga daromadlar olish har bir tadbirkorning muhim vazifasidir. Shu jihatdan nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarishda 2005 yil 14 dekabrda 105-son Moliya vazirining buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi toʻgʻrisidagi NIZOM” nomli Nizom asos boʻladi. Mazkur Nizom, Oʻzbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, 9-son, 142-modda), Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2005 yil 25 martdagi 35-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Nomoddiy aktivlar” Oʻzbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (7-son BHMS) (roʻyxat raqami 1485, 2005 yil 27 iyun - Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami, 2005 yil, 25-26-son, 188-modda)ga muvofiq nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarishning buxgalteriya hisobi tartibini belgilaydi. Hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar qiymati balansdan oʻchirilishi lozim. Nomoddiy aktivlar quyidagi sabablarga koʻra hisobdan chiqariladi: - toʻliq amortizatsiyalanganida:

Nomoddiy aktivlar korxonadan balansidan:

- a) tugatish (toʻliq amortizatsiyalanganida);
- b) realizatsiya qilish;
- v) ayirboshlash;
- g) tekinga berish;
- d) ustav kapitaliga muassis xissasi tarzida koʻshish;
- e) ishtirokchi ishtirokchilar tarkibidan chiqqanida nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilinishi;
- j) kamomad holatlarini aniqlanishi va boshqalar holatlar natijasida balansdan chiqariladi.

2. Tugatilayotgan nomoddiy aktivlarni yoʻq qilish uchun asos boʻlib hisoblanadigan nomoddiy aktivlarni tugatish dalolatnomasi (NM-4-son shakl) ikki nusxada tuziladi, tashkilot rahbari tayinlangan komissiya aʼzolari tomonidan imzolanadi va tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa

buxgalteriyaga beriladi, ikkinchisi nomoddiy aktivlar ob'ektlarining saqlanishi uchun javobgar shaxsda qoladi.

Nomoddiy aktivlarni tugatilishi (hisobdan chiqarish) dalolatnomasi. (NM- 4 shakl).

Korxonalarining hisob yuritish siyosatiga muvofiq ulardagi mavjud nomoddiy aktivlarini hisobdan chiqarish bo'yicha «*Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi*» deb nomlanagan dalolatnomaning yangi shakli (NM-4 shakl) ishlab chiqildi va uni amaliyotga joriy etish mumkin.

Ushbu shaklda nomoddiy aktivlar ob'ektlarini hisobdan chiqarish paytida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tayinlangan hay'at tomonidan ikki nusxada tuziladi. Ushbu dalolatnomaning birinchi nusxasi buxgalteriyaga, ikkinchi nusxasi esa javobgar shaxsga beriladi. Dalolatnomada nomoddiy aktivlarning nomi, sanasi, inventar (arxiv raqami), hisobdan chiqarish sababi, balans qiymati, amortizatsiyaning yillik me'yor, amortizatsiya summalari aks ettiriladi. Tashkilotlarda ularni tugatish munosabati bilan nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish uchun rahbar tomonidan tayinlanadigan shaxs raisligida komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga tegishli mutaxassislar, buxgalteriya xodimlari va tashkilotning moddiy javobgar shaxslari kiritilishi kerak. Komissiya tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tuziladi.

Tomonlar o'rtasidagi patent, litsenziya olishga tuzilgan shartnoma shartlari bajarilib, sanoat namunasi huquqi bo'yicha patent yoki tabiiy resurslardan foydalanish huquqlariga bo'lgan guvohnomalar o'z kuchini yo'qotganda korxonada nomoddiy aktivlarni tugatish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish komissiya a'zolarining xulosalariga asoslanib, hisobdan chiqariladi va yakuniy moliyaviy natija aniqlanadi.

Nomoddiy aktivlar quyidagi hollarda ularni tugatish munosabati bilan balansdan chiqarilishi mumkin:

- foydali xizmatning belgilangan muddati tugaganidan (amortizatsiya ajratmalari to'liq hisoblab yozilganidan) keyin;
- tegishli davlat vakolatli organlarining qarorlariga muvofiq;

- ma'naviy eskirgan nomoddiy aktivlar;
- bundan keyin foydalanishga yaroqsiz ahvolga kelib qolgan nomoddiy aktivlar.

Nomoddiy aktivlarni tugatish munosabati bilan tuziladigan komissiya hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishda quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi:

- nomoddiy aktivlarni tiklashning mumkin emasligi yoki iqtisodiy maqsadga nomuvofiqligini belgilaydi;

- hisobdan chiqariladigan nomoddiy aktivlarning holatini o'rganishni amalga oshirib, bunda mutlaq huquqlarni tasdiqlaydigan zarur hujjatlar (patent, pasport va boshqa hujjatlar), shuningdek buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanadi;

- nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish sabablarini belgilaydi (amortizatsiya ajratmalarini to'liq hisoblab yozish, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi, tabiiy ofatlar va hokazo);

- nomoddiy aktivlarning foydalanishdan muddatdan avval chiqib ketishida aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlaydi.

Falokatlar yoki normal foydalanish sharoitlarini buzish oqibatida chiqib ketgan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarayotganda tugatish dalolatnomasiga falokat yoki normal foydalanish sharoitlari buzilganligi to'g'risidagi dalolatnomaning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi, shuningdek falokatga yoki normal foydalanish sharoitlari buzilishiga olib kelgan sabablar izohlanadi va aybdor shaxslarga nisbatan ko'rilgan choralar ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivlarni tugatish dalolatnomasi (NM-4-son shakl)da tugatilayotgan nomoddiy aktivlarni tavsiflaydigan quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- ishlab chiqarilgan (tayyorlash) yili;
- nomoddiy aktivlarning tashkilotga kelib tushish sanasi;
- foydalanishga topshirish sanasi;

- nomoddiy aktivning dastlabki qiymati (qayta baholangan nomoddiy aktivlar uchun - tiklash qiymati);

- buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha butun foydalanish muddatida hisoblab yozilgan amortizatsiya summasi;

- tugatish sabablari va hokazo.

Tabiiy ofatlar oqibatida chiqib ketgan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarayotganda tugatish dalolatnomasiga maxsus hukumat komissiyasining xulosasi ilova qilinishi mumkin. Tugatish dalolatnomalarini tasdiqlashga qadar nomoddiy aktivlarni yo'q qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashkilotlarda ularni tugatish munosabati bilan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati hisobdan chiqarilganida:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i (0400) krediti;

b) nomoddiy aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasini hisobdan chiqarayotganda:

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish hisobvarag'i (0500) debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

v) tugatish xarajatlari summasiga:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

materiallarni (1000), xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni (6700), sug'urtalash va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarni (6500) hisobga olish hisobvaraqlari va boshqa tegishli hisobvaraqlar krediti;

g) rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan, nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini qayta baholash natijalari (saldo) summasiga:

8510-"Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" hisobvarag'i debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

d) nomoddiy aktivlarni tugatishdan foyda summasiga:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;
9320-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda” hisobvarag‘i krediti;

e) nomoddiy aktivlarni tugatishdan zarar summasiga:

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” hisobvarag‘i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti

Nomoddiy aktivlarni sotish munosabati bilan balansdan chiqarish tartibi:

Nomoddiy aktivlarni sotish jarayoni amalga oshirilganda sotuvchi tashkilot balansidan nomoddiy aktivlar balans qiymati bo‘yicha chiqariladi. Bundan tashqari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nomoddiy aktivlarni sotishning boshqacha qiymatini belgilash huquqiga ega. Nomoddiy aktivlarni sotishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) qo‘shilgan qiymat solig‘i va ularni sotish xarajatlarini hisobga olgan holda, rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalari (saldo)ga tuzatilgan sotiladigan nomoddiy aktivlarni sotish qiymati bilan ularning qoldiq (balans) qiymati o‘rtasidagi tushum o‘rtasidagi farq, ya‘ni nomoddiy aktivlar ushbu ob‘ektini avvalgi qo‘shimcha baholashlar summalarining ushbu ob‘ektini avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi sifatida aniqlanadi. Tashkilotlarda ularni sotish munosabati bilan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) nomoddiy aktivlarning sotish (realizatsiya) qiymati summasiga:

4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar” hisobvarag‘i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti;

b) qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab yozilgan taqdirda:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari (turlari bo‘yicha)” hisobvarag‘i krediti;

v) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymatini hisobdan chiqarganda:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag‘i (0400) krediti;

g) nomoddiy aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi hisobdan chiqarilishida:

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish hisobvarag'i (0500) debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

d) sotish xarajatlari summasiga:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

materiallarni (1000), xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni (6700), sug'urtalash va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarni (6500) hisobga olish hisobvaraqlari va boshqa tegishli hisobvaraqlarning krediti;

e) rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini qayta baholash natijalari (saldo) summasiga:

8510-"Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" hisobvarag'i debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

j) nomoddiy aktivlarni sotishdan foyda summasiga:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

9320-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda" hisobvarag'i krediti;

z) nomoddiy aktivlarni sotishdan zarar summasiga:

9430-"Boshqa operatsion xarajatlar" hisobvarag'i debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti.

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga sotish hollarida:

Dt 5110 Kt 4010 Tushum summasiga

Dt 9220 Kt 6410 QQS summasiga

Dt 9220 Kt 0400 Nomoddiy aktivning boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobdan chiqarilishi

Dt 0500 Kt 9220 Hisoblangan eskirishning hisobdan chiqarilishi

Dt 9220 Kt 9320 Sotishdan ko'rilgan foyda

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga tugatish hollarida:

Dt 9220 Kt 0400	Nomoddiy aktivning boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobdan chiqarilishi
Dt 0500 Kt 9220	Hisoblangan eskirish
Dt 9220 Kt 6710,6520	Tugatishga oid xarajatlar
Dt 9430 Kt 9220	Tugatishdan ko'rilgan zarar
Dt 1040 Kt 9320	Temir tersaklarning kirim qilinishi
<i>Boshqa jismoniy va yuridik shaxslar gatekinga berish hollarida:</i>	
Dt 9220 Kt 0400	Boshlang'ich qiymati summasiga
Dt 0500 Kt 9220	Eskirish summasiga
Dt 9220 Kt 6410	QQS summasiga

Nomoddiy aktivlarning sotilishi va tekinga berilishiga oid oborotlar QQSga tortiladi. Tekinga berish vaqtida QQS to'lovchisi bo'lib, uni beruvchi tomon hisoblanadi (qabul qiluvchi tomon foyda solig'ini to'laydi).

Shuni ta'kidlash kerakki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar odatda huquqiy himoya qilinadigan va litsenzion shartnomalar bilan rasmiylashtiriladigan nomoddiy aktivlar ob'ektlarini emas, balki ulardan foydalanishga oid huquqni sotadilar. Bunday hollarda nomoddiy aktivlar qiymati va ularning eskirish summasi o'zgarmaydi va sotish hisobvarag'i bo'yicha faqatgina tegishli nomoddiy aktivlar ob'ektlariga bo'lgan huquqni sotishdan tushgan tushum summasigina aks ettiriladi.

Nomoddiy aktivlarni tugatishdan moliyaviy natija (foйда yoki zarar) hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar va ularni tugatishga doir xarajatlar qoldiq (balans) qiymatining rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalari (saldo)ga tuzatilgan summasi, ya'ni nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini avvalgi qo'shimcha baholashlar summalarining uni avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi sifatida belgilanadi.

Nomoddiy aktivlar chiqib ketishidan moliyaviy natijani (foйда yoki zararni) aniqlayotganda ilgari qayta baholangan nomoddiy aktivlarni qo'shimcha baholash summasining qoldig'i, ya'ni nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini avvalgi

qo‘shimcha baholashlar summalarining bu ob‘ektni avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi boshqa aktivlar chiqib ketishini hisobga olish hisobvarag‘i kreditiga kiritilib, ayni vaqtda 8510-“Mol-mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” hisobvarag‘i bo‘yicha rezerv kapital kamaytiriladi.

Mazkur Nizomning 2-bandida ko‘rsatilgan sabablar bo‘yicha chiqib ketgan nomoddiy aktivlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2005 yil 25 martdagi 35-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Nomoddiy aktivlar” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (7-son BHMS) (ro‘yxat raqami 1485, 2005 yil 27 iyun - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2005 yil, 25-26-son, 188-modda) kuchga kiritilguniga qadar, 8510-“Mol-mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” hisobvarag‘ida hisobga olingan, chiqib ketgan nomoddiy aktivlarnı qayta baholash natijalari (saldo), ya‘ni ushbu nomoddiy aktivlarnı avvalgi qo‘shimcha baholashlar summalarining ularnı avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi 8520-“Rezerv kapital” hisobvarag‘iga ko‘chiriladi. Shu munosabat bilan, tashkilotlar 8510-“Mol-mulknı qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” hisobvarag‘ida hisobga olinadigan qayta baholash natijalari (saldo)ni, ya‘ni avvalgi qo‘shimcha baholashlar summalarining avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishini quyidagi ikki qismga bo‘lishlari kerak: balansda qayd etilgan nomoddiy aktivlar bo‘yicha va “Nomoddiy aktivlar” 7-son BHMS kuchga kiritilguniga qadar chiqib ketgan nomoddiy aktivlar bo‘yicha qayta baholash natijalari (saldo) bo‘lib aks ettiriladi.

Bu «Nomoddiy aktivlar» buxgalteriya hisobi milliy standartining 47-48 bandlarida va «Nomoddiy aktivlarnı baholash, Intellektual mulknı baholash» standartlarida ham o‘z ifodasini topgan. Nomoddiy aktivlarnı hisobdan chiqarishning moliyaviy natijalari balansdagi va soliqqa tortiladigan foydaning miqdoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Nomoddiy aktivlar hisobdan chiqarilganda hisobdan chiqarish dalolatnomasi (NMA-3 shakl) tuziladi. Uni hujjatda nomoddiy aktivlarnı xo‘jalikdan chiqarish sababi, balans qiymati, amortizatsiya meyori, amortizatsiyaning jami qiymati ko‘rsatiladi. Nomoddiy aktivlar belgilangan xizmat muddatlari davomida

amortizatsiyalanib boradi va xizmat muddati tugagandan so'ng to'liq amortizatsiyalanib hisobdan chiqariladi.

Bu aktivlar boshqa aktivlardan farqli o'laroq to'liq amortizatsiyalangandan so'ng ulardan qayta foydalanilmaydi va qoldiq qiymati nolga teng bo'ladi.

Nomoddiy aktivlar to'liq amortizatsiyalanganda hisobdan chiqarish quyidagi buxgalteriya yozuvlari orqali amalga oshiriladi;

Debet: 9220 «Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» schyoti

Kredit: 0410-0490 «Nomoddiy aktivlar» schyoti.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nomoddiy aktivlar bo'yicha «Schyotlar rejasida» ma'lum yangi schyotlar kiritish zaruriyati kelib chiqmoqda. Bizning fikrimizcha, schyotlar rejasiga alohida «Patentlarni sotilishi va hisobdan chiqarilishi» (9230) deb nomlangan schyotni kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi, Natijada bir vaqtning o'zida patentning amortizatsiyalanish qiymati buxgalteriya yozuvlarida alohida aks etgan bo'lur edi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Debet: 0510 -«Patentning amortizatsiyasi» schyoti

Kredit: 9230-«Patentlarni sotish va hisobdan chiqarilishi» schyoti

Patentlarni hisobdan chiqarishda «Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi» (NMA-3 shakl) bilan birga tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar ham asos bo'ladi. Nomoddiy aktivlarni sotish ya'ni realizatsiya qiymati bu-bitim (shartnoma) tuzilayotgan paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summa hisoblanadi. Nomoddiy aktivlar xizmat muddati davomida hisobdan chiqarilib, uchinchi bir yuridik yoki jismoniy shaxslarga sotilganda olingan daromad yoki zarar nomoddiy aktivning balans (qoldiq) qiymati o'sishidagi tafovut sifatida belgilanadi. U «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da (2-shakl) daromad yoki xarajat sifatida tan olinadi. Yangi schetlar rejasiga muvofiq nomoddiy aktiv ob'ektlarni sotishdan olingan daromad (foyda) «Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimdan olingan foyda» (9320) schyotining «Nomoddiy aktivlarning sotilishi va turli chiqimdan olingan foyda» (9321) schyotida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: 9220-«Boshqa aktivlarni sotilishi va turli chiqimlari» schyoti

Kredit: 9320—«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimdan olingan foyda» schyoti

Nomoddiy aktivlarning sotilishi jarayonida olingan foydani to'g'ri hisobga olish maqsadida 9321 schetning «Nomoddiy aktivlarning sotilishi va turli chiqimidan olingan foyda» schyotini taklif etamiz.

Nomoddiy aktivlarni sotilishidan ko'rilgan zararlarni (9432) «Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va turli chiqimi bo'yicha zararlar» schetida aks ettiriladi:

Debet: 9220—«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi»

Kredit: 9432—«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va turli chiqimi bo'yicha zararlar» schyoti.

Ushbu masalalarni quyidagi misollarda ko'rib o'tamiz.

Korxonada tuzilgan shartnomaga muvofiq kompyuter uchun dasturiy ta'minot sotib olgan. Olingan dasturiy ta'minot balans qiymati –200000 so'm, foydali xizmat muddati –5 yil. Bu ob'ekt 4 yildan so'ng boshqa yuridik shaxsga sotiladi. Yillik amortizatsiya me'yori 20 foiz yoki dastur 4 yilda 80 foiz ($4y \cdot 20\text{foiz}$)ga amortizatsiyalangan;

$$Yes = Bq \cdot Tf / 100$$

($200000 \cdot 80 / 100 = 100000$ so'm).

Bu yerda: Yes—amortizatsiya summasi, Bq—balans (dastlabki) qiymati, Tf—foiz.

Tomonlar o'rtasida tuzilgan kelishuvga ko'ra, dasturni sotib oluvchi tomon 100000 so'm o'tkazib berishga rozilik beradi. Demak, sub'ekt o'z tasarrufidagi kompyuterni sotishdan 60000 so'm daromad (foyda) oladi. Bu quyidagi buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi:

1. Sotilgan kompyuter dasturining dastlabki qiymati hisobdan chiqarildi:

Debet: 9220—«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi»schyoti 200000 so'm.

Kredit: 0430—«Dasturiy ta'minot» schyoti 200000 so'm.

Bizning fikrimizga ko'ra, dasturiy ta'minotni hisobdan chiqarish va sotish bo'yicha 9223 schyotni «Dasturiy ta'minotni sotish va turli chiqimi» deb nomlash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Bu esa, nomoddiy aktiv ob'ektlari harakati to'g'risida yanada aniqroq bo'lgan ma'lumotlarni olish va balans tuzish jarayonini soddalashtiradi.

2. Dasturiy ta'minotning eskirish summasi ulardan foydalanilgan butun davr uchun quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

Debet: 0530—«Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi» schyoti -160000 so'm.

Kredit: 9223—«Dasturiy ta'minotning sotilishi va turli chiqimi» schyoti-160000 so'm.

Ob'ektdan 48 oy yani 4 yil foydalanilgan, shuning uchun eskirish 160000 so'mga teng. $(200000/60 \text{ oy} * 48 \text{ oy} = 160000 \text{ so'm})$.

3. Dasturiy ta'minotni sotishdan tushum olindi:

Debet: 5110—«Hisob-kitob» schyoti-100000 so'm

Kredit: 9223—«Dasturiy ta'minotning sotilishi va turli chiqimi schyoti»-100000 so'm

4. Dasturiy ta'minotni sotishdan olingan daromad (foyda) summasiga:

Debet: 9223—«Dasturiy ta'minotning sotilishi va turli chiqimi» schyoti 60000 so'm

Kredit: 9323—«Dasturiy ta'minotning sotilishi va turli chiqimidan olingan foyda» schyoti 60000 so'm

Biz shu o'rinda 9220 «Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» schyotining mazmunini quyidagicha nomlanishni tavsiya qilamiz: 9221—«Nomoddiy aktivlarning sotilishi va boshqa sabablar bo'yicha chiqib ketishi». Bu esa hisob ishlarini yaxshilashga olib keladi.

Nomoddiy aktivlarni ayirboshlash munosabati bilan balansdan chiqarish tartibi. Nomoddiy aktivlarni ayirboshlash orqali hisobdan chiqarishda nomoddiy aktivlarni ayirboshlash uchun berayotgan tashkilotning balansidan balans qiymatida chiqariladi. Bir xil identifikatsion kodga ega nomoddiy aktivga ayirboshlab olingan nomoddiy aktivning dastlabki qiymati berilgan nomoddiy

aktivning qoldiq qiymatiga tengdir. Nomoddiy aktivlar qo‘shimcha to‘lov bilan ayirboshlangan taqdirda xuddi shunday nomoddiy aktivga ayirboshlab xarid qilingan nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati berilgan nomoddiy aktivning ayirboshlash chog‘ida berilgan (olingan) pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari (qo‘shimcha to‘lov) summasiga ko‘paytirilgan (kamaytirilgan) qoldiq qiymatiga tengdir. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda o‘xshash bo‘lmagan nomoddiy aktivga ayirboshlab olingan nomoddiy aktivning dastlabki qiymati berilgan nomoddiy aktivning joriy qiymatiga tengdir. Nomoddiy aktivlar qo‘shimcha to‘lov bilan ayirboshlangan taqdirda o‘xshash bo‘lmagan nomoddiy aktivga ayirboshlab xarid qilingan nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati berilgan nomoddiy aktivning ayirboshlash chog‘ida berilgan (olingan) pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari (qo‘shimcha to‘lov) summasiga ko‘paytirilgan (kamaytirilgan) joriy qiymatiga tengdir.

Tashkilotlarda ularni ayirboshlash munosabati bilan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish quyidagicha aks ettiriladi:

a) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati hisobdan chiqarilganda:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag‘i (0400) krediti;

b) nomoddiy aktivlarning jamg‘arilgan amortizatsiyasi hisobdan chiqarilganda:

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish hisobvarag‘i (0500) debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti;

v) berilayotgan xuddi shunday nomoddiy aktivning qoldiq qiymati bo‘yicha yoki o‘xshash bo‘lmagan nomoddiy aktivga joriy qiymat bo‘yicha qo‘shimcha to‘lovsiz ayirboshlab olingan nomoddiy aktivlar ob‘ekti kirim qilinganida:

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag‘i (0400) debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti;

g) pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari qo‘shimcha to‘lov bilan ayirboshlab olingan nomoddiy aktivlar ob‘ekti kirim qilinganida:

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag‘i (0400) debeti - berilgan nomoddiy aktivning qoldiq (joriy) qiymati summasiga va pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlarining to‘lanadigan summasiga;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti - berilgan nomoddiy aktivning qoldiq (joriy) qiymati bo‘yicha;

6990-“Boshqa majburiyatlar” hisobvarag‘i krediti - ayirboshlash chog‘ida to‘lanadigan pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari summasiga;

d) pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari olinishi bilan ayirboshlab olingan nomoddiy aktivlar ob‘ekti kirim qilinganida:

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag‘i (0400) debeti - berilgan nomoddiy aktivning qoldiq (joriy) qiymati bilan ayirboshlash chog‘ida olinadigan pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari summasi o‘rtasidagi farq summasiga;

4890-“Boshqa debitorlarning qarzlari” hisobvarag‘i debeti - ayirboshlash chog‘ida olinadigan pul mablag‘lari yoki ular ekvivalentlari summalariga;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti - berilgan nomoddiy aktivning qoldiq (joriy) qiymatiga;

e) moddiy aktivlar ayirbosh qilinganda xarajatlar summasiga:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

materiallarni (1000), xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlarni (6700), sug‘urtalash va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni (6500) hisobga olish hisobvaraqlari va boshqa tegishli hisobvaraqlarning krediti;

j) rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan, nomoddiy aktivlar ushbu ob‘ektini qayta baholash natijalari (saldo) summasiga:

8510-“Mol-mulkni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” hisobvarag‘i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti;

z) qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab yozilganda:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari (turlari bo‘yicha)” hisobvarag‘i krediti;

i) nomoddiy aktivlarni ayirboshlashdan foyda summasiga:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

9320-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda” hisobvarag‘i krediti;

k) nomoddiy aktivlarni ayirboshlashdan zarar summasiga:

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” hisobvarag‘i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti.

Avtomobilsozlik korxonalarida nomoddiy aktivlarni boshqa mulklarga almashtirishi mumkin, Masalan, ma’naviy jihatdan eskirib qolgan «Windows-2002» dasturini Windows-2005 ga almashtiriladi: bunday hollarda sotib olish bahosi qarama-qarshi savdoda sotilgan eski ob’ektning qiymati hajmidagi yangi narxdan beriladigan chegirma summasiga kamaytiriladi. Nomoddiy aktivlarni ayirboshlashdan olinadigan foyda yoki zararni aniqlashning maxsus qoidalari mavjud bo‘lib, ayirboshlanayotgan ob’ektlar tasnifiga bog‘liqdir.

Bir xil guruhda bo‘lmagan nomoddiy aktivlarni ayirboshlashdan olingan foyda yoki zarar alohida ko‘rsatilishi kerak. Buxgalteriya hisobida yangi nomoddiy aktivlar ob’ektini (dasturiy ta’minot) hisobga olish yoki dasturni balans qiymatiga to‘langan pul mablag‘laridagi summani qo‘llash bilan ifodalanadi. Kompyuterlar uchun dasturiy ta’minotni ayirboshlashda ko‘rilgan zarar schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi. Yuqorida keltirilgan kompyuter dasturning qiymati 100000 so‘m bo‘lgan. U holda:

- yangi dastur (Windows-2005) qiymati – 500000 so‘m;

- eski dasturga chegirma- 20000 so‘m;

- zarur bo‘lgan pul mablag‘lar – 430000 so‘m

Demak, chegirma eski dasturning balans qiymatidan kam (100000-20000) 80000 so‘m. Yo‘qotishlar, ya’ni zarar 80000 so‘mni tashkil etadi:

Debet: 0431 "Dasturiy ta’minot" (yangisi) schyoti– 500000 so‘m;

0530 "Dasturiy ta’minotning amortizatsiyasi" schyoti – 50000 so‘m;

9432 "Nomoddiy aktivni sotishdan zarar" schyoti – 80000 so‘m;

Kredit: 0430 "Dastur ta’minot" schyoti – 200000 so‘m;

5110 "Hisob-kitob" schyoti – 430000 so‘m.

Hizmat muddati tugashga qadar sub'ektning faoliyatidan chiqib ketgan nomoddiy aktivlar ham mos keluvchi buxgalteriya schyotlaridan hisobdan chiqariladi. Amortizatsiya aktivlarni qayta turkumlash holatida hisobga olinadi, so'ngra amortizatsiya ortib borish yakuni bilan va aktivlar «Boshqa aktivlar» schyotiga hisobdan chiqariladi. Bundan tashqari agarda aktivlarning bozor qiymati ularning balans qiymatidan kam bo'lsa, u holda zarar hisoblanadi va «Boshqa aktivlar» bozor qiymati bo'yicha debetlanadi, aksincha bozor qiymati balans qiymatidan ortiq bo'lsa «Boshqa aktivlar» scheti kreditlanadi, ammo foyda hisobga olinmaydi. Shunday nomoddiy aktivlar borki ularni buxgalteriyada hisobga olish, daromad (zarar)larni qayd etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kabel televideniyesi orqali uzatilgan teledasturlarni uzatishda telestudiyalarda dasturlarning qiymatini «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan hizmatlarning tannarxi» (9130) scheti debeti va «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» (4010 schet) schyotining kreditida aks ettiriladi. Sotish bo'yicha budjetga to'lovlarning summasi esa schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: 4010—«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schetlar» schyoti

Kredit: 6410—«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik» schyoti

Buxgalteriya ma'lumotlarining nomoddiy aktivlarga nisbatan haqiqiyliigi, boshqa mulk kabi vaqti-vaqti bilan o'tkazilib turiladigan yo'qlama (inventarizatsiya)lar bilan tasdiqlanishi lozim. Aktivlarning inventarizatsiyasi «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» buxgalteriya hisobi milliy standarti bilan tartibga solinadi.⁸

Nomoddiy aktivlarni ulush sifatida berish. Nomoddiy aktivlar ularni ustav kapitaliga ulush sifatida berayotgan tashkilot balansidan balans qiymati bo'yicha chiqariladi. Ayrim holatlarda boshqa tashkilotlarning ustav kapitaliga nomoddiy aktivlar boshqa qiymatda, ya'ni, balans qiymatidan farqlanadigan qiymat bo'yicha ulush sifatida kiritishlari mumkin. Nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ulush sifatida berishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) ta'sis shartnomasiga yoki

⁸ «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish». 19-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti. (O'RMV. 1999y.15-oktyabr. 17-19-2075.)

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tartibga muvofiq baholangan qiymat bilan rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalari (saldo)ga tuzatilgan, ustav kapitaliga ulush sifatida berish xarajatlarini hisobga olgan holda berilayotgan nomoddiy aktivlarning qoldiq (balans) qiymati o'rtasidagi farq, ya'ni nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini avvalgi qo'shimcha baholashlar summalarining mazkur ob'ektni avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi sifatida belgilanadi.

Tashkilotlarda ulush sifatida ustav kapitaliga berish munosabati bilan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ta'sis shartnomasiga muvofiq yoki qonun hujjatlariga ko'ra boshqa hujjatga binoan belgilangan qiymat bo'yicha ulush sifatida berish:

uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga olish hisobvarag'i (0600) debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

b) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati hisobdan chiqarilganda:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i (0400) krediti;

v) nomoddiy aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi hisobdan chiqarilganida:

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish hisobvarag'i (0500) debeti;

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i krediti;

g) nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ulush sifatida berish xarajatlari:

9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" hisobvarag'i debeti;

materiallarni (1000), xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni (6700), sug'urtalash va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarni (6500) hisobga olish hisobvaraqlari va boshqa tegishli hisobvaraqlarning krediti;

d) rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini qayta baholash natijalari (saldo) summasiga:

8510-“Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” hisobvarag'i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i krediti;

e) nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ulush sifatida berishdan foyda summasiga:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i debeti;

9320-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda” hisobvarag'i krediti;

j) nomoddiy aktivlarni ustav kapitaliga ulush sifatida berishdan zarar summasiga:

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” hisobvarag'i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i krediti.

Ta'sischi chiqayotganda nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish. Nomoddiy aktivlar tashkilotning balansidan ta'sischi yuridik shaxsning ta'sischi tarkibidan chiqayotganda nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish munosabati bilan balans qiymati bo'yicha chiqariladi. Ta'sischi yuridik shaxsning ta'sischi tarkibidan chiqayotganida nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish munosabati bilan nomoddiy aktivlarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) ularning ulushi bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarzni hisob-kitob qilish uchun nomoddiy aktivlarning berilayotgan qiymati bilan rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalari (saldo)ga tuzatilgan, qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda chiqib ketayotgan nomoddiy aktivlarning qoldiq (balans) qiymati o'rtasidagi farq, ya'ni nomoddiy aktivlar ushbu ob'ektini avvalgi qo'shimcha baholashlar summalarining mazkur ob'ektini avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshishi sifatida aniqlanadi.

Berilayotgan nomoddiy aktivlarning qiymati ularning ulushi bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarz summasidan oshib ketsa, farqni chiqib ketayotgan ishtirokchilar qoplaydi.

nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish munosabati bilan nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) nomoddiy aktivlarni ularning ulushlari bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarzni hisob-kitob qilish uchun berish:

6620-“Ularning ulushlari bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarz” hisobvarag'i debeti - ularning ulushlari bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarz summasiga;

turli debitorlarning qarzini hisobga olish hisobvarag'i (4800) debeti - berilayotgan nomoddiy aktivlar qiymati bilan ularning ulushlari bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarz summasi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadigan, chiqib ketayotgan ishtirokchilarga qoplash summasiga;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i krediti - ularning ulushlari bo'yicha chiqib ketayotgan ishtirokchilardan qarz bo'yicha hisob-kitob qilish uchun nomoddiy aktivlarning berilayotgan qiymati summasiga;

b) qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab yozilganda:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i debeti;

6410-“Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)” hisobvarag'i krediti;

v) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati hisobdan chiqarilganida:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i debeti;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i (0400) krediti;

g) nomoddiy aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi hisobdan chiqarilganida:

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish hisobvarag'i (0500) debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i krediti;

d) rezerv kapitalni hisobga olish hisobvaraqlarida hisobga olinadigan nomoddiy ob'ektlar ushbu ob'ektini qayta baholash natijalari (saldo) summasiga:

8510-“Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” hisobvarag'i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag'i krediti;

e) ishtirokchi yuridik shaxsning ishtirokchilari tarkibidan chiqayotganida nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish munosabati bilan nomoddiy aktivlar chiqib ketishidan foyda summasiga:

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i debeti;

9320-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda” hisobvarag‘i krediti;

j) ishtirokchi yuridik shaxsning ishtirokchilari tarkibidan chiqayotganida nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilish munosabati bilan nomoddiy aktivlar chiqib ketishidan zarar summasiga:

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” hisobvarag‘i debeti;

9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” hisobvarag‘i krediti.

Kamomad yoki talafotlar sababli nomoddiy aktivlarni chiqarish tartibi. Tashkilotlarda nomoddiy aktivlarni kamomad yoki talafotlar aniqlanishi munosabati bilan balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida 2004 yil 10 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 37-son, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2004-26-son, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 20/1-son qarori bilan tasdiqlangan Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 1334, 2004 yil 6 aprel - O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 yil, 14-son, 173-modda) muvofiq aks ettiriladi.

Mazkur standartning 30-bandida nomoddiy aktivlar inventarizatsiya qilinganda quyidagilar hisobga olinishi ko‘zda tutilgan:

- sub’ektlarning ulardan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligini;

- nomoddiy aktivlarni balansda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirilganligini tekshirish.

Tekshirishda patent, litsenziya, guvohnomalar va shartnomalar haqiqatda mavjudligi, ulardan foydalanish muddatlari, olingan mahsulot (ishlar, xizmatlar)lar miqdori, keltirilayotgan daromad (zarar)lar ham ko‘rib chiqiladi. Bunda

inventarizatsiya o'tkazishning asosiy manbasi «Nomoddiy aktivlarni qabul qilish-topshirish» dalolatnomasi (NMA-1 shakl) hisoblanadi.

Joriy etilgan «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish» (19-son BHMS) standartning umumiy qoidalar bo'limida sub'ektning barcha mol-mulk tarkibi bo'yicha inventarizatsiya o'tkazish muddatlari belgilab berilgan, ammo, moliya-xo'jalik faoliyatda nomoddiy aktivlarning inventarizatsiyasini o'tkazish muddati haqida hech narsa deyilmagan. Nomoddiy aktivlar uzoq muddatli aktivlarning asosiy qismini tashkil etar ekan, uni doimo nazorat qilib turish zaruriyati kelib chiqadi. Nazorat esa, belgilangan vaqtlardagi inventarizatsiya o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlar o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning inventarizatsiyasi muddati kamida bir yilda bir marta o'tkazilishi kerak. Shu bilan birgalikda, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida inventarizatsiya ob'ektlari, uni o'tkazish tartibi va muddatlari, inventarizatsiya bo'yicha buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq belgilanadi deb ta'kidlanadi. Ushbu masalaga qonun nuqtai nazaridan yondashilsa, nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasini go'yo «chetlab» o'tgandek ko'rinadi. Chunki, «Nomoddiy aktivlar» buxgalteriya hisobi milliy standartida ularni inventarizatsiyalash bandi ishlab chiqilmagan va standartda ko'rsatilmagan. Nomoddiy aktivlar asosiy vositalar kabi, ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmasada, ulardan foydalanish huquqlari sub'ektga kelgusida foyda keltiruvchi xarajatlar deb ta'riflanadi, demak ma'lum darajada korxonaga uchun qiymatga ega.

Nomoddiy aktivlar tashkilotlar balansidan inventarizatsiyalash chog'ida kamomad yoki talafotlar aniqlanishi munosabati bilan balans qiymati bo'yicha chiqariladi.

Nizomga 1-SON ILOVA
NM-4-son namunaviy shakl

“Tasdiqlayman”

rahbar F.I.O.

imzo

" _____ " _____ 20__ y.
Nomoddiy aktivlarni tugatish to‘g‘risida
_____ -son DALOLATNOMA

Tashkilot

Tarkibiy bo‘linma	Tuzilgan sana	Operatsiya turi kodi	Nomoddiy aktivlar saqlanishi uchun javobgar shaxsning kodi

Nomoddiy aktivning nomi	Turi	Kodi	Dastlabki (tiklanish) qiymati	Hisoblab yozilgan amortizatsiya summasi	Inventar raqami
1	2	3	4	5	6

20__ y. “ _____ ” _____ da _____ -son buyruq bilan
 tayinlangan komissiya _____ ni o‘rgandi.

ob‘ekt nomi

O‘rganish natijasida komissiya quyidagilarni aniqladi:

1. Ishlab chiqilgan (tayyorlangan) yili “ _____ ” _____ 20__ y.
2. Tashkilotga kelib tushgan “ _____ ” _____ 20__ y.
3. Foydalanishga topshirish sanasi “ _____ ” _____ 20__ y.
4. Hisobdan chiqarish sababi _____
5. Texnik holati _____
6. Komissiyaning xulosasi: _____

Ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati _____

Komissiya raisi

_____ lavozimi

_____ imzo

_____ imzo ras shifrovkasi

Komissiya a‘zolari:

_____ lavozimi

_____ imzo

_____ imzo ras shifrovkasi

M.O‘.

_____ lavozimi

_____ imzo

_____ imzo ras shifrovkasi

_____ lavozimi

_____ imzo

_____ imzo ras shifrovkasi

Nizomga 2-SON ILOVA

Nomoddiy aktivlarni tugatish natijalari to‘g‘risida

MA'LUMOTNOMA

Tugatish xarajatlari			
Ishlar turi	Hujjat raqami	Xarajatlar moddasi	Summa
1	2	3	4
Jami			

Tugatish natijalari _____

Nomoddiy aktivlarni hisobga olish kartochkasi (daftari)da chiqib ketish qayd etilgan.

Bosh buxgalter (buxgalter) _____

imzo

imzo

rasshifrovkasi

M.O' " ____ " _____ 20__y.

16.6. Biznes birlashuvining qismi sifatida sotib olish. Gudvill hisobining xususiyatlari.

Tadbirkorlik sub'ekti birinchi navbatda operatsiya yoki boshqa hodisa biznes birlashuvi ekanligini aniqlashi lozim, qaysiki sotib olingan aktivlar va zimmaga olingan majburiyatlar biznesni tashkil etishini talab etadi. Agarda sotib olingan aktivlar biznes bo'lmasa, hisobot beradigan tadbirkorlik sub'ekti operatsiyani yoki boshqa hodisani aktivni xaridi sifatida hisobga olishi lozim

Tadbirkorlik sub'ekti sotib olish usulini qo'llash orqali har bir biznes birlashuvini hisobga olishi lozim.

Sotib olish usulini qo'llash quyidagilarni talab etadi:

1. sotib oluvchini belgilash;
2. sotib olish sanasini aniqlash;
3. sotib olingan hamda aniqlanadigan aktivlarni, zimmaga olingan majburiyatlarni va shuningdek sotib olinuvchidagi har qanday nazorat-qilinmaydigan ulushni tan olish va baholash;
4. gudvill yoki manfaatli xariddan foydani tan olish va baholash

Sotib oluvchi operatsiya sotib olinuvchi uchun ayirboshlashning qismi ekanligini yoki operatsiya biznes birlashuvidan alohida ekanligini aniqlash uchun, o‘zaro istisno bo‘lmagan va har bir alohida hal qiladigan bo‘lmagan, quyidagi omillarni ko‘rib chiqishi kerak:

Birlashuv operatsiyasi uchun sabablar – birlashuvdagi tomonlar (sotib oluvchi va sotib olinuvchi hamda ularning mulk egalari, direktorlari va boshqaruvchilari – va ularning agentlari) muayyan operatsiyani yoki kelishuvni amalga oshirganligining sabablarini tushunishi, ya’ni biznesni birlashtirishga o‘tkazilgan tovonning va sotib olingan aktivlarning va zimmaga olingan majburiyatlarning qismi bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga oydinlik kiritishi kerak. Masalan, agarda operatsiya birlashuvdan oldin asosan sotib olinuvchining yoki uning sobiq mulk egalarning manfaati uchun emas, balki asosan sotib oluvchining yoki birlashgan tadbirkorlik sub’ektining manfaati uchun amalga oshirilsa, operatsiyaning ushbu qismining to‘langan narxi (va har qanday tegishli aktivlar yoki majburiyatlar) sotib olinuvchi uchun ayirboshlashning qismi bo‘lishining ehtimoli kamroq. Demak, sotib oluvchi ushbu qismni biznes birlashuvdan alohida tarzda hisobga olishi mumkin.

Operatsiyaga kim tashabburkorlik qilgan – operatsiyaga kim tashabbuskorlik qilganini tushunish ham u sotib olinuvchi uchun ayirboshlashning qismi bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga oydinlik kiritishi mumkin. Masalan, sotib oluvchi tomonidan tashabbuskorlik qilingan operatsiya yoki boshqa hodisa biznes birlashuvidan oldin sotib olinuvchi yoki uning sobiq mulk egalari kamroq naf olgan yoki hech qanday naf olmagan holda, sotib oluvchi yoki birlashgan tadbirkorlik sub’ektiga kelgusi iqtisodiy naflarni ta’minlash maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tomondan, sotib olinuvchi yoki uning sobiq mulk egalari tomonidan tashabbuskorlik qilingan operatsiya yoki kelishuv sotib oluvchining yoki birlashgan tadbirkorlik sub’ektining manfaati uchun bo‘lishining ehtimoli kamroq va biznes birlashuvi operatsiyasining qismi bo‘lishining ehtimoli ko‘proqdir.

Operatsiyaning muddati – operatsiyaning muddati ham u sotib olinuvchi uchun ayirboshlashning qismi bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga oydinlik kiritishi mumkin. Masalan, sotib oluvchi bilan sotib olinuvchi o‘rtasida biznes birlashuvining shartlari bo‘yicha muzokaralar mobaynida sodir bo‘ladigan operatsiya sotib olinuvchiga yoki birlashgan tadbirkorlik sub’ektiga kelgusi iqtisodiy naflarni ta’minlash uchun biznes birlashuvini ko‘rib chiqish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Agarda shunda bo‘lsa, sotib olinuvchi va uning sobiq mulk egalari biznes birlashuvidan oldin operatsiyadan kamroq naf olishi yoki hech qanday naf olmaslik ehtimoli mavjud, bunda ular birlashgan tadbirkorlik sub’ektining qismi sifatida oladigan naflardan tashqari.

Biznes birlashuvini tan olish tamoyilida sotib olish sanasida, gudvilldan alohida tarzda, sotib oluvchi sotib olingan aniqlanadigan aktivlarni, zimmaga olingan majburiyatlarni va sotib olinuvchidagi har qanday nazorat-qilinmaydigan ulushni tan olishi lozim. Sotib olish usulini qo‘llashning qismi sifatida tan olishni qanoatlantirish uchun, sotib olingan aniqlanadigan aktivlar va zimmaga olingan majburiyatlar sotib olish sanasida Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning Konseptual asosidagi aktivlar va majburiyatlarning ta’riflarini qanoatlantirishi lozim.

Masalan, sotib oluvchi sotib olinuvchining faoliyatidan chiqish yoki sotib olinuvchining xodimlarining faoliyatini to‘xtatish yoki boshqa joyga o‘tkazish bo‘yicha o‘z rejasini amalga oshirishda kelgusida sarflashni ko‘zda tutgan ammo sarflashga majbur bo‘lmagan xarajatlar sotib olish sanasida majburiyatlar hisoblanmaydi. Shu tufayli, sotib oluvchi ushbu xarajatlarni sotib olish usulini qo‘llashning qismi sifatida tan olmaydi. Sotib olish usulini qo‘llashning qismi sifatida tan olishni qanoatlantirish uchun, sotib olingan aniqlanadigan aktivlar va zimmaga olingan majburiyatlar sotib oluvchi bilan sotib olinuvchi (yoki uning sobiq mulk egalari) o‘rtasidagi alohida operatsiyalar natijasi bo‘lmasdan, balki biznes birlashuvi operatsiyasidagi ayirboshlashning qismi bo‘lishi shart.

Biznes birlashuvi avval mavjud bo‘lgan aloqani hal qilsa, sotib oluvchi quyidagicha baholangan foyda yoki zararni tan oladi:

- avval mavjud bo'lgan noshartnomaviy aloqada (masalan sud jarayonida), haqkoniy qiymatni.

- avval mavjud bo'lgan shartnomaviy aloqada, (a) va (b) dagi summalarning kamrog'ini:

(a) shartnomani aynan bir yoki o'xshash moddalar uchun joriy bozor operatsiyalari bo'yicha shartlar bilan qiyoslaganda sotib oluvchi nuqtai nazaridan qulay yoki noqulay bo'lgan summa. (Noqulay shartnoma shunday shartnomaki, qaysiki joriy bozor shartlarida noqulaydir. U og'irlik qiladigan shartnoma, ya'ni shartnoma asosida majburiyatlarni bajarishning muqarrar xarajatlari uning asosida olinishi kutilgan iqtisodiy naflardan oshadigan shartnoma, bo'lishi shart emas.)

(b) shartnoma noqulay bo'lgan kontragent uchun mavjud bo'lgan shartnomadagi har qanday qayd qilingan hisob-kitob qilish shartlarining summasi.

Agarda (a) dan (b) kam bo'lsa, farq biznes birlashuvi hisobining qismi sifatida inobatga olinadi.

Tan olingan foyda yoki zarar summasi sotib oluvchi oldin tegishli aktiv yoki majburiyatni tan olgan yoki olmaganligiga qisman bog'liq bo'lishi mumkin va shu tufayli e'lon qilingan foyda yoki zarar yuqoridagi talablarni qo'llash orqali hisoblangan summadan farq qilishi mumkin.

Biznes birlashuvini belgilash

Sotib oluvchi turli yo'llar orqali sotib olinuvchi ustidan nazoratga ega bo'lishi mumkin, masalan:

(a) pul mablag'i, pul mablag'i ekvivalentlari yoki boshqa aktivlarni (jumladan biznesni tashkil etadigan sof aktivlarni) o'tkazish orqali;

(b) majburiyatlarni qabul qilish orqali;

(v) kapitaldagi ulushlarni chiqarish orqali;

(g) tovonning bir ortiq turini ta'minlash orqali; yoki

(d) tovonni o'tkazmasdan, jumladan shartnomaning o'zi orqali (43-bandga qarang).

B6 Biznes birlashuvi yuridik, soliq yoki boshqa sabablar tufayli turli usullarda tashkil etilishi mumkin boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi, ammo bu bilan cheklanib qolmaydi:

(a) bir yoki undan ortiq bizneslar sotib oluvchining shuʻba tadbirkorlik subʻektilariga aylanadi yoki bir yoki undan ortiq bizneslarning sof aktivlari sotib oluvchiga yuridik tarzda qoʻshiladi;

(b) bir birlashadigan tadbirkorlik subʻekti oʻzining sof aktivlarini, yoki uning mulk egalari oʻzlarining kapitaldagi ulushlarini, boshqa birlashadigan tadbirkorlik subʻektiga yoki uning mulk egalari oʻtkazadi;

(v) barcha birlashadigan tadbirkorlik subʻektilar oʻzlarining sof aktivlarini, yoki ushbu tadbirkorlik subʻektilarning mulk egalari oʻzlarining kapitaldagi ulushlarini, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subʻektiga (baʼzida yigʻish yoki birlashtirish operatsiyasi ham deyiladi) oʻtkazadilar; yoki

g) birlashadigan tadbirkorlik subʻektilardan birining sobiq mulk egalari guruh birlashgan tadbirkorlik subʻekti ustidan nazoratga ega boʻladi

Asosan pul mablagʻi yoki boshqa aktivlarni oʻtkazish orqali yoki majburiyatlarni qabul qilish orqali amalga oshirilgan biznes birlashuvida, sotib oluvchi boʻlib odatda pul mablagʻi yoki boshqa aktivlarni oʻtkazadigan yoki majburiyatlarni qabul qiladigan tadbirkorlik subʻekti hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlar:

Sotib oluvchi biznes birlashuvida sotib olingan aniqlanadigan nomoddiy aktivlarni, gudvilldan alohida tarzda, tan olishi lozim. Agarda nomoddiy aktiv ajratilish mezonini yoki shartnomaviy-yuridik mezonni qanoatlantirsa, u aniqlanadigan hisoblanadi.

Shartnomaviy-yuridik mezonni qanoatlantiradigan nomoddiy aktiv aniqlanadigan boʻladi hattoki agarda aktiv oʻtkaziladigan boʻlmasa yoki sotib olinuvchidan yoki boshqa huquqlar va majburiyatlardan ajratiladigan boʻlmasa.

Masalan:

(a) Sotib olinuvchi ishlab chiqarish inshootini bozor shartlariga nisbatan qulay boʻlgan shartlarga ega operativ ijara asosida ijaraga beradi. Ijara shartlari

ijara (sotuv yoki ikkilamchi ijara orqali) o'tkazilishini yaqqol taqiqlaydi. Aynan bir yoki o'xshash moddalar uchun joriy bozor operatsiyalarining shartlari bilan solishtirganda ijara shartlari qulayroq bo'lgan summa nomoddiy aktiv bo'lib, u gudvilldan alohida tarzda tan olish uchun shartnomaviy-yuridik mezonni qanoatlantiradi, bunda sotib oluvchi ijara shartnomasini sotish yoki boshqa hollarda o'tkazish imkoniga ega bo'lmasa ham.

(b) sotib olinuvchi atom elektr stansiyasiga ega va uni boshqaradi. Ushbu atom elektr stansiyasini boshqarish litsenziyasi nomoddiy aktiv bo'lib, u gudvilldan alohida tarzda tan olish uchun shartnomaviy-yuridik mezonni qanoatlantiradi, bunda sotib oluvchi uni sotib olingan elektr stansiyasidan alohida tarzda sotish yoki boshqa hollarda o'tkazish imkoniga ega bo'lmasa ham. Sotib oluvchi boshqarish litsenziyasining haqqoniy qiymati bilan elektr stansiyasining haqqoniy qiymatini moliyaviy hisobot maqsadlarida yagona aktiv sifatida tan olishi mumkin, agarda ushbu aktivlarning foydali muddatlari o'xshash bo'lsa.

(v) Sotib olinuvchi texnologik patentga egadir. U ushbu patentni boshqalarga faqatgina ichki bozordan tashqarida foydalanish uchun litsenziya sifatida taqdim etgan va buning evaziga kelgusi xorijdagi foydaning ma'lum ulushini oladi. Texnologik patent va unga tegishli litsenziya kelishuvi gudvilldan alohida tarzda tan olish uchun shartnomaviy-yuridik mezonni qanoatlantiradi, hattoki agarda patent va unga tegishli litsenziya kelishuvini bir biridan alohida tarzda sotish yoki ayirboshlash amaliy mumkin bo'lmasa ham.

Ajratilish mezonini shuni anglatadiki, sotib olingan nomoddiy aktiv sotib olinuvchidan ajratilgan yoki bo'lingan holda, alohida yoki tegishli shartnoma, aniqlanadigan aktiv yoki majburiyat bilan birga sotilishi, o'tkazilishi, litsenziyalanishi, ijaraga berilishi yoki ayirboshlanishi mumkin. Sotib oluvchi sotish, litsenziyalash yoki boshqa hollarda qiymatga ega boshqa moddaga ayirboshlash imkoniyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktiv ajratilish mezonini qanoatlantiradi, hattoki agarda sotib oluvchi uni sotish, litsenziyalash yoki boshqa hollarda ayirboshlashni ko'zda tutmasa ham. Sotib olingan nomoddiy aktiv ajratilish mezonini qanoatlantiradi, qachonki ushbu turdagi aktiv yoki o'xshash

turdagi aktiv bo'yicha ayirboshlash operatsiyalarining dalili mavjud bo'lsa, bunda hattoki agarda ushbu operatsiyalar kam hollarda sodir bo'lsa ham va sotib oluvchi ularda ishtirok etishi yoki etmasligidan qat'iy nazar. Masalan, mijoz va obunachi ro'yxatlari tez-tez litsenziyalanadi va demak ajratilish mezonini qanoatlantiradi. Hattoki agarda sotib olinuvchi uning mijoz ro'yxatlari boshqa mijoz ro'yxatlaridan farq qiladigan xususiyatlarga ega bo'lishiga ishonganda ham, mijoz ro'yxatlari tez-tez litsenziyalanishi to'g'risidagi dalil umuman olganda shuni anglatadiki, sotib olingan mijoz ro'yxati ajratilish mezonini qanoatlantiradi. Biroq, biznes birlashuvda sotib olingan mijoz ro'yxati ajratilish mezonini qanoatlantirmasligi mumkin, agarda maxfiylik yoki boshqa kelishuvlar shartlari tadbirkorlik sub'ekting uning mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sotishini, ijara berishini yoki boshqa hollarda ayirboshlashini taqiqlasa.

Sotib olinuvchidan yoki birlashgan tadbirkorlik sub'ektidan alohida tarzda ajratilmaydigan nomoddiy aktiv ajratilish mezonini qanoatlantiradi, agarda u tegishli shartnoma, aniqlanadigan aktiv yoki majburiyat bilan birga ajratiladigan bo'lsa. Masalan:

(a) bozor ishtirokchilari depozit majburiyatlarni va tegishli depozitor aloqasi bo'yicha nomoddiy aktivlarni kuzatiladigan ayirboshlash operatsiyalarida ayirboshlaydi. Shu tufayli, sotib oluvchi depozitor aloqasi bo'yicha nomoddiy aktivni gudvilldan alohida tarzda tan olishi kerak.

(b) sotib oluvchi ro'yxatga olingan savdo belgisiga va savdo belgisiga ega mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladigan hujjatlashtirilgan ammo patentlanmagan texnik tajribaga egadir. Savdo belgisi bo'yicha egalik huquqini o'tkazish uchun, mulk egasidan sobiq mulk egasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotdan farqlanmaydigan mahsulotni yoki xizmatni ishlab chiqarish uchun yangi mulk egasiga zarur bo'lgan boshqa barcha qismlarni o'tkazish ham talab etiladi. Tegishli savdo belgisi sotilganda, patentlanmagan texnik tajriba sotib olinuvchidan yoki birlashgan tadbirkorlik sub'ektidan ajratilishi va sotilishi shart bo'lganligi tufayli, u ajratilish mezonini qanoatlantiradi.

Qayta sotib olish huquqlari

Biznes birlashuvining qismi sifatida, sotib oluvchi u o'zining bir yoki undan ortiq tan olingan yoki tan olinmagan aktivlaridan foydalanish uchun sotib olinuvchiga oldin taqdim etgan huquqini qayta sotib olishi mumkin. Bunday huquqlarga misollar franchayzing kelishuvi asosida sotib oluvchining savdo nomidan foydalanish huquqini yoki texnologiya litsenziyasi kelishuvi asosida sotib oluvchining texnologiyasidan foydalanish huquqini o'z ichiga oladi. Qayta sotib olingan huquq sotib oluvchi gudvilldan alohida tarzda tan oladigan aniqlanadigan nomoddiy aktivdir.

Agarda qayta sotib olingan huquqni yuzaga keltiradigan shartnoma shartlari aynan bir yoki o'xshash moddalar bo'yicha joriy bozor operatsiyalarining shartlariga nisbatan qulay yoki noqulay bo'lsa, sotib oluvchi hisob-kitob bo'yicha foyda yoki zararni tan olishi lozim. B52-band ushbu hisob-kitob foydasi yoki zararini baholash bo'yicha ko'rsatmani ta'minlaydi.

Yig'ilgan ishchi kuchi va aniqlanmaydigan boshqa moddalar

Sotib oluvchi gudvillda tarkibida sotib olish sanasi holatiga aniqlanmaydigan sotib olingan nomoddiy aktivlarning qiymatini jamlaydi.

Masalan, sotib oluvchi yig'ilgan ishchi kuchining mavjudligiga nisbatan qiymatni aks ettirishi mumkin, qaysiki xodimlarning mavjud jamlanmasi bo'lib, u sotib oluvchiga sotib olingan biznesni sotib olish sanasidan boshlab yuritishni davom ettirishga imkon beradi. Yig'ilgan ishchi kuchi malakali ishchi kuchining aqliy kapitalini – sotib olinuvchining xodimlari o'z faoliyatlariga olib keladigan (ko'p hollarda maxsus) bilim va tajribani – aks ettirmaydi. Yig'ilgan ishchi kuchi gudvilldan alohida tarzda tan olinadigan aniqlanadigan aktiv bo'lmagani tufayli, unga nisbatan aks ettirilgan har qanday qiymat gudvill tarkibida jamlanadi.

Sotib oluvchi sotib olish sanasida aktivlar sifatida tasniflanmaydigan moddalar bo'yicha aks ettirilgan har qanday qiymatni ham gudvill tarkibida jamlaydi. Masalan, sotib oluvchi sotib olinuvchi sotib olish sanasida yangi mijozlar bilan muzokaralar olib borayotgan potensial shartnomalarga nisbatan qiymatni aks ettirishi mumkin. Ushbu potensial shartnomalar sotib olish sanasi holatiga aktiv bo'lmagani tufayli, sotib oluvchi ularni gudvilldan alohida tarzda tan olmaydi.

Sotib oluvchi ushbu shartnomalar qiymatini sotib olish sanasidan keyin sodir boʻladigan hodisalarga nisbatan keyingi davrlarda gudvilldan qayta tasniflamasligi kerak. Biroq, sotib oluvchi alohida tan olinadigan nomoddiy aktiv sotib olish sanasida mavjud boʻlgan yoki boʻlmaganini aniqlash uchun sotib olishdan qisqa muddatdan soʻng sodir boʻladigan hodisalar toʻgʻrisidagi dalillar va holatlarni baholashi kerak.

Dastlabki tan olishdan soʻng, sotib oluvchi biznes birlashuvida sotib olingan nomoddiy aktivlarni BHXS 38 *“Nomoddiy aktivlar”* ning shartlariga muvofiq hisobga oladi. Biroq, BHXS 38 ning 3-bandida izohlangandek, dastlabki tan olishdan soʻng baʼzi sotib olingan nomoddiy aktivlarni hisobga olish boshqa MHHSlar orqali belgilanadi.

Aniqlanish mezonlari nomoddiy aktiv gudvilldan alohida tarzda tan olinishi yoki olinmasligini aniqlaydi. Biroq, mezonlar nomoddiy aktivning haqqoniy qiymatini baholash boʻyicha koʻrsatmani taʼminlamaydi va nomoddiy aktivning haqqoniy qiymatini baholashda foydalanilgan farazlarni cheklamaydi. Masalan, sotib oluvchi haqqoniy qiymatni baholashda bozor ishtirokchilari nomoddiy aktivni baholash paytida foydalanadigan farazlarni, masalan shartnomani kelgusida yangilashlarni, inobatga olishi mumkin. Yangilashlarning oʻzi aniqlanish mezonlarini qanoatlantirishi shart emas. Biznes birlashuvida tan olingan qayta sotib olingan huquqlar uchun haqqoniy qiymatni baholash tamoyiliga nisbatan istisnoni belgilaydi.

Noaniq pul oqimlariga ega aktivlar (baholash rezervlari)

Sotib oluvchi sotib olish sanasidagi haqqoniy qiymatida baholanib, biznes birlashuvida sotib olingan aktivlar uchun sotib olish sanasi holatiga alohida baholash rezervini tan olmasligi lozim, chunki pul oqimlari toʻgʻrisidagi noaniqlik taʼsirlari haqqoniy qiymatni baholashda inobatga olingan boʻladi.

Masalan, mazkur MHXS sotib oluvchidan sotib olingan debitorlik qarzlarni, jumladan kreditlarni, ularning sotib olish sanasidagi haqqoniy qiymatida baholashni talab etishi tufayli, sotib oluvchi ushbu sanada umidsiz deb hisoblangan shartnomaviy pul oqimlari boʻyicha alohida baholash rezervini tan olmaydi

Takrorlash uchun savollar

1. Nomoddiy aktivlar tushunchasiga ta'rif bering?
2. Nomoddiy aktivlarga nimalarni kiritamiz?
3. 7-sonli «Nomoddiy aktivlar» nomli BHMS va uning mazmunini tushuntiring?
4. Nomoddiy aktivlar harakati qaysi hujjatlarga asosan olib boriladi?
5. Gudvill, franshiza, patent nima?
6. Gudvill va bedvill hisobini yuritish tartibini tushuntiring?
7. Amortizatsiya hisoblashning qanday usullari bor?
8. Nomoddiy aktivlar qanday hisobga olinadi?
9. Nomoddiy aktivlarning sintetik va analitik hisobini yoritib bering?
10. Nomoddiy aktivlarni sotish va sotib olish qanday schyotlar orqali amalga oshiriladi?
11. Tashkiliy xarajatlar nima va unima uchun nomoddiy aktivlar tarkibida yuritilmaydi?
12. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibini izohlang?

17- BOB. TAYYOR MAHSULOT (TOVAR, ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNING SOTILISHINI HISOBGA OLISH

- 17.1. Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi.
- 17.2. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash.
- 17.3. Tayyor mahsulot (tovar)larning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi.
- 17.4. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotilishini xujjatlashtirish.
- 17.5. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni turli shartlar bilan realizatsiya qilishni hisobda aks ettirish.
- 17.6. Konsignatsiya muomalalarini hisobda aks ettirish.
- 17.7. Tayyor mahsulot (tovar)lar qaytishini hisobga olish.

Tayanch so‘z va iboralar: ombor xo‘jaligi, xo‘jalik shartnomasi, inkotermis, logistika, tayyor mahsulot, bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat, tayyor mahsulotlarni sotish, tayyor mahsulotlarni baholash, buyurtmachi va xaridorlar, ulgurji narx, chakana narx, sotishning sof qiymati, tayyor mahsulotlarni ortish va jo‘natish

17.1. Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mamlakat ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlash borasida ko‘pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Bular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabr, PF-5587-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 oktabr, PQ-3978-son “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda, PQ-4069-son “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni

kuchaytirish chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 16 sentabr, PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi, PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlarini kiritish mumkin. Mazkur qarorlarning hayotga tatbiq etilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'proq miqdorda foyda olish maqsadida o'z ichki imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga imkoniyat yaratmoqda. Ammo hozirgi sharoitda respublikamizda aksariyati tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uni faqat vositachi tashkilotlarga yetkazib berish bilan cheklanmoqda. Bu esa bozorda korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sotish jarayoniga, oxir-oqibatda, ularning moliyaviy natijasiga salbiy ta'sir etmoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy sub'ektlar faoliyatining samarali davom etishida xo'jalik mablag'larining doimiy harakati ta'minlanishi talab etiladi. Xo'jalik mablag'lari tarkibida tayyor mahsulot muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan va iqtisodiyot tarmoklarining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda hisob va tahlilni tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Ushbu masalalar, ayniqsa, tayyor mahsulot (ish, xizmat)larning sotilishi hamda moliyaviy natijalarning shakllanishi hisobi va tahlili sohasida dolzarb bo'lib, qisqa muddatlarda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar jumlasiga kiradi.

Bozor qonunlari amal qila boshlashi, raqobatchilik muhiti tarkib topishi va erkin tadbirkorlik uchun hamma yo'llar ochilishi bilan ayni qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish tarkiban o'zgartiriladi. Iqtisodiyotni moderinizatsiya qilish, klasterlarni tashkil qilish va raqobatga bardosh bera oladigan hamda xaridorlarning iste'mol talablarini qondirishni ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarishdir.

Bozor munosabatlari shakllantirilayotgan hozirgi sharoitda mahsulot talab va taklifni hisobga olgan holda, raqobatbardosh bo'lishi va umumqabul qilingan andozalarga javob berishini nazarda tutgan holda ishlab chiqarilishi lozim. Respublikaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, importni qisqartirish va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishning rivojlantirilishi muhim hisoblanadi.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish aholining ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishlab chiqarish faoliyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Tayyor mahsulot deb, korxonadagi barcha ishlov operatsiyalaridan o'tib bo'lgan, tayyor holga keltirilgan, belgilangan davlat standarti va texnikaviy shartlarning barcha talablariga javob beradigan hamda texnika nazorati bo'limi tomonidan qabul qilingan yoki buyurtmachilarga topshirilgan mahsulotga aytiladi. Uning tarkibiga buyurtmachi korxonalar uchun bajarilgan ish, xizmatlar hamda ushbu korxonaga qarashli ishlab chiqarishdan tashqari xo'jaliklar uchun bajarilgan ish va xizmatlar ham kiradi.

Moliyaviy natijalar - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektshshg ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'shshg oshshpi yoki kamayshpidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Foydaning iqtisodiy mohiyati - moddiy ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlar faoliyati jarayonida yaratilgan foyda. Ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital va tabiiy resurslar) va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning foydali ishlab chiqarish faoliyati birikishi natijasida mahsulot ishlab chiqariladi, u iste'molga berilganda tovar bo'lib sotiladi.

Korxonada sotish uchun mo'ljallangan mahsulot (ish, xizmat) tovar mahsuloti deb nomlanadi. Tovar mahsuloti (ish, xizmat) tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- buyurtmachi va xaridorlarga sotilgan tayyor mahsulot (ish, xizmat) va korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulot;

- xalq iste'moli tovarlari, chiqindilardan tayyorlangan ishlab chiqarish-texnika maqsadlariga mo'ljallangan buyumlar, yarim fabrikatlar hamda mahalliy xom ashdan xalq iste'moli uchun tayyorlangan nooziq-ovqat (turlari) tovarlari;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari;

- sanoat xususiyatidagi ishlar va xizmatlar;

- o'z kapital qurilish ehtiyejlariga sotiladigan mahsulot, ish va xizmatlar;

- o'z xizmatidagi ishlab chiqarishlar va xo'jaliklar ehtiyoji uchun berilgan mahsulot, sanoat xususiyatidagi bajarilgan ish va xizmatlar;

- sanoat xususiyatiga ega bo'lmagan ishlar va xizmatlarning amalga oshirilishi, qiymati xaridorlar tomonidan to'langan va komplektlash uchun sotib olingan buyumlar;

- o'z kuchi bilan chetga bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.

Tayyor mahsulotni hisobga olish shu mahsulotning ishlab chiqarishdan olinishi, uning harakati, sotilishi va xaridorlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni aks ettiradi. Tayyor mahsulotning turkumlanishi bo'yicha turli iqtisodchi olimlar turlicha fikr bildirganlar. Masalan, S. Qodirxonov fikricha: «Joylashgan joyiga qarab tayyor mahsulot omborlardagi tayyor mahsulot, jo'natilgan mol (tovar)lar va mas'ul saqlashga qabul qilingan mollarga bo'linishi mumkin»⁹.

Ombordagi mahsulot deganda ishlab chiqarishning barcha ishlov operatsiyalaridan o'tib texnika nazorati bo'limi tomonidan omborga benuqson deb qabul qilingan va asosan sotishga mo'ljallangan tovar mahsuloti tushuniladi.


Jo'natilgan mol (tovar)lar deb, xaridorlarga yoki iste'molchilarga jo'natilgan, lekin uning uchun xaridorlar tomonidan hali puli to'lanmagan yo'ldagi mahsulotga aytiladi.

Mas'ul saqlashga qabul qilingan mol (tovar)lar deb, xaridorlarga jo'natilgan tovar mahsulot har xil sabablarga ko'ra (sifatiga ko'ra xaridorning talabini qondirmaydigan, xaridorlarga adashib borib qolgan, ya'ni bir korxonaning o'rniga ikkinchi korxonaga shartnomadan tashqari borib qolgan tovarlar va shu kabilar)

⁹ S.Qodirxonov. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. -T.: O'zbekiston, 1993. 243 -bet

sotib olish uchun qabul qilinmay qolgan bo'lishi mumkin. Bunday mahsulotni tegishli korxonalar o'z javobgarligiga qabul qilib olib, darhol bu mollarni yuboruvchi korxonaga xabar qiladilar. Shuning uchun bunday mollar mas'ul saqlashga qabul qilingan mollar deb yuritiladi.

Bunga ko'shimcha ravishda ko'rgazmaga ko'yilgan tayyor mahsulotni ham kiritish mumkin. Chunki ko'rgazmaga ko'yilgan tayyor mahsulot ham korxonada ishlab chiqarilgan va sotilishi kerak bo'lgan mahsulotlaridir.



17.1-rasm. Tayyor mahsulotning turkumlanishi

Tayyor mahsulotni turkumlashdan asosiy maqsad uni hisobga olishni ixchamlashtirish nazarda tutilishini inobatga oladigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, tayyor mahsulotni yuqoridagi rasmda berilganidek, ya'ni hisobvaraqlar rejasida tayyor mahsulot hisobi bo'yicha ochilgan hisobvarakdarga mos ravishda turkumlash kerak: ombordagi tayyor mahsulot, ko'rgazmadagi tayyor mahsulot va komissiyaga berilgan tayyor mahsulot.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar bozorda sotish uchun ishlab chiqariladi. Shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqaruvchilar oldida bozorni chuqur o'rganish, marketing strategiyasini to'g'ri belgilashi lozim. Bunda asosiy e'tibor quyidagi uchta asosiy muammoga qaratilishi lozim:

1. Nima ishlab chiqarilishi zarur, ya'ni ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi sababli, bir-birini o'zaro inkor qiluvchi tovarlar va xizmatlardan qaysisi va qancha miqdorda ishlab chiqarilishi kutiladi?

2. Tovar va xizmatlar qanday ishlab chiqariladi, ya'ni jamiyat ixtiyoridagi mavjud resurslardan qanday texnologiyadan foydalanish ko'zda tutiladi?

3. Ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar kim uchunmo'ljallangan, ya'ni yaratilgan yalpi milliy mahsulotning taqsimlanishi qanday tartiblarda amalga oshiriladi?

Tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar, ularni sotish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobini yuritishda «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMA, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMA, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMA, «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMA, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMA, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-son BHMAlar uslubiy asos sifatida ko'llanilishi mumkin.

Korxonada ishini biznes rejasidagi sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonada rahbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko'proq e'tibor berishga chaqiradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular esa, o'z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimida tayyor mahsulot, uni ortib jo'natish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tayyor mahsulot harakati bilan bog'liq barcha xo'jalik operatsiyalarini hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, ombordagi mahsulotning belgilangan zaxira va me'yorlariga rioya qilish hamda saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- ombordagi zaxiralarning holatini va butligini saqlash;
- ish va xizmatlarning bajarilish hajmi, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha uzluksiz nazorat o'rnatish, ortib jo'natilgan va yuborilgan mahsulotlar (ish, xizmat) bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish, xaridorlar bilan hisob-kitoblarni aniq tashkil qilish;

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi korxonaning bir maromda ishlashiga, ombor xo‘jaligi va mahsulot sotishni to‘g‘ri tashkil qilishga, xo‘jalik operatsiyalarining hujjatlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirilishiga bog‘liqdir.

«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMAga muvofiq tayyor mahsulot xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida bo‘lgan aktivlar

hisoblanadi va ular xo‘jalik yurituvchi sub’ektning kundalik faoliyatida sotish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulot, tovarlar sifatida korxonaning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga kiradi.

Bizning fikrimizcha, korxonada tayyor mahsulot (ish, xizmat)ni sotish hisobini tashkil qilish vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mahsulot (ish, xizmat)larning sotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamma xo‘jalik operatsiyalarini hisobda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish;
2. Mahsulot (ish, xizmat) sotishda shartnomalar bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish;
3. Sotilgan mahsulotning assortiment va hajmi bo‘yicha hamda sotish rejasining bajarilishini nazorat qilish;
4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan davr xarajatlarini o‘z vaqtida aniq hisob-kitob qilish;
5. Sotilgan mahsulot uchun olingan tushumni aniq hisob-kitob qilish, foyda summasini to‘g‘ri aniqlash va boshqalar.

17.2.Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash.

Mahsulot (ish, xizmat) odatda ma’lum bir qiymatda baholanadi va sotiladi.

Baho - qiymatning puldagi ifodasidir. Uning asosini u yoki bu mahsulotni tayyorlash bilan bog‘liq ijtimoiy zaruriy mehnat tashkil qiladi.

Tayyor mahsulot (ish, xizmat) ning sotish qiymatini belgilashda «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMSdan foydalaniladi. 4-sonli BHMSning 7-bandiga binoan tayyor mahsulotlar eng kam bahoda baholanishi kerak:

- tannarxda yoki sof sotilish qiymatida.

Amaliyotda hisobot davri oxirida ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash imkoni tugʻuladi. Lekin mahsulotlarning ishlab chiqarish jarayoni har kuni sodir boʻladi, shu sababli joriy hisobda mahsulotni shartli bahoda baholash kerak. Tayyor mahsulotlarning operativ hisobini yuritishda ishlab chiqarish reja tannarxi yoki shartnoma bahosida yoxud chakana bahoda olib boriladi.

4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMSda mahsulot (ish, xizmatlar)ning sotilishi (21-22 bandlar) tartibi quyidagicha bayon qilingan:

Materiallar va mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda foydalanadigan boshqa xom-ashyo, agar ulardan tayyorlangan mahsulot bozor (kundalik) narxida sotilsa, tannarx qiymatidan past narxda arzonlashtirilmaydi.

Biroq agar omborda mavjud boʻlgan narxdagi materialdan tayyorlangan tayyor mahsulotning tannarxi sotish sof qiymatidan oshib ketsa, materiallar sotish sof qiymatigacha arzonlashtiriladi. Bunday vaziyatlarda materiallar qiymatini oʻlchashning mavjud shakllaridagi eng yaxshisi boʻlishi mumkin.

Sotishning sof qiymati - ishlab chiqarishni tugallash va mahsulotni sotish bilan bogʻliq boʻlgan butlash harajatlarini chiqarib tashlagan holda TMZni sotishning hisob-kitob narxidir.

•BHMSdagi baholashga muvofiq agar korxonada ishlab chiqargan mahsulotning tannarxi mahsulotni sotish rejasidan yoki bozordagi joriy narxlaridan oshib ketsa, korxonada oʻzining mahsulotini sotish sof qiymatigacha arzonlashtirishi mumkin. Lekin quyidagi hollarda tayyor mahsulot sotishning sof qiymatidan arzon bahoda baholanishi mumkin:

- Zaxiralarni sotish narxi arzonlashganda
- Zaxiralarga zarar etganda;
- Zaxiralar toʻla va qisman eskirganda.

Korxonalarda mahsulotning reja va haqiqiy tannarxini hisobot davri yakunida tartibga solish kerak haqiqiy tannarx hisobot davri oxirida aniqlanadi.

Tayyor mahsulotlarning tannarxi mahsulotlarning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi,

ishlab chiqarish siklining davomiyligi, mahsulotlar nomenklaturasiga bog‘liq holda turli xil usullar bilan aniqlanishi mumkin.

Mahsulotlar tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- oddiy;
- me‘yoriy;
- buyurtma;
- bosqichli.

17.1-jadval

Tannarx turlari, ularni vazifalari bo‘yicha hisoblash usullari

Tannarx turlari	Vazifalari	Hisoblash usuli	Ijro etuvchilar
1. Smeta	Mahsulotning yangi turi yoki yangi texnologiyaning qo‘llanishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash	Yangi texnologiyalarga yoki yangi mahsulotni ishlab chiqarishga belgilangan ilg‘or norma va normativlarga muvofiq sarflanadigan xarajatlar asosida hisoblanadi.	Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy qilish bo‘limi, korxonaning boshqa bo‘limlari (reja, me‘yor va boshqalar bilan hamkorlikda)
2. Reja	Jami mahsulot va uning birligiga sarflanadigan xarajatlarni rejalashtirish hamda uning bajarilishini nazorat qilish uchun.	Korxonada joriy yil boshiga amal qilayotgan yoki yangi ishlab chiqarilgan norma va normativlar asosida hisoblanadi.	Reja bo‘limining yetakchilida boshqa bo‘limlar bilan hamkorlikda
3. Me‘yoriy	Haqiqiy xarajatlarning normativlardan chetga chiqishni tezkor nazorat qilish	Korxonada hisobot oyi boshida ishlab chiqilgan me‘yorlarga asoslanib hisoblanadi. Haqiqiy tannarx, me‘yorlar o‘zgarganda uchta	Reja bo‘limining yetakchilida boshqa bo‘limlar bilan hamkorlikda

		ko'rsatkichning yig'indisi teng bo'ladi: me'yoriy tannarx +, - me'yorlar chetga chiqish +, - me'yorning o'zgarishi	
4. Haqiqiy	Jami mahsulot va uning birligiga sarflangan haqiqiy xarajatlarni aniqlash	Haqiqiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'rtasida beliglangan qoida asosida taqsimlanadi, so'ngra esa har bir mahsulot miqdoriga bo'lish orqali hisoblanadi.	Buxgalteriya xodimlari


Jadvalda keltirilgan tannarx turlarini ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari bo'yicha ham hisoblash mumkin.

Reja tannarx esa oldindan belgilanadi. hisobot davri oxirida haqiqiy tannarx reja tannarxdan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Tayyor mahsulotlar kaysi hisobvaraqlarda hisobga olingan bo'lsa, og'ishishlar ham shu hisobvaraqlarda tejalgan bo'lsa - qizil storno usulida, ortiqcha harajat bo'lsa - oddiy siyohda aks ettiriladi.

- Mahsulot (ish, xizmat) sotilishini hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar ish va xizmatlarning har birini alohida turi bo'yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining rentabellik darajasi va boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi lozim.

Korxonada ishlab chiqargan mahsulotning nafliligi va unga sarflangan xarajatlar birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa, mahsulotni sotib bo'lmaydi. Chunki mahsulotning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafliligi tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Agarda korxonaning mahsulotlari xaridorga manzur bo'lsa, ular manfaatlari to'g'ri kelgan nuqtada narx o'rnatiladi va tovar oldi-sotdisi yuz beradi.


Bu holatni yaxshiroq tasavvur qilish uchun biz quyidagi rasimga e'tiborni jalb etamiz:



17.2-rasm. Tovar xususiyatlarining narxga ta'siri

Bu rasmdan tovarning narxi ma'lum bir iqtisodiy jarayonni ifoda etuvchi mustaqil ilmiy tushuncha ekanligi, tovarning ikki xususiyatiga asoslanishini, ular bilan chambarchas bog'liqlikda o'zgarishini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, hozirgacha real hayotda turli-tuman tovarlar va xizmatlar nafililigini, ularning o'zgarishini bir ko'rsatkichga keltirib hisoblashning pul ko'rinishidan boshqa o'lchami iqtisodiy fanlarda topilgan emas.

Narxning mazmunini to'laroq tushunishda, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Narxning shakllanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafiligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu omillar quyidagi rasmda keltirib o'tilgan:




17.3-rasm. Narxga ta'sir etuvchi omillar

Yuqorida sanab o'tilgan omillar korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar)ning bahosini aniqlashda asosiy ta'sir qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishdan avval sanoat mollariga belgilanadigan bahoning uch turi mavjud edi: korxonada ulgurji bahosi, sanoat ulgurji bahosi, chakana narx.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasidagi farqlar narx turlarini farqdash zaruriyatini tug'diradi. Hozirgi davrda narxning turlari ko'payib bormokda va ular ma'no-mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi rasmda narxning turlari ko'rsatib o'tilgan:



17.4-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx turlari

Yuqorida keltirib o‘tilgan narx turlari ma’lum maqsadlarda tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ko‘llaniladi. Narx turlari ichida eng diqqatni jalb qiladigani, shubhasiz, erkin narx hisoblanadi. Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab narxlarni erkinlashtirishga katta e’tibor qaratildi.

Tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning sotish qiymatini belgilashda «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMA dan foydalaniladi. Ushbu andozada mahsulot (ish, xizmat)larni sotilishi tartibi quyidagicha bayon qilingan:

Materiallar va mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda foydalanadigan boshqa xom ashyo, agar ulardan tayyorlangan mahsulot bozor (kundalik) narxida sotilsa, qiymatidan past narxda arzonlashtirilmaydi. Biroq, agar omborda mavjud bo‘lgan narxdagi materialdan tayyorlangan tayyor mahsulotning tannarxi sotishning sof qiymatidan oshib ketsa, materiallar sotish sof qiymatigacha arzonlash-tiriladi. Bunday vaziyatlarda materiallar qiymatini o‘l-chashning mavjud shakllaridagi eng yaxshisi bo‘lishi mumkin.

Tovarlarni sotish chogʻida ularning baholanishi zaxiralarni baholashning quyidagi usulidan biri boʻyicha amalga oshiriladi:

Fifo - tovar-moddiy zaxiralarni birinchi kirim qilingani yoki birinchi tayyorlangan gurux baxosi buyicha hisobga olish usuli, bankdan baʼzi turdagi xissalarining (vklad) anchagina qismini olishda foiz hisoblash usuli, kaysiki, olinayotgan summa dastlabki qabul qilingan xissa hisoblanadi. Vaqti jihatidan birinchi boʻlgan harid qilishlar tannarxi boʻyicha (FIFO).

Lifo - Tovar-moddiy boyliklarini sunggi qabul qilingan yoki tayyorlangan partiya baxosi buyicha hisobga olish usuli. Lifoning kullanilishi foyda summasini kupayishi yoki kamayishi imkoniyatini beradi.

(AVYeSO) tovar-moddiy zaxiralarni oʻrtacha tannarxi boʻyicha;

Misol.

Tashkilot yanvar oyida qaytadan sotish uchun uch marotaba boʻyoq sotib olgan:

2020 yil 1yanvar kuniga 10 kg 22000 soʻmdan jami 220000 soʻmlik qoldiq mavjud.

3 yanvarda –26000 soʻmdan 15 kg (jami 390000 soʻmga);

12 yanvarda 27000 soʻmdan 30 kg (jami 810000 soʻmga);

23 yanvarda 28000soʻmdan 35 kg (jami 980000 soʻmga);

Jami 2180 000 soʻmdan iborat soʻmmaga 80 kg boʻyoq sotib olingan.

2020 yil yanvar oyi davomida 7 –yanvarda 18 kg, 16-yanvarda 30 kg, 28 yanvarda 34 kg tovarlar sotilgan.

Boʻyoqning ombordagi qoldigʻi 2020 yil 31 yanvarda 8 kgni tashkil qildi.

Subʼektlarda hisob siyosati belgilangan TMZlarni baholashning qaysi usuli qabul qilinganiga qarab, sotilgan tovarning tannarxi ham, subʼektning foydasi ham, shuningdek, tovarning qoldiqlari mazkur davrning oxiriga borib hisobda aks ettiriladigan summa ham bogʻliq boʻladi.

Agar FIFO usulidan foydalanilgan boʻlsa, u holda birinchi boʻlib oldin xarid qilingan boʻyoq sotiladi, qoldiqda esa eng oxirgi turkum(partiya)dagi boʻyoq

qoladi. Bu usulda 2020 yil yanvar oyining oxirida bo‘yoq zaxiralarining qiymati ($8 \text{ kg} * 28000 \text{ so‘m}$)= 224000 so‘mni tashkil qiladi:

Yanvarda sotilgani: ($15 \text{ kg} (10 \text{ kg} * 22000 \text{ so‘m} + 5 \text{ kg} * 26000 \text{ so‘m}) = 350000 \text{ so‘m}$) + ($30 \text{ kg} (10 \text{ kg} * 26000 \text{ so‘m} + 20 \text{ kg} * 27000) = 800000 \text{ so‘m}$) + ($34 \text{ kg} (10 \text{ kg} * 27000 + 24 \text{ kg} * 28000) = 942000$) = 2092000 so‘m.

Tovar-moddiy boyliklarini LIFO, ya‘ni, sunggi qabul qilingan yoki tayyorlangan partiya baxosi buyicha hisobga olish usulida sotish hisobga olinsa u quyidagicha bo‘ladi.

2020 yil yanvar oyi davomida 7 –yanvarda 18 kg, 16-yanvarda 30 kg, 28 yanvarda 34 kg tovarlar sotilgan.

$$18 \text{ kg} * 28000 = 504000$$

$$30 \text{ kg} (17 \text{ kg} * 28000 + 13 \text{ kg} * 27000) = 827000$$

$$34 \text{ kg} (17 * 27000 + 15 \text{ kg} * 26000 + 2 \text{ kg} * 22000) = 893000$$

$$2020 \text{ yil } 31 \text{ yanvar kunida qolgan qoldiq } 8 \text{ kg} * 22000 = 176000$$

Agar tovar-moddiy boyliklarini AVYeSO usulidan foydalanilsa, natijalar butunlay boshqacha bo‘ladi. Mazkur holatda 1 kg bo‘yoqning o‘rtacha qiymatini hisoblab chiqish zarur; u ($2400000 \text{ so‘m} / 90 \text{ kg}$)= 26666,66 so‘mni tashkil qiladi. Demak, ($82 \text{ kg} * 26666,66 \text{ so‘m}$)=2186666.12 so‘mlik bo‘yoq sotilgan, bo‘yoqning yanvar oyi oxiridagi qiymati esa ($8 \text{ kg} * 26666,66 \text{ so‘m}$)= 213333,33 so‘mni tashkil qiladi. Qolaversa, o‘rtacha qiymat davriy asosda (masalan, biz qilganimiz kabi bir oyda bir marta) yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektdagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda har bir qo‘shimcha yetkazib berishning borishi bo‘yicha hisoblanishi mumkin.

4-son BHMSga binoan FIFO usuli afzalroq hisoblanadi; ushbu usul narxlarning o‘sishi sharoitida tannarxning eng kam qiymatlari va foydaning eng yuqori qiymatlarini beradi. 4-son BHMSga muvofiq tovarlar ikkita baholashdan eng past bo‘yicha haqiqatdagi tannarxi (xarid qilish bahosi) yoki bozor bahosi (sotishning sof qiymati) bo‘yicha hisobga olinadi. Qayta baholash bo‘yicha farq u aniqlangan hisobot davrida hisobdan chiqariladi. Sotishning sof qiymati - ishlab chiqarishni tugallash va mahsulotni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan butlash

xarajatlarini chiqarib tashlagan holda TMZni sotishni hisob-kitob narxidir. Demak, mazkur BHMSdagi baholashga muvofiq agar korxonada ishlab chiqargan mahsulotning tannarxi mahsulotni sotish rejasidan yoki bozordagi joriy narxlaridan oshib ketsa, korxonada o'zining mahsulotini sotish so'f qiymatigacha arzonlashtirishi mumkin. Lekin quyidagi hollarda tayyor mahsulot sotishning so'f qiymatidan arzon baholanishi mumkin: zaxiralarni sotish narxi arzonlashganda, zaxiralarga zarar yetganda, zaxiralar to'la va qisman eskirganda.

TMZ larni so'f sotish qiymati bo'yicha baholash.

TMZ yaroqsiz bo'lganda, brak, qisman yoki butunlay eskirganda, sotuvni tashkil qilish xarajatlari oshganda, raqobat kuchayib sotuv narxi pasaygan holatlarda, tovar-moddiy zaxiralari o'z tannarxidan ishlab chiqarish qiymatidan past bahoda sotish qiymatida baholanishi mumkin.

Sof sotish qiymati - tovar sotilishining taxminiy qiymatidan tovarlarni sotuv oldidan tayyorlash va uni sotish xarajatlarining ayirmasidir. Masalan, tovarlarning ma'naviy eskirib qolganligi oqibatida tovarni arzonlashtirishdan ko'rilgan zarar aks ettirilgan:

Dt 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar"

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar".

Tovar-moddiy zaxiralari so'f sotish qiymatigacha quyidagi usullar asosida qisman hisobdan chiqariladi:

a) moddalar bo'yicha usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralari - rining har bir turi baholanadi;

b) asosiy tovar guruhlarining usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralari guruh imtiyozini baholanadi;

v) zaxiralarning umumiy darajasi usuli - bunda hamma tovar- moddiy zaxiralari baholanadi.

Misol:

«Sug'diyona» korxonasi o'zining tijorat faoliyatini hisobot davrida uning egalari tomonidan kiritilgan 60000000 so'm kapitali bilan faoliyat boshladi. Kompaniya 3000 birlik tovar-moddiy zaxiralarni 45000000 so'mga sotib oldi, frax

xarajatlari 3000000 soʻmni tashkil etdi. Yil davomida korxonada 2650 birlik mahsulotning bir birligini 25000 soʻm bahoda sotdi. Yil oxirida xoʻjalik yurituvchi subʻekt ixtiyorida 350 birlik mahsulot bor, ulardan 50 tasi yaroqsiz holga kelgan edi. Yaroqsiz holga kelgan birliklarning har birini 12500 soʻm bahoda, qolgan 200 donaning esa har birini 25000 soʻm narxda sotishi mumkin boʻladi.

1. Iyul oxiriga boʻlgan TMZ qoldiqdari balansida qanday summa boʻyicha hisobga olinadi?

2. Ushbu muomalalar boʻyicha yaroqsiz holga kelgan birliklarning sotilishining moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotga taʼsirini aniqlang.

Birinchi savolning javobi: TMZ birligining tannarxi:

$45000000 \text{ soʻm} + 3000000 \text{ soʻm} = 48000000 \text{ soʻm} / 3000 = 16000 \text{ soʻmni}$
tashkil qiladi.

Sof sotish qiymati:

- yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar uchun 12500 soʻm shikastlanmagan mahsulotlarning birligi uchun 25000 soʻm

- Balansda TMZ tannarxi va sof sotish qiymatidan eng kichik qiymat boʻyicha aks ettiriladi:

Yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar $50 \times 12500 = 625000 \text{ soʻm}$

Shikastlanmagan mahsulotlar $300 \times 16000 = 4\,800\,000 \text{ soʻm}$

Jami TMZ qoldiqlari 5425000 soʻm

Ikkinchi savolning javobi:

Sotishdan olingan sof tushum $(2650 \times 25000 \text{ soʻm}) = 66250000 \text{ s}$

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi $(2650 \times 16000 \text{ soʻm}) = 42400000 \text{ s}$

Sof sotish qiymati $(50 \times 12500 \text{ soʻm}) = 625000 \text{ soʻm}$

Tannarx $(50 \times 16000 \text{ soʻm}) = 800000 \text{ soʻm}$

Yaroqsiz holga kelgan mahsulotlardan koʻrilgan zarar (175000 soʻm)

Sotuvdan kelgan yalpi foyda $66250000 - 42400000 - 175000 = 23675000 \text{ soʻm}$

4-sonli BHMSning 45-bandiga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralar odatda "moddalar boʻyicha usul" asosida sotishning sof qiymatiga qadar arzonlashtiriladi.

Bunda bir turdagi yoki o‘zaro bog‘langan tovar-moddiy zaxiralarni guruhlash mumkin bo‘ladi, ya’ni:

- bir xil assortimentga taalluqli bo‘lgan zaxiralar;
- bir xil maqsadga mo‘ljallangan yoki bir xil pirovard ishlatish ega bo‘lgan zaxiralar;
- bir geografik hududda ishlab chiqariladigan yoki ushbu hudud bozorida talab qilinadigan zaxira-lar;

ushbu assortimentda boshqa zaxiralardan alohida baholanishi mumkin bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralar.

Tovar-moddiy zaxiralarni tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki muayyan tarmoqdagi yoxud birgina geografik zonadagi tovar-moddiy zaxiralarga bo‘lib tasniflashga asoslanib arzonlashtirish huquqiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Tovar-moddiy zaxiralarni extimolli sof sotish qiymatiga arzonlashtirish usullarini 2-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti "Tovar-moddiy zaxiralar" ham xuddi yuqorida keltirilganidek tavsiflaydi: Zaxiralar odatda ehtimolli sof sotish qiymatigacha har bir zaxira moddasi asosida hisobdan chiqariladi. Biroq, ayrim sharoitlarda bir-biriga o‘xshash va o‘zaro bir-biriga bog‘liq moddalarni guruhlashtirish juda qulay bo‘lishi mumkin. Bunday holat, bir xil mahsulot assortimentiga tegishli zaxiralar, bir xil maqsadga mo‘ljallangan yoki oxirgi ishlatilishi bir xil bo‘lgan, bir geografik hududda ishlab chiqarilgan va sotiladigan hamda ushbu assortimentning boshqa moddalaridan alohida baholash imkoniyati deyarli bo‘lmagan zaxiralar bilan amalga oshirilishi mumkin. Zaxiralarni namuna sifatida tayyor mahsulotlar, yoki muayyan tarmoqdagi yoxud geografik segmentdagi barcha zaxiralar sifatida guruhlab hisobdan chiqarish maqsad muvofiq emasdir. Xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlari odatda xarajatlarni, har biri bo‘yicha alohida sotish bahosiga ega bo‘lgan alohida xizmatlar bo‘yicha jamg‘arib (akkumulyatsiya qilib) boradi. Shunday qilib, har bir bunday xizmat alohida modda sifatida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni sof sotish qiymatiga baholash zaxiralarning umumiy hajmi usuli bo'yicha amalga oshirish holatlari ham uchrab turadi.

Shunday qilib, har bir modda bo'yicha usulida tovar-moddiy zaxiralarning sof sotish qiymati zaxiralarning har bir nomi (navi, markasi, turi va shu kabilar) bo'yicha tannarxi va bozor bahosini solishtirish (taqqoslash) yo'li orqali aniqlanadi;

asosiy tovar guruhlari bo'yicha usulida tovar-moddiy zaxiralar sof sotish qiymatini tovarlarning xar bir kategoriyasi (guruhlari) bo'yicha umumiy tannarxi va umumiy bozor bahosini solishtirish natijasida aniqlash ko'zda tutiladi;

zaxiralarning umumiy hajmi usuli qo'llanilganda esa barcha zaxiralarning umumiy tannarxi ularning umumiy bozor bahosi bilan solishtiriladi va baholash sifatida ushbu miqdorlardan eng kichigi tanlab olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralar sof sotish qiymatini baholashning yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullarining mohiyatini quyida keltirilgan misol ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Misol. «Afrosiyooob» kompaniyasi personal kompyuterlar sotish bilan shug'ullanadi. Quyida personal portativ kompyuterlar zaxiralari (TMZ)ning nomlari bo'yicha 2019 yil 31 dekabr holatidagi ma'lumot keltirilgan.

Tovarlar zaxirasi o'n ikkita portativ kompyuterlardan iborat bo'lib, ular uch guruhga bo'lingan. ASYeR guruhidagi kompyuterlarni sotish ancha qiyinlashdi, chunki yangi texnologiyalar bo'yicha ushbu kompyuterlar ma'naviy jihatdan eskirgan hisoblanadi. Quyida keltirilgan tannarx va sof sotish qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarga esosan quyidagi usullar bo'yicha buxgalteriya balansida aks ettirilishi lozim bo'lgan TMZ qoldig'i summasini aniqlaymiz:

- a) har bir modda bo'yicha usuli;
- b) asosiy tovar guruhlari usuli;
- v) zaxiralarning umumiy hajmi usuli.

Har bir modda bo'yicha usul

T/r	Komputerlarning nomi (modeli)	Brendi (guruhi)	Tannarxi, ming so'mda	Sof sotish qiymati, ming so'mda	Tannarxi yoki SSQ eng past, ming so'm
	Aspire-4315	ACER	4250	4250	4250
	Aspire-4320	ACER	4500	4250	4250
	Aspire-4715Z	ACER	4375	4250	4250
	Extensa EX5620	ACER	8000	4250	4250
	Jami:		21125	17000	17000
	Compaq Presario C738 TU	Hewlett Packard	8375	8250	8250
	Compaq Presario C751 NR	Hewlett Packard	4875	8250	4875
	Compaq Presario V6700	Hewlett Packard	4750	8250	4750
	Jami:		18000	24750	17875
	Satellite A100	Toshiba	4500	8500	4500
	Satellite L40-13G	Toshiba	4750	8500	4750
	Tecra A8-103	Toshiba	4625	8500	4625
	Tecra A8-185	Toshiba	4875	8500	4875
	Portege R 500-10J	Toshiba	8000	8500	8000
	Jami		26750	42500	26750
	Hammasi		65875	84250	61625

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ushbu usulda tovar-moddiy zaxiralarning har moddasi tannarxi va sof sotish qiymati solishtiriladi (taqqoslanadi) va ushbu ikki qiymatdan eng past har bir modda bo'yicha moliyaviy hisobotga kiritiladi. 2-misol ma'lumotlari bo'yicha ushbu usulni qo'llaganimizda,

31.12.2019 yil holatiga moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan portativ kompyuterlarning qiymati 19 625 (61625) ming soʻmga teng ekanligini aniqlaymiz, yaʼni u yuqorida keltirilgan jadvalning "6" ustunining barcha satrlaridagi maʼlumotlarni jamlash orqali aniqlanadi.

Asosiy tovar guruhlari usuli

Ushbu usulda, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi yoki sof sotish qiymatidan eng past, TMZlarning har bir kategoriyasi yoxud guruhi boʻyicha umumiy summadan kelib chiqib aniqlanishi koʻzda tutiladi. 2-misol maʼlumotlari boʻyicha ushbu usulni qoʻllaganimizda, 31.12.2019 yil holatiga moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan portativ kompyuterlarning qiymati 61750 ming soʻmga teng ekanligini aniqlaymiz. Ushbu summa «ASYER», « Hewlett Packard» i «Toshiba» guruxlari boʻyicha, mos ravishda tannarx va sof sotish qiymatidan eng past summalarini jamlash orqali aniqlangan, yaʼni «ASYeR» guruhi boʻyicha 17000 ming soʻm, «Hewlett Packard» guruhi boʻyicha 18000 ming soʻm va «Toshiba» guruhi boʻyicha 26750 ming soʻm yigʻindisi hisoblanadi.

Zaxiralar umumiy hajmi usuli

Ushbu usulda, yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi yoki sof sotish qiymatidan eng past zaxiralar tannarxining umumiy summasi va sof sotish qiymatining umumiy summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. 2-misol maʼlumotlari boʻyicha shuni aniqlash mumkinki, portativ kompyuterlarning umumiy tannarxi 20 875 (65875) ming soʻmga, ularning umumiy sof sotish qiymati esa 24 250 (84250) ming soʻmga teng. Tegishli ravishda ulardan eng past boʻlib tovarlarning umumiy tannarxi (65875 ming soʻm) hisoblanadi va ushbu summa «Texnokompriteyl» kompaniyasi buxgalteriya balansida aks ettiriladi.

2-misol boʻyicha olingan natijalardan koʻrinib turibdiki, tovar-moddiy zaxiralarni tannarxi yoki sof sotish qiymatidan eng past boʻyicha baholashning turli usullari qoʻllanilganda, moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da "Tovar-moddiy zaxiralar (Tovarlar)" satri boʻyicha qoʻllaniladigan usulga qarab

quyidagi summalar aks ettiriladi: har bir modda bo'yicha baholash - 61625 ming so'm, asosiy tovar guruhlari usuli bo'yicha - 61750 ming so'm, zaxiralarning umumiy hajmi usuli bo'yicha - 65875 ming so'm.

Shuning bilan birga, «Texnokompriteyl» kompaniyasining buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralarni tannarxi yoki sof sotish qiymatidan eng past bo'yicha baholash natijalari qo'llanilayotgan usulga qarab quyidagi tartibda aks ettiriladi:

a) har bir modda bo'yicha baholash usuli qo'llanilganda:

debit 9490 «Boshqa operatsion xarajatlar» scheti 4 250 ming so'm;

kredit 2910 «Ombordagitovarlar» scheti 4 250 ming so'm

(65875 ming so'm - 61625 ming so'm = 4 250 ming so'm);

b) asosiy tovar guruhlari usuli qo'llanilganda:

debit 9490 «Boshqa operatsion xarajatlar» scheti 4 125 ming so'm;

kredit 2910 «Ombordagitovarlar» scheti 4 125 ming so'm

(65875 ming so'm - 61750 ming so'm = 4 125 ming so'm);

v) zaxiralar umumiy hajmi usuli qo'llanilganda:

buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi, chunki barcha tovar-moddiy zaxiralar schetlarda o'z tarixiy qiymati, ya'ni tannarxi bo'yicha hisobda turaveradi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom-ashyo va boshqa materiallar o'z tannarxidan past summaga arzonlashtirilmaydi, agar ulardan tayyorlangan mahsulot joriy qiymati bo'yicha sotiladigan bo'lsa. Biroq, agar tayyor mahsulotning narxi materiallar bahosining tushishi natijasida pasayadigan bo'lsa, ya'ni ushbu materiallardan tayyorlangan tayyor mahsulot tannarxi ushbu tayyor mahsulotning sof sotish bahosidan yuqori bo'ladigan bo'lsa, bunday hollarda materiallarning qiymatini ham pasaytirish lozim. Sof sotish qiymatining eng haqqoniy bahosi bo'lib, xuddi shunga o'xshash materiallarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar summasi asos bo'lishi mumkin.

3 - misol. "Milliy shirinliklar" ishlab chiqarish korxonasi "Parvarda" nomli qandolatchilik mahsulotining bir turini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va ushbu mahsulot ishlab chiqarilishi birgina ishlab chiqarish sexida amalga

oshiriladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxida asosiy material xarajatlari, ya'ni shakar katta ulushga ega. 2019 yil dekabr mobaynida shakarning sotib olish qiymati 1 kg uchun 4800 so'mni, "Parvarda" tayyor mahsulotining sotish bahosi esa 1 kg uchun 6875 so'mni tashkil etgan va shuning bilan birga ushbu mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 1 kg uchun 5600 so'mni tashkil etgan. 2019 yil 31 dekabr holatiga korxonaning tovar-moddiy zaxiralarida quyidagi qoldiqlar mavjud edi: shakar - 450 kg, har 1 kg bahosi 4800 so'm; "Parvarda" tayyor mahsuloti - 280 kg, har 1 kg tannarxi 5600 so'm.

Faraz qilaylik, 2019 yil 31 dekabr holatiga shakar va "Parvarda" tayyor mahsulotiga tegishli bo'lgan quyidagi ma'lumot mavjud:

1-variant: shakarning o'rtacha tortilgan bahosi (xarid qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olingan holda) - har 1 kg uchun 3185 so'm, tayyor mahsulotning ehtimolli sof sotish qiymati -har 1 kg uchun 6850

so'm;

2-variant: shakarning o'rtacha tortilgan bahosi (xarid qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olingan holda)- har 1 kg uchun 3185 so'm, tayyor mahsulotning ehtimolli sof sotish qiymati-har 1 kg uchun 5300 so'm;

Birinchi variantda ko'rinib turibdiki, shakarning tannarxi (1 kg uchun 4800) uning sof sotish qiymatidan (xarid qilish tannarxi) (1 kg uchun 3185) har 1 kg uchun 1615 so'mga yuqori bo'lgan. Biroq, bunda ushbu xom-ashyodan ishlab chiqariladigan mahsulotning tannarxi (1 kg uchun 5600so'm) ushbu mahsulot sof sotish qiymatidan (1 kg uchun 6850so'm) 1250 so'mga past. Tegishli ravishda "Holva" ishlab chiqarish korxonasi shakar qiymatini arzonlashtirmaydi, ya'ni pasaytirmaydi, chunki undan ishlab chiqarilgan mahsulot o'z joriy qiymati bo'yicha sotiladi.

Ikkinchi variantda ko'rinib turibdiki, shakarning tannarxi (1 kg uchun 4800 so'm) uning sof sotish qiymati (xarid qilish tannarxi)dan (1 kg uchun 5300 so'm) har 1 kg uchun 500 so'mga yuqori. Shuning bilan birga, ushbu xom ashyodan ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi (1 kg uchun 5600 so'm) uning sof sotish qiymatidan (1 kg uchun 5300 so'm) har 1 kg uchun 300 so'mga ham

yuqori. Albatta ushbu holatda, "Holva" ishlab chiqarish korxonasi shakarni uning sof sotish qiymatigacha (1 kg uchun 5300 soʻmgacha) arzonlashtirishni amalga oshiradi, yaʼni tovar-moddiy zaxiralarni sof sotish qiymatigacha arzonlashtirishdan koʻrilgan zararga 135000 soʻm (450 kg x 300 soʻm) olib boriladi va bu buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debit 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti 135000 soʻm;

kredit 1010 "Xom-ashyo va materiallar"-"Shakar" analitikschyoti

135000soʻm.

Tovar-moddiy zaxiralarning sof sotish summasidan ushbu tovar-moddiy zaxiralar tannarxining oshishi summasi, yaʼni qayta baholash natijasida tovar-moddiy zaxiralarning arzonlashgan summasi qaysi hisobot davrida vujudga kelgan boʻlsa, ushbu hisobot davrida xarajatlarga olib boriladi.

Har bir kelgusi davrda sof sotish qiymatining qayta baholanishi oʻtkazilishi mumkin. Iqtisodiy konʼyunkturaning oʻzgarishi natijasida, oldingi hisobot davrida qiymati pasaytirilgan korxonaning mulkiy tarkibida boʻlgan tovar-moddiy zaxiralarning sof sotish qiymati oshgan holatda, oldingi hisobdan chiqarilgan summa qayta tiklanadi (qayta tiklash faqatgina oldin hisobda chiqarilgan summa doirasida amalga oshiriladi) va buning natijasida, yuqorida taʼkidlab oʻtilgan BHMSning 51-bandida koʻzda tutilgan tartibdagidek, tovar-moddiy zaxiralarning yangi balans qiymati ikkita miqdor - tannarx yoki qayta koʻrib chiqilgan sof sotish qiymatidan eng past boʻyicha qiymatga keltiriladi.

4-misol. Tovar-moddiy zaxiralarni sof sotish qiymati boʻyicha baholash va uning keyingi oʻzgarishi. "Sanamxon" xususiy korxonasi oʻz tijorat faoliyatini hisobot yilida uning mulkdorlari tomonidan 5 000 000 soʻm hajmda kiritilgan kapital bilan boshladi. Korxonada 2 000 000 soʻmga 1 000 dona tovar-moddiy zaxiralarni (erkaklar kuylagi) xarid qildi, fraxt (tovarlarni yetkazib keltirish) bilan bogʻliq xarajatlar 200 000 soʻmni tashkil etdi. Yil davomida "Sanamxon" xususiy korxonasi 700 birlik tovarni har bir birlik uchun 256000 soʻmdan sotdi. Yil oxirida xususiy korxonada TMZ (erkaklar koʻylagi)ning 300 birlik qoldigʻi mavjud boʻlib, bulardan 80 birligi shikastlangan edi. Shikastlangan tovar birliklarini har

birini 56000 soʻmdan sotish mumkin, qolgan 220 birligining sotish bahosi esa 256000 soʻmni tashkil etgan.

Talab etiladi: Yil oxirida buxgalteriya balansida TMZ (erkaklar koʻylagi)ning qoldigʻi qaysi summada aks ettirilishini hisoblang. Shikastlangan birliklar sotilishini ushbu operatsiyalar boʻyicha moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotga taʼsirini aniqlang.

Birinchi talab buyicha yechim:

TMZ birliklari tannarxi:

$$2\,000\,000 + 200\,000 = 2\,200\,000 / 1\,000 = 2\,200 \text{ soʻm}$$

$$150\,000\,000 + 10\,000\,000 = 160\,000\,000 / 1\,000 = 160\,000 \text{ soʻm}$$

Sof sotish qiymati:

shikastlangan mahsulotlar – 56000 soʻm har bir birlik uchun,

shikastlanmagan mahsulotlar – 256000 soʻm har bir birlik uchun.

TMZ buxgalteriya balansida tannarx yoki sof sotish qiymatidan eng past qiymati boʻyicha aks ettiriladi:

shikastlangan mahsulotlar $80 \times 56000 = 4480000 \text{ soʻm}$

shikastlanmagan mahsulotlar $220 \times 256000 = 56320000 \text{ soʻm}$

Jami TMZ qoldigʻi $737\,500 \text{ soʻm}$

Ikkinchi talab buyicha yechim:

Realizatsiyadan olingan daromad $700 \times 256000 = 179200000 \text{ soʻm}$

Sotilgan mahsulot tannarxi $700 \times 160000 = 112000000$

Sof sotish qiymati $80 \times 56000 = 4480000$

Tannarxi $80 \times 160000 = 12800000$

Shikastlangan mahsulotdan koʻrilgan zarar 8320000

Sotishdan olingan yalpi foyda $(2\,625\,000 - 1\,650\,000 - 72\,500) = 902\,500$

$(179200000 - 112000000 - 8320000) = 58\,880\,000$

4-misol davomi. Yuqorida keltirilgan misolning quyidagi shartlar bilan aks ettirilishini koʻrib chiqamiz: TMZlarning sof sotish qiymati keyinchalik 2 00000 soʻmgacha oshib ketdi.

Sof sotish qiymati $2\,00000 \text{ soʻm}$

Tannarxi 160000 so‘m

Tannarx yoki sof sotish qiymatidan eng past bo‘yicha baholashdan kelib chiqib, TZM yangi balans bahosi 160000 so‘mga teng.

Realizatsiyadan olingan daromad $700 \times 256000 = 179200000$ so‘m

Sotilgan mahsulotlar tannarxi $700 \times 160000 = 112000000$

Ilgari xarajat sifatida tan olingan sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish natijasi:

Tannarx yoki sof sotish qiymatidan eng past qiymati

$80 \times 160000 = 12800000$

Qayta baholashgacha bo‘lgan balans qiymati $80 \times 56000 = 4480000$

Qayta baholash natijasi $(72\ 500) 8320000$

Realizatsiyadan olingan yalpi foyda $(179200000 - 112000000 + 8320000) = 75520000$

TMZni hisobga olishning davriy usuli.

Joriy hisobga olish tizimini ko‘llashda yil davomida TMZning har birining batafsil hisobi yuritilmaydi. Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy mavjudligi inventarizatsiyasi natijalari bo‘yicha aniqlanadi. Sotilgan TMZning tannarxini inventarizatsiya yakunlanmaguncha aniqlab bo‘lmaydi, chunki sotilgan TMZ tannarxini hisoblash quyidagi formula bilan topiladi:

$TM_q + TM_k - qTM_t + TM_{k1} - QTM_r$, bunda

TM_q - hisobot davri boshiga bo‘lgan TMZ qoldig‘i

TM_k - kelib tushgan TMZ

TM_t — sotishga tayyor TMZ tannarxi

TM_{k1} - hisobot davri oxiriga bo‘lgan TMZ tannarxi

TM_r - sotilgan TMZ tannarxi

Joriy hisobga olish tizimini qo‘llaganda, tovar-moddiy zaxiralarning balans schyotlaridagi qoldig‘i inventarizatsiya yakunlanmaguncha boshlang‘ich darajada qoladi. Hisobot davrining oxirida TMZ qoldiqdarining inventarizatsiyasi natijalari

bo'yicha TMZni hisobga olish balans schyotlarining debetlanishi yoki kreditlanishi, bilan o'zaro aloqoda tuzatuvchi yozuvlar amalga oshiriladi.

Sotilgan TMZning tannarxi sotilish bo'yicha «Sotilgan mahsulot (tovar)ning tannarxi» schyotida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida uzluksiz va davriy tizimlarning asosiy farqi shuki, uzluksiz hisob tizimiga muvofiq «Tovarlar» schyotida doimo yangi xaridlar, sotuvlar va tovarlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa muomalalar aks ettiriladi. Zaxiralarning davriy hisob tizimi yuritilganda ushbu schyot tamoyil bo'yicha ma'lumotlar hisobot davrining oxirida mavjud tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiyasi o'tkazilmaguncha, boshlang'ich holida qoladi. Natijada davriy hisob tizimi sharoitida ishlatiladigan «Tovarlarning xaridi», «Sotib olingan tovarlarning qaytarib berilishi va narxining pasaytirilishi», «Xaridorlardan chegirmalar» va «Tovarlarni sotib olish bo'yicha transport xarajatlari» kabi schyotlar zaxiralarni uzluksiz hisobga olish tizimi sharoitida ishlatilmaydi.

Bahoning bu turlari ma'lum vaziyatlardagina ko'llaniladi. Bundan tashqari, tayyor mahsulotni baholashning xorijda qo'llaniladigan ko'pgina turlari ham mavjud. Ana shu usullardan bizning tizimimizga mos turlarini ko'llash maqsadga muvofiqdir.

Tayyor mahsulot - Korxonaning texnik sharoit va belgilariga javob beruvchi tulik ishlab chiqarish natijasidagi mahsulot. Tayyor mahsulot texnik nazoratdan utkazilib, belgilangan xujjatlar tuldirilib keyin omborga beriladi.

17.3. Tayyor mahsulot (tovar)larning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi.

Buxalteriya hisobida tayyor mahsulot va tovarlarning sintetik hisobi quyidagi hisobvaraqlarda yuritiladi:

2800 – “Tayyor mahsulotlarning hisobvaraqlari”:

2810 – “Ombordagi tayyor mahsulot”;

2820 – “Ko'rgazmadagi tayyor mahsulot”;

2830 – “Komissiyaga topshirilgan tayyor mahsulot”.

2900 – “Tovarlarning hisobvaraqlari”:

2920 – “Chakana savdodagi tovarlar”;

2930 – “Ko‘rgazmadagi tovarlar”;

2940 – “Ijara buyumlari”;

2950 – “Tovar osti idishlar va bo‘sh idishlar”;

2960 – “Komissiyaga topshirilgan tovarlar”;

2970 – “Yo‘ldagi tovarlar”;

2980 – “Savdo ustamasi”;

2990 – “Boshqa tovarlar”.

Omborga tayyor mahsulotlar quyidagi manbalardan kelib tushishi mumkin:

- oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha xarid qilishdan;
- muassislardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;
- muassislar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-

mulki uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanayotganda ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan tashkilotning ta‘sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;

- tekinga kelib tushishi (hadya shartnomasi bo‘yicha);
- inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqishi;
- tashkilotning o‘zida ishlab chiqarilishi.

Korxonada tomonidan tayyor mahsulot hamda tovarlarning harakati va uning hisobini to‘g‘ri tashkil qilish xar bir ishlab chiqiladigan mahsulot va tovarlar turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkaziladi va mahsulotlar nomenklaturasidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Nomenklaturani tuzish asosida tayyor mahsulotni turkumlash, ya‘ni ushbu korxonada ishlab chiqariladigan bir mahsulot turini boshqa mahsulotdan ajratib turuvchi ma‘lum belgilari asosida farqlarga ajratilib, xar bir mahsulotga maxsus kodlar birlashtiriladi.

Nomyenklatura - lotincha (Nomenclatura) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, nomlarning ro‘yxati(perecheni). Misol: Biron bir sohada qo‘llaniladigan nomlarning ro‘yxati, terminlarning tizimi, kategoriyalar tushuniladi.

Nomenklatura ruyxatini tuzishda asos kilib quyidagi belgilar olinadi:

- model, fason, artikul, marka va xokazo.

Har bir mahsulot turiga nomenklatura raqami birlashtiriladi va u har xil sonlardan iborat bo'ladi. Mahsulot nomenklaturasidan (ro'yxatdan) korxonaning quyidagi xizmatlarida foydalaniladi:

- dispetcherlik xizmat turi mahsulot ishlab chiqarish grafigining bajarilishini nazorat qiladi
- sexlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni assortimentlarga ajratishga, omborga tayyor mahsulotni topshirishda, yuk xatlarini yozish uchun foydalaniladi;
- korxonaning marketing bo'limi, mahsulotni realizatsiya (jo'natish) bo'limi shartnomalarini bajarish imkoniyatlarini nazorat qilish uchun;
- buxgalteriya - tayyor mahsulotning analitik hisobini yuritishda umumiy ma'lumotlar va hisobotlar tuzish uchun foydalaniladi.

Tovarlar nomenklaturasi bo'yicha to'g'ri klassifikatsiyalanishida birinchi darajali identifikatsiyalanadigan tovarlar ro'yxati

	TIF TN kodi	Tovar nomi
1	0902	Choy
2	1507 (1507101000, 1507901000dan tashqari)	Soya moyi va uning fraksiyalari (tozalangan yoki tozalanmagan, lekin kimyoviy tarkibi o'zgartirilmagan).
3	0405	Sariyog' va sutdan olingan boshqa moylar va yog'lar
4	040610200, 0406108000, 0406209000 - 0406309000, 0406409000 - 0406900109, 040690990	Pishloqlar va tvorog
5	220300, 2204101100, 2204309800, 2205101000, 2205109000,	Alkogolli ichimliklar. Etil spirti va boshqa spirtli ichimliklar.

O'zbekiston Respublikasida tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o'tkazish tartibini takomillashtirish va amaldagi qonunchilik normalarini bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida quyidagi nizom ishlab chiqilgan. O'zbekiston

Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasining 2010 yil 19 iyuldagi EG-01/10-4014, 60, 01-02/8-10 son qarori bilan «Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi» NIZOM tasdiqlangan.

Tayyor mahsulotlar, tovarlarning assortiment va ularni shtrix kodlash tartibi.

Assortiment – bu bir hil tarkibli mahsulotlarning turlari, navlari va markalari bo‘yicha tugkumlanishi. Assortiment 3 ta turlarga, xizmatlar assortimenti, mahsulot assortimenti va savdo assortimentlariga ajratiladi:

- **xizmatlar assortimenti** - iste‘molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar to‘plami. Tafsilotlar darajasiga ko‘ra, xizmatlar doirasi uchta asosiy turga bo‘linadi: guruhlar, tashqi ko‘rinish va ichki spesifikasiyasi bo‘yicha.

- **mahsulot assortimenti** – mahsulotlar va buyumlarning ayrim turlari bo‘yicha ularning sifati va navlar (sort)ini hisobga olgan holda sanoat, korxonalar, tovarlar guruhidagi bo‘linishiga nisbati aytiladi.

- **tovarlar assortimenti** - ularning faoliyat doirasi (qo‘llanilishi) o‘xshashligi sababli yoki bitta narx oralig‘ida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tovarlar guruhiga nisbati aytiladi.

Bugungi kunda do‘kon va bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning aksariyati: oddiy bolalar o‘yinchoqlaridan tortib, buyurtmaga tayyorlanadigan qimmatbaho samolyot detallarigacha maxsus shtrix-kodlar bilan belgilanadi. Shtrix kodlar ham ichki, ham xalqaro bozorlarga chiqarilayotgan mahsulotlar uchun, mazkur mahsulot haqida birlamchi ma‘lumotlar taqdim etadigan axborot manbai sanaladi. Mahsulotga shtrix kodlarni biriktirish, bu tovarlarga indentifikatsion raqam bilan belgilash tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi shtrixli kodlash tizimi EAN xalqaro tovar raqamlash tizimi doirasida ishlab chiqilgan va faoliyat yuritadi, milliy va xalqaro kodlash tizimining mos kelishini hamda axborot almashish uchun yagona tilni ta‘minlaydi. EAN shtrixli kodlaridan foydalanish ustidan nazorat GS1 O‘ZBEKISTON (EAN UZBEKISTAN) assotsiatsiyasi va «O‘zstandart» agentligi «Shtrixli kodlash markazi» DUK tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

Korxonalarda tayyor mahsulot hisobi vazifalarini aniq tashkil qilish maqsadida ular omborda va buxgalteriyada hisobga olib boriladi.

Pirovard, iste'molga yaroqli bo'lgan mahsulot texnik nazorat bo'limi tomonidan tekshirilib, tovarga shtrix kodlar yopishtirilgandan so'ng omborga topshiriladi. Tayyor mahsulotni omborga qabul qilishda topshirish yuk xati yoki mahsulot topshirish qaydnomasida rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlarda topshiruvchi sex, topshirilish muddati, mahsulotning nomenklatura raqami, uning soni, reja tannarxi va tegishli moddiy javobgar shaxslarning imzosi ko'rsatiladi. Qabul hujjatlari asosida buxgalteriya mahsulot topshirish qaydnomasini yuritadi. Bajarilgan ish yoki xizmatlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Omborlarda mahsulot harakatining miqdor ko'rsatkichlaridagi hisobi varaklarda yuritiladi. Varaqaga har bir kirim va chiqim hujjatlari asosida mahsulot harakati bilan bog'liq operatsiyalar yozib boriladi.

Tayyor mahsulotning ombordagi hisobi operativ buxgalteriya usulida tashkil qilinadi, ya'ni har bir buyum nomenklatura raqamiga ombor materiallari hisobi kartochkasi ochiladi (№ M-17-shakl). Yoki M-17-shakl - Materiallarning ombor hisobi daftari yutiladi.

Materallarning ombor hisobi

DAFTARI

M-17-shakl

" " y.

_____ y.
Tashkilot

(markazlashgan buxgalteriya)

Moddiy javobgar shaxs _____

2-. betlar

Ombor	Stellaj	Yacheyka	O'lchov birligi	narxi	belgisi	navi	turi	o'lchami	Zaxira me'yori
			nomi						

Materiallar nomi

Yozuv sanasi	Hujjatning raqami va sanasi	Yozuvning tartib raqami	Kimdan qabul qilindi va kimga berildi	Kirim	Xarajat	Nazorat (imzo va sana)

Oxirgi bet

Tekshirish sanasi	Taklif va e'tirozlar	Tekshiruvchining lavozimi va imzosi

Ushbu kitob nomerlandi _____ bet.
(soʻz bilan)

Bosh hisobchi _____
(imzo) (F.I.O.)

"__" _____ 200__ y.

Tayyor mahsulotning kelib tushishi va chetga berilishi bilanoq ombor xodimi hujjatlar asosida ularning sonini kartochkalarga yoki Materiallarning ombor hisobi daftariga yozib koʻyadi va har bir yozuvdan keyin qoldiq hisoblab qoʻyiladi. Buxgalter har kuni tugagan sutka uchun ombordan hujjatlarni qabul qilib olishi kerak (qabul qilish-topshirish nakladnoyi, buyruq-nakladnoy, tovar-transport nakladnoyi).

Ombor hisobining toʻgʻri yuritilganligi ombor hisobi kartochkasi yoki materiallarning ombor hisobi daftariga buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi. Moddiy javobgar shaxs ombor hisobi kartochkalari asosida har oyda tayyor mahsulot nomenklaturasi, oʻlchov birligi soniga tayangan holda tayyor mahsulotning qoldiq hisobi vedomostini toʻldiradi. Bu yerda hisob baholari boʻyicha qoldiqlar taksirovka qilinadi va buxgalteriya hisobi maʼlumotlari bilan solishtiriladi.

Mahsulot kirimi va chiqimi bilan bogʻliq operatsiyalar rasmiylashtirilgan dastlabki hujjatlar ombor varaqalariga yozilganidan keyin buxgalteriyaga topshiriladi. Bu yerda hujjatlar tekshiriladi, guruhlanadi va ular asosida tegishli

hisob registrlari tuziladi. Tayyor mahsulot harakatining pul shaklida ifodalangan hisobi buxgalteriyada yuritiladi. Bu hisob ombor hisobi ma'lumotlari asosida yuritiladi.

Misol. Donni qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlari ombori hisobini yuritish tartibini ko'rib chiqamiz.

Moddiy javobgar shaxslar - don va don mahsulotlarining miqdor va sifat jihatidan saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar: elevatorlar va mexanizatsiyalashtirilgan don saqlash omborlarining katta masterlari (ishlab chiqarish uchastkalari boshliqlari), ishlab chiqarish uchastkalari masterlari, ombor mudirlari, yiroqdagi punktlarning omborlarga bevosita mutasaddilik qiluvchi mudirlari, makkajo'xori urug'ligiga ishlov beruvchi makkajo'xori donini kalibrlovchi sexlar boshliqlari, omixta yem komplekslarining ishlab chiqarish boshliqlari, omborlarga mutasaddilik qiluvchi urug'lik tozalovchi korxonalar (sexlar) boshliqlari.

Tegirmonlar, yorma, omixta yem va urug'lik tozalovchi korxonalarda (sexlarda) tayyor mahsulotlarning miqdor va sifat jihatidan saqlanishi uchun, ular omborlarga berilguncha, korxonalarining ishlab chiqarish sexlari boshliqlari javob beradilar.

Ishlov berish uchun omborlardan don berish ishlab chiqarish-texnologiya laboratoriyasi (IChTL) xulosasiga muvofiq belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, rahbar tomonidan imzolangan farmoyish (109-shakl) asosida amalga oshiriladi.

Farmoyishda qaysi omborlardan, siloslardan yoki boshqa saqlash joylardan ishlov berish uchun don ajratilishi, uning og'irligi va sifati ko'rsatiladi, farmoyish to'rt nusxada yoziladi:

- birinchi nusxasi IChTLda qoladi,
- ikkinchi nusxasi donni berayotgan tegishli moddiy javobgar shaxsga,
- uchinchi nusxasi ishlab chiqarish sexi boshlig'iga
- to'rtinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi.

Omixta yem ishlab chiqarish uchun xom ashyo berish belgilangan tartibda talabnomalar-yuk xatlari (119-shakl) bilan rasmiylashtiriladi, ularda retseptlarning

tartib raqami va belgilangan retseptura bo'yicha omixta yem ishlab chiqarish uchun talab etiladigan xom ashyo miqdori ko'rsatiladi.

110-shakl bo'yicha (yoki 119-shakl bo'yicha talabnoma-yuk xati) asosida berilgan don (xom ashyo) va laboratoriya tekshirishlari ma'lumotlari bo'yicha qayta ishlash uchun berilgan don ombordan chiqim qilinadi va ishlab chiqarish sexi tomonidan kirim qilinadi.

Korxonalar rahbari tomonidan belgilangan donni berayotgan mas'ul shaxslar, ishlab chiqarish korpusi boshlig'i va uning yordamchilari tarozi priborlari soz ishlashini va ishlab chiqarishga berilayotgan tarozida to'g'ri tortilishini tekshirish natijalarini tarozi jurnaliga kiritgan holda muntazam ravishda tekshirib turishlari shart.

Ishlab chiqarilgan mahsulot korxonalarda hisoblagichning ko'rsatkichlari bo'yicha hisobga olinadi, chiqindilar esa bevosita smena masteri yoki qoplash bo'limi mudirining bevosita kuzatuvida tarozida tortiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot hisobi jurnalda (116-shakl) smena masteri tomonidan yuritiladi, sanitariya holati to'g'risidagi belgini smena laboranti qo'yadi.

Jurnalda, shuningdek idishsiz saqlash omboriga, qadoqlash sexiga berilgan mahsulot, qoplangan qoplar soni ham yuritiladi. Mahsulotni ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot omboriga berish yuk xati (112-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Yuk xatlari har bir smena tamom bo'lgandan keyin to'ldiriladi va qoplash bo'lim mudiri tomonidan imzolanadi, u bo'lmagan joylarda esa - sex boshlig'i yoki smena masteri va ombor mudiri tomonidan imzolanadi.

Yuk xatining bir nusxasi mahsulotni ishlab chiqarish schyotidan chiqarish uchun boshqa nusxasi esa - mahsulotni omborga kirim qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Idishsiz saqlash omborlarida mahsulot hajm avtomat tarozilarda aniqlangan holda kirim qilinadi.

Ishlab chiqarish sexi boshlig'i yoki smena masterlari, laboratoriya xodimlari, shuningdek ombor mudiri yoki ularning yordamchilari tarozining to'g'ri ishlashini muntazam ravishda tekshirib turishlari zarur. Hisoblagichlar ko'rsatkichlari bilan

mahsulot omboriga berilgan amaldagi miqdor o'rtasida farq bo'lgan hollarda sabablari batafsil ko'rsatilgan holda farqlar to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Sex boshlig'i va uning smena masterlari, laborantlar, shuningdek tayyor mahsulot ombori mudiri (uning yordamchilari) har oyda (kamida ikki marta) mahsulotning belgilangan normalarga (standart og'irlikka) muvofiq joylanishi to'g'riligini tekshirishi kerak. Korxonalar rahbarlari standart og'irlik to'g'riligini har o'n kunda nazorat tartibida tekshirishni tashkil etishlari kerak. Chetga chiqish aniqlangan taqdirda ular darhol tarozi og'irligini tortib qoplash apparatlarini sozlash choralarini ko'rishlari kerak. Un, yorma solingan, standart og'irlikdan chetga chiqqan qoplar standart og'irlikka yetkazilishi kerak.

Bir sutka o'tgandan keyin tegirmonlarda ikki nusxada tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, topshirish va foydalanilgan idish to'g'risida bildirgi (113-shakl) tuziladi. Bildirishnomaning bir nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi sexda qoladi. Bir smena mahsulotini boshqa smenaga berish qoplash bo'limida qoldirishga yo'l qo'yilmaydi. Ishlab chiqilgan mahsulot bildirgida netto og'irlikda ko'rsatiladi. Ishlab chiqilgan barcha mahsulot to'laligicha omborga berilishi kerak. Mahsulotni omborni chetlab realizatsiya qilish yoki xaridorlarga berish qat'iyon taqiqlanadi. Tegirmonda o'rnatilgan tarozida aniqlangan og'irlik yoki haqiqatda sotishda aniqlangan va tegishli hujjat bilan rasmiylashtirilgan og'irlik (tarozi jurnali - 28-shakl va 29-shakl) kepak, qo'shimcha mahsulotlar, chiqindilar og'irligi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida olinadigan chiqindilar (nooziq mahsulotlar) to'planib borishi davomida og'irligi tortilib ko'riladi, korxonada hududidan tashqariga chiqariladi va korxonada rahbari tomonidan tayinlanadigan komissiya hozirligida yo'q qilinadi. Komissiya tarkibiga ombor mudiri, ishlab chiqarish-texnologiya laboratoriyasi (IChTL) va korxonada soqchilari vakillari majburiy tartibda kiritiladi.

Chiqindilarni (nooziq mahsulotlarni) yo'q qilish dalolatnomalari (23-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnomalar korxonada rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Chiqindilarni (nooziq mahsulotlarni) yo‘q qilish uchun korxonada hududidan tashqariga olib chiqish ruxsatnoma (196-shakl) bilan amalga oshiriladi.

Chiqindilarni (nooziq mahsulotlarni) tarozida tortish natijalari tarozi jurnaliga (28-shakl) kiritiladi. Agar tirkamali avtomobilda olib chiqilsa, u holda jurnalda avtomobil va tirkamaning raqami ko‘rsatiladi. Mahsulot solingan standart og‘irlikdagi qoplarning to‘g‘riligini ta‘minlash uchun korxonada rahbarlari va tegishli mas‘ul shaxslar javob beradi.

Mahsulotni qoplashda standart og‘irlikni nazorat tartibida tekshirishda, agar mahsulot solingan qoplarning og‘irlikdagi chetga chiqish og‘irlikini tortib qoplash apparatining yo‘l qo‘yiladigan nuqsoni alohida qop uchun +0,25% o‘n qopdagi mahsulotning o‘rtacha og‘irligi +0,10% bo‘lsa to‘g‘ri hisoblanadi. Standart og‘irlikni jo‘natuvchining yoki oluvchining omborlarida tekshirishda tarozilarning yo‘l qo‘yiladigan nuqsoni va namlik pasayishidan ko‘rilgan og‘irlikning kamayishi miqdori hisobga olinadi.

Namlik pasayishidagi ko‘rilgan kamomad hajmi quyidagi formula asosida hisoblab chiqilgan qopga solinayotgan paytdagisi bilan yetkazib berilayotgan vaqtdagi namlik orasidagi solishtirilgan farqdan oshmasligi lozim:

$$\frac{100 [a-b]}{a}$$
$$= 100 - X$$

Bunda: X — og‘irlik kamayishi foizi;

a — qoplashdagi namlik ko‘rsatkichi;

b — sotish yoki saqlashdagi namlik ko‘rsatkichi.

Tekshirish kamida 10 ta qopni tortib ko‘rish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qoplash bo‘limi yoki omborda standart og‘irlikni tekshirish natijalari qoplardagi mahsulot standart salmog‘ini nazorat qilish jurnaliga (150-shakl) kiritiladi. Jurnalga tekshirishda har bir qop (paket)dagi mahsulotning standart og‘irlikidan chetga chiqish yozib qo‘yiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati korxonada laboratoriyasi tomonidan aniqlanadi va topshiriladigan yuk xatlarida ko‘rsatiladi.

Agar ishlab chiqarilgan mahsulot sifati tekshirilayotgan vaqtda brak (nostandart) mahsulot aniqlansa, unda IChTL (korxonalar laboratoriyasi) bu haqda belgilangan shaklda dalolatnoma tuzadi. Dalolatnomada nostandart mahsulotning miqdori va nostandart mahsulot ishlab chiqarilishiga sabab bo'lgan alomatlar ko'rsatib o'tiladi. Nostandart mahsulot alohida taxlanadi va albatta qayta ishlanishi kerak.

Nostandart mahsulot hisobi (hujjatlar bilan rasmiylashtirish) har oyda yuritiladi.

Nostandart mahsulotga ishlov berish jurnalda (116-shakl) aks ettiriladi.

Agar smena oxirida nostandart mahsulot mavjud bo'lsa, uning miqdori u qachon va kim tomonidan keyinchalik ishlov berilishidan qat'i nazar, hisobga olinishi kerak.

Standartlar talablariga yoki sifatning vaqtinchalik normalariga javob bermaydigan mahsulot nostandart mahsulot toifasiga tegishli bo'ladi.

Agar ilgari brak qilingan mahsulot uni mayda turkumlarga bo'lib tekshirishda standart deb e'tirof etilsa, u holda brak qilish to'g'risidagi dalolatnoma bilan hujjatlar orqali tasdiqlangan bunday un yoki yorma miqdori nostandart mahsulot miqdoridan chiqarib tashlanadi. Nostandart mahsulotni qayta ishlashga berish korxonalar rahbarining farmoyishi bo'yicha amalga oshiriladi va yuk xati bilan rasmiylashtiriladi (115-shakl).

Buxgalteriya hisobida turgan nostandart mahsulot, qayerda (omborda yoki ishlab chiqarish sexida) turganligidan qat'i nazar, tugallanmagan ishlab chiqarish hisobida bo'lib, faqat mahsulotdagi nosozlik to'g'rilangandan keyin, tayyor mahsulot hisobiga qo'shiladi.

Ishlab chiqarish sexi boshlig'i jurnalda (116-shakl) nostandart mahsulotlar tashilishi hisobini olib boradi va qayta ishlashga berilgan ushbu mahsulot ikkinchi marta korxonalar ishlab chiqqan mahsulot hajmiga qo'shib ketmasligini nazorat qilib boradi.

Un tortish vaqtida uch sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda yoki o'n kun turgandan keyin birinchi smenaning to'rt soati mobaynida ishlab chiqilgan

amaldagi sifat normalariga muvofiq bo'lmagan mahsulotlar nostandart mahsulot sifatida hisobga olinmasligi va ishlab chiqarish korpusini oylik tozalashgacha qayta ishlanishi kerak.

Xom ashyo sarfi ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar normasi hisobga olingan holda bir smenada mahsulot ishlab chiqarishga muvofiq bo'lishi kerak.

Tayyor mahsulotning ombor hisobi Nizomga muvofiq yuritiladi. Un-yorma va omixta yem korxonalarining tayyor mahsulot omborlari mudirlari har kuni omborga haqiqatda tushgan mahsulot miqdorini va har bir smena uchun yuk xatlari bilan rasmiylashtirilgan chiqindilarni o'z ombor hisobotlari bo'yicha kirim qiladilar.

Korxonada buxgalteriyasi tomonidan har kuni omborga kirim qilingan mahsulot, don mahsulotlari va noozuqa chiqindilar miqdorini smena bildirishnomalarida ko'rsatilgan miqdor bilan taqqoslaydi. Farqlar aniqlangan taqdirda ularning sabablarini aniqlash va farqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish uchun korxonada rahbariga axborot beriladi.

Tayyor mahsulotlarni idishsiz (qopsiz) saqlash hamda unni va qadoqlangan mahsulotlarni berish operatsiyalarini rasmiylashtirish

Unni(tayyor mahsulot) idishsiz saqlash qurilmalari saqlash sig'imi, unni tegirmondan silosga uzatish uskunalari, shuningdek unni silosdan avto un tashuvchilarga ortish uskunalari o'z ichiga oladi. Unni (tayyor mahsulot) idishsiz saqlash ombori ishlab chiqarish sexi boshlig'i ixtiyorida bo'lgan va tortish faqat sotilayotganda amalga oshiriladigan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori jo'natishda aniqlangan miqdor asosida hisoblanadi, kamayish hisobiga hech bir hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi. Un(tayyor mahsulot)ning sifati va miqdorini aniqlash uchun namunalarda mazkur tegirmonni nazorat qilishning texnologiya sxemasida nazarda tutilgan yerlardan olinadi.

Ishlab chiqarilgan un miqdori va sifati bo'yicha unni idishsiz saqlash omborxonalariga beriladigan va moddiy javobgar shaxs tomonidan qabul qilinadigan korxonalarda idishsiz saqlovchi omborxonalar bo'yicha miqdor-sifat

hisobi yuritiladi hamda faqat mahsulot namligi pasayishi hisobiga belgilangan tartibda chiqim qilinadi.

Unni (tayyor mahsulot) idishsiz saqlash omborida belgilangan shakl bo'yicha siloslarni to'ldirish va un sarfi daftari yuritiladi. Idishsiz saqlash ombori bo'yicha kirim qismi (36-shakl) siloslarni to'ldirishni hisobga olish daftari ma'lumotlari bo'yicha, un namligi esa o'rtacha smena namunalari bo'yicha to'ldiriladi. Saqlash uzoq davom etmasligi tufayli omborlarning siloslarida idishsiz saqlashda unning tabiiy kamayish normasi belgilanmagan va shu munosabat bilan ushbu ko'rsatkich bo'yicha kamayish hisobiga hisobdan chiqarilmaydi.

Un va yorma moddiy javobgar shaxslar tomonidan qoplar soni va standart og'irlik bo'yicha qadoqlash uchun qabul qilinadi

Unni qadoqlash vaqtida og'irligi bo'yicha yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar quyidagi foizlarda, biroq undan ortiq bo'lmasligi kerak:

tortib solishda + 1%;

hajmiy solishda + 2%;

0,5 kg va 1,0 kg netto og'irlikdagi yormani qadoqlashda alohida paketlar uchun chetga chiqish + 1% dan ortiq bo'lmasligi kerak;

0,3 netto og'irlikdagi talqonni qadoqlashda netto og'irlikdan chetga chiqish + 2% dan oshmasligi shart.

Miqdor-sifat hisobi un va yormaning har bir turi va navi bo'yicha hisobga olish daftari (36-shakl) ma'lumotlari bo'yicha yuritiladi, daftarda qoplar soni, unning (yormaning) qayta ishlashda kirim bo'yicha standart og'irligi, namligi hamda qadoqlash vaqtidagi haqiqiy og'irligi, namligi chiqim bo'yicha aks ettirilmog'i lozim.

Ishlab chiqarishda un (yorma)ning namligi, un (yorma) ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish-texnologiya laboratoriyasi tomonidan berilgan sifat guvohnomasi ma'lumotlari bo'yicha inobatga olinadi, qadoqlash vaqtidagi un (yorma)ning namligi, qadoqlanayotgan korxonalar laboratoriyasi tomonidan aniqlanadi.

Unni (yormani) qadoqlash paytida, to‘qilish va yo‘qotishlarning oldini olish choralarini ko‘rish zarur.

Korxonalarining rahbarlari va mas‘ul shaxslari qadoqlashni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari, un (yorma) solingan qog‘oz xaltachalarning belgilangan netto og‘irligini ta‘minlashlari, mahsulotning to‘qilishiga yo‘l qo‘ymasliklari va sifat-miqdor hisobi aniq yuritilishini ta‘minlashlari lozim.

Tabiiy kamayish - utkazish tartibi va muddati tegishli kursatmada berilgan. Tabiiy kamayish belgilangan me‘yor darajasidan oshmasligi lozim. Aniqlangan kamomad 5910 “Boylklarning kamomadi va buzilishidan kurilgan zararlar” schetining debetiga yoziladi va tegishli schetlar kreditlanadi, ya’ni 2800 “Tayyor mahsulot”, 2900 “Tovarlarni hisobga oluvchi”kabi schetlar.

17.4. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotilishini xujjatlashtirish.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar biznes rejasida belgilangan sotish hajmini bajarishda xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot hisobini to‘g‘ri tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Bunda korxonada menenjerlari yoki marketing bo‘limi tomonidan mahsulot ortib jo‘natishdan tortib, to uning uchun xaridorlardan pul kelib tushguncha bo‘lgan tovar mahsulotning harakatini doimiy ravishda kuzatib turish kerak. Bunday nazorat har bir dastlabki hujjat bilan jo‘natilgan tovar mahsulot bo‘yicha alohida yuritilib, shu mahsulotning qachon va kimga jo‘natilganligi, uning yo‘ldagi harakatiga qancha vaqt ketishi kerakligi va haqiqatda qancha vaqt ketganligi, qanday xaridorlar mahsulotni qachon qabul qilib olganliklari va qachon pulni to‘lash kerakligi, qanday xaridorlar ularga jo‘natilgan mollar uchun pul to‘lamagan va nima uchun to‘lanmaganligini, yo‘lda tayyor mahsulotlarning nobud yoki sifati buzilish, yo‘qolishini nazorat qilish, xullas, yo‘ldagi barcha tovar mahsulotning takdiriga doir masalalar haqida xabardor bo‘lib turish imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt raxbarining buyrug‘i asosida tayyor mahsulotlar ombordan jo‘natilishi mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt omboridan tayyor

mahsulot xaridorlarga korxonaning sotish (marketing) bo'limi formoyishiga asosan ortib jo'natiladi. Bunda boshlang'ich xujjatlar (yuk xati, schyot-faktura) rasmiylashtiriladi. Tayyor mahsulotlar bir ombordan ikkinchi omborga o'tkazilganda ham yuk xati bilan xujjatlashtiriladi.

Mahsulotni sotish xaridor korxonalar bilan tuzilgan shartnoma va jo'natish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Sotilgan tayyor mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga jo'natishda xaridor tashkilotning ishonchnomasiga asosan belgilangan tartibda schyot-faktura bilan rasmiylashtiriladi. Mahsulotning ombordan ketishini rasmiylashtiruvchi hujjat asosida haridorlarga jo'natilayotgan tayyor mahsulotga schyot, to'lov talabnomasi yoziladi va tovar oluvchi korxonaga xizmat qiluvchining bankiga topshiriladi.

Tayyor mahsulot quyidagi holatlarda ombordan chiqib ketishi mumkin:

- oldi - sotdi shartnomasi asosida sotilganda;
- boshqa korxonaga ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilganda;
- tayyor mahsulot ko'rgazmaga berilganda;
- tekinga xadya sifatida berilganda;
- tayyor mahsulot moliyaviy qo'yilma hisobiga berilganda;
- ajratilgan bo'linmalar va qaram xo'jaliklarga berilganda;
- ichki extiyojlar uchun sarflanganda.

Mahsulotning sotilishi korxonaga mablag'lari aylanishining yakunlovchi jarayonidir. Bu jarayon korxonaga tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning xalk xujjaligi iste'molida o'z o'rnini topganligini anglatadi. Xozirgi paytda korxonaga ishini baholashda mahsulotning sotilishi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

To'lov-talabnoma. Mol yetkazib beruvchining schyot-fakturaga mos ravishda ortib jo'natilgan mahsulot qiymati uchun haridorning hisob-kitob schyotidan pulni o'tkazib berish to'g'risida bankka bergan buyrug'idir. Unda ortib jo'natilgan mahsulot qiymati va sotish bahosi, soni, assortimenti qayd qilinadi (bu holatda schyot-faktura, to'lovlar bo'yicha taqqoslama dalolatnoma albatta, to'lov-

talabnomasiga ilova qilinishi lozim). Schyot-faktura yoki to'lov talabnomasining alohida bandlarida tomondan to'lanadigan temir yo'l bo'yicha tarif summasi ko'rsatiladi. Ba'zida haridor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan temir yo'l tarifi bo'yicha summaga umumiy mahsulotning sotish bahosi qo'shib ko'rsatilishi mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi alohida bo'lmada ko'rsatiladi.

«Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromad» nomli 2-son BHMSga muvofiq quyidagi shartlar bajarilganda tovarlarni sotishdan tushgan daromadlar tan olinadi (12 - band):

- xo'jalik yurituvchi subekt tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini har'idorga topshirganida;
- xo'jalik yurituvchi subekt, odatda, mulkka egalik qilish bilan bog'liq bo'lgandarajadagi rahbarlik davomiyligini ham, sotilgan tovarlarni nazorat qilishsamaradorligini ham saqlab qolmaganida;
- daromad miqdori ishonchli darajada baholanganida;
- xo'jalik yurituvchi subekt bitim bilan bog'liq iqtisodiy naf olish ehtimolimavjud bo'lganida;
- bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan harajatlar ishonchli darajadaaniqlanadigan bo'lganida.

Xalqaro hisobda mahsulot, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan tushumni belgidashning ikki usuli mavjud:

➤ **Kassa usuli** - bunda sotuvdan olingan tushum, yuklab jo'natilgan mahsulot uchun haq sifatida pul kelib tushishiga qarab e'tirof etib boriladi.

➤ **Hisoblash (yuklab jo'natish) usuli** - bunda mahsulot haridorlarga ortib jo'natilib, ularga hisob-kitob hujjatlari (schyot-faktura, transport yuk xatlari va boshqa shunga uxshash hujjatlar) topshirilishiga qarab bu mahsulot sotilgan hisoblanadi.

Kassa usuli qo'llanilganda mahsulotni topshirish va uning xaqini to'lashga doir xo'jalik operatsiyalari bajarilib, hisob-kitob yoki valyuta schyotiga mablag' tushgandan keyingina mahsulot sotish ishlari tugatilgan deb hisoblanadi. Agar

mahsulot joʻnatilib, uning puli haridorlardan kelib tushmagan boʻlsa, sotish ishi yakunlangan deb hisoblanishi mumkin emas.

Hisoblash (yuklab joʻnatish) usuli qoʻllanilganda mahsulot va tovar ortib joʻnatilib, ishlar va xizmatlar bajarilib, haridor va buyurtmachilarga schet-faktura va boshqa (qurilishda 2-shakl, 3-shakl) hisob-kitob hujjatlari taqdim etilib, mazkur hujjatlar rasmiylashtirilib (imzolab) berilgandan soʻng, shunda ushbu mahsulot (ishlar, xizmat)lar va tovarlar sotilgan hisoblanadi.

Haridor va buyurtmachiga shartnomada koʻzda tutilgan usulda berilgan vaqtdan eʼtiboran, bu hujjatlar haridor va buyurtmachiga taqdim etilgan hisoblanadi. Agar shartnoma shartlariga koʻra haridor va buyurtmachi mahsulotni bevosita ishlab chiqaruvchi korxonaning oʻzida qabul kilsa, u holda bunday mahsulot haridor va buyurtmachiga topshirilib, shartnomada koʻzda tutilgan hujjatlar rasmiylashtirilib, hisob-kitob hujjatlari haridor (buyurtmachi)ga yoxud uning vakiliga taqdim etilganidan keyin sotilgan hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar sotish operatsiyalarini umumlashtirish hisob-kitobning jurnal-order shaklida tayyor mahsulotlarning analitik hisobi 16-qaydnomada yuritiladi. Bu qaydnoma toʻrtta boʻlimdan iborat boʻlib, ular quyidagilardir:

1-boʻlim «Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati» deb nomlanadi va unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldigʻi, omborga qabul qilingani xaridorlarga joʻnatilgan va hisobot oyi oxiriga qoldigʻi hisobda qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda koʻrsatiladi.

2-boʻlim «Joʻnatilgan va sotilgan mahsulotlar» deb nomlanib, unda joʻnatilgan mahsulotlarning analitik hisobi xaridor korxonalar nomiga yozilgan har bir toʻlov talabnomasi boʻyicha alohida yuritiladi.

3-boʻlim «Toʻlangan va toʻlanmagan schyotlar haqida umumiy maʼlumotlar» deb nomlanib, unda joʻnatilgan va sotilgan mahsulotlar toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar koʻrsatiladi.

4-boʻlimda soliq boʻyicha soliq idoralari bilan hisob-kitob maʼlumotlari keltiriladi.

Hisobot davri oxirida 16-qaydnomaning oylik jami summasi 11-jurnal-orderga ko‘chiriladi. Bu jurnal-order ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-bo‘limda tayyor mahsulot, realizatsiya bilan bog‘liq xarajatlar schyoti, jo‘natilgan tovarlar, sotish, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob schyotlarining krediti bo‘yicha yozuvlar keltiriladi. 2-bo‘limda mahsulot sotish bo‘yicha analitik hisob ma’lumotlari keltiriladi.

16-qaydnoma «Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati»

Ko‘rsatkichlar	Bahosi bo‘yicha	Tannarx bo‘yicha	Yezuv uchun asos
Oy boshiga qoldiq, m.s.	18400	17600	
Ishlab chiqarishdan qabul qilish, m.s.	28650	24450	
Qoldiq bilan jami haqiqiy tannarxning hisob bahosiga nisbati, %	64,2	71,9	
Hisobot oyidagi ortib jo‘natilgan mahsulot, m.s.	21300	20500	
Oy oxiriga bo‘lgan qoldiq, m.s.	25750	21550	

Hisobot davri ohirida 16-qaydnomaning oylik jami summasi 11- jurnal-orderga ko‘chiriladi. Bu jurnal-order ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-bo‘limda tayyor mahsulot, realizatsiya bilan bog‘liq xarajatlar scheti, jo‘natilgan tovarlar, sotish, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob schetlarining krediti bo‘yicha yozuvlar keltiriladi. Ikkinchi bo‘limda mahsulot sotish bo‘yicha analitik hisob ma’lumotlari keltiriladi. 16- qaydnoma va 11-jurnal-order asosida tuziladigan tovarni sotish haqidagi hisobotda quyidagi ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi: sotilgan mahsulotning reja tannarhi, reja va haqiqiy tannarh o‘rtasidagi farq, sotish bilan bog‘liq xarajatlar scheti, soliq, sotishdan olingan tushum va ohirgi moliyaviy natija, ya’ni foyda yoki zarar summasi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ombor hisobining to‘g‘ri yuritilganligi ombor hisobi kartochkasiga buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi. Moddiy javobgar shaxs ombor hisobi kartochkalari asosida har oyda tayyor mahsulot nomenklaturasi, o‘lchov birligi soniga tayangan holda tayyor mahsulotning qoldiq hisobi vedomostini to‘ldiradi. Bu yerda hisob

baholari bo'yicha qoldiqlar taksirovka qilinadi va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

- 16-qaydnoma va 11-jurnal-order asosida tuziladigan tovarni sotish haqidagi hisobotda quyidagi ko'rsatkichlar ko'rsatiladi: sotilgan mahsulotning reja tannarxi, reja va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq, sotish bilan bog'liq xarajatlar schyoti, soliq, sotishdan olingan tushum va oxirgi moliyaviy natija, ya'ni foyda yoki zarar summasi.

- Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad operatsiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf xo'jalik yurituvchi subekt tomonidan olingan takdirdagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish xususidagi noaniqlik vujudga kelgan takdirda, qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bulmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorining o'zgartirilishi sifatida emas, balki harajat sifatida tan olinadi.

Korxonada ishni sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonada rahbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko'prok e'tibor berishga chakiradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yukori sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular esa, o'z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Donni qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlarni ortib jo'natishni rasmiylashtirish tartibi

Tizimdan tashqari iste'molchilarga don va don mahsulotlari berish buyruq (221-shakl) bilan rasmiylashtiriladi, ularning tizim ichida tashilishi naryadlar (222-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Har bir buyruqqa don mahsulotlari berilishining hisobi kartochkasi yuritiladi. Unda omborga berilgan buyruqlar va ularning bajarilishi, berilgan don va don mahsulotlari va ularning ushlab qolinishi qayd etiladi.

Don mahsulotlarini yuklab jo'natish va berish hujjatlarida – transport yuk xatlarida va boshqa shaharga yuklab jo'natish bo'yicha korxonalar tomonidan yoziladigan schyot-fakturalarda naryad yoki buyruqning tartib raqami

ko'rsatilishi kerak. Buyruqlar va naryadlar don va don mahsulotlari yuklab jo'natilganini tasdiqlaydigan hujjatlar bilan birgalikda korxonaga buxgalteriyasiga beriladi. Korxonaga tushadigan barcha buyruqlar va naryadlar don mahsulotlarini berish uchun olingan va yozilgan buyruqlar va naryadlarni hisobga olish jurnallarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Don va don mahsulotlarining har bir turkumi buyruq (16-shakl) asosida korxonaning moddiy javobgar shaxsi tomonidan, tortish yo'li bilan aniqlanadigan (standart og'irlikdagi qoplarga qadoqlangan mahsulotdan tashqari) miqdor bo'yicha va korxonaga laboratoriyasi aniqlagan sifat ko'rsatkichi bo'yicha beriladi (yuklab jo'natiladi).

Yuk jo'natuvchida vagon yoki elevator tarozilari bo'lmasa, og'irlikni aniqlash jo'natiladigan stansiyaning vagon tarozilarida temir yo'lning taroziboni tomonidan yuk jo'natuvchi bilan birgalikda aniqlanadi va ularning yuk xatdagi imzosi bilan tasdiqlanadi.

Yuklarni tortish natijalari tarozi jurnallariga (28 va 29-shakllar) kiritiladi. Tirkamali avtomobillarda olib chiqib ketilayotgan turkum don bo'yicha jurnallarda (28 va 29-shakllar) avtomobil va tirkamaning raqami ko'rsatiladi.

Standart og'irlikdagi qoplarga solingan un, yorma va makkajo'xori urug'liklari, boshqa urug'larni berish tarozida tortilmasdan amalga oshiriladi, ularning og'irligi esa qoplar soni va standart og'irlik yoki har bir yuk o'rnida yetkazib beruvchi tomonidan ko'rsatilgan og'irlik bo'yicha aniqlanadi.

Berish (yuklab jo'natish)da don va mahsulotning sifati korxonaga laboratoriyasi tomonidan aniqlanadi, tekshirish natijalari tekshirish kartochkasiga va jurnalga kiritiladi.

Oluvchilarga yem aralashmasi va omixta yem berishda ularning har bir turkumiga sifat guvohnomasi beriladi (43-shakl).

Sifat guvohnomasini (43-shakl) rasmiylashtirishda korxonaga laboratoriyasi unda berish paytida aniqlangan mahsulotning amaldagi namligini ko'rsatadi, sifatning boshqa ko'rsatkichlari mazkur guvohnoma bo'yicha aks ettiriladi.

Oluvchi don va mahsulot sifatiga norozilik bildirgan taqdirda, ular oluvchi ishtirokida ko'rsatib o'tilgan laboratoriya tomonidan takroran analiz qilinadi yoki namuna sifat to'g'risidagi uzil-kesil xulosa uchun vakolatli davlat organiga yuboriladi.

Yuk temir yo'l stansiyasi yoki bandargohga topshirilgandan keyin korxonaning vakolatli shaxsi stansiyadan (bandargohdan) yuk kvitansiyalari (temir yo'l kvitansiyalari va daryo yuk xatlari)ni oladi hamda o'sha kunning o'zida ularni don mahsulotlarini yuklab jo'natgan moddiy javobgar shaxsga beradi.

Don va mahsulotning og'irligi yuk tovar-transport yuk xatiga (21-shakl) imzo cheqilgan holda topshiriladigan haydovchi yoki kuzatib boradigan shaxs ishtirokida moddiy javobgar shaxs yoki tarozibon tomonidan aniqlanadi.

Moddiy javobgar shaxs yuk kvitansiyalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi, ularni qayta tortish jurnali bilan solishtiradi va shundan keyin don mahsulotlarini yuklab jo'natishga temir yo'l vedomostlari yoki daryo yuk xatlari (20-shakl) to'ldirib yuklab jo'natishni rasmiylashtiradi.

Moddiy javobgar shaxs don va don mahsulotlari yuklab jo'natilgandan keyingi kundan kechikmay transport-yuklab jo'natish hujjatlarini hisobot bilan birgalikda korxonaga buxgalteriyasiga topshiradi.

Don va mahsulot temir yo'l yoki daryo transportiga yuklanganda ortilgan har bir don va mahsulotning turkumiga laboratoriya sifat guvohnomasi yozadi va unda yuk xati bo'yicha og'irlikni va laboratoriya bo'yicha aniqlangan sifatni ko'rsatadi, standart og'irlikdagi qoplarga solingan un va yorma bo'yicha esa, bundan tashqari, qoplashdagi namlik va yuklab jo'natish sanasi ko'rsatiladi.

Donni temir yo'l transportiga ortishda bitta temir yo'l xati bo'yicha bitta oluvchining nomiga bir necha vagonlarga yuklangan donning bir xildagi turkumiga bitta sifat guvohnomasi berishga ruxsat beriladi.

Ushbu hollarda sifat guvohnomasida vagonlarning raqami ko'rsatiladi. Bunday tartib tarqatish stansiyalarida yuklab jo'natishda tatbiq etilmaydi.

Soʻtadagi makkajoʻxorini yuklab joʻnatishda sifat guvoohnomalarida donning amaldagi chiqishi ham koʻrsatiladi.

Sifat guvoohnomasi IChTL boshligʻi (laboratoriya mudiri) yoki uning oʻrnidagi shaxs tomonidan imzolanadi.

Don va don mahsulotlarini avtomobil transportiga yuklash moddiy javobgar shaxs tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan buyruq (16-shakl) asosida amalga oshiriladi.

Don va don mahsulotlarini avtomobil transportida tashish uchun berish tovar transport xati bilan rasmiylashtiriladi (21-shakl).

Don va don mahsulotlarining har bir turkumiga laboratoriya tomonidan belgilangan shakl boʻyicha sifat guvoohnomasi yoziladi.

Don va mahsulotni korxonada ichida tashishga rahbar tomonidan imzolangan yuk xatlari (19-shakl) rasmiylashtiriladi.

Don va mahsulotni bir hudud doirasida ombordan omborga tashishda ogʻirlik bir marta har ikkala moddiy javobgar shaxs hozirligida aniqlanadi.

Don yoki mahsulot bir moddiy javobgar shaxsning ixtiyorida boʻlgan omborlar boʻyicha alohida miqdor-sifat hisobi yuritiladigan ombordan omborga tashilganda ogʻirlik moddiy javobgar shaxs tomonidan korxonada rahbari tayinlagan xodim hozirligida aniqlanadi.

Korxonada ichida tashiladigan don va mahsulotning sifati, standart ogʻirlikdagi qoplarga solinganlar bundan mustasno, laboratoriya tomonidan aniqlanadi va sifat koʻrsatkichlari yuk xatida (19-shakl) koʻrsatiladi.

Don mahsulotlarini korxonada ichida tashishga farmoyish (19-shakl) korxonada rahbari tomonidan belgilangan muddat davomida amal qiladi.

Navli urugʻliklarning har bir turkumini berishda quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

a) Urugʻlikka attestat (86-shakl) - barcha oʻsimliklarning elita urugʻiga va super elitasiga, shuningdek makkajoʻxorining oʻzidan-oʻzi changlangan liniyalari urugʻiga;

b) Urug'likka guvohnoma (85-shakl) - qolgan barcha reproduksiyalar urug'iga;

v) Makkajo'xorining gibril urug'lariga guvohnoma (84-shakl) - makkajo'xorining gibril urug'lariga.

Ushbu hujjatlarda nav sifatleri topshiruvchilarning nav hujjatlari asosida, ekish sifatleri esa — urug'chilik bo'yicha vakolatli organ tomonidan berilgan Urug'ning konditsionligi to'g'risidagi guvohnoma asosida aks ettiriladi. Urug'larning namligi urug'lik ortib jo'natilgan yoki berilgan kunda korxonalar laboratoriyasi tomonidan amalga oshirilgan tekshirish asosida ko'rsatiladi.

Urug'likka attestatlar va urug'likka guvohnomalar korxonalar rahbari, IChTL boshlig'i va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi.

Navli urug'larni berishda transport hujjatlariga navli urug'larning mazkur turkumiga berilgan urug'likka attestat yoki guvohnoma ilova qilinadi.

Guvohnoma yoki attestat nusxalari yuklab jo'natilgan urug'likning schyot-fakturasiga ilova qilinadi va laboratoriyada qoladi.

Ishlab chiqarish jarayonida urug'liklarning nokonditsion turkumlari aniqlangan taqdirda ularga qo'shimcha ishlov berish, ularni konditsiyaga yetkazish choralari ko'rilishi kerak. Ularni konditsiyagacha yetkazish imkoni bo'lmagan taqdirda ushbu turkum urug'lik resurslaridan chiqariladi.

Eksport shartnomasi quyida keltirilgan nizomlarni o'z ichiga olishi kerak:

Shartnoma bo'limi	Shartnoma bo'limining mazmuni
Kirish qismi	Shartnoma raqami, sanasi va kelishuv joyi Yuridik shaxslarning to'liq nomlari Mas'ul bo'lgan shaxslarning ism shariflari va ularning mansablariga asos bo'ladigan hujjatning nomi
Shartnoma mavzusi	Mahsulotning nomi va tasnifi, miqdori va sifati, TIF kodi
Asosiy shartlar va yetkazib berish muddati («INKOTYERMS-2010»)	Mahsulotni olib chiqish va olib kirish bo'yicha rasmiyatchiliklarning bajarish tartibi Sug'urtalash, mahsulotga shikast yetganida yoki yo'qotilganida tomonlar javobgarligi
Shartnoma narxi va	Mahsulotning o'lchov birligi (ish,

	umumiy miqdori	xizmat) Narxni o'zgaruvchanligi, usuli va asosi Har bir mahsulot uchun narx va yetkazib berilishi kerak bo'lgan mahsulotlar (xizmat turi) uchun umumiy narx
	To'lov usuli	Valyuta To'lov muddati va to'lov turi
	Mahsulotni yuklash tartibi	Mahsulotni to'liqligi, iste'mol muddati haqidagi ma'lumotni yetkazish sotuvchi bo'ynida ekanligini ta'kidlash Mahsulotni yetkazib berish muddati
	Mahsulotni topshirish va qabul qilib olish tartibi	Mahsulotni xaridor ma'suliyatiga shartnomada soni, og'irligi va sifati bo'yicha keltirilgan talablarga binoan topshirilishi Mahsulotni topshirish va qabul qilish tartiblari
	Reklamatsiya	Shartnoma talablariga javob bermaydigan mahsulotga (ish, xizmat) nisbatan shikoyat qilish tartibi Shikoyat qilish tartibi, muddati, ko'rib chiqilishi va boshqarilishi
	Kafolat	Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar bo'yicha kafolatlar
	Mahsulotning kelib chiqishi	Yetkazib berilayotgan mahsulotning (ish, xizmat) kelib chiqishi
	Jazo choralari	Penya va/yoki jarima, jabrlangan tomonga nisbatan javobgarlik
	«Fors-major» holatlari	Tomonlarni shartnomada keltirilgan javobgarliklarini hal qilib bo'lmaydigan holatlarda to'xtatilishi
	Arbitraj	Kelishmovchiliklarni hal qiluvchi tashkilot va joyi

Bojxona rasmiylashtiruvini mutaxassislar, ya'ni bojxona brokeri yoki eksportchilar tili bilan aytilganda, deklarant bajaradi.

Siz bojxona brokeriga quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz kerak:

eksport shartnomasining asl nusxasi yoki nusxasi;

transport yuk-xati (temir yo'l, avtotransport, avia);

hisob-varaq faktura (invoys);

tovar kelib chiqish sertifikat (importchi talab qilganda ST-1 yoki A forma) shakl;

muvofiqlik sertifikat (importerning import qiluvchi xohishiga qarab);

ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan sifat sertifikatini va qadoqlash varag'i (agar bu hujjatlar shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa)

to'lov borasida YeISVO ga ma'lumot (oldindan to'lov, sug'urta polisi, bank kafolati yoki konsignatsiya);

BYuD ni to'ldiradigan shaxsga ishonchnoma yoki uning pasport ko'rsatkichlari.

Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'shimcha beriladigan hujjatlar:

gigiyenik sertifikatini;

fitosanitariya sertifikatini;

karantin tekshiruvini dalolatnomasi;

zararli mikroblardan tozalanganlik akti.

Davlat veterinar nazoratidagi yuklar uchun:

veterinar sertifikatini.

BYuD to'ldirishning elektron variantida deklarant tomonidan kerakli ma'lumotlar AISED (baza)ga kiritilishi lozim.

17.5. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni turli shartlar bilan realizatsiya qilishni hisobda aks ettirish.

Xo'jalik shartnomasi - bu korxonalarining xo'jalik munosabatlari o'rnatish haqidagi o'zaro kelishuvidir. Shartnoma tomonlar majburiyati va xuquqlarini belgilovchiasosiy hujjat hisoblanadi. Yuz bergan sharoitni hisobga olib vaqti-vaqti bilan shartnomashartlari ko'rib chiqilishi va ularga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar korxonaga belgilangan nomenklaturadagi mahsulotni jo'natish yuzasidan shartnoma shartlarini buzsa, u holda ushbu korxonaga nisbatan jazo choralari qo'llanadi. Demak shartnoma bilan rasmiylashtirilgan har bir rejali buyurtma korxonaga xodimlari bajarishi shart bo'lgan qonundir. Bunday tartib ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori ish unumdorligiga erishishni ta'minlaydi. Belgilangan muddatda

mahsulot sotish rejasining bajarilmaganligi uchun jarima to'lash chorasi qo'llaniladi. Jarima miqdori mahsulot sotish shartlariga qarab aniqlanadi. Tayyor mahsulotlarni haridorlarga jo'natish haridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shartnomada quyidagi atama va tushunchalar amaliyotda qo'llanilishi mumkin:

Spot - 1) Savdoda kullaniladigan va nakd tovarni bildiradigan atama, nakd tovarlarga kelishuv va haqiqiy tovarlar yuzasidan birja kelishuvlari,

2) valyutani sotish yoki darhol yoki juda tez yetkazish (2-ish kunida) uchun kerak bulgan tovar baxosi,

3) tonnajga ega bulgan sudno, taxminan fraxtlash talablariga javob beradi.

Tarif - miqdorlar tizimi bulib, unga kura xizmatlar uchun tulov olinadi. Eng kup tarkalganlari: yuklarni, yulovchilarni tashish uchun - transport tariflari, elektroenergiya, gaz, suv va boshqalardan foydalanish uchun - maishiy xizmat tariflari, tovar-larni davlat chegarasidan utkazish - bojxona tariflari.

Fraxt - transportning turli kurinishlarida yuklarni tashish uchun tulov. Tashuvchi bulib, avtotashkilot, temir yul, avtokompaniya, kema kompaniyalari, shuningdek, aralash tashishni bajaruvchi vositachi ham katnashishi mumkin. Fraxt tulovining tartibi va fraxt xajmi fraxt shartnomasida tomonlar urtasida kelishib olinadi. **Eksport** - tashki bozorda sotish uchun tovar va xizmatlarni davlat chegarasidan chiqarish (xoriyga chiqarish).

Faktoring - (agent, vositachi) - savdo - tijorat jarayonlaridan biri bulib, mijozning aylanma kapitalini kreditlash bilan xarakterli. Uz tarkibiga mijozning debitorlik qarzlarni inkassalashni, kredit va valyuta xavflarini kreditlash va kafolatlashni oladi.

Mol yetkazib beruvchi bilan xaridor o'rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida **franko joy** to'g'risida to'xtalib o'tiladiki, bunda mahsulotni ortib jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni mol yetkazib beruvchi o'z zimmasiga oladi.

Franko - sotuv sharti bulib, unga kura, sotuvchi uz hisobidan shartnomada kelishilgan ma'lum joyga tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

Franko joyning quyidagi turlari mavjud:

Bizning respublikamizda eng keng tarqalgan turi franko stansiya jo‘natish hisoblanadi.

1. Franko-vagon - kelishuv turi bulib, unga kura xaridor tovarni vagonga ortilish vaqtidan boshlab, tashish xarajatlarini koplash majburiyatini oladi.

2. Franko-zavod ombori (Franko-ombor) sotuv chetga chiqaruvchi (eksporter) kelishuv turi bulib, xaridor tovarni sotuvchining omboridan (zavodidan) qabul kilib olishi shart. Sotuvchi-chetga chiqaruvchi tovarlarni yetkazib berish xarajatlarini koplamaydi.

3. Franko- xaridor ombor (importer). Mol yetkazib beruvchi tovarni xaridor omborigacha yetkazib berish majburiyatini oladi. Xaridor - importer tovarlarni yetkazib berish xarajatlarini koplamaydi.

4. Franko-vagon sotuvchi davlati chegara bekati. Bunda sotuvchi tovarni yuklash va chegara punktigacha yetkazib berish xarajatlarini koplash majburiyatini oladi.

5. Franko-vagon xorijiy xaridor belgilagan bekat. Ushbu kelishuvga kura, sotuvchi xaridor joylashgan va shartnomada kelishilgan temir yul bekatigacha bulgan xarajatlarni koplash majburiyatini oladi. Tovarlarni yetkazishning bunday kelishuvi bir xujjat, ya’ni xalkaro ma’lumot -temir yul nakladnoyi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu nakladnoyda xaridorning bekati, manzili kursatiladi. Tashishdagi yukotish va kamomadlar bilan bogliq moddiy javobgarliklar sotuvchi va xaridorning davlatlar temir yullari tomonidan tartibga solinadi.

Inkoterms – butun dunyodagi hukumat organlari, yuridik kompaniyalar va biznes vakillari tomonidan xalqaro savdoda eng ko‘p qo‘llaniladigan atamalarning talqini sifatida e’tirof etilgan xalqaro qoidalardir.

Ular xalqaro savdo shartnomalarining muhim elementi hisoblanadi. Bugungi kunda TIF va xalqaro savdo ularsiz butkul boshqacha amalga oshirilgan bo‘lar edi.

Inkoterms atamalari tovarlarni sotuvchidan xaridorga yetkazishdagi chiqimlar va xarajatlarni tavsiflaydi.

Shuningdek, yuk ortish-tushirish ishlari, tovarlarni tashish, ularni sugʻurtalash va bojxonada tozalash boʻyicha taraflarning majburiyatlarini tartibga soladi.

Ilk marta Inkoterms qoidalari 1936 yilda Xalqaro savdo palatasi tomonidan “Inkoterms 1936” deb nomlanuvchi birinchi nashri chop yetildi. Oʻzgartirish va qoʻshimchalar keyinchalik 1953, 1967, 1976, 1980, 1990, 2000, 2010 yilda qilingan.

Inkoterms-2010 atamalarining toʻliq roʻyxati

Ye guruhi (yuklab joʻnatish)

Transportning istalgan turida tashish.

EXW

EX Works (named place) – Franko zavod (joy nomi)

F guruhi (asosiy tashishlarni sotuvchi toʻlamagan)

Dengiz orqali va ichki suvlarda tashishlar.

FCA

Frete Carrier (named place) – Franko – tashuvchi (tayinlangan joy nomi).

FAS

Frete Alongside Ship (named port of shipment) – Kema borti boʻylab franko (yuklab joʻnatish porti nomi)

FOB

Frete On Board (named port of shipment) – Franko bort (yuklab joʻnatish porti nomi)

S guruhi (asosiy tashishlarni sotuvchi toʻlagan)

Transportning istalgan turida tashish.

CFR

Cost and Freight (named port of destination) – qiymat va fraxt (tayinlangan port nomi).

CIP

Carriage and Insurance Paid to (named place of destination) – Fraxt/tashish va sugʻurta haqi gacha (tayinlangan punkt nomi) toʻlangan.

CIF

Cost, Insurance and Freight (named port of destination) – qiymat, sugʻurta va fraxt (tayinlangan port nomi).

CPT

Carriage Paid to (named place of destination) – Fraxt/tashish haqi gacha (tayinlangan punkt nomi) toʻlangan.

D guruhi (yetkazib berish)

Transportning istalgan turida tashish.

DAT

Delivered At Terminal (named terminal of destination) – Terminalda (terminal nomi) yetkazib berish.

DAP

Delivered At Place (named point of destination) – tayinlangan joyga (punkt nomi) yetkazib berish.

DDP

Delivered Duty Paid (...named place of destination) – Boj toʻlagan holda (tayinlangan joy nomi) yetkazib berish.

Inkoterms-2010 atamalarining D guruhi yangi atama hisoblanadi.

DAP transport turidan qatʻiy nazar, shuningdek, bittadan koʻp transport turidan foydalanganda qoʻllanilishi mumkin.

DAP shuni anglatadiki, kelishilgan tayinlangan joyga kelgan, yukdan tushirishga tayyor transport vositasida tovar xaridorning tasarrufiga taqdim yetilganda sotuvchi yetkazib berishni amalga oshirgan hisoblanadi. Sotuvchi tovarni aytilgan joyga yetkazib berish bilan bogʻliq barcha xarajatlarni zimmasiga oladi. Taraflarga kelishilgan tayinlangan joy punktini aniq belgilash tavsiya qilinadi, chunki ungacha xarajatlarni sotuvchi zimmasida boʻladi.

DAP sotuvchidan olib chiqish uchun bojxona rasmiyatchiliklarini bajarishni, agar ular qoʻllansa, talab qiladi. Biroq u olib lirish uchun bojxona rasmiyatchiliklarini bajarishga, import bojarini toʻlashga majbur yemas.

Agarda taraflar olib kirish uchun barcha bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish va har qanday import bojarini to'lashni sotuvchining zimmasiga yuklash niyatida bo'lsalar, **DDP** atamasidan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

	Mol yetkazib berish jarayonida transport turlari	Savdo atamalari
	Yuk tashishda barcha transport turlaridan foydalaniladi	EXW
		FCA
		CPT
		CIP
		DDU
		DDP
	Istisno tariqasida yuk tashishda faqat dengiz va ichki suv transport turlaridan foydalaniladi	FAS
		FOB
		CFR
		CIF
		DES
		DEQ
	Yuk tashishda temir yo'l va avtomobil transportdan foydalaniladi	DAF

Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo'natish xaridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Jo'natilgan mahsulot schyot-faktura, chiqim hujjati, to'lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi. Belgilangan muddatda mahsulot sotish rejasining bajarilmaganligi uchun jarima to'lash chorasi ko'llaniladi. Jarima miqdori mahsulot sotish shartlariga qarab aniqlanadi.

Mahsulotlar xaridorlarga jo'natilganida jo'natilgan tovar qiymatiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9110-«Sotilgan mahsulotning tannarxi»

K-t 2810-«Ombordagi tayyor mahsulot».

Jo'natilgan tovarlarning analitik hisobi o'z vaqtida bank inkassasiga berilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha, to'lash muddati yetgan va to'lash muddati yetmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha alohida hamda to'lashga qabul qilinmagan, mas'ul shaxsda bo'lgan jo'natilgan tovarlar alohida hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari tayyor mahsulotni hisobga olishning ikkala, ya'ni haqiqiy yoki hisob tannaxlari bo'yicha usullarni qo'llashni tavsiya etadi. Tanlangan usul sub'ektning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. Biroq bunda takidlash joizki, tayyor mahsulot miqdor ko'rsatkichlarida ham hisobga olinadi.

Miqdoriy hisob sub'ektda qabul qilingan o'lchov birliklari, uning fizik jihatlaridan (hajm, vazn, maydon, chizikdi birliklar yoki donalab) kelib chiqqan holda yuritiladi. Bir turdagi mahsulotlarni hisobga olishni tashkil qilishda shartli natural o'lchovlar ko'llanilishi mumkin. Masalan, konservalar-shartli bankalarda, cho'yan-mahsulotga qayta hisoblangan holda, ayrim turdagi mahsulotlar- ularning foydali moddalari og'irligi yoki hajmidan kelib chiqiladi.

Tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannaxi bo'yicha hisobga olish.

Mahsulot ishlab chiqarishga oid xarajatlar bevosita va bilvosita, o'zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannaxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Bevosita xarajatlar mahsulot birligini ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bular:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

Mazkur xarajatlar o'zgaruvchan hisoblanadi, chunki ularning miqdori ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan bog'liq.

Bilvosita xarajatlar - ishlab chiqarish jarayonida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarishga mo'ljallangan xarajatlar, ular quyidagilar: yordamchi ishchilarining vaqtbay ish

haqlari, ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning amortizatsiyasi, ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni tutib turish, joriy va to'la-to'kis tamirlash hamda maxsulot hajmi o'zgarishidan qat'i nazar nisbatan doimiy bo'lib qoladigan boshqa xarajatlar.

Boshqa xarajatlar, agar ular tayyor mahsulot saqlash joyiga tashishda yoki uni lozim darajadagi holatga keltirishda yuzaga kelsa, tayyor mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bular:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari);

- yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari;

- ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari;

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar);

- brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- mahsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari;

- umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar;

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lash bilan bog'liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq.

Tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritish mumkin bo'lgan boshqa xarajatlarga, noishlab chiqarish ko'shimcha xarajatlari yoki muayyan mijozlar uchun mahsulot ishlab chiqarishga oid xarajatlar misol bo'lib hisoblanadi.

Sotish uchun tayyorlangan, shu jumladan, qisman sub'ektning shaxsiy ehtiyojlari uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot, 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot" schyotining debetida haqiqiy tannarx bo'yicha xarajatlarni hisobga olish schyotlarida aks ettirildi.

Sub'ekt tomonidan tayyor mahsulot haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha kirim qilinadi:

Debet 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot" schyoti

Kredit 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

Kredit 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish"

Kredit 2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar"

Vositachilik va konsignatsiya shartnomalari bo'yicha ko'rgazma va sotishga berilgan tayyor mahsulot 2820- " Ko'rgazmadagi tayyor mahsulot" hamda 2830-"Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot" schyotlarida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha aks ettiriladi.

Tayyor mahsulot ko'rgazmaga hamda vositachilik va konsignatsiya shartnomalari bo'yicha realizatsiya uchun o'tkazildi

Quyidagi schyotlar debeti: 2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulot" 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot" 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot" schyoti kreditlanadi.

Misol.

“ARTEL” firma ko'cha yoritkichlarini ishlab chiqaradi. Yoritkichlar turkumi(pratiyasi)ni ishlab chiqarishga asosiy ishlab chiqarish xarajatlari 134000 ming so'mni tashkil qildi. Materiallar - 85000 ming so'm, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bilan ishchilarning ish haqiga - 45000 ming so'm, boshqa xarajatlar 4000 ming so'm.

Yoritkichlarni yig'ish qo'shimcha ishlab chiqarishda amalga oshiriladi. Uning xarajatlari 10000 ming so'mni tashkil qildi.

Mazkur holatda yoritkichlarning haqiqiy tannarxi $85000000+45000000+4000000+10000000=144000000$ so'mdan iborat bo'ladi, bunda:

85000ming so'm - ishlab chiqarishda foydalanilgan materiallar qiymati;

45000 ming so'm - ijtimoiy ajratmalar bilan ishchilarning ish haqi;

4000 ming so'm boshqa xarajatlar.

100 ming so'm - yordamchi ishlab chiqarishdagi yoritkichlarni yig'ishga ketgan xarajatlar. Xarajatlar yuzaga kelgan joy (asosiy va yordamchi ishlab chiqarish) bo'yicha aks ettiriladi, keyin esa 2810- «Ombordagi tayyor mahsulot» schyotiga hisobdan chiqariladi.

№	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	So'mma, ming so'm	Schyotlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi xujjatlar
			21-son BHMS bo'yicha		
			debet	kredit	
1	Materiallar xarajatlari aks ettiriladi	85000	2010	1010	Limit olish kartasi, talabnoma-yukxat

2	Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ajratmalari bilan ish haqiga xarajatlar aks ettiriladi	45000	2010	6710,6520	Ishlanmalarni hisobga olish bo'yicha birlamchi xujjatlar, ish haqini hisoblab yozish qaydnomasi
3	Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishdagi boshqa xarajatlar	4000	2510	2310, 6010, va shu kabi boshqa schyotlar	Bajarilgan ishlarni topshirish dalolatnomasi, schyot-fakturalar
3	Yoritkichlarni yigishga xarajatlar aks ettiriladi	10000	2310	6710,6520	Ishlanmalarni hisobga olish bo'yicha birlamchi xujjatlar, ish haqini hisoblab yozish qaydnomasi
4	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari tayyor mahsulot tannarxiga kiritiladi	10000	2010	2310	Buxgalteriya hisob-kitobi
5	Tayyor mahsulotning omborga berilishi aks	144000	2810	2010	Kirim orderi, materiallarni hisobga olish kartochkasi

Tayyor mahsulotni hisob narxlari bo'yicha hisobga olish

Tayyor mahsulotning analitik hisobida narxlari sifatida quyidagilar ko'llanilishi mumkin: rejali (meyoriy) tannarx; shartnomaviy (sotish) narxlari va boshqalar. Hisob narxlarining aniq variantini tanlash sub'ekt ixtiyorida bo'ladi.

Tayyor mahsulotni meyoriy tannarxi bo'yicha baholashni ko'p miqdorlarda va turkumli tusda ishlab chiqariladigan hamda keng nomenklaturadagi tayyor mahsulot tarmoqlarida qo'llash maqsadga

muvofiq bo'ladi. Tayyor mahsulotning harakatini tezkor hisobga olishni amalga oshirishdagi qulaylik, hisob narxlarining turg'unligi hamda rejalashtirish va analitik hisobda baholashga bir xildagi yondashuv mavjudligi bu variantning ijobiy tomonlari hisoblanadi.

Hisob narxlari sifatidagi shartnomaviy narxlar asosan mazkur narxlarning barqarorligida qo'llaniladi.

Tayyor mahsulotni meyoriy tannarxi yoki shartnomaviy narxlar bo'yicha hisobga olish uchun ko'shimcha 2840-"Hisob qiymati bo'yicha tayyor mahsulot"

schyotini kiritish tavsiya etiladi, uning debeti bo'yicha tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi, kredit bo'yicha -meyoriy tannarxi aks ettiriladi.

Hisob narxlarini aniqlash usulidan qat'iy nazar tayyor mahsulotshg umumiy qiymati (hisob qiymati + tafovutlar) mazkur mahsulotshg haqiqiy ishlab chiqarish tannarxiga teng bo'lishi lozim.

Hisob bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish rasmi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Tayyor mahsulotpi hisob narxlari bo'yicha hisobga olishga oid operatsiyalarni aks ettirish		
	debet	kredit
Meyoriy qiymat bo'yicha tayyor mahsulot kirim qilindi	2810- «Ombordagi tayyor mahsulot»	2840-"Hisob qiymati bo'yicha tayyor mahsulot"
Tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi aks ettirildi	>840-"Hisob qiymatn bo'yicha tayyor mahsulot"	2010 "Asosiy ishlab chiqarish"
Tayyor mahsulotning meyoriy tannarxidan haqiqiy tannarxining oshishi hisobdan chiqariladi (2840-schyot debet saldosi-ortiqcha xarajat)	9110-"Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi"	2840-"Hisob qiymati bo'yicha tayyor mahsulot"
Tayyor mahsulotning meyoriy tannarxidan haqiqiy tannarxining oshishi hisobdan chiqariladi (2840-schyot kredit saldosi-iqtisod) storno yozuvi	9110-"Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi"	2840-"Hisob qiymati bo'yicha tayyor mahsulot"

2810 - "Ombordagi tayyor mahsulot" schyotidan tayyor mahsulotni hisobdan chiqarishda haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining hisob narxida tafovut qiladigan tafovutlar summaları hisobot davri boshidagi tayyor mahsulot qoldiqlaridan tafovutlar bilan hisobot oyi mobaynida omborga kelib tushgan mahsulot bo'yicha tafovutlarning hisob narxlari bo'yicha mazkur mahsulot qiymatiga nisbatidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan foiz bo'yicha aniqlanadi.

Misol.

Firma hisobot davrida QQS 15000 ming so'mni hisobga olgan holda, bir to'plami uchun 115000 so'mdan umumiy summasi 115000000 so'm bo'lgan 1000 chinni(farfor) idishlar to'plami ishlab chiqardi va sotdi. Tayyor mahsulot hisobi

rejali narxlar bo'yicha yuritiladi. Bir to'planning rejali tannarxi - 70000 so'm, haqiqiy tannarxi - 75000 so'mni tashkil qildi.

	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondensiyasi		Yezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
			21-sonBHMSbo'yicha		
			debet	kredit	
	Tayyor mahsulot rejadagi tannarxi bo'yicha omborga kirim qilindi	70000	2810	2840	kredit
	Tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi aks ettirildi	75000	2840	2010	Buxgalteriya hisob-kitobi
	Tayyor mahsulot realizatsiyasidan daromad aks ettiriladi	100000	4010	9010	Oldi-sotdi
	Tayyor mahsulot realizatsiya-sidan KKS hisoblab yozildi	15000	4010	6410	schyot faktura
	Tayyor mahsulotning meyoriy tannarxi hisobdan chiqarildi	70000	9110	2810	Buxgalteriya hisob-kitobi
	Tayyor mahsulot-ning meyoriy tannarxidan haqiqiy tannarxining ortiq summasi hisobdan chiqarildi	5000	9110	2840	Buxgalteriya hisob-kitobi
	9010-schyot yopilishi aks ettiriladi	100000	9010	9910	Buxgalteriya hisob-kitobi
	9010-schyot yopilishi aks ettiriladi	75000	9910	9110	Buxgalteriya hisob-kitobi

Tayyor mahsulot balansda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy vositalar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, mehnat resurslari bilan bog'liq xarajatlar va mahsulotni ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlarni o'z ichiga oluvchi haqiqatdagi yoki me'yoriy (rejali) ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha yoki bevosita xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladi.

Tayyor mahsulotning haqiqatdagi tannarxini ko'pincha faqat hisobot davri (oyi) nihoyasiga yetganidan keyin hisob-kitob qilish mumkin bo'ladi.

Mahsulotlarning harakati esa, ayniqsa yirik sub'ektlarda har kuni yuz beradi, shuning uchun joriy hisobga olish uchun ba'zan mahsulotning shartli bahosi-me'yoriy (rejali) miqdor qabul qilinadi. Oy oxiriga borib haqiqatdagi va me'yoriy tannarxlarni qiyoslash chog'ida tafovutlar aniqlanadi.

Tafovutlar sub'ekt tomonidan yo'l ko'yilgan tejash yoki ortiqcha xarajatlarni ko'rsatadi, shu sababli ham ishlab chiqarish jarayonida uning ish natijalarini tavsiflaydi. Tafovutlar ayni tayyor mahsulotlar hisobga olinadigan schyotlarda hisobga olinadi va qizil storno bilan-tejash yoki oddiy yozuv bilan-ortiqcha xarajat yozib qo'yiladi.

Masalan, me'yoriy tannarx bo'yicha hisobga olishlar chog'ida oy oxiridagi ortiqcha xarajat aniqlanganda:

Dt 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot"

Kt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish".

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilishi asosiy faoliyatdan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettiriladi, chunki mahsulotni sotish sub'ektning unga doimiy daromad keltiradigan asosiy faoliyati hisoblanadi.

Sotish bahosi o'z ichiga, ishlab chiqarish tannarxidan tashqari, foydaning muayyan me'yori va QQS ni (mazkur soliq to'lovchilari uchun) olish kerak.

Misol.

Sotilayotgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi - 320000 ming so'm, foyda mahsulot tannarxining 40%ini tashkil qiladi, bunda uning QQSni hisobga olmagan holdagi bahosi 448000 ming so'mni ($320000 \cdot 40\% = 128000$) tashkil qiladi. Mahsulot uchun haridor 448000 ming so'm va 15% QQS bilan to'lashi kerak.

Mahsulotni sotish chog'idagi buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo'ladi:

Dt 4010 "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" 515200 ming so'm

Kt 9010 "Tayyor mahsulotni sotishdan olingan olingan daromadlar" 448000 ming so'm.

Kt 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar" (QQS) 67200 ming so'm

Yuklab jo‘natilgan mahsulot tannarxi 2810-schyot kreditida hisobdan chiqariladi:

Dt 9110 "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi" 320000

Kt 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" 320000

Hisobot davrining oxirida daromadlar va xarajatlar 9910-schyotda yopiladi:

Dt 9910- "Yakuniy moliyaviy natija" 320000

Kt 9110- "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi" 320000 va

Dt 9010-"Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar" 448000

Kt 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" 448000

9910-schyotdagi saldo boshqa daromadlar va xarajatlar schyotlari yopilganidan so‘ng sub‘ektning xo‘jalik faoliyati natijasini (foyda yoki zararni) aks ettiradi. Hisoblab yozish tamoyiliga binoan tayyor mahsulotni sotish chog‘idagi daromad, sub‘ekt tomonidan yuklab jo‘natilgan mahsulot uchun pul mablag‘larining olinganligi yoki olinmaganligidan qat’iy nazar, tan olinadi.

Yarmarkaga, ko‘rgazmaga yoki boshqa reklama ko‘riklari uchun jo‘natilgan tayyor mahsulot 2830-alohida schyotida aks ettiriladi:

Dt 2820 "Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulot"

Kt 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot"

Boshqa shaxslarga komissiya shartnomalari bo‘yicha berilgan tayyor mahsulot chiqib ketish schyotlari orqali aks ettirilmaydi, chunki mazkur holatda mahsulot oluvchisi (komissioner) uning sotuvchisi (komitent) nomidan sotilishi majburiyatni o‘z zimmasiga oladi va daromad mahsulotning uchinchi tarafga sotilishi paytida tan olinadi. Mazkur holatga egalik qilish huquqi u uchinchi tarafga sotilishi paytiga qadar uning sotuvchisi (komitent)da qolganligi uchun ham mahsulot uning balansida aks ettiriladi. Mahsulot komissiya shartnomasi bo‘yicha berilganda quydagicha yozuv amalga oshiriladi:

Dt 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot"

Kt 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot"

Faqat uning uchinchi tarafga sotilishi chogʻidagina sotuvchi (komitent)da ham mahsulotning sotilishi aks ettiriladi va mahsulot tannarxi 2830-schyot kreditidan hisobdan chiqariladi:

Dt 9110 "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi"

Kt 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot"

Amalda har qanday tayyor mahsulotning chiqib ketishida (hisobdan chiqarilishi, buzilishi, kamomadi bundan mustasno) bu operatsiya 9010-"Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar" schyoti orqali, bir vaqtning oʻzida tayyor mahsulot tannarxini 9110-"Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi" schyotining debeti va 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot" schyotining krediti boʻyicha hisobdan chiqarishni aks ettirish orqali amalga oshiriladi.

Misol.

Qiymati 65000 ming soʻm boʻlgan tayyor mahsulot boshqa subʻektga qisqa muddatli qarz sifatida berilgan. Bunda quyidagi yozuvlar amalga oshirilishi zarur:

chiqib ketishning aks ettirilishi (QQSni hisobga olgan holda- ushbu soliq toʻlovchilari uchun):

Dt 5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzar" 74750000

Dt 9010 "Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar" 65000000

Kt 6410 "Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarzar" (QQS) 9750000

tayyor mahsulot qiymatining hisobdan chiqarilishi:

Dt 9110 "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi" 65000000

Kt 2810 -"Ombordagi tayyor mahsulot" 65000000

Ishlar yoki xizmatlar boshqa subʻektlar uchun koʻrsatilishi (sotilishi) hollarida yozuvlar xuddi shu tartibda amalga oshiriladi, biroq mazkur holatda daromad 9030 -"Bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar" schyotining krediti boʻyicha aks ettiriladi, ishlar (xizmatlar) qiymati esa oʻsha zahotiyoq 2800 - tayyor mahsulotni hisobga olish schyotini chetlab oʻtgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish schyotlaridan (2010, 2310, 2710) 9130 - "Bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar tannarxi" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi

Mahsulotni realizatsiya qilish bir qancha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Mahsulotni sotish bilan bogʻliq xarajatlar tijorat xarajatlari deb yuritiladi. Ushbu turdagi xarajatlarni toʻgʻri, aniq va oʻz vaqtida aks ettirish har bir korxonaning moliyaviy natijalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotish xarajatlarini hisobga olish «Xarajatlar tarkibi toʻgʻrisidagi Nizom»ga asosan amalga oshiriladi. Nizomga binoan sotish xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- temir yoʻl, suv, avtomobil, ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun toʻlangan jarimalar;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining ish xarajatlari;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bogʻliq mehnatga haq toʻlash xarajatlari, maʼmuriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari;
- ularning ijtimoiy sugʻurta ajratmalari;
- savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- sanitariya kiyim-boshi, oshxona dasturxon va sochikdari, oshxona idish-tovogʻi va anjomlari eskirishi;
- gaz, yoqilgʻi, elektr energiyasi xarajatlari;
- tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari;
- savdo reklamasi xarajatlari;
- tashish, saqlash va sotish chogʻida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yoʻqotilishi;
- oʻrash-joylash materiallari xarajatlari;
- mol-mulkni majburiy sugʻurta qilish xarajatlari;
- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari;
- ventilyatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvch qismlarini oʻrnatish va saqlash, tuynuklar, oʻyikdar va boshqalarning atrofini oʻrash boʻyicha joriy (nomukammal tUSDagi) xarajatlar;

-maxsus kiyim-bosh va poyafzalni yuvish va tuzatishga materiallar qiymati;

-umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko'riqtsan o'tkazilganligi uchun tibbiyot muassasalariga haq to'lash;

- kassa xo'jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari;

- umumiy ovqatlanish korxonalarida qog'oz salfetkalar, qog'oz dasturxonlar, qog'oz stakanlar va tarelkalar, bir marta foydalaniladigan anjomlar qiymati;

- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar);

- ilgari ish joy bo'yicha lavozim oklad miqdorini sakdagan holda boshqa tashkilotlar korxonalardan, shuningdek, vaqtinchalik o'rindoshlik bo'yicha xodimlarga to'lanadigan okladlardagi farq;

- sovun, apteka, dori-darmon vositalarining qiymati;

- soliqlar (er uchun, mulk uchun, avtotransport vositalari uchun);

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlashga va ta'mirlashga ajratmalar;

- bank xizmatlariga to'lovlar.

17.3-jadval

Tayyor mahsulot va tayyor mahsulotlarni sotish jarayonidagi xarajat moddalarining tarkibi

T/r	Xarajatlar moddasi
1	Mahsulotlarni, tovarlarni tashish xarajatlari. Transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar
2	Xodimlarning sotish bilan bog'liq mehnatiga haq to'lash xarajatlari, ularning MHTFdand ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
3	Savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan asosiy vositalarni ijaraga olish, saqlash va ta'mirlash xarajatlari
4	Sotishda foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
5	Inventar va xo'jalik anjomlarini hisobdan chiqarish hamda ularni yaroqli holatda saqlash xarajatlari
6	Gaz, yoqilg'i va elektr energiyasi xarajatlari
7	Tovarlarini saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish

	xarajatlari
8	Marketing va reklama xarajatlari
9	Tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning, mahsulotlarning yo'qotilishi
10	Tovar idishlari, bir marta foydalaniladigan idishlarga xarajatlar va sotish bo'yicha boshqa moddiy xarajatlar
11	Mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari
12	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari
13	Umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tkazilganligi uchun haq to'lash
14	Kassa xo'jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari
15	Sotish bo'yicha boshqa xarajatlar

Saqlash, ishlov berish, sortlarga ajratish

Tovarlarning sifati ko'p jihatdan sotish paytida to'g'ri saqlanishiga bog'liq. Bu ayniqsa oziq-ovqat, meva-sabzavot, dori mahsulotlariga taalluqli. Saqlash uchun:

- tegishli sharoitlarga ega bo'lgan tashkilotni jalb etishingiz;
- o'z kuchingiz bilan omborxonani tashkil etishingiz mumkin.

Ikkinchi holatda u quyidagilarni o'z ichiga oladigan kompleks xarajatlar moddasi bo'ladi:

- omborxonani va zarur uskunalarni (konditsionerlar, ventilyatorlar va mahsulotlar, tovarlarni joylashtirish uchun boshqa uskunalarni) ijarasi yoki amortizatsiyasi;

- elektr energiyasi, suv, omborxonani tozalash uchun to'lanadigan haq;
- mahsulotlar va tovarlar qabul qilinishi, joylashtirilishi, berilishi va but saqlanishini ta'minlash uchun omborxonani xodimlarining ish haqi. Zarurat tug'ilganda ular tovarni sortlarga ajratishlari yoki maydaroq turkumlarga qadoqlashlari ham mumkin;

- omborxonani xodimlarining ish haqidan YaIT;
- boshqa xarajatlar.

Reklama va marketing xarajatlari

Ularning tarkibiga quyidagilarni kiriting:

- mahsulotlarni ilgari surish va turli tashuvchilarda reklama joylashtirish xizmatlariga haq to'lash. Ular bosma nashrlar, saytlar, bilbordlar, istalgan predmetlar va h.k. bo'lishi mumkin;

- manfaatdor shaxslar o'rtasida tarqatiladigan mahsulot yoki tovarlaringiz reklama namunalarining qiymati;

- boshqa xarajatlar.

Misol. Reklama xarajatlarini hisobga olish

Korxonada reklama maqsadlarida:

o'z mahsuloti haqida saytda e'lon berish uchun QQSSiz 3 000 ming so'm to'radi;

1 000 ta ruchka va 1 000 ta bloknot xarid qildi, ularda o'z korxonasining logotipini joylashtirdi. Ruchka qiymati – 5 ming so'm, bloknot – 8 ming so'm, logotip tushirishning umumiy qiymati – QQSSiz 300 ming so'm;

yillik ko'rgazmada qatnashdi, unda bir birligining qiymati 80 ming so'm bo'lgan mahsulotning 50 ta namunasi, shuningdek logotipli ruchka va bloknotlarni tarqatdi.

Yuqorida biz keltirgan xarajatlar 9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» schyotida hisobga olinadi. Ushbu schyot tranzit schyot bo'lib, qaysi davr bo'lmasin uning oy boshida qoldiq summasi bo'lmaydi. Uning debet tomonida tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ko'rsatilsa, kredit tomonida ushbu xarajatlarning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bu summa foydani kamayishiga olib keladi, ya'ni foyda hisobidan qoplanadi.

9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» schyotining analitik hisobi 15-sonli qaydnomada xarajatlarning debet va kredit oboroti bo'yicha ko'rsatiladi. Debet oborotining jami summasi №1, 2, 7, 10/1-jurnal-orderlarida aks ettirilsa, kredit bo'yicha oborot summalari esa №11-jurnal-orderida aks ettiriladi.

Mahsulotning sotilishi korxonada mablag'lari aylanishining yakunlovchi jarayonidir. Bu jarayon korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning xalq xo'jaligi iste'molida o'z o'rnini topganligini anglatadi. Hozirgi paytda

korxonani baholashda mahsulotning sotilishi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 apreldagi sessiyasida tasdiqdangan va 1998 yil 1 yanvardan boshlab amalda ko'llash uchun tavsiya etilgan Uzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 10-moddasiga va Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Soliq ko'mitasining 1998 yil 4 yanvardagi «Korxonalar va tashkilotlarni soliqqa tortish tartibiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi xatiga binoan ham yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq hisoblash usuliga ko'ra amalga oshiriladi. Bunga ko'ra korxonalar va muassasalar jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar yuzasidan ushbu mahsulot, ish va xizmatlar qiymatini to'lash vaqti hamda haqiqatan pul kelib tushishidan qat'iy nazar, jo'natilgan mahsulot ish va xizmatlar qiymatidan davlat budjetiga soliq hisoblashlari va uni buxgalteriya hisobida o'sha hisobot davrida aks ettirishlari lozim. Demak, yuqorida aytilganlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi xo'jalik yuritish sharoitida 1998 yil 1 yanvardan boshlab korxonalar va muassasalarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar pulning qachon kelib tushishidan qat'iy nazar, ular xaridor korxonalariga jo'natilgan vaqtdan boshlab realizatsiya qilingan deb hisoblanadi.

«Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMAga muvofiq quyidagi shartlar bajarilganda tovarlarni sotishdan tushgan daromadlar tan olinadi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirganida;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt, odatda, mulkka egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan darajadagi rahbarlik davomiyligini ham, sotilgan tovarlarni nazorat qilish samaradorligini ham saklab qolmaganida;
- daromad miqdori ishonchli darajada baholanganida;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt bitim bilan bog'liq iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo'lganida;
- bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar ishonchli

darajada aniqlanadigan bo'lganida.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad operatsiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan olingan taqdiridagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish xususidagi noaniqlik vujudga kelgan takdirda, qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bo'lmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorining o'zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi.

Korxonani sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonani rahbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko'proq e'tibor berishga chaqiradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular esa, o'z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xaridorlar tomonidan to'langan pul mol yetkazib beruvchi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushadi. Mol yetkazib beruvchi tashkilotlarning tayyor mahsuloti xaridorlar tomonidan shu mahsulotni tayyorlovchi korxonaning o'zida bevosita qabul qilib olinsa yoki u mahsulot tranzit usuli bilan (ta'minot sotish tashkilotlarining ishtirokisiz) jo'natilsa, mahsulotning xaridorga topshirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va u moliyaviy natijalarga kiritiladi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo'yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining rentabellik darajasi va boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi lozim.

Sotilgan mahsulot 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadi.

9010, 9020, 9030-schyotlarning kreditida 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti bilan korrespondentlangan

holda mahsulot (ish, xizmat) lar sotishdan olinadigan sof tushum aks ettiriladi. Bu schyotlarda xaridorlarga joʻnatilgan mahsulot (ish, xizmat)lar boʻyicha hisoblangan aksiz soligʻi va QQS summalari aks ettirilmaydi.

Tayyor mahsulotning sotilishida sotish bahosining aks ettirilishiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» -60000 soʻm

K-t 6410-«Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarzarlar» - 10000 soʻm

K-t 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromad» - 50000 soʻm.

4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti aktiv boʻlib, uning saldosi xaridor va buyurtmachilarning korxonadan sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar boʻyicha qarzini koʻrsatadi, debet oboroti hisobot oyida topshirilgan mahsulot, bajarilgan ish va koʻrsatilgan xizmatlarning sotish qiymatini, kredit oboroti esa hisobot oyida xaridorlar tomonidan toʻlangan summani koʻrsatadi.

Xaridorlarga yuklab joʻnatilgan mahsulotlar harakatining hisobi 16-vedomostning 2-boʻlimida yuritiladi. Yuklab joʻnatilgan va sotilgan mahsulotlarning schyotlari boʻyicha sintetik hisob 11-jurnal-orderda yuritiladi. Bu jurnal-order 2810, 9410, 9010, 9020, 9030, 9210, 9220, 4010-schyotlarning kredit oborotlarini va 9010, 9020, 9030-schyotlarning analitik maʼlumotlarini yozish uchun moʻljallangan. 11-jurnal-order 15 va 16-vedomostlarning analitik maʼlumotlariga asosan toʻldiriladi.

Hisobot davri yakunida 9010, 9020, 9030-schyotlar yopiladi:

D-t 9010, 9020, 9030-schyotlar - 200000 soʻm

K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» - 200000 soʻm.

Shu bilan birga, sotilgan mahsulotning tannarxi ham hisobot davri yakunida yakuniy moliyaviy natijaga oʻtkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» - 130000 soʻm

K-t 9110, 9120, 9130 - 130000 soʻm.

Korxonalar o'z mahsulotlarining sotilishini hisobga olish bilan bir qatorda mahsulot(ish, xizmat) lar uchun ko'shilgan qiymat solig'ini (QQS) ham hisobga olib borishlari shart.

Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi 1997 yil 5 dekabrda «Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha ko'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida» yo'riqnomani ishlab chikdi va 1998 yil 1 yanvardan boshlab amalda qo'llash uchun tavsiya qilindi. Mazkur yo'riqnomada umumiy qoidalar, soliq to'lovchilar, soliqqa tortish ob'ektlari, soliqqa tortish

oborotlarini aniqlash, soliqqa tortish oborotlarini korrektyrovka qilish, soliq imtiyozlari hamda stavkalari budjetga to'lanishi kerak bo'lgan ko'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlash tartibi, schyot-faktura soliqni to'lash muddati va h.k. larini taqdim qilish, soliq to'lovchilarning mas'uliyati, soliq idoralarining nazorati batafsil bayon qilinadi. Yo'riqnoma Uzbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq Uzbekiston hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar ko'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar. Yuridik shaxslar deganda soliqqa tortish maqsadida mulkka ega bo'lgan korxonalar, birlashma, tashkilotlarning hamma turlari, xo'jalik yurituvchi yoki mulkni operativ boshqaruvchi, bu mulkka o'zining majburiyati bo'yicha javob beruvchi hamda mustaqil balans va hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan korxonalar tushuniladi.

Tovarlar (ish, xizmat) bo'yicha oborot deb, jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar tushuniladi.

Ushbu yo'riqnomada ko'rsatilishicha tovarlar (ish, xizmat) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar ko'shilgan qiymat solig'iga tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Uzbekiston Respublikasida xalqaro shartnomaga muvofiq aniqlanadigan o'zining maqsadlari va oborot uchun foydalaniladigan ko'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etilganlar bundan mustasnodir. Ko'shilgan qiymat solig'i 20% stavkada to'lanadi. Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan QQS solig'ining summasi realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisoblangan ko'shilgan qiymat solig'i summasidan ishlab chiqarish va muomala

xarajatlariga qo‘shiladigan tovarlar (ish, xizmat) qiymati uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq summasining ayirmasiga teng. Bu tartib qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi barcha korxonalar va tashkilotlarga taalluqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula buyicha aniqlanadi:

$$S_{qqs} = S_{tob} * SS/100$$

Bunda: S_{qqs} - undiriladigan soliq summasi;

S_{tob} - soliqqa tortiladigan oborot;

SS — qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langan summa ko‘shilgan holda sotib olinish qiymati bo‘yicha hisobda aks ettiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan va tortilmaydigan tovar sotadigan, ish va xizmatlar bajaradigan korxonalar hamda QQS bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan korxonalar, ko‘rsatilgan tovarlarni oluvchi shaxsga schyot-faktura rasmiylashtirishga majburdir. Schyot faktura yo‘riqnomada ko‘rsatilgan shakl bo‘yicha yozilishi shart.

Ba‘zi korxonalar tayyor mahsulotni sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikta aksiz solig‘ini ham to‘lashi mumkin. Aksiz solig‘i sof daromad narxida va qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, bilvosita soliq sifatida budjetga to‘lanadigan soliqdir.

Aksiz solig‘i olinadigan tovarlar ro‘yxati va soliq stavkalari Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tabaqalangan holda belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi soliq stavkalari va aksiz solig‘i solinadigan tovarlar ro‘yxatini qaytadan ko‘rib chiqib joriy etish huquqiga ega. Aksiz solig‘i solinadigan tovarning naturada haq to‘lash sifatida yoki bepul berilishi ham soliqqa tortiladigan ob‘ekt hisoblanadi. Bunda soliq to‘lovchida tovarni berish paytida qaror topgan. Lekin bunday aksiz solig‘i solinadigan tovarning ishlab chiqarilishiga doir amalda tarkib topgan xarajatlardan past bo‘lmagan narxlar darajasida hisoblab chiqilgan qiymat soliqqa tortish ob‘ekti hisoblanadi.

Aksiz solig‘i summasi quyidagi formulaga binoan belgilanadi.

$(O \times A) / 100$, bunda:

O - aksiz solig'i summasini o'z ichiga oladigan, QQSsiz shartnomaviy (erkin) narx;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz markalari yopishtirilgan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i umumiy belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi. Bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'ini to'lash hisobiga hisobga olinadi. Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunlarga muvofiq berilgan xom ashyo mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonadan balansdan tashqarida hisobga olinadi.

Xaridorlarga jo'natilgan tayyor mahsulotlarga QQS va aksiz solig'i hisoblanganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» -78000 so'm

K-t 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar» 78000 so'm.

QQS summasi budjetga o'tkazib berilganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar» - 78000 so'm

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti» - 78000 so'm.

Amaldagi qonunchilikka binoan har bir korxonadan sotilgan mahsulotning umumiy sotish hajmidan 0,7% miqdorida Pensiya fondiga ajratma qilishi shart. Korxonalarining Pensiya fondiga sotish hajmidan ajratma qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad ushbu fondning mablag'larini ko'paytirish, bu orqali xalqimizga turli ko'rinishdagi ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini ko'rsatishdan iboratdir.

17.6. Konsignatsiya muomalalarini hisobda aks ettirish.

Hozirgi kunda tayyor mahsulotni sotishda konsignatsiya muomalalari ham keng ko'llaniladi. Bir tomonning (konsignantning) boshqa tomonga (konsignatorga) xorijiy mamlakat omboridagi tovarni o'z nomidan, biroq konsignant hisobiga sotish to'g'risidagi topshirig'i **konsignatsiya** deyiladi.

Konsignor - tovarlarning egasi bulmasada, tovarlari mavjud bulib, asosan, komission boshlangich boskichida faoliyat yuritadi. Uz idorasi, shuningdek, qabul qilish, qayta ishlash va tovarlarni sotish binosiga ega buladi.

Konsignatsiya - tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bulib, unga kura tovarlarning egasi (konsignant) u yerdagi uz komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun junatadi

Konsignatorni - konsignatsiya savdosini tashkil qilish topshirig'ini bajarishni o'z zimmasiga oluvchi, biroq tovarning egasi hisoblanmagan shaxsni takdirlash miqdori va tartibi konsignatsiya shartnomasida sotiladigan tovar qiymatining muayyan foizi ko'rinishida yoki eng kam narx bilan sotish narxi o'rtasidagi farq ko'rinishida beriladi. Korxonalar tomonidan konsignatsiya shartlari asosida olinadigan tovarlar 004-«Komissiyaga olingan tovarlar» balansdan tashqari schyotida hisobga olinishi kerak.

Sub'ektga tegishli bo'lmagan tovarlar balans schyotlarida aks ettirilmaydi, balki balansdan tashqari hisobga olinadi. Chunonchi, agar tovarlar mas'uliyatli saqlash uchun qabul qilingan bo'lsa, ular balansdan tashqari 002- "Mas'uliyatli saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qimmatliklar" schyotida hisobga olinadi, komissiya shartnomasi bo'yicha qabul qilinganlari esa 004- "Komissiyaga qabul qilingan tovarlar" schyotida hisobga olinadi.

Boshqa shaxslarga komissiya shartnomalari bo'yicha berilgan tovarlar chiqib ketishlar schyotlari orqali aks ettirilmaydi, balki 2960-"Komissiyaga berilgan tovarlar" schyotida aks ettiriladi.

Ushbu holatda mahsulotni oluvchi (komissioner) o'z zimmasiga uni sotuvchi (komitent) nomidan sotish majburiyatini oladi, daromad esa tovarlarni uchinchi tarafga sotish vaqtida tan olinadi. Ushbu tovarga egalik huquqi uni uchinchi tarafga sotish vaqtigacha uning sotuvchisi (komitent)da bo'lganligi sababli mazkur tovar uning balansida aks ettiriladi. Tovar komissiya shartnomasi bo'yicha berilishi chog'ida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

Dt 2960 "Komissiyaga berilgan tovarlar"

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar"

Fakat u uchinchi tarafga sotilishi chog'idagina, tovarning sotilishi sotuvchida (komitentda) ham aks ettiriladi, tovarning tannarxi 2960- schyot kreditidan hisobdan chiqariladi:

Dt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi"

Kt 2960 "Komissiyaga berilgan tovarlar".

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning maxsus (firma) do'konlarida tovarlarni sotishni hisobga olish.

Agar tovar-moddiy qimmatliklar sotish uchun tovarlar va prokat (ijara)vositalari sifatida sotib olinadigan bo'lsa, ularning hisobi quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

2910 "Ombordagi tovarlar";

2920 "Chakana savdodagi tovarlar";

2930 "Ko'rgazmadagi tovarlar";

2940 "Ijara buyumlari";

2950 "Tovar solingan va bo'sh idishlar";

2960 "Komissiyaga berilgan tovarlar";

2970 "Io'ldagi tovarlar";

2980 "Savdo ustamasi";

2990 "Boshqa tovarlar";

Ushbu schyotlardan asosan savdo va umumiy ovqatlanish sub'ektlari foydalanadi. Biroq ishlab chiqarish sub'ektlari ham ulardan biror-bir qimmatliklar ishlab chiqarish maqsadlari uchun emas, balki faqat sotish uchungina olingan hollarda foydalanadilar. Sanoat va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar, qandaydir buyumlar, materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari maxsus sotish uchun xarid qilingan hollarda qo'llaniladi.

Yuqorida bayon qilingan hisobga olishning asosiy barcha tovar-moddiy qimmatliklar uchun xosdir, shuning uchun ham tovarlarni hisobga olish bilan bog'liq ko'pchilik operatsiyalar buxgalteriya hisobida materiallarni hisobga olishga o'xshash tarzda aks ettiriladi; masalan, tovarlarning kelib tushishini aks ettirishni olaylik.

2910 "Ombordagi tovarlar" schyotida ulgurji va taqsimot bazalarida, omborlarda, umumiy ovqatlanish korxonalarining saqlash joylarida, sabzavotni saqlash joylarida va boshqalarda saqlanayotgan mavjud tovar zaxiralarining naqdligi va harakati sotib olish qiymatida hisobga olinadi.

Omborga kelib tushgan tovarlar va idishlarning kirim qilinishi 2910 "Ombordagi tovarlar" schyotining debetida tovarlarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar bilan birgalikda aks ettiriladi.

Tovarlar va idishlarning kelib tushishini 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotidan foydalanilgan holda materiallar bilan bog'liq muomalalarni hisobga olish tartibi kabi bir xilda hisobda aks ettirish mumkin.

Xaridorlar (buyurtmachilar)ga sotilgan tovarlar va ular uchun ushbu xaridor (buyurtmachi)larga hisob-kitob hujjatlarining taqdim etilishi yoki ular tomonidan to'lanishi 2910 "Ombordagi tovarlar" schyotidan 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyotining debetiga sotish tartibida hisobdan chiqariladi.

Tovarlar mol yetkazib beruvchilardan olinganda buxgalteriya yozuvi quyidagicha bo'ladi:

Dt 2910 "Ombordagi tovarlar"

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar".

Tovarlar uchun oldindan qisman to'lov quyidagi tarzda aks ettiriladi:

Dt 4310 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga TMQ hisobidan berilgan bo'naklar"

Kt 5110 "Hisob-kitob schyoti"

Tovarlar olib bo'lingandan so'ng bo'naklar schyoti o'tkazilgan mablag'lar so'mmasiga kreditlanadi:

Dt 6010 "Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"

Kt 4310 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga TMQ hisobidan berilgan bo'naklar".

Tovarlar sotib olinganda ularning qiymatiga tovarlarning belgilangan joygacha yetkazilib berilishi va kerakli holatga keltirilishi bilan bog'liq harid qilish va transport-tayyorlov xarajatlariga oid barcha xarajatlar kiritiladi.

Ta'minot, tayyorlov, savdo korxonalarida tovarlarni hisobga oluvchi schyotlarda shuningdek, asosiy vositalar yoki materiallarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarda yuritiladigan ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan inventarlardan tashqari sotib olingan idishlar va o'zida ishlab chiqarilgan idishlar hisobga olinadi.

Misol.

Ulgurji sotish uchun QQSni hisobga olgan holda metri 20000 so'mdan jami 10000 ming so'mlik 500 metr gazlama olingan. Transport xarajatlari to'langan-4500 ming so'm. Mol yetkazib beruvchilarga to'langan (1304,3ming so'm)ko'shilgan qiymat solig'i hisobga o'tkazilmaydi, chunki savdo sub'ektlari QQSni to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydi, u sotib olingan tovarlarning tannarxiga kiritiladi.

Xarid qilish bahosining hisob-kitobi uchun 1510-"Materiallarni tayyorlash va harid qilish" jamlovchi schyotidan ham foydalanish mumkin. Mazkur schyotning debetida sub'ekt tomonidan tovarlarning sotib olinishi chog'ida qilingan barcha xarajatlar jamlanadi.

Hisobda gazlama kelib tushishi aks ettirilishi:

Dt 1510 "Materiallarni tayyorlash va harid qilish" 100000

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"
100000

Transport xarajatlarning aks ettirilishi:

Dt 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" 4500

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"
4500

Gazlamaning xarid bahosi $(100000+4500)=104500$ ming so'mni tashkil qiladi. Bir metr gazlamaning tannarxini aniqlash mumkin; u $(104500 \text{ ming so'm} :$

500 metr)=209,0 ming soʻmga teng, ayni mana shu baho boʻyicha gazlama buxgalteriya hisobida hisobga olinishi kerak.

Haqiqatdagi xarid qilishi tannarxi hisob-kitob qilinganidan soʻng 1510-schyot kreditlanadi va xarajatlarning barcha soʻmmasi tovarlarni hisobga olish schyotlariga kiritiladi;

Dt 2910 "Ombordagi tovarlar" 104500 ming soʻm

Kt 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" 104500 ming soʻm

Tovarlar valyutaga sotib olinishida ularning qiymati ularning hisobga qabul qilinishi sanasida UzR Markaziy banki kursi boʻyicha soʻmlarda aks ettiriladi.

Misol.

900 AQSh dollaridan iborat summaga tovarlar olingan.

Markaziy bank kursi- 1 dollar uchun 1250(9522) soʻm. Ularning qiymati $(900 \cdot 1250(9522)) = 1125000$ (8569800) soʻmni tashkil qiladi, buxgalteriya yozuvi esa quyidagicha boʻladi:

Dt 2910 "Ombordagi tovarlar" 1125000(8569800)

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga toʻlanadigan schyotlar" 1125000(8569800)

Agar tovarlarni yetkazib berish bilan bogʻliq xarajatlar va boshqa xarajatlar yuz bergan boʻlsa, ular ularning tannarxiga kiritiladi.

4-son BHMSga binoan FIFO usuli afzalroq hisoblanadi; ushbu usul narxlarning oʻsishi sharoitida tannarxning eng kam qiymatlari va foydaning eng yuqori qiymatlarini beradi. 4-son BHMSga muvofiq tovarlar ikkita baholashdan eng past boʻyicha haqiqatdagi tannarxi (xarid qilish bahosi) yoki bozor bahosi (sotishning sof qiymati) boʻyicha hisobga olinadi. Qayta baholash boʻyicha farq u aniqlangan hisobot davrida hisobdan chiqariladi. Masalan, tovarlarning maʼnaviy eskirib qolganligi oqibatida tovarni arzonlashtirishdan koʻrilgan zarar aks ettirilgan:

Dt 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar"

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar".

Sotish ham, tovarlarning boshqacha chiqib ketish variantlari singari, 9020 - "Tovarlarini sotishdan olingan daromadlar" schyoti orqali aks ettiriladi.

Misol.

30000ming soʻmga tovar sotilgan. Uning tannarxi -19500 ming soʻm.

tovar chiqib ketishining aks ettirilishi:

Dt 4010 "Haridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" 30000

Kt 9020 "Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" 30000

tovar tannarxining hisobdan chiqarilishi:

Dt 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi" 19500

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar" 19500

9020- schyot boʻyicha kredit aylanasi va 9120- schyot boʻyicha debet aylanmasining taqqoslanishi chogʻida sotishdan olingan yalpi daromadni aniqlash mumkin, u tovarning sotish bahosi bilan xarid qilish qiymati oʻrtasidagi farqdir. Aniq davr uchun moliyaviy natija toʻliqligicha 9910- "Yakuniy moliyaviy natija" schyotida shakllantiriladi.

Savdo subʼektlariga tegishli boʻlgan idishlar hisobi 2950 -"Tovar solingan va boʻsh idishlar" schyotida yuritiladi, bundan 0190 -"Boshqa asosiy vositalar" schyotida hisobga olinadigan asosiy vositalar alomatlariga javob beruvchi idishlar, shuningdek, 1060 -"Idishlar va idish materiallari" schyotida hisobga olinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun moʻljallangan idishlar bundan mustasno.

2950 "Tovarlarni bilan band va boʻsh idishlar" schyotida tovarlar bilan band va boʻsh turgan idishlarning (chakana savdo korxonalaridagi va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi shisha idishlardan tashqari) naqdligi va harakati hisobga olinadi.

Savdo korxonalarini tovarlar bilan band va boʻsh boʻlgan idishlarning harakatini ularning tarkibi va bahosidan kelib chiqqan holda idishlar guruhi bahosi boʻyicha oʻrnatiladigan oʻrtacha hisob bahosi boʻyicha hisobga olishlari mumkin. Bunda idishlarni sotib olish bahosi bilan oʻrtacha hisob baholari orasidagi farq 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" schyotida yoki 9490 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyotida olib boriladi.

Tovar solingan idishlar mol yetkazib beruvchilardan tovarlar bilan birgalikda kelib tushishi chog'ida idishlar qiymati hujjatlari alohida satrda ajratib ko'rsatilgan holda quyidagi tarzda hisobga olinadi:

Dt 2950 "Tovar solingan va bo'sh idishlar"

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar".

Idishlar xaridorlar tomonidan qaytarilishi chog'ida:

Dt 2950 "Tovar solingan va bo'sh idishlar»

Kt 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Xaridorlarga tovar bilan birgaliqtsa sotib yuborilgan, qaytarilmaydigan idishlar qiymati tovarlarni sotish kabi aks ettiriladi.

Misol.

Idishlar qiymati (2000 ming so'm) hisobga olingan holda 60000 ming so'mdan iborat summaga tovarlar sotilgan. Sotilgan tovarning tannarxi - 45000 ming so'm.

Sotishdan olingan daromadning aks ettirilishi:

Dt 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" 60000

Kt 9020 "Tovarlarni sotishdan olingan daromad" 6000

Tovarlar va idishlar tannarxining hisobdan chiqarilishi:

Dt 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» 45000

Kt 2910 «Ombordagi tovarlar» 43000

Kt 2950 "Tovar solingan va bo'sh idishlar" 2000

Agar tovarlarni sotish shartnomasida idishlarning qaytarilishi nazarda tutilgan bo'lsa, uning qiymati tovar qiymatiga kiritilmaydi, hujjatlarda alohida satrda ajratib ko'rsatiladi va sotishdan olingan daromadga kiritilmaydi.

Yaroqsiz holga kelgan idishlarni hisobdan chiqarish hisobda quyidagi tarzda aks ettiriladi:

Dt 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar"

Kt 2950 "Tovar solingan va bo'sh idishlar".

Inventarizatsiya qilinishi chogʻida aniqlangan kirim qilingan idishlar qiymati daromad sifatida aks ettiriladi:

Dt 2950 "Tovar solingan va boʻsh idishlar"

Kt 9390 "Boshqa operatsion daromadlar".

2930 "Koʻrgazmadagi tovarlar" schyotida koʻrgazmalar, yarmarkalar, reklama va koʻrsatish uchun moʻljallangan tovarlar hisobga olinadi. Bunda 2930 "Koʻrgazmadagi tovarlar" schyotining debeti va 2910 "Ombordagi tovarlar" yoki 2920 "Chakana savdodagi tovarlar" schyotlarining krediti boʻyicha yozuvlar amalga oshiriladi. Tovarlarni uchun javobgarlik vaqtincha bir moddiy javobgar shaxsdan boshqasiga oʻtadi. Agar koʻrgazmaga, yarmarkaga va hokazoga qoʻyilgan tovarlar sotilsa, u holda buxgalteriya yozuvlari 2910 "Ombordagi tovarlar" schyotidagi kabi amalga oshiriladi. 2940 "Prokatdagi buyumlar" schyotida prokatga (ijaraga) berish uchun moʻljallangan buyumlarning naqdligi va harakati hisobga olinadi. 2960 "Komissiyaga berilgan tovarlar" schyotida boshqa korxonalariga komissiya va konsignatsiya shartnomasi boʻyicha berilgan tovarlar hisobga olinadi. 2970 "Yoʻldagi tovarlar" schyotida hisobot davri oxirida yoʻlda qolgan (omborga kelib tushmagan) tovarlar hisobga olinadi. 2990 "Boshqa tovarlar" schyotida 2910-2950 schyotlarda aks ettirilmaydigan boshqa tovarlar hisobga olinadi.

Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900) boʻyicha analitik hisob moddiy javobgar shaxslar, tovarlarning nomlari (navi, guruhlar, toylar) va tovarlarning saqlanish joylari boʻyicha yuritiladi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish subʼektlarida tovarlarni hisobga olish

Tovarlarning chakana sotilishi, shuningdek umumiy ovqatlanish subʼektlari bufetlaridagi sotishlar 2920 - "Chakana savdodagi tovarlar" schyotida aks ettiriladi. Ana shu schyotda chakana savdo schyotlari va umumiy ovqatlanish subʼektlarining bufetlarida shisha idishlar (butilka, banka va hokazolar)ning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

2920 "Chakana savdodagi tovarlar" schyotida chakana savdo korxonalari (magazinlar, palatkalar, laryoklar, kiosklar va hokazolar) va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi tovarlarning naqdligi va harakati hisobga olinadi. Chakana savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi shisha idishlar (shishalar, bankalar va boshqalar)ning naqdligi va harakati ham ushbu schyotda hisobga olinadi. Chakana savdodagi tovarlarning sotilishida ham 2910 "Ombordagi tovarlar" schyotidagi kabi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Chakana savdo tashkilotlarida tovarlar chakana (sotish) narxlari yoki harid qilish qiymati asosida aks ettiriladi. Tovarlarini chakana (sotish) narxlari bo'yicha hisobga olish chog'ida harid qilish qiymati bilan sotish narxlari bo'yicha qiymat (savdo ustamasi) o'rtasidagi farq hisobotlarda alohida moddada aks ettiriladi. Hisobda savdo ustamasi 2920 - "Chakana savdodagi tovarlar" schyotining debeti va ustamaning kontrar schyoti krediti bo'yicha aks ettiriladi:

Dt 2920 "Chakana savdodagi tovaarlar"

Kt 2980 "Savdo ustamasi".

2980 - "Savdo ustamasi" schyoti, agar tovarlar sotish baholari bo'yicha hisobga olinsa, chakana savdo va umumiy ovqatlanishdagi tovarlarga oid savdo ustamalari (chegirmalari)ni aks ettirish uchun mo'ljallangan.

2980 "Savdo ustamasi" schyoti agar chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlar hisobda sotish bahosida yuritilsa, tovarlarning savdo ustama (chegirma)lari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ushbu schyotda omborxonalar, bufetlar va oshxonalaridagi mavjud oziq-ovqat mahsulotlari va tovarlarning savdo ustamalari shuningdek, oshxona va bufet mahsulotlariga sotish bahosida ularning qiymatiga belgilangan tartibda qo'yiladigan ustama summalari hisobga olinadi.

2980 "Savdo ustamasi" schyoti tovarlar kirim qilinganda savdo ustamasi summasiga kreditlanib, sotilgan, chiqarilgan, yoki tabiiy yo'qotish natijasida hisobdan chiqarilgan, yaroqsiz, buzilgan, kamomad va hokazolarda tovarlar bo'yicha savdo ustamasi summasiga debetlanadi. Savdo ustamasining sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan qismi 2980 "Savdo ustamasi" schyotining debetida va

9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyotining kreditida aks ettiriladi. Savdo ustamasi summasining sotilmay qolgan tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan qismi yo'qlama qilish opislari asosida, o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq, tovarlarga tegishli ustamani aniqlash orqali aniqlashtiriladi.

Chakana savdo korxonalarida sotilmagan tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan savdo ustamasi summasi oy boshida tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan savdo ustamasi summasi va 2980 "Savdo ustamasi" schyoti debeti bo'yicha aylanma summasiga (boshqa hisobdan chiqarishlarga) kamaytirilgan 2980 "Savdo ustamasi" schyoti krediti bo'yicha aylanmani bir oyda sotilgan tovarlar summasi (hisob baholari bo'yicha) va oy oxiridagi tovarlar qoldig'iga (hisob baholari bo'yicha) nisbatidan kelib chiqqan holda hisoblangan foiz bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Misol.

Tovarlarni sotish baholari bo'yicha (ustama 20%ni tashkil qiladi) hisobga oluvchi chakana savdo sub'ekti 52000 ming so'mdan iborat summaga tovarlar olgan:

Tovarlar - kelib tushishi (xarid qilish bahosi bo'yicha) aks ettiriladi:

Dt 2920 - "Chakana savdodagi tovarlar" 52000

Kt 6010 - "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» 52000

Savdo ustamasi 20%:

Dt 2920 - "Chakana savdodagi tovarlar" 10400

Kt 2980 - "Savdo ustamasi" 10400

Shu tariqa, tovarlar hisobda 62400 ming so'mni tashkil qiladigan sotish bahosi bo'yicha aks ettiriladi. Tovar 62400 ming so'mga sotilganda sotilgan tovarning savdo ustamasi summasi sotishdan olingan daromadni belgilab beradi.

Mazkur holatda ham, sotish yuqorida ko'rib chiqilgan variantlardan farq qilmaydi:

Sotishdan olingan- daromad:

Dt 4010 - "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» 62400

Kt 9020 - "Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" 62400

Tovarning hisobdan chiqarilishi (biroq sotish bahosi bo'yicha) aks ettirilishi:

Dt 9120 - "Sotilgan tovarlar tannarxi» 62400

Kt 2920 - "Chakana savdodagi tovarlar" 62400

Quyidagi yozuv faqat tovarlarni sotish baholari bo'yicha hisobga olish holatiga xos - sotilgan tovarlar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi:

Dt 2980 - "Savdo ustamasi" 10400

Kt 9120 - "Sotilgan tovarlarning tannarxi" 10400

Ya'ni, 9120 - "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyoti bo'yicha debet saldosi $(62400-10400) = 52000$ ming so'mga teng bo'lib qoladi, bu esa mazkur tovarniig xarid qilish qiymatiga muvofiq keladi.

Shu tariqa, 2980 - "Savdo ustamasi" schyoti faqat tovarlar kirim qilinishi chog'ida savdo ustamalari summasiga kreditlanadi, tabiiy yo'qolish, brak, buzilish, kamomad va shu kabilar natijasida sotib yuborilgan, berilgan yoki hisobdan chiqarilgan tovarlar bo'yicha savdo ustamalari summalariga esa debetlanadi.

Agar sotib olingan tovarning bir qismi realizatsiya qilinmagan bo'lsa, sotilmagan tovarlarga tegishli ustamalar summasi belgilangan miqdorlarga muvofiq tovarlarga tegishli bo'lgan ustamalarni belgilash yo'li bilan, inventarizatsiya xatlovlari asosida aniqlashtiriladi.

Chakana savdo sub'ektlarida katta assortimentdagi sotilmagan tovarlarning qoldiqdariga oid ustama summasi oy boshiga bo'lgan tovarlar qoldig'iga oid ustama summasining bir oy ichida sotilgan tovarlar summasi (hisobga olish baholari bo'yicha) va oy oxiriga bo'lgan tovarlar qoldig'iga oid 2980 - "Savdo ustamasi" (boshqa hisobdan chiqarishlarga oid) schyotining debeti bo'yicha aylanmalar summasiga kamaytirilgan 2980-"Savdo ustamasi" schyoti kreditiga

oid aylanma nisbatidan kelib chiqqan holda hisoblab yozilgan foiz bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Misol.

Chakana savdo sub'ekti bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud

(so‘m hisobida).

Ko‘rsatkichlar	2920-schyot	2980-schyot
1. Oy boshiga saldo	15000000	4500000
2. Oy uchun aylanma, kirim	65000000	13000000
3. Hujjatlar bo‘yicha chiqib ketish (mol yetkazib beruvchiga qaytarish, hisobdan chiqarish va hokazo)	2500000	500000
4. Jami (1+2-3)	77500000	17000000

Tovarning yakuniy summasi - 77500000 so‘mni va mazkur tovarga bo‘lgan yakuniy savdo ustamasi - 17000000 so‘mni bila turib, $17000000 : 77500000 \times 100\% = 21,9\%$ ga teng bo‘ladigan yalpi daromad yoki savdo ustamasining o‘rtacha foizini aniqlash mumkin.

Agar hisobot oyida sotilgan tovar summasi, masalan, 65000000 so‘mni, ombordagi tovar qoldig‘i - 12500000 so‘mni tashkil qilsa, u holda yalpi daromad yoki realizatsiya qilingan savdo ustamasi summasi: $65000000 \text{ so‘m} \times 21,9\% = 14235000 \text{ so‘mni}$ tashkil qiladi.

Jumladan, realizatsiya qilingan savdo ustamasining o‘rtacha foizini quyidagi formula yordamida ham aniqlash mumkin:

Bizning misolimizga tatbiqan:

O‘rtacha foiz $(4500000+13000000-500000/65000000+12500000) \times 100\% = 21,9\%$ ga teng.

Realizatsiya qilingan savdo ustamasini hisob-kitob qilish bunday usulining kamchiligi uning noanikdigidadir. Mazkur holatda savdo ustamasi summasi uning haqiqatdagi miqdoridan ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi mumkin. Agar, misol uchun, realizatsiya qilingan tovarlar orasida o‘rtacha foiz bilan taqqoslaganda ustamaning ko‘p foiziga ega tovarlar, qoldiqda esa - kichik miqdordagi ustamaga ega tovarlar ustun tursa, yalpi daromad summasi kamaytiriladi.

Savdo ustamasining summasini har bir tovar nomining ro‘parasiga savdo ustamasining miqdorini foizlarda ko‘yib chiqqan holda inventarizatsiya chog‘ida aniqlashtirib oladilar. Savdo ustamasi miqdorini barcha nomlar bo‘yicha tovarlarning qiymatiga

ko'paytirib, inventarizatsiya xatlovi bo'yicha umumiy summani hisob-kitob qilgan holda uni 2980-schyot krediti bo'yicha aks ettirilgan summa bilan taqqoslanadi. Bunda, agar xatlov bo'yicha haqiqatdagi chegirma summasi hisobda aks ettirilganidan kam bo'lsa, ayirma tuzatiladi:

- yoki teskari provodka yordamida:

Dt 2980 "Savdo ustamasi"

Kt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi";

- yoki stornolash yozuvi orqali ("ayiruv" belgisi bilan):

Dt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi"

Kt 2980 "Savdo ustamasi".

Agar xatlov bo'yicha haqiqatdagi summa ko'proq bo'lsa, savdo ustamasidan ortiq bo'lgan summa oddiy provodkaga o'xshash tarzda aks ettiriladi:

Dt 2980 "Savdo ustamasi"

Kt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi".

O'rtacha foiz bo'yicha hisob-kitob qilish usuli bilan taqqoslaganda savdo ustamasini tovar qoldig'i assortimenti bo'yicha hisobot oyining oxirida tovarlarni inventarizatsiya qilish talab etiladi.

Umumiy ovqatlanish sub'ektlarida 2980 - "Savdo ustamasi" schyotida omborxonalarda, bufetlar va oshxonada sakdanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tovarlarga bo'lgan savdo ustamalari summalari, shuningdek, sotish baholari bo'yicha oshxona bufet mahsulotlari qiymatiga belgilangan miqdorlarda qo'shiladigan ustamalar summalari hisobga olinadi.

Savdo ustamalarini aks ettirish xuddi chakana savdodagidek aks ettiriladi:

Dt 2910 "Ombordagi tovarlar"

Kt 2980 "Savdo ustamasi".

Umumiy ovqatlanish sub'ektlarining buxgalteriya hisobida xom ashyo taomlarni tayyorlash chog'ida 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga hisobdan chiqariladi. Uning debeti bo'yicha ishlab chiqarishga kelib tushgan mahsulotlarning qiymati, kreditida esa -taomlarni tayyorlashga sarflangan xom ashyo qiymati, oshxonadan omborxonaga qaytarib yuborilgan xom ashyo qiymati,

shuningdek, mahsulotlardagi kamomad va talafotlarning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

Firma (maxsus firma qoshida) doʻkoni faoliyat yuritgan korxonalarda tayyor mahsulotlar hisobi quyidagicha hisobga olinadi. Masalan "Muza" savdo belgisi bilan sotiladigan tayyor (hamrlar) mahsulotlarning omborxonadan ishlab chiqarishga kelib tushishi quyidagi provodka bilan aks ettiriladi:

Dt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar".

Realizatsiya qilingan mahsulotni tayyorlashga sarflangan xom ashyoning hisobdan chiqarilishi quyidagi yozuv bilan hisobga olinadi:

Dt 9110 "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi"

Kt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish".

Umumiy ovqatlanish tizimida tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan bufetlarga va mayda chakana tarmoqqa ham chiqarilishi mumkin, bu esa quyidagi provodka bilan aks ettiriladi:

Dt 2920 "Chakana savdodagi tovarlar"

Kt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish".

Oshxonadan omborxonaga qaytarib yuborishlar quyidagi yozuv boʻyicha hisobga olinadi:

Dt 2910 - "Ombordagi tovarlar"

Kt 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish".

Umumiy ovqatlanishda mahsulotlar nafaqat harid qilish baholari boʻyicha, balki sotish baholari boʻyicha ham (savdo ustamasini hisobga olgan holda) hisobga olinishi mumkin.

Mahsulotlar xarid qilish baholari boʻyicha hisobga olinganda, ular ishlab chiqarishga ustamalar hisobga olinmagan holda hisobdan chiqariladi. Realizatsiya qilish hisobi ishlab chiqarish mahsulotining realizatsiya qilinishiga oʻxshab yuritiladi, biroq bunda faqat, umumiy ovqatlanishda realizatsiya qilishlar chogʻida, asosan, olinadigan schyotlardan foydalanilmaydi, holos. Sotishlar chogʻida oʻsha zahotiyoq sotilgan mahsulot uchun kelib tushgan mablagʻlari ham aks ettiriladi,

chunki umumiy ovqatlanishda ham, chakana savdodagidek, sotishning amalga oshirilishi asosan pul mablagʻlarining kelib tushishi vaqti bilan mos tushadi:

Dt 5010 - "Milliy valyutadagi pul mablagʻlari"

Kt 9010 - "Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar".

Mahsulotlarni sotish baholari boʻyicha hisobga olish hollarida sotilgan mahsulotlarga tegishli boʻlgan qismida savdo ustamalari summalari quyidagi tarzda aks ettiriladi (chakana savdodagiga oʻxshash tartibda):

Dt 2980 "Savdo ustamasi"

Kt 9110 "Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi".

Mazkur provodka bilan biz bamisoli sotilgan mahsulotning tannarxini pasaytiramiz, chunki ilgari biz ushbu tannarxni savdo ustamasini hisobga olgan holda aks ettirganmiz, yaʼni uning qiymatini ustama summasiga oshirganmiz.

Umumiy ovqatlanishdagi ustamalar oʻrtacha foizini aniqlashning xususiyati oʻz ichiga mahsulotlarning realizatsiya qilinish koʻrsatkichlarini, shuningdek, uchta boʻlinma boʻyicha: omborxonadagi (2920-schyot), ishlab chiqarishdagi (2010-schyot) va bufetlardagi (2920-schyot) oy oxiriga boʻlgan mahsulotlar va tovarlarning qoldiqdarini oluvchi mazkur tarmokda tovarlar balansi formulasining oʻziga xosligidan kelib chiqadi.

17.7. Tayyor mahsulot (tovar)lar qaytishini hisobga olish.

9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi" schyoti sotilgan mahsulot va tovarlarning qaytishini hisobga olish uchun moʻljallangan. Bu schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlar sotishdan daromadni kamaytiradi. 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi" schyotining debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli: pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar bilan - xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; olinadigan schyotlar bilan - qaytarilgan tovarlar boʻyicha bekor qilingan debitorlik

qarzlari summasi; to'lanadigan schyotlar bilan - mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to'lovlar va bo'naklar bo'yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi. Bunda ilgari hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i bo'yicha budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debeti va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi. Qaytarilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxi TMZlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debetida va sotilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxini hisobga oluvchi tegishli schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyoti shartnoma shartlariga muvofiq berilgan sotuv chegirmalari, shuningdek sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larda aniqlangan yaroqsizliklar va hokazolar natijasida berilgan narx chegirmalarni hisobga olish uchun mo'ljallangan. Ushbu schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlarni sotishdan, ish bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan daromadlarni kamaytiradi. 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotining debetida sotuv va narxlardan berilgan chegirmalarning summasi tegishli olinadigan schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi

Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) bo'yicha analitik hisob sotilgan mahsulotlar (tovarlar), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo'yicha alohida yuritiladi. Bundan tashqari, analitik hisobni sotuvning geografik segmentlari (hududlar) va korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan boshqa segmentlar bo'yicha yuritish mumkin.

**Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi
schyotlar (9000)ning bog‘lanishi**

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Jo‘natilgan mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar (QQS, aksizlardan tashqari) uchun xaridorlarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga	4010, 4020	9010, 9020, 9030
2	Mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni naqd pulga sotish	5010, 5020	9010, 9020, 9030
3	Korxonada xodimiga mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar (jumladan maxsus kiyimlar) sotildi	4790	9010, 9020, 9030
4	Dividendlar mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan to‘landi	6610	9010, 9020, 9030
5	Vositachilik operatsiyalari bo‘yicha komission mukofotlar summasi	4010	9010
6	Mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga sotildi	4120	9010, 9020, 9030
7	Kechiktirilgan daromadlar summasi ular taalluqli bo‘lgan hisobot davri kelganda sotish hajmiga kiritildi	6230	9010, 9020, 9030
8	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	4010
9	Sotishdan va narxdan chegirmalar berish	9050	4010
10	Hisobot davrining oxirida 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyotini yopilishi	9010, 9020	9040
11	Hisobot davrining oxirida 9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotini yopilishi	9010, 9020, 9030	9050
12	Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9010, 9020, 9030	9910

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Tayyor mahsulot tushunchachiga ta’rif bering?
2. Mahsulot, ishlar va xizmatlar bir-biridan qanday farqlanadi?

3. Mahsulotlar nomenklaturasi nima va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
4. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot omboriga o'tkazishda qanday dastlabki hujjatlar to'ldiriladi?
5. Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarlar deganda nima tushiniladi?
6. Inkotermis nima va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
7. Franko-joy nimani bildiradi va uning qanday turlarini bilasiz?
8. Mahsulotni ortib jo'natishda qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
9. Ish va xizmatlar bajarilganda va topshirilganda qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
10. Tayyor mahsulotni omborga qabul qilinaganda qanday ikki yoqlama yozuv amalga oshiriladi?
11. Tayyor mahsulot yuklab jo'natilganda buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?
12. Sotilgan mahsulotlar bo'yicha aksiz va qo'shilgan qiymat solig'iga qanday ikki yoqlama yozuv amalga oshiriladi?
13. Tayyor mahsulotlarningi harakati qaysi hujjatlarda rasmiylashtiriladi?
14. Mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lgan sotish xarajatlariga qanday aniqlanadi?
15. Konsignatsiya bo'yicha sotilgan tovarlar buxgalteriya hisobida qanday rasmiylashtiriladi?

18- BOB. XUSUSIY KAPITAL HISOBI

18.1. Xususiy kapital hisobini tashkil etish va uning vazifalari.

18.2. Xususiy kapital tarkibi.

18.3. Turli mulkchilik shakllarida ustav kapitalini shakllantirish va uning o'zgarishini hisobga olish.

18.4. Qo'shilgan kapital hisobi.

18.5. Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatishni hisobga olish.

18.6. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi.

18.7. Maqsadli tushumlar hisobi.

Tayanch so'z va iboralar: xususiy kapital, aktiv va passiv, qarzga olingan kapital, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, oddiy aksiyalar, imtiyozli aksiyalar, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, emissiya daromad, rezerv kapitali, maqsadli tushumlar, grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, beg'araz olingan moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, taqsimlanmagan foyda, jamg'arilgan foyda

18.1. Xususiy kapital hisobini tashkil etish va uning vazifalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining moliyaviy resurslarini tashkil qilishi va undan foydalanishi mumkin. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish, tijorat va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va yuritishdan eng asosiy maqsad yuqori natijaviylikga erishish hisoblanadi. Xususiy kapital va to'lov qobiliyati yuqori darajaga ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati juda past bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning rivojlanishiga kafolat beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

Bu mablagʻlarning manbai esa foyda, amortizatsiya ajratmasi, qimmatbaho qogʻozlarni sotishdan tushgan mablagʻlar, aksiya egalarining badallari va taʼsischilarning ulushlari, kreditlar, ajratilgan grantlar, maqsadli moliyalashtirish mablagʻlari va shunga oʻxshash yoʻnalishdagi mablagʻlardir.


Subʼektning xususiy kapitali qonunga muvofiq yoki taʼsis hujjatlari asosida yaratilgan jamgʻarmalar va zaxiralar koʻshilgan holda, ularning harakati va holati oʻrganiladi va nazorat qilinadi.

2016 yil 13 apreldagi yangi tahrir bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi Qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta eʼtibor berilgan.

Uning 22-moddasiga koʻra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5 – shakl “Xususiy kapital toʻgʻrisidagi hisobot” deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qoʻshilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

Xususiy kapital deganda xoʻjalik yurituvchi subʼektga tegishli boʻlgan mulkning qiymati tushuniladi. Bu kapital jami kapital bilan qarzga olingan kapitalning oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin.

Xususiy kapital xoʻjalik yurituvchi subʼektning aktivi va majburiyatlari oʻrtasidagi farqni oʻzida mujassamlashtiradi.



Aktiv va passivlarning tengligi



Xususiy kapital, ishlab chiqarish va mulk egasiga to‘lash, qo‘shimcha investitsiya va boshqa faoliyatlarning natijalariga bog‘liq holda ko‘payishi yoki kamayishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyrug‘iga 5-son ilovasida xususiy kapital to‘g‘risida hisobot hisobot yilida korxonani xususiy kapitalining shakllanish manbalari kesimida holati va harakatini aks ettiradi.

Barcha mulk shakllaridagi korxonalarda kapital, rezervlar va taqsimlanmagan foyda bo‘yicha buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:


- ustav kapitalini shakllanishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish;
- korxonada muassislari, kapitalining shakllanish bosqichlari va aksiyalar turlari bo‘yicha axborot to‘plash:
 - ustav kapitalining holati va harakati xususida hisobot to‘zish bo‘yicha ma’lumotlar olishni ta’minlash:
 - qo‘shilgan kapital hamda rezerv kapitalining shakllanishi bilan bog‘liq muomalalarni o‘z vaqtida hisobda aks yettirish:
 - korxonada sof foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini o‘z vaqtida hisobga olish hamda nazorat qilish.

18.2. Xususiy kapital tarkibi.

Yangi tuzilgan korxonada birinchi moliyaviy hisobotini e‘lon qilgunga qadar, o‘zi tanlagan hisob yuritish siyosatini rasmiylashtiradi va uni yuridik shaxs maqomini olgan vaqtdan boshlab, 90 kun ichida amalga oshiradi. Korxonada

tomonidan tanlangan hisob yuritish siyosati yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan vaqtdan ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin qo'llanilishi mumkin.

Xususiy kapital tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi:



18.1-rasm: Xususiy kapital tarkibi

Sub'ektning ustav kapitali uning mablag'larining tashkil bo'lishida asosiy manba hisoblanadi.

Bu kapitalni tashkil qilish qonun va ta'sis hujjatlariga asosan tartibga solinadi.

Jamoa tadbirkorligi – bu bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil qilishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) va aksiyadorlik jamiyati (AJ)lari.

Jamoa tadbirkorligi faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma – muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir.

Firma (korxon) turlari				
Davlat korxonalari	Shirkat (jamo) firmalar	Xususiy firmalar	Aralash firmalar	Nodavlat va notijorat tashkilotlari

18.2-rasm. Firma (korxon) larning turlari¹⁰

¹⁰ "Tadbirkorlik faoliyatini asoslari" uslubiy qo'llanma – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 137 bet.

Xususiy firma deganda ayrim shaxs yoki oilaga tegishli bo'lgan, yakka xususiy mulkka asoslanib faoliyat ko'rsatadigan korxonaga tushuniladi.

Shirkat firma bir necha mulkdorlarning mulkini birlashtirish va tadbirkorlikdan olinadigan foydani baham ko'rishga asoslangan sherik-chilik korxonasi.

Shirkat firmalarining ikki turi mavjud:

- mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar;
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.

Mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar ikki yoki undan ko'proq kishilarning mulki asosida yuzaga keladi. Sheriklarning dastlabki mulki firmaning ustav kapitali deyiladi. Bu kapitalga har bir sherik o'z hissasini qo'shadi.

Mas'uliyati cheklangan shirkat firmalarining ustav fondi faqat ta'sischi mablag' (aksiya)lari hisobiga barpo etiladi. Jamiyat qatnashchilari o'zlarining qo'shgan ulushlari doirasida javobgar bo'ladi. Shirkat o'z faoliyati uchun ustav fondi miqdorida javobgar hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan firmaning bir qator turlari mavjud. Ularning eng keng tarqalgan shakli aksiyadorlik jamiyatlari vakorporatsiyalardir.

Ma'lumki, 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingan edi. Mazkur Harakatlar strategiyasining 3.1-bandida "kapitalni jalb qilish hamda korxonaga, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish"¹¹ belgilangan. O'z navbatida, fond bozorining eng asosiy ishtirokchisi aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunida aksiyadorlik jamiyatiga "Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi

¹¹ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz

muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi"¹² deya ta'rif berilgan.

Aksiya deb -AJning mulkini ulushiga egalikni tasdiqlovchi ism yozilgan emission qimmatli qog'oz e'tirof qilinadi. Aksiyalar xujjatsiz shaklda chiqariladi (O'zR 22.07.2008 y. O'RQ-163-son "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi" Qonunning 4-moddasi). Aksiyadorlik jamiyatlari yagona shaklda cheklanmagan aksiyadorlar soni bilan tashkil etiladi.

Aksiyadorlik jamiyati– bu jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvi bo'lib, u aksiyalar chiqarish yo'li bilan tashkil etiladi. U chiqaradigan aksiyalariga ochiq obuna o'tkazish va ularni erkin sotish huquqiga ega. Ta'sischilarning eng kam soni ham cheklanmagan. AJ uchun ustav fondining eng kichik miqdori AJ ro'yxatidan o'tkazilgan sanada qonun hujjatlarida belgilanadi.

Ta'sis yo'li bilan jamiyat qurish ta'sischilar (ta'sischi) to'xtami bilan amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sislash to'g'risidagi qaror ta'sis yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Misol

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan aksiyalarning nominal qiymatlaridan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim. Aksiya bo'linmas hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatini:

- aksiyadorning umumiy majlisi;
- kuzatuv kengashi;
- ijro organi boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy majlisi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, u aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega. Aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatida umumiy

¹² (O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi O'RQ-370-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, 3-modda. www.lex.uz)

rahbarlikni amalga oshiradi. Aksiyadorlik jamiyatining joriy (kundalik) faoliyatiga yagona ijro organi (direktor) yoki kollegial (maslahat) ijro organi (boshqaruv, direksiya) rahbarlik qilishi mumkin.

Jamiyat jamlangan kapitaliga qarab maxsus qimmatli qog'oz– aksiya chiqaradi. Aksiyani sotib olganlar hissadorlarga aylanishadi va foydadan o'z hissasi – dividendni olib turadilar. Aksiyadorlik jamiyati o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli butun mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi.

AJ ikki hil aksiyalarni chiqarishi mumkin: oddiy va imtiyozli. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati baravar bo'lishi kerak. Ustav kapitalining (aksiya kapitali) hisobi 8310 "Oddiy aksiyalar" va 8320 "Imtiyozli aksiyalar" hisob raqamlarida olib boriladi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunning 21-moddasi “Jamiyatning aksiyalari” deb nomlanadi. Ushbu moddada aksiyalar egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy va imtiyozli bo'lishi mumkin. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi - aksiyador deb e'tirof etililini aka ettirilgan.

Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiyalar o'z egalariга dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradi. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariга jamiyat foyda ko'rish-

koʻrmasligidan qatʻi nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi. Aksiyaning egasi boʻlgan aksiyadorga ovozga qoʻyilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy yoki imtiyozli aksiya jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir. Chiqariladigan aksiyalarning turlari, ularni joylashtirish, ular boʻyicha dividendlar toʻlash tartibi jamiyat ustavida belgilanadi.

Jamiyatning imtiyozli aksiyalari ularning egalari boʻlgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega boʻladi. Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar boʻyicha toʻlanadigan dividendning miqdori va (yoki) qiymat (tugatilish qiymati) jamiyat ustavida belgilab qoʻyilishi lozim.

Imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati qatʻiy pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Agar imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividend miqdori va tugatilish qiymatini belgilash tartibi jamiyat ustavida koʻrsatilgan boʻlsa ham imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati belgilangan deb hisoblanadi.

Korporatsiya yirik aksiyador jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi.

Korporatsiya investitsiya kapitalining markazlashuvini, ilm-fan taraqqiyotini, mahsulotning raqobatbardosh boʻlishini va uzoq hayot siklini taʼminlaydi. Korporatsiyalar tadbirkorlik bilan shugʻullanuvchi aksiyador jamiyatlarining xohish-ixtiyori bilan paydo boʻladi.

Oʻz tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarni nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar holding kompaniyalariga aylanadi.

Holding iborasi inglizcha «holding» soʻzidan olingan boʻlib, ega maʼnosini beradi. Holding kompaniya – bu mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatidir. Holding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari «aksiyalarining nazorat paketi» kompaniyaning

ixtiyorida bo‘ladi. Bundan maqsad aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatlari ustidan nazorat o‘rnatish va dividendlar ko‘rinishida foyda olishdir.

Holding kompaniyalarning mohiyati shundaki, ular biror bir ishlab chiqarish vazifalarini bajarishmaydi. Ularning vazifasi sof boshqaruvchilikdan, ya’ni ishonchli mulk egasi sifatida ularga o‘z aksiyalari yoki aksiyalar nazorat paketini beruvchi kompaniyalarning faoliyatiga umumiy xo‘jalik rahbarligini bajarishdan iboratdir. O‘zbekistan Respublikasida holding kompaniyalarning huquqiy maqomi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 oktyabrdagi 398-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom (holdinglar to‘g‘risidagi Nizom) asosida belgilanadi. Bu Nizomga muvofiq aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarining aksiyalar nazorat paketi kiradigan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati holding hisoblanadi.

Holding kompaniyalari ikki turda bo‘lishi mumkin:

- moliyaviy holding;
- aralash holding.

Qo‘shma (aralash) korxonalar xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag‘lariga tayanadi. Aralash firmalar milliy va xorijiy kapitalga tayangan hissadorlik qoidasiga binoan tashkil topadi, foydasi shunga qarab taqsimlanadi.

Konsern– bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya’ni korxonalarining faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko‘p tarmoqli korporatsiya. Konsern tarkibiga sanoat, transport, savdo, bank kabi tarmoqlarga tegishli, ayrim hollarda, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida joylashgan unlab va yuzlab korxonalar ixtiyoriy asoslarda kiradi.

Kooperativ– bu kooperatsiyaning birlamchi bo‘g‘ini. Kooperatsiya esa:

- mehnatni tashkil etish shakllaridan biri, ko‘pchilik xodimlar bir mehnat jarayonida yoki o‘zaro bog‘liq turli mehnat jarayonlarida hamkorlikda ishtirok etadilar;
- guruh mulkchiligiga asoslangan xo‘jalik yuritish sharti;

— ma'lum bir mahsulotni o'zaro hamkorlikda tayyorlash bilan band bo'lgan korxonalar o'rtasidagi uzoq muddatli va barqaror aloqalar shakli.

MChJ - biznesning eng keng tarqalgan tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi.

QMJning MChJdan yagona farqi ishtirokchilar javobgarliklarining taqsimlanishidir. Bunda barcha a'zolar bir xil miqdorda hissa qo'shishlari talab etiladi. Javobgarlik chegarasi nizom bilan chegaralanishi mumkin.

MChJ va QMJ egalarining boshqaruvda ishtirok etishdagi asosiy mexanizmi umumiy yig'ilish hisoblanadi. Uning mutlaq vakolatlariga, xususan: Nizom jamg'armasi hajmini o'zgartirish, tashkiliy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi a'zolarni qabul qilish yoki tarkibdan chiqarish, jamiyatning ijro organlari, reviziya komissiyasi va boshqa organlarini saylash yoki muddatidan avval vakolatlarini tugatish, foydani taqsimlash bo'yicha qarorlar qabul qilish.

MChJ va QMJ a'zosi o'z ulushini sotishi yoki nizom jamg'armasidagi hissasini boshqa biror usulda jamiyatning bir yoki bir necha a'zosiga taqdim etishi mumkin. Bunda, mazkur bitimga aloqasi yo'q ishtirokchilarning roziligi talab qilinmaydi. Shu bilan birga, o'z ulushini jamiyat nizomida taqiqlanmagan bo'lsa, uchinchi shaxsga berish mumkin.

2019 yil 20 martdagi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari to'plamidagi 531 sonli (O'QR-531) qonuni bilan qonun hujjatlaridagi yuridik shaxslar ustav fondining eng kam miqdori to'g'risidagi talablar chiqarib tashlandi.

2019 yilgacha bo'lgan me'riy hujjatlarda aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, xo'jalik shirkatlari va oilaviy korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishda ularning ustav fondi belgilangan miqdordan kam bo'lmasligi kerak edi.

Yuqorida ta'kidlangan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari ustav fondlarining eng kam miqdorlari qonun hujjatlarida qayd etilar edi.

Masalan, qonunga ko'ra AJ ustav fondining eng kam miqdori – 400 ming AQSh dollari, qonunosti hujjatlarda esa u avval 1600 mln so'm miqdorida belgilangan, keyin esa uni 400 mln so'mgacha pasaytirishga qaror qilingan edi.

Hozirgi amliyotda ta'sischi ustav fondining miqdorini erkin belgilay oladilar, uning quyi chegaralari mavjud emas. Ammo ayrim sohalarning ustav fondining eng kam miqdori to'g'risidagi talablar quyidagi miqdorlari amalda saqlanib qolmoqda:

a) litsenziya talabi. Masalan, quyidagilar bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya olish maqsadida muayyan miqdordagi ustav fondini shakllantirish zarur:

bank faoliyati – kamida 100 mlrd so'm;

mikrokredit tashkilotlari faoliyati – kamida 2 mlrd so'm;

lombardlar faoliyati – kamida 500 mln so'm;

etil spirti va alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish – kamida 10000 EKIH;

lotereyalar tashkil etish faoliyati – kamida 200 mln so'm;

«chiqish va kirish turizmi» yo'nalishi bo'yicha faoliyat – kamida 400 EKIH;

sug'urta faoliyati – turlariga qarab tabaqalashtirilgan, ya'ni,

“Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga (31.05.2011 yildagi PQ-1544-son) asosan quyidagi faoliyatni amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari:

- umumiy sug'urta sohasida 1 500 ming yevroga ekvivalent summa;

- hayotni sug'urtalash sohasida 2 000 ming yevroga ekvivalent summa;

- majburiy sug'urtalash bo'yicha 3 000 ming yevroga ekvivalent summa;


- faqat qayta sug'urtalash bo'yicha 6 000 ming yevroga ekvivalent summa

belgilangan.

b) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun talab. Ularda ustav fondining eng kam miqdori 400 mln so'mni tashkil etadi, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati hududida esa – 200 mln so'm.

Davlat korxonalarining ustav kapitali davlatning budjeti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning foydalanishiga topshirilgan vaqtda ajratilgan

mablagʻlarning yigʻindisidir. Nodavlat subʻektlarning kapitali esa aksiyadorlar tomonidan qoʻyilgan mablagʻlarning yigʻindisidan iboratdir.



18.3-rasm. Xususiy kapitalning shakllanish manbalari

Mulkchilikning tegishli shakllariga taalluqli xoʻjalik yurituvchi subʻektlarda ustav kapitalini tashkil qilish tartibi taʼsis hujjatlari va hukumatning tegishli qonunlari asosida tartibga solinib turiladi. Ustav kapitali harakatining

buxgalteriya hisobi 8300 - «Ustav kapitali» schyotida, 13-jurnal orderda yuritiladi.

Ustav kapitali (fondi)ning holati va harakati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda olib boriladi:

8310-«Oddiy aksiyalar»

8320-«Imtiyozli aksiyalar»

8330-«Pay va quyilmalar»

Ustav kapitali - taʼsis hujjatlarida belgilangan, huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxonada muassislari tomonidan taʼsis hujjatlariga muvofiq qoʻshilgan (toʻlangan) hamda korxonaning xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan moddiy boyliklar, pul mablagʻlari va harajatlar majmuidir. Korxonada ustavi va taʼsis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega

bo‘ladi. Uning birlamchi miqdorini o‘zgarishi faqat korxonaning ustavini davlat qaydnomasidan qayta o‘tqazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ustav kapitaliga ta‘sischilarning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya‘ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag‘lari bilan kiritilishi mumkin. Ta‘sischilarning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni yesa sof foydani ularning har biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo‘lib hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari davlat ro‘yxatidan o‘tgandan keyin, oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish huquqiga ega bo‘ladi. Iqtisodiyatning globallashuvi sharoitida korporativ tuzilmalar xalqaro miqosda raqobatga kirishiga to‘g‘ri kelmoqda. Buning uchun o‘z faoliyatlarini muntazam rivojlantirib borishlari, innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etishlari, yangi bozorlarni egallash talab qilinmoqda.

Aksiya blanklarining majburiy rekvizitlari;

1. Aksiyadorlik jamiyatining nomi va manzili
2. Qimmatli qog‘ozning nomi – aksiya
3. Seriyasi, tartib raqami va chiqarilgan sanasi
4. Turi (oddiy yoki imtiyozli)
5. Nominal qiymati
6. Egasining nomi (egasining nomi yoziladigan aksiyalar uchun)
7. Aksiyadorlik jamiyati aksiyalarni chiqarilgan kundagi ustav fondining miqdori
8. Chiqarilayotgan aksiyalar soni
9. Dividendlar to‘lash muddati
10. Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvining raisi va bosh buxgalterining imzolari
11. Ro‘yxatga olish idorasi tomonidan berilgan aksiya kodi va sanasi

8310-«Oddiy aksiyalar» shteti ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan oddiy aksiyalarning qiymati qo‘shilgan holdagi aksiyadorlar kapitalining holati va

harakati to'g'risidagi va imtiyozli aksiyalar uchun to'lanadigan dividendlar qayd etilgandan keyin qolgan sof daromadni taqsimlashda qatnashuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Aksiyador jamiyatlari o'zining ustav kapitalini yangi aksiyalarni chiqarish yoki ularning nominal qiymatlarini oshirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin.

Aksiyalarni tugatish maqsadida ularni maydalab yubo-rish, ya'ni ularning nominal qiymatini mutanosib ravishda kamaytirib, umumiy miqdorini ko'paytirish lozim bo'ladi.

Ushbu aksiyalarni maydalash natijalari aksiyadorlar kapitalining hajmiga ta'sir qilmaydi, faqatgina yangi chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini va muomaladagi aksiyalarning miqdorini ko'paytiradi. Ushbu muomalalar bo'yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi, lekin ushbu muomalalarni 8310-«Oddiy aksiyalar» schyotiga ochilgan analitik hisob registrlarida qayd qilish zarur.

Misol. Ta'sischilardan biri AJ ga aksiya qiymati evaziga avval foydalanishda bo'lgan "MAN" rusumidagi yuk mashinasini hissa tariqasida kiritdi. Ta'sischilar o'zaro kelishgan holda aksiyadorga ushbu transport vositasi uchun 2000 dona oddiy aksiya berishga qaror qildilar. Aksiyaning nominal qiymati 40000 so'm, bozor qiymati esa 55000 so'mni tashkil qiladi.

Aksiya qiymati evaziga avval foydalanishda bo'lgan transport vositasini baxosi 110000000 so'mni tashkil qiladi. Aksiyaning nominal qiymati bo'yicha 80000000 so'mni tashkil qiladi. Bizning misol bo'yicha aksiyaning bozor qiymatidagi bahosi bo'yicha "MAN" rusumidagi yuk mashinasini balansga qabul qilib olamiz.

Aksiyador jamiyatni tashkil qilishda ta'sischilar yoki aksiyaga obuna bo'lgan shaxslarning qarz summasi 4610 "Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyotining debeti ustav kapitalini hisobga oluvchi 8310-«Oddiy aksiyalar» schyoti bilan bog'langan holda hisobga olinadi.

Debet 4610 "Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyoti 110000000 so'm

Kredit 8310-«Oddiy aksiyalar» schyoti 110000000 so'm

Ta'rischilarning ulush summalari "MAN" rusumidagi yuk mashinasi ko'rinishida kirim qilinganda 4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyotining kreditida va 0160 "Transport vositalari" ni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda yozuv amalga oshiriladi.

Debet 0160 "Transport vositalari" schyoti 110000000 so'm

Kredit 4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyoti 110000000 so'm

Shunindek, moddiy va boshqa qiymatliklar (pul mablag'laridan tashqari) ko'rinishidagi ulushlar 4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyotining kreditida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, materiallar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi. Korxonaga mulk sifatida aksiyalarga to'lov uchun natura shaklida berilgan mol-mulk ta'rischilar kelishuvi asosida aniqlangan bahoda kirim qilinadi.

4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyoti bo'yicha analitik hisob (ko'rsatuvchiga aksiyalaridan tashqari) har bir ta'rischi bo'yicha alohida yuritiladi.

Ta'rischilarning ulush summalari pul mablag'lari ko'rinishida haqiqatda kelib tushganda 4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyotining kreditida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda yozuv amalga oshiriladi.

Ta'ris shartnomasiga muvofiq qo'shma korxonaning ustav kapitalida chet ellik muassisning ulushi 200 ming AQSh dollaridan iborat. Hujjatlarni ro'yxatga olish paytida 1 AQSh dollari 9521 so'mni tashkil qilgan edi. Biroq pul mablag'lari bilan badalni to'lash paytida 1 AQSh dollari 9530 so'mga teng bo'lgan.

Debet 4610 "Ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyoti 1 906 000 000 so'm

Kredit 8310-«Oddiy aksiyalar» schyoti 1906000000 so'm

Ta'rischilarning ulush summalari pul mablag'lari (200 ming AQSh dollari) ko'rinishida haqiqatda kelib tushdi:

Kredit 4610 “Ustav kapitaliga ta’rischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi” schyoti 1906000000 so‘m

Debet 5210 “Mamlakat ichida valyuta schyotlari” schyoti 1906000000 so‘m

8310 - «Oddiy aksiyalar»ning hisobi bo‘yicha hisob xo‘jalik shakllanishini ta’minlashi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-sonli «2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmonlari va boshqa

“Imtiyozli aksiya aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqini va bu bilan klrxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozlilik, bir tomondan, jamiyat xo‘jalik faoliyati natijalaridan qat’iy nazar, kafolatlangan daromadni olish imkoniyatidan, ikkinchi tomondan esa, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqini beradi”¹³

8320-«Imtiyozli aksiyalar» schyoti imtiyozli aksiya ko‘rinishida chiqariladi, ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan, lekin aksiya egasiga dividend kafolatini beradigan, ya’ni olingan foydani taqsimlash jarayonida oddiy aksiya egalariga nisbatan imtiyozi belgilangan (dividend olish kafolati) aksiyadorlar kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun qo‘llaniladi.

Aksiyalarning hisobi 8320-«Imtiyozli aksiyalar» schyotida ushbu aksiyalarning nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ushbu aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori bahoda sotishdan olingan har bir summa 8410 - «Emissiya daromadi» schyotida qayd etiladi.

¹³ I.Butikov “Qimmatli qog‘ozlar bozori”

Imtiyozli aksiyalar bo'yicha analitik hisob xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha va kapitalning shakllanish bosqichi bo'yicha axborotlarning shakllanishini ta'minlashi shart.

Yuqorida keltirilgan yozuvlar natijasida 4610 - schyotining debet tomonida hosil bo'lgan qoldiq aksiyadorlarning qarzini, ya'ni olingan aksiyalar uchun to'lanmagan mablag' yoki ta'sis hujjatida e'lon qilingan ustav fondiga ko'chirilishi lozim bo'lgan ulush miqdorini ko'rsatadi. Bu to'lovlar yoki aksiya qiymati to'langanda kelib tushgan mablag' summasiga 4610 - schyoti kreditlanib, ustav kapitali miqdori o'zgarishsiz qoldiriladi.

Aksiyadorlar sotib olgan aksiyalar uchun aksiyadorlik jamiyati foydasi hisobidan dividend oladilar. Uning miqdori xo'jalik yurituvchi sub'ekt xo'jalik faoliyati natijalariga ko'p jihatdan

bog'liq. Foydadan budjetga soliq, rezerv kapitaliga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt umumiy maqsadlariga ajratmalar qilingandan keyin aksiyadorlar uchun dividend to'lanadi.

Bu schyotlarda ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalar qiymatining chegarasidagi yoki puli to'langan aksiyalarning nominal qiymatidagi ustav kapitali aks ettiriladi. Ustav kapitalining hajmi ustavda ro'yxatdan o'tkazilgan summadan oshib ketishi mumkin emas. Sub'ekt ustav kapitalining ko'payishi yoki kamayishi faqat ta'sischilarning qarori bilan va sub'ekt nizomi hamda boshqa ta'sis hujjatlariga o'zgarishlar kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Ta'sischilar ko'yilmalarining haqiqiy kelib tushishi 4610-«Ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari» schyotining kreditiga o'tkaziladi, har xil aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debeti bilan bog'langan holda moddiy qiymatliklar va nomoddiy aktivlar, ustav kapitaliga kiritilgan ko'yilmalarning qiymati aniq, haqiqatda mavjud bo'lgan bozor bahosida yoki ta'sischilarning roziligi bo'yicha baholanadi.

Ustavda qayd qilingan va ta'sis hujjatlarida ko'rsa-tilgan ta'sischilarning ulushi va omonatlaridan tashkil topgan sub'ektning ustav kapitalini ro'yxatdan o'tkazil-gandan keyin ta'sischilarning ulushi va omonatlarining summasi 8330 -

«Ulush va omonatlar» schyotining krediti va 4610 - «Ustav kapitali (fondi) ga badallar bo'yicha ta'sisчилarning qarzlari» schyotining kreditida va pul mablag'larini, moddiy va nomoddiy qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlarning debet tomonida ko'rsatiladi.

8310 - «Oddiy aksiyalar hisobvarag'i» ustavga muvofiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan chiqarilgan (chiqarishga ruxsat berilgan) oddiy aksiyalarning summa nominal qiymatida ifodalangan aksiyadorlik kapitali holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash uchun mo'ljallangan. Mazkur schyot krediti bo'yicha oddiy aksiyalar qismida ro'yxatga olingan aksiyadorlik kapitali hajmi aks ettiriladi. Debet bo'yicha - bu turdagi sarmoyaning kamayishi ko'rsatiladi.

8530 - «Imtiyozli aksiyalar» schyoti imtiyozli aksiyalar qismida ularning nominal qiymati bo'yicha aksiyadorlik kapitalining holati va harakati haqidagi ma'lumotlarni jamlaydi. Imtiyozli aksiyalarning tahliliy hisobi xuddi oddiy aksiyalar hisobi kabi amalga oshiriladi.

8530 - «Pay va quyilmalar» schyoti aksiyadorlik jamiyatlaridan tashqari boshqa hamma tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar: davlat va xususiy korxonalar, shirkatlar va sherikchiliqtsa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun ustav kapitalining holati va harakati haqidagi ma'lumotlarni jamlashga mo'ljallangan.

Davlat korxonalarida esa bu ustav fondi deb nomlanadi, u davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektga ajratilgan asosiy va oborot vositalar majmuidan iborat.

Ulushli kapitali - xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun shirkat a'zolar tomonidan kiritilgan ulushlar jamidir.

Ustav kapitali - ta'sis hujjatlarida belgilangan doiradagi faoliyatni ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil etish chog'ida uning mulkiga muassislar (a'zolar) ko'shgan ulushlarining jamini (nominal qiymati bo'yicha hissalari, aksiyalar) pul birligida ifodalashdir.

Shunday qilib, tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav kapitali uning muassislari tomonidan qo'shilgan mablag'laridan to'planib boradi. U

bir vaqtning o'zida muassislarning jamoaviy mulki hamda yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning mulki hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda ustav kapitali bir tomondan xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z mablag'lari fondi, boshqa tomondan esa har bir muassising mulki sifatida namoyon bo'ladi.

18.3. Turli mulkchilik shakllarida ustav kapitalini shakllantirish va uning o'zgarishini hisobga olish.

Ustav kapitalini shakllantirish tartibi Uzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq ta'sis hujjatlari bilan tartibga solinadi.


Ustavni ro'yxatga o'tkazish paytida e'lon qilingan ustav kapitalining butun miqdori quyidagi provodka orqali ifodalanadi:

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha mulkdorlar qarzlari» schyoti debeti.

8310 (8312, 8313) - «Ustav kapitali» schyoti krediti.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ekt mulkdorlar xo'jalik yurituvchi sub'ekt ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin bir yil mobaynida o'z ulushlarini to'liq qo'shishlari shart.

Xo'jalik faoliyatining 3 ta asosiy tashkiliy-huquqiy shakli mavjud: yakka egalik, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari aksiyadorlik jamiyati (korporatsiya).



18.4-rasm: Xo'jalik faoliyatining tashkiliy huquqiy shakli

Yakka egaligtsagi ustavni ro'yxatga o'tkazish chog'ida ro'yxatga olingan ustav kapitali (UK) hajmi yozuvida qayd etiladi:

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha mulkdorlarning qarzi» schyoti debeti.

8510 - «Ustav kapitali» schyoti krediti.

Bunda 8330 - schyotda xo'jalik yurituvchi sub'ekt yagona mulkdor ulushining miqdori aks ettiriladi. Xususiyl korxonada amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra o'z ustavini ustav kapitali miqdorini ma'lum qilmasdan ham ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega.

Ustav kapitaliga ulushlarning kelib tushishi ustav kapitali hisob varag'iga ta'sir ko'rsatmaydi, balki muassis qarzini so'ndiradi. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ustav kapitaliga badallar daromad hisoblanmaydi va soliqqa tortilmaydi.

Muassis ustav kapitaliga turli aktivlarni kiritishi mumkin, biroq ularning turlari albatta korxonada ustavida aks ettirilishi shart. Masalan, agar korxonaning ustav kapitali faqatgina pul mablag'lari hisobiga to'ldiriladi deb ustavda yozilgan bo'lsa, u holda muassis ustav kapitaliga asosiy vositalarni kiritmaydi. Bu hol ustav qoidasining buzilishi sifatida tavsiflanadi.

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha muassislar qarzi» schyoti ustav kapitaliga ko'yilmalarga oid xo'jalik yurituvchi sub'ekt

muassislari bilan barcha turdagi hisob-kitoblar haqida ma'lumotlarni jamlaydi. Hisobvaraql aktiv va debetli saldogagina ega bo'lish mumkin. Schyot debet bo'yicha muassisning xo'jalik yurituvchi sub'ekt oldidagi ustav kapitaliga badallari bo'yicha qarzi, kreditida esa - haqiqatda kelib tushgan qo'yilmalar aks ettiriladi. Qo'yilmalar kiritilgan takdirida 4610-schyot sal'doga ega bo'lmaydi.

Xususiyl xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav kapitalini shakllantirish

Muassis tomonidan mebel kiritilgan. Mazkur holatda quyidagi buxgalteriya yozuvlari qayd etiladi:

0140 - «Mebel va ofis jihozlari» schyoti debeti.

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sischi qarzlari» schyoti krediti.

Muassis tomonidan ma'lum mahsulot ishlab chiqarish (sotish) uchun patent kiritilgan:

0410 - «Patent, litsenziya, nou xaular» schyoti debeti.

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sisshilar qarzlari» schyoti krediti.

Muassislar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish faoliyati uchun xom ashyo va TMZlar kiritilgan:

1010 - «Xom ashyo va TMZlar» schyoti debeti.

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sisshilar qarzlari» schyoti krediti.

Muassis sotish uchun tovarlar kiritgan:

2910 - «Tovarlar» schyoti debeti.

4610 - «Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sisshilar qarzlari» schyoti krediti.

Bunda pul ko'rinishida bo'lmagan barcha aktivlar (moddiy va nomoddiy) haqiqiy bozor narxlariga yo'naltirilgan qiymat bo'yicha Ustav kapitaliga kiritilishi lozim.

Muassislardan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar olinganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt keyingi oydan boshlab amortizatsiyani hisoblashi kerak, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt mol-mulk solig'i to'lovchisi hisoblansa, u holda ikki yillik imtiyozli muddat tugashi bilan ushbu vositalar qiymati mol-mulk solig'i to'lanadigan bazani oshiradi.

Davlat korxonasi ustav kapitalining shakllanishi

Davlat korxonalarida ustav kapitalining hajmi uning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilangan mol-mulk summasiga mos keladi. Mazkur miqdor ta'sis hujjatlarida -xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil qilish va uning balansiga mol-mulk o'tkazish to'g'risidagi buyrukda qayd etilgan miqdorga muvofiq bo'lishi lozim.

Davlat korxonasi ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha provodka:

0130 - «Mashina va uskunalar» schyoti debeti.

1010 - «Xom ashyo va materiallar» schyoti debeti.

1080 - «Inventar va xo'jalik jixozlari» schyoti debeti.

5010, 5110 - «Pul mablagʻlari» schyoti debeti.

8300 - «Ustav kapitali» schyoti krediti.

Masʻuliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalining shakllantirilishi

Pul birligida baholangan ustav kapitaliga koʻyilmalar ustav kapitalidagi ishtirokchining ulushini tashkil etadi. Har bir ishtirokchi (muassis) MChJga taʻsis shartnomasiga muvofiq moddiy va (yoki) nomoddiy aktivlarni kiritadi. Ustav kapitalini shakllantirish boʻyicha buxgalteriya yozuvlari yakka egaligisiga yozuvlarga aynan oʻxshash boʻladi, muassislarning boʻyicha tahliliy hisobgina zarur.

MChJ ustav kapitalining eng kam miqdori roʻyxatdan oʻtkazilgan sanada eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam boʻlmasligi lozim. Muassislarning, pul koʻrinishida boʻlmagan kiritilayotgan aktivlarni baholash toʻgʻrisida kelishuvga erishishlari kerak, bunda baho aktiv oʻtkaziladigan sanadagi adolatli bahosini ifodalashi shart.

Ustav kapitalini taʻsischilarning taʻsis hujjatlarida belgilangan pay va ulushlaridan shakllantirish tartibi:

MISOL: 3 ta taʻsischilar qoʻshgan ulushlar evaziga MChJning ustav kapitali quyidagicha:

№	Ismi, shariflari	Qoʻshgan mablagʻ, soʻmda	Ulush salmogʻi, %
1	Yusupov U.S.	650 000 000	46,43
2	Ovchiyev Oʻ.X.	400 000 000	28,57
3	Abayev B.A.	350 000 000	25,0
	JAMI	1400 000 000	100

Ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan summada, ustav kapitali to'liq shakllantirilganda quyidagi buxgalteriya yozuvlari:

№	Muomala mazmuni	Summa, ming so'm	Debet	Kredit
1	Ro'yxatdan o'tkazish paytida MChJ ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi	1400 000	4610	8330
2	"Zil-130" markadagi yuk mashinasi kiringa olindi	150 000	0820 (0160)	4610 (0820)
2	Mebel va ofis jihozlari	50 000	0140	4610
3	Noutbuk kelib tushdi va kiringa olindi	10 500	0820 (0150)	4610 (0820)
4	Ishlab chiqarish maqsadida omborga xom ashyo va materiallar qabul qilindi	50000	1010	4610
5	Ta'sischi qarzlarni naqd pulda bankdagi hisobraqamiga to'ladi	1 139 500	5110	4610

Ustav kapitalini shakllantirishning cheklangan muddati davlat ro'yxatidagi o'tkazilgan paytdan boshlab, agar boshqa holatlar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan bo'lsa, bir yildan oshmasligi lozim. Mazkur davr mobaynida MChJ a'zolari tomonidan o'z ko'yilmalari kiritilmagan hollarida, agarda ta'sis hujjatlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, ular muddati uzaytirilgan to'lovlar summasi 25% yillik to'lov to'laydilar.

A'zolar jamiyatga o'z mol-mulklarini kiritganlaridan keyin ular o'zlarining yakka tasarruf etish huquqini yo'qotadilar. Mol-mulk yangi xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktiviga aylanadi, sheriklarning barchasi birgalikta egalik qilishga o'tadilar.

Bunday badallarning har biri muassislar majlisining bayonnomasida rasmiylashtiriladi., bu esa aktiv belgilanishi va baholanishiga barcha mulkdorlarning roziligini ifodalaydi.

Mustaqil malakali baholovchi tomonidan kiritiladigan mol-mulkni baholashni amalga oshirish davlatga yoki qisman qarashli bo'lgan baholash ob'ektlari bitimga jalb etiladigan hollarda majburiy hisoblanadi. Shuningdek, Fan va texnika Davlat Qo'mitasining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ustav fondiga kiritiladigan nomoddiy aktivlar toifasiga tegishli bo'lgan intellektual mulk va boshqa ob'ektlarni baholash to'g'risidagi xulosasi zarur.


Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav kapitalini o'zgartirishga faqat muassislar qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi, bunda ustav kapitali o'zgargani haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilish hamda ta'sis hujjatlarini qayta ro'yhatdan o'tkazish lozim.

Ustav kapitalining kamaygani to'g'risida MChJ karori bu hakda axborot e'lon qilinganidan so'ng kamida uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasi davlat organlarida ro'yxatga olinishi bilan tasdiqdangan muassislarning tegishli qarorlarisiz ustav kapitalining o'zgarishi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettira olmaydi.

Ustav kapitalining oshirilishi

Muassislarning qaroriga asosan mavjud muassislarning qo'yilmalari oshishi, yangiliklarni jalb etish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning taqsimlanmagan foydasi hisobiga ustav kapitali oshirilishi mumkin.



18.5-rasm: Masuliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalini ko`paytirish yo`llari

Xo`jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so`m	D-t	K-t
Taqsimlanmagan foyda hisobidan ta`sischilarga ulush hisoblangan va uni ustav kapitalini ko`paytirish uchun qo`shishga qaror qilingan	100 000	8720	6610
Jamg`arilgan foyda hisobiga ustav kapitali ko`paytirildi	100 000	6610	8330

Shu tariqa, ustav kapitali miqdori 1 500 000 ming so`mni tashkil qiladi, biroq bunda har bir ishtirokchi foydani to`liq qo`shishga qaror qilinganligi sababli ulushining miqdori o`zgarmaydi va ilgorigidek Yusupov U.S. - 46,43%, Ovchiyev O`.X -28,57%, Abayev B.A.- 25,0 % ga teng bo`lib qolaveradi.

MChJ ustav kapitalining qo`shimcha hissa hisobiga ko`paytirilishi

T/r	Xo`jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so`m	D-t	K-t
------------	--	-------------------------	------------	------------

1	Yusupov U.S. tomonidan pul mablagʻlari koʻrinishida qoʻshimcha hissa qoʻshdi	70 000	5110	6630
2	Abayev B.A. tomonidan asosiy vosita va uskuna koʻrinishida qoʻshimcha hissa kiritdi	85 000	0890	6630
3	Yusupov U.S. tomonidan pul mablagʻlari koʻrinishida qoʻshimcha hissa qoʻshdi	70 000	6630	8330
4	Abayev B.A. tomonidan asosiy vosita va uskuna koʻrinishida qoʻshimcha hissa kiritdi	85 000	6630	8330

Yangi muassisni (aʼzo)ni jalb etish

Yangi aʼzo jamiyat muassisi boʻlishi mumkin:

Ustav kapitali ulushini bitta yoki bir necha sherikdan sotib olish yoʻli orqali;

Qoʻshimcha kapital koʻyish yoʻli bilan.

Biroq istalgan holda uning nomzodi avvalgi aʼzolarning barchasi tomonidan maʼqullanishi lozim.

Birinchi holatda kapital sotib olingan ulushi oldingi muassis kapitali schyotidan yangisirikiga oʻtkaziladi.

Muassislar tarkibidan chiqish

Muassis tarkibidan chiqishga hamda oʻz ulushini olishga qaror qilganda quyidagi provodkalar qayd etiladi:

8330 - «Pay va ulushlar» schyoti debeti.

6620 - «Chiqib ketayotgan muassislardan ulushlari boʻyicha qarzarlar» schyoti krediti.

Agar muassis chiqib ketayotgan paytda MChJ maʼlum jamgʻarilgan foydaga ega boʻlsa, u holda taʼsis hujjatlarida belgilangan nisbatga muvofiq unga ham, mazkur holatda 70% yoki 30% berilishi lozim.

8720 - «Jamgʻarilgan foyda» schyoti debeti.

6620 - «Chiqib ketayotgan muassislar ulushlari bo'yicha qarzar» schyoti krediti.

Muassis chiqib ketayotganida olgan jamg'arilgan foyda summasidan jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad soliqlarini to'lashlari lozim. Muassisning ustav kapitalidan (8330 schyotlardan) o'z ko'yilmasini qaytarib olishi hech qanday chegirmalarsiz sof tarzda amalga oshiriladi.

Chiqib ketayotgan muassis oldidagi qarz so'ndirilgan holat quyidagicha aks ettiriladi:

6620 - «Chiqib ketayotgan muassislardan ulushlari bo'yicha qarzar» schyoti debeti.

5010, 5110 - «Pul mablag'lari» schyoti krediti.

Aksiyadorlik jamiyatlaridagi (korporatsiyalardagi) ustav kapitali yoki aksiyadorlik kapitali, odatdagidek, chiqarilgan (chiqarilishiga ruxsat etilgan) aksiyalarning nominal yoki e'lon qilingan qiymatiga teng bo'ladi.

Aksiya - aksiyadorlik jamiyati mol-mulkiidagi ulushga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz yoki boshqacha qilib aytganda, korporatsiyaning mol-mulki birligidir. Korporatsiya chiqarish mumkin bo'lgan aksiyalarning eng yuqori miqdori ustavda belgilanadi.

Aksiyaning nominal qiymati - qimmatli qog'ozda ko'rsatilgan qiymati, aksiyadorlik jamiyati kapitalining hajmini belgilaydi va aksiya emissiya chiqarishga ruxsat etilganligini ro'yxatdan o'tkazishda belgilanadi.

Misol. Aksiyadorlik jamiyati ta'sis hujjatlarida ko'rsatilishicha, oddiy (odatdagi) aksiyalar soni 20000 dona, bir

dona aksiyaning nominal qiymati 100 so'm, 2000000 so'mlik summadagi aksiyalarni chiqarishga ruxsat etilgan. 20000 dona aksiyadan xozircha 7000 dona sotilgan, chiqarilgan aksiyalarning qolgan 3000 donasi sotilmagan deb tasavvur qilaylik.

Hisobda aksiyadorlik kapitali tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Chiqarilishga ruxsat etilgan aksiyalar 20000 dona - 2000000 so'm.

Shu jumladan:

Sotilganlari 17000 dona - 1700000 so‘m; ulardan haqi to‘lanmaganlari 700000 so‘m, haqi to‘langanlari 1000000 so‘m.

Sotilmaganlari - 3000 dona - 300000 so‘m.

18.4. Qo‘shilgan kapital hisobi.

Qo‘shilgan kapital - aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori bo‘lgan narxlar bo‘yicha birinchi bor sotilishida vujudga kelgan emissiya daromadi va Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqlarini hisobga olish tushuniladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalarni jamiyat o‘z balansida ushlab turishi yoki ularni jamg‘arma bozorida qaytadan sotishi mumkin. Aksiya egalari qarori bilan ustav kapitali sotib olingan xususiy aksiyalar summasiga kamaytirilishi, aksiyalarning o‘zi esa bekor qilinishi mumkin.

Turli xil qiymatdagi aksiyalar. Aksiyalarning hisob qiymatini aniqlash. Aksiyalarga nisbatan ko‘llanilayotgan «qiymati» so‘zi bir qancha ma‘noni anglatadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, nominal yoki e‘lon qilingan qiymati firmaning yuridik kapitalini belgilaydi.

Korporatsiya aksiyalarining hisob yoki balans qiymati uning barcha aktivlari va majburiyatlar (qarzlar) ayirmasidan iborat; bu kompaniya aksiyadorlarning mulki yoki netto aktivlaridir. Shunday qilib bir dona aksiyaning hisob qiymati ulush egasiga qarashli bir dona aksiyani korporatsiyaning netto aktivlarini ifodalaydi.

Misol. Aksiyadorlik jamiyati balansi quyidagi ko‘rinishga ega:

Aktivlar:

Uzoq muddatli - 1200000

Joriy-1400000

Jami aktivlar - 2600000

Passivlar:

Uz kapitali:

Oddiy aksiyalar (20000 dona, nominal - 100 soʻm) - 2000000 Jamlangan foyda - 400000 soʻm Majburiyatlar jami - 200000 soʻm

Jami passivlar - 2600000

20000 dona nominal qiymati boʻlgan aksiyaning hisob qiymati quyidagiga teng:

Aktivlar (2600000) - majburiyatlar (200000) : 20000 dona aksiya

= 120 soʻm, yoki oʻz kapitali (2400000): 20000 dona aksiya = 120 soʻm.

Bu aksiyadorlik jamiyatiga qarashli har bir aksiya 120 soʻmlik mol-mulk bilan taʼminlanganligini bildiradi.

Aksiyaning bozor qiymati - ochik bozorda aksiya uchun investorlar toʻlashga rozi boʻlgan bahodir.

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini 2 turini chiqarishlari mumkin: oddiy (odatdagi) va imtiSзли. Ular koʻrsatuvchi nomiga nomlanishi mumkin.

Misol. 3000 soʻmlik nominal qiymatidagi imtiSзли aksiyalarning 10 %i har bir aksiya uchun 300 soʻm miqdorida yillik dividend toʻlanadigan aksiyalardir.

Biroq, boshqa tomondan oddiy aksiyalar odatdagidek, oʻz egalariga ovoz berish huquqini beruvchi yagona aksiyalar turi va faqatgina ularni saqlovchilar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga egadirlar.

Qoʻshilgan kapital oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan summalarining nominal qiymatidan oshiqcha summalarining, bundan tashqari qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklar qiymatining yigʻindisidan tashkil topadi.

Qoʻshilgan kapital, aksiyalarning nominal qiymatidan oshiqcha bahosi boʻyicha birinchi sotuvdan olingan emissiya daromadini aks ettiradi. Bundan tashqari, qoʻshilgan kapitalning tarkibida ustav kapitaliga koʻyilgan omonatlarni toʻlashda hosil boʻladigan kursdagi farqlarning summasi ham hisobga olinadi.

Qoʻshilgan kapitalning mavjudligi va harakati quyidagi:

8410 - «Emissiya daromadlari»

8420 - «Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqlar» schyotlarida yuritiladi.

8410 - «Emissiya daromadlari» schyoti aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori olingan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Kelib tushgan summalar **8410** - «Emissiya daromadlari» schyotining krediti bo'yicha hisobga olinadi, xususiy aksiyalarni sotib olishda va sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilishda kursdagi farqdarni qoplash uchun foydalanilganda ushbu muomalalar bu schyotning debeti bo'yicha hisobga olinadi.

8420 -«Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqlar» schyoti ustav kapitalini shakllantirish jarayonida hosil bo'ladigan kursdagi farqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Valyuta va valyuta qiymatliklari hisobiga ustav kapitalini shakllantirish vaqtida ustav kapitaliga badal to'lash vaqtida amal qilingan Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha baholanadi.

Valyuta va valyuta qiymatliklarini baholash va boshqa mulklarni ro'yxatdan o'tkazish vaqtida ta'sis hujjatlari-dagi baholardan farq qilishi mumkin. Hosil bo'lgan bu kursdagi farqdar **8420** -«Ustav kapitalini shakllantirish-da kursdagi farqdar» schyotida hisobga olinadi. Baholardagi ijobiy farqdar, mulklar, valyuta va valyuta qiymatliklari schyotlarining debeti bo'yicha va **8420** -«Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqlar» schyoti krediti bo'yicha, salbiy farqlar esa teskari tartibda buxgalteriya provodkalari bo'yicha aks ettiriladi. Baholardagi va kursdagi baholashning bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta'sis hujjatlarida oldindan kelishilgan ustav kapitalidagi ta'sischilar ulushining o'zgarishiga imkon beradi.

Ustav kapitalini shakllantirishda hosil bo'lgan kursdagi farqlarning analitik hisobi, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining aksiya egalari bilan hisoblashdan tashqari, har bir ta'sischi bo'yicha yuritiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt qayta ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar o'zgarishdan qolish lozim bo'lgan ustav kapitalidan farqdi o'laroq, qo'shilgan kapital quyidagi operatsiyalar natijasida to'ldirilishi mumkin:

Emission daromadni yuzaga keltiruvchi nominal qiymatidan yuqori bahoda aksiyalar birlamchi sotilishi holatida;

Kursdagi farqni keltirib chiqaruvchi xorijiy investitsiyali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ustav kapitalini shakllantirish chog‘ida;

Emission daromad yuqorida ko‘rib o‘tilgandek, aksiyalar sotilish bahosi va nominal qiymati o‘rtasidagi tafovutni hisobga olingan hamda faqatgina birlamchi emissiya chog‘ida aks ettiriladi.

8410 “Emissiya daromadi” schyoti bo‘yicha analitik hisob oddiy va imtiyozli aksiyalardan olingan daromadlar bo‘yicha alohida yuritiladi.

- Emission daromad - bu aksiyalar sotish bahosi va nominal qiymatii o‘rtasidagi tafovutni hisobga olingan hamda faqatgina birlamchi emissiya chog‘ida aks ettiriladi.

Misol: Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 100 000 so‘m nominal qiymatida 1000 dona aksiya chiqarildi.

Bir dona aksiya uchun 120000 so‘m narx bo‘yicha sotilgan, quyidagi yozuvlar qayd etiladi:

Debet 5110, 5010 – pul mablag‘larini hisobga olish hisobvaraqlari – 120 000 so‘m.

Kredit 4610 – "Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha muassislar qarzi" hisobvarag‘i – 100000.

Kredit 8410 – "Emission daromad" hisobvarag‘i – 20 000.

Misol: Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ustav kapitali ta‘sis hujjatlariga muvofiq 200 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Xorijiy ta‘sischilar ulushi 40% ga teng va 80 ming AQSh dollarlik asosiy vosita kiritdi.

Hujjatlar ro‘yxatdan o‘tkazilganda vaqda 1 AQSh dollariga nisbatan 9772 so‘m belgilangan. Ulush kiritilgan vaqtda 1 AQSh dollariga nisbatan 9974 so‘m belgilangan. Farq- 202 so‘mni tashkil etadi. $202 \text{ so‘m} * 80000 = 16\,160\,000$ so‘mni “Emissiya daromadi” schyotida aks ettiramiz.

18.5. Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatishni hisobga olish.

Rezerv kapitali – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ta’sis hujjatlarida, odatdagidek, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyatsion rezervlarga muvofiq, foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv tushuniladi.

8510 “Mulknii qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar”

8520 “Rezerv kapitali (fondi)”

8530 “Tekinga olingan mulk”.

Aksiyadorlik jamiyatlari rezerv kapitali ustavida belgilangan miqdorda unga qadar har yili sof foydadan ajratmalar yo‘li bilan shakllantiriladi:

Rezerv kapitali operatsion faoliyatdan kelib chiqqan zararlarni qoplash va/yoki sof daromad yetarli bo‘lmagan holatlarda dividendlar to‘lash uchun foydalaniladi. Rezerv kapitali uning zararlarini qoplash, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash, aksiyadorlar talablariga ko‘ra aksiyalarni sotib olish, jamiyat obligatsiyalarini so‘ndirish, qarzni hisobdan chiqarish hamda boshqa so‘ndirish imkoniyatlari mavjud bo‘lmaganda boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan

8510 - «Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti qayta baholash natijasida aktivlar qiymatini oshishini hisobga oladi.

Mulknii qayta baholashdan rezerv hisobi qayta baholash natijasida qiymati oshgan mulklarni aks ettiradi.

Agar qayta baholash natijasida mulkning qiymati kamaysa, kamaygan summa o‘sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga qoplanadi. Mulknii qayta baholash bo‘yicha jamlangan summaning ta’sischilar o‘rtasida taqsimlanishi 8510 “Mulknii qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotning debetida 6620 “Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarzlari” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash, odatda, hukumat qaroriga ko‘ra, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarni bozor qiymatigacha qayta baholash aktivning bozor qiymatini aniq belgilashi mumkin bo‘lgan sharoitda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisob siyosatiga muvofiq

amalgaga oshiriladi. Bunda, qayta baholashni shunday amalga oshirish kerakki, har bir hisobot sanasidagi aktivning balans qiymati uning bozor qiymatidan keskin farqlanmasin.

Qayta baholash natijasida qiymati oshgan mulklarni aks ettirish.

MChJ ning "MAN" rusumidagi transport vositasi boshlang'ich qiymati 650 mln. so'm, eskirish qiymati 180 mln. so'mga teng.

Transport vositasining qiymatini 1,2 koeffitsiyent oshirish yo'li qayta baholash natijasida qayta tiklash qiymati 780 mln. so'm (650 000 000 x 1,2)gacha oshgan.

Transport vositasining eskirishi esa 216 mln so'm (180 000 000 x 1,2)gacha oshgan. Ushbu muomalalar hisobda quyidagicha aks ettiriladi

D-t 0160 130 000 000 so'm;

K-t 8510 130 000 000 so'm,

D-t 8510 36 000 000 so'm;

K-t 0260 36 000 000 so'm.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni		
		Debet	Kredit
1.	Rezerv kapitali hajmining mulk qiymatini qayta baholash natijasida ko'payishi: a) asosiy vositalar; b) tugallanmagan qurilish; v) uzoq muddatli investitsiyalar.	0110-0199 0810 0610-0690	8510
2.	Mulk qiymatining o'tgan qayta baholash qiymatining oshirilgan miqdorigacha kamaytirilishi natijasida rezerv kapitalining kamayishi: a) asosiy vositalar; b) tugallanmagan qurilish; v) uzoq muddatli investitsiyalar.	8510	0110-0199 0810 0610-0690
3	o'tgan qayta baholash qiymatidan oshgan summaga: a) asosiy vositalar; b) tugallanmagan qurilish; v) uzoq muddatli investitsiyalar.	9430	0110-0199 0810 0610-0690

4	Asosiy vositalar eskirishini qayta baholash: a) qiymati oshirilganda; b) qiymati kamaytirilganda.	8510 0211-0290	0211-0299 8510
---	---	-------------------	-------------------

Misol. Kompaniyaning qimmatli qog'ozlari 800 ming so'mlik balans qiymatiga ega. Ularning hisobot davri oxiridagi bozor qiymati 880 ming so'mga oshgan.

Agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z investitsiyalarini qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olsa, u holda qayta baholashdan olingan daromad rezerv sarmoya schyotlarida aks ettirilishi lozim.

0610 - «Qimmatli qog'ozlar» schyoti debeti - 80000 so'm.

8510 - «Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti krediti 80000 so'm.

Agar navbatdagi hisobot davriga kelib bu qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati kamaysa, unda mazkur qimmatli qog'ozlar bo'yicha avvalgi qayta baholash doirasida rezerv sarmoyaning kamaytirish hisobiga uni qoplash mumkin. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha tashkil etilgan rezervdan oshuvchi narxning pasayish summasi xarajat sifatida tan olinadi.

Asosiy vositalarni (hukumat qaroriga binoan) qayta baholash summasi, shuningdek, o'z kapitalining oshishi sifatida aks ettiriladi.

Balans qiymatidan yuqori bahoda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ekt ustav kapitaliga mol-mulkni kiritish chog'ida ham «Rezerv sarmoya» schyotida ko'llaniladi.

TMB kabi joriy aktivlarni qayta baholash buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillarini («extiyotkorlik» yoki «konservatizm» tamoyillari) zid keladi hamda «Tovar moddiy rezervlar» 4 - son BHMSga muvofiq TMZ tannarxi va sof foyda qiymatidan eng kam baho bo'yicha baholanadi. Biroq, agar garchi TMZni qayta baholash amalga oshirilgan bo'lsa, qayta baholash summasi ularni sotish (Yoki ishlab chiqarishga jalb etish) tadbirlari bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning daromadiga ko'shiladi.

Faqatgina favqulodda holatlarda (rezervlarni bahosini pasayishida, rezervlarga zarar yetishida, ularning eskirishida) TMB bahosi pasayadi hamda, shuningdek, o'z kapitali schyotlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

8520 - «Rezerv kapitali» schyotida turli rezervlar hisobga olishda foydalaniladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari rezerv kapitali ustavda belgilangan miqdorda unga qadar har yili sof foydadan ajratmalar yo'li bilan shakll antiriladi:

8710 - «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti debeti.

8510 - «Rezerv kapitali» schyoti krediti.

Rezerv kapitali uning zararlarini qoplash, imtiSзли aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, aksiyadorlar talablariga ko'ra aksiyalarni sotib olish, jamiyat obligatsiyalarini so'ndirish, qarzni hisobdan chiqarish hamda boshqa so'ndirish imkoniyatlari mavjud bo'lmaganda boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan.

Masalan, hisobot davrida foyda mavjud bo'lmaganda imtiSзли aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi:

8510 - «Rezerv kapitali» schyoti debeti.

6610 - «To'lov uchun dividendlar» schyoti krediti.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tugatilayotganda turli debitorlarning qarzlari hisobdan chiqariladi.

8510 - «Rezerv kapitali» schyoti debeti.

4010 - «Buyurtmachi va xaridorlardan olinadigan hisobraqamlar» schyotlari krediti.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorlarda rezerv kapitalini tashkil etish ham qonun hujjatlarida nazarda tutilgan. Adliya vazirligidan 1997 yil 29 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. «Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi 382 - son yo'riqnomaga muvofiq xorijiy investitsiya ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun soliqqa tortiladigan

daromad rezerv fondiga 20% gacha miqdorda ajratmalar summasiga mazkur fond ustav kapitalining 25% i miqdoriga yetgunga qadar kamaytiriladi.

Ta'sis hujjatlariga va hisob siyosatiga muvofiq turli maqsadlar uchun rezerv fondi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham tashkil etilishi mumkin.

Rezervlarni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan muomalalar 2010, 2310, 2510, 9400 - schyotlarning debetida va 8910 - «Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar rezervi» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Tashkil etilgan rezerv hisobidan qoplangan xarajatlar summasiga 8910 - «Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar rezervi» schyoti debetlanib, 2310 - «Yordamchi ishlab chiqarish», 6710 - «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar» schyotlari kreditlanadi.

18.6. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar bu- keyinchalik qayta sotish yoki bekor qilish maqsadida sotib olingan xususiy aksiyalar miqdori va qiymati tushuniladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar quyidagi schyotlarda hisobgaolinadi:

8610 "Sotib olingan xususiy aksiyalar - oddiy"

8620 "Sotib olingan xususiy aksiyalar - imtiyozli".

"Sotib olingan xususiy aksiyalar" korxonalarining quyidagi maqsadlarini amalga oshirish uchun ularni keyinchalik tarqatish yoki bekor qilish uchun sotib olinadi.

Maqsad:

-aksiya kursini tutib turish;

-har bir qolgan aksiyaga dividendlarni ko'paytirish;

-aksiyalarni o'z xodimlari orasida tarqatish;

-qolgan aksiyalarning nominal qiymatini oshirish;

-boshqa korxonalar tomonidan nazorat o'rnatish uchun aksiyalar xarid qilinishining oldini olish

Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar 8300 "Ustav

kapitalini hisobga oluvchi schyotlar”ga nisbatan kontr-passiv schyot hisoblanib, aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko‘rsatiladi.

Emitent tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati

8610 “Sotib olingan xususiy aksiyalar - oddiy” va 8620 “Sotib olingan xususiy aksiyalar - imtiyozli” schyotlarining debetida haqiqiy sotib olish bahosida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish bahosidan yuqori bahoda qaytadan sotilganda o‘rtadagi farq summasi 9590 “Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari” schyotiga kreditlanadi.

Agarda sotib olingan xususiy aksiya sotib olish bahosidan past bahoda qayta sotilsa, o‘rtadagi farq summasi 9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar” schyotining debet tomonida ko‘rsatiladi. Nominal qiymatidan past bahoda sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilishda, ushbu qiymatlar o‘rtasidagi farq 9590 “Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari” schyotining kreditida aks ettiriladi. Agar bekor qilingan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati ularning nominal qiymatidan yuqori bo‘lsa, unda farq 9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar” schyotining debetida aks ettiriladi. Boshqa korxonalar (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar) sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600)dan korxonadan tomonidan o‘rnatilgan tartibda boshqa qatnashuvchilarga yoki uchinchi shaxsga berish uchun sotib olingan ustav kapitalidagi ulushni hisobga olish uchun foydalanadi.

18.7. Maqsadli tushumlar hisobi.

Maqsadli jamg‘armalar - bu maqsadli moliyalashtirish mablag‘lari, a‘zolik badallari va maqsadli yo‘nalish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan boshqa qaytarilmaydigan mablag‘larning kelib tushishi va sarflanishini o‘zida aks ettiradi. Maqsadli moliyalashtirish mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 8800- “Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar”da olib boriladi.

Maqsadli tushumlarni korxonaning xususiy kapitali sifatida aks ettirish uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak

- a) mablagʻlarning maqsadli yoʻnalish boʻyicha ishlatilishi;
- b) mablagʻlarni jalb qilish bilan bogʻliq xarajatlarning yoʻqligi;
- v) belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

8800- “Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar” ning tarkibida quyidagi turkumlarga ajratib schyotlar ochiladi:

8810 “Grantlar”;

8820 “Subsidiyalar”;

8830 “Aʼzolik badallari”;

8840 “Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari”


8890 “Boshqa maqsadli tushumlar”.

«Maqsadli tushumlar» tushunchasi respublikamizning ayrim qonunlarida va qonun osti hujjatlarida keltirilgan. Chunonchi, «Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida qonun»da maqsadli tushumlarga taʼrif berilmagan boʻlsada, biroq ularning korxonalar xususiy atamasi.

Maqsadli tushumlar deganda, umuman olganda ularning nomlanishidan kelib chiqqan holda, korxonalarga oʻzga shaxslardan biron bir maqsad uchun olingan yoki ularning ixtiyotirda qoldirilgan mablagʻlar tushuniladi.

Maqsadli tushumlar korxonalarda biron bir aktiv koʻrinishida, masalan pul mablagʻlari, tovar-moddiy boyliklar, toʻlanmagan yoki voz kechilgan kreditorlik qarzlari koʻrinishida vujudga keladi.

Xalqaro va milliy amaliyotda maqsadli tushumlar turli yelementlarni oʻz ichiga oladi. Chunonchi, bizning respublikamizda amaldagi qonun hujjatlariga koʻra maqsadli tushumlar tarkibiga hozirgi paytda grantlar, subsidiyalar, aʼzolik badallari, maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari va boshqa maqsadli mablagʻlar kiritiladi (18.6-rasm).



18.6-rasm. Maqsadli tushumlarning tarkibiy yelemntlari

Maqsadli tushumlarning ushbu yelemntlarining iqtisodiy mohiyati, ularning maqomi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, bir-biridan farqli jihatlari qonun hujjatlarida hamda adabiyotlarda yoritilgan. Quyida ularga asoslanilgan holda maqsadli tushumlar tarkibiga kiruvchi ularning alohida yelemntlarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Grantlar – bu korxonaga davlat (xukumat) hamda nodavlat, chet yel, halqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun berilgan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi. Grantlar pul mablag'lari, texnik vositalar va boshqa moddiy boyliklar ko'rinishida olinadi. Ushbu maqsadli tushumlarning xarakterli jihati shundaki, ular aniq maqsadga ishlatilishi lozim. Ajratilgan grantlarni maqsadli ishlatilishi ularni beruvchi shaxslar tomonidan nazorat qilinadi.

Subsidiyalar – bu korxonaga uning operatsion (asosiy) faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir shartlarga ko'ra davlat tomonidan pul va moddiy aktivlar bilan berilgan yordam summasi. Maqsadli tushumlarning ushbu turi korxonalarga o'z mablag'lari yetishmagan hollarda qaytarib berilmaydigan moliyaviy yordam sifatida beriladi.

A'zolik badallari – bu jamoatchilik tashkilotlarining ta'sis hujjatlariga binoan belgilangan a'zolik badallari summasi. Bunday maqsadli tushumlarga misol sifatida «Kamolot» yoshlar uyushmasi a'zolarining, Assotsiatsiyalar a'zolarining a'zolik badallarini keltirish mumkin. Ushbu tushumlar jamoatchilik tashkilotlarining ustav maqsadi va vazifalarini bajarish, ularning xarajatlarini

qoplash uchun ishlatiladi.

Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari – bu davlat qonunlari asosida korxonani maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliqdan ozod yetish natijasida to‘plangan mablag‘lar majmuasi. Bunday maqsadli tushumlarga misol sifatida mahalliyashtirish, davlat ahamiyatiga molik investitsiya dasturlarida ishtirok yetishga doir faoliyatni olib borganlik uchun davlat tomonidan belgilangan soliqlardan ma’lum muddatlargacha belgilangan tartibda hisoblanadigan, biroq korxonalar ixtiyorida qoldiriladigan soliqlarni keltirish mumkin. Maqsadli vazifalarni bajarish uchun korxonalar ixtiyorida soliq imtiyozlari sifatida qoldirilgan mablag‘larning ishlatilishi davlat soliq organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Boshqa maqsadli tushumlar – bu maqsadli tushumlarning yuqorida zikr yetilgan guruhlariga kiritilmagan turlaridir. Ularga, masalan yuqori tashkilotlar (vazirliklar, idoralar, hokimliklar)dan ma’lum maqsadlarda ajratilgan dotatsiyalar kiradi. Ushbu mablag‘larning ishlatilishi ularni bergan davlat boshqaruv organlari, shuningdek davlat soliq idoralari tomonidan nazorat qilinadi.

Respublikamizning qonun hujjatlariga ko‘ra korxonalar tomonidan boshqa shaxslardan ma’lum bir maqsadlarda olingan ayrim mablag‘lar maqsadli tushumlar sifatida tan olinmaydi. Chunonchi, ularga korxonalar tomonidan boshqa shaxslardan beg‘araz olingan mulk, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan moliyaviy yordamlar kiradi. Ushbu tushumlar mos ravishda korxonalarning rezerv kapitali va boshqa operatsion daromadlari sifatida tan olinib, daromad (foyda) solig‘i yoki yagona soliq to‘lovi ob’ektiga kiritiladi.

Shunday qilib, maqsadli tushumlarning yuqorida keltirilgan qisqacha izohidan quyida xulosalarni qilish mumkin.

Birinchidan, maqsadli tushumlar korxonaning aktivlarini, ya’ni mablag‘larini ko‘paytiradi, demak ushbu mazmunda maqsadli tushumlar korxonaga uchun o‘ziga xos daromad hisoblanadi, ular korxonalarning xususiy kapitalini ko‘paytiradi.

Ikkinchidan, maqsadli tushumlar biron maqsadlar uchun korxonaga tomonidan

qilinayotgan xarajatlarni qoplash uchun mablag' manbasi hisoblanadi, demak bu mazmunda maqsadli tushumlar daromad yemas, balki sarf-xarajatni qoplash manbai hisoblanadi. Bu mazmundagi maqsadli tushumlar respublikamizning qonun hujjatlariga ko'ra korxonalarining mablag'larini ko'payishiga olib kelsada, ularning daromadi sifatida qaralmaydi, mos ravishda ular soliqqa tortilmaydi.

Uchinchidan, beg'araz olingan mulk va beg'arz olingan moliyaviy yordamlar ham o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra korxonalar aktivlarini maqsadli ko'paytirishda, biroq xususiy kapital ushbu yelementlarining huquqiy maqomi yetarlicha asoslanmagan. Bizning fikrimizcha, korxonalar aktivlarini ko'payishiga olib keluvchi, ularning ixtiyorida qoluvchi beg'araz olingan mulk hamda beg'araz olingan moliyaviy yordam ham maqsadli tushumlar sifatida tan olinishi lozim.

To'rtinchidan, umuman olinganda har korxonaga kelib tushadigan va uning ixtiyorida qoladigan har qanday tushum daromad sifatida qaralishi lozim. Soliqqa tortish nuqtai nazaridan maqsadli tushumlarni davlat tomonidan belgilangan soliqlarga tortiladigan yoki undan ozod yetilgan daromadlar sifatida qaralishi to'g'riroqdir. Bunday tartibni yaxlit tarzda o'rnatilishi maqsadli tushumlarning boshqa tushumlar singari mohiyatini, korxonalar iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini aniqroq ifoda yetgan bo'lar yedi.

Maqsadli tushumlarning korxonalar barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ular faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarda yorqin namoyon bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlar bo'lib, odatda, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, to'lovga qobiliyatlilik kabi sifat ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Maqsadli tushumlarning korxonaga rentabelligini oshirishdagi rolini quyidagi misolda ko'rib chiqaylik. Aytaylik, korxonaning ishlab chiqarish tannarxi 450 mln. so'm, boshqa xarajatlari 50 mln. so'm, faoliyatdan olingan sof foydasi 40 mln. so'm. Korxonaga yangi mahsulotni yaratish va sotish uchun 300 mln. so'mlik maqsadli tushum olingan deylik.

Korxonaga rentabelligi va uni oshirishda maqsadli tushumlarning o'rniga baho berish uchun dastlab rentabellikning o'zi nima yekanligiga to'xtalaylik.

Umumqabul qilingan tartibga ko'ra, odatda, rentabellik deganda, yerishilgan sof foydani shu maqsadga yerishish uchun sarflangan jami xarajat summasiga nisbati tushuniladi. Bizning misolda bu ko'rsatkich 8 foizni tashkil yetadi, ya'ni:

$$8 \text{ foiz} = 40/(450+50);$$

Maqsadli tushumlar korxonaga qaytarib berilmaslik sharti bilan olinganligi uchun ular korxonaning qilgan sarf xarajatlarini qoplashga yubotiriladi. Demak, yuqoridagi misolga asosan korxonaning o'z sarfi 200 mln so'mni (500- 300) tashkil yetgan bo'ladi. U holda korxonaning rentabelligi 20 foizni (40/200) tashkil yetgan bo'ladi. Demak, maqsadli tushumlar korxonaga qo'shimcha 12 foiz (20-8) rentabellikka yerishishga imkon bergan bo'ladi.

Maqsadli tushumlarning korxonalar rentabelligini oshishidagi rolini hissali usulda ham hisoblash mumkin. Buning uchun, dastlab ularning jami xarajatlardagi hissasi, shundan so'ng yesa ushbu hissadan kelib chiqib, sof foydaning maqsadli tushumlar yevaziga yerishilgan qismi topiladi. Pirovard natijada maqsadli tushumlar yevaziga olingan sof foydani jami maqsadli tushumlar summasiga bo'lish orqali ularning rentabelligi aniqlanadi. Yuqoridagi misolimizda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra:

- 1.Maqsadli tushumlarning jami xarajatlardagi hissasi 60 foiz (300/500).
- 2.Sof foydaning maqsadli tushumlar yevaziga yerishilgan qismi 24 mln.so'm (40*60%).
- 3.Maqsadli tushumlar rentabelligi 12 foiz (24/200).

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, maqsadli tushumlar korxonalarga ular qilgan xarajatlarni ma'lum qismini qoplash yevaziga samara keltiradi. Albatta, bunday samara ma'lum bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun ahamiyatlidir. Umumiy iqtisodiyot miqiyosida xarajatlarni davlat budjeti yoki boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarning mablag'lari yevaziga qoplanishi davlatning boyishiga olib kelmaydi. Shuningdek, maqsadli tushumlarni xalqaro fondlar yoki tashkilotlardan olinishi ma'lum xo'jalik birligi yoki davlatni iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir yetsada, biroq umumjahon miqiyosida iqtisodiy samara

bermaydi. Shu bois ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar iqtisodiyotini doimiy tarzda maqsadli tushumlarga asoslantirib, rivojlanishi mumkin yemas. Maqsadli tushumlarga vaqtinchalik iqtisodiyotni oyoqqa turishdagi muhim vositalardan biri sifatida qarash lozim.

Maqsadli tushumlar buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritilishi, unda maqsadli tushumlarga doir ma'lumotlarni aks yettirilishi ulardan samarali foydalanish darajasini ifodalovchi sifat ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini berishi lozim. Bu talablarga javob beradigan buxgalteriya hisobi tizimining mavjudligi maqsadli tushumlardan yetarlicha samara olishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Maqsadli tushumlar hisobining asosiy maqsadi ularning olinishi va ishlatilishi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilar uchun yetkazib berishdan iborat. Ushbu maqsadga yerishish uchun korxonalarda buxgalteriya hisobi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

birinchidan, maqsadli tushumlarni tuzilgan shartnomalarga ko'ra o'z vaqtida kelib tushishini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;

ikkinchidan, kelib tushgan maqsadli tushumlarni turlariga ko'ra ular hisobi uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlarida aks yettirish;

uchinchidan, maqsadli tushumning har bir turini aynan olingan maqsadi uchun ishlatilishini nazorat qilish imkonini beruvchi tartibda hisobda aks yettirish;

to'rtinchidan, maqsadli tushumlarning ishlatilmayin qolingan qismini joriy hisob va hisobot registrilarida, chunonchi bosh kitob, jurnal orderlar, buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida to'g'ri aks yettirish.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari maqsadli tushumlarning olinishi va ulardan oqilona, samarali foydalanishni tahlil qilish uchun yetarlicha imkon berishi lozim.

Grantlar va subsidiyalarning hisobini tashkil qilish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga grantlar hukumat tomonidan, turli nodavlat tashkilotlar, fondlar tomonidan beg'araz, gumanitar yordam tariqasida muhim

ijtimoiy maqsadlarda, iqtisodni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun, shuningdek ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish maqsadida kelib tushadi. Grant mablag‘lari faqat belgilangan maqsadlarda ishlatilishi lozim.

Buxgalteriya hisobida grantlar hisobi hisoblash tamoyiliga asoslangan holda olib boriladi. Ushbu tamoyilga ko‘ra grantlar kelib tushiga qarab yemas, balki grant ajratilganligi to‘g‘risida xabarnomani olinishiga ko‘ra hisobga olinishi lozim. Bu xabarnoma asosida ajratilgan grant summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari»

Kredit 8810 «Grantlar»

Grantlar korxonaga pul mablag‘lari, uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy boyliklar ko‘rinishida kelib tushishi mumkin. Grant olish bo‘yicha tuzilgan shartnoma asosida, shuningdek olingan grant summasiga guvohlik beruvchi hujjatlar asosida ularning kelib tushishi hisobda quyidagicha aks yettiriladi (18.1-jadval).

18.1-jadval

Grantlarni kelib tushishini schyotlarda aks yettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo‘luvchi hujjat
1	Grantlarni asosiy vositalar ko‘rinishida olinishiga	15000000	0120-0190	4890	Shartnoma, schyot-faktura, kirim dalolatnomasi
2	Grantlarni nomoddiy aktivlar ko‘rinishida olinishiga	14000000	0410-0490	4890	Shrtnoma, schyot-faktura, kirim dalolatnomasi
3	Grantlarni o‘rnatiladigan jihozlar ko‘rinishida olinishiga	3000000	0710-0720	4890	Shartnoma, schyot-faktura, kirim

					dalolatnoma si
4	Grantlarni tugallanmagan qurilish ob'ektlari ko'rinishida olinishiga	60000000	0890	4890	Shartnoma, schyot-faktura, kirim dalolatnoma si
5	Grantlarni TMB ko'rinishida olinishiga	20000000	1000, 2900	4890	Shartnoma, schyot-faktura, kirim dalolatnoma si
6	Grantlarni pul mablag'lari ko'rinishida olinishiga	15000000	5010, 5110 5210, 5500	4890	Bank ko'chirmalari

Xorijiy valyutada olingan maqsadli tushumlar tegishli schyotlarda Markaziy bankning ushbu mablag'lar kelib tushgan kuniga ye'lon qilgan kurslari bo'yicha milliy valyutada hisobga olinadi. Grant ajratilgan va haqiqatda kelib tushgan vaqt o'rtasida valyuta kursidagi o'zgarishlar korxonada kurs o'rtasidagi farq sifatida quyidagicha aks yettiriladi:

Debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari»

Kredit 9540 «Valyuta kurslari farqidan daromadlar»

Olingan grantlarning ishlatilishi tuzilgan shartnoma shartlariga to'liq muvofiq bo'lishi lozim. Korxonaning hisob siyosatiga ko'ra olingan grantlarning ishlatilishi hisobda ikkita usulda amalga oshirilishi mumkin. Bular: (1) bevosita usul; (2) bilvosita usul.

Bevosita usulda olingan grantlarning ishlatilishi to'g'ridan-to'g'ri 8810 «Grantlar schyotining debetida aks yettiriladi, bunda qilingan sarflarni ifodalovchi schyotlar kreditlanadi. Ushbu usulda ishlatilmasdan qolingan grantlarning korxonada ixtiyorida qoldirilgan qismi ularning rezerv kapitaliga yoki ustav kapitaliga o'tkaziladi (18.2-jadval).

Grantlarning ishlatilishini bevosita usulda schyotlarda aks yettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'luvchi hujjat
1	Grant hisobidan ish haqi hisoblanganda	500000	8810	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
2	Grant hisobidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma qilinganda	120000	8810	6520	Hisob-kitob
3	Grant hisobidan materiallar hisobdan chiqarilganda	100000	8810	1000	Dalolatnoma
4	Grant hisobidan safar xarajatlari hisoblanganda	60000	8810	6970	Bo'nak hisoboti
5	Grant hisobidan turli xizmatlar uchun hisoblanganda	200000	8810	6010, 6990	Shartnomalar, schyot-fakturalar
6	Grantning ishlatilmayin qolgan qismi ustav kapitaliga o'tkazilganda	150000	8810	8330	Qaror, shartnoma
7	Grantning ishlatilmasdan qolgan qismini rezerv kapitaliga o'tkazilishiga	150000	8810	8830	Qaror, shartnoma

Olingan grantlar ishlatilishi hisobining bilvosita usulida uni olgan korxonaning barcha xarajatlari dastlab davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda (9410,9420,9430) olib boriladi. Hisobot davri oxirida ushbu schyotlarning debetida to'plangan summa olingan grant hisobidan qoplanadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 8810 «Grantlar»

Kredit 9400 «Davr xarajatlari»

Olingan grantlarning analitik hisobi ularning tushish manbalari va maqsadlari bo'yicha yuritiladi.

Davlat subsidiyalarining grantlardan bir qancha farqlari mavjud. Bular:

- dotatsiyaga muhtoj va sanatsiyaga tushgan korxonalar yordam sifatida

beriladi;

- ular ma'lum shartlarga ko'ra ajratiladi;
- tender (konkurs)ga asoslanmaydi;
- korxonada ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni rag'batlantirish

maqsadlarida ishlatiladi;

- pul mablag'lari yoki moddiy boyliklar ko'rinishda beriladi.

Buxgalteriya hisobida davlat subsidiyalari ham xuddi grantlar kabi hisoblash tamoyiliga asoslangan holda aks yettiriladi. Bunda mos ravishda 18.2- va 18.3- jadvallarda keltirilgan yozuvlarga o'xshash yozuvlar qilinadi, faqatgina 8810 schyotning o'rniga mos ravishda 8820 «Subsidiyalar» schyoti ishlatiladi.

A'zolik badallari hisobini yuritish va maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlarining hisobi

A'zolik badallari mablag'larining bir qismi uning a'zolari badallari yevaziga vujudga keladigan tashkilotlarda mavjud bo'ladi. Bunday tashkilotlarga asosan nodavlat, notijorat tashkilotlar, masalan uyushmalar, assotsiatsiyalar, fondlar va shu kabilar kiradi.

Bu turdagi tashkilotlarda a'zolik badallarining miqdori ularning ustav hujjatlari asosida belgilanadi. A'zolik badallarini to'lagan shaxslarga a'zolik daftarchasi beriladi. Nodavlat, notijorat tashkilotlarda ularning a'zolarini hisobga olish daftari yuritilib, har bir a'zoga identifikatsion raqam beriladi.

18.3-jadval

A'zolik badallarining ishlatilishini schyotlarda aks yettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'luvchi hujjat
1	A'zolik badallari hisobidan ish haqi hisoblanganda	50000	8830	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
2	A'zolik badallari hisobidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma qilinganda	12000	8830	6520	Hisob-kitob
3	A'zolik badallari hisobidan materiallar hisobdan	10000	8830	1000	Dalolatnoma

	chiqarilganda				
4	A'zolik badallari hisobidan safar xarajatlari hisoblanganda	16000	8830	6970	Bo'nak hisoboti
5	A'zolik badallari hisobidan turli xizmatlar uchun hisoblanganda	20000	8830	6010, 6990	Shartnomalar, schyot-fakturalar
6	A'zolik badallari yevaziga qoplanmagan zararlarning qoplanishiga	650000	8830	8710	Qaror, buyruq
6	A'zolik badallari ustav kapitaliga o'tkazilganda	500000	8830	8330	Qaror, shartnoma
7	A'zolik badallari rezerv kapitaliga o'tkazilganda	500000	8830	8820	Qaror, shartnoma

A'zolik badallarining hisobi 21-son BHMSga muvofiq 8830 «A'zolik badallari» schyotida yuritiladi. Bu doimiy passiv schyotning kreditida a'zolik badallarini ko'payishi, uning debetida yesa a'zolik badallarining kamayishi aks yettiriladi.

Nodavlat, notijorat tashkilotlarida a'zolik badallarini kelib tushishi kassa va bank hujjatlari asosida quyidagicha aks yettiriladi:

Debet 5010 «Kassa»,

5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 8830 «A'zolik badallari»

Kelib tushgan a'zolik badallari jamoat tashkilotlarining daromadi hisoblanmaydi, mos ravishda ular soliqqa tortilmaydi. Ular nodavlat va notijorat tashkilotlarining ustav maqsadi va vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladi yoki ularning ustav kapitaliga, rezerv kapitaliga kiritiladi. Bu mazmundagi operatsiyalar quyidagi yozuvlar bilan aks yettiriladi

A'zolik badallarining analitik hisobi ularning tushish manbalari bo'yicha yuritiladi.

Davlat tomonidan korxonalariga maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlarining turlari, ularning berilish muddatlari hamda qo'llanish tartiblari soliq qonunchiligi hujjatlarida o'z aksini topgan. Respublikamizda yuridik

shaxslarga davlat tomonidan berilgan maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlarining hisobi «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks yettirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan olib boriladi.

Mazkur Nizom qonun hujjatlariga binoan quyidagi soliq imtiyozlari berilgan xo'jalik sub'ektlariga taalluqlidir:

*maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq solishdan ozod qilish natijasida bo'shagan mablag'larni, soliqlarni, bojxona va budjetga majburiy to'lovlarni to'lashga yo'naltirish sharti bo'yicha;

*bo'shayotgan mablag'larni maqsadli ishlatish ko'zda tutilmagan holda, yuqorida qayd yetilgan to'lovlardan vaqtinchalik ozod yetish bo'yicha.

«Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks yettirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom» soliq solishdan ozod yetish imtiyozlari doimiy tusga yega bo'lgan va (yoki) maqsadli foydalanish ko'zda tutilmagan xo'jalik sub'ektlariga taalluqli yemas.

Notijorat tashkilotlari uchun imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 26 iyuldagi PF-2343-sonli "Soliqlar va davlat budjetiga to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartiblashtirish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 noyabrdagi 502-sonli "Xayriya hamda boshqa jamg'armalar va jamiyatlarga, shuningdek ular tomonidan tashkil qilingan korxonalar va boshqa sho'ba tuzilmalariga soliqlar, yig'imlar hamda bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarning qo'llanish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq beriladi.

Soliq imtiyozlarini hajmi hisoblangan soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlardan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvchi soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlarni hisoblash amaldagi qonunchilikka muvofiq umumo'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda:

*hisoblangan hamma bojxona to'lovlari hisoblangan to'lovlar imtiyoz berilganligi sababli budjetga to'lanmaydi degan belgi qo'yilgan holda Bojxona yuk deklaratsiyasining 47-ustunida ko'rsatiladi;

*soliq imtiyozlari berilgan hisoblangan soliqlar va budjetga majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar, to'lovchi ro'yxatga olingan joydagi soliq organlariga belgilangan shakllarda va muddatlarda taqdim yetiladi. Tovar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinayotganda soliq solinadigan aylanishga hisoblangan QQS summasi ajratilgan holda schyot-faktura yoziladi.

Hisoblangan bojxona to'lovlari, soliqlar (ushbu soliqni to'lovchilar uchun QQSdan tashqari) va budjetga majburiy to'lovlar:

*bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan soliq solishdan ozod yetish ko'rinishida soliq imtiyozlari berilganda - tovarni sotish (olish) qiymatiga qo'shiladi;

*bo'shayotgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni ko'zda tutmagan, vaqtinchalik soliq solishdan ozod yetilganda - tovarni sotish (olish) qiymatiga qo'shilmadi.

*QQSni to'lovchn korxonalar sotib olayotgan (jumladan, import qilinayotgan tovarlar) tovarlar bo'yicha QQS summasini sotib olish qiymatiga qo'shmaydilar, balki umumo'rnatilgan tartibda budjetga to'lanishi kerak bo'lgan QQSni aniqlashda hisobga oladilar.

Shaxsiy iste'molda foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar QQS qo'shilgan holda sotib olish qiymat bo'yicha hisobda aks yettiriladi.

«Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks yettirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra barcha maqsadli foydalanish uchun korxonaga davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlarining hisobi 8840 «Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari» schyotida yuritiladi. Ushbu schyotni yuritilishida quyidagi tartibga amal qilinishi lozim.

Birinchiidan, maqsadli foydalanish uchun korxonalar ixtiyorida qoldiriladigan barcha soliqlar maxsus yo'riqnomalarga asoslangan holda

belgilangan tartibda hisob-kitob qilinadi. Ushbu hisob-kitoblar DSIga belgilangan muddatlarda topshiriladi. Hisob-kitoblarning quyi qismida soliq bo'yicha imtiyoz berilganligi hamda tegishli Hukumat qarori ko'rsatiladi. Demak, barcha maqsadli foydalanish uchun korxonada qoldiriladigan soliq imtiyozlari hisoblanishi shartdir. Hisob-kitob asosida ma'lum davr uchun hisoblangan soliq summasiga uning turiga ko'ra quyidagi yozuvlar beriladi.

1. Bevosita soliqlarga:

Debet 4010 «Olinadigan schyotlar»

Kredit 6410 «Budjetga soliq to'lovlari bo'yicha qarzar».

2. Korxonada xarajatlariga kiritiladigan soliqlarga (mol-mulk solig'i, yer, yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq, suv solig'i):

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»

Kredit 6410 «Budjetga soliq to'lovlari bo'yicha qarzar».

3. Korxonada daromadi (foydasi)dan undiriladigan soliq turlariga

Debet 9810 «Foydaning ishlatilishi»

Kredit 6410 «Budjetga soliq to'lovlari bo'yicha qarzar».

Yuqoridagi yozuvlarga ko'ra hisobda aks yettirilgan imtiyozli soliq to'lovlari korxonalarining «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»i (2-shakl)ga kiritilishi lozim.

Ikkinchidan, maqsadli foydalanish uchun berilgan soliq imtiyozlari budjetga o'tkazib berilmasligi sababli ularning hisoblangan summalari korxonada maqsadli tushumlar sifatida aks yettiriladi. Bunga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga soliq to'lovlari bo'yicha qarzar»

Kredit 8840 «Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari».

Ma'lum maqsadlarda foydalanish uchun korxonada qoldirilgan soliqlar ular berilgan muddatgacha 8840 «Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari» schyotining kreditida to'planib boriladi.

Maqsadli foydalanish uchun berilgan soliq imtiyozlari faqat belgilangan maqsadlarda ishlatilishi lozim. Soliq qonunchiligi hujjatlari talablariga ko'ra korxonalar ularning ishlatilishi to'g'risida DSIga ma'lumotlarni belgilangan

shaklda taqdim yetadilar. Ma'lumotlarga ko'ra soliq imtiyozlarining ishlatilgan qismi 8840 «Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari» schyotining debetida aks yettiriladi.

Imtiyozli davr tugagach, soliq imtiyozlarining ishlatilmasdan qolgan qismi korxonaning rezerv kapitaliga o'tkaziladi va u quyidagi yozuv bilan aks yettiriladi:

Debet 8840 «Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari».

Kredit 8520 «Rezerv kapitali».

Maqsadli foydalanish uchun berilgan soliq imtiyozlarining tegishli maqsadlarda ishlatilganligi DSI tomonidan nazorat qilinadi.

Soliq solishdan ozod yetish natijasida bo'shagan mablag'lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun xo'jalik sub'ektlari har yili moliyaviy hisobot bilan birga soliq organlariga «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks yettirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga ilova qilingan shaklga binoan soliqlar, bojxona va budjetga majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod yetilishi natijasida bo'shagan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisob-kitoblarni taqdim qiladilar. Ushbu hisob-kitob keyingi betda keltirilgan shaklda tuziladi.

Agar imtiyoz berilgan davr tugagunicha soliq solishdan ozod yetilishi natijasida yoki import qilingan tovarlarni sotish (realizatsiya qilish) oqibatida bo'shagan mablag'lardan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlangan hollarda, maqsadsiz foydalanilgan mablag'lar summasi, shuningdek o'z yehtiyolari uchun keltirilgan mol-mulkni sotishi (realizatsiyasi) bo'yicha hisoblangan bojxona to'lovlari sanksiyalari qo'llanilgan va penyalar hisoblangan holda budjet hisobiga undiriladi.

Xo'jalik sub'ektlari hisob-kitoblarni to'g'ri va o'z vaqtida taqdim qilishga javobgardirlar.

Agar, hisob-kitoblar taqdim qilinmasa, yohud o'z vaqtida taqdim qilinmasa, xo'jalik sub'ektlariga nisbatan amaldagi qonunchilikka muvofiq moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona va Davlat soliq qo'mitalari taqdim

qilingan hisobotlar asosida, soliq solishdan ozod yetish natijasida boʻshaydigan mablagʻlarni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yoʻnaltirish sharti bilan, shuningdek boʻshagan mablagʻlardan maqsadli foydalanish koʻzda tutilmagan, yuqorida qayd yetilgan toʻlovlardan vaqtincha ozod yetilganlar boʻyicha soliq, bojxona va budjetga majburiy toʻlovlarni toʻlash boʻyicha soliq imtiyozlari berilgan xoʻjalik subʼektlarining reyestrini olib boradilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona va Davlat soliq qoʻmitalari har chorakda hisobot oyidan keyin keluvchi oyning 25 sanasigacha Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga imtiyozlar berilgan soliqlarni hisoblangan summasi toʻgʻrisida maʼlumotni taqdim yetadilar. Bunda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasining maʼlumotlari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasiga ham taqdim yetiladi.

Maqsadli tushumlar hisobining amaldagi metodologik va tashkiliy jihatlarini oʻrganish ularni yanada takomillashtirish zarurati borligini koʻrsatmoqda. Quyida ularning asosiylariga toʻxtalamiz.

Avvalambor, maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirishning yeng muhim yoʻnalishi boʻlib, bizningcha, ushbu hisob obʼektining tarkibini uning maqomi va mazmuniga toʻliq moslashtirish hisoblanadi.

Fikrimizcha, korxonalariga maʼlum maqsadlarda begʻaraz kelib tushayotgan barcha mablagʻlar hamda moliyaviy yordamlar ham maqsadli tushum sifatida tan olinishi, shuningdek hisob va hisobotda shu sifatda aks yettirilishi lozim. Hozirgi paytda amalda boʻlgan tartibga muvofiq begʻaraz kelib tushayotgan mulk hamda moliyaviy yordamlar maqsadli tushum sifati qaralmasdan qolmoqda. Chunonchi, begʻaraz kelib tushayotgan mulk korxonalarining rezerv kapitali, begʻaraz olingan moliyaviy yordamlar yesa ularning asosiy faoliyatdan olingan boshqa qoʻshimcha daromadlari sifatida hisobga olinmoqda. Odatda, korxonaga kelib tushayotgan ushbu mablagʻlar ham oʻzga shaxslardan maʼlum maqsadlar uchun taqdim yetiladi. Ular ham taqdim yetilgan korxonalar tomonidan nazorat yetilishi mumkin. Bu, tabiiy hol, chunki mablagʻ oʻz-oʻzidan berilmaydi. Bundan tashqari, bepul olingan mablagʻlarni rezerv kapitalining bir turi sifatida ham yeʼtirof yetish mazmunan

to'g'ri yemas. Chunki, rezerv kapitali o'zining mazmun va mohiyatidan kelib chiqqanda ham, aslida, korxonaning o'zi tomonidan ma'lum maqsadlar uchun o'z hisobidan shakllantirilgan bo'lishi lozim. Bepul olingan mulkni rezerv kapitaliga yo'naltirishni mazmunan to'g'ri, deb bo'lmaydi.

Xuddi shundayin beg'araz olingan moliyaviy yordam ham o'z mazmuni va maqsadiga ko'ra, aslida, maqsadli mablag' hisoblanadi. Bunday yordamning hech ham asosiy faoliyatga doir boshqa daromadlarga aloqasi yo'q. Shu bois, beg'araz moliyaviy yordam sifatida kelib tushgan barcha mablag'larni maqsadli tushumning bir turi sifatida hisobga olish, bizningcha to'g'riroq bo'ladi.

Korxonalar ixtiyoriga kelib tushgan har qanday maqsadli tushum uning aktivlarini, ya'ni mablag'larini ko'payishiga olib keladi. Respublikamizning «Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim yetish uchun konseptual asos» nomli standartiga muvofiq aktivlarni ko'payishiga olib keluvchi har qanday tushum daromad sifatida tan olinadi. Aynan shu tartibga asoslangan holda, bizningcha, barcha turdagi maqsadli tushumlarni korxonalar daromadlarining bir turi sifatida tan olishning yaxlit tartibini o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, barcha turdagi maqsadli tushumlar mazmuniga ko'ra moliyaviy faoliyatga doir daromadlarning bir turi hisoblanadi. Aynan shundan kelib chiqib, maqsadli tushumlarni moliyaviy faoliyatga doir daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar tizimida aks yettirish yoinki amaldagi 8800 «Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar»ga daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar maqomini berish to'g'riroq bo'ladi.

Maqsadli tushumlarning barcha turlari hisobini yaxlit schyotlar tizimida aks yettirilishini ta'minlash maqsadida amaldagi 21-son BHMSda ko'zda tutilgan 8530 «Beg'araz olingan mulk», shuningdek 9380 «Beg'araz olingan moliyaviy yordam» schyotlarini bekor qilishni hamda ularni aynan shu nomlarda 8800 «Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimiga maxsus schyotlar sifatida kiritishni tavsiya yetamiz.

Maqsadli tushumlarni soliqqa tortish yoki soliqqa tortmaslik – bu bevosita davlat kompetensiyasiga kiradigan va uning soliq siyosatining talablaridan kelib

chiqadigan holatdir. Buxgalteriya hisobi aynan shu talabdan kelib chiqib maqsadli tushumlarning soliqqa tortilish yoki tortilmaslik tamoyillariga javob berishi lozim. Chunonchi, buxgalteriya hisobi respublikamizning Soliq kodeksiga muvofiq maqsadli tushumlarning soliqqa tortiladigan hamda tortilmaydigan qismlari to'g'risidagi axborotlarni real taqdim yetishi kerak. Hozir paytda amalda bo'lgan tartibga ko'ra beg'araz olingan mulk va moliyaviy yordamlar daromad (foyda) solig'i, yagona sooliq to'lovi ob'ektiga kiritiladi. Grant, subsidiyalar, a'zolik badallari kabi maqsadli tushumlar daromad (foyda) hamda yagona soliq to'loviga tortilmaydi.

Amaldagi tartibga ko'ra beg'araz olingan mulk daromad (foyda) solig'i hamda yagona soliq to'lovining hisob-kitobiga bevosita bosh kitob ma'lumotlari asosida kiritiladi. Beg'araz olingan moliyaviy yordam yesa ushbu bazaga «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»da shakllantiriladigan yalpi daromad orqali kiritiladi. Ko'rinib turibdiki, bu borada ham amaliyotda yaxlit tartib mavjud yemas. Bu tartib ko'p hollarda daromad (foyda) hamda yagona soliq to'lovini hisob-kitob qilishda chalkashliklarga olib keladi. Fikrimizcha, maqsadli tushumlarning soliqqa tortiladigan turlarini, chunonchi beg'araz olingan moliyaviy yordam va beg'araz olingan mulkni soliqqa tortish bazasiga «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»da shakllantiriladigan yalpi daromad orqali yemas, balki bosh kitob ma'lumotlari orqali kiritish tartibini belgilash lozim.

Respublikamizning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuniga ko'ra maqsadli tushumlar korxonalar xususiy kapitalining yelemi sifatida ye'tirof yetilmasdan qolgan. Buxgalteriya balansi hamda «Xususiy kapital to'g'risida hisobot»da yesa maqsadli tushumlar xususiy kapitalning yelematlari sifatida alohida moddalarda aks yettiriladi. Bizningcha, maqsadli tushumlarning xususiy kapital yelemi sifatida tan olinishini buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga ham kiritish lozim. Shuningdek, maqsadli tushumlarning turlari to'g'risida batafsil va to'liqroq axborotlarni olish maqsadida «Xususiy kapital to'g'risida hisobot»da ularning har bir turini alohida moddalar sifatida aks yettirish kerak, deb hisoblaymiz.

Respublikamizning 21-son BHMSda nazarda tutilgan schyotlar tizimi maqsadli tushumlarni buxgalteriya hisobida faqat ularning alohida turlari bo'yicha makon va zamonda vujudga kelish holatini aks yettirish imkonini beradi, holos. Shu bilan birga ushbu standartda maqsadli tushumlarning ishlatilishi bo'yicha xo'jalik situatsiyalarini schyotlarda aks yettirish tartibi to'lig'icha o'z aksini topmagan. Fikrimizcha, 21-son BHMSni to'ldirish, unda maqsadli tushumlarning maqsadli foydalanishi mumkin bo'lgan barcha hollarini schyotlarda aks yettirish tartibini to'liq aks yettirish lozim. Chunonchi, bizning fikrimizcha, maqsadli tushumlarning ishlatilgan qismini balansdan chiqarish, mos ravishda ularni balansdan tashqari bo'lgan 015 «Maqsadli tushumlarning ishlatilgan qismi» schyotining debet tarafida aks yettirish maqsadga muvofiq.. Ushbu balansdan tashqari schyotning debetida maqsadli tushumlarning ishlatilgan qismi xukumat qarorida yoki shartnoma shartlarida ko'rsatilgan davr mobaynida aks yettirilishi lozim. Maqsadli tushumlardan foydalanish davri tugagach, 015 «Maqsadli tushumlarning ishlatilgan qismi» schyotining debet tarafida aks yettirilgan summa uning kreditiga yozilishi hamda shu yo'l bilan bu schyot yopilishi kerak.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar respublikamizda maqsadli tushumlar hisobini yanada ham yaxshilashga, ulardan foydalanish ustidan nazoratni olib borilishini kuchaytirishga, shuningdek axborot foydalanuvchilarning talablarini to'laroq qondirishga imkon beradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Xususiy kapital tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali tushunchalariga ta'rif bering.
3. Ustav kapitalini shakllantirish mezonlari va uni rasmiylashtirish tartibi qanday bo'ladi?
4. Odiy va imtiyozli aksiyalar tushunchasiga ta'rif bering.
5. Aksiyaning nominal va bozor qiymatini hisobda aks ettirish tartibi izohlang.

6. Xususiy aksiyalarining sotib olish va uning hisobini yuritishni tartibi izohlang.

7. Taqsimlanmagan foydani aniqlash va uni taqsimlash qanday amalga oshiriladi?

8. Grantlar, subsidiyalar, begʻaraz yordamlar va ularni hisobga olish nimalardan iborat?

9. Kelgusi davr sarflari, toʻlovlar, ularni yaratish va hisobga olish nimalardan iborat?

10. Maqsadli tushumlar deganda nimani tushunasiz?

19-BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI

19.1. Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari.

19.2. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi.
Daromadlarni tan olish va baholash.

19.3. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish.

19.4. Davr xarajatlari tarkibi va hisobi.

19.5. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisobda aks ettirish.

19.6. Favqulodda foyda va zararlar hisobi.

19.7. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish.

19.8. Sof foyda va uning ishlatilishini hisobda aks ettirish.

Tayanch so'z va iboralar: daromad, xarajat, foyda, zarar moliyaviy natija, mahsulot sotishdan yalpi foyda (zarar), asosiy faoliyat, asosiy faoliyatdan olingan daromadlar, davr xarajatlari, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, moliyaviy faoliyat, moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari, favqulodda foyda, favqulodda zarar, soliq to'lagungacha olingan foyda, yakuniy moliyaviy natija, Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi, qoplanmagan zarar

19.1. Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari.

Moliyaviy natijalar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va turli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi buxgalteriya hisobining jahon talablari asosida yuritilishini taqozo qilmoqda. Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar erkin

raqobat asosida samarali faoliyat ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi kerak. Bu esa korxonalarda mavjud ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi hamda buxgalteriya hisobi va auditning oldiga yangicha vazifalarni qo'yadi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini davr talabi asosida tashkil etish, mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash, umumishlab chiqarish xarajatlari hisobini yanada takomillashtirish bozor iqtisodiyotining muhim talablaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "...islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliyashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirish. Tarmoqlar bo'yicha tannarx o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsa-da, kimyo va yengil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda."¹⁴ deb, ushbu sohada kelajakda amalga oshiriladigan vazifalar ko'pligini ta'kidlab o'tdilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi bois har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'proq foyda olishga intiladi. Binobarin, foyda miqdorida jamiyatning, korxonalar jamoasining va har bir xodimning manfaatlari o'z ifodasini topadi. Shu bois, foyda iqtisodiy toifa bo'lib, o'zida ishlab chiqarish va taqsimot orqali tovar-pul munosabatlarini aks ettiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning olgan foydasi qancha ko'p bo'lsa, mulk egasida har bir xodimni shuncha ko'p rag'batlantirish, korxonani har tomonlama kengaytirish, takror ishlab chiqarish fondlari mablag'ini ko'paytirish imkoniyati tug'iladi. Bundan jamiyat ham manfaatdor, zero korxonaning olgan foydasi qancha

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi

ko'p bo'lsa, foydadan davlat budjetiga to'lanadigan soliq ham shuncha ko'p bo'ladi.


Ma'lumki, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish (foyda olish) har qanday iqtisodiy formatsiyaning muhim iqtisodiy va pirovard natijasi hisoblanadi, zero uni yaratmasdan turib ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ko'pgina ijtimoiy, iqtisodiy vazifalarni amalga oshirish imkoni bo'lmaydi. Shu sababli jamiyatning, alohida olingan korxonalarining va tadbirkorning foyda olishga bo'lgan manfaatdorligi ob'ektiv zarurat hisoblanadi.

Foyda sintetik baholovchi ko'rsatkich bo'lganligi bois, uning o'zgarishiga ko'pgina tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sanoat korxonalarida mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmining o'zgarishiga quyidagi to'rt omil ta'sir ko'rsatadi :

- mahsulotni sotish bahosining o'zgarishi;
- sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi;
- sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi;
- mahsulot assortimenti va tarkibining o'zgarishi.

O'zbekiston Respublikasining 2-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartiga ko'ra, moliyaviy natijalar - xo'jalik yurituvchi sub'ektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir, yoki boshqacha qilib aytganda moliyaviy natijalar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayoni xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalarda faoliyat moliyaviy natijalarini aniqlashda yagona an'anaviy usuldan foydalaniladi:

$$\text{Daromad} - \text{Xarajatlar} = \text{Foyda (yoki Zarar)}$$



19.1-rasm: Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiyotning rivojlanishi, eng avvalo, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining samaradorlik darajasiga bog'liq. Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foyda ko'rsatkichi korxonaning asosiy va aylanma mablag'laridan samarali foydalanishni talab hamda extiyojga qarab ishlab chikarishni muvofiqlashtirishi, ya'ni ishlab chiqarilayotgan maxsulot iste'molchi talabiga javob bera oladigan bo'lishi, ishlab chiqarish xaridor uchun xizmat qilishi lozim. Korxonalar to'la mustaqillikka erishib xarajatlarini minimallashtirib daromadlarini oshira olsa o'z mablag'i hisobidan to'liq qoplanishidir. Bu degani, korxonalar maxsulot sotishdan olgan mablag'idan o'zining xamma xarajatlarini qoplaydi va undan tashqari foyda xam oladi.

Foydaning bir qismi budjetga soliqlar hamda boshqa to'lovlarni to'lash uchun sarflanadi, qolgani esa korxonalar ixtiyorida qoladi va faoliyatni ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Korxonalar ixtiyorida qolgan mablag'ni qanday maqsadlarga sarflashni uning o'zi mustaqil ravishda xal qiladi.

Korxonaning balans foydasini aniqlash uchun sotishdan tushgan tushumdan olib tashlanadigan xarajatlar ro'yxati xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomning asosiy matnida keltirilgan.


Demak, soliqqa tortiladigan bazani hisoblab chiqish uchun bu xarajatlarni soliqqa tortiladigan foydaga qaytadan qo'shish kerak. Buning natijasida korxonaga quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

Qancha va korxonaning qaysi bo'linmalaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv faoliyati natijasida foyda olindi; korxonaning yakuniy faoliyatiga davlatning soliq siyosati qanchalik ta'sir qilganligi; pirovard natijada korxonaga budgetga qancha pul o'tkazib berishi. Korxonalarlarning moliyaviy natijalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri bu mahsulot (ish, xizmat) sotishdan ko'rilgan daromaddir. Daromad xo'jalik jarayonlari natijasida korxonaga kelib tushgan tushumlar evaziga aktivlar miqdorining ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishini anglatadi. Eng oddiy ko'rinishda daromad ma'lum davrda sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga tengdir.

Ta'kidlash joizki, korxonaga aktivlari miqdorini ko'paytiruvchi barcha turdagi xo'jalik jarayonlari natijasini daromad deb bo'lmaydi. Bankdan olingan kreditlar korxonaga pul mablag'lari miqdorini ko'paytirishda, daromad hisoblanmaydi. Shuningdek, korxonaga moliyaviy faoliyati bo'yicha boshqa korxonaga berilgan qarzlarning kelib tushishi va ta'sischi korxonaga ustav kapitaliga kiritgan qo'shimcha mablag'lari ham daromad summasiga qo'shilmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, daromad korxonaning xo'jalik faoliyatini tashkil qiluvchi jarayonlar natijasida aktivlar oqimi yoki majburiyatlarning kamayishini anglatuvchi iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Korxonaga tomonidan olinadigan foydaning tarkibini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki qaysi faoliyat turidan korxonaga foyda olayotganini va qaysi faoliyat turidan zarar ko'rayotganligini bilish korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barkarorligiga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi.



19.2-rasm Moliyaviy natijalarning shakllanishi

“Moliyaviy natijalarni, ya’ni foyda (zarar)ning shakllanishi bo’yicha asosiy me’yoriy hujjat bo’lib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yilning 5-fevralida tasdiqlanib, 2003,2005, 2015-yillarda ayrim o‘zgarishlar kiritilgan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ularning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan daromadlari hisobotga quyidagi asosiy bo‘limlar bo’yicha kiritiladi:

- Sotishdan olingan sof tushum.
- Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari).
- Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.
- Favqulodda daromadlar.

Ushbu Nizomda asosan xo‘jaliklarda foyda (zarar)ning quyidagi turlari aniqlanadi:

- mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan yalpi foyda (zarar)
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda (zarar)

umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)

solliqlar to‘langungacha foyda (zarar)

hisobot davrining sof foydasi (zarari)”¹⁵

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tasniflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF = SST - IT}$$

bunda,

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

Mahsulot (ish xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi foyda korxonada yaratilgan foydani ifodalaydi. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani topish uchun mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumlardan shu sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash kerak, o‘z navbatida, mahsulot sotishdan tushgan sof tushumni topish uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan keyin kelgan tushumdan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, qaytarilgan tovarlar qiymati, xaridorga berilgan skidkalar (chegirmalar) ayirib tashlanadi. Mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar eksport tariflarini ham chegirib tashlaydilar. Mahsulotni sotishdan keladigan tushum esa O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan aniqlanadi.

Demak, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi orasidagi farqqa teng. Bu farq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Ijobiy farq foyda sifatida, salbiy farq esa zarar sifatida e‘tirof etiladi.

¹⁵ Moliyaviy hisob o‘quv qo‘llanma D. Xolboyev, U.N. Ibragimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi – T: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016 – 236 b

- asosiy faoliyatdan koʻrilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari oʻrtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan koʻrilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{AFF = YaF-DX+BD-BZ,}$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan koʻrilgan boshqa zararlar;

- xoʻjalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan koʻrilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF = AFF+MD-MX,}$$

bunda,

UF – umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq toʻlagungacha olingan foyda, u umumxoʻjalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (koʻzda tutilmagan) vaziyatlarda koʻrilgan foyda va minus favqulodda zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF = UF+FP-FZ,}$$

bunda,

STF – soliq toʻlagungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan koʻrilgan zarar;

- yilning soy foydasi, u soliq toʻlangandan keyin xoʻjalik yurituvchi subʼekt ixtiyorida qoladi, oʻzida daromad (foyda)dan toʻlanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va toʻlovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar toʻlangunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\mathbf{SF = STF-DS-BS,}$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi nizom korxonaning ish faoliyati samaradorligini ta’riflovchi bir qancha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblashga uslubiy yondashishni ta’minlaydi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Yalpi foyda (YaF);
2. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi (IT);
3. Sotishdan olingan yalpi foyda (SYaF);
4. Davr xarajatlari (DX);
5. Asosiy faoliyatdan olingan foyda (AFF);
6. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda(MF) yoki zarar(MZ);
7. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (UF);
8. Favqulodda foyda (FP) yoki zarar (FZ);
9. Soliq to‘languncha olingan foyda (STF);
10. Sof foyda (SF).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi foydalanuvchilar, aksiyadorlar va menejerlarni aynan shu axborotlar qiziqtiradi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan ichki foydalanuvchi korxonalar menejerlarining talablari bir-biriga bog‘liq ikki asosiy guruh omillari bilan belgilanadi: boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish vazifalari va tashqi foydalanuvchilar talablari. Har qanday iqtisodiy sharoitda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy natijalarini hisobga olish korxonalar faoliyatida markaziy o‘rinni egallaydi va quyidagilar uni hisobga olishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) Olingan foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisob-kitob qilish;

2) Moliyaviy natijalar bilan bog‘liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi schyotlarida va tegishli registrlarda to‘g‘ri aks

yettirish. Moliyaviy natijalarning tarkib topishi va ulardan foydalanish “Mahsulot (ish,xizmat) tannarxiga qo‘shiladigan mahsulot(ish,xizmat) ishlab chiqarish va realizatsiya bo‘yicha xarajatlar tarkibi haqida”gi Nizom va “Moliyaviy natijalarning tarkib topishi tartibi haqida”gi Nizom hamda Buxgalteriya Hisobi Milliy Andozasining № 2-3-4- sonlari bilan tartibga solinadi. Buning uchun quyidagi schyotlar mo‘ljallangan:

9000 - “Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”;

9100 - “Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)lar tannarxini hisobga oladigan schyotlar”;

9200 - “Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning hisobdan chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar”;

9300 - “Asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”;

9400 - “Davr xarajatlarini hisobga oladigan schyotlar”;

9500 - “Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”;

9600 - “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oladigan schyotlar”;

9700 - “Favqulodda foyda(zarar)larni hisobga oladigan schyotlar”;

9800 - “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oladigan schyotlar”;

9900 - “Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oladigan schyotlar”.

19.2. Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi.

Daromadlarni tan olish va baholash

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlar tizimiga o‘tishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning buxgalteriya hisobi normativ-huquqiy asoslarini tubdan qayta qurib chiqishni hamda uni xalqaro standartlar darajasida yetkazishni taqazo

qiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda daromad sub’ektining iqtisodiy ko‘rsatkichini aks ettirib bevosita uning salohiyatini belgilaydi. **Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarni hisobga olishda** xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan olingan yalpi foydadan tashqari, asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar ham bo‘lishi mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning operatsion faoliyatidan olinadigan daromadlarining shakllanishi, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy faoliyatidan olinadigan daromadlarni shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy faoliyat daromadi BHMA-2 “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar” milliy andozasining 6.1-bandiga binoan – “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalariining o‘z sarmoyalariga badal bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘payishlarni istisno etganda, o‘z sarmoyasi ko‘payishiga olib keladigan tushumlardir.”¹⁶ deb ta’rif berilgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar moliyaviy natijalar shakllanish tartibining o‘zgarishi natijasida bu ko‘rsatkichning aniq salmog‘i belgilanmagan va bu miqdor turli tarmoq korxonalarida bir-biridan keskin farq qiladi.

Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar hisobi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy – xo‘jalik faoliyatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar¹⁷ - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalariining o‘z sarmoyalariga badali bilan bogliq bo‘lgan ko‘payishlarni istisno etganda, o‘z sarmoyasi ko‘payishiga olib keladigan tushumlar;

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari: Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar. 2-son BHMS

¹⁷ 2-sonli BHMS. “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan. 26.08.1998 y. N 483

Korxonada xo‘jalik faoliyatida bepul olingan qiymatliklar va mablag‘lar asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsion) tarkibida ko‘rsatiladi. Bunda, moddiy qiymatliklar korxonada balansiga bozor bahosida qabul qilinadi va foyda solig‘i bazasiga qo‘shiladi.

Asosiy faoliyat daromadi korxonada yalpi daromadning salmoqli ulushini tashkil qilishi uning muhim ko‘rsatkich sifatida korxonaning kelgusi rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Daromadni shakllantirish korxonada ishlab chiqarish faoliyatining barcha jabhalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar: ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar tarkibi, asosiy vositalar va aylanma mablag‘lardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, korxonaning moliyaviy holatiga bog‘liqdir.

Asosiy faoliyatdan olingan daromad (foyda), bu mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda bilan davir xarajatlari orasidagi tafovut va asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromatlarni qo‘shish yoki boshqa zararlarni ayirish orqali aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ^{18}$$

Bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davir xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlari.

Iqtisodiyotni moderinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt o‘z oldiga maqsadlaridan biri sifatida ishlab chiqarish tijorat faoliyatidan ko‘proq foyda olishni ko‘zlaydi. Har qanday iqtisodiyot rivojlanishi uchun daromad muhim o‘rin egallaydi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda daromadlarni hisobga olishda avvalo yalpi tushumni aniqlashimiz, undan keyin sof tushumni aniqlash orqali moliyaviy natijaning keyingi


¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori “Mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hamda sotish natijalari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to‘g‘risida”gi Nizom.

ko'rsatkichlarini aniqlab boramiz. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sotishdan olinadigan sof tushum quyidagilar orqali ifodalanishi mumkin:

1. Sotishdan olingan sof tushum tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan, unga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli soliqlari summasi kiritilmagan tushum sifatida aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, daromad (foyda)ni amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblab chiqaradilar.

3. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushum buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.



19.3-rasm: Asosiy faoliyat daromadlarining tarkibi

Amaliyotda asosiy faoliyatdan olingan daromad (foyda) mahsulot sotishdan koʻrilgan va faoliyatning boshqa daromadlarini tan olish holatlarining bir necha xil koʻrinishlari mavjud.

Bunda mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan olingan yalpi foyda(zarar) hisobot davri oxirida sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning xaqiqiy tannarxi orasidagi farqi miqdorida aniqlanadi va quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

9000 - “Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”. Mazkur schetning tarkibidagi schyotlarda quyidagilarni sotishdan tushgan sof tushumda aks ettiriladi:

➤ korxonalarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot va oʻzida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulot;

➤ sanoat tusidagi ishlar va xizmatlar;

➤ sanoat tusiga ega boʻlmagan ishlar va xizmatlar;

➤ butlash uchun sotib olingan buyumlar;

➤ savdo, taʼminot korxonalarining tovarlari;

➤ transport tashkilotlarining yuk va odamlar tashish buyicha xizmatlar;

➤ engil avtomashinalarni ijaraga berish va avtomashinalarni haydab olib borib berish xizmatlari;

➤ aloqa korxonalarini xizmatlari va hokazo faoliyat turlaridan olingan sotishdan tushgan sof tushum aks ettiriladi.

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar tannarxi toʻgʻrisidagi axborotlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

9110 - “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”;

9120 - “Sotilgan tovarlarning tannarxi”;

9130 - “Bajarilgan ish va koʻrsatilgan xizmatlarning tannarxi”.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobi boʻyicha maʼlumotlarning xaqqoniyligini taʼminlash uchun xoʻjalik yurituvchi subʼekt moliyaviy hisobotni taqdim etish davrida quyidagilarni ochib koʻrsatishi zarur:

A. Daromadni tan olish uchun qabul qilingan hisob siyosati, shu jumladan xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan bitimlarning nihoyasiga yetishi bosqichlarini belgilash uchun qabul qilingan usullar;

B. Daromadlarning har bir muhim toifasiga kiritilgan tovarlar yoki xizmatlarni ayirbosh qilishdan olingan daromad miqdori

Daromadning hisobot davri davomida aks ettirilgan har bir muhim toifasi miqdori, shu jumladan quyidagilardan olingan daromadlar:

- tovarlarni sotishdan;
- xizmat ko'rsatishdan;
- foizlardan;
- royaltidan;
- dividendlardan;

Korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligi esa pul mablag'larining shunday harakatiki, u birinchi galda daromadlarning kelib tushishi ularni sarflashdan doimo ustun bo'lishini taminlashi lozim. Shuningdek, uni kengaytirish va yangilash xarajatlarining bozor sharoitida u avvalambor, mahsulot (ish, xizmatlar)ni sotishdan barqaror daromad olishi uchun, maxsulot ishlab chiqarishni oshirish va mahsulot tannarxini kamaytirish, xo'jalik mexanizimini va faoliyatning barcha bo'g'inlarini boshqarish mexanizimini takomillashtirish uchun kundalik ichki xo'jalik nazoratini hamda alohida jarayonlarning yekspertezasini olib boorish talab yetiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy (operatsion) faoliyat daromadlari hisobini yuritishda asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarning shakillanishi BHMS №2-sonli "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan olinadigan daromadlar" bilan tartibga solinadi. Milliy standartga asosan: asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar – xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyati daromadi vujudga keladigan davir ichida mulk egalarining o'z sarmoyalariga badali bilan bog'liq bo'lgan ko'payishlarni istisno yetganda, o'z sarmoyasi ko'payishiga olib keladigan tushumlarga aytiladi".

Demak asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar – xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davir ichida mulk egalarining o‘z sarmoyalariga badali bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘payishlarni istisno yetganda, o‘z sarmoyasi ko‘payishiga olib keladigan tushumlardir.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan uning schyotiga kelib tushadigan yalpi tushumlardan yoki olinishi mumkin bo‘lgan tushumlardan iborat. Uchinchi shaxslar nomidan undirib olinadigan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektga kelib tushadigan va xususiy kapitalning ko‘payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar summasi asosiy xo‘jalik faoliyati daromadiga kiritilmaydi.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan va xizmatlarni ko‘rsatishdan olinadigan daromad sub’ektlar o‘rtasida shartnomada ko‘zda tutilgan sotish narxlari bo‘yicha aniqlanadi. Bitimdan kelib chiqadigan daromad summasi olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari yoki pul yekvivalentlari summasidan sub’ektga o‘tib beriladigan savdo chegirmalari summasi yoki narxlarni tushirish hajmini hisobga olgan holda qiymat bo‘yicha o‘lchanadi.

Biroq agar pul mablag‘lari yoki pul yekvivalentlarining tushumi kechiktiriladigan bo‘lsa, bunday holda joriy narxlarda ifodalangan iqtisodiy naf qiymati olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan qiymat pul mablag‘larining nominal miqdoridan kam bo‘lishi mumkin. Bitimlar tuzish natijasida moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazish chog‘da to‘langan mablag‘ning joriy narxdagi qiymati muqobillashgan foiz stavkasini qo‘llagan holda hisoblagan kelgusidagi barcha tushumlarni diskontlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Operatsion faoliyatdan olingan daromatlarni 3 ta tarmoqqa bo‘lish mumkin ularning har birini o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bor ular quydagilar:

- Tovarlarni sotish tarmog‘i;
- xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) tarmog‘i;
- boshqa daromadlar tarmog‘i.

Tovarlarni sotish tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya

hisobining milliy standarti №2 – son “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”ga muvofiq quydagi shartlarni bajargan holda tovarlarni sotishdan olingan daromad sifatida tan olinadi (19.4-rasm):



19.4-rasm. Tovarlarni sotishdan tushgan daromad sifatida tan olinish shartlari

“Operatsion faoliyatdan olingan boshqa daromadlar – bularga korxonaning asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotishdan olingan foyda, undirilgan jarimalar, voz kechilgan kiriditorlik qarzlari, bepul (tekinga) kelib tushgan aktivlar, inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqchalar, tovar moddiy boyliklarini qayta baholashdan olingan daromadlar va boshqalar kiradi”.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan uning schyotiga kelib tushadigan yalpi tushumlardan yoki olinishi mumkin bo‘lgan tushumlardan iborat. Asosiy faoliyat foydasi bilan moliyaviy faoliyat foydasi, umumxo‘jalik faoliyati foydasi, favqulodda foyda kabi

tushunchalarni bir – biri bilan almashtirmasligi lozim. Ular mustaqil tushuncha hisoblanib, alohida – alohida o‘z tarkibiy qismiga, o‘z tashkil topish manbalariga, o‘z formulalariga, ya’ni ushbu qiymatlarni hisoblab chiqish formulalari nazarda tutilmoqda, ega.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida daromadlarining analitik hisobi mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotish turlari va boshqa boshqaruv uchun zarur segmentlar bo‘yicha olib boriladi. Operatsion faoliyatdan olingan daromad tadbirkorlik sub’ektining odatdagi faoliyati doirasida sodir bo‘ladi va turlicha nomlanadi, shu jumladan sotishdan tushum, yig‘imlar, foizlar, dividendlar va royaltillardir. Daromadlar resurslarni naqadar samarali ishlatish darajasiga bog‘liq bo‘lsada daromadning o‘zi mazmunan iqtisodiy manfaatni bildiradi.

Har bir tushunchaning nazariy asoslanishiga katta e’tibor qaratadigan g‘arb hisobida daromadning mohiyatida uchta konsepsiya yotadi: “Mahsulot konsepsiyasi, hisobdan chiqarish konsepsiyasi, o‘shish konsepsiyasi”.¹⁹

Mahsulot konsepsiyasi daromadni xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining natijasi sifatida qaraydi, boshqacha aytganda daromad –ma’lum vaqt oralig‘ida mahsulot, tovar va xizmatlarni yaratilgan jarayondir, lekin bunday ta’rif daromadni tan olish vaqtini ham, uning miqdorini ham aniqlab bermaydi. Biroq, bu konsepsiyadan muhim bir jihat kelib chiqadi, daromad ishlab topilmagunga qadar tan olinmaydi. Shunday qilib, ushbu konsepsiya daromadlar tarkibida olingan bo‘naklar (avanslar), qo‘shishni man etadi.

Hisobdan chiqarish konsepsiyasi ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatlarga berilishiga asoslanadi. Daromadlarni tan olishni tadqiq qilishda, ya’ni realizatsiya qilish vaqti deb, qachon yangi qiymat (tushum) tannarxni o‘zgartirsa, quydagi uchta variant kelib chiqadi:


- yoki pul mablag‘larining olinishi, yani oldindan to‘lash;
- yoki mahsulotlarni ortib jo‘natilishi;
- yoki mahsulotlarni omborga topshirilishi.

Hisobdan chiqarish konsepsiyasi mahsulot va xizmatlarga egalik qilish

¹⁹ Хендриксен Е.С., Ван Вреда М.Ф. «Теория бухгалтерского учета». Учебник . М.:Финансы и статистика, 1997

huquqi xaridorga o'tmas ekan – daromad tan olmaslikni ta'minlaydi. Biroq, bu konsepsiyaning kamchiligi maxsulot yoki xizmatlarni yetkazib bergunga qadar tan olinish man qilinadi.

O'sish konsepsiyasi mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib berish natijasida aktivlarning oqimi yoki majburiyatlarning kamayishi (yoki ularning kabinatsiyasi)ni daromad deb tan oladi. Bu konsepsiyaning kamchiligi mavjud, bunda daromadni baholash va vaqt bilan bog'liqligi aralashib ketadi. Italiyalik bugalter Djino Dzappa (1879-1960) "... korxonada daromadlari ayon xarajatlar esa shubhali deb ye'tirof yetgan. Firma kapitalining qiymati uning daromadiga bog'liq deb hisoblagan." Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaati daromadda mujassamlanadi. V.M. Raimova va I.A. Fedatova ushbu tushunchani quydagicha tahlil yetadilar:- "Korxonada daromadlarning xarajatlardan barqaror ustunligining o'ziga xos ko'zgu moliyaviy barqarorlikdir. U moliyaviy resurslarning shunday holatini aks yettiradiki, bunda korxonada pul mablag'larini bemalol va oqilona ishlatib, ulardan samarali foydalansh yo'li bilan ishlab chiqarish va maxsulotni sotish uzluksizligini taminlay oladi".



19.5-rasm Daromad va xarajatlarni tan olish ko'rinishlari.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlari sifatida quyidagi shartlar bajarilganda mahsulot(tovar)larni sotishdan tushgan daromad tan olinadi:

– xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirganda;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ekt odatda mulkka egalik qilish bilan bogliq bo‘lgan darajadagi rahbarlik davomiyligini ham, sotilgan tovarlarni nazorat qilish samaradorligini ham saqlab qolmaganda;

– daromad miqdori ishonchli darajada baholanganda;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ekt bitim bilan bogliq iqtisodiy naf olishi ehtimoli mavjud bo‘lganda;

– shartnoma bilan bogliq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar ishonchli darajada aniqlanadigan bo‘lganda.

quyidagi shartlarda bajarish natijasida xaridor mulkka egalik qilish huquqiga ega bo‘lganda daromad tan olinadi:

– etkazib berish amalga oshiriladi;

– tovar mavjud bo‘lib, sotishni tan olish paytida xaridorga yetkazib berishga tayyor;

– xaridor tovarni yetkazib berish muddatini kechiktirilish shartlarini alohida tarzda tasdiqlaydi;

– oddiy to‘lov usullarini qo‘llash.

Daromad tovarni o‘z vaqtida yetkazib berish uchun faqat sotib olishga yoki ishlab chiqarishga intilishning mavjudligida tan olinmaydi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni tan olishda ishlar va xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan tushumlarning tan olinishi.

Xizmat ko‘rsatishni (ishlarni) o‘z ichiga oladigan shartnoma natijasi aniq belgilanadigan bo‘lsa, shu shartnoma bilan bogliq daromad yillik moliyaviy hisobot tuzish vaqtida bitimning bajarilishi bosqichiga qarab tan olinadi.

Shartnoma natijasi esa quyidagi shartlarni bajarish bo‘yicha aniq belgilanishi mumkin:

a) daromad miqdori aniq baholanishi mumkin;

b) xo‘jalik yurituvchi sub’ektga shartnoma bilan bogliq daromadlarning tushishi ehtimoli mavjud;

c) buxgalteriya balansi hisobot davrigacha shartnomaning tugallanishi bosqichi yuksak ishonchlilik darajasi bilan baholanadi;

d) bitimni bajarish chogida qilingan xarajatlar va bitimni nihoyasiga yetkazishga doir xarajatlar yuksak ishonchlilik darajasi bilan baholanishi mumkin.

Pudrat shartnomaning nihoyasiga yetishi bosqichiga qarab daromadlarning e’tirof etilishi ko‘pincha shartnoma necha foizga bajarilishi nuqtai nazaridan qarab chiqiladi. Bu usulga muvofiq xizmatlar ko‘rsatilgan hisobot davridagi daromadlar e’tirof etiladi. Shu asosda daromadlarning e’tirof etilishi bajarilgan ishlar hajmi va hisobot davri davomida faoliyat natijalari xususida foydali axborot olishni ta’minlaydi.

Xizmat ko‘rsatishdan (ishlarni bajarishdan) keladigan daromad shu operatsiya bilan bogliq bo‘lgan iqtisodiy samara xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisobiga kelishi ehtimoli mavjud bo‘lgandagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan va olingan miqdor xususida noaniqlik paydo bo‘lgan taqdirda qaytarib berilmagan miqdor yoki olish mumkin bo‘lmay qolgan miqdordagi daromad dastlab e’tirof etilgan daromad miqdorini o‘zgartirish sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt quyidagi bandlar bo‘yicha shartnomada ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan kelishuvga erishgandan so‘ng ishonchli tarzda baholashi mumkin bo‘ladi:

A. Tomonlarning xizmat ko‘rsatishi va qabul qilishi xususida da’vo qilish kuchiga ega bo‘lgan huquqlari;

B. Almashtirish ko‘zda tutilayotgan to‘lovlar;

C. Hisob-kitob qilish usuli va shartlari.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xizmat ko‘rsatish (ishlarni bajarish) borasida daromad baholarini qayta ko‘rib chiqadi va zarur bo‘lsa unga tuzatish kiritadi.

Shartnomaning nihoyasiga yetish bosqichi turli usullar bilan aniqlanishi mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ko‘rsatilgan xizmatni goyat aniq o‘lchaydigan usuldan foydalanadi. Bitim tabiatiga ko‘ra quyidagi usullar mavjud:

- a) Bajarilgan ishlarni tahlil qilish usuli;
- b) Xizmat ko‘rsatishning muayyan vaqtiga kelganda bitim bo‘yicha xizmatning to‘la hajmiga nisbatan foizini aniqlash usuli;
- c) Shartnoma bo‘yicha baholangan umumiy xarajatlarga nisbatan shu sanagacha qilingan xarajatlarning foizini aniqlash usuli. Shu sanagacha qilingan xarajatlarga mazkur sanagacha bajarilgan ishlarni aks ettiradigan xarajatlar kiradi. Bitim bo‘yicha baholangan umumiy xarajatlarga esa bajarilgan yoki bajarilishi lozim bo‘lgan xizmatlarni aks ettiruvchi xarajatlar kiritiladi.

Oraliq to‘lovlari hamda xaridorlardan olingan bo‘naklar qiymati bo‘yicha daromadlar tan olinmaydi.

Agar xizmat ko‘rsatish (ishlarni bajarish) bo‘yicha bitimning natijalarini to‘la ishonch bilan baholash mumkin bo‘lmasa, qoplanadigan va qilingan xarajatlar miqdori bo‘yicha daromadlar tan olinadi. Agar bitim natijalarini to‘la ishonch bilan baholash imkoni bo‘lmasa va qilingan xarajatlarning qoplanmasligi ehtimoli bo‘lsa, daromadlar tan olinmaydi.

O‘rnatish uchun to‘lov. Montaj (o‘rnatish) uchun to‘lov o‘rnatishning tugallash bosqichi ko‘rsatilganda tan olinadi.

Xizmatlar uchun to‘lov mahsulotlar bahosiga kiritiladi. Mahsulotlarni sotish bahosi o‘z ichiga sotishdan keyingi xizmatlar (masalan, dasturiy ta‘minot sotilganda mahsulot sifatini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishlar) uchun ma‘lum summani o‘z ichiga olganda, ushbu summa kelgusi davrga o‘tkaziladi va xizmatlar ko‘rsatilgan davrda daromad sifatida tan olinadi.

Abonement yig‘imlari. San‘atkorlarning chiqishlari, banketlar va boshqa alohida hollardan tushum bunday hollar ro‘y berganda daromad sifatida tan olinadi. Qator voqealarga chiptalar sotilganda, to‘lov har bir voqea ko‘rsatilgan vaqtda ko‘rsatilgan xizmat hajmi bo‘yicha har bir voqea orasida taqsimlanadi.

O'qitish uchun to'lov. Daromad o'qitish davri mobaynida tan olinadi.

Boshlang'ich, a'zolikka qabul qilish va a'zolik badallari. Daromadni tan olish ko'rsatiladigan xizmatlarning tavsifiga bog'liq. Agar badallik to'lovlari faqat a'zolikni nazarda tutsa va barcha boshqa xizmatlar yoki mahsulotlar uchun alohida to'lansa yoxud alohida yillik obuna bo'lish mavjud bo'lsa, badallar ularni olishda ahamiyatli noaniqliklar bo'lmaganda daromad sifatida tan olinadi. Agar badallar a'zolarga turli xizmatlar ko'rsatilishi yoki a'zolik davri mobaynida nashr qilish huquqini bersa yoxud a'zo bo'lmaganlarga sotilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarga nisbatan pastroq narxlarda to'lash huquqini bersa, ular beriladigan chegirmalarning kelib tushish vaqti, mohiyati va qiymatini aks ettirish asosida tan olinadi.

Franshiz uchun to'lov. Franshiz uchun to'lov boshlang'ich va keyingi xizmatlar, asbob-uskunalar va boshqa moddiy aktivlar va nou-xau ta'minotini qoplashi mumkin. Mos ravishda franshiz uchun to'lov uning undirilish maqsadini aks ettirishi asosida daromad sifatida tan olinadi. Quyida franshiz uchun to'lovlarning tegishli usullari keltirilgan:

a) Asbob-uskunalar va boshqa moddiy aktivlar bilan ta'minlash.

Joriy narxlarda sotilgan aktivlarning qiymatiga asoslangan summa barcha tovar yetkazib berilganda yoki mulkka egalik huquqi berilganda daromad sifatida tan olinadi.

v) Dastlabki va keyingi xizmatlar ko'rsatish.

Davomiy xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar, ular dastlabki to'lovlarning bir qismi yoki alohida to'lov sifatida tan olinishidan qat'i nazar, xizmat ko'rsatilishiga qarab daromad sifatida tan olinadi. Agar alohida to'lov muvofiq bo'lgan foyda bilan birga davom ettirilayotgan xizmatni qoplamasa, davom etayotgan xizmatlar xarajatlarini qoplash va ular bo'yicha tegishli foydani ta'minlash uchun yetarli bo'lgan boshlanjich to'lovlarning bir qismi kechiktiriladi va xizmat ko'rsatilishiga qarab daromad sifatida tan olinadi.

c) Franshizni uzaytirganlik uchun to'lov. Kelishuv amalda bo'lgan davrda taqdim etilgan kelishuv bilan ta'minlangan uzaytirish huquqidan foydalanganlik

uchun yoki boshqa xizmatlar uchun undiriladigan to'lov xizmat ko'rsatilishiga yoki huquqdan foydalanishga qarab daromad sifatida tan olinadi.

d) Vakillik shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar. Operatsiyalar franshiz taqdim etuvchi kompaniya va oluvchi kompaniya o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Unda franshiz taqdim etuvchi kompaniya mohiyatiga ko'ra oluvchi kompaniya uchun vakil sifatida ishtiroki etadi. Masalan, franshiz taqdim etuvchi kompaniya o'zi uchun hech qanday foydasiz kanselyariya mollarini buyurishi va ularni oluvchi kompaniyaga yetkazib berishni tashkil etishi mumkin. Bunday bitim daromad olishga olib kelmaydi.

Iste'mol dasturiy ta'minotini takomillashtirish uchun to'lov. Iste'mol dasturiy ta'minotini ishlab chiqqanlik uchun to'lov dasturiy ta'minot yetkazib berilgandan so'ng unga texnik xizmat ko'rsatish bilan bojliq bo'lgan xizmatlarni tugallash bosqichi va ishlab chiqishni tugallash bosqichi ko'rsatgan holda daromad sifatida tan olinadi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad operatsiya bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy naf xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan olingan taqdirdagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish xususida noaniqlik vujudga kelgan taqdirda qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bo'lmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorining o'zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobraqamiga yalpi tushumlar dan yoki olinishi mumkin bo'lgan tushumlar dan iborat. Uchinchi shaxslar nomidan undirib olinadigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektga tushadigan va o'z sarmoyasi ko'payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar miqdori asosiy xo'jalik faoliyati daromadiga kiritilmaydi.

Vositachilik faoliyatida yalpi tushumlar asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad hisoblanmaydi. Bunday hollarda vositachilik haqi daromad hisoblanadi.

Mahsulot (ish xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi foyda korxonada yaratilgan foydani ifodalaydi. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani topish

uchun mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumlardan shu sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash kerak, o'z navbatida, mahsulot sotishdan tushgan sof tushumni topish uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan keyin kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, qaytarilgan tovarlar qiymati, xaridorga berilgan skidkalar (chegirmalar) ayirib tashlanadi.

Mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar eksport tariflarini ham chegirib tashlaydilar. Mahsulotni sotishdan keladigan tushum esa O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori "Mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hamda sotish natijalari hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish to'g'risida"gi Nizomi hamda BHMS ga muvofiq. aniqlanadi.

Demak, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi orasidagi farqqa teng. Bu farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy farq foyda sifatida, salbiy farq esa zarar sifatida e'tirof etiladi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»

9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromad»

9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar»

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi»

9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Yuqoridagi hisobvaraqlarda korxonaning asosiy faoliyatidan olingan sof tushumi sifatida quyidagilar aks ettiriladi:

- sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoq korxonalarining ishlab chiqargan tayyor mahsuloti va yarim tayyor mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar;

- sanoat tusidagi hamda boshqa tarmoqlarning ish va xizmatlari;

- sanoat xarakteriga ega bo'lmagan ish va xizmatlar;

- sotib olingan buyumlar;
- qurilish-montaj, loyiha-qidiruv, geolog-razvedka, ilmiy-tadqiqot ishlarini sotishdan olingan daromadlar;
- savdo va ta'minot tashkilotlarining tovarlarni sotishdan olingan daromadlari;
- transport korxonalarining yo'lovchi va yuklarni tashishi bo'yicha xizmatlari;
- yengil avtomobillarni ijaraga berish va avtomashinalarni haydab olib borish xizmatlari;
- aloqa korxonalarining xizmatlari va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tgan faoliyat turlarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar davlat xizmatlari "Yagona darcha"dan ro'yxatdan o'tganda statistik hisobotlarni topshirish uchun berilgan raqamlar(asosiy faoliyat turining IFUT bo'yicha kodi)ga asosan uning asosiy faoliyati aniqlanadi va korxonada aks ettirilgan bo'lishi kerak. Bu asosda statistika organlari korxonada va tashkilotlarning yagona davlat registri tuzadi.

9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» hisobvaraqlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyatidan (mahsulot sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish) olingan daromadlar aks ettiriladi va 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 4110-«Alohida balansga ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar» hamda pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning debeti bilan o'zaro korrespondensiyada bo'ladi. Oldingi davrda olingan, ammo hisobot yiliga tegishli bo'lgan daromadlar (bo'nak) summasiga pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlar debetlanib, 6210-«Muddati uzaytirilgan daromad» yoki 6310-«Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar» hisobvaraqlari kreditlanadi.

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi» va 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» hisobvaraqlari kontrpassiv hisobvaraqlar bo'lib, 9010, 9020, 9030-hisobvaraqlar summasini korrekcirovka qilib turadi.

9040-hisobvaraqlarning debet oboroti mahsulot sotishdan tushgan tushum summasidan chiqarib tashlanadi.

Sotilgan mahsulotning qaytarib olinishiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9040-«Sotilgan mahsulotning qaytarilishi»

K-t Pul mablagʻlari hisobvaraqlari.

Qaytarib olingan mahsulot va tovarlarning tannarxiga qizil storno yozuvi orqali quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlar

K-t 2810, 2910, 2920-hisobvaraqlar.

Qaytarib olingan mahsulot va tovarlar boʻyicha hisoblangan QQS summasiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 6410-«Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarzlari»

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

Hisobot davri oxirida 9040-hisobvaraqlarning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga oʻtkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi».

9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» hisobvaraqlarida tayyor mahsulot va tovarlar qiymatidan xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar hisobga olinadi. Xaridor va buyurtmachilarga chegirmalar berilganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar»

K-t 4010, 4110-hisobvaraqlar.

Hisobot davri oxirida 9050-hisobvaraqlarning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga oʻtkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va koʻrsatilgan xizmatlar tannarxi toʻgʻrisidagi axborotlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9110-«Sotilgan mahsulot tannarxi»

9120-«Sotilgan tovarlar tannarxi»

9130-«Sotilgan ish va xizmatlar tannarxi»

9140-«Davriy hisobda TMZlarni xarid o‘ilish va sotish»

9150-«Davriy hisobda TMZlar bahosiga tuzatishlar».

Ushbu hisobvaraqlarning debeti ko‘payishni, krediti kamayishni ko‘rsatadi. 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlar tranzit bo‘lib, hisobot davrining boshiga qoldiq qolmaydi.

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlarning debeti va 2010-«Asosiy ishlab chiqarish», 2810-«Ombordagi tayyor mahsulot», 2910-«Ombordagi tovarlar» hisobvaraqlarining krediti bilan o‘zaro korrespondensiyada aks ettiriladi.

Oy oxirida mahsulot, ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi orasidagi farqi tegishli hisobvaraqlarga o‘tkaziladi. Bunda quyidagicha provodkalar beriladi:

D-t 2810, 2820-hisobvaraqlar - tayyor mahsulotga tegishli farq summasiga

D-t 9110, 9130-hisobvaraqlar - sotilgan mahsulot, ishlar va xizmatlarga tegishli farq summasiga

K-t 2010, 2310-hisobvaraqlar.

Agar ushbu farq summasi ortiqcha qilingan xarajatni ko‘rsatsa, yuqoridagi provodkalar beriladi. Agarda tejalgan summani ko‘rsatsa, ushbu provodkalar qizil storno yozuvi orqali reja tannarx haqiqiy tannarxga yetkazib quyiladi.

Hisobot davri oxirida 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlarning debet oborotlaridagi summalar yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkaziladi:


D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlar.

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi	9110	2810 - 2830
2	Chiqib ketayotgan hayvonlarning tannarxi	9110	1110, 1120
3	Sotilgan o‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning tannarxi	9110	2110

4	Sotilgan tovarlarning tannarxi	9120	2910-2990
5	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik sexlarining bajargan ishlari va ko'rsatgan xizmatlarining tannarxi	9130	2010, 2310, 2710

Demak, 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debetida sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi, kreditida esa mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum aks ettiriladi. Ushbu muomalalar bo'yicha 9900-hisobvaraqlarning debet va kredit oborotlarining farqi orqali mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) aniqlanadi.



19.6-rasm: Asosiy faoliyatning xarajatlari tarkibi.

Korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi ushbu mahsulot qiymatining pul shaklidagi qismi bo'lib, moddiy, mehnat va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi.

Yaratilgan mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, korxonaga mahsulot tayyorlash qanchaga tushganini ko'rsatadi.²⁰ Tannarx ko'rsatkichi sotish narxlarini belgilash, mahsulotlar rentabelligini hisob-kitob qilish, xarajatlarni pasaytirish choralarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Xozirgi sharoitda mahsulot tannarxini, kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki raqobatchilik muhitida mahsulotga talab va uning sifatigina emas, balki anchagina qismini tannarx tashkil etadigan uning narxi ham muhimdir.

Boshqaruvni takomillashtirish va xarajatlarning to'g'ri va o'z vaqtidagi buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, shuningdek moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ustidan qattiq nazoratni tashkil etish, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan xarajatlar va talafotlarni xar tomonlama kamaytirish mahsulot tannarxini pasaytirishning eng muhim yo'llaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishning oldiga quyidagi asosiy tamoyillar qo'yilgan:

- buxgalteriya hisobida xarajatlarni iqtisodiy jihatlari va moddalari bo'yicha, mahsulot turlari va korxonaga bo'linmalari bo'yicha guruxlashtirish;
- mahsulot ishlab chiqarish va uning tannarxini kalkulyatsiyalashga doir xarajatlar hisobining qabul qilingan uslubiyati yil davomida o'zgarmasligi;
- xarajatlar hisobi ob'ektlarini mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ob'ektlari bilan muvofiqlashtirish;
- daromadlar va xarajatlarni hisobot davrlariga to'g'ri kiritish;
- hisobda ishlab chiqarishning joriy xarajatlari va kapital qo'yilmalar bilan bog'liq xarajatlarni ajratish.

²⁰ F.G'. G'ulomova Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. T.: "NORMA", 2009. 343-bet.


Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to'g'risidagi axborotni shakllantirishning yagona tamoyillarini ta'minlash uchun davlat tomonidan mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, daromad va xarajatlarni guruhlarga ajratish, korxonalar faoliyati turi, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishning umumiy tartibi belgilangan.

Ana shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom (keyingi uzgartirishlar bilan) ishlab chiqildi.

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi sub'ektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi.



19.7-rasm. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektda montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga

ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Kichik biznes korxonalarida ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan sexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagacha kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

"Moddiy xarajatlar" elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlardan, soliqlardan (korxonaga keyinchalik qarzi surishish, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan

amalgga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.²¹

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

Kichik biznes korxonalarida qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektni mukofotlash to'g'risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tUSDagi to'lovlar.

Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tUSDagi to'lovlar, shu jumladan, ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tUSDagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagga kiradi.

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tUSDagi majburiy ajratmalar.

Nodavlat pensiya jamg'armalariga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga

²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chikarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

muvoqif amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zaxirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zaxiraga ajratmalar "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zaxiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zaxira mablag'lari summasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak; agar haqiqiy xarajatlar zaxiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi.

Mahsulot (ishlar,xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yokilgi, kuvvat, asosiy fondlar, mexnat resurslarining, shuningdek ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning qiymat bahosini ifodalaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotida aks etgiriladi.

Buyumlarga ishlov berish murakkab texnologiyali ishlab chiqarishda har oying oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari aniqlanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb texnologik jarayonda nazarda tutilgan ishlov berishning barcha bosqichlaridan to'liq o'tmagan mahsulotga, shuningdek to'planmagan, sinovdan o'tmagan, texnik nazorat bo'limiga qabul qilinmagan buyumlarga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari inventarizatsiya yordamida aniqlanadi yoki me'yoriy (rejadagi) tannarx bo'yicha aks etiriladi va 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoting debeti bo'yicha qoldik, sifatida chiqarib olinadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tyegishli bo'ladi:

1. Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar.

2. Normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlarning, xo'jalik buyumlarining va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining qiymati.

3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektda montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan sexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

5. Tabiiy xom ashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, korxonalar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan beriladigan iste'mol qilinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun — yog'och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari.

6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

9. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagacha kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

10. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlardan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

12. «Moddiy xarajatlar» elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'implardan, soliqlardan (korxonaga keyinchalik qarzi surishish, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektni mukofotlash to'g'risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tushdagi to'lovlar.

2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar.

3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tushidagi to'lovlar, shu jumladan:

3.1. Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

3.2. Ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

3.3. Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

1.2.3.4. Aloqa, temir yo‘l, daryo, avtomobil transporti va katta yo‘llar xodimlarining va doimiy ishi yo‘lda o‘tadigan yoki qatnov tusiga ega bo‘lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt joylashgan joydan jo‘nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to‘lanadigan yo‘lda o‘tgan har bir sutka uchun to‘lanadigan ustamalar;

3.5. Qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta‘mirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko‘chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

1.2.3.6. Doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo‘lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo‘nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o‘tadigan normativ vaqt uchun qo‘shimcha haq;

3.7. Mehnatga haq to‘lashning rayonlar bo‘yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to‘lovlar;

3.8. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt joylashgan joydan (yig‘ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo‘lda o‘tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko‘ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to‘lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda).

4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash.

5. Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash:

5.1. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo‘shimcha ta‘tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo‘shimcha ta‘tillar uchun kompensatsiyalar, o‘smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish

uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash.

5.2. Majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to'lash;

5.3. Donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

5.4. Davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

6. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

3. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1.3.1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga ijtimoiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ajratmalar.

1.3.2. Nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar va ixtiyoriy sug'urtaga sug'urta mukofotlari (badallari)ga.

4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.4.1. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha olingan, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi.

1.4.2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari), buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga

muvoqif hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalarini 1.1, 1.2, 1.3, 1.4-bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.1. Ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari.

1.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi

Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zaxirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zaxiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zaxiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zaxira mablag'lari summasi ushbu ob'ektini tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak;

agar haqiqiy xarajatlar zaxiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.

1.3. Yongʻindan saqlash va qoʻriqlashni hamda xoʻjalik yurituvchi subʻektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni taʼminlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari qoʻriqlash xarajatlari bunday qoʻriqlash mavjud boʻlishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud boʻlgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

1.4. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli boʻlgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bogʻliq xarajatlar.

1.5. Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari, shu jumladan atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya toʻlovlari.

1.6. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini taʼminlash xarajatlari.

1.7. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bogʻliq boʻlgan sogʻliqni muhofaza qilish tadbirlari.

1.8. Tekin koʻrsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xoʻjalik yurituvchi subʻekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini toʻlash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

1.9. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan formali kiyim-bosh, maxsus ovqatlar) (yoki ular pasaytirilgan narxlar boʻyicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

1.10. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli boʻlgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat koʻrsatish xarajatlari.

1.11. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

2. Ishlab chiqarish xodimlarini ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar.

3. Ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

4. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

7. Mahsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari.

8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

10. Ob'ektlarni davlat kapital qo'yilmalari hisobiga qurishda qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bilan bog'liq xarajatlar.

11. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarish maqsadida bo'lmagan mol-mulk yuzasidan belgilangan tartibda.

12. Qazib oluvchi tarmoqlarda tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlarga tegishli bo'lmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmasa). Ushbu xarajatlar «Kelgusi davrlar xarajatlari» sifatida qaraladi va ularni qaytarishning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmi va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Kelgusi davrlar xarajatlari hisobdan

chiqarishning tanlangan metodi xo‘jalik yurituvchi sub’ektning hisobga olish siyosatida aks ettirilishi kerak.

13. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq.

Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar (9100)dan amalda foydalanish korxonada qo‘llaniladigan tovar-moddiy zaxiralarning hisob usuliga, ya’ni tovar-moddiy zaxiralarning uzluksiz yoki davriy hisobiga bog‘liq.

Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish usuli qo‘llanilganda har bir mahsulot yoki tovarning tannarxi uning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatiga qarab xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda to‘planadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davriy hisobga olish usulidan foydalanilganda har bir mahsulot (tovar)ning tannarxi hisobot davri davomida vaqtinchalik 9140 “Davriy hisobda TMZ sotib olish / xarid qilish” schyotida yig‘iladi, biroq sotilgan mahsulotlar, tovarlarning haqiqiy tannarxini faqat TMZ inventarizatsiya qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. 9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyoti - hisobot davrining oxirida inventarizatsiya natijasida TMZni mavjudligini aks ettirish uchun foydalaniladigan vaqtinchalik schyot. Ko‘rsatilgan schyotning debeti bo‘yicha TMZning kamayishi, krediti bo‘yicha TMZning o‘sishi TMZni hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyotining qoldig‘i 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotiga o‘tkazilishi orqali yopiladi.

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish (TMZni davriy hisobga olish usulida)	9140	6010
2	Hisobot davrining oxirida inventarizatsiya natijalari bo‘yicha TMZ schyotlari bo‘yicha qoldiqlarga tuzatishlar qilindi: a) asosiy moddiy zaxiralar:	1010-1090	9150
		9150	1010-1090
		2010	9150

	zaxiralarning o‘sishi zaxiralarning kamayishi	9150	2010
	b) tugallanmagan ishlab chikarish: o‘shish kamayish	2810 9150	9150 2810
	v) tayyor mahsulot: zaxiralarning o‘sishi zaxiralarning kamayishi	2910-2990 9150	9150 2910-2990
	g) tovarlar: zaxiralarning o‘sishi zaxiralarning kamayishi		
3	Hisobot davrining oxirida 9140 “Davriy hisobda TMZ sotib olish / xarid qilish” schyotining yopilishi	9910	9140
4	Hisobot davri oxirida 9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyotining yopilishi	9910 (9150)	9150 (9910)
5	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannaxsini hisobga oluvchi schyotlar (9100)ning yopilishi	9910	9110, 9120, 9130

19.3. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish.

Asosiy faoliyat daromadining keyingi tarkibiy qismi — bu asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlaridir.

Bunga asosiy fondlar va boshqa mol mulkni sotishdan tushgan daromad, undirilgan yoki qarzdorlar tomonidan e’tirof etilgan har xil jarimalar va vaqtida to‘lanmagan qarzlarni, hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillar foydasi, da’vo bildirish muddati o‘tgan kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar va xolisona moliyaviy yordamlar kabi moddalar kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e’tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to‘lanmagan qarzlarni va xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo‘yicha daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi foyda;

- ishlab chiqarish va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan renta daromadi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar

huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi kirim qilingan boshqa daromadlar;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy fondlarini va boshqa mulklarini sotishdan olingan daromadlar;

- da’vo muddati o‘tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

- tovar-moddiy boyliklarni qayta baholash;

- davlat subsidiyalaridan daromadlar;

- holisona moliyaviy yordam;

- boshqa muomala daromatlari.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9310-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»

9320-«Boshqa aktivlarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»

9330-«Undirilgan jarima, boqimanda va burdsizliklar»

9340-«Qtgan yil foydasi»

9350-«Operativ lizingdan olingan daromad»

9360-«Kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar»

9370-«Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning daromatlari»

9380-«Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam»

9390-«Boshqa operatsion daromadlar».

Hisobot davrining oxirida asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda summasi 9310 “Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda” schyotining kreditida 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davrining oxirida boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda summasi 9320 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda” schyotining kreditida

9220 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Xo‘jalik shartnomalarining shartlarini buzganliklari uchun qarzdorlardan undirilgan jarimalar, penya, ustamalar va boshqa jarima turlari, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha daromadlar 9330 “Undirilgan jarima, penya va ustamalar” schyotining kreditida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar yoki olinadigan schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar foydalari 9340 “O‘tgan yillar foydalari” schyotining kreditida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar yoki tegishli olinadigan schyotlarning debeti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mulkni operativ ijaraga berishdan daromadlar 9350 “Operativ ijaradan daromadlar” schyotining kreditida 4820 “Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Da‘vo muddati o‘tib ketgan kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar 9360 “Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar” schyotining kreditida kreditor va deponent qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9370 “Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar daromadlari” schyotida shu korxonaning asosiy faoliyati bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar hisobga olinadi. Bularga korxonada balansida bo‘lgan sog‘liqni saqlash ob‘ektlari, bolalar bog‘chalari, uy joy komunal xo‘jaligi, madaniyat va sport ob‘ektlaridan olingan daromadlar kiradi.

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari ko‘rinishida tekinga olingan daromadlar 9380 “Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam” schyotining kreditida pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Boshqa operatsion faoliyatdan olingan daromadlar 9390 “Boshqa operatsion daromadlar” schyotining kreditida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schetlar yoki olinadigan schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Ushbu hisobvaraqlar tranzit hisoblanadi. Yuqoridagi hisobvaraqlarning kredit oboroti foyda (daromad)ning ko‘payishini, debet oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko‘rsatadi.

19.1-jadval.

**9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» hisobvarag‘i
bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi**

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
		debet	kredit
1.	Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foydaning aks ettirilishi	9210	9310
2.	Boshqa aktivlarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foydaning aks ettirilishi	9220	9320
3.	Shartnoma shartlarini buzganligi uchun undirilgan boqimanda, jarima va burdsizliklarning aks ettirilishi	4860	9330
4.	Xaridorlarga oldingi yillarda jo‘natilgan mahsulot bo‘yicha qaytadan hisoblash natijasida hisobot yilida olingan foydaning aks ettirilishi	4010	9340
5.	Operativ ijara shartnomasi bo‘yicha ijara to‘lovlari summasi	4820	9350
6.	Da‘vo muddati o‘tgan kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan foydaning aks ettirilishi	6910- 6990 6720	9360
7.	Kamomadlar bo‘yicha baholardagi farqlar moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borildi	4730	9370
8.	Qaytarilmaydigan pul mablag‘larining kirim qilinishi	5110- 5120	9380
9	Inventarizatsiya natijasida tovarlar va tayyor mahsulotlarning ortiqchaligi aniqlanishi va kirim qilinishi	2810- 2890, 2910- 2990	9390
10	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardagi, umumishlab chiqarish omborlaridagi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim qilindi	2010, 2310, 2510, 2710	9390
11	Mulkiy sug‘urta organlari tomonidan sug‘urta	4510	9390

	to'lovlarining tushishi		
12	Tekinga olingan pul mablag'lari	5110-5530	9380
13	Tugallanmagan qurilishdagi ortiqchalar	0810-0890	9390
14	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan talab qilinmagan bo'nak summalarining hisobdan chiqarilishi	6310-6390	9390
15	Hisobot davri oxirida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazilishi	9310, 9320, 9330, 9340, 9350, 9360, 9370, 9380, 9390	9900

Korxonalarda mahsulot, ishlar va xizmatlar sotishdan olingan yalpi foydadan tashqari asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar ham bo'lishi mumkin. Bunday daromadlar kelib tushish manbalariga qarab quyidagi: 9310-«Asosiy vositalarning chiqib ketishdan foyda», 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishdan foyda», 9330-«Undirilgan jarima, penya va ustamalar», 9340-«O'tgan yillar foydalari», 9350-«Qisqa muddatli ijaradan daromadlar», 9360-«Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar», 9370-«Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari», 9380 «Tekin moliyaviy yordam», 9390-«Boshqa operatsion daromadlar» schetlarda hisobga olinadi. Bular tranzit schetlar bo'lib, passiv schetlarga mansub.

Yuqoridagi schetlarning kredit oboroti tegishli manbalar hisobidan foyda (daromad) ning ko'payishi, debet oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko'rsatadi va hisobot davri boshiga qoldig'i qolmaydi. Asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlarning shakllanishi milliy standart bilan tartibga keltiriladi.²²

²² O'zR AV tomonidan ro'yxatga olingan 2-sonli «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» BXMS.

9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schetida asosiy vositalarni sotish va boshqa ko‘rinishdagi hisobdan chiqarishlardan olingan foyda hisobga olinadi. Bu vaqtda quyidagicha rasmiylashtiriladi: Dt 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi», Kt 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» scheti.

9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» schetida nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlar va shunga o‘xshagan boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda summasi quyidagi rasmiylashtiriladi: Dt 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi», Kt 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» scheti.

9330 «Undirilgan jarima, penya va ustamalar» schetida shartnoma shartlarini buzganligi uchun undirilgan yoki qarzdor tomonidan e‘tirof etilgan jarimalar, boqimandalar, vaqtida to‘lanmagan qarzarlar va boshqa hil jazo jarimalari, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo‘yicha daromadlar aks ettiriladi. Bunday jarima va boqimandalar undirib olinsa 5110 yoki pul mablag‘larini hisobga oladigan boshqa schetlar debetlanib, 9330 scheti kreditlanadi. Lekin bunday jarima va boqimandalar aybdor tomonidan tan olinib hali puli o‘tkazib berilmagan bo‘lsa, 4860 «Da‘volar bo‘yicha olinadigan schetlar» scheti debetlanib 9330- schet kreditlanadi.

9340 «O‘tgan yillar foydalari» schetida hisobot yilida aniqlangan oldingi yillarga tegishli foyda aks ettiriladi. Bunga xususan, oldingi yillarda olinib sarflab yuborilgan materiallar bo‘yicha qaytadan hisoblash natijasida mol yuboruvchilardan olingan summa, xaridorlarga oldingi yillarda jo‘natilgan mahsulot, ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha qaytadan hisoblash natijasida hisobot yilida olingan summa va shunga o‘xshaganlar kiradi. Bunday foyda o‘tkazib berilsa, pul mablag‘larini hisobga oladigan schetlar debetlanib, 9340 «O‘tgan yillar foydalari» scheti kreditlanadi. Agar bunday foyda hali o‘tkazib berilmagan bo‘lsa, 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schetlar» scheti debetlanib, 9340 «O‘tgan yillar foydalari» scheti kreditlanadi.

9350 «Qisqa muddatli ijaradan daromadlar» schetining kreditida 4820 «Qisqa muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» scheti bilan

korrespondentlangan holda mulklarni qisqa muddatli ijaraga berishdan olinadigan daromadlar aks ettiriladi. Qisqa muddatli ijara haqi olinganda pul mablag'larini hisobga oladigan schetlar debetlanib 4820 «Qisqa muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar» scheti kreditlanadi.

9360 -«Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar» schetida da'vo qilib olish muddati o'tgan kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlarga ks ettiriladi. Bunday hollarda quyidagi rasmiylashtiriladi: Dt 6720-«Deponentlangan mehnat haqi», 6990 «Boshqa majburiyatlar», Kt 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar» schetlari.

9370 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari» schetida korxonaning asosiy faoliyati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar hisobga olinadi. Bularga korxonada balansida turadigan so'Yoliqni saqlash, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari ob'ektlari, turar-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport ob'ektlari kiradi. Yuqorida keltirilgan ob'ektlarning daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lsa, farqi quyidagicha daromadga o'tkaziladi: Dt 2710 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar» schetining tegishli analitik scheti, Kt 9370 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari» scheti.

9380 «Tekin moliyaviy yordam» schetining kreditida pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini hisobga oladigan schetlar bilan korrespondentlangan holda qaytib olmaslik sharti bilan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari ko'rinishida olingan daromadlar aks ettiriladi. Bu vaqtda quyidagicha rasmiylashtiriladi: Dt 5110-5530-schetlar, Kt 9380«Tekin moliyaviy yordam» scheti.

9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schetida boshqa operatsion faoliyatidan daromadlar hisobga olinadi. Bu schetining kreditida, xususan, quyidagilar hisobga olinadi:

-asosiy, yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda ortiqcha chiqqan tugallanmagan ishlab chiqarishlar, umumxo'jalik omborlarida ortiqcha chiqqan

materiallarning kirimga olinishi, Dt 2010, 2310, 2510, 2710-schetlar, Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti»;

- oldin hisobdan chiqarilgan debitor qarzlarni undirib olishdan olingan daromadlar,

Dt 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schetlar»

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti».

Shu bilan birga balansdan tashqari 007 «To‘lashga qobiliyatsiz debitorlarning zararga o‘tkazilib hisobdan chiqarilgan qarzi» schetidan chiqim qilinadi;

- mulk sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta organlaridan tushgan to‘lovlarga,

Dt 4510 «Sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari»

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti;

- zaxira tashkil etilgan yildan keyingi yilning oxirigacha dargumon qarzlari zaxiraidan foydalanilmagan qismini daromadga o‘tkazilishiga,

Dt 4910 «Dargumon qarzlari bo‘yicha zaxira»

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti;

- ortiqcha chiqqan mahsulot va tovarlarning kirimga olinishi,

Dt 2810-2890, 2910-2990 schetlari,

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti

- tugallanmagan qurilishda aniqlangan ortiqcha chiqishlarni daromadga olinishiga,

Dt 0810-0890-schetlar

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti;

-xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘nak summalarini talab qilib olinmaganligi uchun hisobdan chiqarilishiga,

Dt 6310-6390-schetlar

Kt 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» scheti. Bu xil daromadlar hisobot davri oxirida yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkaziladi:

Dt-9310, 9320, 9330, 9340,9350, 9360 ,9370 ,9380, 9390 schetlari,

Kt 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» scheti

19.4. Davr xarajatlari hisobi

Davr xarajatlari tarkibiga korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga boshqaruv, tijorat bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek umumxo'jalik xarajatlari, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar ham kiradi. Bu xarajatlar korxonada asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lmaganligi, lekin ma'lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ular operatsion xarajatlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar deyiladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bog'liq bo'lmagani, va aksincha, vaqt bilan, xo'jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog'liq bo'lgani sababli ular **davr xarajatlari** deb yuritiladi.

Mahsulot sotish, ma'muriy xarajatlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasiga binoan davr xarajatlari quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9410-«Sotish xarajatlari»

9420-«Ma'muriy xarajatlar»

9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»

9440-«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari».

Nizomga binoan sotish xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va otulovda tashish xarajatlari (Ushbu moddaga tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar kiritiladi.).

2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida sotish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan:

– sotish bo'yicha xarajatlariga ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan ish xaqidan tashqari nizomning 1.2-bandida ko'rsatilgan tarkib asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga

muvofoiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektni mukofotlash to'g'risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar ham inobatga olgan holda;

– sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustama to'lovlar ham inobatga olgan holda.

– sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar ham inobatga olgan holda

– sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash to'lovlar ham inobatga olgan holda.

– sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash to'lovlar ham inobatga olgan holda

– sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida belgilangan tartibga muvofoiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari to'lovlar ham inobatga olgan holda sanab o'tilgan, mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari, bunda ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari hisobga olib boriladi.

3. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida Nizomning 1.3-bandiga muvofoiq, savdo va umumiy ovqatlanish korxonolari sotish bo'yicha xarajatlariga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug'urtaga xarajatlar.

4. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish

xarajatlari tushadigan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini sotish bo'yicha xarajatlarga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlar.

5. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida Nizomning 1.4-bandiga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini sotish bo'yicha xarajatlarga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

6. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida inventarlar va xo'jalik buyumlari qiymatini hisobdan chiqarish xarajatlari hamda ularni belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatda saqlash (ta'mirlash, yuvish, tuzatish, dezinfeksiya qilish va h. k.) bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

7. sovun, apteka dori-darmon vositalarining qiymati;

8. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari.

9. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari.

10. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida savdo reklamasi xarajatlari.

11. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida Tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning yo'qotilishi.

12. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida o'rash-joylash materiallari xarajatlari.

13. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

14. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari.

15. Ventilyatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvchi qismlarini o'rnatish va saqlash, tuynuklar, o'yiqlar va boshqalarning atrofini o'rash bo'yicha joriy (nomukammal tushadigan) xarajatlar.

16. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tkazilganligi uchun tibbiyot muassasalariga haq to'lash.

17. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida kassa xo'jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari.

18. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarida qog'oz salftkalar, qog'oz dasturxonlar, qog'oz stakanlar va tarelkalar, bir marta foydalaniladigan anjomlar qiymati.

19. Sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar).

20. Sotish bo'yicha xarajatlari tarkibida yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

Yuqorida keltirilgan xarajatlar 9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraq tranzit hisovaraq bo'lib, qaysi davr bo'lmasin uning oy boshida qoldiq summasi bo'lmaydi. Hisobvarao'ning debet tomonida tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ko'rsatilsa, kredit tomonida ushbu xarajatlarni hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bu summa foydaning kamayishiga olib keladi, ya'ni foyda hisobidan qoplanadi.

9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ining analitik hisobi 15-sonli qaydnomada xarajatlarning debet va kredit oboroti ko'rsatiladi. Debet oborotining jami summasi №1, 2, 7, 10/1-jurnal orderlarda aks ettirilsa, kredit bo'yicha oborot summolari esa №11-jurnal-orderida aks ettiriladi.

Korxonalar ishini olib borish, uyushtirish va boshqarish tegishli xarajatlarni talab qiladi. Har bir korxonada bunday xarajatlarni qoplash uchun tegishli ajratmalar qiladi va bu ajratmalar 9420-«Ma'muriy (boshqaruv) xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyotida korxonani boshqarish bo'yicha xarajatlar, boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari, umumboshqaruv ahamiyatiga molik asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari, umumxo'jalik ahamiyatidagi binolarning ijara to'lovlari va boshqa xarajatlar hisobga olinadi. Hisobot davrining oxirida 9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan bog'langan holda yopiladi.

Ma'muriy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

a) 1.2-bandda sanab o‘tilgan ma‘muriy-boshqaruv xodimlariga tegishli bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari. Ya‘ni:

– ma‘muriy-boshqaruv xodimlariga tegishli bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari tarkibida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib, boshqaruv xususiyatiga ega bo‘lgan amalda bajarilib, hisoblangan ish haqi, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektni mukofotlash to‘g‘risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tUSDagi to‘lovlar.

– ma‘muriy-boshqaruv xodimlarining kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar to‘lovlar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlari

– ma‘muriy-boshqaruv xodimlarining ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tUSDagi to‘lovlar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlari

– ma‘muriy-boshqaruv xodimlarining ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

– ma‘muriy-boshqaruv xodimlarining ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlari

– ma‘muriy-boshqaruv ahamiyatidagi xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tUSDagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlari (agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi)

b) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi 1.3-bandda sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlariga nisbatan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

c) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi xizmat yengil avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari.

d) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari.

e) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

f) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi telekommunikatsiyalar xizmatlari, shu jumladan: mahalliy tarmoqlar abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov; kanallarni ijaraga berish; ko'chma yo'ldosh va peyjing aloqa; radiochastota spektridan foydalanish; ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, shu jumladan internet uchun haq to'lash.

g) Ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun haq to'lash.

h) Ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash.

i) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vositalarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek eskirish (amortizatsiya) xarajatlari.

j) Yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar.

k) Ma'muriy-boshqaruv ahamiyatidagi xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

l) Boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlari.

m) Vakillik xarajatlari.

n) Umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to‘lash xarajatlari.

o) Ma’muriy-boshqaruv ahamiyatidagi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo‘lgan jamg‘armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq joriy xarajatlar, tabiiy atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari.

p) Ma’muriy-boshqaruv ahamiyatidagi xizmatlar qiymatini to‘lash hamda investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari va ishonchli boshqaruvchilarning mukofotlari bo‘yicha xarajatlar.

q) Ma’muriy-boshqaruv ahamiyatidagi maqsadlar uchun foydalaniladigan inventarlar va xo‘jalik anjomlari qiymatini hisobdan chiqarish bo‘yicha xarajatlar hamda ularni belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatda saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axborot, auditorlik va maslahat xizmatlari uchun to‘lov xarajatlari, ish haqi hisoblashda hisobga olinmaydigan kompensatsiyalash va rag‘batlantirish ahamiyatiga molik to‘lovlar, bank va depozitariya xizmatlarining to‘lovlari, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa operatsion faoliyat jaryonida vujudga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat va favqulodda xarajatlar moddalarining belgilari bo‘lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida 9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyoti 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Boshqa operatsion xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, yangi tashkil etilayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno.

2. Loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek ob’ekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog‘idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari

tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi.

3. Maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash.

4. Auditorlik xizmatlariga haq to'lash, o'tkaziladigan auditorlik xizmatlariga haq to'lash.

5. O'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar.

6. Salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari.

7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari.

8. Boshqa operatsiya xarajatlari tarkibdagi kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar.

– O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga ko'ra kompensatsiya to'lovlari.

– Bir marta beriladigan mukofotlar, yil davomidagi ish yakunlari bo'yicha rag'batlantirishlar, uzoq muddat ishlaganlik uchun rag'batlantirish va to'lovlar, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z qaroriga ko'ra natura bilan to'lovlar, shuningdek yagona ijtimoiy to'lov summasi, ular bo'yicha hisoblangan haq.

– Qonun hujjatlariga yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zining qaroriga muvofiq majburiy progul vaqti yoki past haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash.

– Vaqtincha mehnat layoqatini yo‘qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo‘shimcha haq.

– Asosiy ish joyi bo‘yicha ishchilarga, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ishchi va mutaxassislariga ular ishdan ajragan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o‘qigan vaqtda ish haqi to‘lash.

– Ikki va undan ko‘p bolalari yoki o‘n olti yoshgacha nogiron bolasi bo‘lgan ayollarga qonunchilikka muvofiq qo‘shimcha mehnat ta‘tili haqini to‘lash.

– Xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa narsalarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish.

– Xodimlarning (ovqatlanishi, yo‘l kirasi, davolanish va dam olishga, ekskursiya va sayohatlarga yo‘llanmalari, sport seksiyalarida, to‘garaklarda, klublardagi mashg‘ulotlari, madaniy-ko‘ngilochar va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga qatnashishi, xodimlarning shaxsiy obunasi va iste‘moli hamda boshqa shunga o‘xshash to‘lovlari) xarajatlarini qoplash.

9. Boshqa operatsiya xarajatlari tarkibdagi Ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar:

– qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to‘lgungacha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqani to‘lash bo‘yicha xarajatlar.

– pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqalar.

– amaldagi qonunchilikka muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan ularning qayta tashkil etilishi, xodimlar va shtatlar sonining qisqarishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarga to‘lovlar.

– xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam.

10. Sog‘liqni saqlash ob’ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog‘lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob’ektlari, xalq ta‘limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob’ektlari ta‘minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta‘mirlash ishlarini o‘tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo‘shgan holda) xarajatlar.

11. Vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari).

12. Bankning, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq to'lash.

13. Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar.

14. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarajatlariga kiritiladigan budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar, shuningdek hukumat qarorlariga binoan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash.

15. Boshqa operatsiya xarajatlari tarkibidagi zararlar, jarimalar, penyalar:

- bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar.
- moddiy boyliklarning bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar hamda kamomadlar.

- ishlab chiqarish zaxiralarini va tayyor mahsulotni eng past baholash usuli yoki sotishning sof qiymati bo'yicha qayta baholash yoki bahosini pasaytirish natijasidagi zararlar.

- idishlarga doir ishlar bo'yicha zararlar.

- sud xarajatlari.

- to'lanishi shubhali qarzlarni bo'yicha zaxiraga ajratmalar.

- qonunchilikka muvofiq da'vo bildirish muddati o'tgan va undirish noreal bo'lgan boshqa qarzlarni bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha to'lanishi shubhali qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar.

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar operatsiyalari bo'yicha ko'rilgan zararlar.

– tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo‘lishi va buzilishi, ishlab chiqarishning to‘xtashi va boshqalar tufayli yo‘qotishlar) tufayli ko‘rilgan qoplanmaydigan yo‘qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarining oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar.

– aybdorlari aniqlanmagan o‘g‘irliklardan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summani undirish mumkin bo‘lmagan hollarda ko‘rilgan zararlar.

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishi (balansdan chiqarish)dan ko‘rilgan zararlar.

– xo‘jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan mahsulotni yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e’tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to‘lanmagan to‘lovlar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar.

– soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.

– to‘langan boshqa jarimalar.

16. Xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo‘jaliklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha narx tafovutlari.

17. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan mol-mulk bo‘yicha, belgilangan tartibda.

18. Yangi texnologiyalar yaratish va qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari olib borish, xom ashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash bilan bog‘liq mahsulotlar sifatini oshirish xarajatlari.

19. Ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperiment ishlari olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo‘yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko‘rgazmalar va ko‘riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha

boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to'lash xarajatlari va boshqa xarajatlar.

20. Ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'minlash xarajatlari;

21. Boshqaruv xodimlariga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydigan boshqa xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lash bilan bog'liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq.

22. Yangi ishlab chiqarishlarni, sexlar, agregatlarni, shuningdek seriyali va ommaviy mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni va texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari.

23. Ayrim mashinalar va mexanizmlarni yakka tartibda sinab ko'rish hamda foydalanilayotgan uskunalar va texnik qurilmalarning barcha turlarini ularni montaj qilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks (mahsulot chiqarmasdan) ishlatib ko'rish.

24. Yangidan ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun ishchi kuchlarini jalb qilish va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar.

25. Foydalanishdagi to'liq eskirgan uskuna uchun to'lov.

26. Ishlab chiqarish jarayonini to'xtatib turish davrida ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarni saqlash hamda ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

27. Boshqa operatsiya xarajatlari tarkibidagi boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan xarajatlar 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Hisobot davri oxirida 9440-hisobvaraqlarning debetida yig'ilgan xarajatlar 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'iga o'tkaziladi. 9440-hisobvaraqlarning debetida hisobga olingan xarajatlar balansdan tashqari 010-«Vaqtli tafovutlar bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ida yig'ib boriladi. Sodir bulgan muomalalar summasiga 9440-hisobvaraqlarning debeti bilan birga, 010-hisobvaraqlarda ham yozib boriladi. 010-hisobvaraqlarning chiqimiga hisobga olingan xarajatlar bu tadbir uchun sarflangan xarajat va undan olinadigan samara muddatiga qarab, tuzilgan maxsus komissiya raschyotiga asosan hisobdan chiqarilganda yoziladi.

**9400-«Davr xarajatlari» hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlar
korrespondensiyasi**

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
		debet	kredit
1.	Mahsulotni sotish bilan bog‘liq transport xarajatlarning aks ettirilishi	9410	6990
2.	Reklama va marketing xarajatlarining aks ettirilishi	9410	6010
3.	Boshqaruv xodimlariga ish haqi hisoblanishi	9420	6710
4.	Umumma‘muriy ahamiyatdagi asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi	9420	0210-0299
5.	Auditorlik xizmatiga to‘lovlarning aks ettirilishi	9420	6990
6.	Yuqori organni asrab turish uchun ajratma qilinishi	9420	6120
7.	Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi bo‘yicha zararining aks ettirilishi	9430	9210
8.	Soliq organlarining qaroriga binoan jarima hisoblanilishi	9430	6410
9.	Hisobot davri oxirida davr xarajatlarining yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazilishi	9900	9410, 9420, 9430, 9440, 9450

19.5. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlarni hisobda aks ettirish.

Moliyaviy faoliyatga doir daromad va xarajatlar korxonaning asosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan iqtisodiy muomalalar natijasida yuzaga keladigan daromad va xarajatlar sanaladi.

Moliyaviy faoliyatga doir daromadlar va xarajatlarning shakllanishi va ularni tasniflash va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan 1999 yil 5 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 54-sonli qarori bilan qabul qilingan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan tartibda moliyaviy faoliyatga doir daromadlar va xarajatlarga hisoba

olnadi. Mazkur Nizomda quyidagicha tavsiflar keltirilgan:

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga quyidagilar kiradi:²³

1. Olingan royaltlar va sarmoya transferti.
2. O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektga tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar.
3. Mol-mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to‘lovini olish).
4. Valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovutlari.
5. Sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar.
6. Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar

Moliyaviy faoliyat daromadi tarkibini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: dividendlar va boshqa korxonani tashkil qilishda ulushli qatnashishdan olingan daromadlar, qimmatli qog‘ozlar va qarz mablag‘lari bo‘yicha olingan daromadlar, valyuta va valyuta muomalalari bo‘yicha daromadlar, mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan va boshqa moliyaviy mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar, olingan royalti, moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar hisobi “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar” nomli 2-son BHMS, “Ijara hisobi” nomli 6-son BHMS, “Moliyaviy investitsiyalar hisobi” nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.²⁴

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha olinadigan daromadlar uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilishi mumkin:

²³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab shiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom

²⁴ Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. 565-b

9510-“Royalti ko‘rinishidagi daromadlar”

9520-“Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar”

9530-“Foiz ko‘rinishidagi daromadlar”

9540-“Valyutalar kurslari farqidan daromadlar”

9550-“Moliyaviy ijaradan daromadlar”

9560-“Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar”

9590-“Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari”.

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo‘lib, passiv xarakterga yega. Ularning kredit oborotida tegishli manbalar hisobidan moliyaviy foydaning ko‘payishi, debet oborotida yesa ularning hisobdan chiqarilishi aks yettiriladi.

2-sonli BHMSga muvofiq royalti bu – sub’ektning nomoddiy aktivlaridan (savdo markalari, patentlar, dasturiy ta’minot, musiqa asarlari, yozuvlarning asli va badiiy filmlarga mualliflik huquqi kabi) foydalanish huquqi uchun vaqti - vaqti bilan ajratib turiladigan summa. Nomoddiy aktivlaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan royalti uchun to‘lov odatda shartnomaning mazmuni va shartlariga muvofiq tan olinadi. Royaltini to‘lashda litsenziya egasi ma’lum bir texnologiyadan ma’lum davr mobaynida to‘lovlarni to‘g‘ri chiziqli usul bo‘yicha amalga oshirish mumkin. Ayrim hollarda litsenziya yoki royalti to‘lovlarini olish yoki olmaslik kelgusida bo‘ladigan xodisalarga bog‘liq bo‘ladi. Bunday hollarda daromad to‘lovlar yoki royaltini olish imkoniyati bo‘lganda (odatda xodisa sodir bo‘lgandan keyin) tan olinadi.

Royalti va kapital transfertidan olingan daromadlar 9510- “Royaltidan olingan daromadlar” schyotida pul mablag‘larini hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondensiyalangan holda hisobga olinadi.

9510-“Royalti ko‘rinishidagi daromadlar” schyotida royalti va kapital transferti bo‘yicha olingan daromadlar aks ettiriladi.

Royaltidan olingan daromadlarga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 4850-“Olinadigan royalti”

Kredit 9510-“Royalti ko‘rinishidagi daromadlar”.

Korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlik sub’ektlari qaysi tarmoq va

faoliyat sohasi foydani ko‘proq keltiradigan bo‘lsa, sarmoyani shunga joylashtirib, barcha imkoniyatlarini ishga solib shu faoliyatni rivojlantirish, rentabellik darajasini oshirib, ko‘proq foyda olishga intiladilar. Agar mazkur sohada kapital o‘zini oqlamasa, foyda keltirmasa va bozorda o‘z o‘rnini topa olmasa investorlar kapitalni bu tarmoq yoki faoliyat turidan olib, boshqa yanada daromadliroq bo‘lgan tarmoqlarning qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltiradilar.

Qimmatli qog‘ozlar - hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning yegasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.²⁵


O‘zbekiston Respublikasi hududi va chet ellarda ulush qo‘shish yo‘li bilan boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo‘yicha dividendlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar 9520 “Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar” schyotida pul mablag‘larini hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondensiyalangan holda hisobga olinadi. 9520-“Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar” schyotida O‘zbekiston Respublikasi hududida va chet ellarda ulush qo‘shish yo‘li bilan boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo‘yicha dividendlar aks ettiriladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektga tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar.

Boshqa korxonalar faoliyatiga ulush qo‘shish yo‘li bilan qatnashishdan olingan daromadlar hamda boshqa korxonalarining sotib olingan aksiyalariga e‘lon qilingan dividendlar moliyaviy inqiroz sharoitida xatarli sanaladi. Chunki biz aksiyalarini sotib olgan boshqa korxonalarining inqiroz natijasida zarar ko‘rishi

²⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri) (22.07.2008 y. N O‘RQ-163) 3-moddasi

yoki foydasining kamayib ketishi natijasida sarmoya kiritgan korxonaning ham ushbu aksiyalardan keladigan daromadlari g kamayishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarda mujassamlangan mulkiy huquqlarning turiga va sarmoyaga kiritilish yo'nalishiga qarab olinadigan dividendlar ko'rinishidagi daromadlar ham tasniflanadi.



19.8-rasm. Qimmatli qog'ozlarni tasnifi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. AJ tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak. AJning ustavida aksiyadorlar olgan aksiyalarning (joylashtirilgan aksiyalarning) soni va nominal qiymati belgilanishi kerak. Qimmatli qog'ozlarga dividend hisoblanganda, xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga muvofiq, ikkita usuldan foydalanish mumkin:

1. Qiymat usuli. Mazkur usul qo'llanganda investor o'z mablag'ini boshqa korxonaga dastlabki qiymati bo'yicha qo'yadi. Uning asosiy tamoyillari shundan iboratki, investitsiyalar qiymati sho'ba tuzilmalarining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar o'zgarmaydi, ulardan olinadigan dividendlar bosh jamiyat daromadi sifatida hisobga olinadi. Bu usulni quyidagi hollarda qo'llash tavsiya etiladi:

- sho'ba jamiyatini keyinchalik yaqin kelajakda sotish uchun olingan va uni nazorat qilish ham vaqtinchalik bo'lganda;

- sho'ba jamiyati uning bosh jamiyatiga mablag' o'tkazish qobiliyatini jiddiy darajada kamaytirilgan belgilangan uzoq muddatli muhim sharoitlar doirasida faoliyat yuritganda. Masalan, sho'ba jamiyatiga qarz bergan tashkilot tomonidan qo'yiladigan dividendlarni to'lashda cheklashlar mavjud bo'lishi

mumkin.

2. Ulushbay ishtirok usuli. Bu usulni bosh jamiyat tomonidan sho‘‘ba jamiyatiga sezilarli darajada ta’ sir o‘tkazish va nazorat qilish hollarida qo‘llash tavsiya qilinadi, u quyidagilardan iborat:

- investitsiyalarning joriy qiymati sho‘‘ba jamiyatining xo‘jalik faoliyati natijalariga bog‘liqlikda o‘zgaradi: u foyda olganda investitsiyalar qiymati oshadi, zarar ko‘rganda yesa kamayadi;

- bosh jamiyat investitsiyalardan foydani yegalik ulushiga munosib ravishda aks yettiradi: uning sho‘‘ba jamiyatidagi ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, bosh jamiyat balansida investitsiyalar qiymati shuncha ko‘p summaga oshiriladi;

- olingan dividendlar daromad sifatida qaralmaydi, balki investitsiyalar qiymatini kamaytirish tarzida ifodalaydi.

Misol. Korxonaga boshqa jamiyatning aksiyalarini 60 foizini 900 mln. so‘m nominal qiymati bo‘yicha sotib oladi va buxgalteriya hisobidan quyidagicha yozuvlarni amalga oshiradi;

Debet 0620 900 000 ming so‘m

Kredit 5110 900 000 ming so‘m

Hisobot yili tugagach, sho‘‘ba jamiyati 65 000 ming so‘m sof foyda oladi va u bosh jamiyat nazoratida bo‘lganligi bois investitsiyalar qiymatining oshganligini hamda daromad summasini yegalik ulushiga munosib ravishda, 39 000 ming so‘mni ($65\,000 \times 60\%$) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks yettiradi:

Debet 0620 39 000 ming so‘m,

Kredit 9590 39 000 ming so‘m.

Mazkur muomaladan so‘ng investitsiyalarning balans qiymati 939 000 ($900\,000 + 39\,000$) ming so‘m, ya’ni sho‘‘ba jamiyatining foydasi darhol bir tomondan - investitsiyalar qiymatining oshishi, boshqa tomondan - bosh jamiyatning daromadi sifatida aks ettiriladi.

Faraz qilaylik, sho‘‘ba jamiyati dividendlar sof foydaning 50 foizi miqdorida, ya’ni 32 500 ming so‘m to‘lash haqida ma’lum qiladi. Bu holatda bosh jamiyat o‘zining ulushiga mutanosib ravishda mazkur summaning 60 foizini

olishi va buxgalteriyada quyidagicha aks yettirilishi lozim:

Debet 4840 19 500 ming so‘ m,

Kredit 0620 19 500 ming so‘ m.

Bu muomalalardan keyin investitsiyalarning balans qiymati 880 500 (900 000 – 19 500) ming so‘ mni tashkil qiladi. Ya’ni, ulushbay ishtirok usuli bo‘yicha sho‘ba jamiyatiga investitsiyalar hajmi sho‘ba jamiyat olgan foydaning tegishli ulushini undan olingan dividendlarni ayirgan holda vaqti-vaqti bilan uzatib boriladi.

Uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni hisobga olish. Foiz ko‘rinishidagi daromadlar bu korxonaga bo‘sh pul mablag‘larini boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qarzga va kredit tashkilotlariga vaqtinchalik depozitga qo‘yishdan oladigan ustama haq sanaladi. Foiz ko‘rinishidagi daromadlar 9530 “Foiz ko‘rinishidagi daromadlar” schyotida hisobga olib boriladi. 9530-“Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar” schyotida uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar aks ettiriladi.

Foizlar hisoblanganida quyidagicha provodka beriladi:

Debet 4830-“Olinadigan foizlar”

Kredit 9530-“Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar”.

Misol. Aksiyadorlik jamiyati har birining nominal qiymati 100 ming so‘ m bo‘lgan 1 000 dona obligatsiya uchun 12 oy muddatga sarmoya joylashtirdi. Obligatsiyalar 110 ming so‘ m narxi bo‘yicha to‘liq joylashtirilgan. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 36 % (nominal qiymatdan)dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqtda qoplanishi nazarda tutilgan.

Debet 4830-“Olinadigan foizlar” 36 000 so‘m

Kredit 9530-“Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar” 36 000 so‘m

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qarz majburiyatlari bo‘yicha foizlar	4830	9530
2	Hisobot davri oxirida qarz majburiyatlari bo‘yicha foizlar ko‘rinishida olingan daromadlarni yakuniy moliyaviy natijani	9530	9910

hisobga oluvchi schyotga o'tkazildi		
-------------------------------------	--	--

9540-“Valyutalar kurslari farqidan daromadlar” schyotida valyuta schyotlari, shuningdek xorijiy valyuta muomalalari bo'yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar aks ettiriladi. 9540 “Valyutalar kurslari farqidan daromadlar” schyotida balansning valyuta moddalari bo'yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar aks ettiriladi. Chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs farqi, shu jumladan buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholash farqlari 9540 “Valyutalar kurslari farqidan daromadlar” schyotiga o'tkaziladi. Valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi muomalalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari. Chet el valyutasi bilan sodir bo'ladigan muomalalar 22-sonli BHMSga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra xo'jalik yurituvchi sub'ektlar har oyda balansning valyuta moddalarini hisobot oyining oxirgi kuniga va Markaziy bank kursi bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini sodir yetish sanasiga qayta baholashni amalga oshiradilar. Ushbu BHMSda qayta baholash va kurs farqini belgilash maqsadida balansning valyuta moddalariga quyidagilar kiritiladi:²⁶

a) kassadagi, bankning depozit va ssuda hisob raqamlaridagi valyuta mablag'lari, shu jumladan akkreditivlar;

b) chet yel valyutasidagi pul hujjatlari;

s) chet yel valyutasida ifodalangan qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar;

d) chet yel valyutasida ifodalangan debitorlik va kreditorlik qarzlari, kredit va zayomlar.

Valyuta schyotlari, shuningdek xorijiy; valyuta muomalalari bo'yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar 9540- “Kurs farqlaridan olingan daromadlar” schyotida hisobga olinadi.

²⁶ Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. 58-b.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan ijobiy kurs farqlari	Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar(5100, 5200, 5500), olinadigan schyotlar(4000, 4100,4200, 4300, 4600, 4700, 4800), majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar(6000-6900, 7000-7900) va boshqalar	9540
2	Hisobot davri oxirida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan ijobiy kurs farqlari ko'rinishida olingan daromadlarni yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o'tkazildi	9540	9910

9550-“Moliyaviy ijaradan daromadlar” schyotida mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromad aks yettiriladi.

Mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish). 6-sonli BHMSga muvofiq ijara quyidagilarga bo'linadi:

- a) lizing (moliyaviy ijara);
- b) uzoq muddatli ijara;
- s) operativ ijara.

Lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizingga oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq yevaziga yegalik qilish va foydalanish uchun lizingga oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak:

- a) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing objekti lizingga oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

b) lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kam bo'lsa;

s) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizingga oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda yevazini to'lab sotib olish huquqiga yega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyektini qiymati asos bo'ladi;

d) lizing shartnomasi amal qiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing obyektini qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

Uzoq muddatli ijarada - ijaraga beruvchi ijarachiga haq yevaziga mol-mulkni 12 oydan ko'p muddatga yegalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

Qisqa muddatli ijara ijaraga beruvchi ijarachiga haq yevaziga mol-mulkni 12 oydan kam muddatga yegalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

Lizingga beruvchining daromadi bu - lizing to'lovlari bilan lizing obyektini sotib olish, uni yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, lizingga beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida oladigan daromadidir

Mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar 9550- "Uzoq muddatli ijaradan olinadigan daromadlar" schyotida aks yettirilib boriladi. Mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olingan daromadlar 9550 "Moliyaviy ijaradan daromadlar" schyotining kreditida 4830 "Olinadigan foizlar", 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar", pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar va boshqa tegishli schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha hisoblangan foizlar summasi	4830	9550
2	Hisobot davri oxirida moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha hisoblangan foizlar	9550	9910

	ko‘rinishida olingan daromadlarni yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o‘tkazildi		
--	--	--	--

Qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va boshqalarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholash natijasida hosil bo‘lgan ijobiy farq bu qayta baholash natijasida olingan daromadlar sifatida tan olinadi. Qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar 9560 “Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar” schyotida hisobga olinadi.

Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar 9560 “Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar” schyotining kreditida uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar va qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholash (qiymatining oshirilishi)	0610, 5810	9560
2	Hisobot davri oxirida qimmatli qog‘ozlarni qayta baholash (qiymatining oshirilishi) olingan daromadlarni yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o‘tkazildi	9560	9910

Hisobot davri yakunida 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9590-hisobvaraqlarning kredit oborotidagi summalar yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkaziladi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni aks ettirish

Barchaga ma’lumki har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy faoliyat xarajatlari doimo vujudga keladi. Chunki, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati davomida turli hildagi moliyaviy sarflarni amlga oshirish orqali o‘z faoliyatini yuritadi. Korxonalar o‘z faoliyatini to‘la moliyalashtira olmay qolganda kredit resurslari uchun moliyaviy sektorga murojat qiladi. Bank institutlari esa so‘ralgan va kerakli pul mablag‘ini belgilangan foizlar olish tartibida iste’molchiga beradi. Misol uchun, olingan kredit, moliyaviy lizing yoki

qisqa va uzoq muddatli qarz uchun foizlar to‘lash va shu kabilar. Kredit va qisqa va uzoq muddatli qarz uchun foizlar korxonalarining moliyaviy faoliyatidagi sarflari bo‘lib ular yakuniy moliyaviy natijaga o‘z ta‘sirini sezilarli tarzda ko‘rsatishi mumkin. Shunig uchun ham korxonada hisob tizimida ushbu masala jiddiy tarzda ko‘rib chiqiladi va ilmiy asosda amalga oshiriladi.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar ham “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda batafsil belgilangan. Ushbu Nizomga muvofiq moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo‘yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo‘yicha foizlardan tashqari), shu jumladan, muddati o‘tgan va uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha foizlar.

2. Mol-mulkni moliyaviy ijaraga olish (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari.

3. Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar.

4. Sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar.

5. O‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar.

6. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobda aks yettirish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

9610-“Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar”;

9620-“Kurs farqlaridan zararlar”;

9630-“Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar”;

9690-“Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar”.

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo‘lib, aktiv hisobvaraqa tavsifiga yega. Ularning debet aylanmalari sodir bo‘lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit

oboroti yesa ularning hisobdan chiqarilishini ko'rsatadi.

9610 "Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar" schyotida Banklar, mol yetkazib beruvchilarning kreditlari va qarzarlar, uzoq muddatli ijara bo'yicha foizlar va boshqa foiz to'lovi xarajatlari aks ettiriladi.

To'lanadigan foizlar buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

19.3-jadval

Kredit foizlarini buxgalteriya yozuvlarida aks yettirilishi

T/r	Muomala mazmuni	Debet	Kredit
1.	Bank kreditidan foydalanilganligi uchun foiz hisoblandi	9610	6920
2.	Hisoblangan kredit foizi to'landi	6620	5110

Banklar, mol yetkazib beruvchilarning kreditlari va qarzarlar, moliyaviy ijara bo'yicha foizlar va boshqa foiz to'lovi xarajatlari 9610 "Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar" schyotining debetida 6920 "Hisoblangan foizlar" yoki pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

9620 "Valyutalar kurslari farqidan zararlar" schyotida salbiy kurs farqi va balansning valyuta moddalariga doir operatsiyalar (chet yel valyutasi operatsiyalari bo'yicha salbiy kurs farqlari, shu jumladan buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholashdan farq) bo'yicha zararlar aks yettiriladi. 9620 "Valyutalar kurslari farqidan zararlar" schyotida salbiy kurs farqi va balansning valyuta moddalariga doir operatsiyalar bo'yicha zararlar aks ettiriladi. Chet el valyutasi operatsiyalari bo'yicha salbiy kurs farqlari, shu jumladan buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholashdan farq 9620 "Valyutalar kurslari farqidan zararlar" schyotining debetida pul mablag'larini hisobga oluvchi schetlar, olinadigan schetlar va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Qayta baholash va kurs farqlarini aniqlash maqsadlarida balansning valyuta moddalariga quyidagilar kiritiladi:

- kassadagi, bankdagi depozit va ssuda schetlaridagi, shu jumladan akkreditivlardagi valyuta mablag'lari;
- chet el valyutasidagi pul hujjatlari;

- chet el valyutasida ifodalangan qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qogʻozlar;

- chet el valyutasida ifodalangan debitorlik va kreditorlik qarzarlar, kreditlar va qarzarlar. Korxonalarda moliyaviy faoliyat xarajatlari turli koʻrinishlarda yuzaga kelar yekan. Hozirgi kunda korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati oshib borishi bilan valyuta mablagʻlari bilan bogʻliq boʻlgan sarflar ham ahamiyatli tarzda yuzaga chiqmoqda. Korxonalar oʻz faoliyatini toʻla moliyalashtira olmay qolganda kredit resurslari uchun moliyaviy sektorga murojat qiladi. Bank institutlari yesa soʻralgan va kerakli pul mablagʻini belgilangan foizlar olish tartibida isteʼmolchiga beradi. Bu bilan bank oʻz faoliyatini amalga oshirmoqda hamda korxonalar iqtisodiy faoliyatiga koʻmak bermoqda. Oʻz navbatida korxonalar kredit tarzida berilgan mablagʻlardan samarali foydalanib, uning asosiy va foiz qismlarini oʻz vaqtida qaytarib beradi.

Agar operatsiyaning amalga oshirish sanasidan ushbu operatsiya boʻyicha yakuniy hisob-kitob sanasigacha boʻlgan davr ikki va undan koʻproq oylar yoki hisobot davrlari orasiga tushib qolsa, unda balansning valyuta moddalarini har oylik qayta baholashda yoki hisobot davrining oxirida qayta baholashda, kurs farqi har oylarning (hisobot davrining) yakunida amalga boʻlgan kurs boʻyicha, yoki shuningdek yuqorida taʼkidlangan operatsiya boʻyicha yakuniy hisob-kitoblar sanasida kurs farqi vujudga kelishi mumkin.

Valyutalar kurslari farqidan zararlarga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 9620 “Valyutalar kurslari farqidan zararlar”

Kredit Pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlar va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar.

T/r	Xoʻjalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bogʻlanishi	
		Debet	Kredit
1	Balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan salbiy kurs farqlari	9620 “Valyutalar kurslari farqidan zararlar”	Pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar(5100, 5200, 5500), olinadigan

			schyotlar(4000, 4100,4200, 4300, 4600, 4700, 4800), majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar(6000-6900, 7000-7900) va boshqalar
2	Hisobot davri oxirida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan salbiy kurs farqlari bo'yicha xarajatlar yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o'tkazildi	9910	9620

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar 9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlari" schyotining debetida majburiyatlar va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi

9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlari" schyotida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar aks yettiriladi..

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlariga qo'yidagicha provodka beriladi:

Debet 9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlari"

Kredit Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha sarflangan xarajatlar	9630	Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar(5100, 5200, 5500), olinadigan

			schyotlar(4000, 4100,4200, 4300, 4600, 4700, 4800), majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar(6000-6900, 7000-7900)
2	Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash (qiymatining kamaytirilishi) natijasida ko'rilgan zararlar va h.k.	9690	0610-0690, 5810-5890
3	Hisobot davri oxirida moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o'tkazildi	9910	9610-9690

9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" schyotida moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar aks yettiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlarga qo'yidagicha provodka beriladi:

Debet 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar"

Kredit 0600 "Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar" ,
5800 "Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar".

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash (qiymatining kamaytirilishi) natijasida ko'rilgan zararlar va h.k.	9690	0610-0690, 5810-5890
2	Hisobot davri oxirida moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotga o'tkazildi	9910	9610-9690

Korxonalarda moliyaviy faoliyat xarajatlari turli ko'rinishlarda yuzaga kelar yekan. Hozirgi kunda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati oshib borishi bilan valyuta mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan sarflar ham ahamiyatli tarzda yuzaga

chiqmoqda. Misol uchun, balansning valyuta moddalarini Markaziy bankning kursi boʻyicha qayta baholash muomalalari.

19.6.Favqulodda foyda va zararlar hisobi.

Favqulodda foyda moddalari - bu koʻzda tutilmagan, tasodifiy tusga ega boʻlgan, hodisa yoki xoʻjalik yurituvchi subʼektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tUSDagi muomalalar natijasida paydo boʻladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar boʻlimida aks ettirilishi kerak boʻlgan oʻtgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda zararlar - bu xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va roʻy berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlardir. Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak boʻlgan oʻtgan davr xarajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda foyda va zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xoʻjalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bogʻliq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik toʻgʻrisida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xoʻjalik yurituvchi subʼekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan boʻlsa, u holda - iqlim sharoitlariga bogʻliq holdagi ishlamay turib kolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

Favqulodda foyda va zararlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9710-«Favqulodda foyda»

9720-«Favqulodda zarar».

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo‘lib, 9710-hisobvaraq-passiv, 9720-hisobvaraq-aktiv xarakterga ega.

19.4-jadval

9700-«Favqulodda foyda va zararlar» hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
		debet	kredit
1.	Tabiiy ofatlar natijasida jihozlar va materiallar ortiqchaligining aniqlanishi	0710-0720, 0810-0890, 1010-1090	9710
2.	Tabiiy ofatlar natijasida tovarlar ortiqchaligining aniqlanishi	2910	9710
3.	Tabiiy ofatlar natijasida jihozlar va materiallar kamomadining aniqlanishi	9720	0710- 0720, 0810- 0820, 1010- 1090
4.	Tabiiy ofatlar bo‘yicha xarajatlarning to‘lanishi	9720	5010, 5110, 5210
5.	Hisobot davri oxirida favqulodda foydaning yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazilishi	9710	9900
6.	Hisobot davri oxirida favqulodda zararining yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazilishi	9900	9720

19.7. Soliq to‘lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish.

Soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

**Soliq to'languncha
olingan foyda**

$$\text{STF}=\text{UF}+\text{FP}-\text{FZ}$$

STF-soliq to'languncha olingan foyda

FP- favqulodda vaziyatlardan olingan foyda

FZ- favqulodda vaziyatlardan olingan zarar

19.9-rasm. Soliq to'languncha olingan foyda

Favqulodda foyda va zararlar - bu korxonaning xo'jalik faoliyatida nihoyatda kam sodir bo'ladigan, uning uchun odat bo'lmagan va korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijasi bilan bog'liq bo'lmagan voqealardan olinadigan daromad va xarajatlardir. Korxonalarining xo'jalik faoliyatiga shunday voqealar sodir bo'lishi mumkinki, ular faqat odatdagidek emas yoki faqat oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea. Masalan, xorijiy valyuta muomalalaridan olingan foyda yoki zararlarni oldindan ko'rib bo'lmaydi, lekin bu favqulodda emas, chunki valyuta kursining barqaror emaslik sharoitida bu odatdagi foyda va zarar hisoblanadi. Demak, quyidagi moddalar favqulodda foyda va zararlarga kiritilmaydi: dargumon debitor qarzlarni hisobdan chiqarilishi yoki shu maqsad uchun tashkil qilingan rezerv; valyuta muomalalaridan yoki kurslar farqidan olingan daromad yoki yo'qotishlar; narxlardagi tuzatishlar; aktivlar qiymatini qaytadan baholashdan olingan natija, soliq summalari bo'yicha tuzatishlar; oldingi yillar foydasi yoki zarari.

Xorijiy amaliyotda favqulodda zararlarga quyidagilar kiritiladi: tabiiy ofatlardan ko'rilgan yirik yo'qotishlar; siyosiy voqealar, masalan, urush, inqiloblar natijasida yo'qotishlar; mazkur davlatning qonuniyatchiligidagi o'zgarishlar,

natsionalizatsiya qilish, ma'lum bir faoliyatni taqiqlash va boshqalar natijasidagi yo'qotishlar. Shuni ham aytish kerakki, tegishli modda favqulodda holatga to'g'ri kelishi va kelmasligiga korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan tashqi muhit ham ta'sir qiladi. Masalan, kartoshkani qator orasiga ishlov beradigan va gulga kirgan paytda sovuqdan nobud bo'lish holati janubiy viloyatlar uchun favqulodda holat, chunki u yerlarda aprel - may oylarida g'o'zani kartoshkani urib ketishi yaqin orada takrorlanmaydigan favqulodda holat bo'lsa, shimoliy viloyatlar uchun buni odatdagi holat deb ta'riflash mumkin.

Favqulodda foyda moddalari - bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, xodisa yoki xo'jalik yurituvchi subektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdagi muomalalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir.

Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi xodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlardir.

Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr xarajatlari kirmaydi.

Favqulodda foyda va zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim.

Favqulodda voqealar sodir bo'lganda bu voqealardan olingan foyda va zararlar quyidagi schetlarda hisobga olinadi:

9710 «Favquloddagi foyda»

9720 «Favquloddagi zarar»

Bular tranzit schetlar bo'lib 9710- passiv, 9720- aktiv schetlariga mansubdir.

Favqulodda voqealardan olingan daromadlar summasiga 9710 «Favquloddagi foyda» scheti kreditlanib turli schetlar debetlanadi. Sodir bo'lgan zarar summasiga esa 9720 «Favquloddagi zarar» scheti debetlanib turli schetlar kreditlanadi.

Bu schetlarning debet va kredit oborotlari hisobot davri oxirida o'uyidagi provodkalar bilan yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

Favqulodda voqealardan olingan foyda summasiga-

D-t 9710 «Favquloddagi foyda»

K-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija».

Favo'ulodda voqealardan sodir bo'lgan zarar summasiga-

D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9720 «Favquloddagi zarar».

Odatda korxonada faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi yil oxirida anio'lanadi. Buning uchun korxonada buxgalteriyasida 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" scheti ochiladi. Bu schet hisobot yilida korxonada faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini shakllanishi to'grisidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan.

Har bir hisobot davrining oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schetining debet va kredit tomonlari ko'rsatkichlari jamlanib bu schetning umumiy saldosi hisoblab chiqariladi. Hisoblab topilgan saldo hisobot davrida soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan umumiy balans foydasi (yoki zarari) ni ko'rsatadi.

Hisobot yilining oxirida 9810 «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820 «Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schetlarida

foyda (daromad) dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Yillik hisobotni tuzishda oxirgi buxgalteriya o'tkazmalari bilan hisoblangan soliq va yig'imlar summasi, ilgari aytilganidek, quyidagi hisobdan chiqariladi: Dt 9910-«Yakuniy moliyaviy natija», Kt 9810-«Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar» yoki Kt9820-«Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schetlari.

9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schetida qolgan sof foyda (yoki zarar) summasi quyidagi yozuv bilan taqsimlanmagan foydaga o'tkaziladi:

Sof foyda summasiga - Dt 9910 «Yakuniy moliyaviy natija», Kt 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)». Zarar summasiga esa, Dt 8710, Kt 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» scheti.

19.8. Sof foyda va uning ishlatilishini hisobda aks ettirish.

Yakuniy moliyaviy natija - bu korxonaning hisobot davrida jami faoliyat turlaridan olingan daromadlari bilan jami faoliyat bo'yicha ko'rilgan zararlarining farqidir.

Odatda korxonada faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi yil oxirida aniqlanadi. Buning uchun korxonada buxgalteriyasida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» scheti ochiladi. Yakuniy moliyaviy natija buxgalteriya hisobida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida hisobga olib boriladi.

Bu schet hisobot yilida korxonada faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini shakllanishi to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun tayinlangan. Ushbu hisobvaraqa tranzit bo'lib, aktiv-passiv hisobvaraqa xarakteriga ega. Hisobvaraqaqning debetida zararlar, kreditida esa foyda aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqaqning debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, ya'ni sof foydasini yoki zararini aks ettiradi. Har bir hisobot davrining oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schetining debet va kredit tomonlari ko'rsatkichlari jamlanib bu schetning umumiy saldosi hisoblab chiqariladi. Hisoblab topilgan

saldo hisobot davrida soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan umumiy balans foydasi (yoki zarari)ni ko'rsatadi.

Hisobot yilining oxirida 9810 « Daromad (foyda) soliqi bo'yicha xarajatlar » va 9820 «Yig'imlar va boshqa majburiy ajratmalar bo'yicha xarajatlar» schetlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Yillik hisobotni tuzishda xotima provodkalar bilan hisoblangan soliq va yig'imlar summasi o'uyidagi provodka bilan hisobdan chiqariladi:

D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9810 «Daromad (foyda) soliqi bo'yicha xarajatlar»

K-t 9820 «Yig'imlar va boshqa majburiy ajratmalar bo'yicha xarajatlar»

Yilning sof foydasi, soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoladi, u soliqlar to'langunga qadar olingan foydadan minus foydadan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

Sog foyda

SF=STF-DS-BS

SF- sof foyda

DS- foydadan no'lanadigan soliq

BS- boshqa soliqlar va to'lovlar

19.10-rasm. Sof foyda.

Foydadan to'lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlarning hisobini yuritish maqsadida 21-BHMSga asosan 9800 “Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar”dan foydalaniladi. Hisobot davri davomida moliyaviy hisobot tuzishga qadar kutulayotgan foyda oldindan ishlatilib boriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yil davomida budjet oldidagi majburiyatlarni bajarish maqsadida belgilangan stavkalar doirasida foyda (daromad)dan ishlatiladi.

Yil davomi(hisobot davrida)da budjetga daromad (foyda) dan ajratmalar bo'yicha bo'nak to'lovlar va haqiqiy foydadan qaytadan hisoblash bo'yicha to'lovlar quyidagi schetlarda hisobga olinadi:

9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» va

9820-«Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xarajatlar» scheti. Bular tranzit schetlar bo'lib kontrpassiv schetlariga mansubdir.

Yil davomida budjetga foydadan soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisoblangan to'lovlar 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar", 9820 "Foydadan hisoblanadigan boshqa soliq va yig'imlar bo'yicha xarajatlar" schyotining debetida budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni (turlari bo'yicha) hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Ushbu schetlarning debet oborotlari yil davomida daromad (foyda) dan budjetga ajratma bo'yicha to'lanmalar summasini ko'rsatadi. Hisobot davri oxirida yillik hisobotini tuzishda bu schetlar yopiladi va ularda yil boshiga qoldiq qolmaydi.

Foyda (daromad) dan ajratiladigan soliqlarni hisoblash va to'lash qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Yil davomida budjetga foydadan ajratma, yig'im va boshqa ajratmalar hisoblanganda 9810 va 9820 schetlari debetlanib 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» scheti kreditlanadi. Ushbu foydadan olinadigan soliq, ajratmalar va boshqa to'lovlar budjetga o'tkazib berilganda 6410- schet debetlanib, pul mablag'larini hisobga oladigan schetlar kreditlanadi.

Hisobot yili oxirida bu schet quyidagi yopiladi: Dt 9910 «Yakuniy moliyaviy natija», Kt 9810, 9820 - schetlar.

Foydadan olinadigan soliq, ajratmalar, yig'im va boshqa to'lovlarni hisobga oladigan 9810 va 9820 - schetlarning sintetik va analitik hisoblari bankning hisob -

kitob schetidan berilgan ko'chirmasiga va boshqa hujjatlarga asosan 15 - jurnal - orderda yuritiladi.

Hisobot yilining oxirida 9810-«Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820-«Boshqa soliq va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yig'imlar summasi quyidagi provodka orqali chegirib tashlanadi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9810, 9820.

Ushbu muomaladan so'ng 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida qolgan summa korxonaning hisobot yilida olgan sof foyda (yoki zarar)ini anglatadi va ushbu summa quyidagi provodka orqali 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» hisobvarag'iga o'tkaziladi:

- sof foyda summasiga:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

- zarar summasiga:

D-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija».

9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schetida kolgan sof foyda (yoki zarar) summasi quyidagi provodka bilan taqsimlanmagan foydaga o'tkaziladi:

Sof foyda summasiga –

D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»,

K-t 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”.

Zarar summasiga –

D-t 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”

K-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» scheti.

Korxonada faoliyatining boshidan yigʻib kelingan va hisobot davrida sodir boʻlgan mavjud taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar summasining xarakati toʻgʻrisidagi axborotlar quyidagi schetlarda hisobga olinadi:

8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

8720 «Jamgʻarilgan foyda (qoplanmagan zarar)»

Bu schetlar nazariy jihatdan passivdir, lekin amaliyotda 8710- schet debet qoldiqqa (saldoga) ham ega boʻlishi mumkin, yaʼni korxonada hisobot davrini zarar bilan yakunlashi ham mumkin. 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schetida korxonaning hisobot yili boʻyicha taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobga olinadi. Dividendlar va mulkdorlar qaroriga binoan boshqa ajratmalar qilingandan soʻng hisobot yilining taqimlanmagan foydasi 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schetidan 8720 «Jamgʻarilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schetiga oʻtkaziladi.

Jamgʻarilgan foyda - bu har qanday zararlar, dividendlar va mulkdorlar qarori boʻyicha hususiy kapitalga reinvestitsiya qilingan summalar chiqarilib tashlangandan qolgan xoʻjalik yurituvchi subʼektning faoliyatini boshidan boshlab olgan sof foydasidir.

Yuqorida takidlanganidek, 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» scheti, agar xoʻjalik faoliyatidan olingan foydasidan zararlar va toʻlangan dividendlari koʻp boʻlsa, debet saldoga ham ega boʻlishi mumkin. Bunday hollarda zarar summasi quyidagi provodka bilan jamgʻarilgan foydani kamaytirishga oʻtkaziladi:

D-t 8720 «Jamgʻarilgan foyda (qoplanmagan zarar)»

K-t 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)».

Taqsimlanmagan foyda — sof foydaning aksiyadorlar (ishtirokchilar) tomonidan taqsimlanmagan va tashkilotning ixtiyorida qolgan qismidir. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va oʻtgan yillar jamgʻarilgan foydasi (qoplanmagan zarar) bir-biridan farq qiladi.

Taksimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar hisobi quyidagi schyotlarda yuritiladi:

8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”;

8720-“Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)”.

Korxonada sof foydasini taqsimlash tartibini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kuzatish mumkin:

- taqsimlanadigan qism;
- reinvestitsiya;
- jamg‘arma qismi.

Foydani taqsimlash to‘g‘risidagi qarorni korxonaning mulkdorlari qabul qiladi. Odatda bunday qaror hisobot yilidan keyingi yilning boshida qabul qilinadi.

Taqsimlanmagan foydadan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- korxonada aksiyadorlari (ishtirokchilari)ga dividendlar to‘lashga;
- rezerv kapitalini barpo yetish va to‘ldirishga;
- zararlarni qoplashga;
- mulkdorlarning qaroriga ko‘ra boshqa maqsadlarda.

ishlab chiqarish korxonalari va qo‘shma korxonalarda foyda taqsimotining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular boshqa korxonalardan farqli o‘laroq, zaxira fondlari tashkil qilishlari lozim.


O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunining 34-moddasida belgilanganidek, ushbu fond: “ustav kapitali hajmining 15% dan kam bo‘lmagan miqdorda tashkil qilinadi.

U har yilgi sof foydadan kamida 5% ini belgilangan miqdorga yetmaguncha ajratmalar hisoblash ko‘rinishida shakllanadi va xo‘jalik faoliyatida vujudga kelgan zararni qoplash, jamiyat obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va ushbu Qonunga muvofiq, aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo‘ljallanadi.

Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas”. Bu ajratmalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(zarari)”

K-t 8520– “Rezerv kapitali”.



19.11-rasm. Korxonalarda foydani taqsimlash yo‘nalishlari

Aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi korxonalar ixtiyorida qolgan sof foydaning taqsimlanadigan qismi, avvalo, foyda hisobidan to‘lanadigan majburiyatlarga, xususan muomaladagi aksiyalarga dividendlar to‘lashga sarflanadi. Foydani taqsimlash to‘g‘risidagi qarorni korxonaning mulkdorlari qabul qiladi. Odatda bunday qaror hisobot yilidan keyingi yilning boshida qabul qilinadi.

Aksiyadorlar o‘rtasidagi taqsimlanishi lozim bo‘lgan majburiy to‘lovlar va barcha soliqlar to‘langandan keyin korxonada qoladigan foydaning bir qismi dividend hisoblanadi. Odatda dividendlar hisobot yili yakunlari bo‘yicha hisoblanadi. Biroq har chorakda va yarim yilda bir marta, agar bu jamiyat ustavida

ta'qiqlanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Yillik dividendlarni to'lash sanasi aksiyadorlik jamiyati ustavida yoki aksiyadorlar yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Korxonalar raxbariyati tomonidan dividendlarni to'lash e'lon qilinganidan so'ng, agar ular kelgusi yil uchun to'lanadigan bo'lsa, joriy majburiyatlar sifatida hisobda aks ettiriladi.

Dividendlar:

- pul mablag'lari;
- aksiyalar;
- boshqa mol-mulk bilan to'lanishi mumkin.

Dividendlarni pul mablag'lari bilan to'lashda pul mablag'lari va majburiyatlarni qayta taqsimlash sodir buladi. Hisoblab yozilgan dividendlardan soliq dividendlarning to'lov manbaida, ya'ni aksiyadorlik jamiyati yoki MChJ tomonidan ushlab qolinadi va budjetga to'lanadi.

Ana shunday jarayonlar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (zarari)”

K-t 6610 – “To'lanadigan dividendlar”

Taqsimlangan foydadan dividendlar hisoblansa 8710-schet debetlanib 6610- «To'lanadigan dividendlar» scheti kreditlanadi.

Dividendlar to'langanda 6610 «To'lanadigan dividendlar» scheti debetlanib quyidagi schetlar kreditlanadi:

Kredit 5010, 5110, 5210- schetlar - pul mablag'lari bilan to'lansa;

Kredit 9010 «Tayyor mahsulot sotishdan olingan daromadlar» scheti sotish bahosida ishlab chiqarilgan mahsulot bilan to'lansa. Shu bilan birga natura shaklida to'langan mahsulotning haqiqiy tannarxiga 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» scheti debetlanib 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» scheti kreditlanadi.

Kredit 4610 «Ustav kapitali (fondi)ga badallari bo'yicha ta'sischi'larning qarzi» scheti - dividendlar aksiyalar bilan to'lansa.

9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schetining sintetik va analitik hisobi 15-jurnal - orderida yuritiladi. Bu jurnal orderga yozish uchun asos boʻlib buxgalteriyaning maʼlumotnomasi, bankning hisob - kitob scheti va boshqa schetlardan bergan koʻchirmasi va boshqa hujjatlar hisoblanadi.

Sof foydaning jamgʻarma qismi aksiyadorlar umumiy yigʻini qaroriga binoan maxsus jamgʻarmalar va zaxiralar tashkil qilishga yoʻnaltiriladi. Taqsimlanmagan foydadan rezerv kapitalini shakllantirish uchun ajratiladi. Bunda quyidagicha provodka beriladi:

D-t 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

K-t 8520 «Rezerv kapitali».

Aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi korxonalar va qoʻshma korxonalarda foyda taqsimotining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular boshqa korxonalardan farqli oʻlaroq, rezerv kapitalini tashkil qilishlari lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunining 34-moddasida belgilanganidek, ushbu fond: “ustav kapitali hajmining 15% dan kam boʻlmagan miqdorda tashkil qilinadi.

U har yilgi sof foydadan kamida 5% ini belgilangan miqdorga yetmaguncha ajratmalar hisoblash koʻrinishida shakllanadi va xoʻjalik faoliyatida vujudga kelgan zararni qoplash, jamiyat obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividendlar toʻlash va ushbu Qonunga muvofiq, aksiyalarni sotib olish huquqiga ega boʻlgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun moʻljallanadi.

Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas”. Bu ajratmalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (zarari)”

K-t 8520– “Rezerv kapitali”.

9900-“Yakuniy moliyaviy natija” hisobvaragʻining debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, yaʼni soliq toʻlangunga qadar

boʻlgan foydasidan soliqlarni ayirgandan keyingi summani aks yettiradi. Hisobot yilining oxirida 9810-“Foyda soligʻi boʻyicha xarajatlar”, 9820-“Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha xarajatlar” hisobvaraklarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks yettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yigʻimlar summasi quyidagi buxgalteriya oʻtkazmasi orqali chegirib tashlanadi:

D-t 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9810-“Foyda soligʻi boʻyicha xarajatlar”

D-t 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9820-“Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha xarajatlar”.

Hisobot yilining yakunlari boʻyicha korxonada foyda olsa, yaʼni 9910-schyotning kredit tomonidagi qoldiq (saldo), faoliyati zarar bilan chiqsa, 9910-schyotning debet tomonidagi qoldiq (saldo) qoladi.

Foydani taqsimlash toʻgʻrisidagi qarorni korxonaning mulkdorlari qabul qiladi. Odatda bunday qaror hisobot yilidan keyingi yilning boshida qabul qilinadi. Aksiyadorlar oʻrtasidagi taqsimlanishi lozim boʻlgan majburiy toʻlovlar va barcha soliqlar toʻlangandan keyin korxonada qoladigan foydaning bir qismi dividend hisoblanadi. Odatda dividendlar hisobot yili yakunlari boʻyicha hisoblanadi. Biroq har chorakda va yarim yilda bir marta, agar bu jamiyat ustavida taʼqiqlanmagan boʻlsa, joylashtirilgan aksiyalar boʻyicha dividendlar toʻlash toʻgʻrisida qaror qabul qilishga haqli. Yillik dividendlarni toʻlash sanasi aksiyadorlik jamiyati ustavida yoki aksiyadorlar yigʻilishi qarori bilan belgilanadi.

Dividendlarni pul mablagʻlari bilan toʻlashda pul mablagʻlari va majburiyatlarni qayta taqsimlash sodir buladi. Hisoblab yozilgan dividendlardan soliq dividendlarning toʻlov manbaida, yaʼni aksiyadorlik jamiyati yoki MChJ tomonidan ushlab qolinadi va budjetga toʻlanadi.

Aksiyalar koʻrinishidagi dividendlar kapitallashtirishda taqsimlanmagan foyda sifatida ifodalanuvchi, aksiyadorlar uchun qoʻshimcha aksiyalar chiqarishdir.

Misol 150000 soʻmlik nominal qiymatdagi 20000 dona aksiyaga ega aksiyadorlik jamiyati amaldagi 4% miqdorida aksiyalar koʻrinishidagi dividendlar toʻlovi xaqida eʼlon qiladi.

Ushbu davrda aksiyalarning bozor qiymati – 550(170000) soʻm:

Nominal qiymati 500(150000) soʻmlik 20000 dona aksiya oddiy aksiyalar - 5000000(3000 000 000);

yaʼni, Ustav kapitali – 3 000 000 000

Emission daromad – 400 000 000 soʻm;

Taqsimlanmagan foyda -5 696 550 000 soʻm;

Jami xususiy kapital – 9 096 550 000 soʻm.

Qaror: dividendlar toʻlash uchun yangi aksiyalar chiqarildi -4% (20000 dona=800 dona)

Kichik miqdorda aksiyalar chiqarilgani uchun ular bozor baxosida, yaʼni 550 (170000) soʻmdan hisobga olinishi lozim.

Chiqarilgan aksiyalarning bozor qiymati - 550(170000) soʻm (800 ta aksiyaning nominal qiymati $(800*150000)=120\,000\,000$ soʻmni tashkil etgan, bozor qiymatidan farqi $(800*20000) =16\,000\,000$ soʻmni tashkil etib, bu esa emission daromad hisoblanadi)

Ushbu muomilalarga quyidagicha buxgalteriya yozuv qilinadi:

Hisoblab yozish paytida:

Debet-8710 "Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) – 136 000 000 soʻm.

Kredit-6610 "Toʻlov uchun dividendlar" -136 000 000 soʻm.

Aksiyalar bilan toʻlash paytida:

Debet-6610 "Toʻlov uchun dividendlar" -136 000 000 soʻm.

Kredit-8310 "Oddiy aksiyalar" - 120 000 000 soʻm

Kredit-8410 "Emission daromad" - 16 000 000 soʻm

Dividendlar aksiyalar bilan toʻlanganidan keyin xususiy kapital quyidagi koʻrinishga ega boʻladi.

- Nominal qiymati 150000 soʻmlik 20800 dona oddiy aksiya - 3120 000 000 soʻm; yaʼni:

- Ustav kapitali -3120 000 000 soʻm;
- Emission daromad - 416 000 000 soʻm;
- Taqsimlanmagan foyda – 5 560 550 soʻm.
- Jami xususiy kapital – 9 096 550 000 soʻm.

Aksiyalar bilan dividendlar toʻlanganda aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari yoki aktivlarida oʻzgarish yuz bermaydi, chunki dividendlar pul mablagʻlari koʻrinishida toʻlanadigan xolatdagi kabi korxonalar mablagʻlari taqsimlanmaydi. Yaʼni dividendlar aksiyalar bilan toʻlanganida xususiy kapital hajmi oʻzgarmaydi, faqat uning tuzulmasi oʻzgaradi. Bundan tashqari, aksiyalar koʻrinishida olingan dividendlar jismoniy shaxslarda soliqqa tortishdan ozod qilinadi.

Misol. “Guliston” MChJ 5 696 550 ming soʻm sof foyda koʻrdi. Foydani taqsimlash toʻgʻrisidagi qarorni korxonalar mulkdorlarining umumiy yigʻilishida qabul qilingan. Umumiy yigʻilishida qabul qilingan qarorga binoan foydaning 42,5% dividendlar tarzida toʻlanishi belgilangan. Demak, hisob yilida olingan foydaning 2 421 033,75 ming soʻmi dividendlar tarzida toʻlanadi. Taqsimlanmagan foydadan dividendlar tarzida toʻlovlar hisoblanganda quyidagicha provodka beriladi:

D-t 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (zarari)”- 2 421 033,75 ming soʻm

K-t 6610 – “Toʻlanadigan dividendlar”-2 421 033,75 ming soʻm

8520 “Rezerv kapitali (fondi)” schyoti korxonalar tomonidan taʼsis hujjatlari va Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etiladi. Rezerv kapitali aksiyadorlik jamiyatlari, qoʻshma korxonalar va Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida hamda taʼsis hujjatlarida rezerv kapitalini shakllantirish koʻzda tutilgan boshqa xoʻjalik yuriguvchi subʼektlar tomonidan shakllantiradi.

Misol. “Guliston” MChJ 5 696 550 ming so‘m sof foyda ko‘rdi. Foydani taqsimlash to‘g‘risidagi qarorni korxonada mulkdorlarining umumiy yig‘ilishida qabul qilingan. Korxonaning Nizomi va umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorga binoan foydaning 12,5% rezerv kapitali (fondi)ga zahira sifatida shakllantirish belgilangan. Demak, hisob yilida olingan foydaning 712 068,75 ming so‘mi rezerv kapitali (fondi)ga ajratiladi. Taqsimlanmagan foyda summasidan qonunchilikda belgilangan tartibda rezerv kapitalini (fondini) shakllantirish uchun foydalanish mumkin, bunda taqsimlanmagan foydadan rezerv kapitalini shakllantirish uchun ajratilganda quyidagicha provodka beriladi:

Debet 8710 “Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)” schyoti -712 068,75 ming so‘m

Kredit 8520 “Rezerv kapitali (fondi)” schyoti -712 068,75 ming so‘m

19.5- jadval

Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatish aks ettirishi

Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatish aks yettiriladi		
	debet	kredit
Korxonada rezerv kapitalini shakllantirish aks ettiriladi	8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”	8520-“Rezerv kapitali (fondi)”
Rezerv kapitali mablag‘lari hisobdan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash aks ettiriladi	8520-“Rezerv kapitali (fondi)”	6610-“To‘lanadigan dividendlar”
Korxonada tugatilganda turli debitorlarning qarzlarni hisobdan chiqarish aks yettiriladi	8520-“Rezerv kapitali (fondi)”	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”

Korxonalar muassislari (ishtirokchilari) hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltirish to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin.

Misol. "Guliston" MChJ 5 696 550 ming so'm sof foyda ko'rdi. Foydani taqsimlash to'g'risidagi qarorni korxonalar mulkdorlarining umumiy yig'ilishida qabul qilingan. Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risida yozuv o'zgartirish belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi. Ustav kapitalini hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi hisobidan ko'paytirish aks ettiriladi.

Korxonaning Nizomi va umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorga binoan foydaning 22,0% Ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltirish va Ustav kapitalini yangitdan shakllantirish belgilangan. Demak, hisob yilida olingan foydaning 1 253 241 ming so'mi rezerv kapitali (fondi)ga ajratiladi.

Debet 8710-"Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" -1 253 241 ming so'm

Kredit 8300-"Ustav kapitali"- 1 253 241 ming so'm

O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini ustav kapitalini oshirishga yo'naltirishda aksiyadorlar qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki aksiyalariiiig nominal qiymatiii ko'paytirish tarzida olgan daromadlari soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi.

Bunday vaziyatda hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi kapitallashtiriladi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 8720-"Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)"

Kredit 8300-"Ustav kapitali"-

Jamg'arilgan foyda - bu har qanday zararlar, dividendlar va mulkdorlar qarori bo'yicha hususiy kapitalga reinvestitsiya qilingan summalar chiqarilib tashlangandan qolgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatini boshidan boshlab olgan sof foydasidir. 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schetida korxonaning hisobot yili bo'yicha taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobga olinadi.

Misol. Dastlabki ma'lumotlar:

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt 2020 yilda quyidagi tarkibdagi daromad va xarajatlarni tan olingan. Korxonada hisobot yilining yakunlari bo'yicha moliyaviy natija va sof foyda aniqlangan.

(Foyda solig'i stavkasi 15 foiz. Soliqqa tortiladigan bazaga qaytarilib qo'shiladigan 800 000 ming so'mlik boshqa operatsion xarajatlar uchun sarflangan xarajatlar aniqlangan).

		Daromad (mingso'mda)	Xarajat (mingso'mda)
1	9000 - Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar;	34 000 000	
	9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar"	28 000 000	
	9020 "Tovarlarni sotishdan daromadlar"	4 000 000	
	9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar"	2000 000	
2	9100 - Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar		25 000 000
	9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi"		21 000 000
	9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi"		3000000
	9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi"		1000000
3	9300 - Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar	1933000	
	9310 "Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda"	300 000	
	9320 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda";	150 000	
	9330 "Undirilgan jarima, penya va ustamalar"	145 000	
	9340 "O'tgan yillar foydalari"	0,0	
	9350 "Operativ ijaradan daromadlar"	78 000	
	9360 "Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar"	60000	
	9370 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari"	500 000	
	9380 "Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam"	500 000	
	9390 "Boshqa operatsion daromadlar".	200 000	
4	9400 - Davr xarajatlarini hisobga oluvchi		4 050 000

	schyotlar		
	9410 “Sotish xarajatlari”		650 000
	9420 “Ma’muriy xarajatlar”		2 000 000
	9430 “Boshqa operatsion xarajatlar”		1 400 000
5	9500 - Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar	870 000	
	9510 “Royalti ko‘rinishidagi daromadlar”	50 000	
	9520 “Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar”	200 000	
	9530 “Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar”	100000	
	9540 “Valyutalar kurslari farqidan daromadlar”	70 000	
	9550 “Moliyaviy ijaradan daromadlar”	200 000	
	9560 “Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar”	150 000	
	9590 “Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari”.	100 000	
6	9600 - Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		910 000
	9610 “Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar”		570 000
	9620 “Valyutalar kurslari farqidan zararlar”		60 000
	9630 “Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar”		00
	9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar”.		280 000
7	9700 - Favquloddagi foyda (zarar)larni hisobga oluvchi schyotlar		
	9710 “Favquloddagi foydalar”	00	
	9720 “Favquloddagi zararlar”.		00
8		6 843 000	
	9800 - Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar		
	9810 “Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar”		1146 450
	9820 “Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha xarajatlar”.		0,0
9	9900 - Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar. sof foyda (yoki zarar)	5 696 550	

Yakuniy moliyaviy natija - bu korxonaning hisobot davrida jami faoliyat turlaridan olingan daromadlari bilan jami faoliyat bo'yicha ko'rilgan zararlarining farqidir.

Yakuniy moliyaviy natija buxgalteriya hisobida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo'lib, aktiv-passiv hisobvaraqlar xarakteriga ega. Hisobvaraqlarning debetida zararlar, kreditida esa foyda aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlarning debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, ya'ni soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasini aks ettiradi. Hisobot yilining oxirida 9810-«Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820-«Bosho'a solio' va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yig'imlar summasi quyidagi provodka orqali chegirib tashlanadi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9810, 9820.

Ushbu muomaladan so'ng 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida qolgan summa korxonaning hisobot yilida olgan sof foyda (yoki zarar)ini anglatadi va ushbu summa quyidagi provodka orqali 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» hisobvarag'iga o'tkaziladi:

- sof foyda summasiga:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

- zarar summasiga:

D-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija».

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlari, mohiyati va ularning turkumlanishini izohlab bering.
2. Daromod va xarajatlarni tan olish, ularning tarkibining turkumlanishini izohlab bering.
3. Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatning tannarxini hisobga olishni tushuntirib bering.
4. Davr xarajatlari, ularni turkumlash va tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
5. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish xarajatlarining tarkibi va tuzilishini tushuntirib bering.
6. Ma‘muriy va boshqaruv xarajatlarini hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
7. Daromadlar, ularning mohiyati, turkumlanishi va kelish yo‘llarini tushuntiring.
8. Xarajatlarning mohiyati, uni turkumlanishi va xarajatlarga o‘tkazish yo‘llarini tushuntiring.
9. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
10. Daromadlarni tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?
11. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani aniqlash, tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?
12. Asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlash, tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?
13. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydani aniqlash, tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?
14. Soliq to‘lagungacha olingan foydani aniqlash, tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?
15. Sof foydani aniqlash, tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?

20-BOB. HISOBOTLARNI TUZISH VA TAQDIM ETISH.

20.1. Moliyaviy hisobot va uning tarkibi. Oraliq moliyaviy hisobotlar.

20.2. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi (inventarizatsiya).

20.3. Moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar.

20.4. Buxgalteriya balansi va uni tuzish tartibi.

20.5. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

20.6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va uni tuzish usullari.

20.7. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

20.8. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izohlar.

Tayanch so'z va iboralar: hisobot, axborotidan foydalanuvchilar, moliyaviy hisobotlar, davriy hisobot, yillik moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot elementlari, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, rezervlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar, baholash, tayyorgarlik ko'rish, inventarizatsiya, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, soliq va statistik hisobotlar

20.1. Moliyaviy hisobot va uning tarkibi. Oraliq moliyaviy hisobotlar.

Buxgalteriya hisobining eng muhim vazifasi xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun ahborotni shakllantirishdan iborat. Buxgalteriya hisobi muayyan hujjatlar va hisob registrlari ma'lumotlari asosida kundalik axborotlarni yig'adi va tezkor hisobotlarni tuzishni amalga oshiradi. Lekin oy, chorak va yil davomida xo'jalik faoliyatini yakunini bilish uchun bu ma'lumotlar yetarli bo'lmasligi mumkin. Kundalik axborotlarning uzoq muddat uchun (oy, chorak, yil) ish yakunlarini o'rganishga, ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash zarur. Chunki ularni umumlashtirish va tartibga solish lozim bo'ladi. Har bir xo'jalik kunlik nazoratni

hujjatlar va hisobot registrlari asosida olib boradi. Ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirish lozim. Bunga hisobot tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Hisobot ma’lumotlari – sotilgan mahsulot, yakunlangan mehnat faoliyati va ko‘rsatilgan xizmatlari, ishlab chiqarish xarajatlari, xo‘jalik mablag‘i manbalari, soliq amallari va dividend ajratmalari to‘g‘risidagi axborotlarni tashkil etadi. Korxonalarining hisoboti hisob jarayonining yakunlovchi bosqichidir. Hisobotda korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvolini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, korxonaning faoliyatining hisobot davridagi (oy, chorak, yil) faoliyati natijalari aks ettiriladi. Hisobot ko‘rsatkichlari ho‘jalik hisobi barcha turlarining ma’lumotlariga ko‘ra ishlab chiqiladi. Shunday qilib, hisobot - ho‘jalik hisobi ma’lumotlariga ko‘ra tuziladigan korxonaning va uning tarkibiy bo‘linmalari ishining yakunlarini harakterlaydigan yig‘ma ko‘rsatkichlar tizimi deb qarashimiz mumkin. Hisobot yordamida faoliyatga baho beriladi. Shuningdek, hisobot kelgusi davr uchun istiqbolni belgilashda ham foydalaniladi. Ayni paytda, u korxonaning budjet ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish uchun asosiy negiz bo‘lib xizmat qiladi.

Hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonida moliyaviy hisobotlarga alohida e‘tibor qaratamiz va uning maqsadiga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 22- moddasiga muvofiq moliyaviy hisobotga quyidagicha ta‘rif berilgan: “**Moliyaviy hisobot** - buxgalteriya hisobi sub‘ektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir²⁷.”

Bizning fikrimizcha umumlashtirgan holda moliyaviy hisobotga quyidagicha tarif berish mumkin.

Moliyaviy hisobot – *xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning hisobot davri davomida amalga oshirgan moliyaviy mablag‘larining harakati va natijalari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lib, undan xo‘jalik faoliyatining*

²⁷O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi(yangi tahriri) Qonuni. 13.04.2016 yil.

iqtisodiy tahlil, oqilona nazorat yuritilishi va samarali boshqarish uchun foydalaniladi.

Moliyaviy hisobotning *maqsadi* xo‘jalik sub’ektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo‘lgan butun axborotni o‘z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi— buxgalteriya hisobi sub’ektining hisobot sanasidagi moliyaviy ahvoli, uning hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag‘larining aylanishi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishdan iborat hisoblanadi. Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi. Buxgalteriya hisobi sub’ekti moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o‘z vakolatxonalarining, filiallarining va boshqa tarkibiy bo‘linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini moliyaviy hisobot tarkibiga kiritadi. Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 24- moddasiga muvofiq moliyaviy hisobotning hisobot davri

1 yanvar - 31 dekabr kalendar yili yillik moliyaviy hisobotning hisobot davri bo‘lib hisoblanadi. Yangidan tashkil etilgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxs huquqi qo‘lga kiritilgan sanadan boshlab o‘sha yilning 31 dekabriga qadar bo‘lgan davr, yuridik shaxs bo‘lmaganlar uchun esa, ular davlat organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanadan boshlab o‘sha yilning 31 dekabriga qadar bo‘lgan davr birinchi hisobot yili deb hisoblanadi. Agar yuridik shaxs 1 oktyabrdan keyin ro‘yxatga olingan bo‘lsa, birinchi hisobot yili keyingi yilning 31 dekabrda tugaydi. Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 25- moddasiga muvofiq moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- davlat soliq xizmati organlariga;
- ta‘sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobot elektron hujjat tarzida taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobot yilning har choragida taqdim etiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Yuqorida aytib qtilgan axborotlardan tashqari, moliyaviy hisobotda batafsilroq ma‘lumotlar ham beriladi. 1-BHMAga asosan, moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga pul mablag‘lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari tqg‘risida quyidagi ma‘lumotlarni qz ichiga olishi lozim:

- korxonaning nazorati ostida bo‘lgan aktivlar haqida;
- korxonaning passivlari haqida;
- korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o‘tishdagi iqtisodiy imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o‘zgarishlar haqida;
- pul mablag‘larining harakati haqida.

Moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo‘lgan butun axborotni o‘z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan bo‘lib o‘tgan voqealarning natijalarini aks ettiradi. Korxonaning istiqboli (prognozi) va budjetiga oid barcha hisob-kitoblar fan va texnikaning yutuqlariga asoslanib, istiqboldagi rivojlanishni hisobga olib real bo‘lishi lozim.

Bunday budjetlash va istiqbolni belgilash to'g'ri va aniq hisobot ma'lumotlari negizidagina ro'yobga chiqishi mumkin, ana shu hisobot ma'lumotlarining o'zi esa istiqbolni belgilash davri boshlanishi oldidan korxonaga erishgan darajani ta'riflab beradi.

Hisobot shakllarida korxonaga ishlab chiqarish-xo'jalik va moliya faoliyati natijalarining yig'ma ma'lumotlarni jamlaydi. Buxgalteriya, statistika, operativ-texnikaviy hisobot ma'lumotlarida asosiy va oborot mablag'larining holati, ularning shakllanish manbalari va ulardan foydalanishning holati hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi umumlashgan va hisobot shakllari bir-biri bilan chambarchas bog'langan ko'rsatkichlarning tizimlashtirilgan majmuasidan iboratdir. Hisobot ko'rsatkichlaridan korxonaga va uning alohida tarkibiy bo'linmalari (uchastka, tseh va shu kabilari) ho'jalik faoliyatiga baho berish uchun keng ko'lamda foydalaniladi. Haqiqiy ko'rsatkichlarni rejadagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslashning mumkinligi korxonaga faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va bu faoliyatga holisona baho berishning zarur shartidir. Taqqoslash uchun muhim-ushbu ko'rsatkichlar o'sha bir hil ko'rsatkichlar doirasini, bir davrni qamrab olishi, yagona uslub asosida aniqlanishi va baho berilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotga uslubiy rahbarlik qiladi, mazkur vazirlik barcha tashkiliy- huquqiy shakllardagi korxonalarda amal qilishi lozim bo'lgan moliyaviy buxgalterik hisoboti shakllarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Korxonaga yillik hisobotni tuzayotganda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, korxonalar moliyaviy - ho'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi, shuningdek, boshqa me'yoriy va qonun hujjatlariga tayanishi lozim.

Turlariga ko'ra u operativ, buxgalteriya(boshqaruv hisobotlari, moliyaviy hisobot), statistika va soliq hisobotlariga bo'linadi.

Korxonalarining hisobotini quyidagi alomatlariga ko'ra, ya'ni turlari, tuzishning maqsadi, davriyligi, hajmi va shu kabilarga qarab tasnif etish mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subektning hisobotlari uchta asosiy mezon bo‘yicha turkumlanadi:

- ✓ tuzilish maqsadiga ko‘ra;
- ✓ davriyligi bo‘yicha;
- ✓ axborotlar hajmiga ko‘ra.

Hisobotni tuzish maqsadiga ko‘ra - hisobotlar tashqi va ichki hisobotlarga bo‘linadi.

Tashqi hisobot axborotlaridan tashqi foydalanuvchilar tomonidan korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berish uchun mo‘ljallangan korxonaning moliyaviy hisoboti, soliq hisoboti, statistik hisobotlari misol bo‘ladi.

Ichki hisobot esa korxonaning va uning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini boshqarish uchun mo‘ljallangan operativ va boshqaruv hisobotlari zarurdir.

Tashqi hisobot ikki tomonlama tushadi. Bir tomondan u axborotning tashqi iste‘molchilari, ya‘ni mazkur korxonaning aksiyadorlari va mijozlariga - korxonaning faoliyatining natijalari to‘g‘risida to‘g‘ri axborot olishdan manfaatdor bo‘lgan kishilar va tashkilotlarga mo‘ljallangan. Ikkinchi tomondan esa, bu hisobot korxonaning rahbari tomonidan boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi hisobot muayyan talablarga javob berishi lozim. Bu talablarning eng asosiysi - korxonaning mulki va majburiyatlari, uning moliyaviy ahvoli hamda hisobot davridagi faoliyati natijalari to‘g‘risida majburiy tarzda va o‘z vaqtida axborot taqdim etish, bu axborotning to‘g‘ri bo‘lishi, ularni boshqa korxonalar bilan taqqoslash mumkinligi, mulkchilikning turli shakllaridagi barcha korxonalar uchun hisobot tuzish shakllari va uslubiyatini yagonaligi, oddiyligi, aniqlik, axborotni o‘z vaqtida oshkorlik, tejamkorlik, ratsionallik, ta‘sirchanlik va qisqalilikdir.

Taqdim etilishining davriyligiga qarab davriy hisobot (oylik, choraklik, yarim yillik, to‘qqiz oylik) va kalendar yil (yillik) hisobotni farqlaydilar.

Davriy hisobot chorak, yarim yil, to‘qqiz oy uchun tuziladi hamda unda shakl va ko‘rsatkichlar soni cheklangan bo‘ladi. Davriy hisobotni taqdim etish

muddatlari ancha qisqa, uni tahlil etish ishdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tez tuzatishga imkon beradi.

Yillik hisobot hisobot yili uchun korhona ishining moliyaviy natijalarini tavsiflaydi.

Hisobotdagi ma'lumotlar hajmiga ko'ra xususiy hisobot va umumiy hisobotlarga bo'linadi. Xususiy hisobot xo'jalik yurituvchi subektning bitta faoliyat uchastkasidagi ishi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.


Hajmiga ko'ra hisobot birlamchi va yig'ma bo'lishi mumkin: birlamchi hisobotlar korxonalar tomonidan joriy hisob ma'lumotlariga ko'ra tuziladi, yig'ma hisobot esa hududiy prinsipga ko'ra statistika idoralari tomonidan tuziladi. Odatda, yig'ma hisobotda korxonalar faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichlari bayon etiladi hamda u birlamchi hisobot shakllaridagi tegishli ko'rsatkichlarning ko'shilishidan hosil bo'ladi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi onunining 22-moddasiga asosan:

✓ xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

✓ aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek sug'urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi sub'ekti boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e'lon qilishi shart

✓ Yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllardan iborat bo'ladi:



20.1-rasm. Moliyaviy hisobot shakllari²⁸.

Moliyaviy hisobotlar ma'lum bir hisobot davri yoki ma'lum bir hisobot sanasi bo'yicha tuziladi.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish

Xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan tuziladigan va tegishli organlarga topshiriladigan moliyaviy hisobotlar 1- BHMS bilan tartibga olinadi. Moliyaviy hisobotlarda quyidagi axborotlar to'liq aks ettirilishi kerak:

1. xo'jalik yurituvchi subektning nomi, mulkchilik shakli, yuridik manzili, identifikatsiyalangan nomeri va subektni aniqlab olish uchun zarur bo'ladigan boshqa rekvizitlar;
2. xo'jalik yurituvchi subektning nomi, mulkchilik shakli, yuridik manzili, indentifikatsiyalangan nomeri va subektni aniqlab olish uchun zarur bo'ladigan boshqa rekvizitlar;
3. moliyaviy hisobot bir korxonanikimi yoki bir guruh korxonanikimi;
4. hisobot sanasi yoki moliyaviy hisobotlar qaysi davarni o'z ichiga olishi;


²⁸O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi(yangi tahriri) Qonunning 22 moddasi. 13.04.2016 yil.

Topshirilgan hisobot axborotlarini to'g'ri tushunish uchun quyidiga rekvizitlar keltirilishi lozim;

1. Moliyaviy hisobotda qo'llanilgan valyuta turi;
2. Hisobotda foydalanilgan raqamlarning aniqlik darajasi, masalan, keltirilgan raqamlar ming hisobida yoki million hisobida ekanligi va h.k.

Korxonaning yil choragi va yillik moliyaviy hisoboti shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalarda nazarda tutilgan talablarga qat'iy rioya qilib tuzilgan hisobotida o'tgan davr mobaynida uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining hajmlari va sifat ko'rsatkichlari to'g'risida yetarlicha axborot bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarini qabul qilingan buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuziladi va tartibga solinib turiladi.



20.2-rasm: Buxgalteriya hisobining milliy standartlari

Moliyaviy hisobot elementlari

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo'jalik operatsiyalarini moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga guruhlab aks ettiradi. Aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlar buxgalteriya balansida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda xo'jalik yurituvchi sub'ektning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlar hisoblanadi. Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot

faoliyat natijalari elementlarini va buxgalteriya balansi elementlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Moliyaviy holatni aniqlash bilan bevosita bog'liq elementlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, rezervlar, daromadlar va xarajatlar. Ular quyidagi tarzda aniqlanadi:

1. Aktivlar - sub'ekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

2. Majburiyatlar - shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakat amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqalar yoxud muayyan harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir;

3. Xususiy kapital - sub'ektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir;

4. Rezervlar - kelgusida muayyan xarajatlarga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan xususiy kapitalning bir qismidir;

5. Daromadlar - hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir;

6. Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir;

7. Moliyaviy natijalar - xo'jalik yurituvchi sub'ektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining yakuniy iqtisodiy yakunidir.

Baholash - aktivlar va majburiyatlar e'tirof etiladigan va moliyaviy hisobotlarda qayd etiladigan pul o'lchovining usulidir.

Moliyaviy hisobotlarda baholashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. Boshlangich qiymat. Aktivlar sotib olti vaqtida erishilgan tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilangan joriy qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to'lanadigan pul mablaglari summasi bo'yicha majburiyatlarga almashib olingan mablaglar summasida aks ettiriladi.

2. Joriy qiymat. Aktivlar ana shu yoki shunga o'xshash aktiv endigina sotib olingan bo'lgandagi holatda to'lanishi kerak bo'lgan pul mablaglari summasi

bo'yicha hisobotda aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni to'lash uchun talab etiladigan pul mablaglarining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

3. Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo'lgan pul mablaglari summasi bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to'lash qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to'lash uchun talab etiladigan pul mablaglarining diskontlanmagan summasidir.

4. Diskontlangan qiymat. Aktivlar xo'jalik yurituvchi sub'ektning oldin faoliyati davomida aktivlarni ko'paytirishi lozim bo'lgan bo'lgusi pul mablaglari tushumining diskontlangan qiymati bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Majburiyatlar kelgusida o'tkaziladigan pul mablaglarining diskontlangan qiymatidan iborat bo'lgan, xo'jalik yurituvchi sub'ektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to'lash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

5. Balans qiymati - hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlangich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

20.2. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi (invyentarizasiya).

Yillik moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Uning mazmuni hisob ma'lumotlarining mulklar va ular manbalarining haqiqiy mavjud qoldiqlariga mosligini tasdiqlash bilan belgilanadi.

Shuning uchun yillik balansni tuzishga yil davomida tuziladigan balanslarga qaraganda juda yuqori ishonchlilikni ta'minlash talabi qo'yiladi.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga binoan xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining

to'g'riligi hamda ishonchliligini tasdiqlash uchun vaqti-vaqti bilan aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilib turishi kerak.

Inventarizatsiya – bu ma'lum bir vaqtga korxonada mablag'lari va ularning manbalarini haqiqiy mavjudligini, inventarizatsiya qilinayotgan ob'ektni natura shaklida sanash, ya'ni qoldiqlarini hisoblash yoki hisob yozuvlarini tekshirish yo'li bilan haqiqiy qilingan xarajatlarni belgilash.

Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usullaridan biri bo'lib, uning yordamida joriy hisob ma'lumotlarining to'g'riligi tekshiriladi, hisobda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi, hisobga olinmagan xo'jalik muomalalari hisobga olinadi, moddiy javobgar shaxslar javobgarligi ostida bo'lgan mablag'larning butligi nazorat qilinadi.

Korxonada, tashkilot va muassasalar inventarizatsiya o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 833-sonli buyrug'i bilan ro'yxatdan o'tkazilgan 19-sonli BHMA «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish»ga to'liq amal qiladilar.

Quyidagi holatlarda inventarizatsiya muddatidan oldin o'tkazilishi shart:

- korxonada mol-mulkini ijaraga berish, sotib olish, sotish, shuningdek davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish chog'ida;
- moliyaviy hisobot tuzishdan oldin, lekin hisobot yilining 1 oktyabridan keyin inventarizatsiya qilingan mulk bundan mustasno;
- asosiy vositalar va tovar-moddiy zahiralarni qayta baholashda;
- moddiy javobgar shaxs o'zgarganida;
- talon-taroj qilish yoki suiiste'mol qilish, shuningdek boyliklarning buzilishi bilan bog'liq faktlar aniqlanganida;
- yong'in yoki tabiiy ofatlar sodir bo'lganida;
- korxonada tugatilayotganida tugatish balansini tuzish oldidan va boshqa hollarda.

Tekshirish ko'lamiga ko'ra inventarizatsiya yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan, o'tkazish vaqti bo'yicha rejalashtirilgan yoki to'satdan o'tkaziladigan inventarizatsiyalarga bo'linishi mumkin.

«Asosiy vositalar» nomli 5-son BHMAga binoan asosiy vositalar inventarizatsiyasi kamida ikki yilda bir marta o‘tkaziladi, kutubxona fondi 5 yilda bir marta inventarizatsiya qilinadi.

«Tovar-moddiy zahiralari» nomli 4-son BHMAga binoan tovar-moddiy zahiralari inventarizatsiyasi kamida bir yilda bir marta o‘tkaziladi.

Pul mablag‘lari, pulli hujjatlar, qat’iy hisobot blankalari bir oyda bir marta, yonilg‘i va moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda inventarizatsiya qilinadi.

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun korxonada doimiy inventarizatsiya komissiyasi faoliyat yuritadi. Doimiy inventarizatsiya komissiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- korxonada rahbari yoki uning yordamchisi;
- bosh buxgalter;
- boshqa mutaxassislar (muhandis, iqtisodchi va boshqalar);
- ichki audit vakili.

Doimiy harakatdagi komissiya asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qiymatliklar butligini ta’minlash bo‘yicha profilaktika ishlarini olib boradi;
- inventarizatsiya o‘tkazishni tashkil etadi, ishchi inventarizatsiya komissiyasi a’zolariga tegishli maslahat va ko‘rsatmalar beradi;
- inventarizatsiya natijalarining to‘g‘riligini tekshiradi;
- inventarizatsiya o‘tkazish tartibi buzilganida qaytadan inventarizatsiya o‘tkazishga buyruq beradi;
- kamomad va nobudgarchilik hollari bo‘yicha moddiy-javobgar shaxslardan olingan tushuntirish xatlarini ko‘rib chiqadi va tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar beradi.

Agar ish hajmi ko‘p bo‘lsa, mulklar va moliyaviy majburiyatlar inventarizatsiyasini bir vaqtning o‘zida o‘tkazish uchun korxonada rahbarining buyrug‘i bilan quyidagi tarkibda ishchi inventarizatsiya komissiyasi tashkil etiladi:

- inventarizatsiya o'tkazishni tayinlagan korxonaning vakili (komissiya raisi);
- mutaxassislar (tovarshunos, muhandis, texnolog, mexanik, ish yurituvchi, iqtisodchi, buxgalter va boshqalar).

Ishchi inventarizatsiya komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- moddiy boyliklar va pul mablag'larini saqlash va ishlatish joylarida inventarizatsiya o'tkazadi;
- korxonada buxgalteriyasi bilan birga inventarizatsiya natijasini aniqlashda qatnashadi va kamomadni ortiqchasi bilan qoplash, shuningdek tabiiy kamayish normasi doirasidagi kamomadni hisobdan chiqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish, saqlash va jo'natish. Ularning butligi hisobi va nazoratini yaxshilash, shuningdek normadan ortiq va foydalanilmaydigan moddiy qiymatliklarni sotish to'g'risida takliflar kiritadi.

Ishchi inventarizatsiya komissiyasiga quyidagi vazifalarni bajaradi:

- korxonada rahbarining buyrug'iga binoan inventarizatsiyani o'z vaqtida va belgilangan tartibda o'tkazish;
- tekshirilgan asosiy vositalar, tovar-moddiy zahiralari, pul mablag'lari va hisob-kitoblardagi mablag'larni haqiqiy qoldiq ro'yxatiga to'liq va aniq yozish;
- tovar-moddiy zahiralari bahosini aniqlaydigan belgilar (tip, nav, marka, razmer, preyskurant bo'yicha tartib nomeri, artikul va shu kabilar)ni ro'yxatda to'g'ri ko'rsatish;
- belgilangan tartibga binoan inventarizatsiya materiallarini to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish.

Inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiya boshlanish vaqtiga bo'lgan oxirgi kirim va chiqim hujjatlari yoki material va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni olishi lozim.

Inventarizatsiya komissiyasi raisi «inventarizatsiyagacha (sana)» belgisini qo'yib, hisobotga ilova qilingan barcha kirim va chiqim hujjatlarini imzolaydi. Bunda, o'z navbatida, hisob ma'lumotlari bo'yicha inventarizatsiya

boshlanish vaqtiga mulklar bo'yicha barcha kirim va chiqim hujjatlari buxgalteriyaga topshirilganligi yoki komissiyaga berilganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxslar tilxat beradilar.

Inventarizatsiya boshlanishidan oldin komissiya a'zolariga inventarizatsiyani qachon boshlab qachon tugatish to'g'risida bo'yruq topshiriladi, komissiya raisiga esa nazorat plombiri (muhri) topshiriladi. Agarda mulk inventarizatsiyasi bir necha kun davom etadigan bo'lsa, ish kuni tugashi bilan moddiy boyliklar saqlanayotgan xonaning eshigi muhrlanishi kerak.

Inventarizatsiya qilingan moddiy boyliklar va ob'ektlar hamda ularning miqdori ro'yxatda nomenklaturasi bo'yicha va hisobda qabul qilingan o'lchov birligida ko'rsatiladi. Bu ro'yxat ishchi inventarizatsiya komissiyasining barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi.

Korxonada mulklari inventarizatsiyasida qo'llaniladigan hujjatlar ro'yxati quyidagilardan iborat:

1-ilova. Buyruq.

2-ilova. Inventarlashni o'tkazish to'g'risidagi buyruqlar bajarilishini nazorat qilish daftari.

3-ilova. Qimmatliklarni inventarlash to'g'ri o'tkazilganligining nazorat tekshiruvini Dalolatnomasi.

5-ilova. Inventarlashda aniqlangan natijalar Qaydnomasi.

6-ilova. Asosiy vositalarni inventarlash Ro'yxati.

7-ilova. Inventarlash Yorlig'i.

8-ilova. Tovar-moddiy boyliklar inventarlash Ro'yxati.

9-ilova. Yuklangan tovarlarni inventarlash Dalolatnomasi.

10-ilova. Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy boyliklarning inventarlash Ro'yxati.

11-ilova. Yo'lida bo'lgan material va tovarlarni inventarlash Dalolatnomasi.

12-ilova. Ta'mirlanishi tugallanmagan asosiy vositalarni inventarlash Dalolatnomasi.

13-ilova. Kelgusi davr xarajatlarini inventarlash Dalolatnomasi.

14-ilova. Naqd pul mablag'larini inventarlash Dalolatnomasi.

15-ilova. Tilxat.

16-ilova. Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarlash Dalolatnomasi.

17-ilova. Asosiy vositalarning inventarlash natijalarini solishtirish Qaydnomasi.

18-ilova. Tovar-moddiy boyliklarning inventarlash natijalarini solishtirish Qaydnomasi.

Inventarizatsiya ro'yxatining oxirida komissiya tomonidan tekshirish moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkazilganligi, komissiya a'zolariga hech qanday da'vo yo'qligi va ro'yxatda keltirilgan moddiy boyliklarni ma'sul saqlashga qabul qilganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxslar tilxat yozib beradilar.

Ishchi inventarizatsiya komissiyasi har bir turdagi moddiy boyliklarning inventarizatsiyasi tugagach, inventarizatsiya dalolatnomasini tuzadi. Masalan, «Asosiy vositalarni tugallanmagan ta'mirining inventarizatsiya dalolatnomasi», «Yo'ldagi tovarlar va materiallar inventarizatsiya dalolatnomasi» va boshqalar.

Inventarizatsiya tugagach, o'tkazilgan inventarizatsiya to'g'riligini tekshirish uchun nazorat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin. Bunday tekshirish inventarizatsiya o'tkazilgan ombor ochilmasdan turib, inventarizatsiya komissiyasi va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkaziladi. Inventarizatsiyalarni nazorat tekshirishdan o'tkazish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va o'tkazilgan inventarizatsiyaning to'g'riligini nazorat tekshirishni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan mulklarning buxgalteriya ma'lumotlari bilan mavjud haqiqiy orasidagi farqi quyidagicha tartibga solinadi:

- ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, moddiy qiymatliklar, pul mablag'lari va boshqa mulklar kiringa olinib, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (93-hisobvaraq) ko'paytiriladi. Aybdor shaxslardan qiymatliklarning ortiqcha chiqqanlik sabablari xususidagi tushuntirish xatlari olinadi;

- qiymatliklarning qonunchilik bilan belgilangan norma doirasidagi kamomadi korxonalar rahbarining buyrugʻi bilan ishlab chiqarish, muomala xarajatlariga yoki moliyalashtirish (fondlar)ni kamaytirishga oʻtkaziladi;

- moddiy qiymatliklar, pul mablagʻlari va boshqa mulklar kamomadi, shuningdek tabiiy kamayish normasidan ortiqcha nobudgarchiliklar aybdor shaxslardan undirib olinadi. Agar aybdor shaxslar aniqlanmasa yoki aybdor shaxslardan undirib olish sud orqali rad etilgan boʻlsa, kamomad va nobudgarchiliklardan koʻrilgan zararlar ishlab chiqarish, muomala xarajatlariga yoki moliyalashtirish (fondlar)ni kamaytirishga oʻtkaziladi. Bunday zararlar kelgusida soliqqa tortiladigan bazaga qoʻshiladi.

Debitor va kreditorlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning inventarizatsiyasi tegishli korxonalar, tashkilot va alohida shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni oʻzaro tekshirishdan iborat. Korxonaning buxgalteriya hisobi maʼlumoti boʻyicha u yoki bu debitordan olinadigan qarzlarning summasi qarzdor boʻlgan korxonalar (alohida shaxslar)ning buxgalteriya hisobida yozilgan qarzlarning summasi bilan solishtiriladi.

Hisob-kitoblarni tekshirish uchun qarzdor tashkilotlarga buxgalteriya xodimlari safarga yuboriladi yoki xat joʻnatiladi. Hisob-kitoblarni tekshirish uchun yuborilgan buxgalteriya xodimi tekshirish yakunida dalolatnoma tuzadi. Tekshirish natijasida debitor qarzlarni undirib olish dargumon boʻlib qolishi mumkin (korxonalar tugatilgan boʻlib, qarzlarning kimdan undirilishi nomaʼlum, debitor qarzlarni tan olmasligi, daʼvo qilish muddati tushirib qoldirilishi va h.k.). Bunday hollarda korxonalar buxgalteriyasida umidsiz debitor qarzlarning roʻyxati tuzilib, har bir debitor va kreditorlarning roʻparasiga nima sababdan qarzlarning real emasligi koʻrsatiladi.

Bu roʻyxat korxonalar doimiy harakatdagi inventarizatsiya komissiyasiga taqdim etiladi. Komissiyaning xulosasidan soʻng daʼvo qilish muddati oʻtgan, shuningdek sud undirib olishga qaror qilgan, lekin qarzdorning toʻlash qobiliyati yoʻqligi tufayli undirib olish iloji boʻlmagan qarzlarning dargumon qarzlarning rezervi hisobidan qoplanadi.

Undirilmagan debitor qarzlari dargumon qarzlari rezervi bilan qoplanganda 4910-«Dargumon qarzlari bo'yicha rezervlar» hisobvarag'i debetlanib, debitor qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar kreditlanadi. Ushbu buxgalteriya yozuvi 7-vedomost va 8-jurnal-orderda aks ettiriladi. Qarzdorning to'lash qobiliyati yo'qligi tufayli debitor qarzlari hisobdan chiqarilgani bilan ular bekor qilinmaydi. Bunday qarzlari 007-«To'lashga qobiliyatsiz debitorlarning zararga o'tkazilgan qarzi» hisobvarag'ining kiritim qismida besh yil davomida hisobga olinadi.

Da'vo qilish muddati ichida talab qilib olinmagan kreditor qarzi summasi korxonaning asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlari tarkibi (9360-hisobvaraqlari)ga o'tkaziladi.

2. Aniqlangan kamomad qiymatiga hisob narxida

D-t 5910 «Kamomad va moddiy boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar»

K-t «Kamomad bo'lgan moddiy boyliklarni hisobga oladigan schyotlar»

2. Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan (bozor narxidagi) summaga D-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi» (bozor narxida undirilib olinadigan summaga)

K-t 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» (kamomadning balans qiymati)

K-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» (Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan summa bilan qiymati orasidagi farq summaga) qiymati o'rtasidagi farq - narxlardagi farq summasiga.

3. Kamomad summasi undirilganda quyidagi buxgalteriya provodkalari beriladi.

D-t 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» yoki 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisob - kitoblar»

K-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimning qarzi»

Shu bilan birga moddiy javobgar shaxsdan undiriladigan summa bilan qiymatliklarning balans bahosi o'rtasidagi farq quyidagi provodka bilan daromadga o'tkaziladi:

D-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

Bir davrning o'zida va bir moddiy javobgar shaxsda bir turdagi tovar - moddiy boyliklarning kamomadi va ortiqcha chiqishlari o'zaro hisobga o'tkazilishi mumkin. Bunda agar kam chiqqan boyliklar - qiymati ortiqcha chiqqanda ko'p bo'lsa, unda farqi aybdor shaxslar hisobiga olib boriladi.

Moddiy qiymatliklarni ortiqcha chiqishi aniqlanganda u 19 – MHBS ning 5.70 bandiga binoan kiringa olinib xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga o'tkaziladi. Bu muomala quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi:

D-t tegishli moddiy qiymatliklarni hisobga olinadigan schyotlar

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar».

Kamomadlar yoki ortiqcha chiqishlarning har bir hodisasida farqlarning yuzaga kelishi sabablari chuqur va har tomonlama o'rganilishi zarur.

Qiymatliklar kamomadlari buzilishdan ko'rilgan talafotlar ustidan ayniqsa sinchkov nazoratni o'rnatish maqsadida buxgalteriya hisobi tizimida yuqorida keltirilgan alohida «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» nomli maxsus schyot ko'zda tutilgan. Tabiiy yo'qolish me'yorlari chegarasidagi yoki undan yuqori bo'lgan kamomadlar, aybdor shaxslar bo'lmaganda, tabiiy talafot hisoblanib, paydo bo'lgan joyiga qarab, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini yoki davr xarajatlarini oshirish kerak. Ular qiymatliklarni haqiqiy harakatlari bilan shu harakatni hujjatli rasmiylashtirish o'rtasidagi nomuvofiqlikni aks yettiradi. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralarining kamomadi ularni ishlab chiqarishga berilishini hujjatlarda aks yettirilganga qaraganda ko'proq miqdorda berilganligi natijasi bo'lishi mumkin; tayyor mahsulotning kamomadi - ularni haqiqatda olinganligiga qaraganda hujjatlar bo'yicha ko'proq olinganligini rasmiylashtirish natijasi bo'lishi mumkin. Tovar - moddiy boyliklarning kamomadini ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilishi yo'li bilan shuningdek yo'l qo'yilgan xatolar ham bartaraf qilinadi.

Ortiqcha chiqishlar korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga tegishli qiymatliklar schyotlariga kiritiladi. Ortiqcha chiqishlar


aniqlanganda, ularning kelib chiqish sabablari va aybdorlari surishtirib topiladi.

Inventarizatsiya natijalari doimiy harakatdagi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, aniqlangan kamomad kimning hisobidan undirib olinishi yoki qanday xarajatlarga o‘tkazilishi yoxud aniqlangan ortiqcha mablag‘lar qanday kiringa olinishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Doimiy harakatdagi inventarizatsiya komissiyasining qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va u korxonada rahbari yoki korxonada rahbari taklifiga binoan yuqori organ tomonidan tasdiqlanadi.

20.3. Moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar.

1998 yil 14 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 475 son ro‘yxatga olingan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” deb nomlangan BHMS moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga alohida e‘tibor berilgan.

Moliyaviy hisobotdan axborotidan foydalanuvchilar quyidagilardir:



20.3-rasm. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni turkumlanishi.

Moliyaviy hisobot quyidagi axborotlarni yoritib berishi kerak:

- investitsiya qarorlarini va kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning bo‘lg‘usi pul oqimiga baho berish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektga ishonib topshirilgan resurslar munosabati

bilan uning resurslariga, majburiyatlariga baho berish;

- rahbar organlarning ishiga baho berish.

Moliyaviy hisobot axborotiga bo‘lgan talab quyidagilarda vujudga keladi:

Investorlarga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlari investitsiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish maqsadida foydalaniladi. Aksiyadorlar ham axborotlardan xo‘jalik sub’ektining dividendlarni to‘lash qobiliyatini baholashga imkon yaratadi hamda aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakligini aniqlashga yordam beradigan axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi.

Kreditorlarga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlari kredit va uning foizlari o‘z vaqtida to‘lanishini aniqlashga imkon beradigan axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi;

Mol(tovar) yetkazib beruvchilarga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlari mahsulot yetkazib berishda va boshqa savdo qarizdordiklari summasini o‘z vaqtida to‘lanishini aniqlashga imkon beradigan axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi;

Xaridorlar va buyuritmachilarga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektning uzluksiz faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishga, ayniqsa ular uzoq muddatli shartnomalarga ega bo‘lsalar yoki mazkur xo‘jalik yurituvchi sub’ektga bog‘liq bo‘lgan axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi;

Korxonalar xodimlari, ishchilariga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlari, ularning o‘z ish haqlarini, pensiyalarini va keyinchalik ham xo‘jalik yurituvchi sub’ektga yollash bo‘yicha ishlash imkoniyatlarini ta‘minlash qobiliyatiga baho berish imkonini yaratadigan axborot axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyati barqarorligi va rentabelligi to‘g‘risidagi axborotdan foydalanadi;

Hukumat vakolatli organlari va davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati, nazorat idoralari, statistika organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobot axborotlaridan resurslarning taqsimlanishi, ularga ham xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyatini tartibga solib turish, soliqqa tortish siyosatini belgilash, davlat tomonidan moliyaviy yordamlar miqdorini va xo‘jalik yurituvchi sub’ektga bog‘liq bo‘lgan milliy daromadni hisoblash hamda boshqa statistik ma’lumotlar to‘g‘risidagi axborotlarni olishda manfaatdor bo‘ladi;


Jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar mahalliy iqtisodiyotga ko‘pgina usullar bilan, shu jumladan aholini ish bilan ta’minlash va mahalliy mahsulot yetkazib beruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bilan katta hissa qo‘shishi mumkin. Moliyaviy hisobot jamoatchilikni taraqqiyot yo‘nalishlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning farovonligini yaxshilashda erishilgan so‘nggi yutuqlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlab, ularga yordam beradi.

Korxonalarining hisobotini quyidagi alomatlarga ko‘ra, ya’ni turlari, tuzishning davriyligi, maqsadi, hajmi va shu kabilarga qarab tasnif etish mumkin.

Moliyaviy hisobot ma’lum bir vaqt oralig‘i (hisobot davri)da tayyorlanadi va quyidagi axborotlarni aks ettiradi:

- moliyaviy hisobotda hisobot davridagi aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital to‘g‘risidagi axborotlarni aks ettirish;
- moliyaviy hisobotda hisobot davridagi daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni aks ettirish;
- moliyaviy hisobotda hisobot davridagi pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotlarni aks ettirish.

Iqtisodchi olim Z.Mamatov yillik moliyaviy hisoboti to‘g‘risida ishonchli axborot olishdan kim ko‘proq manfaatdorligi nuqtai nazaridan ularni ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga ajratib ko‘rsatgan



20.4-rasm. Buxgalteriya hisoboti ishonchliligi to'g'risidagi axborotidan foydalanuvchilar²⁹

Tashqi hisobot ikki tomonlama tUSDadir. Bir tomondan u axborotning tashqi iste'molchilari, ya'ni mazkur korxonaning aksiyadorlari va mijozlariga – korxonona faoliyatining natijalari to'g'risida to'g'ri axborot olishdan mafaatdor bo'lgan kishilar va tashkilotlarga mo'ljallangan. Ikkinchi tomondan esa, bu hisobot korxonona raxbari tomonidan boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi hisobot muayyan talablarga javob berishi lozim. Bu talablarning eng asosiysi – korxonaning mulki va majburiyatlari, uning moliyaviy ahvoli hamda hisobot davridagi faoliyati natijalari to'g'risida majburiy tarzda va o'z vaqtida axborot taqdim etish, bu axborotning to'g'ri bo'lishi, bularni boshqa korxononalarining rejasi va ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkinligi, mulkchilikning turli shakllaridagi barcha korxononalar uchun hisobot tuzish shakllari

²⁹ Z.Mamatov. – “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishning metodologik muammolari” 2004y. 145bet

va uslubiyatini yagonaligi, oddiyligi, aniqlik, axborotni ola bilish, oshkoralik, tejamkorlik, oqilonalik, ta'sirchanlik va qisqalilikdir.

Birinchi navbatda, shuni aytish joizki, korxonalar (xorijiy investitsiyali korxonalaridan tashqari) majburiy tartibda quyidagi foydalanuvchilarga chorak vayillik hisobotini topshiradi:

- ✓ ta'sis hujjatlariga binoan mulkdorlar (mulkni boshqarish bo'yicha vakolatli organlar, ta'sischilar);
- ✓ davlat soliq inspeksiyasiga (bir nusxa);
- ✓ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korxonalar faoliyatini ayrim tomonlarini tekshirish va tegishli hisobotni olish vazifalari yuksaltirilgan boshqa davlat organlariga.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi tizimining yakuniy natijasi sifatida moliyaviy hisobot subektining moliyaviy holatini va uning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bunday axborotlardan ko'plab iste'molchilar quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

- ✓ kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilish va investitsion qarorlar qabul qilish uchun;
- ✓ subektning kelgusidagi pul oqimlarini baholash;
- ✓ subektning resurslari, majburiyatlari va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

Buxgalteriya hisobotlarining tarkibi va shakllari hamda ularni to'lg'azish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Hozirgi paytda samarali iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun ixtiyoriy xo'jalik yurituvchi sub'ekt – davlat korporatsiyasidan tortib oddiy yakka tadbirkorgacha – o'z moliyaviy holati, xo'jalik faoliyatining natijalari, pul oqimlari harakati holati hamda kelajakda uning ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda o'sishi haqida tasavvurga ega bo'lishi, shuningdek, raqobatchi, hamkor korxonalar va boshqa aloqador korxonalar guruhlari faoliyati haqidagi axborotga ega bo'lishi kerak. Lekin, bu ham samarali boshqaruv qarorlarini asoslash uchun yetarli

bo'lmaydi. Chunki, xo'jalik yurituvchi sub'ekt bulardan tashqari fond bozoridagi, mehnat va kapital bozoridagi holat, tovar bozorining ta'minlanganligi va holati haqidagi, shuningdek, biznesning turli tarmoqlaridagi texnika va texnologiyaning holati haqidagi ma'lumotlarga ham ehtiyoj sezadi³⁰.

Xo'jalik aloqalarining faollashuvi va integratsiyalashuvi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'limlarining turli davlatlar va mintaqalarda ish olib borishi, bozor kon'yunkturasining tezkorlik bilan o'zgarib borishi tavakkalchilikni baholashga, bozordagi jarayonlarni bashoratlashga va har xil jarayon va holatlarni baholashga katta e'tibor qaratishni talab qiladi. Bu o'z navbatida qarorlarni asoslash yo'llarini o'zgartirib, bu jarayonda nafaqat hisob balki boshqa turdagi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va siyosiy axborotlardan faol foydalanishga olib kelmoqda. Foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan axborotga, jumladan moliyaviy hisobotlarga talab doimo oshib bormoqda. Fond bozorlarining rivojlanishi, investitsiyalarning o'sishi, iqtisodiyotning globallashuvi, kommunikatsiya vositalarining misli ko'rilmagan darajada o'zgarib, taraqqiy qilib borishi iqtisodiy jarayonlar qatnashuvchilaridan zarur (ayrim hollarda unchaliq aniq bo'lmasa-da) axborot berishni talab qiladi. Shu bilan birga, asosiy muammo axborotlarning, shu jumladan hisob axborotining foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos kelishi hisoblanadi. Korxonalarining moliyaviy hisobotlaridan iborat umumfoydalanishdagi axborotlar foydalanuvchilar tomonidan qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.³¹

Korxonaning moliyaviy hisobot sifatini oshirishning quyidagi uchta guruhga turkumlash mumkin:

- sifatsiz moliyaviy hisobot axboroti vujudga kelishini oldini olish
- moliyaviy hisobotlardagi haqiqatdan chetga chiqishlarni va dastlabki variantlarni tuzatish

³⁰ Matkarimov D.M. Moliyaviy hisobot axborotining sifati va samaradorligini oshirishda xarajatlarni kompleks baholash tizimining o'rni.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil

³¹ Matkarimov D.M. Moliyaviy hisobot axborotining sifati va samaradorligini oshirishda xarajatlarni kompleks baholash tizimining o'rni.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil

- hisobot sifatini baholash

Moliyaviy axborotlarni tayyorlashda baholashning asosli hisob-kitoblari uning ajralmas qismi hisoblanadi va foydaliligini kamaytirmaydi, agarki ushbu baholash to'g'ri va aniq tavsiflangan va tushuntirilgan bo'lsa. Moliyaviy axborotlarning foydaliligini oshiradigan sifat xususiyatlariga qiyoslanuvchanlik, tekshiruvchanlik, o'z vaqtidalik va ma'lumotlarni tushunarligi kiradi.

Moliyaviy axborotlarning sifat xususiyati moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga zarur bo'lgan foydali axborotlarni belgilaydi. Moliyaviy axborotning foydaliligi oshadi, agar bu axborotni solishtirish, o'z vaqtida va tushunarli tekshirish imkoni bo'lsa. Moliyaviy axborotning asosiy sifat xususiyatlari o'rinnilik va ishonchli taqdim etishdan iborat.

Axborot, agar uning tushirib qoldirilishi yoki buzib ko'rsatilishi ma'lum hisobot beruvchi tashkilot to'g'risidagi moliyaviy axborot asosida foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, u muhim deb hisoblanadi

20.4. Buxgalteriya balansi va uni tuzish tartibi.

*Moliyaviy hisobot tizimida **balans** marka-ziy o'rin egallaydi.*

Buxgalteriya balansi subektning resurslari (aktivlar), resurslarga bildirilgan da'volar (majburiyatlar) va mulk egasiga tegishli ulush (xususiy kapital) to'g'risida iqtisodiy axborotlar beradi.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot – buxgalteriya balansining rasmiy atamasidir. Biroq, hisobot tuzuvchilar va ulardan foydalanuvchilar orasida buxgalteriya balansi atamasi ko'proq tarqalgan, chunki u asosiy buxgalteriya formulasi yoki modeliga muvofiq ushbu hisobotning muhim tomonini aks ettiradi:

$$\mathbf{Aktivlar = Xususiy kapital + Majburiyatlar}$$

BALANS TYENGLIGINI TUZISH FORMULASI

$$\mathbf{A = XK + M}$$

Aktivlar - xo'jalik sub'ektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan kelgusidagi iqtisodiy foyda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablag'lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo'shiladigan ulushdir. Bu ulush xo'jalik yurituvchi sub'ekt asosiy faoliyatining bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa hodisalarning natijasidir. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar odatda aktivlarni xarid qilib yoki ishlab chiqarib ularga ega bo'ladilar, biroq, boshqa bitimlar yoki hodisalar aktivlarni ko'paytirishga imkon beradi.

Xususiy kapital. Xususiy kapital ustav, qo'shilgan, rezerv kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan iborat bo'ladi. Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar va majburiyatlar qiymatini baholashga bog'liqdir. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali analitik kesimda hisobga olinishi mumkin.

Majburiyat —xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy mas'uliyatli ekanligi hisoblanadi. Majburiyatlar olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to'lanadigan summalar. Majburiyatlar odatiy tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki holisona tarzda ish ko'rishda ham yuzaga keladi. Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari natijasi sifatida kuchga kiradi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgandagina paydo bo'ladi.

Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida koʻzda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi:

1. Haq toʻlash bilan;
2. Boshqa aktivlarni berish bilan;
3. Xizmatlarni koʻrsatish bilan;
4. Ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali;
5. Majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

Majburiyat, kreditor oʻz huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum boʻlganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Moliyaviy hisobot malumotlaridan foydalanib, boshqaruv qarorlari qabul qiluvchi shaxslarga yordam berish maqsadida, balans moddalari umumiy tavsiflar boʻyicha guruhlashtiriladi. Aktivlar - likvidlik darajasining pasayib borishi tartibida; majburiyatlar toʻlov muddatining kamayib borishi tartibida va xususiy kapital konsolidatsiya qilinishining kamayib borishi tartibida guruhlash-tirilgan. Moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobotda foydalaniladigan maʼlumotlar turkumlanishi va ularning balans boʻlimlari boʻyicha joylashishi BHMSda koʻrsatiladi. Biroq qoʻllaniladigan turkum-lash tarmoqlari xususiyati kuchli taʼsir etadi. Oʻzbekistonda joriy aktivlar balansda uzoq muddatli aktivlardan keyin aks ettirilgan.

Buxgalteriya balansi (keyingi oʻrinlarda — balans) tuzilguniga qadar hisobot davri oxiridagi analitik hisoblar boʻyicha aylanmalar va qoldiqlar Bosh kitobdagi sintetik hisoblar boʻyicha aylanmalar va qoldiqlar bilan albatta solishtirilishi kerak. Moliyaviy hisobotlarning elementlarini aks ettirish bu — buxgalteriya balansi yoki moliyaviy natijalari toʻgʻrisidagi hisobotga elementlar taʼrifiga javob beruvchi va ularda aks ettirilishi lozim boʻlgan moddalarning kiritish jarayonidir. Hisobotlarning elementlarini aks ettirish jarayoni moddaning bayonini ham, uning puldagi ifodasini ham, shuningdek u ushbu moddaning buxgalteriya balansiga yoki moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotga kiritilishini oʻz ichiga oladi.

Hisobotda aktivni aks ettirish — ushbu aktivdan foydalanish natijasida xoʻjalik yurituvchi subʼektga kelgusi iqtisodiy foyda tushish ehtimoli mavjud

bo'lganida ushbu aktiv buxgalteriya balansida aks ettiriladi va aktiv aniq ifodalanadigan chiqimlar yoki qiymatni o'z ichiga oladi.

Buxgalteriya balansining maqsadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya balansi uning resurslarini va moliyaviy tarkibini anglab yetishga imkoniyat berishi uchun hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolni aks ettirishi kerak.

Buxgalteriya balansining 3-ustunda hisobot davri boshiga ma'lumotlar, ya'ni oldingi hisobot davri uchun balansning 4-ustuni ma'lumotlari ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli aktivlar

Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlar bo'lib, undan ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadda foydalaniladi yoki ijaraga beriladi, ammo qayta sotish uchun mo'ljallanmagan. Asosiy vositalar balansda «Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati» (010-satr) moddasi bo'yicha o'z asosiy vositalari (ishlab turgan hamda konservatsiyada bo'lgan) va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha aks ettiriladi va ularning hisobi asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarda (0100) va 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar» hisobida amalga oshiriladi.

Balansda asosiy vositalar «Eskirish summasi» alohida (011-satr) moddasi bo'yicha tashkilot tomonidan asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisoblarda (0100) va 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar» hisobida hisobga olingan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi aks ettiriladi va ularning hisobi asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarda (0200) yuritiladi. «Qoldiq (balans) qiymati» (012-satr) moddasi bo'yicha 010 «Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati» va 011 «Eskirish summasi» satrlari farqi aks ettiriladi.

Asosiy vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) amortizatsiya qilinishga tegishli bo'lgan aktivlar, masalan, binolar, inshootlar, uskunalar, mebel, qurilmalar, foydali qazilmalar, o'rmon boyliklari; (2) amortizatsiyaga tegishli bo'lmagan aktivlar, masalan - yer. Yer uchastkalari qiymati alohida ko'rsatilishi lozim. Asosiy vositalar balansda jamg'arilgan eskirish yoki tabiiy resurslar bo'yicha

yemirilish summasi chiqarib tashlangan dastlabki qiymati (sotib olish bahosi)da ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivlar balansda alohida modda sifatida aks ettiriladi.

Balansda nomoddiy aktivlar «Boshlang'ich qiymati» (020-satr) moddasi bo'yicha tabiiy resurslardan, yer maydonlaridan foydalanish huquqi, patentlar, litsenziyalar, savdo belgilari, tovar belgilari, sanoat namunalariga bo'lgan huquqlar, mualliflik huquqlari va boshqalar sifatida nomoddiy aktivlarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha aks ettiriladi va ularning hisobi nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarda (0400)amalga oshiriladi. Bu modda bo'yicha hisobot davri uchun amalga oshirilgan hisobdan chiqarishlarni chegirgan holdagi gudvill (firma narxi) summasi ham aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobida gudvill (firma narxi) nomoddiy aktivining summasini hisobdan chiqarish alohida hisobda amortizatsiya summasi sifatida jamlanmasdan, bevosita 0480 «Gudvill»hisobi saldosi kamaytirishga olib boriladi.

Balansda alohida «Amortizatsiya summasi» (021-satr) moddasi bo'yicha nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi aks ettiriladi va ularning hisobi nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi hisoblarda (0500) yuritiladi. «Qoldiq (balans) qiymati» (022-satr) moddasi bo'yicha 020 «Boshlang'ich qiymati» va 021 «Amortizatsiya summasi» satrlari farqi aks ettiriladi.

Xalqaro qoidalarga ko'ra jamg'arilgan amortizatsiyaning summasi kamdan-kam hollarda balansda alohida ko'rsatiladi, chunki nomoddiy aktivlarning boshqa uzoq muddatli aktivlardan farqi, unda nomoddiy aktivlarning balans qiymati jamg'arilgan amortizatsiya summasiga darhol kamayishidir. Amortizatsiya schyotlarida saqlanadigan axborotlar ma'lumotnoma tavsifiga ega.

Investitsiyalar va qo'yilmalar. *Investitsiya va qo'yilmalarning turkumlanishi* o'z ichiga uzoq muddatli sarmoyalar va ehtiyoj tug'il-ganda uzoq muddatda ishlatish uchun maxsus maqsadli jamg'arilmalardagi pul mablag'larini oladi. Ushbu bo'limga quyidagi uzoq muddatli aktivlar kiritiladi:

- Yil davomida sotishga mo'ljallanmagan boshqa kompaniya-ning aksiyalariga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiyalar.

- Boshqa kompaniyaning obligatsiyalariga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiyalar. Har qanday amortizatsiya qilinmagan usta-malar investitsiyalarga qo'shiladi va amortizatsiya qilinmagan har qanday chegirmalar ayiriladi.

- Sho'ba korxonalarining uzoq muddatli olinadigan hisob-varaqlarini qo'shgan holda, ularga yo'naltirilgan investitsiyalar.

- Maxsus maqsadlar uchun tuzilgan jamg'armalarga yo'naltirilgan investitsiyalar.

- Kompaniyalar sug'urta polislarining sotib olinish baho-si.

- Xo'jalik faoliyatida ishlatilmaydigan yer maydonlari va binolar (investitsion mulk) kabi moddiy aktivlarga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiyalar.

Joriy aktivlar va uzoq muddatli investitsiyalar o'rtasida quyidagi muhim farqlar mavjud:

- Uzoq muddatli investitsiyalar korxonaning asosiy faoliyatida va xo'jalik muomalalarida qatnashmaydi.

- Uzoq muddatli investitsiyalar balans sanasidan bir yil-dan ortiq yoki bir operatsiya jarayondan ortiq bo'lgan muddatda (qaysi biri uzun bo'lsa) foyda olish uchun mo'ljallangan.

Uzoq muddatli investitsiyalar buxgalteriya hisobida sotib olish qiymati (tannarxi) yoki sof sotish qiymati bo'yicha ko'rsatiladi. Agar investitsiyaning bozor bahosi tannarxidan past bo'lsa uni bozor bahosiga tenglashtirish maqsadida qayta baholash amalga oshiriladi.

Balansda «Uzoq muddatli investitsiyalar, jami» (030-satr) moddasi bo'yicha 040, 050, 060, 070, 080-satrlarda ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlarga, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga, chet-el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarga qo'yilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Investor dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan va ushbu qo'yilmalar bo'yicha to'liq mas'uliyatni zimmasiga olgan hollarda qimmatli qog'ozlar balans aktivida ularning to'la xarid qiymatida aks ettiriladi, ular bo'yicha qoplanmagan summa balans passivida kreditorlar moddasiga taalluqli bo'ladi. Qolgan hollarda xarid qilinadigan qimmatli qog'ozlar hisobiga kiritilgan summalar balans aktivida debitorlar moddasi bo'yicha ko'rsatiladi.

Balansning «Qimmatli qog'ozlar» (040-satr) moddasida 0610 «Qimmatli qog'ozlar» hisobida hisobga olinadigan obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritilgan summa (sho'ba va qaram jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) aks ettiriladi.

Balansning «Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» (050-satr) moddasida 0620 «Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» hisobida hisobga olinadigan sho'ba xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa investitsiyalariga kiritilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Balansning «Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» (060-satr) moddasida 0630 «Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» hisobida hisobga olinadigan qaram xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa investitsiyalariga kiritilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Balansning «Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar» (070-satr) moddasida 0640 «Chet-el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar» hisobida hisobga olinadigan chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarining aksiyalari, obligatsiyalari, ustav kapitaliga ulushlari va boshqa investitsiyalariga kiritilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Balansning «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» (080-satr) moddasi bo'yicha yuqorida sanalgan moddalarda hisobga olinmagan va 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» hisobida hisobga olinadigan uzoq muddatli investitsiyalarga kiritilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Balansning uzoq muddatli aktivlar bo'limidagi «O'rnatiladigan asbob-uskunalar» (090-satr) moddasida 0710 «O'rnatiladigan asbob-uskunalar — mahalliy» va 0720 «O'rnatiladigan asbob-uskunalar — xorijiy» schyotlarida

yuritiladigan oʻrnatiladigan asbob-uskunalar haqiqiy qiymati boʻyicha aks ettiriladi.

Balansning uzoq muddatli aktivlar boʻlimidagi «Kapital qoʻyilmalar» (100-satr) moddasida kapital qoʻyilmalarni hisobga oluvchi schyotlarida (0800) yuritiladigan xoʻjalik va pudrat usulida amalga oshiriladigan tugallanmagan qurilish qiymati, foydalanishga topshirilmagan xarid qilingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, asosiy podani shakllantirish xarajatlari, shuningdek yerni, moliyaviy ijara shartnomasi boʻyicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga va boshqa vositalarga qoʻyilmalar summalari aks ettiriladi.

Balansning uzoq muddatli aktivlar boʻlimidagi «Uzoq muddatli debitorlik qarzlari» (110-satr) moddasida 0910 «Olingan veksellar», 0920 «Moliyaviy ijara boʻyicha olinadigan toʻlovlar», 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari», 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlari» schyotlarida yuritiladigan olingan veksellarning uzoq muddatli qismi, moliyaviy ijara shartnomasi boʻyicha berilgan asosiy vositalar uchun olinadigan toʻlovlar qoldigʻi, xodimlarning uzoq muddatli qarzi va boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari aks ettiriladi.

Balansning uzoq muddatli aktivlar boʻlimidagi «Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» (120-satr) moddasida 0950 «Vaqtinchalik farqlar boʻyicha kechiktirilgan foyda soligʻi», 0960 «Diskont (chegirma)lar boʻyicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar», 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotlarida yuritiladigan vaqtinchalik farqlar boʻyicha kechiktirilgan foyda soligʻi, diskont (chegirma)lar boʻyicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar va boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar aks ettiriladi.

Muddati uzaytirilgan xarajatlarda, odatda, kelgusi hisobot davriga qarashli uzoq muddatli xarajatlarning oldindan toʻlovi natijalari hisoblanadi. Bunga asos tegishli hisobot davrida xarajat boʻlib yozilmaguncha, ular aktivlar boʻlib hisoblanadi. Joriy aktivlar, deb tavsiflangan *oldindan toʻlangan xarajatlar* va *muddati uzaytirilgan xarajatlar* orasidagi farq ularni hisobdan chiqarish muddati boʻlib hisoblanadi. Muddati uzaytirilgan xarajatlar deganda boʻnak tariqasida toʻlangan xarajatlar, xizmatlar tushuniladi.

Balansning «I bo‘lim bo‘yicha jami» (130-satr) moddasi bo‘yicha 012, 022, 030, 090, 100, 110, 120-satrlar bo‘yicha summa ko‘rsatiladi.

Joriy aktivlar

Joriy aktivlar xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt operatsion faoliyatining bir qismi bo‘lib, operatsiya sikli me‘yorida o‘tayotgan paytda uni olish yoki iste‘mol qilish kutilayotgan bo‘lsa joriy aktiv sifatida tasniflanadi. Mazkur aktivlar asosan qayta takroriy sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan bo‘lsa va undan hisobot vaqtidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan bo‘lsa, bunday hollarda u joriy aktiv sifatida tasnif va tan olinadi. Joriy aktivlar o‘z ichiga (1) pul mablag‘lari va (2) korxonaning normal ish sikli yoki buxgalteriya balansi sanasidan 1 yil davomida (qaysi biri uzunroq bo‘lishiga bog‘liq holda) pul mablag‘lariga aylantirilishi, sotilishi yoki sarflanishi kutiladigan boshqa aktivlarni oladi. Korxonaning normal ish sikli - tovar va xizmatlar uchun pul xarajatlari (yoki to‘lanadigan schyotlarni tuzish) bilan pul mablag‘lariga aylantirilgan tovar va xizmatlar sanasining o‘rtacha vaqt muddatidir. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning operatsion sikli - bu materiallarni xarid qilish, ishlab chiqarish va naqd pulga yoki osonlik bilan pulga aylantiriladigan moliyaviy aktivlarga sotish o‘rtasidagi o‘rtacha vaqtdir. Uzoq muddatli va joriy operatsion aktivlarni tasnif etish maqsadida ayni shu tarmoq yoki faoliyatning shu turi uchun kattaroq davr ancha muvofiqroq hisoblanmasa. bir yil operatsion sikli hisoblanadi. Joriy aktivlarni turkumlash nisbatan yengil, le-kin bu yerda ham muammolar kelib chiqishi mumkin, sababi normal ish sikli va pul mablag‘lariga aylantirish uchun oqilona kutiladigan davr kabi iboralar har xil mulohazalar keltirib chiqaradi.

Joriy aktivlarning ikki turi mavjud.

Birinchi turi xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt aylanma mablagining bir qismi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning me‘yoriy operatsion sikli davomida olingan yoki iste‘mol qilingan.

Ikkinchi turi operatsiya aktivlari bo‘lmagan, lekin savdo yoki investitsiya maqsadlarida saqlab turilgan va ularni hisobot vaqtidan keyingi 12 oy davomida sotish kutilayotgan joriy aktivlar doirasidan iborat. Hisobot sanasidan keyingi 12

oy davomida olinadigan yoki iste'mol qilinadigan zahiralari va debitorlik qarzlari joriy aktivlarga kiritiladi.

Balans aktivining II. Bo'limi "Joriy aktivlar" deb nomlanib, unda quyidagi balans satrlari ko'rsatiladi:

Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr. 150 + 160 + 170 + 180), moddalarida TMZlvrning qiymatlari **yuritiladi**. *Tovar-moddiy zaxiralar* tannarxi yoki sof sotish qiymatidan eng kam qiymati bo'yicha baholanadi. Tannarxni belgilashda ishlab chiqarish firmasi tugallanish bosqichlarini ko'rsatishi lozim (xom ashyo materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot-lar).

Balansning «Tovar-moddiy zaxiralari, jami» (140-satr) moddasi bo'yicha 150, 160, 170, 180-satrlarda ko'rsatilgan ishlab chiqarish zaxiralarining qoldiqlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlar summasi ko'rsatiladi.

Balansning «Tovar-moddiy zaxiralari, jami» moddasi tarkibida bo'lgan «Ishlab chiqarish zaxiralari» (150-satr) moddasida materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1000) hisobga olinadigan xom-ashyo zaxiralari, sotibolingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'ilar, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari, idish va idishbob materiallari, inventar va xo'jalik jihozlari, qaytariladigan chiqindilar va boshqa moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarxi aks ettiriladi. Shuningdek, (150-satr) moddala o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlarda (1100) hisobga olinadigan yosh hayvonlar; bo'rdoqiga yaylovda boqilayotgan katta yoshdagi hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar; quyonlar; asalari oilasi; sotish uchun asosiy podadan chiqarilgan (bo'rdoqiga boqish uchun qo'yilmagan) katta yoshdagi chorva mollari; aholidan sotish uchun qabul qilingan chorva mollarning haqiqiy tannarxi aks ettiriladi. Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi hisoblar (1500) va materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlardan (1600) foydalanilganda ushbu hisoblarda ko'rsatilgan qimmatliklar «Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi bo'yicha aks ettiriladi.

Balansning «Tugallanmagan ishlab chiqarish» (160-satr) moddasida asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000), o'zida ishlab chiqarilgan

yarim tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2100), yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300), xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni hisobga oluvchi schyolarda (2700) amalga oshiriladigan tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan ishlar (xizmatlar) bo'yicha xarajatlar ko'rsatiladi.

Balansning «Tayyor mahsulot» (170-satr) moddasida ishlab chiqarishi tugallangan, sinov va qabul qilishdan o'tgan, buyurtmachilar bilan shartnoma shartlariga ko'ra barcha qismlar bilan butlangan va texnik shartlar hamda standartlarga muvofiq bo'lgan buyumlar qoldig'i, ko'rgazmada bo'lgan va boshqa korxonalariga komissiyaga (konsignatsiyaga) berilgan, tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2800) hisobga olinadigan tayyor mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan mahsulotlar va topshirilmagan ishlar tugallanmagan deb hisoblanadi va tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida aks ettiriladi.

Balansning TMZlar tarkibida bo'lgan «Tovarlar» (180-satr) moddasida bo'yicha omborlardagi tovarlar qoldiqlari qiymati, chakana savdodagi tovarlar qiymati, ko'rgazmada bo'lgan va boshqa korxonalariga komissiyaga (konsignatsiyaga) berilgan tovarlar qiymati, prokatdagi buyumlari, tovar bilan band bo'lgan va bo'sh idishlar qiymati, yo'ldagi tovarlar, savdo ustamasini chegirgan holda savdo yoki umumiy ovqatlanishda o'z faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar xarid qilgan hisobga olinadigan boshqa tovarlar qiymati ko'rsatiladi va ularning hisobi tovarlarni hisobga oluvchi schyotlarida (2900) yuritiladi.

Oldindan to'langan xarajatlar turkumlashda hisobga olinadigan yana bir sohadir. Oldindan to'langan xarajatlar buyurtma qi-lingan xizmatlarni amalga oshirgunga qadar to'langan pul mablag'-laridir: masalan, iyun oyi uchun ijara haqi 31 mayda to'langan. Qis-qa muddatli oldindan amalga oshirilgan to'lovlar joriy aktivlar sifatida, uzoq muddatli oldindan amalga oshirilgan to'lovlar esa uzoq muddatli aktivlar, deb klassifikatsiyalanishi kerak.

Balansning «Kelgusi davr xarajatlari» (190-satr) moddasi bo'yicha kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda (3100) aks ettirilgan, hisobot davrida

amalga oshirilgan, lekin u taalluqli bo'lgan muddat davomida keyingi hisobot davrlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyati xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar summasi aks ettiriladi. Bunday xarajatlarga ommaviy axborot vositalari nashriga obuna bo'yicha xarajatlar, oldindan to'langan ijara haqi va boshqalar kiradi.

Balansning «Kechiktirilgan xarajatlar» (200-satr) moddasi bo'yicha kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda (3200) hisobga olingan vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'ining joriy qismi, diskont (chegirma)lar bo'yicha kechiktirilgan xarajatlar va boshqa kechiktirilgan xarajatlar ko'rsatiladi.

Olinadigan hisobvaraklar - o'z ichiga shubhali hisobvaraqlarni oladi. Diskontlangan summalar qavs ichida yoki alohida shaklda ko'rsatilishi kerak.

Joriy aktivlar tarkibidagi «Debitorlar, jami» (210-satr) moddasida 220, 240, 250, 260, 270, 280, 290, 300, 310-satrlarda ko'rsatilgan xaridorlar va buyurtmachilar qarzlari, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar, xodimlarga berilgan bo'naklar; budjetga, davlat maqsadli jamg'armalariga va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari; ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi va turli debitorlarning qarzlari summasining umumiy sifatida jami debitorlik qarzi ko'rsatiladi. 211-satrdagi ma'lumot uchun debitorlik qarzining muddati o'tkazib yuborilgan qismi ko'rsatiladi.

Balansning joriy aktivlar tarkibidagi «Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi» (220-satr) moddasida shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv chegirilgan holda buyurtmachilar (xaridorlar)ga sotilgan mahsulot, tovarlar, topshirilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlarni ko'rsatiladi.

Balansning joriy aktivlar tarkibidagi «Ajratilgan bo'linmalarining qarzi» moddasida (230-satr) hisobi 4110 «Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan hisoblar»da yuritiladigan ajratilgan bo'linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ning joriy qarzi aks ettiriladi. Mazkur modda bo'yicha axborotlar ma'lumot uchun keltiriladi.

Balansning joriy aktivlar tarkibidagi «Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi» (240-satr) moddasida 4120 «Sho'ba va qaram xo'jalik

jamiyatlaridan olinadigan hisoblar»da yuritiladigan sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining joriy qarzlari (ichki idoraviy hisob-kitoblari) aks ettiriladi. Sho‘ba va (yoki) qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 oktyabrda 50-son bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (8-sonli BHMS) «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi»ga (ro‘yxat raqami 580, 1998 yil 28 dekabr) muvofiq bosh jamiyatning moliyaviy hisobotida konsolidatsiyalanishi lozim.

Balansning joriy aktivlar tarkibidagi «Xodimlarga berilgan bo‘naklar» (250-satr) moddasida xodimlarga mehnat haqi bo‘yicha, xizmat safarlariga, umumxo‘jalik xarajatlariga va boshqa kelgusi hisob-kitoblar bo‘yicha berilgan bo‘naklar summasi aks ettiriladi. Xodimlarga berilgan bo‘naklar hisobi xodimlarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlarda (4200) yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar tarkibidagi «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» (260-satr) moddasida qonun hujjatlariga muvofiq, muddati bir yildan kam bo‘lgan kelgusi hisob-kitoblar uchun boshqa korxonalariga to‘langan bo‘naklar summasi aks ettiriladi. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar hisobi mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlarda (4300) yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar bo‘limidagi «Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» (270-satr) moddasida budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari hamda ortiqcha to‘lovlar aks ettiriladi. Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari hisobi 4410 «Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari(turlari bo‘yicha)» schyotida yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar bo‘limidagi «Davlat maqsadli jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» (280-satr) moddasida davlat maqsadli jamg‘armalariga va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schyotlarda (4500) yuritiladigan davlat maqsadli jamg‘armalariga va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari va ortiqcha to‘lovlar ko‘rsatiladi.

Balansning joriy aktivlar bo'limidagi «Ta'sischi­larning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi» (290-satr) moddasida 4610 «Ustav kapitaliga ta'sischi­larning ulushlari bo'yicha qarzi» schyotida hisobga olinadigan ta'sischi­larning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi ko'rsatiladi.

Balansning joriy aktivlar bo'limidagi «Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi» (300-satr) moddasida korxonada xodimlarining kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha, xodimlarga berilgan qarzlilar (zaymlar) bo'yicha, korxonaga yetkazilgan moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzi va xodimlarning boshqa qarzlari ko'rsatiladi. Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari hisobi xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzini hisobga oluvchi hisoblarda (4700) yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar bo'limidagi «Boshqa debitorlik qarzlari» (310-satr) moddasi bo'yicha hisobi turli debitorlar qarzlari hisobga oluvchi hisoblarida (4800) amalga oshiriladigan turli debitorlarning yuqorida ko'rsatilgan debitorlar bilan hisob-kitoblar moddalarida aks ettirilmagan qarzlari ko'rsatiladi, xususan, olinadigan foiz va dividendlar, moliyaviy ijara bo'yicha joriy to'lovlar, operativ ijara bo'yicha to'lovlar; royalti bo'yicha olinadigan hisoblar, qarzidorlarligi tan olingan yoki ular bo'yicha sud yoki boshqa idoraning ularni undirish to'g'risida qarori olingan, moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga olib borilgan jarimalar, penya va neustoykalar hamda boshqa shaxslarning qarzi aks ettiriladi.

Joriy aktivlar tarkibidagi *pul mablag'lari* bankdagi jamg'armalarga (ochilgan schyotga) yoki boshqa investitsiyalarga yo'naltirilishi mumkin. *Pul mablag'lari* mamuriyatning maqsadidan kelib chiqqan holda, joriy yoki uzoq muddatli investitsiyalar sifatida qaralishi mumkin. Korxonada kassasi va joriy hisobida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan cheklashlar ochib berilishi lozim.

Balansning joriy aktivlar bo'limidagi 320-satrdagi jami pul mablag'lari (satr. 330 + 340 + 350 + 360), aks ettirilib, uning tarkibida quyidagilar kiritiladi:

Balansning joriy aktivlar bo'limidagi «Kassadagi pul mablag'lari» (330-satr) moddasida davrining oxirgi sanasiga korxonada kassalaridagi, milliy valyuta va chet el valyutasidagi pul mablag'lari qoldig'i aks ettiriladi. Kassadagi pul

mablagʻlari hisobi kassadagi pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlarda (5000) amalga oshiriladi.

Balansning «Hisob-kitob hisobidagi pul mablagʻlari» (340-satr) moddasida hisobot davrining oxirgi sanasiga banklardagi hisob-kitob hisoblarida mavjud boʻlgan, milliy valyutada pul mablagʻlari qoldigʻi aka ettiriladi. Hisob-kitob schyotida milliy valyutadagi pul mablagʻlarining hisobi 5110 «Hisob-kitob hisobi» schyotida yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar boʻlimidagi «Chet el valyutasidagi pul mablagʻlari» (350-satr) moddasida korxonaning banklardagi valyuta hisoblarida mavjud boʻlgan, hisobot davrining oxirgi sanasidagi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi boʻyicha milliy valyutada baholangan valyuta mablagʻlarining qoldigʻi aks ettiriladi. Chet el valyutasidagi pul mablagʻlarining hisobi chet el valyutasidagi pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlarda (5200) yuritiladi.

Balansning joriy aktivlar boʻlimidagi «Boshqa pul mablagʻlari va ekvivalentlari» (360-satr) moddasida bankdagi maxsus hisoblardagi pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar (5500), pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar (5600), yoʻldagi pul mablagʻlarini (oʻtkazmalarini) hisobga oluvchi schyotlarida (5700) hisobga olinadigan korxonaning pul mablagʻlari qoldigʻi koʻrsatiladi.

Qisqa muddatli investitsiyalar - koʻp hollarda oʻz ichiga davlat xazinasidagi qimmatbaho qogʻozlarni, pul bozori jamgʻarmalarini va tijorat qogʻozlarini oladi. Qisqa muddatli investitsiyalar pul mablagʻlari yoki pul ekvivalentlari deb tushunilishi mumkin va ular sotib olish qiymati va joriy bozor qiymatidan eng past qiymati boʻyicha baholanadi.

Balansning joriy aktivlar boʻlimidagi «Qisqa muddatli investitsiyalar» (370-satr) moddasida qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlarida (5800) amalga oshiriladigan korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qogʻozlariga, davlat obligatsiyalari va mahalliy qarz (zayom) hamda shu singarilarga qisqa muddatli (12 oydan oshmaydigan muddatga) investitsiyalar,

shuningdek boshqa korxonalariga berilgan qarzlilar va boshqa joriy investitsiyalar aks ettiriladi.

Balansning joriy aktivlardagi «Boshqa joriy aktivlar» (380-satr) moddasida 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» va 5920 «Boshqa joriy aktivlar» schyotlarida yuritiladigan mazkur hisobot davrida inventarizatsiyada aniqlangan va ular bo‘yicha aybdor shaxslar buzilishidan kamomadlar, o‘g‘irliklar va qiymatliklarni shikastlashdan yo‘qotishlar summasi hamda yuqorida keltirilgan bo‘lim moddalarida nazarda tutilmagan, biroq korxonalar mulki hisoblangan boshqa joriy aktivlar aks ettiriladi.

Balansning «II bo‘lim bo‘yicha jami» (390-satr) moddasi bo‘yicha 140, 190, 200, 210, 320, 370, 380-satrlar bo‘yicha joriy aktivlarning jami summa aks ettiriladi.

Balansning 400-(sotr) moddasida «Balans aktivi bo‘yicha jami» bo‘yicha 130 sotr (sotr. 012 + 022 + 030 + 090 + 100 + 110 + 120) ning jami hamda 390- sotr (sotr. 140 + 190 + 200 + 210 + 320 + 370 + 380) ning jamini qo‘shish yo‘li bilan olingan aktivlarning jami summasi aks ettiriladi 130-sotr + 390-sotr).

Xususiy kapital

Xususiy kapital. Xususiy kapital ustav, qo‘shilgan, rezerv kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan iborat bo‘ladi. Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar va majburiyatlar qiymatini baholashga bog‘liqdir. Zarur hollarda ustav, qo‘shilgan, rezerv kapitali analitik kesimda hisobga olinishi mumkin. *Xususiy kapital* - bu firmadagi mulkdorlarning egalik qilish ulushidir. U qoldiq ulush hisoblanadi, chunki u o‘zida firmaning aktivlaridan majburiyatlar chegirilgandan keyin qolgan summani aks ettiradi. Xususiy kapital o‘z ichiga qo‘yilgan kapital va taqsimlanmagan foydani oladi. Qonunchilik talablariga muvofiq, manbalarni aniqroq aks ettirish uchun xususiy kapital quyi bo‘limlarga ega bo‘ladi. Korporatsiyalar uchun ko‘pincha quyidagi manbalar xarakterlidir:

- aksiyadorlik kapitali;
- qo‘shimcha kiritilgan kapital;
- boshqa kiritilgan kapital;

- taqsimlanmagan foyda.

Balans passivining I. O‘z mablag‘lari manbalari deb nomlanadi. Aksiyadorlik (kiritilgan) kapitali. Ushbu moddada emissiya summasidagi xususiy kapital haqida axborot mavjud. Har bir turdagi aksiya, oddiy va imtiyozli, e‘lon qilingan (nominal) qiymat bo‘yicha aks ettiriladi. Aksiyalar har bir turining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha alohida hisobga olinishi kerak.

Balans passivining “O‘z mablag‘lari manbalari” bo‘limidagi «Ustav kapitali» (410-satr) moddasida ta‘sis hujjatlarida korxonada ta‘sischilari ulushlarining (hissalari, nominal qiymat bo‘yicha aksiyalari, pay badallarining) yig‘indisi sifatida ro‘yxatga olingan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi. Ustav kapitalining hisobi ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8300) yuritiladi.

Nominalni oshirish uchun kiritilgan kapital korporatsiya-ning o‘z aksiyalarini nominal qiymatidan ortiq narxda sotilishi natijasida yuzaga kelgan aktivlari to‘g‘risida axborot beradi.

Balans passivining “O‘z mablag‘lari manbalari” bo‘limidagi «Qo‘shilgan kapital» (420-satr) moddasida qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlarda (8400) yuritiladigan aksiyalarni nominal qiymatdan yuqori narxlarda birlamchi sotishda olingan emission daromad summasi, korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta‘sis hujjatlarini ro‘yxatga olish sanasi bilan mablag‘larni ustav kapitaliga haqiqatda kiritish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kurslari o‘rtasida yuzaga keladigan kurslardagi farq summasi aks ettiriladi.

Zaxira kapitali. Kiritilgan kapitalning ushbu manbasi quyidagi operatsiyalarning natijasi bo‘lib hisoblanadi: kompaniyaga beg‘araz sovg‘a qilingan aktivlar va kompaniya kapitali tuzilishining o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan kapital hisoblanadi.

Balans passivining “O‘z mablag‘lari manbalari” bo‘limidagi «Rezerv kapitali» (430-satr) moddasida rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8500) yuritiladigan uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo‘ladigan inflyatsiya rezervlari, qonunchilik va ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan

miqdorlarda sof foydadan ajratmalar hisobiga tashkil etilgan rezerv fondi, shuningdek tekinga olingan mol-mulk qiymati aks ettiriladi. Mazkur modda bo'yicha soliq solishdan ozod qilish natijasida bo'shaydigan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan bojxona to'lovlarini, budjetga soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq imtiyozlari summolari ham aks ettiriladi.

Balans passivining "O'z mablag'lari manbalari" bo'limidagi «Sotib olingan xususiy aksiyalar» (440-satr) moddasi bo'yicha korxonada bo'lgan, ularni keyinchalik tarqatish yoki yo'q qilish (bekor qilish) uchun sotib olingan xususiy aksiyalari, hissalar va paylarining qiymati ko'rsatiladi. Sotib olingan xususiy aksiyalari, hissalar va paylari sotib olingan xususiy aksiyalarini hisobga oluvchi schyotlarida (8600) hisobga olinadi.

Taqsimlanmagan foyda. Taqsimlanmagan foyda jamg'arilgan (korxonaning butun faoliyati davomida) sof foydasidan dividendlar va zahiralariga ajratmalarning ayirmasini aks ettiradi. Taqsimlanmagan foyda dividendlarni to'lashga qaratilgan summaga (cheklanmagan taqsimlanmagan foyda) va ma'muriyat yoki qonunchilik talablariga ko'ra cheklanishi mumkin bo'lgan (cheklangan taqsimlanmagan foyda) summaga bo'linishi mumkin.

Balans passivining "O'z mablag'lari manbalari" bo'limidagi «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» (450-satr) moddasida taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schyotlarida (8700) yuritiladigan hisobot yilining sof foydasi (zarari) va o'tgan yillarning jamg'arilgan foydasi (zarari) aks ettiriladi. Agar korxonaga zarar olgan bo'lsa, hisobot davrining oxirida ushbu zarar ushbu modda bo'yicha «minus» belgisi bilan ko'rsatiladi.

Mazkur bo'limdagi «Maqsadli tushumlar» (460-satr) moddasida maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlarida (8800) hisobga olingan, olingan grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari summolari va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun boshqa maqsadli tushumlar aks ettiriladi.

Shunindek, mazkur bo‘limda «Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar» (470-satr) moddasida korxonadan kelgusi xarajatlari va to‘lovlar uchun xarajatlarda bir tekisda taqsimlash maqsadida zaxira qilingan mablag‘lar ko‘rsatiladi.

Balans passivining 480 moddasida “O‘z mablag‘lari manbalari” bo‘limi bo‘yicha jami (satr. 410 + 420 + 430 – 440 + 450 + 460 + 470) summasi aks ettiriladi.

Majburiyat — xo‘jalik yurituvchi sub’ekt boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy mas’uliyatli ekanligi hisoblanadi. Majburiyatlar olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to‘lanadigan summalar. Majburiyatlar odatiy tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki holisona tarzda ish ko‘rishda ham yuzaga keladi. Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari natijasi sifatida kuchga kiradi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivni sotib olish to‘g‘risida bitimga kirishgandagina paydo bo‘ladi.

Uzoq muddatli majburiyatlar - bu keyingi biznes sikli yoki keyingi hisobot yili (qaysi biri uzunroq bo‘lsa) davomida joriy aktivlarni to‘lash uchun ishlatilishini talab kilmaydigan majbu-riyatlaridir. Uzoq muddatli majburiyatlar berilgan majburiyat-larning kelib chiqishiga olib kelgan aktivlar yoki ko‘rilgan xizmat-larning qiymatlari bo‘yicha tan olinadi. Uzoq muddatli majbu-riyatlar o‘z ichiga davr xarajatlari, deb aks ettirilgan foizni oladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga misol qilib, to‘lanadigan obli-gatsiyalar, to‘lanadigan uzoq muddatli veksellar, nafaqalar, muddati uzaytirilgan uzoq muddatli daromadlar (mijozlardan uzoq mud-datli to‘lovlar) va uzoq muddatli ijara majburiyatlarini kel-tirish mumkin.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Uzoq muddatli majburiyatlar, jami» (490-satr) moddasida 500, 520, 530, 540, 550, 560, 570, 580, 590-satrlarda ko‘rsatilgan korxonaning uzoq muddatli (qoplash muddati bir yildan ortiq bo‘lgan) majburiyatlari ko‘rsatiladi. 491-satrdan ma’lumot uchun 500, 520,

540, 560, 590-satrlarda ko‘rsatilgan korxonaning uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summasi ko‘rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz» (500-satr) moddasida 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan hisoblar» va 7020 «Berilgan veksellar» hisoblarida yuritiladigan, olingan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli majburiyatlar summasi ko‘rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz» (510-satr)) moddasida 7110 «Ajratilgan bo‘linmalarga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida yuritiladigan ajratilgan bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ga uzoq muddatli majburiyatlar aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha axborotlar ma’lumot uchun keltiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarz» (520-satr)) moddasida 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida yuritiladigan sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarzlar (ichki idora hisob-kitoblari) aks ettiriladi.

Muddati uzaytirilgan majburiyatlar. Ayrim kompaniyalar «Muddati uzaytirilgan majburiyatlar» moddasini uzoq muddatli majburiyatlar va xususiy kapital orasiga kiritishlari mumkin. Muddati uzaytirilgan majburiyatlar tasniflanishi qiyin bo‘lgan kredit qoldiqli uzoq muddatli moddalarning balans tasnifi hisoblanadi. Muddati uzaytirilgan majburiyatlarga kiritilgan namunali moddalar - bu uzoq muddatli uzaytirilgan soliqlar, kechiktirilgan daromadlar (uzoq davrda yig‘ilgan daromadlar) va kapital qo‘yilmalarning muddati uzaytirilgan soliq chegirmalaridir.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» (530-satr)) moddasida 7210 «Diskont (chegirma) ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar», 7220 «Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan muddatli daromadlar»,

7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» hisoblarida amalga oshiriladigan korxonaning uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlari summasi ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» (540-satr)) moddasida 7240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida amalga oshiriladigan tashkilotlarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlari summasi ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» (550-satr)) moddasida 7250 «Vaqtinchalik farq bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar», 7290 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» hisoblarida yuritiladigan, korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq, boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlari summasi ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» (560-satr)) moddasida 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotida hisobga olingan, kelgusi hisob-kitoblar bo‘yicha bo‘naklar ko‘rinishida boshqa tashkilotlardan olingan uzoq muddatli qarzlari summasi ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Uzoq muddatli bank kreditlari» (570-satr)) moddasida 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» hisobida hisobga olingan, olingan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha banklardan qarzi summalari ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Uzoq muddatli qarzlari» (580-satr) moddasi bo‘yicha 7820 «Uzoq muddatli qarzlari», 7830 «To‘lanadigan obligatsiyalar», 7840 «To‘lanadigan veksellar» schyotlarida hisobga olingan, boshqa korxonalar va muassasalardan uzoq muddatli qarzlari bo‘yicha qarzi summalari ko'rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari» (590-satr)) moddasida turli kreditorlarga bo‘lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarida (7900) hisobga olingan, korxonaning ijaraga beruvchi (lizing beruvchi), xodimlar, turli jismoniy va yuridik shaxslar oldida turli xil notijoriy operatsiyalar bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlari summalari, sud organlarining ijro hujjatlari yoki qarorlari asosida turli tashkilotlar va ayrim shaxslar foydasiga korxonada xodimlarining ish haqidan ushlangan summalar ko‘rsatiladi.

Qisqa muddatli majburiyatlar o‘z ichiga joriy aktivlar bilan qoplanishi yoki boshqa qisqa muddatli majburiyatlar bilan qayta moliyalashtirilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni oladi. Qisqa muddatli majburiyatlar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxonaning asosiy faoliyatiga tegishli tovar va xizmatlar uchun to‘lanadigan hisobvaraqlar;
- kelgusi hisobot davriga tegishli bo‘nak sifatida olingan daromadlar (oldindan olingan ijara to‘lovi);
- ish haqi, foizlar va soliqlarni to‘lash (budgetga o‘tkazil-magan daromad soliqlari va mol-mulk soliqlarini qo‘shgan holda) bo‘yicha majburiyatlar;
- ta‘sischilar oldidagi qarzdorlik;
- hisobot davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli qarz majburiyatlarining joriy qismi (ijara majburiyatlarni hisobga olgan holda);
- qisqa muddatli bank va bankdan tashqari olingan kreditlar va qarzlari.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Joriy majburiyatlar, jami» (600-satr) moddasi bo‘yicha 610, 630, 640, 650, 660, 670, 680, 690, 700, 710, 720, 730, 740, 750, 760-satrlarda ko‘rsatilgan korxonani joriy majburiyatlarining (bir yildan kam bo‘lgan muddatli) summasi aks ettiriladi. 601-satrdagi 610, 630, 650, 670, 680, 690, 700, 710, 720, 760-satrdagi ko‘rsatilgan korxonani joriy kreditorlik qarzlari summasi ma‘lumot uchun ko‘rsatiladi. 602-satrdagi korxonani joriy kreditorlik qarzlari muddati o‘tgan qismi ma‘lumot uchun ko‘rsatiladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz» (610-satr) moddasida 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan hisoblar» va 6020 «Berilgan veksellar» hisoblarida yuritiladigan olingan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar oldidagi joriy majburiyatlar summasi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Ajratilgan bo‘linmalarga qarz» (620-satr) moddasida 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan hisoblar» hisobida yuritiladigan, ajratilgan bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ga joriy majburiyatlar aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha axborotlar ma‘lumot uchun aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga qarz» moddasida (630-satr) hisobi 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan hisoblar» hisobida yuritiladigan, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga joriy qarzlari (ichki idora hisob-kitoblari) aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Kechiktirilgan daromadlar» (640-satr) moddasida 6210 «Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar», 6220 «Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar», 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» hisoblarida yuritiladigan, kechiktirilgan daromad bo‘yicha korxonalar majburiyatlarining summasi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» (650-satr) moddasida 6240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» hisobida amalga oshiriladigan, tashkilotlarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlari summasining joriy qismi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar» (660-satr) moddasida 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar», 6290 «Boshqa kechiktirilgan

majburiyatlar» hisoblarida yuritiladigan, korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar summasi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Olingan bo‘naklar» (670-satr) moddasida olingan bo‘naklarni hisobga oluvchi hisoblarida (6300) hisobga olingan boshqa tashkilotlardan kelgusi hisob-kitoblar bo‘yicha bo‘naklar ko‘rinishida olingan qarz summasi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» (680-satr) moddasida 6410 «Budjetga to‘lovlar bo‘yicha (turlar bo‘yicha) qarz» hisobida hisobga olinadigan, budjetga to‘lovlarning barcha turlari, jumladan jismoniy shaxslar daromad solig‘i summasi bo‘yicha korxonaning qarzi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Sug‘urtalar bo‘yicha qarz» (690-satr) moddasida sug‘urtalanuvchi hisoblangan va hisobi 6510 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» hisoblarida yuritiladigan sug‘urta bo‘yicha to‘lovlarga doir qarz aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz» (700-satr) moddasida 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» va 6530 «Shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisoblarga to‘lovlar» hisoblarda yuritiladigan, korxonaning maqsadli davlat jamg‘armalariga qarzi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Ta‘sischilarga bo‘lgan qarzlar» (710-satr) moddasida 6610 «To‘lanadigan dividendlar», 6620 «Chiqib ketayotgan ta‘sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» va 6630 «Ta‘sischilarning ustav kapitalini oshirish bo‘yicha ulushlari» hisoblarida amalga oshiriladigan, korxonaning ta‘sischilar oldida dividendlar va chiqib ketayotgan ta‘sischilarga ulushlari bo‘yicha majburiyatlari summasi aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz» (720-satr) moddasida 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar», 6720 «Deponentlangan ish haqi» hisoblarida hisobga olingan,

hisoblangan, lekin hali to‘lanmagan mehnatga haq to‘lash summalari, mukofotlar, nafaqalar va hokazolar aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Qisqa muddatli bank kreditlari» (730-satr) moddasida 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» hisobida amalga oshiriladigan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha banklar oldidagi qarz summalari aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Qisqa muddatli qarzlar» (740-satr) moddasida 6820 «Qisqa muddatli qarzlar», 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar», 6840 «To‘lanadigan veksellar» hisoblarida amalga oshiriladigan boshqa korxonalar va shaxslardan olingan qarzlar (zayomlar) bo‘yicha qarz summalari aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi» (750-satr) moddasida 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar — joriy qismi» hisobida amalga oshiriladigan korxonani uzoq muddatli majburiyatlarining joriy qismi summalari aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «Boshqa kreditorlik qarzlar» (760-satr) moddasida 6910 «To‘lanadigan operativ ijara», 6920 «Hisoblangan foizlar», 6930 «Royalti bo‘yicha qarz», 6940 «Kafolatlar bo‘yicha qarz», 6960 «Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan hisoblar», 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz» va 6990 «Boshqa majburiyatlar» hisoblarida amalga oshiriladigan korxonaning turli kreditorlari bilan operatsiyalar bo‘yicha qarz summalari aks ettiriladi.

Balans passivining “Majburiyatlar” bo‘limidagi «II bo‘lim bo‘yicha jami» (770-satr) moddasi bo‘yicha 490 va 600-satrlar bo‘yicha summa aks ettiriladi.

Balans passivining «Balans passivi bo‘yicha jami» (780-satr) moddasida 480 va 770-satrlar bo‘yicha summalar natijasi sifatida olingan passivning jami summasi aks ettiriladi.

Balans passivining «Balansdan tashqari hisoblarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma» 790-940-satrlarda korxonaga tegishli bo‘lmagan, lekin vaqtincha uning foydalanishida yoki

tasarrufida bo'lgan qiymatliklar (operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar, mas'ul saqlashdagi, qayta ishlanayotgan va hokazo moddiy qiymatliklar), shartli huquqlar va majburiyatlar mavjudligi to'g'risidagi, shuningdek korxonaning balansdan tashqari hisoblarida hisobga olinadigan ayrim xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish uchun axborot ko'rsatiladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi
(buxgalteriya balansiga ilova)

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasida tashkilotning muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisobot davrining oxirgi sanasidagi holati aks ettiriladi. Ushbu rasshifrovka buxgalteriya balansini tuzish sanasiga tashkilotning muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjud bo'lsagina to'ldiriladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2-ustun - «Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan debitor va kreditorlar ro'yxati»da - debitor (kreditor)dan yuqori turadigan vazirliklar (idoralar) kesimidagi debitorlar va kreditorlar ro'yxati keltiriladi. Agar debitor (kreditor) yuqori turadigan vazirlikka (idoraga) ega bo'lmasa, debitor (kreditor) bo'lgan yuridik shaxsning to'liq nomini ko'rsatish lozim.

O'zbekiston Respublikasining tashqarisidagi muddati o'tgan qarzlari bo'yicha debitor (kreditor) nomi (to'liq yoki umumqabul qilingan qisqartirishlar bilan) qavslarda mamlakatning nomi ko'rsatiladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2-ustunda 2.1, 2.2.1, 3.1, 5.1, 5.2.1, 6.1-satrlar bo'yicha majburiy tartibda muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan debitor (kreditor)ning nomini ko'rsatish lozim.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 3-ustunda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarida qoplanmagan, muddati o'tgan qarzdorlikning umumiy summasi ko'rsatiladi, xususan:

a) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 1-satr bo'yicha muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko'rsatiladi, u 3-ustunning 2 va 3-satrlari summasiga teng bo'lishi kerak;

b) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 4-satr bo'yicha muddati o'tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi ko'rsatiladi, u 3-ustunning 5 va 6-satrlari summasiga teng bo'lishi kerak.

Muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi Buxgalteriya balans 1-son shaklining 211-satri summasiga muvofiq kelishi lozim.

Muddati o'tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi Buxgalteriya balans 1-son shaklining 602-satri summasiga muvofiq kelishi lozim.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 3-ustunda 2, 2.1, 2.2, 2.2.1, 3.3.1-satrlar bo'yicha 1-satrdan aks ettirilgan muddati o'tgan debitorlik qarzi umumiy summasining quyidagi tartibdagi rasshifrovkasi keltiriladi:

a) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2-satr bo'yicha respublika hududidagi muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko'rsatiladi;

b) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2.1-satr bo'yicha respublika hududidagi debitorlarning nomlari bo'yicha muddati o'tgan qarz ko'rsatiladi;

v) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2.2-satr bo'yicha ichki idoraviy muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi keltiriladi;

g) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 2.2.1-satr bo'yicha 2-satrdan ajratilgan, debitorlar nomlari bo'yicha ichki idoraviy muddati o'tgan qarz summasi ko'rsatiladi;

d) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 3-satr bo'yicha respublika tashqarisidagi muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko'rsatiladi;

e) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 3.1-satr bo'yicha respublika tashqarisidagi debitorlar nomlari bo'yicha muddati o'tgan qarz ko'rsatiladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 4, 5, 5.1, 5.2, 5.2.1, 6, 6.1-satrlar muddati o'tgan debitorlik qarzigacha o'xshash holda, ushbu Qoidalarining 96-3 va 96-4-bandlariga muvofiq to'ldiriladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining Tashkilotga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha yuzaga kelgan qarzlari bo'yicha:

a) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 4-ustunda tashkilotga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha yuzaga kelgan umumiy muddati o'tgan qarzi ko'rsatiladi, xususan:

muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 1-satr bo'yicha — muddati o'tgan debitorlik qarzining umumiy summasi, u 5, 6, 7, 8-ustunlarda ko'rsatilgan summaga teng bo'lishi kerak;

muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 4-satr bo'yicha - muddati o'tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi, u 5, 7, 8-ustunlarda ko'rsatilgan summaga teng bo'lishi kerak;

b) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 5-ustunda tashkilotning O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga ko'ra oldindan haq to'lamasdan yuklab jo'natilgan (olingan) mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha umumiy muddati o'tgan debitorlik (kreditorlik) qarzi ko'rsatiladi;

v) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 6-ustunda davlat zaxiralari va jamg'armalaridan xom ashyo hamda materiallarni yuklab jo'natish nazarda tutilgan o'tkazilgan bo'nak to'lovlarining summasi ko'rsatiladi. 6-ustunda aks ettiriladigan ma'lumot faqat muddati o'tgan debitorlik qarzi qismida to'ldiriladi;

g) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 7-ustunda tashkilotning O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga ko'ra qarzni qoplash muddati belgilangan muddatdan o'tgan kechiktirilgan qarzi aks ettiriladi;

d) muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining 8-ustunda qonun hujjatlariga muvofiq, taqdim etilgan da'volar bo'yicha sudga ko'rib chiqish jarayoni borayotgan muddati o'tgan qarzi summasi ko'rsatiladi. Xuddi shu yerda

kreditordan ushbu qarzni undirish to'g'risida xo'jalik sudi qarorlari chiqarilgan muddati o'tgan qarz ham aks ettiriladi.

muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari shaklining Zarurat tug'ilgan hollarda tashkilotlarga «Tashkilotga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha vujudga kelgan muddati o'tgan qarzlarni» bo'limida qo'shimcha ustunlar ochishga ruxsat beriladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi satrlarining miqdori tegishli 2.1, 2.2.1, 3.1, 5.1, 5.2.1, 6.1-satrlar bo'yicha ko'rsatiladigan debitorlar va kreditorlar miqdoriga bog'liq.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Moliyaviy hisobotda joriy aktiv va joriy majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro hisobni o'tkazish mumkin emas. O'zaro hisob - bu aktivlardan majburiyatlarni ayirish jarayonidir. U korxonaning amaldagi aniqroq joriy koeffitsientini cheklab o'tib, yaxshirog'ini ko'rsatish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, balans aktivida mazkur korxonada ixtiyoridagi mablag'lar turi va ularning ma'lum davrda aylanishidagi joylanishi keltiriladi.

Buxgalteriya balansi hisobot davrining birinchi kuniga tuziladi. Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda xo'jalik mablag'lari tarkibi va hajmi sodir bo'layotgan operatsiyalar ta'sirida uzluksiz o'zgarib turadi.

Yillik hisobot tartibida unda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, chunki xalqaro operatsiyalar talablariga yaqinlashdi va bozor munosabatlariga reyting mazmuni ichki va tashqi foydalanuvchilar va undan foydalanish imkoniyatini beradi. Ichki va tashqi qizuvchilar uchun korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy barqarorligi, kreditor qarzlarning hajmi, bank ssudalari bo'yicha qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur.

Korxonada ichida balansda keltirilgan axborotlar xo'jalik faoliyatini tahlil etish, xarajatlar va yo'qotishlarni qisqartirish rezervlarini qidirib topishi, korxonada tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan to'lanadigan jarimalar, penyalar sabablarini bartaraf etishda keng qo'llaniladi.

Yillik hisobotga tushuntirish xati, korxonalar rahbarining faoliyatining yoʻnalishi toʻgʻrisidagi maʼruzasi ilova qilinadi. Bu korxonaning asosiy tahliliy hujjatlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Bunda asosiy koʻrsatkichlar boʻyicha reja bajarilishiga taʼsir etuvchi quyidagi omillar ochib tashlanadi: miqdori, assortimenti, sifati, mahsulot sotish hajmi, foyda summasi, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, samaradorlik, ilmiy – konstruktorlik ishlarini natijalari va istiqbollari va shu kabi-lar. Tushuntirish xatining mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya xususiyatlari bilan belgilanadi.

Quyida hozirgi vaqtda qoʻllanilayotgan balans shaklini keltiramiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27-dekabrda 140-sonli buyrugʻiga 1-sonli ilovasida keltirilgan balansning shakli mazkur qoʻllanmaning ilova qismida keltirilgan.

Konsolidallashgan moliyaviy hisobotlar tuzishning asosiy maqsadi bosh va shoʻba kompaniyalar faoliyatini yagona xoʻjalik tashkilotidek qilib koʻrsatishdir. Konsolidallashgan hisoblar tuzish va ham shoʻba xoʻjalik jamiyatlariga qoʻyilgan investitsiyalar hisobi 8-BHMS bilan tartibga solinadi.

Konsolidallashgan balansda bosh va barcha shoʻba korxonalarining moddiy zaxiralari birga qoʻshib koʻrsatiladi. Konsolidallashgan balansni tayyorlashda bosh va shoʻba kompaniyalarining hisobotlaridan tegishli moddalar birlashtiriladi. Bosh va shoʻba kompaniyalar orasida sodir boʻlgan muomalalar natijasi saldolanadi.

Masalan, bir kompaniya ikkinchi kompaniyadan boʻlgan qarzini qaytarilishi yoki ular orasidagi oldi - sotdi muomalalari. Hisobot tuzishda bosh korxonalar bilan shoʻba korxonalar orasidagi bunday muomalalar shartlarning umumiy yigʻindisi aks ettirilmaydi, chunki oldi - sotdi muomalalari, qarzni toʻlash va uni olish kompaniya ichidagi pul mablagʻlarini koʻpaytirib yuboradi.

Ikkilamchi hisoblashda yoʻqotish maqsadida bir qancha muomalalar boʻyicha bartaraf qilish, yoki tuzatish usulidan foydalaniladi. Tuzatish usulida faqat hisobotni tayyorlash jarayonida foydalaniladi va bosh ham shoʻba firmalarining buxgalteriya registrlarida aks ettirilmaydi. Hech qanday

konsolidallashtirilgan hisob registri yuritilmaydi.

Guruhlar ichidagi saldo va muomalalar to'liq bartaraf qilinishi kerak.

Basharti konsolidallashtirilgan foydalanilayotgan moliyaviy hisobotlar turli hisobot sanasiga tuzilgan bo'lsa, bosh korxonalar tuzgan moliyaviy hisobot sanasi bilan sho'ba korxonalar tomonidan tuzilgan hisobot sanasi orasida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari natijalariga tuzatish kiritish zarur. Lekin barcha hollarda ham moliyaviy hisobotlar tuzilgan sanalari orasidagi muddatning farqi uch oydan oshmasligi kerak. Konsolidallashtirilgan moliyaviy hisobotlarni yagona hisob siyosatidan foydalanib tuzilishi kerak.

20.5. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning maqsadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot davridagi moliyaviy faoliyatini ko'rsatadi va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usuldan iborat bo'ladi.

1998 yil 14 avgustda 474 sonli O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-BHMS moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagi majburiy elementlar bo'lishi lozim ko'rsatilgan:

1. Realizatsiyadan tushgan mablag;
2. Operatsiya faoliyatining natijalari;
3. Moliyaviy faoliyat natijalari;
4. Favqulodda foydalar va zararlar;
5. Shu davrdagi sof foyda yoki zarar.

O'zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartining 3-BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (1998 yil 27- avgustda 484-sonli O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagilarni ochib berish ko'rsatilgan:

1. Savdo-sotiqdan tushgan sof tushum;

2. Savdo-sotiqning yalpi moliyaviy natijalari;
3. Asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlari va xarajatlari;
4. Asosiy xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar);
5. Moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar;
6. Xo‘jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi;
7. Favqulodda foyda va zarar;
8. Daromad soligi to‘langunga qadar umumiy moliyaviy natijalar (foydalar yoki zararlar);
9. Hisobot davridagi sof foyda (zarar).

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot 3 - milliy buxgalteriya hisobi standartti «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ga binoan joriy bux-galteriya ma‘lumotlari bo‘yicha tuziladi.

“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-sonli shaklning «Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)larni sotishdan sof tushum» (010-satr) moddasida mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko‘rsatiladi, bunda soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi.

010-satr asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) ma‘lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi. Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar 010-satr bo‘yicha joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summasini aks ettiradilar. Vositachi korxonalar 010-satrdan komission haqlar summasini aks ettiradilar.

«Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi» (020-satr) moddasidasotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxini hisobga oluvchi schyotlarda (9100) hisobga olingan, sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi summasi ko‘rsatiladi. Savdo korxonalari ushbu satr bo‘yicha sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradilar.

Hisobotning 010 - qator 90 «Asosiy (operatsion) faoliyatdan olingan daromadlar» schyotining tegishli 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» (9010 - 9030) subschyotlaridan olinadi. Bu schyotlarning summasidan 9050 - «Sotilgan to-varlarning qaytarilishi va chegirmalar» schyotining summasi chiqarib tashlanadi.

Hisobot shaklining 020 - qator summasi 9110 - «Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» schyotining tegishli subschyotlari 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi», 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi», 9130 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi», 9140 «Davriy hisobda TMZ sotib olish/xarid qilish» (9110 - 9140) dan olinadi.

Hisobot shaklining 030 - qator summasini topish uchun 010 - qator summasidan 020 – qator summasini ayirib tashlash kerak. «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)» (030-satr) mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi o'rtasidagi farq (010-satr-020-satr) sifatida aniqlanadi.

“Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” 2-sonli shaklning «Davrxarajatlari, jami» (040-satr)moddasi bo'yicha 050, 060, 070-satrlar bo'yicha jami summa aks ettiriladi.

Davrxarajatlari tarkibidagi «Sotish xarajatlari» (050-satr) moddasida 9410 «Sotish xarajatlari» schyotida amalga oshiriladigan: mahsulotni sotish xarajatlari, ya'ni mahsulotni iste'molchiga yetkazish, transport vositalariga ortish bilan bog'liq xarajatlar, marketing bilan shug'ullanadigan bo'limlar va xodimlarning xarajatlari va hokazolar aks ettiriladi. «Sotish bo'yicha xarajatlar» moddasida (050 qator) sotish bo'yicha xarajatlar aks ettirilib, ular bosh kitobdan yoki oborotlar vedostidagi 9410 - «Sotish bo'yicha xarajatlar» schyotidan olinadi.

Davrxarajatlari tarkibidagi «Ma'muriy xarajatlar» (060-satr) moddasi bo'yicha hisobi 9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyotida yuritiladigan: korxonani boshqarish xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, umumma'muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari,

umumxo‘jalik maqsadidagi xonalarning ijara haqi va boshqa ma‘muriy xarajatlar ko‘rsatiladi. «Ma‘muriy xarajatlar» moddasi bo‘yicha (060 qator) ma‘lumotlar bosh kitobdan yoki oborotlar vedostidagi 9420 - «Ma‘muriy xarajatlar» schyotidan olinadi

Davr xarajatlari tarkibidagi «Boshqa operatsion xarajatlar» (070-satr) moddasidahisobi 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»schyotida amalga oshiriladigan: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axborot, auditorlik va maslahat xizmatlariga haq to‘lash xarajatlari, kompensatsiya va rag‘batlantirish xususiyatdagi to‘lovlar, ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar, bank, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq, zararlar, jarimalar, penyalar va operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog‘lanmagan va xarajatlarning favqulodda moddalari sifatlariga ega bo‘lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi. «Boshqa operatsion xarajatlar» moddasi bo‘yicha (070 qator) ma‘lumotlar ma‘lumotlar bosh kitobdan yoki oborotlar vedostidagi 9430 - «Boshqa ma‘muriy xarajatlar» schyotidan olinadi.

“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-sonli shaklning «Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari» (090-satr) moddasida asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarida 9310 “Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda”,9320 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda”, 9330 “Undirilgan jarima, penya va ustamalar”, 9340 “O‘tgan yillar foydalari”, 9350 “Operativ ijaradan daromadlar”, 9360 “Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar”, 9370 “Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar daromadlari”, 9380 “Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam”, 9390 “Boshqa operatsion daromadlar” (9300) amalga oshiriladigan asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarima va penyalar, o‘tgan yillar foydasi, operativ ijaradan daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromadlar, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning daromadlari, tekin (bepul) moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko‘rsatiladi.

«Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)» (100-satr) moddasida mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)dan (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadigan korxonani asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko‘rsatiladi.

“**Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot**” 2-sonli shakl ning «Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami» (110-satr) moddasida 120, 130, 140, 150, 160-satrlar bo‘yicha jami summa aks ettiriladi. Mazkur satrdagi moliyaviy faoliyat daromadlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi

“**Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar**” schyotlardan olinadi . Bular 9510 “Royalti ko‘rinishidagi daromadlar”, 9520 “Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar”, 9530 “Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar”, 9540 “Valyutalar kurslari farqidan daromadlar”, 9550 “Moliyaviy ijaradan daromadlar”, 9560 “Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar”, 9590 “Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari” schyotlari hisoblanadi.

«Dividendlar shaklidagi daromadlar» (120-satr) moddasida 9520 «Dividendlar ko‘rinishida daromadlar»schyotida yuritiladigan: O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxonaga egaligida bo‘lgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividendlar aks ettiriladi.

«Foizlar shaklidagi daromadlar» (130-satr) moddasida 9530 «Foizlar shaklidagi daromadlar»schyotida yuritiladigan, uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar ko‘rinishida daromadlar ko‘rsatiladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkni moliyaviy ijaraga berish hisoblanmagan tashkilotlar «Moliyaviy ijaradan daromadlar» (140-satr) moddasida 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar»schyotida yuritiladigan mol-mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olgan daromadlarini aks ettiradilar.

«Valyuta kursi farqidan daromadlar» (150-satr) moddasida 9540 «Valyuta kursi farqidan daromadlar»schyotida amalga oshiriladigan, valyuta operatsiyalari

bo'yicha ijobiy kurs farqlaridan, shu jumladan balansni tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan daromadlar aks ettiriladi.

«Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» (160-satr) moddasida 9510 «Royalti ko'rinishida daromadlar», 9560 «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar». 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyotlarida amalga oshiriladigan qimmatli qog'ozlarni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar, royalti ko'rinishida daromadlar va moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar ko'rsatiladi.

“**Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot**” 2-sonli shaklning «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami» (170-satr) moddasida 180, 190, 200, 210-satrlar bo'yicha jami summa aks ettiriladi. Mazkur satrdagi moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi “**Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar**” schyotlardan olinadi. Bular 9610 “Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar”, 9620 “Valyutalar kurslari farqidan zararlar”, 9630 “Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar”, 9690 “Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar” schyotlari hisoblanadi.

«Foizlar shaklidagi xarajatlar» (180-satr) moddasidahi sobi 9610 «Foizlar shaklidagi xarajatlar» schyotida amalga oshiriladigan, bank kreditlari va qarzlilar bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari ko'rsatiladi.

«Moliyaviy ijara bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar» (190-satr) moddasidahi sobi 9610 «Foizlar shaklidagi xarajatlar» schyotida yuritiladigan moliyaviy ijara bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

«Valyuta kursi farqidan zararlar» (200-satr) moddasidahi sobi 9620 «Valyuta kursi farqidan zararlar» schyotida amalga oshiriladigan, valyuta operatsiyalari bo'yicha va balans tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan salbiy kurs farqlari aks ettiriladi.

«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» (210-satr) moddasidahi sobi 9630 «Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari» va 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» schyotlarida amalga oshiriladigan,

qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar hamda moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobot 2-shaklining «Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)» (220-satr) moddasida asosiy faoliyatning foydasi (zarari) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatning daromadlari summasini (110-satr) qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo'li bilan aniqlanadigan korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natijalari aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobot 2-shaklining «Favquloddagi foyda va zararlar» (230-satr) moddasida «Daromadlar (foyda)» ustuni 9710 «Favquloddagi foydalar» hisobining ma'lumotlari, «Xarajatlar (zararlar)» ustuni esa 9720 «Favquloddagi zararlar» schyotining ma'lumotlari bo'yicha to'ldirilib, favqulodda voqealar natijalari ko'rsatiladi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-sonli shaklning «Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)» (240-satr) moddasida +/- belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo'shish natijalari aks ettiriladi.

«Foyda solig'i» (250-satr) moddasida 9810 «Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» schyotida hisobga olingan hisobot davri boshidan hisoblangan foyda solig'i summasi ko'rsatiladi.

«Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar» (260-satr) moddasida qonun hujjatlariga muvofiq tashkilot foydasi hisobidan to'lanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yil boshidan hisoblangan summasi aks ettiriladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan korxonalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq 260-satr bo'yicha hisoblangan yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq summasini aks ettiradilar.

«Hisobot davrining sof foyda (zarari)» moddasi bo'yicha (270 qator) ma'lumotlar 240 qator summasidan 250 va 260 qatorlar summalarini ayirish yo'li bilan topiladi. **«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-sonli shaklning**

«Hisobot davrining sof foydasi (zarari)» (270-satr) moddasida 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida aniqlangan hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasi ko'rsatiladi.

Bundan tashqari **“Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” 2-sonli shaklga** «Budjetga to'lovlar bo'yicha ma'lumotnoma»da (280-470-satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlarni hisoblangan va to'lanadigan soliqlar va to'lovlar turlari bo'yicha aks ettiriladi. Mazkur ma'lumotnomaning 480-satrida korxonalar tomonidan hisobot davri uchun budjetga soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlarning hisoblangan va to'langan jami summasi ko'rsatiladi. Agarda korxonalarda hisobot davri uchun hisob-kitoblar bo'yicha qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy farq mavjud bo'lsa, «Hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha to'lanadi» ustuni bo'yicha 310-satrdan ushbu manfiy farq summasi «minus» belgi bilan ko'rsatiladi.

20.6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va uni tuzish usullari.

Pul oqimi to'g'risida hisobot ma'lum bir hisobot davrida korxonaning pul mablag'lari holatiga operatsion, investitsiya va mo-liyaviy faoliyati ta'sirini aks ettiradi va shu davr ichida pul mablag'lari o'zgarishini ko'rsatadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- korxonaning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyatini, shuningdek, shunga o'xshagan pul mablag'laridan foydalanishda korxonaning ehtiyojini baholash;
- korxonaning sof aktividagi o'zgarishlarni, uning (to'lov qo'biliyati ham qo'shilgan holda) moliyaviy strukturasi va uning o'zgaruvchan vaziyat va imkoniyatlariga moslashish maqsadida pul oqimlarining summalari va o'z vaqtida tushishiga ta'sir etish qobiliyatini baholash;

- turli korxonalarining operatsion faoliyati to'g'risidagi hi-sobotni taqqoslash. Chunki bu xo'jalik faoliyatining bir xil muomala va voqealari uchun buxgalteriya hisobining turli usul-laridan foydalanish oqibatlarini bartaraf etadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotda hisobot davri ichida pul mab-lag'lari oqimi quyidagi faoliyatlar bo'yicha tasniflanadi:

- operatsion faoliyati;
- investitsion faoliyati;
- moliyaviy faoliyati.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablaglari va ularning ekvivalentlari bo'yicha majburiy ravishda axborot taqdim etishini belgilab qo'yishdan iborat. Bu axborot pul mablaglari oqimi to'g'risidagi hisobot ko'rinishida bo'lib, unda hisobot davrida operatsiya, investitsiya va moliya faoliyatida yuz beruvchi pul oqimlari harakati tasnif etiladi.

1998 yil 14 avgustda 474 sonli O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"iga alohida e'tibor berilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" BXMSiga muvofiq ravishda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etishga majbur deb ta'kidlagan. "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" deb nomlangan BHMS pul harakatiga oid hisobot taqdim etishni va unga taalluqli tushuntirishlarni berishni talab qiladi. Naqd pul oqimi to'g'risidagi axborot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablagini va pul ekvivalentlarini xo'jalik sub'ektining ehtiyotlariga yo'llash qobiliyatini baholash imkoniyatini taqdim etishda foydalidir.

O'zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartining 3-BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" (1998 yil 4- noyabrda 519-sonli

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan) Pul oqimlari to‘grisdagi ma’lumotlarni ochib beradi.

Pul oqimlari to‘grisdagi hisobot pul tushumlari va to‘lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsiya faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablagiga birgalikda ta’siri hisobot davrida pul mablagining sof o‘zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to‘grisdagi axborot bo‘lajak pul oqimlari prognozi to‘griligini tekshirish chogida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o‘zgarishi ta’siri o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chogida zarur bo‘ladi

Pul oqimlari - pul mablaglari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to‘grisdagi hisobot - hisobot davrida pul mablagi oqimlarini batafsil ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

Operatsiya faoliyati - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek sub’ektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya ob’ektlarini sotib olish va sotish.

Moliya faoliyat - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablagi va qarz mablaglari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi.

Opyerasiya faoliyati. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning operatsiya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to‘lash, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Operatsiya faoliyatidan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to‘grisdagi axborotdan operatsiya faoliyatidan

bo'lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo'shib foydalanish mumkin bo'ladi.

Operatsiya faoliyatidan pul oqimi xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi.

Operatsiya faoliyatidan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlarini sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan pul;
2. Royalti, badallar, vositachilik haqi va o'zga yo'llar bilan pul mablaglari tushumi;
3. Tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to'lovlari;
4. Xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar;
5. Sugurta kompaniyasining sugurta polislari bo'yicha mukofotlari, talablari, yillik va o'zga to'lovlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;
6. Soliqlar bo'yicha pul to'lovlari yoki uning o'rnini bosuvchi to'lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo'lmasa;
7. Savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;
8. Boshqalar.

Operatsion faoliyatdan olinadigan pul mablag'lari hajmi kor-xona faoliyati samarasining hal etuvchi ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Chunki u tashqi moliyalash manbalarisiz qaytarish, mehnat unumdorlik darajasini saqlash, dividendlar to'lash va yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Operatsion faoliyatidan bo'lgan pul mablag'lari harakati birinchi navbatda, daromad olish bo'yicha asosiy faoliyat natijasi bo'lib hisoblanadi.

Operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat borishida pul mablag'larining harakati hisobot davrining boshi va oxirida pul mablag'larining qoldiqlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradigan tarzda aks ettiriladi.

Operatsion faoliyat bo‘ymcha sof pul kirimi/chiqimi **pul oqimlari to‘g‘risida hisobot 4-sonli shaklning** 010, 020, 030, 040-(satrlar) moddasida pul mablag‘lari harakati aks ettiriladi.

«Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari» (010-satr) moddasida hisobot davrida sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar uchun korxonaning bankdagi hisoblariga va kassasiga kelib tushgan pul mablag‘lari summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot 4-sonli shaklning «Material, tovar, ish va xizmat uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari» (020-satr) moddasida mol yetkazib beruvchilarga materiallar, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi aks ettiriladi , bundan uzoq muddatli aktivlarni xarid qilish uchun to‘lovlar mustasno.

Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot 4-sonli shaklning «Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari» (030-satr) moddasida xodimlarga mehnatga haq to‘lash ko‘rinishida to‘langan pul mablag‘lari summasi, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘langan mablag‘lar summalari, budjetga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo‘yicha to‘lash, xodimlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun korxonaning haq to‘lashi, kassadan va bank hisoblaridan xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga doir boshqa sarflashlar aks ettiriladi .

Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot 4-sonli shaklning «Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari» (040-satr) moddasida «Chiqim» ustunida royalti, turli xil taqdirlashlar, komission yig‘imlar va boshqa operatsion faoliyatdan to‘langan pul mablag‘lari summasi, «kirim» ustunida esa ulardan olingan pul mablag‘lari summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot 4-sonli shaklning «Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (050-satr)moddasi bo‘yicha, «Kirim» ustuni bo‘yicha «+» belgisining va «Chiqim» ustuni bo‘yicha «-» belgisining ta‘sirini hisobga olib, 010, 020, 030, 040-satrlarni qo‘shish natijasi aks ettiriladi .

Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo'yicha, teskari holda esa — «Chiqim» ustuni bo'yicha aks ettiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt operatsiya faoliyatidan vujudga kelgan pul mablaglar harakatini quyidagilardan foydalanib, ochib beradi:

1. Yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlari asosiy turlari ochib beriladigan bevosita usul;

2. Bilvosita usul. Bu usulga muvofiq sof daromad yoki zararga joriy aktivlar va majburiyatlarning o'zgarishiga, ishonchsiz operatsiyalarga, shuningdek operatsiya investitsiya yoki moliya faoliyati natijasida olingan daromadlar va ko'rilgan zararlarga qarab o'zgartirish kiritiladi.

Investitsion faoliyat – bu pul ekvivalentiga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish, qaytariladigan kreditlarni berish va olish. Bularga bino, asbob - uskuna, nomoddiy va boshqa aktivlarni sotish va sotib olish, aksiya yoki boshqa qarz majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum va boshqa korxonalarining aksiyalari va qarz majburiyatlarini sotib olish, fyuchers, forvard, opsion va svop - kontraktlar bo'yicha tushumlar va ular bo'yicha to'lovlar kiradi.

Fyuchers kontrakt (muddatli kontrakt) – bu ma'lum miqdorda moliyaviy instrumentlarni yoki belgilangan miqdordagi tovarni erkin savdo birjasida kelishilgan narxda oldi - sotdi to'g'risidagi shartnoma.

Forvard kontrakti – bu tovar yoki moliyaviy instrumentlarni kelajakda jo'natish va hisob - kitob qilish bo'yicha oldi – sotdi to'g'risidagi bitim.

Opsion kontrakt (mukofotli bitim) – bu ma'lum miqdordagi moliyaviy instrumentlar yoki tovarlarni kelishilgan muddat ichida belgilangan miqdorda mukofot to'lash evaziga qayd etilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt investitsiya va moliya faoliyatidan yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarni hisobotda alohida-alohida aks ettirishi kerak, netto asosida (Netto-asos - sof oqim yoki hisobot davrida pul mablagining

kamayishi) hisobga olinadigan va quyidagi ikki paragrafda bayon qilinadigan pul oqimlari bundan mustasnodir.

Mijozlar nomidan pul oqimlari netto asosida ochib beriladi, bunda pul oqimlarining harakati yuridik shaxsning faoliyatiga nisbatan mijoz faoliyatini ko'proq aks ettiradi, masalan:

1. Investitsiya tashkiloti o'z mijozlarining topshirigiga binoan ushlab turadigan jamgarmalar;

2. Mulk egasi nomidan undiriladigan va unga beriladigan ijara to'lovlari.

Tezda aylanadigan, katta miqdordagi mablag'ni o'z ichiga oladigan va to'lash muddati qisqa bo'lgan moddalar bo'yicha pul oqimlari ham netto asosida ochib berilishi mumkin, masalan:

1. Pul tushumlari hamda to'lash vaqti qayd etilgan depozitlarni olish va to'lash bo'yicha to'lovlar;

2. Depozitlarni joylashtirish va ularni boshqa moliya muassasalaridan qaytarib olish;

3. Mijozlarga berilgan pul bo'naklari va kreditlar hamda bu bo'naklar va kreditlarning to'lanishi.

Investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» **pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning** 060, 070, 080, 090-(satrlar) moddasida pul mablag'lari harakati aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Asosiy vositalarni sotib olish va sotish» (060-satr) moddasida korxonalar «Chiqim» ustunida mol yetkazib beruvchilarga to'langan asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa - asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadilar.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish» (070-satr) moddasida korxonalar «Chiqim» ustunida nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa - nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadilar.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish» (080-satr) moddasida «Chiqim» ustunida qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari summasi, shu jumladan vositachilarga komission taqdirlashlar va birjada to'langan foizlar ko'rsatiladi, «Kirim» ustunida esa qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlar» moddasida (090-satr) «Chiqim» ustunida boshqa investitsion faoliyatga oid to'langan pul mablag'lari summasi, «Kirim» ustunida esa - olingan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (100-satr)moddasi bo'yicha, «Kirim» ustunida «+» va «Chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda, 060, 070, 080, 090-satrlarni jamlash natijasi aks ettiriladi .

Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo'yicha, teskari holda esa - «Chiqim» ustuni bo'yicha aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyat - bu shunday faoliyat turiki, uning natijasida korxonaning xususiy kapitali va qarzlari hajmi va strukturasi (tuzilishi) da o'zgarish hosil bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy faoliyatidan bo'ladigan pul oqimlari to'grisidagi axborotni alohida ko'rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi.

Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

1. Aksiyalar yoki o'z mablagi bilan bogliq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;
2. Sub'ektlar aksiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar;

3. Ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalarini tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari;

4. Zayomlarni to'lash;

5. Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari;

Moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning 110 +/- 120 + 130 - 140 +/- 150 +/- 160 - 1 -/ - 170- (satrlar) moddalarda pul mablag'lari harakati aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Olingan va to'langan foizlar» (110-satr) moddasida «kirim» ustunida olingan foizlar summasi, «Chiqim» ustunida esa to'langan foizlar summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Olingan va to'langan dividendlar» (120-satr) moddasida «kirim» ustunida olingan dividendlar summalari aks ettiriladi , «Chiqim» ustunida esa to'langan dividendlar summalari aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari» (130-satr) moddasida hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki xususiy kapital bilan bog'liq boshqa dastaklar uchun aksiyadorlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to'lovlari va tushumlari» (140-satr) moddasida sotib olingan xususiy aksiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summalari, shuningdek korxonada bo'lgan xususiy aksiyalar, hissalar va paylar uchun, ularni keyingi sotish yoki yo'q qilish (bekor qilish) maqsadida, egalari to'langan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (150-satr) moddasida «Kirim» ustunida hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzlarni

summasi, «Chiqim» ustunida esa - kreditlar va qarzarlar bo'yicha to'lovlar aks ettiriladi .

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Moliyaviy ijara bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (160-satr) moddasida «Chiqim» ustunida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'langan pul mablag'lari summasi, «Kirim» ustunida esa - ijarachidan (lizing oluvchidan) kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi .

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» (170-satr) moddasida «Chiqim» ustunida boshqa moliyaviy faoliyatning to'langan pul mablag'lari summasi. «Kirim» ustunida esa - olingan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-sonli shaklning «Jami: moliyaviy faoliyatning sof kirimi/chiqimi» (180-satr) moddasida «Kirim» ustuni bo'yicha «+» va «Chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda, 110, 120, 130, 140, 150, 160, 170-satrlar summasi aks ettiriladi.

Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo'yicha, teskari holda esa - «Chiqim» ustuni bo'yicha aks ettiriladi.

To'langan soliqlar bo'yicha pul oqimlari pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl) ning 190 va 200 (satrlar) moddalarida pul mablag'lari harakati aks ettiriladi.

157. «To'langan foyda solig'i» (190-satr) moddasi bo'yicha to'langan foyda solig'i summasi ko'rsatiladi.

158. «To'langan boshqa soliqlar» (200-satr)moddasi bo'yicha to'langan soliqlar, bojlar va ularga tenglashtirilgan yig'imlar hamda ajratmalar summasi ko'rsatiladi, bundan foyda solig'i mustasno.

159. «Jami: to'langan soliqlar» (210-satr) moddasi bo'yicha 190 va 200-satrlar summasi aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl) ning «Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi» (220-satr)moddasida , «Kirim» ustuni

bo'yicha «+» va «Chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda, 050, 100, 180, 210-satrlar summasi aks ettiriladi. Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo'yicha, teskari holda esa - «Chiqim» ustuni bo'yicha aks ettiriladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl) ning «Chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi» (221-satr) moddasi bo'yicha hisobot davri mobaynida hosil bo'lgan, chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy kurs farqlari saldosi aks ettiriladi (5000, 5200, 5500, 5600, 5700).

Pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl) ning «Yil boshidagi pul mablag'lari» (230-satr) moddasi bo'yicha korxonalar balansini 320-satri 3-ustuni bo'yicha qayd etilgan, pul mablag'larini hisobga oluvchi hisoblardagi (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) pul mablag'lari qoldiqlarining summasi ko'rsatiladi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl) ning «Yil oxiridagi pul mablag'lari» (240-satr) moddasi bo'yicha korxonalar balansini 320-satri 4-ustunida qayd etilgan, pul mablag'larini hisobga oluvchi hisoblardagi (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) pul mablag'lari qoldiqlarining summasi ko'rsatiladi.

Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot

«Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnoma» bo'limida hisobot davrida xorijiy valyutada pul mablag'larining harakati ko'rsatiladi. Valyuta mablag'lari operatsiyalarni amalga oshirish paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag'lari qoldig'i esa — hisobot davrining oxirgi sanasida aks ettiriladi.

Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotning 250-(satr) moddasida «Yil boshiga qoldiq» hisobot davri boshida korxonaning valyuta hisoblari va kassasida bo'lgan valyuta mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Ushbu ma'lumot shaklining «Kelib tushgan valyuta mablag'lari, jami» (260-satr) moddasida 261, 262, 263, 264-satrlarda ko'rsatilgan, hisobot davrida valyuta tushumlarining umumiy summasi ko'rsatiladi, bu satrlarda aks ettiriladi:

a) 261-satr bo'yicha - «Sotishdan olingan tushum» - korxonadan tomonidan hisobot davrida olingan valyuta tushumi summasi;

b) 262-satr bo'yicha - «Konvertatsiya qilingan» - sotib olingan xorijiy valyuta summasi;

v) 263-satr bo'yicha - «Moliyaviy faoliyat bo'yicha» - moliyaviy faoliyatdan olingan valyuta mablag'lari summasi;

g) 264-satr bo'yicha - «Boshqa manbalar» - 261, 262, 263-satrlarda nazarda tutilmagan manbalar hisobiga korxonaning valyuta hisoblari va kassasiga boshqa valyuta tushumlari summasi.

Ushbu ma'lumot shaklining «Sarflangan valyuta mablag'lari, jami» (270-satr) moddasida korxonadan tomonidan 271 - 273-satrlarda ko'rsatilgan turli maqsadlarga sarflangan valyuta mablag'larining umumiy summasi aks ettiriladi, bu satrlarda aks ettiriladi:

a) 271-satr bo'yicha - «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar» - mol-mulkni olishga, bajarilgan ishlarga va ko'rsatilgan xizmatlarga sarflangan valyuta mablag'lari summasi;

b) 272-satr bo'yicha - «Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar» - moliyaviy faoliyat bo'yicha sarflangan valyuta mablag'lari summasi;

v) 273-satr bo'yicha - «Boshqa maqsadlar uchun» - 271, 272-satrlarda sanalmagan boshqa maqsadlarga sarflangan valyuta summasi.

Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot shaklining «Chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi» moddasida (280-satr) hisobot davri mobaynida hosil bo'lgan, chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy kurs farqlari saldosi aks ettiriladi (5000, 5200, 5500, 5600, 5700).

Chet el valyutasidagi pul mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumot shaklining «Yil oxirida qoldiq» (280-satr) moddasida hisobot yili oxirida korxonaning valyuta hisoblari va kassasida bo‘lgan, satrlar ma’lumotlari: 250+260-270+/-280-satrlar bo‘yicha aniqlanadigan valyuta mablag‘lari summasi aks ettiriladi.

20.7. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotda o‘z sarmoyasining harakati, zahiralarni shakllantirish, to‘lash uchun hisoblangan dividendlar to‘grisidagi axborot taqdim etiladi.

Xususiy kapital tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1996 y., 9-son, 142-m.), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan (ro‘yxat raqami 475, 1998 yil 14 avgust, Me‘yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y., 5-son) Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/85-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da (ro‘yxat raqami 474-son 1998 yil 14 avgust, Me‘yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 yil, 5-son) keltirilgan.

1998 yil 14 avgustda 474 sonli O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-BHMS "Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot" iga alohida e‘tibor berilgan.

O‘zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartining 14-BHMS “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot” (2004 yil 7- apreldagi 1335-sonli O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan) xususiy kapital to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib beradi.

Hisobotda hisobot davridagi xususiy kapital tarkibida bo'lgan o'zgarishlar haqidagi axborot ochib berilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar: qimmatli qog'ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to'g'risidagi axborot ochib berilishi lozim.

Hisobotda hisobot davridagi xususiy kapital tarkibida bo'lgan o'zgarishlar haqidagi axborot ochib berilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar: qimmatli qog'ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to'g'risidagi axborot ochib berilishi lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot xususiy kapital to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda quyidagilar: chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni to'g'risidagi axborot ham ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotga bo'lgan tushuntirishda xo'jalik yurituvchi sub'ekt xususiy kapitalining qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra kamayib ketganligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

12. Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to'g'risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

a) obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;

b) nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

v) aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'lar umumiy summasi;

g) ayrim turlar va toifalar bo'yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

d) imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

e) aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, xususan, to'lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to'g'risida;

j) hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo'shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo'shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to'g'risidagi.

13. Aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo'yicha keltiriladi:

a) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag'lari, aksiyalar soni ko'rsatilgan holda;

b) aksiyalar uchun to'lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko'rsatilgan holda;

v) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chet el valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko'rsatilgan holda.

14. Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo'yicha keltiriladi:

a) chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to'lanmagan qismi ko'rsatilgan holda;

b) aksiyaning nominal qiymati;

v) muomalada bo'lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o'zgartirishlar;

g) aksiyalar bilan bog'liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo'yicha cheklashlar;

d) jamiyatning o'ziga, uning shu'ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;

e) ular egalik qilayotgan muassislarning ro'yxati va aksiyalar soni;

j) ijroiya organi a'zolarining mulki bo'lgan aksiyalar soni;

z) opsiya va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko'rsatilgan holda;

i) konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog'ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar

Boshqa barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to'g'risidagi axborotni keltiradilar:

a) egalik qiluvchilar o'rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;

b) ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar yoki cheklashlar;

v) ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o'zgartirishlar.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot joriy buxgalteriya ma'lumotlariga asosan tuzilib, unda tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun muhim ko'rsatkichlar mavjud.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga asosan korxonaning bozor faolligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish mumkin. Bu ko'rsatkichlar kompaniya aksiyalarining qiymati va daromad-liligini ta'riflaydi.

1. Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \frac{\text{Sof foyda (SSF)} - \text{imtiyozli aksiya bo'yicha dividendlar}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar}}$$

Bu ko'rsatkich muomaladagi bir oddiy aksiyaga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida eng zaruriy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

2. Aksiyaning bozor bahosi bilan bir aksiyaga to'g'ri keladigan foydananing munosabatlari (BF) quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \frac{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}{AF}$$

Bu ko'rsatkich kompaniyaning bir so'm sof foydasiga aksiyadorlar necha so'm to'lashga roziligini bildiradi. Masalan, «A» kompaniya-sida bu ko'rsatkich 10 bo'lib, «B» kompaniyasida 8 bo'lsa, investorlar «A» kompaniyasining investitsiya sifatini afzalroq baholaydi. Bu ko'rsatkich boshqa kompaniyalarning bir aksiyaga to'g'ri keladigan foy-da dinamikasi bo'yicha baholanadi.

3. Bir aksiyaning balans qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$B = \frac{\text{Aksiyador kapitalining qiymati} - \text{imtiyozli aksiyalar}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar}}$$

Bir aksiyaning balans qiymati buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlariga binoan bir oddiy aksiyaga to'g'ri keladigan korxonaning sof aktivlari qiymatini ko'rsatadi.

4. Bir aksiyaning bozor qiymati bilan balans qiymatining nis-bati uning bozor qiymati qancha ekanligini ko'rsatadi va u quyida-gicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati bilan balans qiymatining nisbati}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}} = \frac{\text{Bir aksiyaning balans qiymati}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}$$

5. Dividend daromad yoki dividend normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Dividend daromad (haqiqiy foyda normasi)}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}} = \frac{\text{Bir aksiyaning dividendi}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}$$

6. Aksiyaning daromadlilik (Ad) muhim ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

bu yerda: D - aksiyaga egalik qilish davrida

S - olinadigan dividend summasi

S^* - sotish narxi,

S - sotib olish narxi

7. To'lanadigan dividendlar ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$T.d.u = \frac{\text{Bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividend}}{\text{Bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda}} = 0-90\%$

Bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda

Bu ko'rsatkich tahlilining xususiyati shundan iboratki, uning «yaxshi» va «yomon» darajasi bo'lmaydi. Lekin buning umumiy ko'rsat-kichi 1 dan oshmasligi kerak. Bu, demak, kompaniya dividend to'lash uchun yetarli darajada foyda olganligini ko'rsatadi. Agar bu ko'rsat-kich 1 dan oshib ketsa, kompaniya moliyaviy imkoniyatidan oqilona foydalanmaganligini yoki rezerv kapitalidan qarz olganligini ko'rsatadi.

Dividendlar xususiy kapitalni kamaytiradi, chunki ular kompaniya tasarrufiga qolgan sof foydadan to'lanadi.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot hisobot yilida korxonani xususiy kapitalining shakllanish manbalari kesimida holati va harakatini aks ettiradi.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-son shakl)ning «Yil boshidagi qoldiq» (010-satr) moddasida yil boshidagi holat bo'yicha quyidagi axborot aks ettiriladi:

a) 3-ustunda - «Ustav kapitali» - ta'sis hujjatlarida qayd etilgan va ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlarida (8300) ko'rsatilgan ustav kapitalining summasi aks ettiriladi ;

b) 4-ustunda - «Qo'shilgan kapital» - qo'shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlarida (8400) qayd etilgan qo'shilgan kapital summasi aks ettiriladi ;

v) 5-ustunda - «Rezerv kapitali» - qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarida (8500) qayd etilgan rezerv kapitali mablag'lari summasi aks ettiriladi;

g) 6-ustunda - «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zararlar)» - taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schyotlarida (8700) qayd etilgan, yil boshida taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) summasi aks ettiriladi ;

d) 7-ustunda - «Sotib olingan xususiy aksiyalari» - sotib olingan xususiy aksiyalarini hisobga oluvchi schyotlarida (8600) qayd etilgan, korxonada boʻlgan sotib olingan xususiy aksiyalarining summasi; ularni keyin tarqatish yoki yoʻq qilish uchun, aks ettiriladi ;

e) 8-ustunda - «Maqsadli tushumlar va boshqalar» - maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun budjetdan, maxsus jamgʻarmalar, boshqa korxonalar, jismoniy shaxslardan grantlar, subsidiyalar, aʼzolik badallari koʻrinishida tekin (bepul)ga olingan aktivlar va boshqa maqsadli tushumlar, shuningdek xususiy kapitalini shakllantirishning boshqa manbalari aks ettiriladi .

Xususiy kapital toʻgʻrisida hisobot (5-son shakl)ning «Qimmatli qogʻozlar emissiyasi» (020-satr) moddasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yilida qimmatli qogʻozlarni chiqarish va sotishdan olingan nominal qiymat va emissiya daromadi summasi aks ettiriladi.

Xususiy kapital toʻgʻrisida hisobot (5-son shakl)ning «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash» (030-satr) moddasida hisobot yilining birinchi sanasi holati boʻyicha har yili qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oʻtkaziladigan asosiy fondlarni qayta baholashdan tashqari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash summasi aks ettiriladi.

Xususiy kapital toʻgʻrisida hisobot (5-son shakl)ning «Ustav kapitalini shakllantirishda paydo boʻlgan valyuta kursi farqi» (040-satr) moddasida buxgalteriya hisobida 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi valyuta kursi farqi»hisobida aks ettiriladigan, taʼsis hujjatlarini roʻyxatdan oʻtkazish sanasida va mablagʻlar ustav kapitaliga haqiqatda kiritilgan sanada Markaziy bank kurslari oʻrtasida yuzaga keladigan, korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda hisobot yili uchun kurslardagi farq aks ettiriladi.

Xususiy kapital toʻgʻrisida hisobot (5-son shakl)ning «Rezerv kapitaliga ajratmalar» (050-satr) moddasida taʼsis hujjatlariga koʻra va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yili uchun rezerv kapitalga ajratmalar summasi aks ettiriladi.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-son shakl)ning «Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» (060-satr) moddasida hisobot yilida olingan sof foyda (zarar) summasi aks ettiriladi .

«Tekinga olingan mol-mulk» (070-satr) moddasida hisobot yilida turli manbalardan tekinga olingan mol-mulkning qiymati aks ettiriladi .

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-son shakl)ning «Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar» (080-satr) moddasida hisobot yilida olingan grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari va maqsadli foydalanish uchun boshqa maqsadli tushumlar aks ettiriladi .

«Hisoblangan dividendlar» (090-satr) moddasida hisobot davrining taqsimlanmagan foydasidan va avvalgi yillardan to'plangan foydadan joriy hisobot yilida hisoblab yozilgan dividendlar summasi aks ettiriladi .

«Xususiy kapitalini shakllantirishning boshqa manbalari» (100-satr) moddasida xususiy kapitalini shakllantirishning boshqa manbalari summasi aks ettiriladi .

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-son shakl)ning «Yil oxiridagi qoldiq» (110-satr) moddasida tegishli ustunlar bo'yicha hisobot davri oxirida xususiy kapitalining saldosi aks ettiriladi . Bunda, 030, 040, 050, 100-satrlarda aks ettirilgan va 8420 - «Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farq», 8510 - «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar», 8520-»Rezerv kapital» schyotlarida, maqsadli tushumlar (8800) schyotlarida hamda kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervini hisobga oluvchi (8900) hisoblarda hisobda turgan xususiy kapitali manbalarining yil boshidagi summaga nisbatan kamayishi minus belgisi bilan aks ettiriladi . Shuningdek, minus belgisi bilan hisobot yilidagi hisoblangan dividendlar (090-satr) va qoplanmagan zarar (060-satr) summasi aks ettiriladi.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-son shakl)ning «Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)» moddasida (120-satr) yil boshidagi summa bilan qiyoslaganda hisobot yili oxirida xususiy kapitalning ko'payishi yoki kamayishi summasi aks ettiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari 130 dan 150-satrlargacha bo'lgan satrlarni ma'lumot uchun to'ldiradilar.

20.8. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izohlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotiga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini tuzishda va uning hisob siyosatida tanlab olingan va qo'llanilayotgan asos to'grisidagi axborot bo'lishi lozim;

2. BHMS talab qiluvchi, hech bir joyda moliyaviy hisobotda ko'rsatilmagan axborotni ochib berish;

3. Moliyaviy hisobotda keltirilmagan, lekin moliyaviy hisobotni aniq va to'g'ri tasavvur etish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tahliliy axborotni keltirish lozim.

Moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar muntazam ravishda tushuntirish xati tarzida bo'lishi kerak.

Tushuntirishlardagi axborot moliyaviy hisobotda keltirilgan tegishli moddalarga bogliq ravishda taqdim etilishi lozim.

Tushuntirish odatda shunday tuziladiki, u foydalanuvchiga moliyaviy hisobotlarni yaxshiroq anglab yetishda va ularni boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisoboti bilan quyidagicha qiyoslashiga yordam beradi.

1. Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiqligi haqidagi hisobot;

2. O'lchov asosi va buxgalteriya hisobida qo'llanilayotgan siyosat to'grisidagi hisobot;

3. Moliyaviy hisobotda keltirilgan moddalar uchun yordamchi axborot;

4. Quyidagilarni o'z ichiga olgan boshqa axborotlar:

4.1. Shartli majburiyatlar, oddiy majburiyatlar va boshqa moliyaviy axborotlar;

4.2. Moliya bilan bogliq bo'lmagan axborotlar.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asosi va buxgalteriya hisobi bobidagi maxsus siyosat haqidagi axborot moliyaviy hisobotga izohlar oldida alohida hisobot tarzida keltirilishi kerak

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar korxonaning hisob siyosatini ochib berishi va hisobotdan foydalanuvchilarni korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini real baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashi kerak.

Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) (ro'yxat raqami 474, 1998 yil 14 avgust, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 1999 yil, 5-son)da nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuziladi.

Hisob siyosatini ochib berish

Moliyaviy hisobotga tushuntirish xatidagi hisob siyosati to'g'risidagi bo'lim quyidagilarni bayon qilib berishi kerak:

1. Moliyaviy hisobotni tayyorlash chogida foydalanilgan (foydalanilayotgan) baholash asosi (asoslari);

2. Moliyaviy hisobotlarni aniq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hisob siyosatining har bir maxsus qismi;

3. Hisob siyosatida biror o'zgarish sodir bo'lganda tushuntirish hisoboti.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda foydalaniladigan maxsus hisob siyosatiga qo'shimcha ravishda hisobotdan foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarda foydalaniladigan baholash asosini (asoslarini), ya'ni dastlabki qiymatni, joriy qiymatni, sotish qiymatini, diskont qiymatni va balans qiymatini anglash juda muhimdir. Bu tamoyillar ko'p jihatdan uzluksizlik qoidasiga o'xshash bo'lib, ular moliyaviy hisobotni tuzishning asosini shakllantiradi. Ular ana shu tamoyillardan

ba'zi vaziyatlarda baholash asoslarini tanlab olish imkoniyati mavjudligi bilan farq qiladi.

Agar moliyaviy hisobotda baholashning bittadan ortiq asosidan foydalanilsa, masalan asosiy vositalarning muayyan turini baholash chogida bitta asosdan foydalanilsa o'lchashning alohida asosi qo'llanilgan aktivlar va majburiyatlar toifasi aks ettirilishini ko'rsatish zarur.

Hisobotdan foydalanuvchi uchun hisob siyosatining o'ziga xos jihatlarini ochib berishning ustuvorligini ko'rib chiqish chogida rahbarlar bu holat xo'jalik yurituvchi sub'ektning duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlarini va kelgusidagi pul mablagi harakatlarini baholashga imkon berishini e'tiborga olishi lozim. Hisob siyosatini ochib berish quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi, lekin shu axborotlar bilan cheklanib qolmaydi:

1. Foydani aks ettirish;
2. Jamlash tamoyillari;
3. Faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish;
4. Birgalikdagi faoliyat;
5. Moddiy va nomoddiy aktivlarning aks etishi va eskirishi (amortizatsiyasi);
6. Jalb etilgan mablag qiymatining sarmoyalanishi va o'zga xarajatlar;
7. Kapital sarflar;
8. Investitsiya mulki;
9. Moliyaviy vositalar va investitsiyalar;
10. Ijara;
11. Tadqiqot va taraqqiyot bilan bogliq xarajatlar;
12. Tovar - moddiy zahiralalar;
13. Soliqlar, jumladan muddati kechiktirilgan soliqlar;
14. Zahiralalar;
15. Xodimlarni saqlab turish xarajatlari;
16. Xorijiy valyutani o'tkazish;
17. Faoliyat turlarini, jo'grofiy segmentlarni hamda xarajatlarni segmentlar o'rtasida taqsimlash usulini belgilash;

18. Pulning qadrsizlanishini hisobga olish;

19. Hukumat subsidiyalari.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt, agar boshqa moliyaviy hisobotlarda ochilmay qolgan bo'lsa, quyidagi axborotlarni ochib ko'rsatishi lozim:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning huquqiy shakli, ta'sis etilgan mamlakat va ro'yxatga olingan idoraning yuridik manzili (yoki amaliy faoliyatning manzili ro'yxatga olingan idora manzilidan farq qilsa, amaliy faoliyat joyi aniq ko'rsatiladi);

2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar asosiy faoliyati operatsiyalari mohiyatining tasviri;

3. Bosh kompaniya yoki guruh bosh kompaniyasining nomi;

4. Xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilari kimlar hisoblanadi?

2. Moliyaviy hisobotning oldiga qo'yilgan qanday talablari mavjud?

3. Moliyaviy hisobotning qanday turlari mavjud? Uni turkumlang.

4. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibini izohlab bering.

5. Moliyaviy hisobot tuzishdan oldin qanday hisob va tayyorgarlik ishlari bajariladi?

6. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tashqi foydalanuvchilar uchun qanday ahamiyati bor?

7. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning qanday bo'limlardan iborat?

8. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda qanday ko'rsatkichlar keltirilgan?

9. Moliyaviy hisobot majburiy tartibda qaysi organlarga topshiriladi?

10. Moliyaviy hisobot tarkibiga qanday hisobotlar kiradi?

11. Moliyaviy hisobotlarda qanday axborotlar to'liq aks ettirilishi kerak?

12. Moliyaviy hisobotning shakli va uning mazmuni qachon tasdiqlangan va o'zgarishlar nimalardan iborat?

13. Jurnal-order ma'lumotlarini Bosh daftarga yozish tartibi qanday?
14. Balans axborotlarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdagi roli.
15. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotdan foydalanish qanday imkoniyatlarni beradi?
16. Chet el valutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida qanday ma'lumotlar keltirilgan?
17. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotga asosan qanday ko'rsatkichlar topiladi?
18. Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkich qanday topiladi?
19. Bir aksiyaning balans qiymati ko'rsatkich qanday topiladi?
20. Aksiyaning daromadliligi ko'rsatkich qanday topiladi?
21. Inventarizatsiyaning o'tkazish tartibi va uning natijalarini rasmiylashtirish qanday amalga oshiradi?
22. Moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha tashkiliy – tayyorgarlik ishlari qanday bo'ladi?
23. Korxonaning mutlaq to'lov qobiliyati qanday aniqlanadi?
24. Korxonaning sof aylanma mablag'lari yoki kapitali qanday topiladi?
25. Mulk koeffitsiyenti qanday topiladi?
26. Korxonaning moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti qanday topiladi?

21-BOB. BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.

- 21.1. Boshqaruv hisobi, uning predmeti va metodi.
- 21.2. Boshqaruv hisobining tarixiy shakllanishi.
- 21.3. Boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi bog'liqlik.
- 22.4. Moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro bog'liqligi.

Tayanch so'z va iboralar: Boshqaruv hisobi, ta'minot-tayyorlov faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati, moliya-tijorat faoliyati, tashkiliy faoliyat, kalkulyatsiya, daromad, xarajat.

21.1. Boshqaruv hisobi, uning predmeti va metodi.

Respublikamizda keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiyalash jarayonini davom ettirishda xo'jalik sub'ektlari faoliyatining barcha jarayonlarida iqtisodiy axborotlarga nisbatan haqqoniylik, o'z vaqtidalik, xolislik va aniqlik kabi talablar qo'yiladi. Hozirgi paytda olingan iqtisodiy axborotlar ichki va tashqi foydalanuvchilar talabini to'liq qondirishi hamda eng kam miqdorda mehnat va vaqt sarf qilgan holda shakllantirilishi lozim. Shuningdek, iqtisodiy axborotlar korxonada faoliyatini byudjetlashtirish, istiqbolni belgilash, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini to'g'ri tashkil etish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishda zaruriy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Bu kabi masalalar respublikamizda «Boshqaruv hisobi» fanini yuzaga keltirish va uni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

«Boshqaruv hisobi» fanining predmeti xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish, byudjetlashtirish, istiqbolda sub'ekt taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, segmentlar bo'yicha hisobot tuzish, samarali transfert baholarini shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini yoritish

hisoblanadi.

Boshqaruv hisobi – bu korxonada ichidagi shaxslarga ma'lumot taqdim etish bo'lib, ushbu axborotlarga tayangan holda ular asoslangan qarorlarni qabul qilish, joriy muomalalarning samaradorligi va unumdorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, moliyaviy hisob ma'lumotlari asosan tashqi tuzilmalarga taqdim etiladi, ya'ni korxonada xodimlari tarkibiga kirmaydigan shaxslarga. Mazkur nuqtai nazarga tayangan holda boshqaruv hisobini ichki hisob deb atash mumkin, moliyaviy hisobni esa – tashqi. Ammo hisobni yana bir turi mavjud, bu ishlab chiqarish hisobi, u ham faqat ichki foydalanuvchilarga ma'lumot etkazib beradi, asosiy farqi shundan iboratki, ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanilmaydi, ular ko'proq nazorat qilish maqsadida olib boriladi. Boshqaruv hisobining esa istiqboldagi hodisa va jarayonlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan ham ishlaydi.³²

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqtlarining deyarli 90 foizini boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga sarflaydilar. Bu esa o'z navbatida boshqaruv hisobi bilan yuqori malakali mutaxassislar shug'ullanishini talab etadi.

Boshqaruv hisobi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, bozor munosabatlari zaruriyati bilan paydo bo'lgan, korxonada va uning turli bo'g'inlaridagi tarkibiy tuzilmalarining faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi ahborotni taqdim etuvchi;

ikkinchidan, korxonada hisob siyosatiga muvofiq yuritiladigan, tarkibiga korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatini byudjetlashtirish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish, xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning ilg'or usullarini qo'llash, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobot tuzish, ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtasidagi muomalalarda foydalaniladigan transfert baholarni shakllantirish;

uchinchidan, evolyutsion yo'l bilan rivojlanib boruvchi ichki xo'jalik

³² Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.10

hisobining sintetik tizimi, bir nechta iqtisodiy fanlar majmuasida tug'ilgan kompleks fandır.

Korxonalarda boshqaruv hisobini samarali yuritish dastlabki va yig'ma hujjatlarni aylanish tezkorligi, qabul qilingan ichki hisobot shakllari, ularning tuzish davriyligi hamda taqdim qilish muddatlari, axborotlar tizimini takomillashtirishga mosligi ta'sir qiladi.

Boshqaruv hisobida hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, schetlar va ikkiyoklama yozuv, balansda umumlashtirish va hisobot kabi moliyaviy hisob usullarining barcha elementlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, unda iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik usullar ham keng qo'llaniladi.

Boshqaruv hisobida an'anaviy buxgalteriya hisobi, operativ-texnik va statistika hisobi hamda iqtisodiy tahlilning ko'pgina unsurlaridan foydalanadi.

Boshqaruv hisobini tashkil etilishi va o'z vaqtida yuritilishi oqilona boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilinishi, korxonada faoliyatini rejalashtirish, tahlil va nazorat qilish imkonini berib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Odatda, korxonalarda Boshqaruv hisobi quyidagi faoliyat turlari bo'yicha yuritiladi:

- ta'minot-tayyorlov faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- moliya-tijorat faoliyati;
- tashkiliy faoliyat.

Korxonalarda ta'minot-tayyorlov faoliyati takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil etish va uning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur sohada dastlabki boshqaruv axborotlari yig'iladi va qayta ishlanadi.

Boshqaruv hisobi axborotlarini shakllantirishda ishlab chiqarish faoliyati muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, o'zgarishi, ularni javobgarlik markazlari bo'yicha hisobini tashkil qilish, shuningdek, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini yuritish, sarflangan xarajatlar bo'yicha

chetlanishlarni hisobga olish amalga oshiriladi.

Moliya-tijorat faoliyatida esa korxonada iqtisodiy bo'linmalari (segmentlari) bo'yicha sotish, ma'muriy xarajatlar byudjeti tuziladi va ularning bajarilishi nazorat qilinadi.

Tashkiliy faoliyat bo'yicha Boshqaruv hisobini tashkil qilish alohida bo'linmalar menejerlari zimmasiga xarajatlar hajmi, ularning samaradorligi to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish vazifasini yuklaydi. Bunda ishlab chiqarish zararsizligi nuqtasining dastlabki hisob-kitoblari amalga oshiriladi, o'zgaruvchan, doimiy xarajatlar va foyda o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi.

Boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bilan shug'ullanibgina qolmasdan, balki korxonada rahbariga joriy va istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilishda ko'maklashishi zarur. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida Boshqaruv hisobining nazariy - uslubiy asoslarini ishlab zarurati quyidagi omillar mavjudligi bilan izohlanadi:

- rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, buxgalteriya hisobini moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishi;

- buxgalteriya hisobida mahsulotlar tannarxini hisoblash, haqiqiy xarajatlardan chetlanishlarni boshqarishda «Standart-kost» hisob tizimining paydo bo'lishi;

- xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi, natijada korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish, xarajatlarni samarali taqsimlash maqsadida tannarxni kalkulyatsiya qilishning «Direkt-kosting» kabi zamonaviy tizimlarini rivojlantirish zaruratini yuzaga kelishi;

- korxonalar amaliyotiga «zararsizlik nuqtasi», «marjinal daromad», «ishlab chiqarish dastagi» va boshqa yangi iqtisodiy atamalarning kirib kelishi hamda ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirish zarurati;

- korxonalar hisob tizimi oldiga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni rejalashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini strategik boshqarish, ularga mos

transfert baholarni shakllantirish, xarajatlar va daromadlar hisobining samarali modelini yaratish kabi vazifalarni qo'yilishi;

- buxgalteriya hisobida yangi kompyuter texnologiyalari, axborot dasturlarining keng joriy etilishi, shuningdek, boshqaruv hisobini avtomatlashtirish asoslarini ishlab chiqish muammosining mavjudligi va h.k.

Boshqaruv hisobi korxonaning ichki vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning "nou-xau"sidir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda Boshqaruv hisobining muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish borasida istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar manbasini shakllantirish va rahbarlarni ular bilan ta'minlash;

- korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarishda menejerlarga ishonchli, yuqori samarador axborotlarni o'z vaqtida etkazib berish;

- mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini to'g'ri aniqlash, belgilangan me'yorlardan chetlanishlar va ularning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatib berish va h.k.

Boshqaruv hisobi axborotlari korxonaning tezkor va strategik vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashadi:

Tezkor vazifalarga quyidagilar kiritiladi:

- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini aniqlash;

- ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasini topish;

- mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar turlari, ularni sotishning muvofiq hajmini rejalashtirish;

- qo'shimcha buyurtmalarni qabul qilish yoki rad etish;

- baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Strategik vazifalar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilardan

iborat:

- uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni jalb qilish;
- biznes tarkibini o'zgartirish;
- mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish.

Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv hisobi o'z vazifalari oro'ali korxonada ichki faoliyati, uning strategiyasi va taktikasi bilan boshqaruvning asosiy axborot poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv hisobining strategiyasi istiqbolda korxonada taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, istiqbolni belgilash, byudjetlashtirish, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish, oqilona transfert baholarini o'rnatish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini ifodalaydi. Boshqaruv hisobining taktikasi esa joriy davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bo'yicha hisob yuritish, dalillash, qabul qilingan qarorlarni tahlil va nazorat qilish, shuningdek, ularning ijrosi uchun javobgarlik kabilardan iborat.

21.2. Boshqaruv hisobining tarixiy shakllanishi

Respublikamizda Boshqaruv hisobini alohida fan sifatida rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash uning tarixiy shakllanish jarayonini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Boshqaruv hisobi dastlab boshqaruv hisobi bo'lib buxgalteriya hisobining tarkibida mustaqil fan sifatida rasman 1972 yilda tan olindi. Bu paytda buxgalterlarning Amerika assotsiatsiyasi tomonidan boshqaruv hisobi bo'yicha bitiruvchilarga buxgalter-tahlilchi malakasini beradigan diplomli dasturi ishlab chiqilgan edi. Binobarin, mustaqil o'quv fani sifatida boshqaruv hisobi oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasiga kiritilgan edi. Uning paydo bo'lishi hamda shakllanishi kalkulyatsiya va ishlab chiqarish hisoblarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Kalkulyatsiya hisobi xo'jalik hisobi paydo bo'lishi bilan bir vaqtning

o'zida kelib chiqqan va tovar almashuv muomalalari natijasi bo'lib hisoblangan. "Kalkulyatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada «calcul» - toshcha ya'ni "toshchalar bilan sanash" ma'nosini anglatadi. Ikkiyoqlama yozuvning paydo bo'lishi kalkulyatsiya hisobining rivojlanishini yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tardi. Korxonaning umumiy buxgalteriyasi tarkibida kalkulyatsiya hisobining ajratib ko'rsatilishi esa buxgalteriya hisobini y'nada takomillashtirish imkonini berdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro hisob tizimi asosida takomillashtirish, jumladan axborotlarni o'z vaqtida foydalanuvchilarga etkazish, tijorat sirini saqlanishini ta'minlash, korxonada buxgalteriyasini ikki mustaqil qism: moliyaviy va kalkulyatsiya hisobiga bo'linishini shart qilib qo'ydi. Bu tarzda buxgalteriyaning mustaqil qismlarga bo'linishi moliyaviy hisobni markazlashtirish va kalkulyatsiya hisobini esa nomarkazlashtirishga sabab bo'ldi. Natijada, kalkulyatsiya hisobi o'z vazifalariga ega bo'la boshladi va boshqaruv jarayonini tezkor-tahliliy axborot bilan ta'minlash, korxonada bo'linmalari xarajatlari va daromadlarini nazorat qilish imkoniyatini yaratdi. Ushbu omillar xarajatlar me'yorlari, mahsulotning normativ kalkulyatsiyasini ishlab chiqish, haqiqiy xarajatlarning me'yoriy xarajatlarga muvofiqligini tezkor nazorat qilish, mavjud chetlanishlarni aniqlash va bartaraf qilishga imkon tug'dirdi hamda tannarxning shakllanish jarayonini boshqarishning chetlanishlar bo'yicha boshqaruv usuli yuzaga keldi.

XX asrning 40-yillari ohirida AQSh va G'arbiy Evropaning ayrim mamlakatlarida "ishlab chiqarish hisobi" atamasi asta-sekin "boshqaruv hisobi" atamasiga almashina boshladi. Bu davrda buxgalteriya hisobi boshqaruv siyosatini shakllanishi va amalga oshirilishida faol ishtirok eta boshladi, buxgalterlar esa taxminlash, rejalashtirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish va korxonada boshqaruv xizmatlarini axborot bilan ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish sohasida faoliyat yurita boshladilar.

O'zbekiston korxonalarida ko'pgina buxgalterlar an'anaviy buxgalteriya hisobi bilan shug'ullanadilar. Ko'pgina korxonalarda boshqaruv hisobi olib

borilmaydi yoki bu hisob juda sust rivojlangan. Uning ko'pgina unsurlari bizning an'anaviy buxgalteriya va operativ hisobimizga, iqtisodiy tahlilimiz tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston hisob amaliyoti hali marketing imkoniyatlaridan foydalangan emas, unda haqiqiy xarajatlarning taxminiylardan og'ishishlarini, mahsulotni sotishning zararsizlik nuqtasini aniqlash, byudjetlashtirish, transfert bahoni shakllantirish, ichki hisob va auditning metodikasi kabi katta imkoniyatlardan foydalanilmayapti.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasida ish vaqtining asosiy qismini boshqaruv hisobini tiklash va yurgazishga xarajat qiladilar, ayni vaqtda, an'anaviy moliyaviy hisobga faqat qolgan qismigina ketadi. Respublikamiz korxonalarida esa bu nisbatning, afsuski, mutlaqo aksini ko'ramiz. Bunga sabab, boshqaruv hisobining O'zbekistondagi mavjud qonuniy va me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topmaganidir. Masalan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda faqat buxgalteriya hisobiga aniqlik kiritilgan, unda na moliyaviy va boshqaruv hisobi to'g'risida hech narsa deyilmagan. Ma'lumki, u yoki bu hodisa mohiyatini tushunish uchun dastlab uning tarixan tiklanish va rivojlanish, shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash zarur.

Boshqaruv hisobining tiklanishi va shakllanishini kalkulyatsion va ishlab chiqarish hisoblarini rivojlanishi tarixidan ajralgan holda tasavvur etish qiyin.

Boshqaruv hisobi tiklanishi va rivojlanishi yo'lida mavjud buxgalteriya bazasida ikki mustaqil schetlar rejasi – moliyaviy va boshqaruv hisobini qo'llash amaliy qadam bo'lib qoldi. Bunday bo'linish sezilarli tarzda Evropa mamlakatlarining yagona milliy rejalari shakllanishiga ta'sir qila boshladi. Gap shundaki, ikkinchi jahon urushiga qadar Evropa mamlakatlarida (Frantsiya, Germaniya va h.k.) buxgalteriya hisobi yagona hisob rejasi bo'yicha olib borildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa Evropa iqtisodiy hayotida AQSh kapitali hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi, shu bilan birga buxgalteriya hisobining shakllanishiga ingliz-amerika yondoshuvchi bo'ldi. Chunki boshqaruv hisobida taxminlash va rejalashtirish funktsiyalari tarkibiy funktsiyalardan bo'lib qoldi, ularning yagona

buxgalteriyada qo'llanishi esa korxonaning tijorat sirlari buzilishiga olib keldi. Shu sababdan Evropa milliy hisob rejalarining bundan keyingi rivojlanishi ularning moliyaviy hisobot tuzish imkoniyatiga muvofiqlashuvi yo'lidan bordi va ko'pchilik hollarda moliyaviy hisob doiralari bilan chegaralana boshladi.

21.3. Boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi bog'liqlik

Boshqaruv hisobining mohiyatini chuqurroq anglash u bilan ishlab chiqarish hisobi orasidagi bog'lanish va farqli jihatlarni ajratishga bevosita bog'liq.

Ishlab chiqarish hisobi – bu ishlab chiqarish xarajatlari va korxonada daromadini boshqarish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashda namoyon bo'ladi. U korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha masalalarni batafsil aks ettirishi lozim.

Boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin (21.1-jadval).

21.1-jadval

Korxonada ichki xo'jalik hisobining turlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik

T/r	Ko'rsatkichlar	Boshqaruv hisobi	Ishlab chiqarish hisobi	Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi
1.	Rejalashtirish (byudjetlashtirish)	+	+	-
2.	Taxminlash (istiqbolni belgilash)	+	+	-
3.	Ichki (segmentar) hisob va hisobot	+	-	-
4.	Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash	+	+	+
5.	Transfert bahoni shakllantirish	+	-	-
6.	Istiqbolni belgilash	+	-	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Boshqaruv hisobi ishlab chiqarish hisobidan kengroq bo'lib, o'z ichiga ichki (segmentar) hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish hamda istiqbolni belgilash kabi hisobning yangi yo'nalishlarini qamrab oladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish hisobi esa yuqoridagilardan tashqari quyidagi ko'rsatkichlarni ham o'zida aks ettiradi:

- xarajatlar va daromadlarning turlari;
- javobgarlik markazlari bo'yicha harajatlar va daromadlar hisobi;
- xarajatlar va daromadlarni hisobdan chiqarish hisobi.

21.4. Moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro bog'liqligi

Korxonalarda buxgalteriya hisobini istiqbolli rivojlantirish moliyaviy va boshqaruv hisobi kabi uning muhim tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishni taqozo etadi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasida ko'pgina umumiyliklar mavjud, chunki ularning ikkalasi ham korxonada hisob tizimi axborotidan foydalanadi.

Moliyaviy hisobning qabul qilingan tamoyillari boshqaruv hisobida ham amal qilishi mumkin, chunki korxonada rahbarlari o'z faoliyatlarida mutlaqo tekshirilmagan taxminlar va fikrlarga tayanib ish qilishlari mumkin emas. Bundan tashqari, har ikkala kichik tizim axborotidan zaruriy boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun foydalaniladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi mavjud tafovutlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Hisobning maqsadi. Moliyaviy hisobning maqsadi korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini baholash, aktivlar va passivlarning holati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish, davriy va yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan iborat. Bu ma'lumotlar ma'muriyatning o'zi uchun ham, tashqi foydalanuvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'ladi. Tashqi foydalanuvchilar, investorlar va kreditorlar korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to'lov qobiliyati, kreditga

layoqati, mazkur korxonaga berilgan investitsiyalarning rentabellik darajasi kabilarga baho berishda aynan shu ma'lumotlarning aniq belgilangan talablar va standartlarga muvofiq ravishda olib borilganiga e'tibor beradilar.

Boshqaruv hisobining asosiy maqsadi esa korxonada rahbariyatini oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli ahborotlar bilan ta'minlashdir.

Hisob siyosatini ishlab chiqish. Moliyaviy hisobda hisob siyosati uni yuritish qoidalari, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish tartibini ifodalaydi.

Boshqaruv hisobi hisob siyosatida asosan korxonada faoliyatini byudjetlashtirish, taxminlash, tannarx hisoblash, transfert bahoni shakllantirish, segmentar hisobot tuzish masalalari o'z ifodasini topadi.

3. Axborotlarni buxgalteriya hisobi schetlari tizimida aks ettirish. Moliyaviy hisob schetlari tizimi korxonada moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari holati hamda harakati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni umumlashtiradi. Ushbu schetlar tizimi O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini schetlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga» nomli milliy standartiga asoslanadi. Ushbu schetlar rejasining yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 2002 yil 9-sentyabrdagi 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23-oktyabrda 1181-son bilan ro'yxatga olingan.

Boshqaruv hisobi schetlar rejasi esa korxonada va uning bo'linmalari faoliyati to'g'risida strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish, byudjetlashtirish, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini tashkil etish, «Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda» tizimi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur schetlar rejasini amaliyotga joriy etish ikki razryadli buxgalteriya hisobi schetlari tizimidan to'rt razryadli tizimga o'tish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- a) balans schetlari ya'ni balans tuzishda ishtirok etuvchi schetlar;

b) operatsion, “Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda” tizimi bo’yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo’llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalaniladigan schetlar.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida boshqaruv hisobi schetlar rejasining Germaniya va Rossiyada muvaffaqiyatli qo’llanilayotgan tizimlari amal qilmoqda.

4. Axborotdan foydalanuvchilar. Moliyaviy hisobni tashqi hisob deb ham ataydilar. Uning natijalari chop etib boriladi, biroq, moliyaviy hisobotlar nafaqat moliyaviy axborotlarni, shuningdek, korxonalar faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni, ularning yangi mahsulotlarini namoyish etuvchi reklama tusidagi axborotlarni ham o’z ichiga oladi. Moliyaviy hisob axborotlaridan foydalanuvchilar, asosan korxonadan tashqarida bo’ladilar. Ushbu axborot korxonalar rahbariyati, davlat organlari, kreditorlar, aksionerlar, investorlar (ichki va tashqi foydalanuvchilar) uchun zarur. Boshqaruv hisobini, binobarin, ichki hisob deb atash mumkin. Uning natijalaridan korxonalar boshqaruvi xodimlari, ta’rischilar va kuzatuv kengashi a’zolari foydalanadilar.

5. Axborotni taqdim etish shakllari. O’zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi Qonunining 22-moddasiga muvofiq, moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to’g’risidagi, pul oqimlari to’g’risidagi, xususiy kapital to’g’risidagi hisobot shakllari, shuningdek, izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlardan iborat. Moliyaviy hisobot shakllari Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27-dekabrda 140-sonli buyruq bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24-yanvarda 1209-raqam bilan ro’yxatga olingan «Moliyaviy hisobot shakllarini to’ldirish bo’yicha Qoidalar» bo’yicha taqdim etiladi. Shuningdek, korxonalar soliqlar, ijtimoiy ta’minot va sug’urta, mehnat birjalariga o’rnatilgan tartibda hisobot topshiradilar.

Boshqaruv hisobi axborotlari esa foydalanuvchilarga erkin shaklda taqdim etiladi.

6. Hisobni yuritish majburiyati. Moliyaviy hisob rasmiy hisob bo’lib,

barcha korxonalar uchun uni yuritish majburiydir. Moliyaviy hisobot hujjatlari soliq idoralari va boshqa tegishli joylarga taqdim etiladi, ular auditorlarning tekshiruv ob'ekti hisoblanib, chop etilishi shartdir.

Boshqaruv hisobini olib borish korxonada rahbariyati talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Hisobni tashkil etish qoidalari. Moliyaviy hisobda moliyaviy hisobot axborotlari aniq tamoyil va qoidalarga muvofiq shakllanishi hamda aks ettirilishi shart, ular asosida ma'lumotlar qayd qilinadi, baholanadi va tegishli schetlarda rasmiylashtiriladi. Ushbu tamoyil va qoidalar «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida belgilab qo'yiladi.

Boshqaruv hisobini yuritish tartib-qoidalari korxonaning strategik va taktik maqsadlaridan, xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Bu hisob turida ma'lumotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ahamiyatlilik darajasiga e'tibor beriladi.

8. Hisob tamoyillari. Moliyaviy hisob umumiy tamoyillarga tayanadi, bular buxgalteriya hisobini ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, aniqlik, mazmunning shakldan ustunligi, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi, moliyaviy hisobotning betarafligi va h.k. Bu tamoyillarga korxonada xodimlari bilan bir qatorda davlat idoralari vakillari ham amal qiladilar.

Boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari esa hisobni ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, aniqlik, hisoblash, ehtiyotkorlik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi va h.k. hisoblanadi.

9. Hisobning asosiy ob'ektlari. Moliyaviy hisobotlarda korxonada odatda yagona, yaxlit deb ta'riflanadi. Ko'p tarmoqli faoliyat olib boruvchi yirik korxonalar har bir soha bo'yicha ya'ni korxonaning yirik segmentlari bo'yicha xarajatlar va daromadlarni umumlashtirilgan moliyaviy hisobotda aks ettirishi shart.

Boshqaruv hisobi, odatda korxonaning alohida bo'linmalari: bo'limlar, tsexlar, uchastkalar, ish joylari faoliyati to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi.

10. Hisobning asosiy tuzilmasi. Moliyaviy hisob quyidagi asosiy tenglikka muvofiq shakllanadi:

$$\text{Aktivlar} = \text{O'z mablag'lari manbalari} + \text{Majburiyatlar}$$
$$(A = K + M)$$

Boshqaruv hisobi axboroti tuzilmasi va tarkibi uning foydalanuvchilarini ehtiyojlariga bog'liq. Boshqaruv hisobining har qanday tuzilmasi eng avvalo xarajatlar, daromadlar va aktivlar kabi kategoriyalarga tayanadi. Bu tuzilmalarni qo'llashda asosiy mezon - zarur axborotning foydaliligidir.

11. Axborotning oshkoralik darajasi. Moliyaviy hisob axborotlari uning foydalanuvchilari uchun ochiq hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, mazkur axborotlar soliq organlariga, ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga, davlat statistika organlariga, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga taqdim qilinadi.

Boshqaruv hisobi axborotlari ko'proq maxfiylik xususiyatiga ega bo'lib, ulardan korxonalar menejerlari, ta'sischilar va kuzatuv kengashi a'zolari boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanadilar. Ushbu axborotlar korxonaning tijorat siri hisoblanadi. Ular hisobotdan tashqi foydalanuvchilarga berilmaydi.

12. Axborotni aks ettirish usullari va yo'llari. Moliyaviy hisob qiymatda shakllanadigan axborotni o'z ichiga oladi. Korxonaning moliyaviy hisoboti bosh daftardagi barcha schetlar bo'yicha yakuniy qoldiqlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy hisobda xo'jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, schetlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, buxgalteriya balansi va hisobot va h.k. usullarida ifoda etiladi. Unda moliyaviy hisobot ma'lumotlari albatta pul birligi ko'rinishida aks ettirilishi zarur. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari bosh daftarning yakuniy yozuvlariga mos keladi.

Boshqaruv hisobida xo'jalik muomalalarini aks ettirishda ikkiyoqlama yozuv usuliga asoslanish shart emas. Mazkur hisob turida ma'lumotlar har qanday o'lchov birligida hisoblanishi mumkin. Shuningdek, unda moliyaviy

hisobot shakllari axborotlarining Bosh kitob ma'lumotlari bilan mos kelishi va taqqoslanishi shart emas.

Boshqaruv axborotini qayd etish va aks ettirishda esa moliyaviy hisob usullari bilan birgalikda ekonometrika, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

13. Axborotlarni o'lchash. Xo'jalik jarayonlarini umumlashtirish uchun moliyaviy hisobda faqat qiymat o'lchovi qo'llaniladi va so'mlarda ifoda etiladi.

Boshqaruv hisobida esa hisob o'lchovlarining moddiy, mehnat va qiymat kabi barcha turlaridan foydalaniladi.

14. Hisobot tuzishning davriyligi. Moliyaviy hisobot qat'iy belgilangan muddatlarda tuziladi hamda taqdim etiladi.

Boshqaruv hisobida hisobot har kuni, har hafta va h.k. muddatlarda tuzilishi mumkin. Hisobotlarni taqdim etish muddati korxonalar rahbariyati tomonidan belgilanadi. Muhimi, hisobot iste'molchilarga foydali bo'lishi va o'z vaqtida taqdim etilishi lozim.

15. Axborotning sodir bo'lish vaqti. Moliyaviy hisob korxonaning moliyaviy tarixini aks ettiradi. Unda xo'jalik muomalalari ularning sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlar orqali qayd etiladi ya'ni hisobning bu turi korxonalar xo'jalik faoliyatida allaqachon sodir bo'lgan muomalalarni tasdiqlaydi.

Boshqaruv hisobining maqsadi esa sodir bo'lgan voqealar tahlili asosida istiqbolga mo'ljallangan tavsiyalar, boshqaruv va investitsiya qarorlari dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Moliyaviy hisob xo'jalik muomalalari sodir bo'lgandan so'ng, boshqaruv hisobi esa voqea-hodisalarni oldindan tashxislab berishi zarur. Shu boisdan, boshqaruv hisobini ko'pincha taxminlash hisobi, maxfiy hisob deb ham ataydilar.

16. Axborotning aniqlik va ishonchlilik darajasi. Moliyaviy axborot sodir bo'lgan operatsiyalarni aks ettiradi, shu boisdan, u xolislik xususiyatiga ega va auditorlik tekshiruvidan o'tadi.

Boshqaruv hisobi esa ko'proq bo'lajak davrga mo'ljallangan istiqbol bilan

ish tutadi. Shu bois, boshqaruv hisobidagi axborot ehtimollik va sub'ektiv (xususiylik) tavsifiga ega.


17. Xarajatlar va daromadlarni guruhlash yo'llari. Moliyaviy hisobda xarajatlar kalkulyatsiya moddalari bo'yicha, daromadlar esa korxonaga va uning faoliyat turlari (segmentlari) bo'yicha guruhlanadi va aks ettiriladi.

Boshqaruv hisobida xarajatlar xarajat moddalari bo'yicha, daromadlar esa bo'linmalar va mahsulot(ish, xizmat)lar turlari bo'yicha guruhlanadi va aks ettiriladi. Xarajat moddalarining ro'yxati tarmoq yo'riqnomalari bilan belgilanadi hamda korxonaning hisob siyosatida ifodalanadi.

Boshqaruv va moliyaviy hisoblarning turli mualliflar tomonidan turlicha qiyosiy talqin qilinadi. Ushbu muammoga turli mualliflar qarashlarini umumlashtirilgan holda quyidagi belgilarni taklif etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ular ko'p darajada boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi mavjud tafovutlarni va mohiyatini xoliroq aks ettiradi.

Boshqaruv hisobidagi axborot tuzilmasi, tarkibi uning foydalanuvchilarning ehtiyojlariga bog'liq. Boshqaruv hisobining har qanday tizimi eng avvalo xarajatlar, daromadlar va aktivlar kabi kategoriyalarga tayanadi va asosli qurilmalardan o'ziga yoqqanini tanlab oladi. Bu tuzilmalarni qo'llashda asosiy mezon uzatiladigan axborotning foydaliligidir.

Ya. V. Sokolov boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi munosabatni noyob rasmsini taklif etadi. 21.1-rasm.



A – boshqaruv hisobi C – moliyaviy hisob B – hisob siyosati

21.1-rasm. Boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi bog'liqligi va nisbati.


Uning fikricha, **C** – sohasi – faqat tashqi foydalanuvchilar manfaatlari uchun olib boriladigan hisobni o'zida namoyon etadi. **B** –sohasi – boshqaruv hisobining ichki va tashqi foydalanuvchilar manfaatlarini ko'zlab olib boriladigan qismidir, **A** – sohasi esa – ma'muriyat talabi asosida shakllantiriladigan boshqaruv hisobi.

Taqdim etilgan rasm shuni ko'rsatadiki, hisob siyosati boshqaruv va moliyaviy hisoblar o'rtasida bog'lovchi halqa hisoblanib, u korxonaning ichki va tashqi foydalanuvchilari manfaatlari yo'lida tashkil etiladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, tezkor, statistik va soliq hisobi bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi korxonaning umumiy hisobi tizimiga kiradi va ikki qismga bo'linadi: **moliyaviy** va **ishlab chiqarish**; korxonaxarajatlari va daromadlari ularning ob'ekti (manbai) hisoblanadi. Ishlab chiqarish hisobining tahliliy (analitik) axboroti mutlaqo ichki boshqaruv uchun foydalaniladi. Moliyaviy hisobda esa asosan tashkilotning tijorat sirini namoyon etmaydigan axborot to'planadi, shu munosabat bilan uni yangi tashqi foydalanuvchilarga taqdim etadilar.

Boshqaruv hisobi esa faqat hisob amallari bilan cheklanmaydi, balki boshqaruvning boshqa funksiyalari hisobiga mohiyati jihatidan ishlab chiqish hisobini boshqaruv hisobiga aylantiradi.

Boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini quyidagi ko'rinishda taqdim etish mumkin.



21.2-rasm. Boshqaruv va moliyaviy hisobot o'rtasidagi bog'liqlik.

Boshqaruv hisobi imkoniyatini ochish uchun boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatish zarur.

Boshqaruv hisobi taktikasi quyidagilaridan iborat: tashkil etish, hisob, nazorat, dalillash, avval qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish va moslashtirish, shuningdek uning ijrosi uchun javobgarlik.

Boshqaruv hisobining strategiyasi uzoq davr mobayonida korxonada taraqqiyotini belgilovchi tahlil, taxminlash rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini o'zida namoyon etadi.

Integratsiya jarayonida hal qiluvchi nuqta xarajatlar va daromadlarni taqqoslash bo'lganligi sababli boshqaruv hisobi uchun eng muhimi xarajatlarni va daromadlarni boshqarish hamda daromadlarga ta'sir qilish vositasi bilan natijalar orqali boshqarish bo'lib qoladi.

Nazorat savollari

- 1) Boshqaruv hisobiga ta'rif bering.
- 2) Boshqaruv hisobining maqsadi nima?
- 3) Respublikamiz korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish zaruratini yuzaga keltirayotgan omillarni sanab bering.

- 4) Boshqaruv hisobining qanday elementlari mavjud?
- 5) Korxonada faoliyatida boshqaruv hisobi qanday o'rin tutadi?
- 6) Boshqaruv hisobining shakllanishida kalkulyatsiya va ishlab chiqarish hisobining roli nimalardan iborat?
- 7) Kalkulyatsiya hisobi nima?
- 8) Ishlab chiqarish hisobi nima?
- 9) Boshqaruv hisobining vazifalari nimalardan iborat?
- 10) Boshqaruv hisobining strategiyasi va taktikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
- 11) Axborotdan foydalanuvchilar nuqtai-nazaridan boshqaruv hisobi va moliyaviy hisob o'rtasida qanday farqlar mavjud?
- 12) Axborot manbalariga ko'ra boshqaruv hisobi moliyaviy hisobdan qanday farqlanadi?
- 13) Moliyaviy va boshqaruv hisobida hisobning asosiy tuzilmasi qanday ko'rinishga ega?
- 14) Moliyaviy va boshqaruv hisobida axborotlar qanday o'lchanadi?

22-BOB. XARAJATLARNI TURKUMLASH VA ULARNING HISOBI.

22.1. Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turli xil belgilariga qarab turkumlanishi.

22.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil etish.

22.3. Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish.

22.4. Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish.

Tayanch so'z va iboralar: Xarajatlar, moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, foizlar bo'yicha xarajatlar, favqulodda zararlar.

22.1. Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turli xil belgilariga qarab turkumlanishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o'rin tutadi.

Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir.

Korxonalarda xarajatlar turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiy, moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxonalarining xarajatlari asosan xomashyo, materiallar, yoqilg'i va mehnatga haq to'lash xarajatlari kabilardan iborat bo'ladi.

Respublikamizda xarajat moddalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (O'z.R. VM.ning 2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qarori bilan bilan o'zgartirishlar kiritilgan) «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanadi.

Bu Nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish yo'nalishidagi ustama xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- foizlar bo'yicha xarajatlar;
- xorijiy valyuta operatsiyalarida yuzaga keladigan salbiy kurs farqlari;
- qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)larni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi.

Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagicha tartibda guruhlanadi:

1. ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

2. ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

3. ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

4. asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

5. ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun quyidagi schetlar belgilangan:

9610-«Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar»;

9620-«Kurs farqlaridan zararlar»;

9630-«Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar»;

9690-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar».

Mazkur schetlar tranzit schetlar hisoblanib, aktiv xarakterga. Ularning debet oborotlari xo'jalik muomalalari natijasida sodir bo'lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oborotlari esa ularning hisobdan chiqarilishini ifodalaydi.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari qo'yilgan vazifalarga muvofiq xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo'linadi.

Xarajatlarni elementlari bo'yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga qarab aniqlash va tegishli smetalar tuzishga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash esa mahsulotlar tannarxini aniqlashlashga xizmat qiladi. Mazkur xarajatlar xomashyo va materiallarni tayyorlash, qayta ishlash, brak mahsulotlarni tuzatish, yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lmagan xarajatlarga korxonaning madaniy-maishiy ob'ektlariga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Shuningdek, korxonalarda xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga ko'ra bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar korxonalariga mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to'lash (ajratmalari bilan birga), ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Bevosita moddiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot (ish va xizmat)larning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotlar tayyorlash, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar xarajatlarini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan tashqari «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi» Nizomga muvofiq, quyidagi xarajatlar ham bevosita moddiy xarajatlar tarkibiga kiradi:

– normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojiga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlar qiymati, xo'jalik buyumlari va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalari.

– sotib olinadigan, kelgusida korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

– tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha muomalalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, ularni sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Korxonada tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini markaziy ombordan tsexga, shuningdek, tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlar hisoblanadi.

– tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirish, yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtlarga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo

tarmoqlari uchun esa yog'och-taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari.

- texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonalarining transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. Bunda korxonaning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyiga transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari moddiy xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi.

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

- korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar, jumladan yuklash va tushirish ishlari ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kiritilishi zarur.

- korxonalar tomonidan mol etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

- moddiy xarajatlar elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlaridan, shu jumladan brokerlik

xizmatlaridan, bojlar va yig'imglar, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Bevosita mehnat xarajatlari: bevosita ishlab chiqarish xodimlari, ishlab chiqarish jarayonida ishlayotgan mashina operatorlari va bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan boshqa xodimlar mehnat haqi xarajatlari.

Shuningdek, «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, bevosita mehnat xarajatlariga quyidagilar kiritiladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tUSDagi to'lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tUSDagi to'lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan

boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytgacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda er osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan oldin va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);

- ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash;

- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:

1. amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy

ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

2. majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to'lash;

3. donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

4. davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

– xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

– belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

Bilvosita xarajatlar esa mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar hisoblanib, ularga ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqaruv asbob-uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari kiradi.

Rejalashtirilishiga qarab xarajatlarni qisqa va uzoq muddatli xarajatlarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli xarajatlar korxonaning taktik maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Uzoq muddatli xarajatlar esa korxonani strategik maqsadini amalga oshirishda yuzaga keladi. Ularga ilmiy tekshirishlar, yangi texnologiyalarni olib kirish va rivojlantirish, tayyor mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar kiritiladi.

Korxonalar faoliyatida yarim o'zgaruvchan xarajatlar ham yuzaga keladi. Yarim o'zgaruvchan xarajatlar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan, ham doimiy xarajat xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlar hisoblanadi. Ularga telefon xizmati xarajatlarini kiritish mumkin. Bunda bir oylik aniq to'lanishi lozim

bo'lgan summa - doimiy xarajatlar, shaharlararo va xalqaro so'zlashuv xarajatlari esa o'zgaruvchan xarajatlar guruhiga kiritiladi.

Smeta kalkulyatsiyasidan mahsulotlar ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyani qo'llash va kelgusi davrlarda sarflanadigan xarajatlar smetasini tuzishda foydalaniladi. Ushbu usul korxonada yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, mahsulotlar bahosini belgilash va ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish yo'nalishidagi hamma xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bu esa ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

22.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil etish

Korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schetlar guruhidan foydalaniladi:

- 2010-«Asosiy ishlab chiqarish»;
- 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish»;
- 2510-«Umumishlab chiqarish»;
- 2610-«Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 3110-«Oldindan to'langan ijara haqi»;
- 3120-«Oldindan to'langan xizmat haqi»;
- 3190-«Boshqa bo'nak xarajatlari»;
- 8910-«Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervi».

Ishlab chiqarish xarajatlarini elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisob yuritishni ta'minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarishning

barcha xarajatlari 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetida tayyorlanayotgan mahsulot turlari bo'yicha guruhlanadi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetidan xarajatlarni hisobga olishda quyidagi korxonalar va tashkilotlar foydalanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini;
- qurilish-montaj, geologiya-qidiruv ishlarini bajarish bo'yicha pudrat, geologiya va loyiha qidiruv tashkilotlari;
- xizmatlar ko'rsatish bo'yicha transport va aloqa korxonalarini;
- ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini bajarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot korxonalarini;
- avtomobil yo'llarini asrash va ta'mirlash bo'yicha yo'l xo'jaliklari.

Ushbu schetning debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, brakdan ko'rilgan yo'qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar aks ettiriladi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarxi summasi aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini aniqlash uchun tegishli xarajatlar 2300-«Yordamchi ishlab chiqarish hisobi» schetlarida guruhlanadi.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schetlaridan quyidagi yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olishda foydalaniladi:

- energiyaning har xil turlari (elektroenergiya, gaz va boshqalar) bilan yordam ko'rsatish;
- transport xizmatlarini amalga oshirish;
- asosiy vositalarni ta'mirlash;

– instrumentlar, shtamplar, qurilish detallari, konstruktsiyalarni tayyorlash;

– tosh, shag'al, qum va boshqa rudasiz materiallar qazib olish;

– yog'och materiallarini tayyorlash va ularga ishlov berish;

– qishloq xo'jali mahsulotlarini tuzlash, qoqi qilish va konservalash (asosan savdo korxonalarida);

– maxsus kiyimlar va poyafzallarni ta'mirlash, tikish va boshqalar.

Shuningdek, mazkur schetlarda 21-sonli BHMSGa muvofiq, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar balansida turgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik bo'linmalari xarajatlari ham hisobga olinishi mumkin.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schetlarining debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishla bajarish bilan bog'liq bo'lgan bevosita xarajatlar, shu bilan birga yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar hamda brakdan ko'rilgan yo'qotishlar xarajatlari aks ettiriladi.

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schetlari debetlanganda quyidagi schetlar kreditlanadi:

- 0200-«Asosiy vositalarning eskirishi hisobi»;
- 0500-«Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi hisobi»;
- 1000-«Materiallar hisobi»;
- 1100-«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi»;
- 1610-«Materiallar qiymatidagi og'ishishlar»;
- 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari»;
- 2610-«Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar»
- 3100-«Kelgusi davrlar xarajatlari hisobi»;
- 3200-«Muddati uzaytirilgan xarajatlar hisobi»;
- 4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan schetlar»;
- 6010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar»;

- 6500-«Sug'urta bo'yicha qarzlari va davlat maqsadli fondlariga to'lovlar hisobi»;

- 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashlar»;

- 6970-«Hisobdor shaxslarga qarzlari»;

- 6990-«Boshqa majburiyatlar»;

- 6110-«Alohida balansga ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schetlar»;

- 9390-«Boshqa operatsion daromadlar».

2300-«Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schetlarining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (ko'rsatilgan xizmat, bajarilgan ishlar)ning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

22.3. Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish

Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari o'rtasida bilvosita xarajatlarni oqilona taqsimlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, mahsulotlarning texnologik turlari bo'yicha tannarxini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Bu holat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bahosini shakllantirish bo'yicha korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqishda ijobiy samara beradi.

Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish xarajatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) mashina va uskunalarni asrash va ishlatish xarajatlari;

- 2) umumishlab chiqarish xarajatlari;

- 3) davr xarajatlari.

O'zbekistonda yuqoridagi birinchi va ikkinchi bandlardagi xarajatlar taqsimot bazasiga mutanosib ravishda mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladi. Davr xarajatlari esa korxonaning moliyaviy natijalari hisobidan qoplanadi.

MDH davlatlarida esa uchchala xarajatlar ham mahsulot tannarxiga kiritiladi

va schetlar tizimi orqali to'liq tannarx hosil qilinadi.

Ushbu xarajatlar umumiy xususiyatga ega bo'lishi bilan birgalikda, ularning xususiy jihatlari ham mavjud: mashina va uskunalarni ishlatish va asrash xarajatlari shartli-o'zgaruvchan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq. Umumishlab chiqarish va davr xarajatlari esa shartli-doimiy xarajatlar hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish xarajatlarini mahsulotlar tannarxiga kiritish orqali tannarx aniqlashning ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini umumkorxonada miqyosida va bo'linmalar darajasida taqsimlash kabi usullari mavjud.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini umumkorxonada miqyosida taqsimlash usulining mohiyati shundaki, bunda mazkur xarajatlar 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schetining debetida yig'ib boriladi hamda hisobot davri oxirida ular yagona taqsimot bazasi asosida mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

Shuningdek, bu usulning afzalligi uning soddaligi va kam mehnattalabligida bo'lsa, asosiy kamchiligi esa, mahsulotlarning xilma-xil turlari haqiqiy tannarxini aniqlash paytida jiddiy xatoliklarga olib kelishidir.

Odatda, boshqaruv hisobi tizimida hisobot davri ichida umumishlab chiqarish xarajatlari smetasi tuzilib, unga asosan smetadagi xarajatlar haqiqatda erishilgan mahsulot hajmi va haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanib, tuzatilib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi 21-conli BHMSga binoan tasdiqlangan xarajat moddalariga bo'lib hisobga olib boriladi va korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq alohida hisob ob'ektlari o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevral 54-sonli qarori (2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qaror asosidagi o'zgartirishlar bilan) bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagilardan iborat:

- mashina va uskunalarni asrash va ishlatish xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari;
- ishlab chiqarishga tayinlangan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- ishlab chiqarishdagi mulklarni sug'urtalash xarajatlari;
- isitish, yoritish va ishlab chiqarish binolarini asrash xarajatlari;
- ishlab chiqarishda foydalaniladigan binolar, mashina va uskunalar, ijaraga olingan boshqa mulklarning ijara to'lovlari;
- ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning ish haqi;
- ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash jarayonida xarajatlarni hisobdan chiqariladigan ob'ektlar tanlanib, aniq tsex, mahsulot, shartnoma turiga tegishli xarajatlar tanlab olinadi va yig'iladi. Bu sharoitda umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimot bazasini tanlab olish muhimdir.

Bo'linmalar darajasida ishlab chiqarishning bilvosita xarajatlarini taqsimlash usuli ancha mehnattalabdir, biroq, u oldingi usulga nisbatan mahsulotlar alohida turlari bo'yicha tannarxni to'liqroq aniqlash imkonini beradi. Bu usulda mazkur xarajatlar alohida subschyotlar ochish yo'li bilan bo'linmalar darajasida hisobga olinadi.

Korxonalarda hisobot davri yakunida mahsulotlar alohida turlari bo'yicha ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarining taqsimoti har bir subschyot uchun amalga oshiriladi. Bunda har bir subschyotga bo'linma texnologik jarayoni xususiyatini ifodalovchi o'z taqsimot bazasi mos keladi. Masalan, korxonada avtomatlashtirilgan bo'linmasining ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari bo'yicha asbob-uskunalar ish soatlariga binoan, o'z o'ldi yig'ish tsexining ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari esa mehnatning bevosita xarajatlariga ko'ra taqsimlanadi.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini hisobga olishda bu usulni qo'llab

xatoliklarni batamom bartaraf etib bo'lmaydi, chunki birinchidan, umumkorxonada ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotida, ikkinchidan, alohida bo'linma ichidagi turli ishlab chiqarish tizimlari bo'yicha ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotida xatolar bo'lishi mumkin.

Korxonada alohida bo'linmalari, tseklarining texnologik jarayonlari mehnat, kapital va materialtalabligi darajalari bilan farq qiladi.

Agar bo'linma faoliyati xarajatlari ichida ish haqining hissasi yuqori bo'lsa, shu bo'linma, tsex, brigadaning umumishlab chiqarish xarajatlarini mehnat resurslarini iste'mol qilish bilan bog'liq ko'rsatkichlarni asos qilib olinib, ular mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi;

- asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari;
- mehnatning me'yoriy bevosita xarajatlari;
- korxonadagi muayyan texnologik jarayonda qatnashuvchi xodimlar soni.

Agar bo'linma faoliyati kapitaltalab bo'lsa, umumishlab chiqarish xarajatlarini asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlari asos qilib olinib taqsimlanadi. Bunda ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimoti bazasi sifatida asbob-uskunalarining haqiqiy ish soatlari, mahsulot turlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalari yoki ma'lum texnik jarayonda foydalanilgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati olinadi.

Korxonada bo'linmasi faoliyati materialtalab bo'lsa ya'ni unda mahsulotlar tannarxiga qo'shiladigan xarajatlarning asosiy qismini xomashyo va materiallar xarajatlari tashkil qilsa, taqsimot bazasiga xomashyo va materiallarning haqiqiy bevosita xarajatlari hamda ularning rejali tannarxi kiritiladi.

Agar bo'linma faoliyati natijasi qandayligini (mehnattalab, kapitaltalab yoki materialtalab) aniq belgilash imkoni bo'lmasa, taqsimotning aralash bazasidan foydalaniladi. Bunda taqsimot bazasi to'liq bevosita moddiy xarajatlar (xomashyo, materiallar va asosiy vositalar mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxida katta salmoqqa ega bo'lsa)dan iborat bo'ladi.

Taqsimot bazalari korxonada funktsional xizmatlari ya'ni boshqaruv apparati uchun ham ishlab chiqiladi. Bunda taqsimotning asosiy bazalari quyidagilardan

iborat bo'ladi:

– ombor xo'jaligi uchun bir birlik mahsulotni bir kun saqlashning normativ xarajatlari ombordagi mahsulotlarning o'rtacha qoldig'iga ko'paytirilgani;

– dispatcherlik xizmati uchun tashib ketiladigan tayyor mahsulotlar tonna-kilometrda;

– yuklarni jo'natish bo'limi uchun tayyor mahsulotlarni yuklab jo'natish bo'yicha shartnomalar miqdori.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarning eng mos taqsimlash bazasini hisoblash uchun ma'lum joriy xarajatlar talab qilinadi. Shu sababli, korxonalarda uncha mehnattalab bo'lmagan boshqa qo'shimcha taqsimot bazalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularga mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hajmi, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxi, xomashyo va materiallarni sotib olish tannarxi, marjinal daromad, xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni kabilarni kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotining samarali tizimini tadbqiq etish masalalariga e'tiborsizlik ko'p hollarda ishlab chiqarish dasturi, sotishlar va korxonahaho siyosatida jiddiy xatoliklarga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida, korxonaholiyaviy faoliyatini salbiy natijalariga olib keladi.

22.4. Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish

Javobgarlik markazlari - bu boshqaruv hisobi tizimida muhim ob'ekt hisoblanib, boshqaruv xodimlari faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan yangi psixologik talo'indir. Uning asosiy maqsadi nazoratdan ko'ra ko'proq o'zini boshqarishda boshqaruv xodimlariga yordam berishdir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda javobgarlik markazlari bo'yicha hisobni tashkil etishning asosiy maqsadi faoliyat xarajatlari va daromadlari haqidagi ma'lumotlarni alohida-alohida umumlashtirish hamda ular bo'yicha mavjud

chetlanishlarni bo'linmalar zimmasiga yuklashdan iborat.

Boshqarish nuqtai-nazaridan korxonaning javobgarlik markazlariga bo'linishi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- javobgarlik markazlari korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi bilan bog'langan bo'lishi;

- javobgarlik markazlarida faoliyat hajmini aniqlash, xarajatlarni hisoblash va ularni taqsimlash uchun asos vazifasini bajarishi;

- har bir javobgarlik markazi menejerlarining vakolatlari va javobgarligi aniq belgilanishi zarur. Menejer faqat o'zi nazorat qila oladigan ko'rsatkichlar uchun javob beradi;

- har bir javobgarlik markazi uchun ichki hisobot shakllarini o'rnatilishi;

- javobgarlik markazlari menejerlari o'tgan davr uchun markaz faoliyati tahlilini o'tkazishda va kelgusi davrga rejalar (byudjetlar) tuzishda faol ishtirok etishlari lozim.

Shuningdek, korxonani javobgarlik markazlariga bo'lishda tegishli markazlar rahbarlarining e'tirozlariga ta'sir qila oladigan ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish lozim.

Boshqaruv hisobida korxonani faoliyatini javobgarlik markazlariga bo'lib tashkil etish tarmoq xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi va uni tashkil etilishi, dastlabki materiallar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tarkibi, texnik jihozlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liq.

Korxonani tashkiliy tuzilma doirasida boshqarishni tashkil etishning chiziqli, funktsional, chiziqli-funktsional va matritsali shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Chiziqli boshqarish deganda “vertikal bo'yicha” boshqarish tushuniladi, bunda quyida bo'g'inlar yuqori bo'g'inlarga bevosita bo'ysunadi.

Chiziqli boshqarishda har bir rahbar o'zi ma'sul bo'lgan bo'linmalarni mustaqil boshqaradi va barcha zarur boshqaruv qarorlarini mustaqil qabul qiladi. Bu tizimning o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Jumladan,

uning ijobiy jihatlari:

- xodimlarning o'z vazifalarini bajarilishiga shaxsiy javobgarligini yuzaga keltiradi va mustahkamlaydi;
- asoslanmagan va samarasiz topshiriqlar berilish hollarini bartaraf etishga imkon beradi;
- belgilangan vazifalarni tezda bajarish va ularning natijalarini tahlil qilib borish mumkin;
- bo'linmalar xodimlari faqat o'z rahbarlariga hisobot berishlari sababli korxonada ijrochilik va intizom darajasi yaxshilanadi.

Mazkur tizimning salbiy tomonlari esa ko'proq unda oddiy va qisqa muddatli vazifalarni bajarishga e'tibor qaratilishi sababli, kompleks hamda istiqbolli masalalarni hal qilish ancha qiyinlashishi bilan ifodalanadi. Shuningdek, bunday sharoitda buyruqbozlik va rasmiyatchilik muhiti yuzaga kelishi mumkin.

Odatda, bu tizim ishlab chiqarish tsexlari va korxonada bo'linmalarini boshqarishda yuqori samara beradi.

Funksional boshqarish korxonani moliya, ta'minot, sotish, kadrlar, loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlovlar, ish yuritish, tashqi iqtisodiy aloqalar va hokazolar kabi alohida funktsiyalar bo'yicha boshqarishdir. Bu tizim korxonada rahbari va alohida funktsiyalar menejerlarining faoliyatini ixtisoslashtirishga mo'ljallangan. Bunda menejerlarning o'z bo'linmalari faoliyatini chuqur va puxta bilishi, sodir bo'layotgan jarayonlarni istiqbolli tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Funksional boshqarish tizimining afzalligi korxonada boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirilishi bilan belgilanadi. Bu holat boshqaruv samaradorligini oshiriga xizmat qiladi.

Korxonalar faoliyatida boshqarishning **chiziqli-funksional tuzilmasidan** keng foydalaniladi. Bunday tuzilma doirasida chiziqli bo'linmalar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy faoliyat bilan shug'ullanadi, ixtisoslashgan funksional bo'linmalar esa (marketing bo'limi, reja-moliya bo'limlari, kadrlar

bo'limi) asosiy bo'linmalarga xizmat qiladi. Bu holda boshqaruvning ixtisoslashuvi, uning tamoyillari birgalikda to'laroq amalga oshiriladi hamda tayyorlanadigan qarorlarning yuksak darajaliligi va har bir ishlab chiqarish bo'g'iniga yoppasiga rahbarlik qilish ta'minlanadi.

Matritsali tuzilmada funktsional bo'linmalar bilan birga muayyan ishlab chiqarish vazifalarini hal etish uchun maxsus organlar (loyiha guruhleri) tuziladi. Bu guruhlar boshqaruvning turli darajalaridagi alohida funktsional bo'linmalar mutaxassislaridan tarkib topadi.

Matritsali tuzilmaning afzalligi shundaki, u korxonada ichki faoliyatidagi mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi, bu esa funktsional ixtisoslashish rivojiga xalal bermaydi. Funktsional-qiymat tahlili (FQT)ning vujudga kelishi ham bunga misol bo'lishi mumkin. Uning maqsadi eng kam xarajat qilgan holda eng yaxshi sifatli va zamonaviy, yangi buyumni ishlab chiqarishga erishishdir.

Boshqarishni tashkil etishning matritsali shakli rahbar va xodimlarning hamjihatlikdagi faoliyatini ta'minlaydi, ularning shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratadi. Mazkur tashkiliy tuzilmaga muvofiq javobgarlik markazlarini tuzish (tsex, bo'lim, bo'linma) har bir bo'linma faoliyatini muayyan shaxslar mas'uliyati bilan bog'lashga, bo'linmalar moliyaviy natijalarini baholashga va ularning korxonada faoliyati natijalariga o'z o'shgan hissasini aniqlashga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobining tashkil etishda ushbu markazlarning turlari mohiyatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Korxonada bo'linmalar bo'yicha boshqaruv hisobini samarali tashkil etish uchun ularni quyidagi belgilarga muvofiq tasniflash lozim:

- vakolatlar va javobgarlik hajmiga ko'ra;
- markaz bajaradigan funktsiyalar bo'yicha.

Vakolatlar va javobgarlik hajmidan kelib chiqqan holda javobgarlik markazlarini *xarajatlar, sotish, foyda va investitsiyalar markazlariga* bo'lish

maqsadga muvofiqdir.

Xarajatlar markazi - bu faqat xarajatlarning maqsadli sarflanishiga mas'ul bo'lgan korxonaning bo'linmasidir (ishlab chiqarish tsexi, konstruktorlik byurosi va h.k.).

Korxonani bunday markaz doirasida boshqarish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish, me'yorlashtirish va hisobini tashkil etish amalga oshiriladi.

Boshqariladigan xarajatlar markazining rahbari, avvalo, mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni eng kam miqdorga keltirishga javob beradi va uning faoliyati mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan me'yoriy va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan baholanadi.

Erkin xarajatlar markazi faoliyatini baholash uchun aniq mezonni belgilash murakkab, chunki korxonaning rahbariyati bunday markazlar xarajatlari hajmiga ta'sir qila olmaydi. Konstruktorlik byurosi, kimyoviy-texnik nazorat laboratoriyasi va h.k.lar erkin xarajatlar markazlariga misol bo'la oladi.

Boshqariladigan xarajatlar markazida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa bo'limlar o'rtasida samarali munosabat o'rnatiladi. Ushbu markazlarning xarajatlarini boshqarish oldindan tuzilgan moslashuvchan byudjetlar yordamida amalga oshiriladi.

Sotish markazi javobgarlik markazining bir turi hisoblanib, bu bo'linmada rahbar faqat tushumga javob beradi. Shu sababli, unda sotishdan olinadigan tushum va uni belgilovchi ko'rsatkichlar: sotish hajmi va baho asosiy nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar hisoblanadi.


Javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish shuni ko'rsatadiki, har bir bo'linma faoliyati natijalarini baholash uchun muayyan javobgarlik markazining olishi kutilayotgan foydasi hajmini belgilash zarur. Bunday sharoitda javobgarlik markazlari doirasida foyda markazlari tuzish alohida ahamiyatga ega.

Foyda markazi - bu bo'linma rahbari xarajatlar va foyda uchun javob beradigan markazdir. Bunday markazlarda xarajat va daromadlar - ishlab

chiqarilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo'lib, foyda esa ular o'rtasidagi farq hisoblanadi. Foyda markazi menejeri sotish hajmi va bahoni, shuningdek, xarajatlarni nazorat qiladi.

Foyda markazi - bu kichik ko'rinishdagi korxonalar iqtisodidir. Foyda markazi bo'yicha boshqaruv modelidan foydalanish ko'pgina korxonalarda foyda uchun javobgarlikni nomarkazlashtirishga imkon beradi.

Foyda markazi, o'z navbatida, bir qancha xarajatlar markazlaridan tashkil topish mumkin (23.1-rasm).



23.1-rasm. Funktsional javobgarlik markazlari bo'yicha analitik hisob rasmsi

Foyda markazini moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, shuningdek, rejalashtirilgan foyda olish jadvali (operatsion byudjet) yordamida boshqarish mumkin.

Investitsiyalar markazi - bu rahbar nafaqat daromadlar va xarajatlarga,

balki kapital quyilmalarga ajratilgan mablag'larga ham javob beradigan bo'linmadi.

Amaliyotda sof foydasini investitsiya qilish huquqiga ega bo'lgan bunday markazning maqsadi foyda olish hamda sarflanadigan mablag'larning rentabelligi, investitsiyalarning daromadlilik va xususiy mablag'ning ortishiga erishish hisoblanadi.


Investitsiyalar markazi faoliyatini rejalashtirilgan foyda olish jadvali (operatsion byudjet), shuningdek, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, buxgalteriya balansi yordamida boshqarish mumkin.

Javobgarlikning asosiy markazlari bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Ularning xarajatlari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Asosiy ishlab chiqarish brigadalari, tsexlari va sotish bo'limini ana shunday markazlarga kiritish mumkin.

Javobgarlikning yordamchi markazlari javobgarlikning asosiy markazlariga ko'maklashish uchun tashkil etiladi. Bu markazlarning xarajatlari avval javobgarlikning asosiy markazlari bo'yicha taqsimlanadi, keyin esa asosiy markazlarning umumiy xarajatlari mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi tarkibiga kiritiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, javobgarlik markazlarini aniqlashda korxonaning texnologik tuzilmasini e'tiborga olish, uni gorizontaal va vertikal ko'rinishlarga ajratish zarur.

Gorizontaal tuzilmada markaz uchun javobgar har bir shaxs faoliyati doirasi bilan farqlanadi, vertikal tuzilmada esa boshqaruv qarorlari qabul qilishga vakolatli shaxsning harakatlari nazarda tutiladi.

Javobgarlik markazlarining har biri bir vaqtda xarajatlar, daromadlar, foyda yoki investitsiyalar markazi bo'lishi mumkin (23.2.-rasm.).



23.2-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarida javobgarlik markazlari tuzilmasi

Bu rasimga asoslanib, korxonada javobgarlik markazlarining shakllanishini gorizontal va vertikal ko'rinishlarda tahlil qilib chiqarish korxonasi bo'linmalari rahbarlari faoliyatini markaziy boshqaruv xodimlari faoliyati bilan muvofiq- lashtirish imkonini beradi.

Javobgarlik markazi rahbari vazifalarni bajarish bo'yicha belgilangan

majburiyatlar bilan birga moliyaviy javobgarlikni ham o'z zimmasiga olishi shart. Bunda har bir markaz o'ziga tayinlangan turli funktsiyalarni bajarishi mumkin (ishlab chiqarish, marketing, texnik xizmatlar, hisob, nazorat va h.k.). Mazkur holatda, muayyan funktsiyalar yoki vositalar emas, balki xodim yoki ma'muriyat javobgarlik markazi ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar

- 1) Korxonaning faoliyatida xarajatlar qanday ahamiyatga ega?
 - 2) Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xarajatlar qay tartibda guruhlanadi?
 - 3) Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?
 - 4) Asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar hisobi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
 - 5) Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga qanday xarajatlar kiritiladi?
 - 6) Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi qanday xususiyatlarga ega?
 - 7) Umumishlab chiqarish xarajatlari korxonada qanday o'rin tutadi?
 - 8) Javobgarlik markazlari nima?
 - 9) Xarajatlarni javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishning maqsadi nima?
 - 10) Javobgarlik markazlari qanday tasniflanadi?
 - 11) Javobgarlik markazlarini tasniflashga qanday talablar qo'yiladi?
 - 12) Javobgarlik markazlarini boshqarishning qanday shakllari mavjud?
 - 13) Javobgarlikning asosiy va yordamchi markazlari deganda nimani tushunasiz?
 - 14) Xarajatlar markaziga ta'rif bering.
- Javobgarlik markazlarini tashkil etish jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

23-BOB. XARAJATLARNI BAHOLASH VA ULAR DINAMIKASI

23.1. Xarajatlar vazifalarini, ahamiyati va umumiy qoida (printsip)lari.

23.2. Xarajatlarni baholashda muhandislik va buxgalteriya usullarining afzalliklari.

23.3. Xarajatlarni baholashda grafik va miqdor usullarni ko'llashning xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: Xarajatlar, *Regressiya tenglamasi*, *oddiy regressiya*, *ko'plik regressiyasi*, muxandislik usullari, buxgalteriya usullarini tekshirish, grafik usul yoki tarqalish diagrammasi, eng ko'p va eng kam miqdor usuli.

23.1. Xarajatlar vazifalarini, ahamiyati va umumiy qoida (printsip)lari

Xarajatlarni baholash uchun qo'llaniladigan turli usullarni ko'rib chiqishdan oldin bu bobda biz foydalanadigan ba'zi atamalarni bilib olishimiz lozim.

Regressiya tenglamasi tobe o'zgaruvchan miqdor (bu o'rinda xarajat) va erkin o'zgaruvchan xarajatning (ya'ni faollik ko'rsatkichi yoki chiqimlar omilining), bitta yoki ko'p soni o'rtasidagi kutilayotgan tobelikni ko'rsatadiki, ular oldingi kuzatuvlarga asoslanadi. Tenglama faqat bitta erkin o'zgaruvchi xarajatni o'z ichiga olsa *oddiy regressiya* deyiladi va bunday holatda regressiya tenglamasini to'g'ri chiziqli grafik tarzida ko'rsatish mumkin. Agar tenglama va undan ko'proq erkin o'zgaruvchi xarajatlarni o'z ichiga olsa, gap *ko'plik regressiyasi* to'g'risida boradi³³. Agar bitta erkin o'zgaruvchi va tobelik to'g'ri chiziqli bo'lsa, regressiya chizig'ini to'g'ri chiziqli tenglama shaklida ifodalash mumkin:

$$u = a + bx.$$

Agar biz *tobe o'zgaruvchi* (xarajatlar) va *erkin o'zgaruvchi* (faoliyat turi),

³³ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.55

o'rtasidagi aloqani ifodalamoqchi bo'lsak u holda:

u — x faollik darajasida hisobot davridagi umumiy xarajatlar;

a — hisobot davridagi umumiy doimiy chiqimlar;

b — mahsulot turi birligiga o'zgaruvchi o'rtacha chiqimlar;

x — faoliyat turi hajmi yoki hisobot davrida chiqimlar omillari.

Agar misol uchun olganda, aniq bir davrda doimiy chiqimlar 5000 evroga teng bo'lsa, o'zgaruvchi o'rtacha chiqimlar mahsulot birligida 1 evroni tashkil qilsa, asosiy xodimlarning mehnat soati esa chiqimlar omili bo'lsa, u holda

Umumiy xarajatlar = 5000 + 1 x asosiy xodimlar mehnat soati (x), yoki

$$u = a + bx, \text{ shu sababli } u = 5000 + 1x.$$

Tobe o'zgaruvchi yoki bir necha erkin o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasiga nisbatan maqsadli vazifa atamasi ham qo'llaniladi. Xarajatlarni baholash umumiy xarajatlar bilan bu xarajatlarni talab qiluvchi potentsial omillar o'rtasidagi oldingi tobelikni o'lchashdan boshlanadi. Bunday holatda maqsad bo'lajak sarf-xarajatlarni taxmin qilish uchun yordamchi vosita sifatida oldingi xarajatlarning o'zgarish turidan foydalanishdir. Lekin kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatning har qanday o'zgarishi oldingi ma'lumotlarga mumkin bo'lgan shu o'zgarishlarni hisobga olib, tuzatish kiritishini talab qiladi.

Ayni paytda o'tgan davr ma'lumotlari asosida chiqarilgan xarajatlar vazifalari to'satdan to'xtab qolishi mumkin bo'lgan soxta korrelyatsiya asosida aniqlanishi xavfi mavjud. O'zgaruvchi birliklar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lsa, kuchli korrelyatsiya (o'zaro bog'liqlik) bo'lishi mumkin. Shu sababli xarajatlar vazifasini faqat ilgari kuzatilgan statistik tobelik asosida aniqlamaslik kerak. Har qanday holatda ham kuzatiladigan statistik tobelikning tabiati oqilona va iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Agar bunday sharoit bo'lmasa, turlicha ma'lumotlar asosida natijalarni prognozlash uchun xarajatlar vazifasidan foydalanilganda baholanayotgan karamlik (tobelik) takrorlanishiga ishonib bo'lmaydi.

Operatsiyalarni bilish yoki mantiq tahlili qilinayotgan o'zgaruvchi birliklar

o'rtasida sabab va oqibat tobeligi mavjud degan xulosa chiqarishga imkon bergan holdagina iqtisodiy asoslash mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, komponentlar soni materiallarga ishlov berishga xarajatlar uchun potentsial omildir, chunki detallar soni qancha ko'p bo'lsa, xarajatlar shuncha ko'p bo'ladi. Mantiq ushbu holatda komponentlar soni bilan materiallarga ishlov berish xarajatlari o'rtasida sabab-oqibat tobeligi mavjud deb taxmin qilishga imkon beradi.

23.2. Xarajatlarni baholashda muhandislik va buxgalteriya usullarining afzalliklari

- 1) muxandislik usullari;
- 2) buxgalteriya usullarini tekshirish;
- 3) grafik usul yoki tarqalish diagrammasi;
- 4) eng ko'p va eng kam miqdor usuli.

Bu yondashuvlar xarajatlar vazifalarini aniqlashning aniqlik darajasi bo'yicha va ularni amalga oshirish xarajatlari bo'yicha farq qiladi. Bu usullar bir-birini istesno qilmaydi, xarajatlarning turli toifalari uchun turli usullar qo'llanilishi mumkin.

Muxandislik usullari. Xarajatlar o'zgarishini tahlil qilishning muxandislik usullari keltirilayotgan resurslar bilan chiqayotgan mahsulot o'rtasidagi texnologik bog'liqlikni muhandislik tahlilidan foydalanishga asoslanadi. Masalan, ular qatoriga texnik tahlil tusidagi tadqiqot usullari, ishni tanlash va vaqt hamda harakatni o'rganish kiradi. Bu yondashuv xarajatlar bilan chiqimlar o'rtasidagi omillarni jismoniy bog'liqlik (tobelik) mavjud bo'lganda ma'qul hisoblanadi. Texnik tahlilni bajarish protsedurasi faoliyat turi uchun talab qilinadigan asosiy jismoniy xarakteristikani (tavsifni) to'g'ridan-to'g'ri kuzatishga va so'ngra olingan natijalarni chiqimlarning kutilayotgan qiymatiga aylantirishga asoslanadi. Texnik talablarni biladigan muxandislar talab qilinadigan materiallarning miqdorini va xodimlarning mehnati qancha davom etishini, turli operatsiyalar uchun uskunalarning ishini baholaydilar, shundan so'ng qiymat bahosini resurslar narxi va stavkalarini olish uchun jismoniy ko'rsatkichlar bilan bog'lanadi. Muxandislik usuli

takrorlanuvchi jarayonlar xarajatlarini aniqlash uchun foydalidir, chunki bu jarayonda keltiriladigan resurslar bilan mahsulot chiqishi o'rtasidagi bog'liqlik ma'lumdir. Masalan, bu usul asosiy ishlab chiqarish materiallariga, xodimlarning mehnatiga, mashina-uskunalarining ishlash vaqtiga tegishli xarajatlarni baholash uchun qo'llaniladi, chunki ularni bevosita kuzatib turish va o'lchash mumkin.

Schetlarni tekshirish usuli bo'linma menejeri va buxgalter schetlardagi aniq bir davrga oid xarajatlarning har bir moddasini tekshirishlarini, so'ngra xarajatlarning har bir moddasini doimiy o'zgaruvchi yoki yarimo'zgaruvchi chiqimlar toifalari bo'yicha turkumlashni talab qiladi. O'zgaruvchi chiqimlar turkumiga kiruvchi moddalar uchun mahsulot birligiga xarajatlarning yagona o'rtacha ko'rsatkichi olinadi. Doimiy turkumidagi moddalar uchun esa boshqa yagona ko'rsatkichdan – hisobot davridagi umumiy xarajatlar ko'rsatkichidan foydalaniladi. Yarimo'zgaruvchi chiqimlar turkumiga kiruvchi moddalar uchun bo'linma menejeri va buxgalter xarajatlarning ular fikriga ko'ra bunday xarajatlarning o'zgarishini yaqqol ko'rsatadigan xarajat vazifasini (funktsiyasini) tanlaydi.

Masalan, kompaniyada xarajatlar bo'yicha quyidagi axborot mavjud, u chiqimlar markazining 10 000 birlik miqdorida mahsulot chiqqan so'nggi oyi schetidan olingan.

	Summa
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	100000
Asosiy xodimlar mehnati	140000
Yordamchi xodimlar mehnati	30000
Amortizatsiya	15000
Ta'mirlash va texnik xizmat	10000
	295000

Bo'linma menejeri va buxgalter xarajatlarning har bir moddasini o'rganadi va ularni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlar tarkiblari bo'yicha tahlil qiladi. Bu tahlil quyidagicha bo'lishi mumkin:

<i>Xarajatlar moddalari</i>	O'zgaruvchi chiqimlar, mahsulot birligiga, evro	Umumiy doimiy chiqimlar
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	10	
Asosiy xodimlar mehnati	14	

Yordamchi xodimlar mehnati		30000
Amortizatsiya		15000
Ta'mirlash va texnik xizmat	0,5	5000
Jami:	24,5	50000

E'tibor bering, ta'mirlash va texnik xizmatlar yarimo'zgaruvchi xarajatlar toifasiga turkumlanadi va mahsulot birligiga 0,50 sh.b.ni tashkil qiluvchi o'zgaruvchi xarajatga plyus 5000 sh.b. doimiy xarajatga qo'shiladi. Umumiy xarajatlarni hisoblashni tekshirish 10.000 sh.b. mahsulot chiqqanda mahsulot birligiga o'zgaruvchi xarajatlarni baholash umumiy o'zgaruvchi xarajatlar 24,50 sh.b. bo'lishini ko'rsatadi. Demak o'zgaruvchi umumiy xarajatlar 245000 sh.b.ni tashkil qiladi. Unga 50000 sh.b. doimiy xarajat qo'shilsa jami xarajatlar 295 000 sh.b. bo'ladi. Demak bu erda xarajatlar funktsiyasi bunday ko'rinishda bo'ladi:

$$u = 50\,000 + 24,50 x$$

Xarajatlarning bu funktsiyasidan so'ngra ishlab chiqarishning boshqa sharoitlarida xarajatlarning har bir alohida moddasi bo'yicha xarajatlarni baholash uchun foydalaniladi.

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchi va doimiy xarajatlar bo'yicha chiqimlarni tahlil qilish etarlicha sub'ektivdir. Buning ustiga bunday tahlilda eng so'nggi ma'lumotlar qo'llaniladiki, ular xarajatlar o'zgarishining oldingi yoki keyingi tuslariga nisbatan tipik bo'lmasligi mumkin. Shu sababli mumkin bo'lgan joylarda xarajatlarni baholash turkum kuzatishlarga asoslanishi kerak. Shunday usulga asoslanib xarajatlarni baholash yakka va ko'pincha shartli muloxazalarga asoslanadi. Shu sababli bunday baholar etarlicha aniq bo'lmasligi mumkin, ayniqsa ularga asoslanib katta mablag' bilan bog'liq qaror qabul qilish uchun aniq emas. Demak bu usulda o'lchov xatolari bo'lishi mumkin.


23.3. Xarajatlarni baholashda grafik va miqdor usullarni ko'llashning xususiyatlari

Grafik usul yoki yoyilish diagrammasi. Bu usul faoliyatning har bir turiga umumiy xarajatlar grafikasini chizib borishni o'z ichiga oladi. Umumiy xarajatlar - tik o'q (U) bo'yicha, ishlab chiqarish hajmi - ko'ndalang o'q (X) bo'yicha

o'tkaziladi, tarqalgan nuqtalar orqali to'g'ri chiziq tortiladi. Masalan, oldingi o'nta to'rt haftalik hisobot davri uchun quyida keltirilgan texnik xizmat ko'rsatishga umumiy xarajatlarga doir ma'lumotlardan hamda mashinalarning ish vaqtidan foydalanib diagramma tuzamiz.

Davr	Uskunalarning ishlagan vaqti	Texnik xizmat ko'rsatishga xarajatlar
1	400	960
2	240	880
3	80	480
4	400	1200
5	320	800
6	240	640
7	160	560
8	480	1200
9	320	880
10	160	440

Shu grafik usuldan foydalanib, regressiya tenglamasini aniqlash zarur.



23.1-rasm. Ishlab chiqarishning turli darajasida texnik xizmat ko'rsatishga xarajatlarning grafik ifodasi.

3.1-rasmsidan ko'rinib turibdiki, faoliyatning har bir darajasiga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari yozilgan, to'g'ri chiziq esa, undan yuqoridagi nuqtagacha jami masofa quyida joylashgan nuqtagacha bo'lgan masofaga taxminan teng keladigan qilib o'tkazilgan.

To'g'ri chiziq tik o'qni kesib o'tadigan V nuqtasi (£ 240)doimiy chiqimlarga tengdir, ya'ni

$$u = a + bx^{34}$$

bu a ning qismi regressiya formulasida bir martalik o'zgaruvchi chiqim b to'g'ri chiziq nuqtalari o'rtasidagi og'ishlarni tahlil qilish va quyidagi hisob bilan aniqlanadi:

$$b = (\text{xarajatlardagi farq}) / (\text{Ishlab chiqar. hajmidagi tafovut}) = (720 - 560)/(240 - 160) = 2 \text{ sh.b.}$$

Bu hisob ishlab chiqarish darajasining 160 dan 240 gacha darajasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziqda xarajatlarda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni qiyoslash asosida amalga oshiriladi. Buning natijasida regressiya formulasini olamiz:

$$u = 240 + 2x.$$

Agar X qimmatini 100 deb hisoblasak, tenglama bunday tus oladi

$$u = £240 + (2 \cdot 100) = 440 \text{ sh.b.}$$

Grafik usuldan foydalanish oson va u korrelyatsiya yo'q bo'lgan sharoitda yoki kuzatiladigan miqdorlar betartib o'zgarganda xarajatlarni foydali vizual tasavvur qilishni ta'minlaydi. Biroq bu usulning kamchiligi bor, bu kamchilikning to'g'ri chiziq qaerdan o'tishini aniqlashning sub'ektivligi bilan bog'liq, ya'ni turli kishilar turlicha og'ishdagi chiziq o'tkazishadi. Natijada xarajatlar bahosi ham farq qiladi. Bu qiyinchilikni engish uchun chiziqni sub'ektiv emas, balki matematik usullar asosida, masalan, eng kam kvadratlar usulidan foydalanib o'tkazish afzaldir.

³⁴ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.30

Eng ko'p va eng kam qiymat usuli eng yuqori va eng kam faollik davrini tanlash va xarajatlardagi o'zgarishlarni shu ikki darajaga muvofiq ravishda qiyoslashdan iborat. Bunday yondashuv quyidagi misolda ko'rsatilgan. Quyida mahsulot chiqish va texnik xizmatlar ko'rsatishga oldingi 12 oydagi oylik hisob ma'lumotlari keltirilgan.³⁵ Bu ma'lumotlar ishlab chiqarishning eng past va eng yuqori darajasida olingan.


	Ishlab chiqarish hajmi, birlik	Texnik xizmatlar ko'rsatishga sarflar
Eng kam faollik darajasi	5000	22000
Eng yuqori faollik darajasi	10000	32000

Mahsulot birligiga o'zgaruvchi xarajatlar quyidagicha hisoblanadi:

$$b = (\text{Xarajatlardagi farq}) / (\text{Ishlab chiqarish hajmidagi farq}) = (32000 - 22000) / (10000 - 5000) = 2 \text{ sh.b.}$$

Doimiy chiqimlar ishlab chiqarishning har qanday darajasida (mahsulot birligida o'zgaruvchi xarajatlar doimiy qoladi, deb faraz qilinadi) umumiy xarajatlardan o'zgaruvchi xarajatlar ulushini chiqarib tashlash yo'li bilan baholanishi mumkin. Chunonchi, ishlab chiqarish darajasi 5000 birlikni tashkil etganla umumiy xarajatlar 22 000 sh.b.ni tashkil qiladi, umumiy o'zgaruvchi chiqimlar esa — 10000 sh.b. (bitta sh.b.ga 2 tadan sh.b. - 5000) farqi £12 000 deb taxmin qilish mumkin. Demak bu doimiy xarajatlarga to'g'ri keladi. Bu holda xarajatlar funktsiyasi bunday ko'rinishda bo'ladi: **$u = 12\ 000 + 2x$** .

³⁵ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.32



23.2- rasmsi. Eng ko'p va eng kam qiymat usuli

Bu usul 3.2-rasmsida ko'rsatilgan. Unda *A* va *B* nuktalari ishlab chiqarishning eng yuqori va eng kam hajmiga to'g'ri keladi, JC 1 va JC 2 — shu darajalarning har biri uchun umumiy xarajatlardir. Ishlab chiqarishning eng kam va eng yuqori darajasini bog'lovchi to'g'ri chiziq ishlab chiqarishning har bir darajasi uchun xarajatlarning kutilayotgan qiymatini ko'rsatadi.


Eng ko'p va eng kam qiymat usuli xarajatlar bo'yicha barcha kuzatishlarni hisobga olmaydi, ya'ni ishlab chiqarishning eng ko'p va eng kam darajasidagi kuzatishlarnigina hisobga oladi. Afsuski, faollikning eng yuqori darajasida xarajatlarni kuzatish hamisha ham me'yoriy operatsiya sharoitini aks ettirmaydi va shu sababli tipik vaziyatlarni emas, kam bo'ladigan vaziyatlarni ko'rsatishi mumkin. 23.2. rasmsida bu usul, agar ular ishlab chiqarishning eng yuqori va eng past darajasi kuzatuvlaridan olinsa, xarajatlarni noto'g'ri baholanishga olib kelishi mumkinligi ko'rinib turibdi.

Xarajatlarni baholashga barcha mavjud kuzatishlarni kiritish eng yuqori va eng past variant bilan cheklanmaslik yaxshi bo'lishi ravshan. Grafik yondashuv

asosida JC 1 chizig'i pastdan JS 2 to'g'ri chiziq (tarqalish diagrammasi), barcha kuzatuvlar asosida qurilgan. U xarajatlar funksiyasiga faqat ikkita kuzatishga asoslangan usulga nisbatan aniqroq baho berishi ravshan. Demak yuqori va eng kam qiymat usulini tavsiya qilish mumkin emas.

Topshiriq 3-1. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha 1000 birlik, 1500 birlikdagi mahsulot hajmi uchun jami xarajatlar miqdorini hisoblash.

Xarajat modda, \$	Xajmi, b.			Xarajat tenglamasi	1000	1500
	300	400	500			
1. Material xarajatlari	1500	2200	2500			
2. Mehnat xarajatlari	2250	3000	3750			
3. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	1500	1700	2100			
4. Sotish xarajatlari	1200	1250	1400			
5. Ma'muriy xarajatlar	5500	5500	5500			
6. Boshqa operatsion xarajatlar	7000	7000	7000			
Jami:						



Tarqalish, (yoyilish) diagrammasidan foydalanib regressiya tenglamasini aniqlash talab qilinadi.

3-3. Quyida "Impeks" korxonasining ishlab chiqarish ma'lumotlari keltirilgan:

Quvvat darajasi	8462 b.	10000 b.	11538 b.
Xarajatlarning smeta qiymati			
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	846200	1000000	1153800
Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi	1480850	1750000	2019150
Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	596170	650000	703830
Sotish bo'yicha ustama sarflar	192310	200000	207690
Ma'muriy ustama sarflar	120000	120000	120000
Umumiy xarajatlar	3235530	3720000	4204470

Smeta bo'yicha kompaniya faoliyatining har yilida sotilgan mahsulotdan olingan foyda 16,67 foizga teng bo'ladi. Kelgusi yilda kompaniya 13077 birlik quvvati bilan ishlashi kutiladi va pulning qadrsizlanishi tufayli xarajatlar moddalari bo'yicha quyidagicha ko'payish kutiladi:

Ko'rsatkichlar	Ko'payish, %
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	6
Asosiy ishchilarning ish haqi	3
O'zgaruvchi ishlab chiqarish ustama sarflari	7
Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari	10
O'zgaruvchi sotish ustama xarajatlari	7
Doimiy sotish ustama xarajatlari	7,5
Ma'muriy ustama xarajatlar	10

Talab qilinadi:

1. Korxonada 13077 birlik quvvatida ishlaganda pul qadrsizlanishini hisobga olmay smeta xarajatlarini hisoblash.
2. Korxonada 13077 birlik hajmi quvvatida ishlaganda pul qadrsizlanishini hisobga olib, smeta xarajatlarini hisoblash.
3. Korxonaning rejalashtirilayotgan foydasini hisoblash.
4. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot tuzish.

Takrorlash uchun savollar.

- 1) *Xarajatlarni baholashga ta'rif bering?*
- 2) *Xarajatlarni dinamikasini tushuntirib bering?*
- 3) *Xarajatlar vazifalarini aniqlashning umumiy qoidasiga ta'rif bering?*
- 4) *Regressiya tenglamasi qanday aniqlanadi?*
- 5) *oddiy regressiyasi deganda nimani tushunasiz?*
- 6) *ko'plik regressiyasini tushuntirib bering?*
- 7) *muxandislik usullariga ta'rif bering?*
- 8) *buxgalteriya usullarini tekshirish deganda nimani tushunasiz?*
- 9) *grafik usul yoki tarqalish diagrammasini tushuntirib bering?*
- 10) *eng ko'p va eng kam miqdor usulini tushuntirib bering?*

24-BOB. MATERIAL XARAJATLARINING HISOBI.

- 24.1. Materiallarni boshqarish jarayonining asosiy tushunchalari.
- 24.2. Materiallarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimini farqlash.
- 24.3. Ishlab chiqarishga beriladigan materiallar qiymatini baholash.

Tayanch soʻz va iboralar: bevosita (asosiy) materiallar, bilvosita materiallar, materiallar, davriy tizim, uzluksiz tizim, Yalpi identifikatsiyalash usuli, LIFO usuli (Last-in, first-out LIFO), Oʻrtacha qiymat usuli (Average-cost AVECO), FIFO usuli (First-in, first-out FIFO), NIFO usuli (next-in, first-out NIFO), meʼyoriy qiymat usuli,

24.1. Materiallarni boshqarish jarayonining asosiy tushunchalari

Materiallar - bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etadigan va bir ishlab chiqarish tsiklida qatnashib oʻz qiymatini yangi yaratilayotgan mahsulotga oʻtkazidigan mehnat buyumlaridir.

Bevosita (asosiy) materiallar - mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan xom ashyo. Avtomobil korpusi tayyorlanadigan poʻlat taxta bunga misol boʻla oladi.

Bilvosita materiallar – bu ishlab chiqarishda isteʼmol qilinadigan zahiralar, masalan moylash materiallari, gaykalar, vintlar hamda xoʻjalik yuritishda foydalaniladigan boshqa materiallardir. Bilvosita materiallar ishlab chiqarish ustama xarajatlarining bir qismini tashkil etadi.

Materiallarni xarid qilish

Materiallarni korxonaga kelishini xarid boʻlimi nazorat qiladi, bu boʻlim material etkazib beruvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarishini nazorat qiladi, materiallar sifati va kamomadi boʻyicha ularga daʼvo rasmiylashtiradi, yuklar korxonada omboriga oʻz vaqtida etib kelmasa, ularni qidiradi. Xarid qilish jarayoni materiallarga ehtiyoji boʻlgan boʻlinmalarning talabnoma berishi bilan boshlanadi. Unda qanday material qancha miqdorda

kerakligi ko'rsatiladi. Tegishli shaxs talabnomani ma'qullagandan so'ng hujjatning bir nusxasi xarid bo'limiga yuboriladi. Xarid uchun ma'sul xizmatchi o'zidagi mavjud axborotdan foydalanib, tegishli material etkazib beruvchini tanlaydi, shundan so'ng xaridga buyurtma tuzadi, unda buyurtmachi talab qilayotgan materiallarga oid axborot bo'ladi. Xarid qilishga buyurtmaning bir nusxasi shu hujjatdagi ma'lumotlarni olingan tovarlar miqdoriga solishtirish uchun qabul qiluvchi bo'limga yuboriladi.³⁶

Material tovarlarni qabul qilish bo'limiga etib kelganda, bo'lim xodimi shu materialga tegishli xarid qilish uchun berilgan buyurtma raqami, miqdori, sifatini aniqlaydi. Material to'g'risidagi to'la axborot material olingani to'g'risidagi xabarnomaga yoziladi, so'ngra material omborga yuboriladi. Omborda yukni ko'zdan kechirishadi, tovar etkazib beruvchi to'ldirgan yukka qo'shib yuboriladigan hujjatdagi ma'lumotlarga, buyurtma nusxasiga solishtiriladi

Materiallarni saqlash

Ombor xodimi materiallar uchun quyidagilarga javobgardir

- foydalanish uchun olishga qulay bo'lishi uchun;
- sifati buzilishidan, yong'in va o'g'irlashdan himoyalangan bo'lishi uchun;
- tejamli saqlanishi uchun.

Ko'p hollarda ombor xodimlari ombor hisobi kartochkalaridan foydalanib, omborga kelgan, ishlab chiqarishga berilgan materiallar va ularning zahiralarini hisoblab boradilar.

Materiallarni ishlab chiqarishga berish

Ishlab chiqarish tsexlariga materiallar berilganda, material berish talabnomalari bilan beriladi va nazorat qilinadi. Talabnomalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ombor xodimiga materialni berishga ruxsat etadi;
- bosh daftarga va ombor hisob kartochkasiga yozishga asos bo'ladi.

³⁶ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p. 90

24.2. Materiallarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimini farqlash

Materiallarni hisobga olishning ikki tizimi mavjud³⁷:

- Materiallarni hisobga olishning davriy tizimi;
- Materiallarni hisobga olishning uzluksiz tizimi.

Materiallarni hisobga olishning davriy tizimi – bu hisobga olishning shunday tizimiki, yil davomida material zahiralari hisobi batafsil olib borilmaydi, yil oxirida esa zahiralarning haqiqatda qanchalik mavjudligini aniqlash uchun inventarizatsiya o'tkaziladi. Ishlab chiqarishda sarflangan materiallarning tannarxini inventarizatsiya tugamaguncha aniqlab bo'lmaydi, chunki bu materiallarni tannarxini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Davr boshida materiallar qoldig'i + Shu davrda xarid qilingan materiallar - Hisobot davri oxirida materiallar qoldig'i = Ombordan ishlab chiqarishga berilgan materiallarning tannarxi

Ko'p korxonalarda materiallarni davriy hisobga olish tizimidan foydalanadi, chunki u ko'p miqdorda idora ishlari talab qilmaydi. Zahiralarni davriy baholash tizimining asosiy kamchiligi joriy paytda qancha zahira mavjudligi to'g'risida batafsil yozuvlarning yo'qligidir. Bunday axborot omborda zarur zahiralari qolmasligiga yo'l qo'ymaslik hamda moddiy zahiralarga sarflangan mablag'ni nazorat qilish uchun tovar moddiy zahiralarni boshqarishni samarali yuritishdan tashqari xaridorlarning talablarini tezkorlik bilan inobatga olish imkonini bergan bo'lar edi.

Bunday axborotni ta'minlaydigan tizim, zahiralarni uzluksiz hisobga olish tizimi deb ataladi.

Bunday tizimda material zahiralarni xarid qilish va ishlab chiqarishga berish to'g'risida muntazam yozib borish yo'li bilan zahiralarning uzluksiz hisobi ta'minlanadi. Natijada hisobot yili davomida mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar va zahiralari miqdori aniq bo'ladi.

³⁷ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.99

24.3. Ishlab chiqarishga berilayotgan materiallarning qiymatini baholash

Moddiy zahiralarni baholash quyidagi usullardan birini qo'llash orqali amalga oshiriladi³⁸:

1. Yalpi identifikatsiyalash usuli;
2. LIFO usuli (Last-in, first-out LIFO);
3. O'rtacha qiymat usuli (Average-cost AVECO);
4. FIFO usuli (First-in, first-out FIFO);
5. NIFO usuli (next-in, first-out NIFO);
6. Me'yoriy qiymat usuli.

Yalpi identifikatsiyalash usuli – materiallar zahiralarni baholashning bu usulida materiallar zahirasi tarkibidagi birliklar hisobot davrining oxirida u yoki bu operatsiya natijasida olingan zahira sifatida aniq belgilangan bo'ladi. Katta qiymatli materiallarni sarflash chog'ida yalpi identifikatsiyalash usulidan foydalanish mumkin. Bu usuldan ayrim hollardagina foydalanish qulaydir, lekin ikkita muhim kamchiligi tufayli keng tarqalmagan. Birinchidan, ko'p hollarda tovar moddiy zahiralar birliklarining sotib olinishi va sarflanishini kuzatib turish qiyin. Ikkinchidan, agar korxonada bir turdagi materialni xarid qilish va iste'mol qilish bilan shug'ullansa, qanday materiallar sarflangan va qaysilari sarflanmaganligini ancha shartli ravishda aniqlash mumkin bo'ladi.

FIFO (FIFO) usuli – tovar-moddiy zahiralarni birinchi turkum (dastlabki xarid qilingan turkum) bo'yicha hisobga olish usuli, bu usulga muvofiq zahiralarni qanday tartibda sotib olingan bo'lsa shunday tartibda foydalaniladi, ya'ni ishlab chiqarishga (sotishga) dastlab tushgan zahiralar xarid vaqtidagi birinchi qiymat bo'yicha baholanishi nazarda tutiladi, demak, davr oxiridagi zahiralar so'nggi xarid qiymati bo'yicha baholanadi.

Misol:

³⁸ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.106

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, sh.b.	Umumiy xarajatlar sh.b.
2- martda	2000	4,00	8000
15- martda	6000	4,40	26400
30- martda	2000	4,75	9500
Bor zahiralar jami	10 000		43900
Yil oxiriga zahiralar, b. - 6000 b			
Yil oxiriga zahiralar sh.b. – 6000 shundan $4000*4,4+2000*4,75=27100$ sh.b.			
Haqiqatda materiallar tannarxi		43 900	sh.b.
minus:davr oxiridagi zahira		27 100	sh.b.
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi		18 600	sh.b.

FIFO (FIFO) usulidan har qanday tarmoq korxonasida materiallarning haqiqiy harakatidan qat'iy nazar foydalanish mumkin, chunki bu usul tovarlarning harakatini emas, balki qiymatining harakatini hisobga oladi. Pul qadrsizlanadigan davrda FIFO usuli mumkin bo'lgan sof foyda olishning eng yuqori darajasini ko'rsatadi.

LIFO (LIFO) usuli – tovar moddiy zahiralarini so'nggi turkumi (so'nggi xarid qilingan turkumi) bo'yicha hisobga olish usuli: bu usulda zahiralaridan eng so'nggi xarid qilinganidan boshlab foydalaniladi, demak ishlab chiqarishga (sotishga) zahiralarining berilishi so'nggi xarid tannarxi bo'yicha baholanadi, davr oxiridagi zahiralarining tannarxi esa birinchi xarid tannarxidan kelib chiqib baholanadi. LIFO (LIFO) usulidan foydalanish pul qadrsizlanishi davrida eng kam foyda beradi, deflyatsiya (narx pasayishi) davrida eng ko'p foyda beradi. FIFO usulidan farqli ravishda joriy xarajatlar va daromadlarni bir-biriga moslashtirishni (bog'lashni) ta'minlaydi, pul qadrsizlanishining ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

Misol:

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, sh.b.	Umumiy xarajatlar sh.b.
2- martda	2000	4,00	8000

15- martda	6000	4,40	26400
30- martda	2000	4,75	9500
Jami zahiralari	10 000		43900
Yil oxiriga zahiralari, b. - 6000 birlik			
Yil oxiriga zahiralari, sh.b. – 6000 shundan $2000 \cdot 4 + 4000 \cdot 4,4 = 25600$ sh.b.			
Haqiqatda materiallar tannarxi		43 900	sh.b.
minus: davr oxiridagi zahira		25 600	sh.b.
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi		18 300	sh.b.

O'rtacha qiymat usuli (AVECO) – materiallarni o'rtacha narxda baholashga asoslanadi: tovar moddiy zahiralarning qiymatini hisoblash usuli, bu usulda sotilgan tovarlar (foydalanilgan materiallarning) va oxirgi zahiralarning tannarxi sotish uchun (foydalanish uchun) yaroqli tovarlar (materiallar)ning o'rtacha qiymatiga teng deb taxmin qiladi.

O'rtacha qiymat – sarflash uchun mo'ljallangan materiallarning hamma (to'la) qiymatini shu materialning birliklari miqdoriga taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi. Natijada moddiy zahiralarning o'rtacha qiymatini topamiz, shunga muvofiq ravishda ishlab chiqarishga berilgan materiallar baholanadi va hisobot davri oxiridagi qolgan zahiralarni bahosi aniqlanadi.

Misol:

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, sh.b.	Umumiy xarajatlar sh.b.
2- martda	2000	4,00	8000
15- martda	6000	4,40	26400
30- martda	2000	4,75	9500
Zahiralarning jami	10 000		43900
Birlikning o'rtacha qiymati = $43900/10000=4,39$			
Oy oxiriga zahiralari, b. - 6000 birlik			
Oy oxiriga zahiralari, sh.b. – $6000 \times 4,39 = 26\,340$ sh.b.			

Haqiqatda materiallar tannarxi	43 900	sh.b.
minus: oy oxiridagi zahira	26 340	sh.b.
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi	17 560	sh.b.

NIFO (NIFO) usuli – bu narxni almashtirish usuli bo'yicha hisoblashga o'xshashdir. Bu usulda materialni ishlab chiqarishga berish qiymatini olingan paytdagi qiymatga tenglashtirish uchun tuzatish kiritish zarur.

Me'yoriy qiymat usuli – bu usulda ishlab chiqarishga berilgan materiallar me'yoriy qiymat bo'yicha baholanadi. Haqiqiy narx bilan me'yoriy qiymat o'rtasidagi farq alohida og'ish hisobida to'planib boradi.

Topshiriq 4-1. Z Ltd kompaniyasi 2-yilning aprelida foydalaniladigan xom ashyoni bir turi bo'yicha quyidagi operatsiyalarni amalga oshirdi:

	1- aprelda zahira	40 birlik	1 birlikka 10 sh.b.
4- aprelda	Sotib olingan	140 birlik	1 birlikka 11 sh.b.
10- aprelda	Foydalanilgan	90 birlik	
12- aprelda	Sotib olingan	60 birlik	1 birlikka 12 sh.b.
13- aprelda	Foydalanilgan	100 birlik	
16- aprelda	Sotib olingan	200 birlik	1 birlikka 10 sh.b.
21- aprelda	Foydalanilgan	21 birlik	
23- aprelda	Foydalanilgan	80 birlik	
26- aprelda	Sotib olingan	50 birlik	1 birlikka 12 sh.b.
29- aprelda	Foydalanilgan	60 birlik	

Talab qilinadi: Aprelda foydalanilgan materiallarning qiymatini aniqlash hamda FIFO, LIFO, o'rtacha qiymat (zahiralarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimlari) dan foydalanib oy oxirida materiallarning zahiralari baholash

4–2. «Evita» kompaniyasida 2 yil 5 oyi davomida quyidagi miqdorda xom-ashyo xarid qildi va ishlab chiqarishga berdi:

1 iyulda	Olindi	2000 birlik, har biri 10 sh.b.
9 iyulda	Olindi	520 birlik, har biri 10,5 sh.b.
18 iyulda	Berildi	1400 birlik
5 avgustda	Olindi	800 birlik, har biri 11,5 sh.b.

22 avgustda	Olindi	600 birlik, har biri 12,5 sh.b.
15 sentyabrda	Berildi	1240 birlik
14 oktyabrda	Berildi	480 birlik
8 noyabrda	Olindi	1000 birlik, har biri 11 sh.b.
24 noyabrda	Berildi	760 birlik

Xom-ashyoning oy boshiga dastlabki qoldiq zahirasi bo'lmagan.

Talab qilinadi: 5 oy ichida ishlab chiqarishga berilgan xom ashyoni va davr oxirida qolgan xom-ashyo zahirasi qiymatini FIFO, LIFO, o'rtacha qiymat usullaridan foydalanib baholang (zahiralarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimlari bo'yicha).

Takrorlash uchun savollar

1. *Materiallarni boshqarish jarayonini tushuntirib bering?*
2. *Materiallarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimini farqlashni tushuntirib bering?*
3. *Ishlab chiqarishga beriladigan materiallar qiymatini baholash deganda nimani tushunasiz?*
4. *Materiallarni xarid qilish, saqlash va ishlab chiqarishga berishni tushuntirib bering?*
5. *Bevosita (asosiy) materiallar deganda nimani tushunasiz?*
6. *Bilvosita materiallar deganda nimani tushunasiz?*
7. *Yalpi identifikatsiyalash usuliga ta'rif bering?*
8. *LIFO usuli (Last-in, first-out LIFO)ga ta'rif bering?*
9. *O'rtacha qiymat usuli (Average-cost AVECO)ga ta'rif bering?*
10. *FIFO usuli (First-in, first-out FIFO)ga ta'rif bering?*
11. *NIFO usuli (next-in, first-out NIFO)ga ta'rif bering?*
12. *Me'yoriy qiymat usulini tushuntirib bering?*

25-BOB. MEHNAT XARAJATLARI HISOBI.

25.1. Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olish.

25.2. Korxonalarining boshqaruv tizimida mehnat haqi xarajatlari tahlili.

25.3. Mehnatga haq to'lash shakllari.

25.4. Ishchi kuchi qo'nimsizligi va mehnat unumdorligi.

Tayanch so'z va iboralar: mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish, ishchi kuchi, ish haqi, hisob kartochkasi, ishga qatnashish tabeli, mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi, mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi, vaqtbay mukofot tizimi, ishbay kafolatlangan tizimi, ishchi kuchi qo'nimsizligi.

25.1. Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olish

Mehnat xarajatlari ishlab chiqarish chiqimlarining bir qismi sifatida mahsulot tannarxining shakllanishiga va pirovard natijada korxonaning foyda olishiga ta'sir qiladi.

Ishchi kuchi xarajatlari hisobi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yuritilishi mumkin³⁹:

- Ishchi kuchi xarajatlari hisobiga, ayrim bajarilgan operatsiyalar qiymati va ustama xarajatlar kiritilishi zarur;

- Ish haqini hisoblashga, bajarilgan ish uchun ishchilarga ish haqi hisoblash, soliq organlariga, pensiya fondiga va boshqalarga to'lanishi lozim bo'lgan summani ro'yxatga olish bilan bog'liq hisoblashishlar.

Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olish maqsadi – barcha ishchilar faoliyatining har bir turiga sarflagan vaqtni buyurtmaning alohida kartochkasida yoki tabelda qayd etish va shunga muvofiq soatboy stavkani qo'llashdir. Ishlab chiqarishga mehnat sarfini hisobga olish uchun mazmuni, shakli, harakat muddati jihatidan har xil juda ko'p boshlang'ich hisob hujjatlari mavjud. Bunga **buyurtmaning hisob kartochkasi** misol bo'la oladi, bu kartochkada aniq

³⁹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.170

bajarilgan ish sarflari yoziladi. Shunday hujjatlardan yana biri **ishga qatnashish vaqtini hisobga olish tabelidir**, unda ishchilarni bajargan ish vaqti aks ettiriladi.

Buyurtmaning hisob kartočkasi – bu aniq bir bajarilgan ishga sarflangan vaqt yozuvidir. Odatda u ishchi kuchining qiymatini ko'rsatadi. Vaqtni qayd etishning aniqligini ta'minlash uchun imkoni boricha xronakartalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ishga qatnashish tabeli – bu ishchi ish vaqtini sarflagani to'g'risidagi yozuvdir. Ishga qatnashish tabeli buyurtmaning alohida hisob kartočkasi kabi aniq emas, buyurtma kartočkasi ma'lum operatsiya bilan bog'liq ishlar tugallangandan so'ng darhol ofisga qaytarilishi kerak. Ishga qatnashish tabeli qo'llanilgan hollarda band bo'lmagan ish vaqti to'la ochilmay qoladi.

25.2. Korxonalarining boshqaruv tizimida mehnat haqi xarajatlari tahlili

To'g'ri va yordamchi mehnat. **To'g'ri ish haqi** ishlab chiqarish mehnat xarajatining mahsulotni tayyorlash bilan oson bog'lash mumkin bo'lgan xarajatlar qatoriga kiradi. Bevosita ishlab chiqarish mehnati xarajatlariga ishchilarning ishlab chiqarish liniyasidagi, yig'uv konveyeridan aniq buyurtmani bajarish bilan bog'liq mehnatini kiritish mumkin.

Mahsulot tayyorlash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mehnatni **yordamchi yoki bilvosita mehnat** deyiladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarishning ustama xarajatlariga qo'shiladi va so'ngra joriy davr oxirida mahsulotga tegishli stavka bo'yicha taqsimlanadi. Bilvosita mehnatga tsex boshliqlari, brigadirlar, muhandis xodimlar, qorovullar, tsex farroshlari mehnati kiradi. Noishlab chiqarish xodimlarining, ya'ni mahsulotni sotish bilan shug'ullanadigan xodimlarning ish haqi va ma'muriy boshqaruv xodimlarining ish haqi hisobot davridagi sarflar sifatida hisobga olinadi (davr xarajatlarida) va bunday xarajatlar vujudga kelishiga qarab foyda va zararlar schetiga hisobdan chiqariladi.

Bekor turish vaqtini, ish vaqtidan tashqari ishlash vaqtini va

mukofotlarni hisobga olish

Band bo'lmagan ish vaqti yoki bekor turgan vaqt – bu unumsiz, lekin haq to'lanadigan vaqtdir.

Bartaraf etiladigan bekor turish rejalashtirish yaxshilanganda xoli bo'lish mumkin bo'lgan vaziyat oqibatida vujudga keladi. Bunday bekor turish bo'yicha sarflar mahsulot tannarxiga kiritilmasligi, balki foydalar va zararlar schetiga hisobdan chiqarilishi kerak.

Bartaraf etsa bo'ladigan asosiy bekor turish hollari quyidagilardir⁴⁰:

- Ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishi (uskunalarning sinishi, materiallarning etishmasligi, ishni yaxshi rejalay olmaslik);
- Boshqaruv qarorlari (buyumlarning texnik xususiyatini o'zgartirish, omborda materiallarning yo'qligi, rejalarning o'zgarishi).

Muqarrar bekor turish korxonaning nazorat qilib bo'lmaydigan yoki muqarrar xarajatidir. U odatdagi ish sharoitidan yoki tashqi omillardan, choy ichishga tanaffusdan, to'satdan mahsulotga talabning kamayishi, ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyo etkazib beruvchida boshlang'ich ish tashlashdan kelib chiqadi.

Bunga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan (ularni umumiy ishlab chiqarish sarflari schetida aks ettirish yo'li bilan) xarajatlarning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Ish vaqtidan ortiqcha vaqt – bu mehnat qonunida belgilangan ish vaqtidan ortiqcha ma'lum davr bo'lib, unga odatda ustama sifatida haq to'lanadi.

Asosiy ishchilar uchun ortiqcha vaqt quyidagi sabablar bilan zarur bo'ladi:

- 1) ishlab chiqarish jarayonida to'la ishlanmagan vaqtni to'ldirish;
- 2) dastlab rejalashtirilgan mahsulot miqdorini ko'paytirish.

Bartaraf etish imkoni bo'lgan ortiqcha ish vaqti xarajatlarini odatda shu davridagi foydalar va zararlar schetiga o'tkazib, hisobdan chiqariladi. Muqarrar yoki zaruriy ish vaqtidan ortiqcha ishlar qiymati uni umum ishlab chiqarish xarajatlari schetiga o'tkazish yo'li bilan mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

⁴⁰ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.190

Mukofot haqi asosiy xodimlarga va yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlari uchun to'lanadi, unga oddiy ishlab chiqarish xarajati deb qaraladi va mahsulot tannarxiga kiritiladi (umum ishlab chiqarish xarajatlariga kirtish yo'li bilan). Noishlab chiqarish xodimlariga to'langan rag'batlantirish mukofotlari shu davrdagi foyda va zararlar schetiga o'tkaziladi.

25.3. Mehnatga haq to'lash shakllari

Mehnatga haq to'lashning quyidagi shakllari mavjud:

- Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi,
- Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi
- Mehnatga haq to'lashning vaqtbay mukofot tizimi
- Mehnatga haq to'lashning ishbay kafolatlangan tizimi

Vaqtbay haq ishlab chiqarilgan mahsulot xajmidan qat'iy nazar, belgilab qo'yilgan soatbay, har kunlik yoki har haftalik haq me'yori asosida to'lanishini bildiradi.

Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi – bu mehnatga haq to'lashning ish haqini ishlangan vaqt miqdori va ish vaqti birligiga ta'rif stavkasiga qarab hisob qilishni ko'zda tutadi.

Vaqtbay mukofot shakli mehnatga vaqtbay haq to'lashning bir ko'rinishidir. Mehnatga haq to'lashning bu tizimi soatbay asosida hisoblangan asosiy ish haqiga sifat va miqdor ko'rsatkichlari: ishlab chiqarish me'yoridan mahsulot ishlab chiqargani, brakning yo'qligi va boshqalar uchun qo'shimcha mukofot hisoblashni nazarda tutadi.

Mehnatga ishbay haq to'lashda ish haqi miqdori belgilangan narxlarga muvofiq tayyorlangan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Tabaqalashtirilgan ishbay shakli mehnatga haq to'lashning ishbay shaklining bir ko'rinishidir. Bu mahsulotning dastlabki birliklari uchun past narx va keyingi birliklariga yuqori narx belgilangan deyarli jarima tizimidir.

5.4. Ishchi kuchi qo'nimsizligi va mehnat unumdorligi

Ishchi kuchi qo'nimsizligi⁴¹ – bu ishdan bo'shagan xodimlarning shu davrda ishga yollangan xodimlarning o'rtacha soniga nisbatidir. Ishchi kuchi qo'nimsizligi ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

Almashtirish lozim bo'lgan ishdan bo'shagan xodimlar soni

Barcha xodimlarning o'rtacha soni

Ishchi kuchi mehnatining unumdorligi

Mehnat unumdorligini o'lchash uchun haqiqiy unumdorlik rejalashtirilgan birlikka qiyoslanadi yoki sarflangan ma'lum vaqt bilan amaldagi ishlab chiqarish me'yoriy vaqtga qiyoslanadi.

Mehnat unumdorligi koeffitsienti (mehnat samaradorligi) quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur me'yoriy vaqt}}{\text{Amalda sarflangan soat}} \times 100 \quad (\%)$$

Topshiriq

5-1. Jadvalda keltirilgan axborot asosida quyidagi shartlardan kelib chiqib, har bir ishchining ish haqini hisoblang:

1. Mehnatga vaqtbay asosida haq to'lash.
2. Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi asosida, lekin ishchi kafolatlangan haqni ishlay olmagan bo'lsa, kafolatlangan haqning 75 % bilan to'lash.
3. Ish haqini mehnatga haq to'lashning vaqtbay mukofot tizimi asosida vaqtbay ish haqiga tejalgan vaqt uchun soatbay ish haqining 60 % miqdorida qo'shimcha bilan to'lash.

Ko'rsatkichlar	A	V	S	D
Haqiqatda ishlangan ish soati	38	36	40	34
Soatbay stavka, sh.b.	3	2	2,5	3,6

⁴¹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.220

Ishlab chiqarish (birlik)				
Detal N	42	120	-	120
Detal K	72	76	-	270
Detal M	92	-	50	-

Me'yoriy vaqt (bir birlik mahsulotga):

N – 6 daqiqa, K – 9 daqiqa, M – 15 daqiqa.

Ishbay tizimi bo'yicha hisoblash uchun har daqiqaga 0,05\$/daqiqa miqdorida haq to'lanadi.

5-2. Korxonada hozirgi vaqtda o'z ishchilariga mehnatga vaqtbay haq to'lashga asoslanib ishchilarga mukofot to'lamoqda va mukofotlashning muqobil usullarini joriy etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqmoqda.

Jadvalda keltirilgan axborotga asoslanib, quyidagi shartlardan kelib chiqqan holda har bir ishchining ish haqini hisoblang.

1. Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi asosida haq to'lansin
2. Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi asosida, lekin ishchi kafolatlangan summa miqdorida ishlay olmagan bo'lsa, shu summaning 80% miqdorida to'lash
3. Ish haqini mehnatga haq to'lashning vaqtbay mukofot tizimi asosida, vaqtbay ish haqiga tejalgan vaqt uchun soatbay ish haqining 75 % miqdorida qo'shimcha bilan to'lash.

Ko'rsatkichlar	Y	Z
Haqiqatda ishlangan ish soati	44	40
Soatbay stavka, sh.b.	3.5	4.5
Bajarilgan ish, b.	480	390

Mahsulot birligiga me'yoriy vaqt – 7 daqiqa. Ishbay tizimida hisoblash uchun har daqiqa uchun 0,05\$/daqiqa miqdorida to'lanadi.

5-3. Kompaniya texnik komponentlar ishlab chiqaradi va haftada 6000 komponent tayyorlaydi. Kompaniyada asosiy ishlab chiqarishda 6 nafar ishchi mehnat qiladi; ish haftasi davomiyligi - 40 soat; asosiy ish haqi 80\$/soatni tashkil

qiladi. Har bir ishchi ishni mustaqil bajaradi.

Kompaniyada ish haqi vaqtbay asosida hisoblanadi.

Kompaniyada haq to'lashning yangi tizimi joriy etilmoqda. Har bir ishchi quyidagi asosda ish haqi oladi:

Haftada dastlabki 800 komponent bir birlikka 3,2 \$

Keyingi 200 komponent har bir birlikka - 3,4 \$

Shundan keyingi komponentning har bir birligiga 3,6 \$

Mehnatga haq to'lashning yangi tizimida bir haftada 6600 komponent ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Talab qilinadi:

1. Vaqtbay asosida ishchilarga tegadigan ish haqini hisoblang. Bir birlik mahsulotning tannarxi xarajatlar elementlari – mehnat bo'yicha nimaga teng.

2. Mehnatga haq to'lashning yangi tizimida barcha xodimlar bir xil ishlashini nazarda tutib, xodimlarga to'lanadigan ish haqini hisoblash. Mehnatga haq to'lashning yangi tizimi joriy etilganda mahsulotning bir birligi tannarxi qanchaga teng?

5-4. Korxonalaridan birida o'rtacha 42 kishi band, joriy davrda 7 ishchi ishdan bo'shagan va ularning o'rniga yangi ishchilar olingan. Kompaniyada barcha ishlab chiqarish ishchilariga ish haqining asosiy soatbay stavkasi 92\$; u me'yoriy stavka hisoblanadi. Korxonada bunga qo'shimcha mukofot to'lovi tizimi mavjud. Samaradorlik koeffitsienti 100 % dan oshig'iga stavkaning yalpi miqdorida asosiy soatbay stavkasiga qo'shimcha hisoblanadi, ya'ni samaradorlik koeffitsienti 110 % ni tashkil etsa, soatbay stavka 96,6\$/soatni, ya'ni $92+92*5\%$ bo'ladi.

Ma'lum davr ichida korxonada 114286 dona bir xil mahsulot ishlab chiqardi va bunga 4900 soat sarflandi.

Me'yoriy soatda 22 dona mahsulot ishlab chiqarilishi zarur

Talab qilinadi

1. Ishchi kuchi ko'nimsizligi koeffitsientini hisoblash
2. Ish haqining soatbay stavkasini mukofotni ham e'tiborga olib hisoblash
3. To'g'ri mehnat sarfi bo'yicha og'ishlarni hisoblash.

Takrorlash uchun savollar

- 1) Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olishni tushuntirib bering?
 - 2) Ish haqini to'lashga xarajatlarni tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
 - 3) Ishchi kuchi ko'nimsizligini va ishchi kuchidan foydalanish samarasini hisoblashni tushuntirib bering?
 - 4) Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olish maqsadini tushuntirib bering?
 - 5) Buyurtmaning hisob kartochkasi deganda nimani tushunasiz?
 - 6) Ishga qatnashish tabeli deganda nimani tushunasiz?
 - 7) Bartaraf etiladigan bekor turish deganda nimani tushunasiz?
 - 8) Muqarrar bekor turish deganda nimani tushunasiz?
 - 9) Ish vaqtidan ortiqcha vaqt deganda nimani tushunasiz?
 - 10) Mukofot haqini tushuntirib bering?
 - 11) Mehnatga haq to'lash shakllarini aytib bering?
- Ishchi kuchi qo'nimsizligini tushuntirib bering?

26-BOB. USTAMA XARAJATLAR HISOBI

26.1. Ustama xarajatlarni taqsimlash bosqichlari va zarurati.

26.2. Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona va alohida stavkalari qo'llash.

26.3. Ustama xarajatlarni taqsimlashning amaliy va rejali stavkalari.

26.4. Ustama xarajatlarni taqsimlashning to'g'ri (bevosita) usuli.

Tayanch so'z va iboralar: zahiralalar tannarxi, ustama xarajatlari, mehnat sarflari, ishlab chiqarilgan mahsulot birligi, yig'uv tsexi, ombor, texnik xizmat ko'rsatish bo'limi.

26.1. Ustama xarajatlarni taqsimlash bosqichlari va zarurati

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari (IUX) - bu ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, lekin odatda tayyor mahsulotning aniq bir turiga bevosita tegishli deb bo'lmaydigan xilma-xil sarflarning yig'indisidir.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari quyidagi sabablarga ko'ra mahsulotga o'tkaziladi;

- *Mahsulot birligidagi to'la xarajatlarni aniqlash*⁴².

Agar narxning shakllanishi sarf-xarajatlarga asoslangan bo'lsa, u holda ustama xarajatlarni hisobga olmaslik narx belgilashda xatolarga olib kelishi mumkin.

- *Zahiralar tannarxini aniqlash.*

Moliyaviy hisobotlarning milliy standartiga muvofiq «zahiralar tannarxi zahiralarni sotib olish, qayta ishlash xarajatlarini hamda joriy holatiga va joyiga keltirish maqsadida qilingan barcha xarajatlarni o'z ichiga olishi kerak» ishlab chiqarish ustama xarajatlari qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarga qo'shiladi va shu sababli zahiralarning tannarxiga kiritilishi lozim.

⁴² Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.250

26.2. Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona va alohida stavkalari qo'llash

1) IUX taqsimlash bazasi

Ustama xarajatlarni taqsimlash kompaniyada ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarga yoki kompaniya o'z mijozlariga ko'rsatadigan xizmatlar uchun umumiy bazani tanlash orqali amalga oshiriladi.

Taqsimlash bazasi sifatida ishlab chiqarish bo'linmalarining ustama xarajatlariga to'laroq mos keladigan omil tanlanishi lozim. Bazaga ko'pincha quyidagilar olinadi:

- Ishlab chiqarishda ishlagan ishchilarni ish vaqti
- Uskunalarni ishlagan vaqti
- Mehnat sarflari
- Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi

IUXni taqsimlash stavkasi

Ustama sarflar

**Bazaning
qiymati**

2) Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona (umumzavod) va alohida (tsex) stavkalari⁴³

IUXni taqsimlashning yagona stavkasidan umuman korxonada uchun foydalaniladi. Masalan, ma'lum davrda ustama sarflar 100 000 sh.b.ni tashkil qilgan, 50 000 soat ish qilingan bo'lsa, u holda ustama sarflarni taqsimlash stavkasi $100000 \text{ sh.b.} / 50 000 \text{ mehnat soati} = 2 \text{ sh.b. mehnat soatni tashkil qiladi}$. Ustama sarflar shu stavka bo'yicha mahsulotga tegishlidir. Masalan, mahsulotni tayyorlash 18 soat asosiy mehnatni talab qiladi, bunda ustama xarajatlarning $36 \text{ sh.b. (18 soat} \times 2 \text{ sh.b./mehnat-soat)}$ mahsulotga tegishli bo'ladi.

Agar ishlab chiqarish bir necha bo'linmada amalga oshirilgan bo'lsa, u holda IUXni taqsimlashning alohida stavkalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁴³ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.264

Ko'rsatkichlar	A Bo'linma	B bo'linma	V bo'linma	Jami
Ustama xarajatlar, sh.b.	10000	60000	30000	100000
Mehnat - soati	25000	15000	10000	50000
IUX stavkasi mehnat-soatga	0,4	4	3	2

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish uchun asosiy bo'linmada 10 soat , B bo'linmasida 5 soat va V bo'linmasida 3 soat asosiy mehnat talab qilindi. Bu holda ustama xarajatlarning 33 sh.b. miqdori mahsulotga o'tkaziladi (10 soat x 0,4 sh.b./mehnat-soati + 5 soat x 4 sh.b./mehnat-soati + 3 soat. x 3 sh.b./mehnat-soati)

26.3. Ustama xarajatlarni taqsimlashning amaliy va rejali stavkalari

Ustama xarajatlarni amaldagi miqdoriga asoslanib taqsimlash stavkasini hisoblash ko'pincha bir qancha muammoni keltirib chiqaradi:

- buyurtmalarning tannarxini hisoblash hisobot davri tugaguncha kechiktirilishi lozim, chunki ustama xarajatlar va ishlab chiqarish hajmini bundan oldin hisoblab bo'lmaydi;
- ustama xarajatlar ham, ishlab chiqarish faoliyati ham oy sayin o'zgaradi va ustama xarajatlarni taqsimlash stavkalarining ko'p darajada o'zgarishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashning reja stavkasini hisoblash quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi⁴⁴:

1. Ustama xarajatlar prognoz miqdorini hisoblash
2. Ustama xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlash
3. Kelgusi davr uchun prognoz qilingan ustama xarajatlar miqdorini bazaning prognoz miqdoriga ajratish
4. Ushbu stavkadan foydalanib, ustama xarajatlarni mahsulotning har bir turiga o'tkazish.

Reja stavkasini hisoblash uchun foydalaniladigan prognoz ma'lumotlari amalda haqiqiy ma'lumotlarga mos kelmaydi. Bunday holatda mahsulot tannarxiga

⁴⁴ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.294

o'tkazilgan ustama xarajatlar haqiqatda qilingan ustama xarajatlar summasidan farq qiladi, bu esa ustama xarajatlarning to'la taqsimlanmasligiga olib keladi yoki *ustama xarajatlarning ortiqcha taqsimlanishiga sabab bo'ladi*:

To'la taqsimlanmagan ustama xarajatlarni yoki ortiqchasi bilan taqsimlangan ustama xarajatlarni ikki usul bilan hisobdan chiqarish mumkin:

1. Tuzatish kiritilgan (korrektirovka) summasi "Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi" schetiga o'tkazish orqali.

2. Tuzatish kiritilgan (korrektirovka) summani uchta "Tugallanmagan ishlab chiqarish", "Tayyor mahsulot" va "Sotilgan mahsulot tannarxi" schetlari qoldig'iga mutanosib taqsimlash orqali.

USTAMA XARAJATLAR

Hisoblangan ustama xarajatlar	→	Ma'muriyatning kutishi bo'yicha ustama xarajatlarning hisoblangan summasi davr boshlanishidan oldin ustama xarajatlarni taqsimlashning belgilangan (rejadagi) stavkasini hisoblash uchun qilinadi	
Haqiqatdagi ustama xarajatlar	→	Davr ichida vujudga kelgan haqiqiy qilingan ustama xarajatlar (kommunal xizmatlar, ijara to'lovlari va boshqalar).	} Shu summalar o'rtasidagi farq ustama xarajatlar <i>bo'yicha og'ishdan iborat</i>
Ustama xarajatlarni taqsimlash	→	Tugallanmagan ishlab chiqarishga qo'shiladigan (taqsimlanadigan) ustama xarajatlar summasi. Bu summa davr davomidagi faoliyat xajmini ustama xarajatlarni taqsimlashni ko'zda tutilgan stavkasiga taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi.	

Kompaniya ustama xarajatlarni taqsimlashning 3 sh.b./mash-soat.

(300 000 sh.b./100 000 mash-soat.)ga teng reja stavkasidan foydalanadi.

Haqiqatda ishlagan mashina-soat 110 000ni tashkil qildi. Kompaniya bir yilda

amalda 320 000 sh.b. miqdorida ustama sarf qildi, ustama xarajatlar taqsimi 330 000 sh.b.ni tashkil qildi. (haqiqiy mashina-soat x reja stavkasiga).

	Ustama xarajatlar		Sotilgan mahsulot tannarxi	
Haqiqiy IUX	320 000	330 000	IUXni taqsimlash	10 000
	10 000	↑ qol. 10 000	IUX ortiqchasiga o'tkazilgan	↑

26.4. Ustama xarajatlarni taqsimlashning to'g'ri (bevosita) usuli

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish bo'linmalaridan tashqari ishlab chiqarish bo'linmalariga va bir-biriga xizmat qiladigan bo'linmalar mavjud.

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarning xarajatlarini taqsimlashning eng ko'p tarqalgan usuli **to'g'ri** (bevosita) taqsimlash usulidir. Bu usulga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarning xarajatlari bevosita ishlab chiqarish bo'linmalariga o'tkaziladi. Bunda bir bo'linmaning ikkinchisiga qilgan xizmati hisobga olinmaydi, barcha xizmatlar asosiy (ishlab chiqarish) tsexlariga o'tkazilib, hisobdan chiqariladi.

Bo'linmalar

Xizmat ko'rsatuvchi	Ishlab chiqarish
Texnik xizmat	Mashina tsexi
Moddiy-texnik ta'minot	Yig'uv tsexi

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini taqsimlash uchun axborot

Ko'rsatkichlar	Ishlab chiqarish bo'linmalari		Xizmat ko'rsatish bo'linmalari		Jami
	Mashina tsexi	Yig'uv tsexi	Texnik xizmat ko'rsatish	Moddiy texnik ta'minot	

IUX smetasi	400000	200000	600000	116000	1316000
<i>Ko'rsatilgan xizmatlar:</i>					
Texnik xizmat Rejadagi mehnat - soat	24000	40000	-	16000	80000
Moddiy texnik xizmat rejadagi mehnat- soati	16000	2000	2000	-	20000

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini to'g'ri taqsimlash usuli

To'g'ri taqsimlash usuli	Ishlab chiqarish bo'linmalari		Xizmat ko'rsatish bo'linmalari		Jami
	Mashina tsexi	Yig'uv tsexi	Texnik xizmat ko'rsatish	Moddiy-texnik ta'minot	
IUX smetasi					
<i>Ko'rsatilgan xizmatlar</i>					
Texnik xizmatning taqsimlash bazasi, Reja mehnat-soat:					
Texnik xizmat bo'limi xizmatini qayta taqsimlash					
Moddiy texnik ta'minot qayta taqsimlash bazasi					
Moddiy texnik ta'minot xizmatini qayta taqsimlash					
Reja xarajatlar jami					

Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashga misol⁴⁵

Ucha ishlab chiqarish bo'linmasi (ikkita stanok tsexi va bitta yig'uv tsexi), ikkita xizmat ko'rsatuvchi bo'linmasi (ombor va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi) bo'lgan korxonaga bir yilda umumzavod ustama xarajatlari.

⁴⁵ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.310

<i>Yordamchi ishlab chiqarish ishchilari ish haqi va nazorat:</i>	
Stanok tsexi X	100000
Stanok tsexi U	99500
Yig'uv tsexi	92500
Ombor	10000
Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi	60000
Jami:	362000
<i>Yordamchi materiallarga xarajatlar:</i>	
Stanok tsexi X	100000
Stanok tsexi U	100000
Yig'uv tsexi	40000
Ombor	4000
Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi	9000
Jami:	253000
<i>Yoritish va isitish</i>	50000
<i>Ijara haqi va to'lovlar</i>	100000
<i>Sug'urta va uskuna</i>	15000
<i>Uskunalar amortizatsiyasi</i>	150000
<i>Bino sug'urtasi</i>	25000
<i>Ishlab chiqarish boshqaruv xodimlari ish haqi</i>	80000
Jami:	1035000

Shu bilan birga yana quyidagi axborotlar mavjud:

	Uskunalar qiymati	Ulu-shi	Maydoni	Ulushi	Band ishchilar soni	Ulu-shi	Asosiy xodimlarning mehnat vaqti	Stanolarning ish vaqti
Stanok tsexi X	800000		10000		30		200000	100000

Stanok tsexi U	500000		5000		20		150000	50000
Yig'uv tsexi	100000		15000		30		200000	
Ombor	50000		15000		10			
Texnik xizmat bo'limi	50000		5000		10			
Jami	1500000		50000		100			

Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi hisob yozuvlaridan ma'lum bo'lishicha boshqa bo'linmalarda o'tkazilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari vaqti quyidagicha, soat

Bo'linmalar	Vaqt, soat	Ulushi
Stanok tsexi X	12000	
Stanok tsexi U	8000	
Yig'uv tsexi	5000	
Ombor	1000	
Jami:	26000	

Ishlab chiqarish tsexlariga berilgan materiallar (asosiy va yordamchi)ning qiymati quyidagicha, \$:

Bo'linmalar	Summasi, \$	Ulushi
Stanok tsexi X	400000	
Stanok tsexi U	300000	
Yig'uv tsexi	100000	
Texnik xizmat bo'limi	100000	
Jami:	900000	

Misolda keltirilgan ustama xarajatlar moddalarini ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar o'rtasida taqsimlash uchun ustama xarajatlar tahlili vedomostini tayyorlash zarur.

Aytaylik, korxonada mahsulot ishlab chiqarmoqda, ishlab chiqarilayotgan bu mahsulotni X stanok tsexida ishlov beriladi, so'ngra U stanok tsexiga

o'tkaziladi, oxirgi bosqichda yig'uv tsexida yig'iladi, shundan so'ng tayyor mahsulotlar omboriga beriladi.

Bo'linmalar	Mahsulot birligiga ishlov berishga ketgan vaqt, soat
Stanok tsexi X	3 st/s
Stanok tsexi U	2 st/s
Yig'uv tsexi	1 meh/s

Topshiriq 6-1. «O'rta-g'arb ishlanmalari» kompaniyasining barcha ishlab chiqarish bo'linmalariga xizmat qiluvchi Chikago elektrostantsiyasi kelgusi yilda energiya hosil qilish byudjetini ko'rib chiqmoqda. Byudjet bir oylik asosda quyidagi atamalarda ifodalangan:

Ishlab chiqarish bo'linmasi	Amaliy ishlab chiqarish quvvatida zarur*		Bir oyda iste'mol qilish kutilayotgan energiya	
Rokford	10000	kvt/s.	8000	kvt/s.
Peoriya	20000		9000	
Xammond	12000		7000	
Kankaki	8000		6000	
Jami	50000	kvt/s.	30 000	kvt./s

Bu elektrostantsiya kattaligini rejalashtirish chog'ida eng muhim omil edi. Byudjet yili davomida elektrostantsiyalarga xizmat qilishga kutilgan oylik xarajatlar 15 000 sh.b. ni tashkil qiladi. 6 000 sh.b. o'zgaruvchi xarajatlar va 9 000 sh.b. – doimiy sarflar.

Talab qilinadi:

1. Elektrostantsiya xarajatlari uchun sarflarning yagona guruhidan (single-cost pool). foydalaniladi deylik. Ishlab chiqarish bo'linmalarining har biriga harajatlarning qanday miqdori taqsimlanishi lozim?

Taqsimlash bazasi sifatida: a) haqiqatdagi ishlab chiqarish hajmini va b) bir oyda sarf qilinishi kutilayotgan elektr energiyasi sarfi ko'rsatkichlaridan foydalaning.

2. Endi o'zgaruvchi va doimiy xarajatlar uchun (variable-cost pool i fixed-cost pool). xarajatlarning guruhlaridan foydalanib turli stavkalar bo'yicha

taqsimlash usulidan foydalanilmoqda, deylik. O'zgaruvchi xarajatlar kutilayotgan bir oylik energiya iste'moli bazasida taqsimlanadi. Doimiy xarajatlar quvvat bazasida taqsimlanadi. Har bir ishlab chiqarish bo'linmasiga qancha pul miqdori tasdiqlanadi? Nima uchun Siz taqsimlashning qo'sh stavkasi usuli bo'yicha taqsimlashni afzal ko'rardingiz? Umumiy xarajatlarni xarajatlarning ikki guruhi - doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarning kombinatsiyasi deb qarash chog'ida dualizm paydo bo'ladi).

6-2. «Meva sharbati» korporatsiyasi Sharqiy Mayamidagi zavodida (bu zavod «Apelsin sharbati» bo'linmasiga kiradi) apelsin sharbati, G'arbiy Mayamidagi zavodda esa («Greypfrukt sharbati» bo'linmasi) greypfrukt sharbati ishlab chiqaradi. Korporatsiya apelsin va greypfruktni Orlando viloyatidagi bog'bonlar shirkatlaridan sotib oladi. Uning o'z yuk avtomobillari bor. Mayamidagi har ikki zavod Orlandodan bir xil masofada joylashgan. Yuk mashinalari saroyi korporatsiyaning xarajatlar markazi sifatida ishlaydi. Har bir zavodga meva tashish uchun har galgi borish va kelish bilan bog'liq to'g'ri va bilvosita xarajatlarni qoplash uchun schet beriladi.

Yuk mashinalari saroyining xarajatlari to'g'ri (asosiy xarajatlarni) (shoferlarning mehnat haqi yonilg'i va yo'l to'lovlari) va bilvosita xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bilvosita xarajatlar shinalar va yuk mashinalarining eskirishini, sug'urta va davlat ro'yxatidan o'tish xarajatlaridan iborat.

«Apelsin sharbati» bo'linmasi yil boshi byudjetida Orlandodan Sharqiy Mayamiga va orqaga 150 marta qatnashni rejalashtirdi. «Greypfrukt sharbati» bo'linmasi esa byudjetga Orlandodan G'arbiy Mayamiga va orqaga 100 marta qatnashni kiritdi. Rejalashtirilgan ana shu 250 qatnov asosida yuk saroyining byudjetdagi bilvosita xarajatlari 575 000 sh.b.ni tashkil qildi. 1 yilda amaldagi natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

Yuk mashinalari saroyining bilvosita xarajatlari	645 000 sh.b.
Orlando - Sharqiy Mayami - Orlando qatnovi soni	200
Orlando - G'arbiy Mayami - Orlando qatnovi soni	100

Yuk mashinalari saroyining rahbariyati yuk tashishga bilvosita sarflarni taqsimlashning yagona stavkasi usulidan foydalanadi.

Talab qilinadi:

1. Byudjet sarflari va byudjet aylanma qatnovidan foydalanilsa, b) amalda bo'lgan sarflardan va amalda bo'lgan qatnov sonidan foydalanilsa, bitta aylanib qatnashga bilvosita sarflar stavkasi nimaga teng?

2. «Apelsin sharbati» bo'linmasi nuqtai nazaridan amaldagi sarflar /amalda bo'lgan qatnov soni o'rniga byudjet sarflari/ qatnovning byudjet sonidan foydalanish samarasi qanday bo'ladi?

6-3. (6-2 topshiriqning davomi). «Meva sharbati» korporatsiyasi bilvosita transport xarajatlarini (sarflarning ikki guruhidan foydalanib) har bir qatnovga taqsimlashning yangi usulidan foydalanish samaraligini o'rganishga qaror qiladi. Yil boshida byudjet bo'yicha bilvosita xarajatlari quyidagicha:

Qatnashga o'zgaruvchi bilvosita xarajatlar	1 500	sh.b.
Umumiy doimiy xarajatlar	200000	sh.b.
1 yilda qilingan 300 qatnov bo'yicha haqiqiy natijalar quyidagicha:		
O'zgaruvchi bilvosita xarajatlar	465 000	sh.b.
Doimiy bilvosita xarajatlar	180 000	
	645 000	sh.b.

Boshqa axborotlarning hammasi 6-2 vazifadagiga o'xshash.

Talab qilinadi:

1. Faqat byudjet xarajatlari va byudjet qatnov miqdori hisobga olinganda xarajatlarning ikki guruhidan foydalanilganda bir marta qatnovga bilvosita xarajatlarni taqsimlash stavkasi nimaga teng? Xarajatlar byudjet stavkasidan foydalanib, o'zgaruvchi xarajatlar uchun haqiqatda bo'lgan qatnov soniga ko'paytirib va doimiy xarajatlar uchun byudjet stavkasi qatnovini byudjet soniga ko'paytirib taqsimlanadi.

2. Shu vazifaning va 2-vazifaning birinchi bandlari natijalarini solishtiring. «Apelsin sharbati» bo'linmasining nuqtai nazaridan qo'sh stavka usulidan foydalanish (xarajatlarning turli guruhlari uchun turlicha) yagona stavkadagi

foydalanishga nisbatan qanday samarasi bor?

6-4. Mebel ishlab chiqaradigan firma xaridorlar buyurtmasiga asosan mebel ishlab chiqaradi. Uning uchta ishlab chiqarish va ikkita xizmat ko'rsatish bo'linmasi bor. Kelayotgan yilga me'yordagi doimiy ustama xarajatlar, sh.b.

Ko'rsatkichlar		Taqsimlash bazasi
Ijara to'lovi	12 800	- binolar maydoni
Ishlab chiqarish uskunalari sug'urtasi	6 000	- uskunalarining birlamchi qiymati
Telefon haqi	3 200	- xonalar maydoni
Amortizatsiya	18 000	- uskunalarining birlamchi qiymati
Texnik nazorat bo'limi nazoratchilari shtatining ish haqi	24 000	- asosiy ishlab chiqarish ishchilari ish vaqti
Isitish va yoritish	6 400	- xonalar maydoni
Jami	70400	

Ishlab chiqarish bo'linmalari (A, V, S) va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalari (X, Y) yangi baholarda joylashgan, ularning ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

Ko'rsatkichlar	A	V	S	X	Y
Binolar maydoni, kv.m.	3000	1 800	600	600	400
Uskunalar dastlabki qiymati, sh.b.	24000	10000	8000	4000	2000
Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat vaqti, s	3200	1 800	1 000		
Ish haqining soatbay stavkasi, sh.b.	3,8	3,5	3,4	3,0	3,0
Har bo'limning o'zgaruvchi ustama sarflari, sh.b.	2800	1700	1200	800	600
X bo'linmasi sarflarining taqsimlanishi, %	50	25	25		
Y bo'linmasi sarflarining taqsimlanishi, %	20	30	50		

Talab qilinadi:

1. Doimiy ustama xarajatlarni bo'linmalar o'rtasida taqsimlash. Taqsimlashning to'g'ri (bevosita) usulidan foydalanib, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarining xarajatlarini ishlab chiqaruvchi bo'linmalar o'rtasida taqsimlash. Har bir ishlab chiqarish bo'linmasi uchun mahsulotga ustama xarajatlarni taqsimlashning tegishli me'yorlarini hisoblash (bo'linmalar bazasi – asosiy ishlab

chiqarishdagi ishchilarning mehnat vaqti).

2. Mebellar majmuasiga mavjud ikki buyurtmaning bevosita xarajatlari quyidagicha:

Ko'rsatkichlar	№ 1 buyurtma	№ 2 buyurtma
Asosiy materiallar sarfi, sh.b.	154	108
Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar mehnati	Atsexda - 20 s	A tsexda- 16 s
	V tsexda - 12 s	V tsexda - 10 s
	S tsexda - 10 s	S tsexda - 14 s.
Har bir buyurtmaning tannarxini hisoblang		

3. Agar firma xaridorlarga sotish bahosiga zarur foydaning 25 % ini qo'shadigan bo'lsa, har bir buyurtma uchun sotish narxini hisoblang.

4 -yil 31 dekabrda «Materiallar» scheti bo'yicha qoldiq	12
4 -yil 31 dekabrda «Tugallanmagan ishlab chiqarish» scheti bo'yicha qoldiq	3
4 -yil 31 dekabrda «Tayyor mahsulot» scheti bo'yicha qoldiq	6
Xarid qilingan asosiy va bilvosita materiallar	150
Ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy materiallar	145
Ishlab chiqarishda foydalanilgan yordamchi materiallar	10
Ishlab chiqarishda bevosita foydalanilgan asosiy mehnat	90
Mehnatga bilvosita xarajatlar	30
Amortizatsiya – uskunalar, binolar	19
Turli bo'limlarning boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	9
Mehnatga bevosita xarajatlarning 70 % sifatida taqsimlangan ishlab chiqarish ustama sarflari	?
Tugallangan mahsulot tannarxi	294
Sotish hajmi	400
Sotilgan mahsulot tannarxi	292

Shu ma'lumotlarga asoslanib, jurnal provodkasini tayyorlang. Har bir provodka uchun:

1. Har bir provodkani tasdiqlaydigan, eng mos hujjat nomini aniqlang;
2. Har bir provodka uchun jurnalda muomala mazmunini bayon qiling, agar

mavjud bo'lsa.

6-6. Tuttle kompaniyasi mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning buyurtmalar usulidan foydalanadi. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari rejadagi koeffitsient (u bevosita ishlab chiqarish mehnatining har bir soati 2,5 sh.b. ni tashkil qiladi) yordamida taqsimlanadi. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» va «Tayyor mahsulot» schyotlari bo'yicha bosh va oxirgi qoldiq 0 ga teng. Bir yil ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning hammasi sotib bo'lingan. Bundan tashqari, sizga quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Bevosita mehnat qilingan soat	50 000	
Foydalanilgan asosiy materiallar	50 000	sh.b.
Asosiy ishlab chiqarish mehnat xarajatlari	100 000	sh.b.
Bilvosita mehnat xarajatlari	25 000	sh.b.
Foydalanilgan yordamchi materiallar	10000	sh.b.
Ijara to'lovi - imorat va uskunalarga	50 000	sh.b.
Boshqa ishlab chiqarish ustama sarflari	50 000	sh.b.
Sotilgan mahsulot tannarxi	275 000	sh.b.

Qayta taqsimlangan va taqsimlanmagan ishlab chiqarish ustama sarflari yil oxirida to'liq «Sotilgan mahsulot tannarxi» schetiga o'tkazilib, hisobdan chiqarildi.

Talab qilinadi:

1. Taqsimlangan ishlab chiqarish ustama sarflarini aniqlang.
2. Qilingan ishlab chiqarish ustama sarflarini aniqlang.
3. Yuqorida sanab o'tilgan faktlar bo'yicha to'la taqsimlanmagan yoki qayta taqsimlangan ishlab chiqarish ustama xarajatlari schetlarni yopish bo'yicha aks ettirish uchun jurnal provodkalarini tayyorlang.

6-7. Sharman Manufacturing Company kompaniyasining bosh jurnalidagi ba'zi schetlarda 1yil 31 yanvarda quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Schetlar to'liq bo'lmagan, kompaniya buxgalteri oshxonada 31 yanvar 1yilda ovqatlangandan so'ng oshqozon yarasi bo'yicha shoshilinch tashrix

o'tqazdi. Moliya bo'limining boshlig'i, qadrdon do'stingiz sizga quyidagi to'la bo'lmagan schetlarni va ba'zi qo'shimcha ma'lumotlarni berdi.

Asosiy materiallar

1 yanvardagi qoldiq	15 000	
Asosiy materiallar kirimi	35 000	

Tugallanmagan ishlab chiqarish

1 yanvardagi qoldiq	1 000	
Foydalanilgan asosiy materiallar	20 000	40 000

Tayyor mahsulot

1 yanvardagi qoldiq	10 000	
		20000

Sotilgan mahsulot tannarxi

--	--	--

Ishlab chiqarishdagi ishchilarga to'langan ish haqi

	1000	1 yanvardagi qoldiq
	40 000	Ishlab chiqarishdagi barcha ishchilar ish haqining jami

Qo'shimcha axborot:

a. Ish talonlariga muvofiq bir oyda 5 500 soat bevosita ishlab chiqarishda mehnat qilingan. Ishlab chiqarishdagi barcha ishchilar soatiga 6 sh.b. olishadi.

6. Bilvosita xarajatlar to'g'ri ishlab chiqarish mehnatining har soatiga 4 sh.b. koeffitsienti asosida taqsimlanadi.

6-8. Mexico kompaniyasining 1 yil may oyidagi quyidagi tugallanmagan

schetlarini oxiriga etkazishini va yangilashni iltimos qildingiz. T-schetlardan keltirilgan qo'shimcha axborotni (shartli birlikda) ham ko'rib chiqing.

Asosiy materiallar

31 maydagi qoldiq	18 000	
-------------------	--------	--

Tugallanmagan ishlab chiqarish

30 apreldagi qoldiq	2 000	
---------------------	-------	--

Tayyor mahsulot

30 apreldagi qoldiq	25 000	
---------------------	--------	--

To'lanadigan schetlar

		30 apreldagi qoldiq 10000
--	--	---------------------------

Ishlab chiqarish ustama sarflari

May oyidagi umumiy sarflar	15 000	
----------------------------	--------	--

Taqsimlangan ishlab chiqarish ustama sarflari

--	--	--

Sotilgan mahsulotning tannarxi

--	--	--

Qo'shimcha axborot:

a. Ishlab chiqarish ustama sarflari rejali koeffitsient yordamida mahsulot tannarxiga o'tkaziladi, koeffitsient esa har yilning boshida rejalashtirilgan bir yillik ishlab chiqarish ustama sarflarini asosiy mehnat vaqtining rejalashtirilgan hajmiga nisbatlash yo'li bilan hisoblanadi. 1 yilga smetada asosiy mehnat vaqti hajmi 150 000 odam/ soat bo'lishi ko'zda tutilgan hamda 225 000 sh.b. ishlab chiqarish ustama sarflari belgilangan.

b. To'lov schetlari faqat xom-ashyoni sotib olish uchun to'lashga mo'ljallangan 31 maydagi qoldiq 5 000 sh.b. May oyi davomida 35 000 sh.b.

miqdoridagi schetlar to'langan.

v. Tayyor mahsulot zahirasi 31 mayda 22 000 sh.b.ga teng bo'ldi.

g. May oyi davomida sotilgan mahsulot tannarxi 65 000 sh.b. bo'ldi

d. 31 mayda zavodda faqat bita tugallanmagan buyurtma qolgan edi. Sarflar yozuvi esa bu buyurtmaga 1 000 sh.b. (400 soat) asosiy mehnat va 2 000 sh.b.xom-ashyo sarflangani ko'rsatilgan.

e. May oyi davomida 9 400 soat asosiy mehnat qilingan. Zavoddagi hamma ishchilarning ish haqi stavkasi bir xil.

j. May oyida vujudga kelgan barcha haqiqiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari hisob yozuvlarida ask ettirilgan.

Aniqlash talab qilinadi:

1. May oyida sotib olingan xom-ashyo

2. May oyida tugallangan mahsulotlar tannarxi

3. May oyi davomida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o'tkazilgan ishlab chiqarish ustama xarajatlari

4. 1- yil 31- mayda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i

5. May oyi davomida foydalanilgan asosiy materiallar

6. 1- yil 30- aprelda xom-ashyo zahiralarini schetidagi qoldiq

7. May oyidagi to'la taqsimlanmagan yoki ortiqcha taqsimlangan ishlab chiqarish ustama xarajatlari

Takrorlash uchun savollar

1. *Ustama xarajatlarni taqsimlash zarurligiga tushuncha bering?*

2. *Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona va alohida stavkasi deganda nimani tushunasiz?*

3. *Ustama xarajatlarni taqsimlashning amaliy va rejali stavkalari o'rtasidagi farqni tushuntirib bering?*

4. *Ustama xarajatlarni to'g'ri usulda taqsimlashga qodir bo'lasiz?*

5. *Ishlab chiqarish ustama xarajatlari deganda nimani tushunasiz?*

6. *Mahsulot birligidagi to'la xarajatlarni aniqlashni tushuntirib bering?*

7. *Zahiralar tannarxini aniqlash deganda nimani tushunasiz?*

8. *Ustama xarajatlarni taqsimlashning reja stavkasidan foydalanishni tushuntirib bering?*

9. *Ustama xarajatlar prognoz miqdorini hisoblash deganda nimani tushunasiz?*

10. *Ustama xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlash deganda nimani tushunasiz?*

11. *Kelgusi davr uchun prognoz qilingan ustama xarajatlar miqdorini bazaning prognoz miqdoriga ajratish deganda nimani tushunasiz?*

Ushbu stavkadan foydalanib, ustama xarajatlarni mahsulotning har bir turiga o'tkazish deganda nimani tushunasiz?

27-BOB. BUYURTMALI KALKULYATSIYA QILISH USULI

- 27.1. Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalash tavsifi.
- 27.2. Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalashga asosiy yondashuv.
- 27.3. Haqiqiy va me'yoriy kalkulyatsiyalash usullaridagi farqlar.
- 27.4. Tugallanmagan shartnomalar bo'yicha foydani aniqlashga

Tayanch so'z va iboralar: mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya birligi, tabiiy birliklar, shartli-tabiiy birliklar, foydalaniladigan (ekspluatatsion) birliklar, quvvat, mahsuldorlik, buyurtmali usuli.

27.1. Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalash tavsifi

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida korxonalar faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini to'g'ri aniqlashdir. *Mahsulot tannarxi* uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita xarajatlarning yig'indisini ifodalaydi.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruv hisobining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi, chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi quyidagilar bo'yicha boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi uchun asos bo'ladi⁴⁶:

- qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, qaysilarini esa to'xtatish bo'yicha;
- zarur yordamchi mahsulotlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi to'g'risida;
- ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotga baho belgilash borasida;
- ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish bo'yicha;

⁴⁶ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p. 450

– ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni rivojlantirish bo‘yicha berilgan tavsiyalarni asoslashda.

Boshqaruv hisobida tannarx quyidagi asosiy ob‘ektlar bo‘yicha aniqlanadi:

- alohida bo‘linmalar bo‘yicha;
- alohida mahsulot turlari bo‘yicha.

Bunda xarajatlarni taqsimlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlarni ular vujudga kelgan markazlar bo‘yicha to‘plash;
- xarajatlarni mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlash.

Xarajatlarni taqsimlash deganda, korxonada faoliyatida vujudga kelgan xarajatlarni aniq ob‘ektlar bo‘yicha guruhlash jarayoni tushuniladi.

Xarajatlar ob‘ekti sarflangan xarajatlar hisobga olinishi zarur bo‘lgan tashkiliy bo‘limdir.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi bevosita xarajatlar, resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Korxonadagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda kalkulyatsion birlikni aniq belgilash muhim masala hisoblanadi.

Kalkulyatsiya birligi - bu kalkulyatsiya ob‘ekti o‘lchovidir. Uni tanlash mahsulotni tayyorlash xususiyatlari, nomenklatura kengligi, o‘lchashda qo‘llanadigan birliklar, amaldagi andozalar va ishlab chiqiladigan mahsulotning texnik shartlariga bog‘liq bo‘ladi.

Kalkulyatsiya ob‘ektlarini belgilashda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlariga muvofiq ularning nomi, yog‘lilik darajasi va idishning turiga qaraladi. Masalan, bir metr sig‘imdagi qog‘oz idishdagi 3,2% yog‘lilikka ega sut, 0,5 metr sig‘imdagi polietilen idishdagi 20% yog‘lilikdagi smetana, 250g. og‘irlikdagi o‘rama qog‘ozli yog‘sizlantirilgan tvorog va h.k.

Amaliy faoliyatda ishlab chiqarish korxonalari kalkulyatsiya birliklarning quyidagi guruhlaridan foydalanadilar:

– tabiiy birliklar - dona, kilogramm, tonna, metr, kub metr, kilovatt-soat va h.k.;

– shartli-tabiiy birliklar – konservalar (quyultirilgan sut) 100 shartli bankalari va h.k.;

– foydalaniladigan (ekspluatatsion) birliklar - quvvat, mahsuldorlik va h.k.;

– ishlar birliklari - tashib keltirilgan yukning bir tonnasi, yo‘l qoplamasining yuz metri va h.k.;

– vaqt birliklari - mashina-kun, mashina-soat, norma-soat va h.k.

Xarajatlar hisobining **buyurtmali usuli** xususiy va mayda turkumli ishlab chiqarishda, shuningdek, tajriba-eksperimental ishlab chiqarishda va ta'mirlash ishlarida qo'llanishi mumkin.

Buyurtmali usulning mohiyati, bir yoki bir necha xildagi mahsulotlarning uncha katta bo'lmagan turkumini tayyorlashda har bir buyurtma bo'yicha alohida xarajatlar hisobini amalga oshiriladi.

Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

– alohida buyurtmalar bo'yicha, shuningdek, bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo'llaniladi;

– bu usulda xarajatlar muayyan hisobot davri (bir oy, chorak, yil) oralig'ida emas, balki bajarilayotgan buyurtma davri bo'yicha aniqlanadi;

– qo'shimcha analitik ma'lumotlarni yig'ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin. Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo'yicha yig'ib boriladi.

Bu usulda barcha bevosita xarajatlar ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan buyurtma birligiga olib boriladi. Buyurtmali usulda umumishlab chiqarish xarajatlari maxsus usullar bo'yicha aniqlanadi va mahsulot tannarxiga olib boriladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning eng muqobil usuli normativ koeffitsiyentlar usulidir.

Koeffitsiyentlarni hisoblash uch bosqichda amalga oshiriladi:

- umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik budjeti tuziladi;
- xarajatlarning umumiy summasi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmiga qarab aniqlanadi. Bunda xodimlarning mehnat haqi, sarflangan kishi soat, sarflangan mashina-soat va h.k;

- rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo‘linadi.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan so‘ng, pul birligi, soat va boshqa istalgan o‘lchov birligida aniqlanishi mumkin bo‘lgan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti yuzaga keladi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning buyurtmali usulida kalkulyatsiya ob‘ekti bo‘lib muayn miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)ga olingan buyurtma hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)da asosiy buxgalteriya hisobi hujjati bo‘lib, buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Mazkur shartnomada quyidagilar o‘z ifodasini topadi: shartnoma ob‘ekti, shartnoma sub‘ektlari va ularning manzillari, mahsulot (ish, xizmat)ning hajmi va yuklab jo‘natish (qabul qilib olish) muddati, shartnoma bahosi, to‘lov shakllari va boshqalar.

Buyurtmali usulda mahsulot tannarxini hisoblash yakka va turkumli ishlab chiqarishlarda qo‘llaniladi.

Buyurtmalar bo‘yicha material, mehnat haqi va shu kabi xarajatlar alohida taqsimlash jadvallarida guruhlanadi. Buyurtma ob‘ektining tannarxi u ochilgan kundan boshlab amalga ishlab chiqarish xarajatlarining yig‘indisi summasi orqali aniqlanadi.

Buning uchun har bir buyurtmaga buxgalteriyada alohida kartochka ochiladi, unda buyurtma bo‘yicha xarajatlar buyurtmani bajarishning butun muddati mobaynida hisobga olinadi.

Bevosita xarajatlar birlamchi hujjatlar asosida sexlar va buyurtmalar bo‘yicha hisobga olinadi. Bunda har bir buyurtma uchun alohida birlamchi

hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bilvosita xarajatlar korxonada mutanosib ravishda qabul qilingan taqsimot bazasiga binoan taqsimlash yo‘li bilan mahsulotlar tannarxiga kiritiladi.

Buyurtmani bajarish davrida xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tugagandan keyin kartochka yopiladi va buyurtmani bajarishga ketgan xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Bu xarajatlardan qaytarilgan chiqindilar, tuzatib bo‘lmaydigan brak va foydalanilmagan materiallarni omborga qaytarish xarajatlari chiqarib tashlangach, buyurtma bo‘yicha ishlangan mahsulotning haqiqiy tannarxi kelib chiqadi.

Agar buyurtmaga muvofiq bir necha xil buyum tayyorlansa, haqiqiy xarajatlar summasini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha bo‘lish bilan bir birlik mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

Misol⁴⁷. «Sadaf» AJ buyurtmalar bo‘yicha tikuv mashinasi va muzlatgich ishlab chiqaradi. Buyurtmachilar tomonidan korxonaga 6ta tikuv mashinasi va 8ta muzlatgichga buyurtma berilgan. Buyurtmalar bajarib bo‘lingan. Bir dona buyurtmaning haqiqiy tannarxini aniqlash zarur.

Buyurtmalar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar mavjud:

1) Moddiy xarajatlar amalga oshirildi:

- tikuv mashinalari uchun - 288000 so‘m;
- muzlatgichlar uchun - 768000 so‘m.

2) Xodimlarga mehnat haqi to‘landi:

- tikuv mashinalari uchun - 153600 so‘m;
- muzlatgichlar uchun - 409600 so‘m.

3) Buyurtmalar bo‘yicha umumishlab chiqarish xarajatlari hisoblandi.

- tikuv mashinalari uchun - 38400 so‘m;

⁴⁷ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.468

– muzlatgichlar uchun - 102400 so‘m.

Ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan jami xarajatlar:

– tikuv mashinalari uchun - $288000+153600+38400=480000$ so‘m;

– muzlatgichlar uchun - $768000+409600+102400=1280000$ so‘m.

Ushbu ma’lumotlar bo‘yicha bir dona buyurtmaning tannarxi quyidagicha bo‘ladi:

Tikuv mashinasi uchun - $480000/6=80000$ so‘m;

Muzlatgichlar uchun - $1280000/8=160000$ so‘m.

Buyurtmalar bo‘yicha kalkulyatsiyalar yakka tartibda ishlab chiqarishda mahsulotning takrorlanmaydigan yoki kamdan-kam takrorlanadigan turlarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bu usulda barcha xarajatlar alohida bo‘linmalar yoki hisobot davri bo‘yicha emas, balki har bir buyurtma bo‘yicha to‘planadi. Korxonada bitta «Tugallanmagan ishlab chiqarish» scheti yuritiladi va shu schet bo‘yicha detallashtirish (tafsillashtirish) va tahliliy axborot **buyurtmalar kartochkalarida** olib boriladi. Aniq bir buyurtmani bajarishga barcha bo‘linmalar bo‘yicha xarajatlar ayni shu kartochkalarda to‘planadi. Asosiy tavsiflari:

- Ko‘p buyurtmalar belgilangan davr davomida bajariladi
- Ishlab chiqarish materiallariga, ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarning mehnatiga haq to‘lash xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari har bir buyurtma bo‘yicha yig‘iladi
- Buyurtma bo‘yicha kartochna asosiy xujjat hisoblanadi
- Harajatlar buyurtmalar bajarilishiga qarab hisobdan chiqariladi

27.2. Buyurtmalar bo‘yicha kalkulyatsiyalashga asosiy yondashuv

Xarajatlarni aniq bir buyurtmaga o‘tkazish uchun quyidagi amallarni ajratish mumkin⁴⁸:

1) Buyurtmani xarajatlar ob‘ekti sifatida aniqlash.

⁴⁸ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.473

- 2) Buyurtma bilan bog'liq xarajatlarni (materiallar, asosiy mehnat) aniqlash.
- 3) Buyurtmaga ustama sarflarni taqsimlash uchun bazani tanlash.
- 4) Ustama sarflarni taqsimlash bazasiga kiritish.
- 5) Ustama sarflarni taqsimlash stavkasini hisoblash.
- 6) Ustama sarflarni taqsimlash stavkasidan foydalanib, ustama sarflarni buyurtmaga o'tkazish.
- 7) Buyurtma bo'yicha umumiy xarajatlarni (materiallar, mehnat, ishlab chiqarish ustama sarflarini) aniqlash.

Mehnat va materiallar kabi to'g'ridan-to'g'ri sarflangan xarajatlar mahsulot yoki xizmatning aniq bir turiga bevosita o'tkazilishi mumkin. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari faqat maxsus sun'iy usullar yordamida mahsulot turlariga taqsimlanishi mumkin. Ularni hisobdan chiqarish chog'ida umumiy ishlab chiqarish sarflarini har bir bo'linma yoki faoliyat yuritayotgan ob'ekt uchun belgilangan me'yoriy stavkalardan foydalanadilar. Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiya poligrafiya sanoatida, kemasozlikda, konsalting kompaniyalarida qo'llaniladi.

Taqsimlash stavkasini aniqlash:

1. Yillik byudjetni, umumiy ishlab chiqarish sarflari rejasini tuzish. Umumiy ishlab chiqarish sarflarining taxmin qilingan miqdorini hisoblash. Xarajatlar dinamikasi va ishlab chiqarishning nazarda tutilgan xajmi asosida amalga oshiriladi. Bu operatsiyani kelgusi hisobot davriga har bir ishlab chiqarish bo'linmasi uchun bajarish zarur.

2. Umumiy ishlab chiqarish sarflarini taqsimlash bazasini tanlash. Buning uchun ishlab chiqarish faoliyatining biror ulchagichidan (mezonidan) masalan, ishlangan kishi soat sonidan, mashina-soat miqdoridan, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga hisoblangan ish haqi summasidan foydalanib, ishlab chiqarish umumiy sarflari bilan tayyor mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Tanlangan baza ishlab chiqarish umumiy sarflarini ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

3. Kelgusi davrga prognoz qilingan umumiy ishlab chiqarish sarflari

miqdorini ishlab chiqarishning prognoz qilingan va tanlangan taqsimlash bazasi ko'rsatkichlarida (soatlar, dollarlar) ifodalangan miqdoriga taqsimlash. Bu operatsiya natijasida ishlab chiqarish umumiy sarflarini taqsimlashning me'yoriy stavkasi olinadi.

So'ngra ishlab chiqarish umumiy sarflari ana shu stavkadan foydalanib, mahsulotning har bir turiga o'tkaziladi, buning uchun taqsimlash bazasi ko'rsatkichininig haqiqiy qiymati taqsimlashning me'yoriy stavkasiga ko'paytiriladi. Bu summa materiallar sarfiga va ishlab chiqarish ishchilariga hisoblangan mehnat haqiga qo'shiladi.

Natijada mahsulotning hisoblangan tannarxi kelib chiqadi, unda faqat ikkita haqiqiy element bo'ladi, ishlab chiqarish umumiy sarflari taqsimlashning me'yoriy bazasi asosida mahsulotga o'tkazilgan bo'ladi. Hisobot davri oxirida umumiy ishlab chiqarish xarajatlari schetida oxirgi qoldiq ma'lum bo'ladi, ya'ni. haqiqatan qilingan ishlab chiqarish umumiy sarflari bilan mahsulot tannarxiga o'tkazilgan sarflar o'rtasidagi tafovut aniqlanadi. Ortiqcha taqsimlangan ishlab chiqarish umumiy ustama sarflari «Sotilgan mahsulot tannarxi» schetining debetiga o'tkaziladi.

27.3. Haqiqiy va me'yoriy kalkulyatsiyalash usullaridagi farqlar

Haqiqiy kalkulyatsiyalashda haqiqiy xarajatlar: bevosita materiallar, bevosita mehnat va ishlab chiqarish ustama sarflaridan foydalaniladi.

Me'yoriy kalkulyatsiyalashda haqiqiy xarajatlar: bevosita materiallar, bevosita mehnatdan foydalaniladi, ishlab chiqarish ustama sarflari esa ustama sarflar baza mezonining haqiqiy miqdoriga ko'paytirilib, ustama sarflarni taqsimlashning reja stavkasidan foydalanib, buyurtmalarga o'tkaziladi.⁴⁹

	Materiallarni xarid qilish va foydalanish		
(1)	Materiallar	25 000	

⁴⁹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.190

	To'lash uchun schetlar		25 000
	<i>Bir oy davomida xarid qilingan materiallarni yozish uchun</i>		
(2)	Tugallanmagan ishlab chiqarish	20 000	
	Materiallar		20 000
	<i>Ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy materiallarni yozish uchun</i>		
(3)	Ishlab chiqarish ustama sarflari	3 000	
	Materiallar		3 000
	<i>Ishlab chiqarishda yordamchi materiallardan foydalanishni yozish uchun</i>		
	Mehnat sarfi		
(4)	Tugallanmagan ishlab chiqarish	70 000	
	Hisoblangan ish haqi		70 000
	Bevosita mehnat sarfini yozish uchun		
(5)	Ishlab chiqarish ustama sarflari	2 500	
	Hisoblangan ish haqi		2 500
	<i>Bilvosita mehnat sarfini yozish uchun</i>		
	Haqiqiy va taqsimlangan ustama sarflar		
(6)	Ishlab chiqarish ustama sarflari	5 500	
	To'lanadigan schetlar		1 000
	To'langan amortizatsiya – zavodniki		4 000
	To'langan sug'urta bo'nagi		500
	<i>Haqiqiy ustama sarflarni yozish uchun</i>		

Kompaniya normal kalkulyatsiyalashdan foydalanadi va ustama sarflarning rejadagi 0,5 sh.b./mehn-soat stavkasidan foydalanishdi. Jami 21 000 mehn-soat ishlangan. Jami 10 500 sh.b. (21 000 x 0,5) taqsimlangan.

(7)	Tugallanmagan ishlab chiqarish	10 500	
	Taqsimlangan ustama sarflar		10500
	<i>Ustama sarflar taqsimlanishini yozish uchun</i>		
	Buyurtmaning tugallanishi		
(8)	Tayyor mahsulot	80 000	
	Tugallanmagan ishlab chiqarish		80 000
	<i>Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini yozish uchun</i>		

Taqsimlanmagan (ortiqcha o'tkazilgan) ustama sarflarni hisobdan chiqarish.

Haqiqiy ustama sarflar ((3), (5), (6)provodkalari)		
Bilvosita materiallar		3 000
Bilvosita mehnat		2 500
Boshqalar		5 500
Jami		11 000
Taqsimlangan ustama sarflar		10 500
Taqsimlanmagan ustama sarflar		500

Kompaniya taqsimlanmagan (ortiqchasi bilan o'tkazilgan) ustama sarflarni sotilgan mahsulot tannarxiga kiritadi.

(9)	Sotilgan mahsulot tannarxi	500	
	Ishlab chiqarish ustama sarflari		500

27.4. Tugallanmagan kontraktlar bo'yicha foydani aniqlash .

Uzoq muddatli kontrakt-odatda muddati bir yildan ortiq kontraktidir. Kontraktlar bo'yicha jurnal pravodkalari. Kontrakt tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayonida har bir kontrakt kalkulyatsiya qilinayotgan mahsulotning alohida birligi hisoblanadi va shuning uchun har bir kontrakt bo'yicha harajatlar buxgalteriya bosh daftarida alohida schyotda to'planadi. Xarajatlarning turli elementlari quyidagilar bilan

bog'liq:⁵⁰

Asosiy materiallar:

Kontraktga kiritiladigan materiallar maxsus sotib olingan materiallardan hamda pudratchi omboridagi materiallardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda tegishli xarajatlar kontrakt schetining debetiga yoziladi.

Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi:

Kontrakt hisobiga o'tkaziladigan mehnat harajatlari rejalar va xujjatlarni tuzish bilan bog'liq ofis ishlari (jumladan aniq ishchilar maoshi va ish vaqti hisobi), bevosita zavodda (korxonada)gi ishlab chiqarish operatsiyalari va qurilish uchastkasidagi ishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Qurilish joyidagi kontrakt bo'yicha barcha ishlarga bevosita mehnat sifatida qaraladi. Quruvchilarning turli uchastkalardagi ish vaqtini hisoblash ish vaqtini hisobga olish tabeli orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday mehnat bo'yicha barcha xarajatlar kontrakt hisobiga kiritiladi.

Bevosita xarajatlar- Materiallar va mehnatdan tashqari kontrakt bo'yicha bevosita xarajatlar borki, ularning ahamiyati katta. Bu toifaga ikki asosiy modda, ya'ni ishlab chiqarish qurilmalari va subpudrat bo'yicha ishlar kiradi.

Ishlab chiqarish qurilmalari- Ishlab chiqarish qurilmalari va uskunalari kontrakt uchun maxsus sotib olingan bo'lishi mumkin. Bunday holatda kontrakt schyoti sotib olingan uskunalarning tannarxi bo'yicha debetlanadi. Yoki ishlab chiqarish uskunalari boshqa kontraktlarga berilishi mumkin. Bu holda qisman hisobdan chiqarilgan qiymatga ega bo'lamiz va bu qiymatga kontrakt schetimiz debetlanib, qaysi kontrakt schetidan chiqarilsa, shu schet kreditlanadi. Har bir hisobot davrining oxirida mulk hisobidagi ishlab chiqarish qurilmalarining qoldiq qiymati, miqdori kontrakt schetida kredit provodkasi sifatida bo'ladi, ya'ni qoldiq kelgusi davrning boshlanishiga o'tkaziladi. Buxgalteriya provodkalarining sof natijasi shundan iboratki, ishlab chiqarish qurilmalarining amortizatsiyasi avtomat ravishda kontrakt schetiga kirim qilinadi. Ishlab chiqarish qurilmalari ma'lum kontrakt bo'yicha foydalanish uchun ijaraga olinishi mumkin. Kompaniya ushbu

⁵⁰ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.566

ishlab chiqarish qurilmalariga egalik qilmagani uchun ijara bo'yicha sarflarga yagona jurnal provodkasi beradi va bu sarflarga kontrakt scheti debetlanadi.

Subpudrat bo'yicha ishlar. Konrakt katta bo'lsa yoki ishning ma'lum jihatlarini bo'yicha mutaxassislarning faoliyati bilan bog'liq kontrakt bo'lsa, kompaniya subpudratchilarni jalb qilishi mumkin. Subpudratchi bajargan har qanday ishning tannarxi kontraktning bevosita xarajatlari hisoblanadi va kontrakt schetini debetida hisobga olinadi.

Bilvosita xarajatlar- Ko'p pudratchilar o'z xarajatlarini alohida kontraktlarga taqsimlashga urinmaydi, chunki ko'pincha ular bevosita xarajatlarga nisbatan qiymati juda oz bo'ladi. Shunga qaramay, bunday bilvosita xarajatlar ayrim kontraktlarga taqsimlansa, u holda kontrakt schetiga ancha miqdorda summa kirim qilingan bo'lar edi.

***Ekspert xulosasi va ushlab qolinadigan summa**⁵¹- Har bir kontraktning qiymati ijrochi va mijoz o'rtasida kelishiladi va u kontrakt qiymati deb yuritiladi. Kontrakt juda katta bo'lib, ishlar ko'p oyga, hatto yillarga cho'ziladigan bo'lsa, pudratchi o'z mijozidan kontrakt qiymatiga muvofiq oraliq to'lovlarini olishni kutadi. Bunday to'lovlar o'sha paytgacha kontrakt bo'yicha bajarilgan ishlarning hajmiga muvofiq bo'ladi. To'lovlar tartibi quyidagicha:*

Ekspert xulosasi- Kontrakt bo'yicha ishlar bajarilishiga qarab, buyurtmachining eksperti xulosa beradi, unda kontrakt qiymatining ijrochi bajargan ish hajmiga mutanosib to'lanishi mumkin bo'lgan qismi ko'rsatiladi. Ko'p hollarda ijrochi bunday bosqichda oraliq to'lovi miqdoriga schet-faktura beradi.

Ushlab qolinadigan summa-Kontraktni bajarish davrida ijrochi odatda qiymatning ekspert xulosasida aniqlangan qismini oladi. Buyurtmachi ushlab qoladigan summa «Ushlab qolinadigan pul miqdori» sifatida ma'lum. Bu summa ijrochiga kontrakt tugallanib, har qanday nuqsonlar to'g'irlangandan so'ng beriladi.

Tugallangan kontrakt bo'yicha tushuntiriladigan foyda- Kontrakt uzoq

⁵¹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.580

muddatga mo'ljallangan bo'lsa, ijrochi o'z hisobotlarida kontrakt bo'yicha foydani ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi. Ishning tugallanish foizi usuli bir necha yil davomida foyda olinmay, birdaniga kontrakt tugallangan yilda foyda paydo bo'ladigan noizchilikdan qutilishga imkon beradi. Tugallanmagan kontraktida foydaning qanday miqdorini tan olish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:⁵²

1) Oraliq foydani tan olishdan avval kontrakt muvaffaqiyatli chiqishi aniq bo'lishi lozim.

2) Har qanday foyda ushbu sanada kontrakt bo'yicha bajarilgan ishlarga mutanosib olinishi kerak.

3) Kontrakt bo'yicha kutilayotgan umumiy yo'qotishlar miqdoriga nisbatan mumkin qadar tez chora ko'rish zarur.

Oraliq foydani hisoblash- **Tugallanmagan loyiha bo'yicha foydani hisoblash besh qadamdan iborat:**

1-qadam.

Kontraktni amalga oshirishning umumiy qiymatini aniqlang (narxi qayd etilgan kontrakt uchun kontrakt qiymati umumiy qiymat hisoblanadi).

Bu qadamni (a) deb ataymiz.

2-qadam. Kontraktni bajarish davomida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xarajatlarning umumiy miqdorini hisoblang. Bu bandni (b) deb ataymiz, u ikki elementdan iborat:

1. Shu sanaga qadar qilingan qayd etilgan xarajatlar, plyus qo'shiladi

2. Kontraktni bajarish uchun kelgusida zarur bo'ladigan taxminiy xarajatlar.

3-qadam. Kontrakt bo'yicha nazarda tutilgan taxminiy foyda (a)dan (b)ni ayirib tashlash bilan aniqlanadi.

4-qadam. Shu sanada tushuntiriladigan foyda shu vaqtda bajarilgan ish hajmini aks ettirishi lozim. Bu quyidagicha hisoblanadi:

⁵² Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.585

Qabul qilingant ish qiymati-ushlab

$$\text{Tushuntiriladigan foyda}^{53} = \frac{\text{qolinadigan summa}}{\text{Kontraktni bajarishning umumiy summasi}} \times \text{Taxminiy foyda}$$

Tushuntiriladigan foyda shu sanagacha yig'ilgan miqdorini yodda tutish muxim.

5-qadam.

Joriy davrda tugallanmagan kontrakt bo'yicha foyda (ya'ni joriy yilda kontrakt schyotiga kirim qilinadi) 4-qadamga muvofiq hisoblanib kontrakt bo'yicha oldingi davrlari uchun foyda chiqarib yuborilgan kumulyativ tushuntiriladigan foydadan iborat.

Boshqacha aytganda, joriy davrda olinadigan foyda ushbu sanadagi (agar zarurat bo'lsa, kamaytirilgan) foydaning kontrakt bo'yicha oldingi davrlar foydasidan chiqarib tashlangan foydadir.

Topshiriq 7-1. Targ'on kompaniyasi maysazorlar uchun uskuna ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish doimiy emas, balki muvaqqat tusda bo'lgani uchun buyurtma bo'yicha kalkulyatsiyalash usulidan foydalaniladi. Quyida 2-yilning 31 avgustida tugaydigan 11 oy mobaynidagi ba'zi schyotlar bo'yicha qoldiqlari keltirilgan:

Zahiralar	32 000 sh.b.
Tugallanmagan ishlab chiqarish	1 200 000 sh.b.
Tayyor mahsulot	2 785 000 sh.b.
Haqiqiy ishlab chiqarish ustama sarflari	2 260 000 sh.b.
Sotilgan mahsulot tannarxi	14 200 000 sh.b.

Tugallanmagan ishlab chiqarish ikki buyurtmadan iborat:

Buyurtma №	Miqdori	Nomi	To'plangan sarflar
3005-5	50 000		700 000 sh.b.

⁵³ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.587

		Doimiy purkagich	
3006-4	40000	Tejali purkagich	500 000 sh.b.
			1 200 000 sh.b.
Tayyor mahsulot uch nomda:			
Nomi	Miqdori va bir birlikka sarflanadi xarajatlar	To'plangan sarflar	
Statsionar purkagichlar	5 000 dona x 22 sh.b.	110 000 sh.b.	
«Lyuks» purkagichlar	115 000 dona x 17 sh.b.	1 955 000 sh.b.	
Latun soplalari	10 000 to'plam x 14 sh.b.	140 000 sh.b.	
«Yomg'ir» soplasi	5 000 to'plam x 16 sh.b.	80 000 sh.b.	
Konnektorlar	100 000 to'plam x 5 sh.b.	500 000 sh.b.	
		2 785 000 sh.b.	

Quyida kompaniyaning 1- va 2- hisobot yilidagi sarflar byudjeti keltirilgan. Kompaniya ishlab chiqarish ustama sarflarini bevosita qilingan mehnat soati asosida taqsimlaydi. Kompaniyaning dastlabki 11 oylik faoliyati rejalashtirilganiga juda yaqin bo'lgan. 2- yil 31 avgustga qadar bevosita ishlab chiqarishda 367000 soat mehnat qilindi.

Sarflarning yillik byudjeti .

2- yilning yakuni 30 sentyabrda tugaydi (sh.b.)

Asosiy materiallar		3 800 000
Butlovchi materiallar		6 000 000
Bevosita mehnat sarfi (400 000 soat)		4 000 000
Ishlab chiqarish ustama sarflari:		
Bilvosita materiallar	190 000	
Bilvosita mehnat sarfi	700 000	
Nazorat	250 000	
Amortizatsiya	950 000	
Kommunal xizmatlar	200 000	
Sug'urta	10 000	
Mulk solig'i	40 000	

Boshqalar	60 000	2 400 000
Ishlab chiqarish umumiy xarajatlar		16 200 000

Quyida 2- yilning sentyabridagi operatsiyalar keltiriladi:

1. Barcha asosiy materiallar, butlovchi materiallar va bilvosita materiallar, zahiralari scheti hisobiga o'tkazilgan. Sentyabrda quyidagilar xarid qilingan:

Asosiy materiallar	410 000 sh.b.
Butlovchi materiallar	285 000 sh.b.
Bilvosita materiallar	13 000 sh.b.

2. Jadvalda ombordan asosiy materiallarni, butlovchi materiallarni va bilvosita materiallarni berish to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan:

Ko'rsatkichlar	Butlovchi materiallar	Asosiy materiallar	Bilvosita materiallar	Jami berilgan materiallar
3005-5	110 000 sh.b.	100 000 sh.b.	--	210 000 sh.b.
3006-4	--	6 000 sh.b.	--	6 000 sh.b.
4001-3	--	181 000 sh.b.	--	181 000 sh.b.
(30 000 b.)				
4002-1	--	92 000 sh.b.	--	92 000 sh.b.
(10 000 b.)				
4003-5	163 000 sh.b.	--	--	163 000 sh.b.
(50 000 b.)				
Bilvosita materiallar	--	--	20 000 sh.b.	20 000 sh.b.
Jami	273 000 sh.b.	379 000 sh.b.	20 000 sh.b.	672 000 sh.b.

3. Sentyabr oyida ish haqiga oid ma'lumotlar:

Ko'rsatkichlar	Soat	Xarajatlar (sh.b.)
3005-5	6 000	62 000
3006-4	2 500	26 000
4001-3	18 000	182 000
4002-1	500	5 000

4003-5	5 000	52 000
Bilvosita xarajatlar	8 000	60 000
Sifat nazorati	--	24 000
Savdo va ma'muriy xarajatlar	--	120 000
Jami		531 000

4. Sentyabr oyida qilingan boshqa ishlab chiqarish sarflari quyidagicha bo'ladi:

Amortizatsiya	62 500 sh.b.
Kom. Xizmat	15 000 sh.b.
Sug'urta	1 000 sh.b.
Mulk solig'i	3 500 sh.b.
Boshqalar	5 000 sh.b.
	87 000 sh.b.

5. Sentyabrda tugallangan buyurtmalar va haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot quyidagicha bo'ldi. (texnik jarayonda brak chiqishi nazarda tutilgan)

Buyurtma №	Miqdori	Nomi
3005-5	48 000 dona	Statsionar purkagich
3006-4	39 000 dona	Tejamli purkagich
4001-3	29 500 to'plam	«Yomg'ir» soplasi
4003-5	49 000 dona	Tovushli purkagich

5. Sentyabr davomida xaridorlarga quyidagi tayyor mahsulotlar jo'natildi:

Nomi	Miqdori (dona)
Statsionar purkagichlar	16 000 dona
«Lyuks» purkagichlar	32 000 dona
Tejamli purkagichlar	20 000 dona
Tovushli purkagichlar	22 000 dona

Latun sopl	5 000 to'plam
«Yomg'ir» sopl	10 000 to'plam
Konnektorlar	20 000 to'plam

Talab qilinadi:

1. a) 2 yil 30- sentyabrda tugaydigan bir yilda taqsimlangan yoki taqsimlanmagan ishlab chiqarish ustama sarflarini aniqlang. Ishlab chiqarish ustama sarflari taqsimlanganmi yoki taqsimlanmaganmi – buni ko'rsatishingiz shart.

b) buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan shu taqsimlanmagan yoki taqsimlangan ishlab chiqarish ustama sarflariga nisbatan nima qilish yaxshiroq?

Javobingizni izohlab bering.

2. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» schetida 2 yil 30 sentyabrdagi qoldiqni aniqlang.

3. FIFO usulidan foydalanib, «Tayyor mahsulot» schetida 2 yil 30 sentyabrdagi qoldiqni aniqlang.

7- 2. Fabrika qurilishiga uzoq muddatli kontrakt 1-yili noyabr oyida boshlangan edi. Kontrakt 3- yil fevralida tugallanishi kutiladi. Kontraktning smeta qiymati

1 400 000 sh.b. Kontrakt foyda e'tirof etilishi mumkin bo'lgan bosqichda 1- va 2- yil davomida kontrakt qismlari bo'yicha bajarildi va buyurtmachiga navbatdagi bajarilgan ish hajmini topshirish chog'ida bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma tuzildi va shu asosda oraliq to'lovlariga schet yozildi. Sizga 2-yil 31- dekabrda tugagan hisobot davri uchun quyidagi axborot taklif qilinadi:

Qurilish maydonidagi ombordan berilgan materiallar	600 000	sh.b.
Omborga qaytarilgan materiallar	50 000	
2- yil 31- dekabrda qurilish maydonida qolgan materiallar	20 000	
To'langan ish haqi	250 000	
To'lanadigan ish haqi	30 000	
Subpudratchi sarflari	25 000	

Qurilish maydonidagi ombordan berilgan santexnika	100 000	
2- yil 31- dekabrda qurilish maydonida qolgan santexnika	60 000	
Kontrakt hisobiga o'tkazilgan ustama sarflar	25 000	
2- yil 31- dekabrgacha dalolatnoma bilan qabul qilib olingan ishlarining qiymati	1 200 000	
2- yil 31- dekabrgacha olingan oraliq to'lovlar	1 000 000	
Kontrakt tugallanishida kutilayotgan sarflar	150 000	

Talab qilinadi:

1. Bajarilgan ishlarining haqiqiy qiymatini hisoblang.
2. Buyurtmachi bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani hisobda kandy aks ettirishi mumkinligiga misollar keltiring.

3. Pudratchi 2 yilga kontrakt bo'yicha qanday foydani e'tirof etishi mumkin?

7-3. Korxonada buyurtma bo'yicha kalkulyatsiyalash tizimidan foydalanadi, ya'ni buyurtmaga bevosita sarflar mumkin va maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda aniqlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ustama sarflari har oyning oxirida buyurtmaga taqsimlanadi, bunda ikki ishlab chiqarish tsexi uchun asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning bir soatlik mehnatiga haqiqiy me'yordan foydalaniladi.

Endigina tugagan oyda korxonada bajarilgan buyurtmalardan biri 150 sonli buyurtma edi

Bu buyurtma bo'yicha quyidagi axborot mavjud:

1. 400 kg U material ombordan mexanika tsexiga berilgan;
2. Mexanika tsexida asosiy ishlab chiqarishda ishchilarning 76 soat mehnati sarflangan va har soatiga 4,5 sh.b. miqdorida ish haqi to'langan, shundan 6 soati ish vaqtidan qo'shimcha vaqtda ishlangan va ularga 50 % miqdorida qo'shimcha haq to'langan.
3. 300 kg X material ombordan yig'uv tsexiga berilgan;
4. Yig'uv tsexi 30 kg X materialni omborga qaytargan, chunki buyurtmani bajarish uchun zarur materialdan ortiqcha edi;
5. Yig'uv tsexida asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning 110 soatlik

mehnati sarflangan, tarif stavkasi har soatga 4,0 sh.b.

6. Yig'uv tsexida mahsulotda ba'zi nuqsonlar borligi aniqlangan va kamchiliklarni tugatish uchun mexanika tsexiga qaytarilgan. Mexanika tsexida kamchiliklarni tuzatish uchun 3 soat sarflangan (Mexanika tsexidagi asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning yuqorida aytilgan 76 soat mehnatiga qo'shimcha). Kamchiliklarni tuzatish mexanika tsexida odatda bajariladigan ishlarning me'yoriy qismi hisoblanadi.

7. Yig'uv tsexida 5 kg X material buzib qo'yildi, ularni tashlab yuborishga to'g'ri keldi. Bunday materiallarning yo'qotilishi rejalashtirilmagan.

Ko'rsatkichlar	Mexanika tsexi, sh.b.	Yig'uv tsexi, sh.b.
Ombordan berilgan asosiy materiallar (yig'uv tsexida nobud bo'lgan X ni ham hisobga olganda)	6500	13730
Omborga qaytarilgan asosiy materiallar	135	275
Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar mehnatiga to'langan haq (mexanika tsexida kamchiliklarni tugatishga ketgan 20 soatga to'langan haqni qo'shganda)	9090	11 200
Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar stavkasi bo'yicha yordamchi ishchilar mehnatiga to'langan haq	2420	2960
Qo'shimcha ish vaqtiga qo'shimcha haq	450	
Moylash vositalari	520	680
Texnik xizmat ko'rsatish	720	510
Boshqalar	1200	2 150

Materiallarning qiymati har oying oxirida o'rtacha tortilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Bir oyda U va X materiallari harakati to'g'risida axborot:

	U Material		X Material	
Zahiralar dastlabki qoldig'i	1050 kg	(qiymati 529,75 sh.b.)	6970 kg	(qiymati 9 946,5 sh.b.)
	600 kg	har kg 0,5 sh.b.	16 000 kg	har kg 1,46 sh.b.
	500 kg	har kg 0,5 sh.b.		
	400 kg	har kg 0,52 sh.b.		

Ombordan berildi	1430		8 100 kg	
Omborga qaytarildi			30 kg	

Talab qilinadi: № 150- buyurtmaning tannarxini hisoblang.

Takrorlash uchun savollar

- 1) *Mahsulot tannarxini tushuntirib bering?*
 - 2) *Kalkulyatsiya birligini tushuntirib bering?*
 - 3) *Buyurtmali usulini tushuntirib bering?*
 - 4) *Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalashni tavsiflash deganda nimani tushunasiz?*
 - 5) *Haqiqiy va me'yoriy kalkulyatsiyalash farqini tushuntirib bering?*
 - 6) *Tugallanmagan shartnomalar bo'yicha foydani aniqlashga ta'rif bering?*
 - 7) *Buyurtmani xarajatlar ob'ekti sifatida aniqlashni tushuntirib bering?*
 - 8) *Buyurtma bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash deganda nimani tushunasiz?*
 - 4) *Buyurtmaga ustama sarflarni taqsimlash uchun bazani tanlash deganda nimani tushunasiz?*
 - 9) *Buyurtma bo'yicha umumiy xarajatlarni (materiallar, mehnat, ishlab chiqarish ustama sarflarini) aniqlash deganda nimani tushunasiz?*
 - 10) *Haqiqiy va me'yoriy kalkulyatsiyalashni tushuntirib bering?*
 - 11) *Tugallanmagan kontraktlar bo'yicha foydani aniqlashni tushuntirib bering?*
 - 12) *Ekspert xulosasi va ushlab qolinadigan summani tushuntirib bering?*
 - 13) *Tugallangan kontrakt bo'yicha tushuntiriladigan foyda deganda nimani tushunasiz?*
- Oraliq foydani hisoblash qanday aniqlanadi?*

28-BOB. JARAYONLI KALKULYATSIYA QILISH USULI.

28.1. Jarayonli kalkulyatsiya tavsifi.

28.2. Ekvivalent birliklarni hisoblash.

28.3. Boshqa jarayonga o'tkaziladigan tayyor mahsulotni va tugallanmagan ishlab chiqarishni o'rtacha tortilgan usuli va FIFO usuli bo'yicha baholash.

Tayanch so'z va iboralar: jarayonli usul, o'rtacha hisob usuli, fifo usuli, yarim tayyor mahsulotli usuli, yarim tayyor mahsulotsiz usuli, ekvivalent birliklari, shartli (ekvivalent) birliklar, o'rtacha tortilgan usul.

28.1. Jarayonli kalkulyatsiya tavsifi

Mahsulot tannarxini aniqlashning **jarayonli usulidan** mahsulot ishlab chiqarishda xomashyoning bir necha jarayondan o'tganidan so'ng tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda foydalaniladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli uzluksiz, bir necha bosqichdan iborat jarayonlar bo'yicha ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llaniladi. Bunda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ikki usulda amalga oshiriladi:

– o'rtacha hisob usuli. Mazkur usulda xarajatlar, shu jumladan, hisobot davri boshidagi qoldiq summasi ham qo'shib, shu davrda ishlab chiqilgan shartli tayyor mahsulot birligiga bo'linadi;

– FIFO usuli. Bunda hisobot davri boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i tugatiladi so'ngra yangi mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. FIFO usulini qo'llashda birmuncha qiyinchiliklar mavjud, biroq o'rtacha hisob usuliga nisbatan aniqroq hisoblanadi.

Xarajatlar hisobini jarayonli usulining ikki varianti mavjud: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz.

Yarim tayyor mahsulotli usulda har bir oldingi qayta ishlangan mahsulot keyingi qayta ishlov uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi va u

tashqariga sotilishi mumkin. Bu yarim tayyor mahsulotlarni haqiqiy, normativ yoki rejali tannarx bo'yicha, hisob-kitob yoki mahsulotni sotish baholari bo'yicha baholash zaruratini belgilaydi. Bu variantda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida 2100 - "O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar" nomli aktiv schetda aks ettiriladi.

Yarim tayyor mahsulotsiz usulda har bir qayta ishlov bo'yicha, asosan, faqat ishlov berishga ketgan xarajatlar olinadi. Tayyor mahsulot tannarxi xomashyo, dastlabki materiallar xarajatlari, barcha qayta ishlash xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini umumlashtirish bilan aniqlanadi. Bunda faqat tayyor mahsulot tannarxi kalkulyatsiya qilinadi.

Misol. Korxonada erkaklar poyafzali ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish uchta jarayonda tashkil etilgan. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- hisobot davrining birinchi choragida 1500 dona mahsulot ishlab chiqarilgan;
- dastlabki ishlov uchun xomashyo va materiallar sarflangan - 8400000 so'm;
- oraliq mahsulotlarga xarajatlar qilindi - 2400000 so'm;
- tayyor mahsulot holiga keltirish uchun mablag'lar sarflandi - 1200000 so'm.

Bunda jarayonlar bo'yicha tannarx aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

$$1\text{-jarayon} - 8400000/1500=5600$$

$$2\text{-jarayon} - 2400000/1500=1600$$

$$3\text{-jarayon} - 1200000/1500=800$$

$$\text{Jami: } 12000000/1500=8000.$$

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi 8000 so'mni tashkil etadi.

Jarayonli kalkulyatsiyadan odatda ishlov berishning bir necha bosqichidan o'tadigan bir xil mahsulotni ko'plab ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bunda mahsulot bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobini vaqtning ma'lum davri bo'yicha

yuritish maqsadga muvofiqdir. Kimyo, un yorma, oyna va lak bo'yoq sanoati bunga misol bo'ladi. Xarajatlar bo'linmalar bo'yicha yoki muayyan davrdagi jarayonda to'planadi. So'ngra umumiy xarajatlarning solishtirma xarajatlarini aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot birligi miqdoriga taqsimlanadi.⁵⁴

Bu usulda xarajatlar hisobot davrida alohida bo'linmalar bo'yicha yoki ma'lum vaqt davomidagi jarayonga to'planadi. Har bir bo'linma uchun «Tugallanmagan ishlab chiqarish» scheti ochiladi. Mahsulot birligiga ishlov berilib tayyor bo'lganga qadar u bir necha bo'linma yoki jarayondan o'tadi. Har bir bo'linmada xarajatlar mahsulotga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish jarayonining oxirida ushbu xarajatlar mahsulot birligiga ketgan umumiy xarajatlarni aniqlash uchun jamlanadi.


Masalan, 1000 dona mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, mahsulot birligiga xarajat 6,5 sh.b.ni tashkil etadi (6500/1000)

Jarayon bo'yicha kalkulyatsiyalashda barcha ishlab chiqarish xarajatlari va tayyorlangan mahsulot birligi miqdori ishlab chiqarish hisobotida yig'iladi:

Jarayon			
Material	1000	B jarayonga	
Mehnat	1000	berildi	
IUX	1000		3000
	<u>3000</u>		<u>3000</u>

Jarayon			
A jarayondan	3000	Tayyor	
S ga			
Material	1000	mahsulot	
Mehnat	2000	omboriga	
IUX	500	berildi	6500
			<u>6500</u>

⁵⁴ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.593



<i>Bo'linmaga o'tkazilgan:</i>	birliklar	Xarajatlar sh.b.
Davr boshida	5000	12000
Jarayonga kiritildi	20000	85000
Jami birliklar	25000	97000
Jami hisobga olingan birlik		
Boshqa jarayonga berilgan	15000	60000
Jarayon oxirida qolgan perioda	10000	37000
Jami birliklar	25000	97000

28.2. Ekvivalent birliklarni hisoblash

Mahsulot birligiga sarflarni aniqlash uchun qilingan barcha ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga taqsimlash lozim. Mahsulot birligiga xarajatlar boshqa jarayonga (bo'linmaga) berilgan mahsulotga va davr oxirida jarayon zahirasiidagi (shu bo'linmadagi) mahsulotga xarajatlarni o'tkazish uchun bazadir.⁵⁵

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lmaganda, ya'ni jarayonga kiritilgan barcha mahsulot birliklariga ma'lum davrda ishlov berish tugallangan bo'lganda hisoblar oson bo'lar edi. Amalda davr boshida (oxirida) mahsulotga ishlov berish qisman tugallangan hamda, tugallanmagan birliklarga ham taqsimlanishi kerak.

Bunda ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida hisobot davri boshlanishida

⁵⁵ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.510

va oxirida hamisha bo'ladigan tugallanmagan ishlab chiqarish shartli tugallangan buyumga aylantirib hisoblanadi. Bu miqdor quyidagi summaga tenglashtiriladi:

1. Mazkur hisobot davrida boshlangan va tugallangan buyumlarning umumiy miqdoriga va

2. Hisobot davri boshida va oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish ustida bajarilgan ishlar aks ettiruvchi yig'masiga teng bo'ladi.

Tannarxni jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish usulida bevosita material sarflar buyumni ishlab chiqarishga kiritish paytida amalga oshadi, bevosita mehnat xarajatlari va umumiy ishlab chiqarish sarflari ishlov berish xarajatlari deb atalgan guruhga birlashtiriladi hamda butun ishlab chiqarish bosqichi davomida baravar (bir maromda) taqsimlanadi. Shu sababli materiallar bo'yicha shartli birliklar ishlov berish bo'yicha shartli birliklar miqdoridan farq qiladi.

Shartli (ekvivalent) birliklarni aniqlash:

Barcha ishlab chiqarish faqat tugallangan birlikka olib borganda, ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan birliklar miqdori hisoblab chiqiladi. Masalan, davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda 1000ta mahsulot birligi bo'lsa va 80 %igacha ishlov berish tugallangan bo'lsa, ekvivalent ishlab chiqarish 800 birlikni tashkil qiladi ($1000 \times 80 \%$).

Ekvivalent ishlab chiqarish **materiallar va qo'shilgan xarajatlar** bo'yicha alohida hisoblanadi⁵⁶.

Masalan, davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda 1000ta birlik bo'lib, 90 % materiallar bo'yicha tugallangan va 50 % qo'shilgan xarajatlar bilan tugallangan bo'lsa, materiallar bo'yicha ishlab chiqarish ekvivalenti 900 birlikni ($1000 \times 90 \%$) va qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 500 birlikni ($1000 \times 50 \%$) tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha tortilgan usuldan va FIFO usulidan foydalanib, tugallanmagan ishlab chiqarishga, tayyor mahsulotga, sotilgan mahsulotning tannarxiga o'tkaziladi.

⁵⁶ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.520

28.3. Boshqa jarayonga o'tkaziladigan tayyor mahsulotni va tugallanmagan ishlab chiqarishni o'rtacha tortilgan usuli va FIFO usuli bo'yicha baholash

Kalkulyatsiyalashning jarayonli usulida o'rtacha tortilgan usuldan yoki FIFO usulidan foydalanish mumkin.

1) O'rtacha tortilgan usul

O'rtacha tortilgan usul hisobot davridagi ishlab chiqarish xarajatlarini davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bilan o'rtacha miqdorga keltiradi. Ekvivalent ishlab chiqarish davr davomida tugallangan mahsulot birliklarini tugallangan ishlab chiqarishdagi ekvivalent birliklarini qo'shish bilan aniqlanadi. So'ngra umumiy xarajatlari (davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va joriy xarajatlari) mahsulot birligiga xarajatlarni aniqlash uchun ekvivalent birliklarga taqsimlanadi.

2) FIFO usuli

FIFO usuli tugallanmagan ishlab chiqarishdagi buyumlar davr boshida tugallanishini, so'ngra yangi buyumlar ishlab chiqarishga kiritilishini nazarda tutadi. FIFO usuli tushunish uchun murakkab bo'lsa ham o'rtacha tortilgan usulga nisbatan aniqroq natija beradi, eng muhimi esa, haqiqiy shart-sharoitga asoslanadi. Bunday yondashuv davr davomida ekvivalent birliklarni ishlab chiqarish natijasida vujudga kelgan joriy xarajatlarni taqsimlashga olib keladi. Ekvivalent ishlab chiqarish uch elementdan iborat:⁵⁷

1. Davr boshiga tugallanmagan ishlab chiqarishdan tugallangan birliklar;
2. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar;
3. Davr oxirida ishlov berish qisman tugallangan birliklar.

<i>Miqdor</i>	
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar:	4000
Materiallar – 100 %	

⁵⁷ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.527

Qoʻshilgan xarajatlar (ishlov berish) – 40 %	
Ishlab chiqarishga kiritilgan birliklar	12000
Jami hisobga olingan	16000
Ishlov berish tugallangan birliklar	14000
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishdan birliklar	<i>4000</i>
<i>Joriy davr xarajatlari dan ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar</i>	<i>10000</i>
Davr oxirida tugallangan ishlab chiqarishdagi birliklar	2000
Materiallar –100 %	
Qoʻshilgan xarajatlar – 80 %	
Jami hisobga olingan	16000

<i>Xarajatlar</i>		
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish:		
Materiallar	1000 sh.b.	
Qoʻshilgan xarajatlar (ishlov berish)	3000 sh.b.	4000 sh.b.
Joriy davrda qilingan xarajatlar:		
Materiallar	24000 sh.b.	
Qoʻshilgan xarajatlar (ishlov berish)	49000 sh.b.	73000 sh.b.
Jami xarajatlar		77000 sh.b.
Jami hisobga olingan		16000

Vazifani hal qilish uchun:

1. Ekvivalent birliklarni hisoblash
2. Mahsulot birligiga tegishli xarajatlarni hisoblash
3. Ishlab chiqarish hisobotini tuzish

Oʻrtacha tortilgan usul⁵⁸

1. Ekvivalent birliklarni hisoblash	Material	Ishlov berish
1. Davrda tugallangan birliklar	14000	14000

⁵⁸ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.530

2. Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar		
Materiallar –100 %		
Qo'shilgan xarajatlar – 80 % (2000*80 %)	2000	1600
3. Ekvivalent birliklarning jami	16000	15600

2. Mahsulot birligiga tegishli xarajatlarni hisoblash	Material	Ishlov berish	Jami xarajat
O'tgan davr xarajatlari	1000 sh.b.	3000 sh.b.	
Joriy davr xarajatlari	24000 sh.b.	49000 sh.b.	
Jami xarajatlar	25000 sh.b.	52000 sh.b.	
<i>Ekvivalent birliklarga taqsimlash</i>	16000	15600	
Mahsulot birligiga jami xarajatlar	1,5625sh.b.	3,3333sh.b.	4,8958 sh.b.

3. Ishlab chiqarish hisoboti – o'rtacha tortilgan usul

Miqdor			
Bo'linmaga o'tkazilgan:			4 000 b.
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish			12 000
Jarayonga kiritilgan			16 000 b.
Jami birliklar			
Hisobga olingan birliklarning jami			
Tugallangan mahsulot birligi			14 000 b.
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish			2 000 b.
Jami birliklar			16000 b.
Xarajatlar	Jami	Material	Ishlov berish
Bo'linmaga o'tkazilgan:			
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish, sh.b.	4000	1000	3000
Joriy davr xarajatlari, sh.b.	73000	24000	49000

Jami xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000
Hisobga olingan birliklarning jami			
Tugallangan birliklar (14000*4,8958)			
14000*1,5625 sh.b.	68541	21875	
14000*3,3333 sh.b.			46666
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish			
2000*100 %*1,5625 , sh.b.	8459	3125	
2000*80 %*3,3333, sh.b.			5334
Hisobga olingan xarajatlarning jami	77000	25000	52000

FIFO usuli

1. Ekvivalent birliklarni hisoblash	Material	Ishlov berish
1. Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishni tugallash uchun zarur ekvivalent birliklar: Ishlab chiqarishga berilgan jami material Qo'shimcha xarajatlar 4000*60 % (100 %-40 %)	0	2400
2. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birlik	10000	10000
3. Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar Materiallar –100 % Qo'shilgan xarajatlar – 80 % (2000*80 %)	2000	1600
4. Ekvivalent birliklarning jami	12000	14000

2. Mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash	Material	Ishlov berish	Jami xarajat
Joriy davr xarajatlari	24000 sh.b.	49000 sh.b.	
Ekvivalent birlikka taqsimlash	12000	14000	

Mahsulot birligiga jami xarajat 1 b.	2,0 sh.b.	3,5 sh.b.	5,5 sh.b.
--------------------------------------	-----------	-----------	-----------

3. Ishlab chiqarish hisoboti- FIFO usuli

Miqdor	
Bo'linmaga o'tkazilgan:	4 000 b.
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	12 000
Jarayonga kiritilgan	16 000 b.
Jami birliklar	
Jami hisoblangan birliklar	
Tugallangan birliklar	14 000 b.
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish	2 000 b.
Jami birliklar	16000 b.

Xarajatlar	Jami	Material	Ishlov berish
Bo'linmaga o'tkazilgan:			
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish, sh.b.	4000	1000	3000
Joriy davr xarajatlari, sh.b.	73000	24000	49000
Jami xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000
Hisobga olingan birliklarning jami			
Tugallangan birliklar			
1. Oldingi davr xarajatlari, sh.b.	4000		3000
2. Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishni tugallash uchun joriy xarajatlar		1000	
Material $0 \cdot 2,0$.	0	0	
Qo'shilgan xarajatlar $2400 \cdot 3,50$	8400		8400
3. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar $10000 \cdot 5,5$	55000	20000	35000
4. Umumiy xarajatlar – tugallangan birliklar	67400	21000	46400

Davr oxirida tugallanmagan birliklar 2000*100 %*2,0 sh.b. 2000*80 %*3,5 sh.b.	9600	4000	5600
Jami hisoblangan xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000

O'rtacha tortilgan usulni FIFO usuli bilan qiyoslash⁵⁹

O'rtacha tortilgan usul		FIFO usuli
1.	Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun joriy davr xarajatlarga jamlanadi.	Mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun faqat joriy davr xarajatlari kiritiladi.
2.	Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birlik sifatida hisobga olinadi.	Davr boshidagi qoldiqni tugallash uchun zarur ishgina ekvivalent birlik hisobiga kiritiladi. Davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar alohida ko'rsatiladi.
3.	Mahsulot birligidagi xarajatlarga o'tgan davr xarajatlari ham qo'shiladi.	Bir birlik xarajatlariga joriy davr xarajatlari ham qo'shiladi.
4.	Ishlab berish tugallangan birliklarning hammasi (boshqa jarayonga berilgan) bir xil hisobga olinadi	Ishlov berish tugallangan (boshqa jarayonga berilgan) birliklar ikki guruhga ajraladi: 1. tugallanmagan ishlab chiqarish boshidagi qoldiqlardagi birlik 2. davr davomida boshlangan va tugallangan birlik
5.	Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar o'rtacha xarajatlar bo'yicha baholanadi	Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar so'nggi xarajatlar bo'yicha baholanadi

Topshiriq 8-1. «Aerospeys» kompaniyasining yo'ldoshlarni yig'ish bo'limi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqing:

	Natural birlik (raketa)	Asosiy materiallar	Qo'shilgan xarajatlar
Boshlang'ich tugallanmagan ishlab chiqarish (1may) ^a	8	4 933 600 sh.b.	910 400 sh.b.
1 - yil mayda ishlab chiqarishga kiritilgan	50		

⁵⁹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.536

1 - yil mayda ishlab chiqarish tugallangan	46		
Oxirgi tugallanmagan ishlab chiqarish (31may) ^b	12		
1 - yil mayda qilingan xarajatlar		32 200 000sh.b	13 920 000sh.b

^a Tugallanish darajasi: asosiy materiallar bo'yicha 90 %; qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 40 %.

^b Tugallanish darajasi: asosiy materiallar bo'yicha 60 %; qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 30 %

Yo'ldoshlarni yig'ish bo'limi jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiyalashda o'rtacha tortilgan qiymat usulini qo'llaydi.

Talab qilinadi: Asosiy materiallar va qo'shilgan xarajatlar uchun ekvivalent birliklarni hisoblang. Jadvalning birinchi ustunida natural birliklarni ko'rsating.

8-2. (topshiriqning davomi 8-1). **Talab qilinadi:** 1-mashqdagi ma'lumotlardan foydalanib, asosiy materiallar va qo'shilgan xarajatlar uchun ekvivalent birlikka xarajatlarni hisoblang, hisobga olinishi lozim bo'lgan umumiy xarajatlarni jamlang va bu xarajatlarni tugallangan va ishlab chiqarish jarayonidan chiqqan birliklarga va davr oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish birliklariga taqsimlang.

8-3. 1-mashqdagi axborotga qarang. Yo'ldoshlarni yig'ish bo'limi jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiyalashda o'rtacha tortilgan usuldan emas, balki FIFO usulidan foydalanadi, deb tasavvur qiling.

Talab qilinadi: Asosiy materiallar va qo'shilgan xarajatlar uchun ekvivalent birliklarni hisoblang. Jadvalning birinchi ustunida natural birliklarni ko'rsating.

8-4 (8-3 topshiriqning davomi) Talab qilinadi: 1 mashq ma'lumotlariga asoslanib, asosiy materiallar va qo'shilgan xarajatlar uchun ekvivalent birlikka xarajatlarni hisoblash uchun FIFO usulidan foydalaning, hisobga olinishi lozim bo'lgan umumiy summalarni jamlang va bu xarajatlarni tugallangan va ishlab chiqarish jarayonidan chiqqan birliklarga hamda davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish birliklariga taqsimlang.

8-5. 8-1 Topshiriqda keltirilgan axborotga qarang, yo'ldoshlarni yig'ish bo'limi xarajatlarni jarayonli kalkulyatsiyalashda normativ (standart) xarajatlar usulini qo'llaydi, deb tasavvur qiling. Yo'ldoshlarni yig'ish bo'limi asosiy materiallar bo'yicha mahsulotning (ekvivalent) birligiga standart xarajatlarni 695 000 sh.b. miqdorida va qo'shilgan xarajatlar bo'yicha davr boshida, shuningdek joriy davrda bajarilgan ishlarga asosiy materiallar bo'yicha 295 000 sh.b. miqdorida standart xarajatlarni belgiladi.

Talab qilinadi: 1. Asosiy materiallar uchun va qo'shilgan xarajatlar uchun ekvivalent birliklarni hisoblang.

2. Hisoblanishi lozim bo'lgan umumiy xarajatlarni jamlang va bu xarajatlarni tugallangan va ishlab chiqarish jarayonidan chiqqan birliklarga va davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish birliklariga taqsimlang.

3. 1-yil mayida asosiy materiallarga va qo'shilgan materiallarga umumiy xarajatlar bo'yicha og'ishlarni hisoblang.

8-6. «Global Difens» kompaniyasi xarbiy uskunalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Uning Santa Fe joylashgan zavodlaridan birida AQSh xukumati va do'stona mamlakatlar bilan kontrakt bo'yicha to'suvchi raketalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Barcha raketalar bir xil ishlab chiqarish jarayonidan o'tadi. Barcha raketalarning bir xilligini va qat'iy texnik tavsifga muvofiqligini ta'minlash uchun hamma choralar ko'riladi. Santa Fe zavodida mahsulotga xarajatlarni kalkulyatsiyalash tizimi mahsulot birligiga (asosiy materiallar) turkumini va birlikka bilvosita xarajatlar turkumini (qo'shilgan xarajatlar) o'z ichiga oladi. Har bir raketa ikki tsexdan yig'uv tsexi va sinov tsexidan o'tadi. Asosiy materiallarga xarajatlar jarayon boshlanishida, yig'uv tsexida qo'shiladi. Qo'shilgan xarajatlar yig'uv tsexidagi butun jarayon davomida bir maromda paydo bo'ladi.

Yig'uv tsexida raketa ustidagi ishlar tugashi bilan ular darhol sinov tsexiga o'tadi. «Global Difens» jarayonli kalkulyatsiyalashda o'rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalanadi.

1-yil oktyabrda yig'uv tsexi to'g'risida quyidagi ma'lumot mavjud:

	Natural birlik (raketa)	Asosiy materiallar	Qo'shilgan xarajat
1-yil oktyabrda tugallanmagan ishlab chiqarish ^a	20	460000 sh.b.	120 000 sh.b.
1-yil oktyabrda ishlab chiqarishga kiritilgan	80		
1-yil oktyabrda ishlab chiqarish tugallangan	90		
31 oktyabrga tugallanmagan ishlab chiqarish ^b	10		
1-yil oktyabridagi xarajatlari		2 000 000 sh.b.	935 000 sh.b.

Tugallanish darajasi:

^a Asosiy materiallar bo'yicha? %; qo'shilgan xarajatlari bo'yicha 60 %

Tugallanish darajasi:

^b Asosiy materiallar bo'yicha? %; qo'shilgan xarajatlari bo'yicha 70 %

Talab qilinadi:

1. Yig'uv tsexida xarajatlarning har bir elementi bo'yicha ekvivalent birliklarini hisoblang. Natural birliklarni jadvalning 1-ustunida ko'rsating.

2. Xarajatlarning har bir elementi bo'yicha ekvivalent birlikka xarajatni hisoblang

3. Yig'uv tsexning oktyabridagi umumiy xarajatlarini jamlang va bu xarajatlarni tugallangan (ishlab chiqarish jarayonida o'tgan) birliklariga va davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish birliklariga taqsimlang.

8-7. (topshiriqning davomi 8-6). Talab qilinadi: 1-yil oktyabridagi barcha operatsiyalar bo'yicha yig'uv tsexidagi tugallanmagan ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan umumlashtirilgan jurnal provodkalarini tayyorlang. Yig'uv tsexidagi tugallanmagan ishlab chiqarish T-schetini tuzing va tarqatib chiqing.

8-8. Margaret Meydjer «Lezer Syuts» kompaniyasining korporativ moliya direktorii. «Lezer Syuts»ning dunyoda kostyum tikadigan 20 ta fabrikasi bor. Barcha fabrikalarda xarajatlarni jarayon bo'yicha kalkulyatsiyalash tizimidan foydalaniladi. Har oyning oxirida barcha fabrikalarning menejerlari ishlab chiqarish

hisobotini va ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobotni topshiradilar. Ishlab chiqarish hisobida menejrlarning asosiy materiallar bo'yicha tugallanish foiziga bahosi va davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda qo'shilgan xarajatlar foiziga bahosi ko'rsatiladi. Meydjer bu baholangan ma'lumotlardan har bir fabrikada qilingan ishlar bo'yicha ekvivalent birliklarni hisoblash hamda mahsulot birligiga har oyda asosiy materiallar bo'yicha, ham qo'shilgan xarajatlar bo'yicha xarajatlarni hisoblash uchun foydalanadi. Fabrikalar (a) asosiy materiallar bo'yicha ekvivalent birlikka xarajatlar asosida va (v) qo'shilgan xarajatlar bo'yicha ekvivalent birlikka xarajatlar asosida 1 dan 20 gacha tutgan o'rni belgilanadi. Meydjer har oyda hisobot e'lon qiladi va uni «Lezer Syuts»da samaradorlik o'sishining qiyosiy bahosi deb ataydi. Har bir toifada dastlabki uch o'rinni egallagan fabrikalar mukofot oladi va kompaniya byulletenida ular o'z toifasidagi eng yaxshi fabrika sifatida ko'rsatiladi.⁶⁰

Meydjer qiyosiy baho dasturining muvaffaqiyatidan mamnun edi. Lekin, tashvishli yangiliklarni eshitdi. U imzosiz bir necha xat oldi, ularda ikki fabrikaning menejrlari o'z toifasida 1-o'rinni olish uchun har oydagi tugallanish foizini buzib ko'rsatgani aytilgan edi.

Talab qilinadi:

1. Fabrika menejrlari qanday qilib va nima uchun o'zlarining har oydagi tugallanish foiziga baholarni buzib ko'rsatishgan?

2. Meydjer dastlab barcha fabrikalarning bosh buxgalterlari bilan bog'lanib imzosiz xatlarda aytilgan muammoni muhokama qilmoqchi bo'ldi. Bu yaxshi g'oyami.

3. Bosh buxgalterdan birinchi navbatda menejrlar oldida hisob berishini tasavvur qilish, shu bilan bir vaqtda topshiriqlarning 2-bandida aytilganidek, har bir bosh buxgalterga Meydjer qo'ng'iroq qilgan bo'lsin. Fabrika bosh buxgalterining har bir fabrika «samaradorlikning qiyosiy bahosi» uchun taqdim etadigan ekvivalent birliklar to'g'risidagi axborot uchun. (a) Margaret Meydjer oldidagi, «Lezer Syuts» kompaniyasi oldidagi ahloqiy ma'suliyati qanday?

⁶⁰ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.555

4. Ayrim fabrikalarning menejerlari ekvivalent birliklarga doir noto'g'ri raqamlarni taqdim etayotganini Meydjer qanday tekshirishi mumkin.

8-9. Kir yuvish vositasi 3 xil muddatda tayyorlanadi. 1-dekabrgacha ish qilinmagan. Dekabr oyida ishlab chiqarish quyidagi miqdorda moddalar berilgan:

A - 2000 kg, har kg 0.8 sh.b.;
V - 3000 kg, har kg 0.5 sh.b. ;
S - 6000 kg, har kg 0.4 sh.b..

Bundan tashqari ishlab chiqarish uchun 941 odam-soat sarflandi, va unga har soatiga 4 sh.b. bo'yicha haq to'landi. Ustama sarflar mehnat xarajati qiymatining 50 % ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida nobudgarchilik bo'lmagan. Ishlab chiqarilgan mahsulot 8 600 kilogrammni tashkil qiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i qo'yidagicha baholangan:

- materiallar bilan to'la butlangan;
- buyumlarning $\frac{1}{4}$ qismi mehnat sarflari va ustama sarflari bilan 60% tugallangan; $\frac{3}{4}$ – 25%

Talab qilinadi:

Tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini hisoblang.

8-10 a. Korxonada **A** va **V** jarayon davomida mahsulot ishlab chiqaradi.

A jarayon to'g'risida ma'lumot:	
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	Yo'q
A jarayoniga kiritilgan mahsulot (birlik)	14 000
Tugallangan va V jarayonga berilgan mahsulot, birlik	10 000
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish	4 000
Davrdagi material sarfi, sh.b.	70 000
Davrdagi ishlov berish qiymati, sh.b.	48 000

Materiallarga jarayon boshida xarajat qilinadi, ishlov berish qiymati jarayon davomida barobar qo'shiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishning tayyorlik darajasi 50 %.

Talab qilinadi:

V jarayoniga o'tkaziladigan mahsulot qiymatini va davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi hisoblansin.

8-10 b. Korxonada ikki jarayon - A va V davomida mahsulot ishlab chiqaradi

V jarayon to'g'risida ma'lumot ;	
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	Yo'q
A jarayondan o'tgan mahsulot, birlik	10000
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish, birlik	1 000
Tayyor mahsulot, birlik	9 000
Shu davr xarajatlari	
A jarayonidan so'ng mahsulot tannarxi, sh.b.	90 000
Materiallar, sh.b.	36 000
Ishlov berish qiymati, sh.b.	57000

Materiallarga xarajatlar jarayon oxirida amalga oshiriladi, ishlov berish qiymati jarayon davomida teng miqdorda qo'shiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishning tayyorlik darajasi – 40%

Talab qilinadi: Omborga jo'natilgan tayyor mahsulotning tannarxini hamda davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini hisoblash.

Takrorlash uchun savollar

1. *Mahsulot tannarxini aniqlashning jarayonli usuli deganda nimani tushunasiz?*
2. *O'rtacha hisob usulini tushuntirib bering?*
3. *FIFO usulini tushuntirib bering?*
4. *Yarim tayyor mahsulotli usulni tushuntirib bering?*
5. *Yarim tayyor mahsulotsiz usulni tushuntirib bering?*
6. *Ekvivalent birliklarni hisoblash qanday amalga oshiriladi?*
7. *Shartli (ekvivalent) birliklarni aniqlash deganda nimani tushunasiz?*
8. *Boshqa jarayonga berishni (tayyor mahsulotni) va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashni tushuntirib bering?*

29-BOB. KOMPLEKS ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING TAQSIMLANISHI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH.

- 29.1. Kompleks xarajatlar to'g'risida tushunchalar.
- 29.2. Kompleks xarajatlarni taqsimlash usullari.
- 29.3. Qo'shimcha mahsulotni hisobga olish.

Tayanch so'z va iboralar: kompleks xarajatlar, qo'shimcha mahsulot, ajralish nuqtasi, alohida xarajatlar, xarajatlarni taqsimlash, sotishga asoslangan usul, natural ko'rsatkichlar, sof sotish qiymati.

29.1. Kompleks xarajatlar to'g'risida tushunchalar

Birgalikda ishlab chiqariladigan va qo'shimcha mahsulotlar bir mahsulotni ishlab chiqarish muqarrar ravishda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishga olib boradigan ishlab chiqarishga xosdir. Quyidagilar bunday tarmoqlarga misol bo'la oladi:

	Tarmoq	Tayyor mahsulot
1.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash	
	Sut zavodi	sut, qaymoq, saryog', tvorog
	Go'sht kombinati	Go'sht, teri, yog', suyak
2.	Kimyo sanoati	
	Organik kimyo zavodi	Etilen, propilen, benzol

Quyida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish chog'ida foydalaniladigan atamalar keltirilgan:

Kompleks yoki qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari. Bunga yagona texnologik jarayon bilan bog'liq bo'lgan, shu jarayon davomida ikki yoki undan

ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqariladigan xarajatlar kiradi.⁶¹

Qo'shma mahsulotlar - bu (1) ancha bozor qiymatiga ega bo'lgan, (2) ajralib chiqish nuqtasiga qadar alohida mahsulot bo'la olmaydigan ikki va undan ortiq mahsulotdir.

Ajralish nuqtasi – bu texnologiya jarayonidagi qo'shma mahsulot alohida mahsulot sifatida tan olinadigan nuqta.

Alohida xarajatlar ~ ajralish nuqtasidan keyin mahsulot bilan bog'liq xarajatlar

Qo'shimcha mahsulotlar - bu (1) ancha bozor qiymatiga ega bo'lgan, (2) ajralish nuqtasiga qadar asosiy mahsulotdan ajralmaydigan mahsulotlar.

Kompleks ishlab chiqarishda bir mahsulotni ikkinchi mahsulotsiz ishlab chiqarib bo'lmaydi, lekin nisbati turlicha bo'lishi mumkin. Go'sht etkazib beruvchi kompaniya qushxonada faqat bir xil mahsulot olmaydi, chunki go'sht bilan birga suyak, teri, yog' chiqadi.

Kompleks ishlab chiqarishda xarajatlarni taqsimlash sabablari:


1. Tashqi moliya hisobotlari va soliq organlari uchun zahiralarni va sotilgan mahsulot tannarxini baholash.

2. Ichki maqsadlar uchun, masalan, ijrochilarni mukofotlash uchun zahiralarni va sotilgan mahsulot tannarxini baholash.

3. Xaridorga birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat bir qismini sotishni ko'zda tutuvchi shartnomalar bo'yicha xarajatlarni aniqlash.

4. Tariflarni davlat yo'li bilan tartibga solish. Masalan, neft va tabiiy gaz kompleks qayta ishlanadi, lekin AQShda faqat tabiiy gaz narxni tartibga solish ob'ektidir.

⁶¹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.562



9.1- rasm. Kompleks ishlab chiqarishda xarajatlarning harakati

29.2. Kompleks xarajatlarni taqsimlash usullari

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot ajralish nuqtasida tayyor hisoblansa, va yana qayta ishlashni talab qilmasa, kompleks xarajatlarni taqsimlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:⁶²

- 1) Sotishga asoslangan usul
2. Natural ko'rsatkichlar usuli

1) Sotishga asoslangan usul

Bu usul kompleks xarajatlarni ajralish nuqtasida mahsulotlarning bozor qiymati asosida taqsimlaydi, ya'ni bu usuldan foydalanilganda kompleks chiqimlar birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ularni sotish qiymatining baholariga mutanosib taqsimlanadi, bunda sotishning yuqori narxlariga ko'p xarajatlar muvofiq kelishi nazarda tutiladi.

Misol Kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

⁶² Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.578

Mahsulotlar	Birliklar miqdori	Birlikning ajralish nuqtasidagi bozor qiymati, sh.b.	Sotishning jami qiymati, sh.b.
A Mahsulot	100	20	2000
B Mahsulot	400	15	6000
Jami			8000

A mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $\times (2000 \text{ sh.b.} / 8000 \text{ sh.b.}) = 250$ sh.b.

B mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $\times (6000 \text{ sh.b.} / 8000 \text{ sh.b.}) = 750$ sh.b.

Taqsimlangan jami kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

Sotish qiymatiga asoslangan usul natural ko'rsatkichlar usuli kamchiliklaridan holi bo'lsa-da, uning bitta nuqsoni bor: u oldingi xarajatlar sotishdan olingan daromadlar bilan aniqlanadi, degan tasavvurga asoslanadi.

Masalan, sotishdan kam daromad tushadigan foydasiz mahsulotga kompleks xarajatlar-ning kam qismi tasdiqlanadi va shu bilan u foyda beradi, degan taassurot hosil qilinadi.

2) *Natura ko'rsatkichlar usuli.* Bu usulda kompleks xarajatlarni ajralish nuqtasida ularning o'zaro nisbati asosida taqsimlashda mahsulotning vazni yoki hajmi kabi haqiqiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

Mahsulotlar	Birliklar miqdori
A Mahsulot	100
B Mahsulot	400
Jami	500

A mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $\times (100 \text{ b.} / 500 \text{ b.}) = 200$ sh.b.

B mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $\times (400 \text{ b.} / 500 \text{ b.}) = 800$ sh.b.

Jami taqsimlangan kompleks xarajat 1000 sh.b.

Natural ko'rsatkichlar usulidan foydalanilganda har turdagi mahsulot

birligining tannarxi bir xil bo'ladi.

Birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sotish narxi har xil bo'lsa, mahsulot har bir turi birligi tannarxi bir xil bo'lishini nazarda tutish shunga olib keladiki, qandaydir mahsulotga katta foyda, boshqalariga zarar ko'rsatiladi. Agar kompleks ishlab chiqarishning natijasi suyuq va qattiq mahsulot bo'lsa, natural ko'rsatkichlardan foydalanish usuli shartli natural birlikni joriy etishni talab qiladi.

Natural ko'rsatkichlar usulidan foydalanishning asosiy afzalligi uning qulayligidir, biroq bu qulaylik usulning ko'p sonli kamchiliklari oldida yo'qqa chiqadi.

Agar mahsulot yana qayta ishlanadigan bo'lsa, bu holatda kompleks chiqimlarni taqsimlashning quyidagi usullari qo'llaniladi.

1. Mumkin bo'lgan sof sotish qiymati usuli
2. Yalpi foydadan doimiy ulush usuli

3) *Sof sotish qiymati usuli*⁶³

Kompleks xarajatlar sof sotish qiymati asosida taqsimlanadi. Sotish sof qiymatini aniqlash uchun ajralish nuqtasidan keyingi qo'shimcha xarajatlarni sotish narxidan olib tashlash lozim.

Kompleks xarajatlar, sh.b.					30 000
Alohida xarajatlar, sh.b.:					
A Mahsulot					16000
B Mahsulot					24000
	Birliklar miqdori	Tayyor mahsulotni sotish narxi, sh.b	Sotish qiymati, sh.b.	Alohida xarajatlar, sh.b.	Sof sotish qiymati, sh.b.
A Mahsulot	1600	25	40000	16000	24000
B Mahsulot	800	50	40000	24000	16000
Jami					40000

A Mahsulotga taqsimlangan 30 000 sh.b. x (24 000 sh.b. / 40 000 sh.b.) = 18

⁶³ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.585

000 sh.b.

B Mahsulotga taqsimlangan 30 000 sh.b. x (16 000 sh.b. / 40 000 sh.b.) = 12

000 sh.b.

Taqsimlangan jami kompleks xarajatlar 30 000

sh.b.

4) Yalpi foyda doimiy ulushi usuli⁶⁴

Bu usulda kompleks ishlab chiqarish xarajatlari yalpi foydaning umumiy foizi mahsulotning har bir turi uchun bir xil qilib taqsimlanadi. Bu usul quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yalpi foyda foizini hisoblash.
2. Sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash va kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash.

Misol:

Kompleks xarajatlar, sh.b.		30 000	
Alohida xarajatlar, sh.b.:			
A Mahsulot		16 000	
B Mahsulot		24 000	
		40 000	
	Birliklar soni	Tayyor mahsulotni sotish narxi, sh.b.	Sotish qiymati, sh.b.
A Mahsulot	1600	25	40 000
B Mahsulot	800	50	40 000
Jami			80 000

1. Yalpi foyda foizini hisoblash.

Sotish qiymati, sh.b.	80 000 sh.b.
Minus kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va alohida qilingan xarajatlar, sh.b.	70 000 sh.b.
Yalpi foyda, sh.b.	10 000 sh.b.
Yalpi foyda foizi	12,5 %

⁶⁴ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.593

2. Sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash va kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash

	A Mahsulot, sh.b.	B Mahsulot,sh.b	Jami, sh.b.
Sotish qiymati	40000	40000	80000
<i>Minus</i> Yalpi foyda, 12,5 %	5000	5000	10000
Sotilgan mahsulot tannarxi	35000	35000	70000
<i>Minus</i> Alohida xarajatlar	16000	24000	40000
Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari	19000	11000	30000

Bu usuldan foydalanilgandagi yagona gumon (taxmin) shundan iboratki, yakka darajada har bir mahsulot bo'yicha xarajatlar va savdo hajmi o'rtasida bir xil o'zaro bog'liqlik nazarda tutiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda kamdan-kam kuzatiladi.

(Mahsulotga taqsimlangan xarajatlar bu usuldan foydalanganda hamisha ijobiy bo'lmaydi. Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari ba'zi mahsulotlarga manfiy belgi bilan o'tadi)

29.3. Qo'shimcha mahsulotni hisobga olish

Kompleks va qo'shimcha mahsulotlar hamda chiqindilar o'rtasidagi tafovut ularning nisbiy qiymatidan iborat.

Qo'shimcha mahsulot – bu kompleks ishlab chiqarish natijasidir. Ular birgalikdagi mahsulot yoki asosiy mahsulotning sotilgan qiymatiga nisbatan ancha past qiymatga ega bo'ladi. Bunga paxtani qayta ishlash chog'idagi tola (asosiy mahsulot) va chigit po'yloq (qo'shimcha mahsulot), benzin ishlab chiqarishda kerosin va bitum bunga misol bo'la oladi.⁶⁵

Chiqindilar bilan qo'shimcha mahsulotlarni aniq chegaralab qo'yish mumkin emas. Qo'shimcha mahsulot:

- a) chiqindiga nisbatan bozorda katta qiymatga ega;

⁶⁵ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.605

b) ko'pincha keyingi texnologiya jarayonining ob'ekti bo'ladi, chiqitlar esa darhol sotilishi shart, degan fikrlar bor.

Qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilarni hisobga olish asoslari bir xil. Asosiy mahsulot xarajatlarini qo'shimcha mahsulotlarning yoki chiqitlarning bozor qiymatiga kamaytirish eng yaxshi usul hisoblanadi.

Qo'shimcha mahsulot daromadlari yoki sof daromadlari (qo'shimcha mahsulotni sotishdan olingan daromad miqdori minus ajralish nuqtasidan keyingi ishlov berishga qo'shimcha xarajatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan yoki ishlab chiqarish qo'shimcha mahsulot olishga imkon beradigan asosiy mahsulot tannarxidan chiqarib tashlanadi.

Qo'shimcha mahsulotlarni hisoblashning ikki usuli mavjud:

1) Sotishdan tushgan sof daromadni qo'shimcha mahsulotning haqiqatan sotilishiga qarab taqsimlash. Bu usulda qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushgan pul sotish paytidagi daromad sifatida kirim qilinadi.

2) Sotishdan olingan sof daromadni haqiqatan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulotga qarab taqsimlash. Bu usulda qo'shimcha mahsulotdan olingan daromad ishlab chiqarishni tugallash paytidagi kompleks xarajatlarni aks ettiradigan schetda kirim qilinadi.

Misol.

A mahsulotni ishlab chiqarish chog'ida ishlab chiqarish jarayonining oxirida V qo'shimcha mahsulot hosil bo'ladi. 1 davrda quyidagi ma'lumot olingan:

Ikki mahsulot ajralguncha mahsulotga xarajatlar, \$	60000
Davrdagi ishlab chiqarish:	
A Mahsulot, birlik	20000
V Qo'shimcha mahsulot, birlik	4000
V mahsulot ajralgach qo'shimcha mahsulotga ishlov berishga xarajat (4000 b. har biri \$ 0,1/b.)	400
Davrda sotildi:	
A Mahsulot, 15000 birlik	\$ 5/b.
V Qo'shimcha mahsulot, 2000 birlik	\$ 1/b.

Qo'shimcha mahsulotning haqiqatan sotilishiga qarab qo'shimcha mahsulotni hisobga olish:

1. Asosiy mahsulot bir donasining tannarxi qo'shimcha mahsulot sotilmaydigani nazarda tutib aniqlanadi. Buning uchun kompleks chiqimlar asosiy mahsulotga o'tkaziladi: $60000/20000 = \$ 3/b$.

2. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot tuzish chog'ida sotilgan mahsulotning tannarxidan qo'shimcha mahsulotni sotishdan olingan sof tushum olinadi va shu bilan asosiy mahsulotga o'tkazilgan xarajatlar kamaytiriladi:

Qo'shimcha mahsulotni sotishdan olingan sof tushumni hisoblash:

$$2000*(1-0,1) = \$ 1800$$

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot:

Ko'rsatkichlar	Summa
1. Sotish	$15000*5=75000$
2. Sotilgan mahsulot tannarxi	$15000*3 - 1800 = 43200$
3. Yalpi daromad	31800

Qo'shimcha mahsulotni uning haqiqatan ishlab chiqarilishiga qarab hisoblash⁶⁶.

1. Ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulotning taxmin qilingan sof sotish qiymati aniqlanadi $\{4000*(1-0,1) = \$3600\}$.

2. Kompleks chiqimlar kelgusidagi taxminiy sotish qiymati miqdoriga kamaytiriladi ($60000 - 3600 = \$ 56400$).

3. Asosiy mahsulot bitta birligining tannarxi qo'shimcha mahsulotdan kelgusida olinadigan sof tushumni hisobga olgan holda aniqlanadi ($56400/20000 = \$ 2,82/b$). Asosiy mahsulot shu tannarx bo'yicha sotish uchun hisobdan chiqariladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot:

Ko'rsatkichlar	Summa
1. Sotish	$15000*5 = 75000$

⁶⁶ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.614

2. Sotilgan mahsulot tannarxi	15000*2,82 = 42300
3. Yalpi daromad	32700

1- va 2- usuldan birini tanlash savdo kon'yukturalariga bog'liq. Sotilmagan qo'shimcha mahsulotning sotilishini kafolatlab bo'lmasa va bozor narxlari foyda keltirmasa, mahsulot sotib bo'lingunga qadar sof daromadni e'tirof etmaslik kerak. Ishlab chiqarish bosqichida sof daromadni tan olishning asosiy nuqsoni shuki, bu foydani vaqtdan oldin tan olishga olib keladi, lekin bu foyda miqdori kam bo'lsa, uni e'tiborga olmasa bo'ladi.

Topshiriq:

9-1. «Sanshayn Oyl» kompaniyasi tozalanmagan o'simlik yog'ini sotib oladi. Shu yog' tozalangandan so'ng ajralish nuqtasida to'rt xil mahsulot: A, V, S va D hosil bo'ladi, S mahsulot ajralish nuqtasida to'la sotiladi. A, V va D mahsulotlarni yanada tozalash va «A super», «V super» va «D super» mahsulotlarni olish mumkin. So'nggi oyda (dekabrda) ajralish nuqtasida olingan mahsulot quyidagicha bo'ldi:

A Mahsulot	300 000 litr
V Mahsulot	100 000 litr
S Mahsulot	50 000 litr
D Mahsulot	50 000 litr

Tozalanmagan yog'ni sotib olishga va qayta ishlashga jami xarajatlar 100 000 sh.b.ni tashkil qildi. «Sanshayn Oyl» kompaniyasida shu oy boshida va oxirida zahira yo'q edi. Dekabrda S mahsulot 50 000 sh.b.ga sotildi. A, V va D mahsulotlarni tozalash davom ettirildi va shundan so'ng ular ham sotildi. Dekabr oyida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

	«Super» mahsulotlar olish maqsadida qayta ishlashga bo'linadigan xarajatlar	<i>Daromad</i>
A super	200 000 sh.b.	300 000 sh.b.
V super	80 000	100 000
D super	90 000	120 000

«Sanshayn Oyl»da A, V va D mahsulotlarni ajralish nuqtasida sotish

imkoniyati bor edi. Bu imkoniyatdan foydalanish dekabrda savdodan quyidagicha daromad keltirar edi:

A Mahsulot	50,000 sh.b.
V Mahsulot	30,000
D Mahsulot	70,000

Talab qilinadi: 1. 100 000 sh.b. miqdoridagi kompleks xarajatlarni taqsimlash uchun qo'yidagi usullardan foydalanib dekabr oyda sotilgan har bir mahsulot bo'yicha yalpi mahsulotning solishtirma foizini hisoblang:

- a. Ajralish nuqtasida sotish qiymati usulida;
- b. Natural ko'rsatkichlari usulida;
- c. Sof sotish qiymati usulida.

2. «Sanshayn Oyl» A, V yoki D mahsulotlarni qayta ishlashni davom ettirish to'g'risida boshqa qaror qabul qilib, operatsiya foydasini ko'paytira olarmidi? Siz tavsiya qilgan o'zgarishlarning operatsiya foydasiga ta'sirini ko'rsating.

9-4. «Garrison» korporatsiyasi uch xil mahsulot ishlab chiqaradi: Alfa, Beta va Gamma. Alfa va Gamma kompleks mahsulot, Beta esa Alfaga qo'shimcha mahsulot. Kompleks xarajatlar qo'shimcha mahsulotga taqsimlanmaydi. Yil davomida ishlab chiqarish jarayonlari quyidagicha:

1. 1- tsexda 110 000 kg asosiy material qayta ishlanadi va qayta ishlashga umumiy xarajatlar 120 000 sh.b.ni tashkil qiladi. Qayta ishlangandan so'ng 1- tsexdan 60 % birlik 2- tsexga o'tkaziladi, 40 % birlik (endi bu Gamma) 3- tsexga o'tadi.

2. 2- tsexda material yana qayta ishlanadi va qo'shimcha 38 000 sh.b. xarajat qilinadi. So'ngra bu birliklarning 70 % (endi bu Alfa) 4- tsexga o'tkaziladi, va 30 % qo'shimcha Beta mahsulotga aylanadi va har kilogrammi 1.20 sh.b. bo'yicha sotiladi. Betani sotishga taqsimlanadigan xarajatlar 8 100 sh.b.ni tashkil qiladi.

3. 4- tsexda Alfaga ishlov beriladi va qo'shimcha 23 660 sh.b. xarajat qilinadi. Shu ishlovdan so'ng Alfa xar kilogrammini 5.00 sh.b. bilan sotishga tayyor bo'ladi.

4. 3- tsexda Gammaga ishlov beriladi va bunga 165 000 sh.b. xarajat

qilinadi. Bu tsexda Gamma me'yoriy kamayadi, kamayish chiqariladigan sifatli Gamma mahsulotning 10 % ni tashkil qiladi. Sifatli Gamma mahsulot so'ngra har kilogrammi 12.00 sh.b. dan sotiladi.

Talab qilinadi: 1. Kutilayotgan sof sotish qiymati usulidan foydalanib, kompleks xarajatlarni Alfa va Gamma o'rtasida taqsimlash jadvalini tayyorlang. Betaning kutilayotgan sof sotish qiymati birinchi tsexning 120 000 sh.b.ni tashkil qiluvchi kompleks xarajatlari kamaytiriladigan miqdor bo'ladi.

2. 1 – topshiriqqa javobingiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar, 102 000 sh.b. umumiy kompleks xarajatlar tegishli ravishda Alfaga taqsimlangan deb tasavvur qiling. Yana sotishga tayyorlab qo'yilgan 48 000 kilogramm Alfa va 20 000 kilogramm Beta mavjudligini tasavvur qiling. Quyidagi faktlarga asoslanib, Alfadan olinadigan yalpi foydaga qadar moliya-xo'jalik faoliyatining natijalari to'g'risida hisobot tayyorlang:

a. Yil davomida sotilgan Alfa sotishga tayyorlab qo'yilgan kilogrammlar miqdorining 80 % ini tashkil qildi. Davr boshida qoldiq yo'q edi.

b. Sotishga tayyorlab qo'yilgan Betaning kutilayotgan sof sotish qiymati Alfani ishlab chiqarish xarajatlaridan chiqarib tashlanishi lozim. Davr oxirida Alfa zahiralarning qiymati ishlab chiqarishga sof xarajatlarga asoslanishi kerak.

c. Xarajatlar va sotish bahosi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar yuqoridagi A – D punktlarida berilgan.

9-5. Quyidagi stsenariyni ko'rib chiqing. Qassob har kuni vazni 200 kilogrammlik cho'chqani 300 sh.b.ga sotib oladi. Cho'chqani so'yib quyidagi mahsulotlarni olish mumkin:

Sotiladigan narxi	Bir kilogrammi	Vazni
Lahm go'sht	4,00 sh.b.	30
Son	3,00 sh.b.	50
To'sh	1,60 sh.b.	100
Cho'chqa tuyog'i	1,00 sh.b.	15
Teri	10,00 sh.b.	5

		200
--	--	-----

1-kun. Qassob cho'chqa xarid qiladi. Cho'chqaga 300 sh.b. miqdoridagi kompleks xarajatlarni mahsulotlarga ularning nisbiy vazniga qarab taqsimlanadi.

Sotish narxi	Vazni (kg)	Daromad	-	Taqsimlangan kompl. xarajat	=	Operats. Foydasi
--------------	------------	---------	---	-----------------------------	---	------------------

2-kun Qassob xuddi shunday cho'chqani sotib oladi va cho'chqa tuyoqlarini ular zarar keltirgani uchun tashlab yuboradi. Endi undan jami 185 kg mahsulot chiqadi.

	Sotish narxi	Vazni (kg)	Daromad	-	Taqsimlangan kompleks xarajat	=	Operats. foydasi
Lahm go'sht	4,00 sh.b.	30	120 sh.b.	-	48,65 sh.b.	=	71,35
Son	3,00	50	150	-	81,08	=	68,92
To'sh	1,60	100	160	-	162,16	=	(2,16)
Teri	10,00	5	50	-	8,11	=	41,89
			480 sh.b.	-	300,00 sh.b.	=	180,00

3-kun Qassob xuddi shunday cho'chqani sotib oladi va zarar keltiradigan bo'lgani uchun cho'chqa tuyoqlarini va to'shini tashlab yuboradi. Endi undan 85 kg mahsulot chiqadi.

	Sotish narxi	Vazni (kg)	Daromad	-	Taqsimlangan kompleks xarajat	=	Operats. foydasi
Lahm go'sht	4,00 sh.b.	30	120 sh.b.	-	105,88 sh.b.	=	14,12
Son	3,00	50	150	-	176,47	=	(26,47)
Teri	10,00	5	50	-	17,65	=	32,35
			320 sh.b.	-	300,00 sh.b.	=	20,00

4-kun Qassob shunday cho'chqani sotib oladi va foyda chiqmagani uchun cho'chqa tuyoqlari, to'shi va sonini tashlab yuboradi. Endi cho'chqadan 35 kg mahsulot chiqadi.

	Sotish narxi	Vazni (kg)	Daromad	-	Taqsimlangan kompleks xarajat	=	Operats. foydasi
Lahm go'sht	4,00 sh.b.	30	120 sh.b.	-	257,14 sh.b.	=	(137,14)
Teri	10,00	5	50	-	42,86	=	7,14
			170 sh.b.	-	300,00 sh.b.	=	(130,00)

5-kun Qassob xuddi shunday cho'chqani sotib oladi va har bir mahsulot foyda bermagani uchun hammasini tashlab yuboradi. Endi undan 5 kg mahsulot chiqadi.

	Sotish narxi	Vazni (kg)	Daromad	-	Taqsimlangan kompleks xarajat	=	Operats. foydasi
Teri	10,00	5	50	-	300 sh.b.	=	(250)

6-kun Qassob xuddi shunday cho'chqani sotib oladi va zararli bo'lgani uchun hammasini tashlab yuboradi. Demak u 300 sh.b. zarar ko'radi.

Talab qilinadi: 1. Yuqorida keltirilgan qarorlar turkumini sharhlang.

2. Ajralish nuqtasidagi qiymat usulidan foydalanganda kompleks xarajatlar bu besh mahsulotga qanday taqsimlanadi?

3. Alohida mahsulotlarni sotish kerakmi yoki sotish kerak emasmi, buni aniqlash uchun 2-masaladagi operatsiya foydasi miqdoridan foydalanish lozimmi?

9-6. «Prinses» korporatsiyasi olma etishtiradi va uni qayta ishlab, uch xil kompleks mahsulot: (a) pishiriqda ishlatiladigan yaproq-yaproq kesilgan olma,

(b) olma pyuresi

(v) olma sharbati ishlab chiqaradi, idishlarga joylab sotadi.

Olma po'sti hayvonlarga qayta ishlangan em, qo'shimcha mahsulot sifatida hisobga olinadi. «Prinses» kompleks jarayon xarajatlarini o'z kompleks mahsulotlariga taqsimlash uchun kutilayotgan sotish sof qiymati usulidan foydalanadi. Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgandan so'ng kutilayotgan sotish qiymati bo'yicha schetda tan olinadi. Ajralish nuqtasigacha bo'lgan kompleks ishlab chiqarish xarajatlari qo'shimcha mahsulotning kutilayotgan sof sotish qiymati miqdoriga kamaytiriladi.

«Prinses» kompaniyasidagi ishlab chiqarish jarayoni to'g'risida quyidagi axborot mavjud:

- Tozalash tsexida olma yuviladi, po'sti archiladi. So'ngra urug' qismi olib tashlanadi, va yaproq qilib to'g'ralishga tayyorlanadi. Tozalash tsexida ishlangandan so'ng uchta kompleks mahsulot va qo'shimcha mahsulot turlicha bo'lib ajraladi. So'ngra barcha mahsulotlar so'nggi ishlov berish uchun alohida tsexlarga o'tkaziladi.

- Qirqishga tayyorlab qo'yilgan olmalar qirqish tsexiga tushadi, bu erda yaproq qilib qirqiladi va muzlatiladi. Qirqish chog'ida chiqqan olma sharbati ham qo'shib muzlatiladi.

- Olmani qirqishga tayyorlash jarayonida olingan olma bo'laklari maydalash tsexida qayta ishlanib, olma pyuresiga aylantiriladi. Shu jarayon davomida olinadigan olma sharbati pyureda foydalaniladi.

- Sharbatni ezib chiqarish tsexida olmaning urug'li qismi va tozalash tsexida olingan boshqa parchalari sharbat olish uchun eziladi. Yo'qotish shu tsexda olinadigan mahsulotning 8% tashkil etadi.

- Olma po'sti hayvonlar uchun ozuqa qilib maydalanadi va ozuqa tsexida paketlarga joylanadi. Bu ozuqa talab paydo bo'lguncha past haroratda saqlanadi.

Noyabrda tozalash tsexida 270 000 kg olmaga ishlov berildi. Quyidagi jadvalda har bir tsexda qilingan xarajatlar, pirovard qayta ishlash uchun to'rtta tsexga o'tkazilgan mahsulotlarning mutanosib vazni va har bir pirovard mahsulotni sotish narxi keltirilgan.

Qayta ishlash to'g'risidagi ma'lumotlar va xarajatlar

Tsex	Vujudga kelgan xarajatlar	Tsexlarga o'tkazilgan mahsulotlarning mutanosib og'irligi	Oxirgi qoldiq mahsulotning har kg.ni sotish narxi
Tozalash	60 000 sh.b.		
Qirqish	11280	33 %	0,80 sh.b.
Maydalash	8550	30	0,55
Sharbat chiqarish	3000	27	0,40

Ozuqa	700	10	0,10
Jami	83 530 sh.b.	100 %	

Talab qilinadi: 1. 2017 yil noyabr oyi bo'yicha quyidagilarni hisoblang:

a. Yaproq qilib qirqilgan olma, olma pyuresi, olma sharbati va hayvonlar uchun ozuqa chiqishi, kilogramm hisobida.

b. Har bir mahsulotning ajralish nuqtasida kutilayotgan sof sotish qiymati.

c. «Printsess» kompaniyasining tozalash tsexi bo'yicha xarajatlar summasini yuqorida aytilgan xarajatlarni taqsimlash usuli bo'yicha har bir kompleks mahsulotga tegishlilikini, shartli birlikda

d. Har bir kompleks mahsulot bo'yicha solishtirma yalpi foydasi, sh.b. hisobida.

2. Har bir kompleks mahsulot bo'yicha solishtirilgan yalpi foyda to'g'risidagi axborot rejalashtirish va nazorat maqsadlari uchun (zaxiralar tannarxini kalkulyatsiyalash maqsadlaridan farqli ravishda) raxbariyat uchun muximligini sharhlab bering.

9-7. (9-6 topshiriqning davomi).

«Prinses» korporatsiyasi xayvonlar uchun ozuqani qo'shimcha mahsulot sifatida tasnif qiladi. Ishlab chiqarishdan so'ng qo'shimcha mahsulot kutilgan sotish qiymati schetida e'tirof etiladi. Ajralish nuqtasigacha bo'lgan kompleks ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotni sotishning sof qiymati miqdoriga kamaytiriladi. 1-yilga qadar «Prinses» kompaniyasi hayvonlar uchun ozuqanigina emas, olma sharbatini ham qo'shimcha mahsulot hisoblagan. Bu qo'shimcha mahsulotlar sotilmaguncha hisobda e'tiborga olinmas edi. Ularni sotishdan olingan daromad moliya-xo'jalik faoliyatining natijalari to'g'risidagi hisobotda daromad moddasi sifatida aks ettiriladi.

«Prinses» korporatsiyasi o'z menejerlarining mehnatiga haq to'lash uchun samaradorlikni baholash usuli bilan boshqarishdan foydalanadi. Har olti oyda menejerlar oldiga daromadga operatsiya foydasi koeffitsientini oshirish maqsadi qo'yiladi. Agar maqsadga erishilmasa, ular hech qanday foyda olishmaydi, agar maqsadga erishilgan bo'lsa yoki erishilayotgan bo'lsa, belgilangan mukofotni

olishadi.

Talab qilinadi: 1. «Prinses» kompaniyasining menejerlari vaqt o'tishi bilan o'z mukofotlarini ko'paytirishni ko'zlashayotgan bo'lsa, menejerlar qo'shimcha mahsulot uchun qanday usulni (1-yilda foydalanilgan usulni yoki 2-yildagini) afzal ko'rishadi?

3. Olma mahsulotlari bo'yicha menejer o'z mukofotini ko'paytirish uchun hisob tizimini suyuiste'mol qilmayotganini bosh buxgalter qanday tekshirishi mumkin?

Takrorlash uchun savollar

- 1) *Kompleks yoki qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirib bering?*
- 2) *Qo'shma mahsulotlar deganda nimani tushunasiz?*
- 3) *Ajralish nuqtasi deganda nimani tushunasiz?*
- 4) *Alohida xarajatlar deganda nimani tushunasiz?*
- 5) *Qo'shimcha mahsulotlar deganda nimani tushunasiz?*
- 6) *Xarajatlarni taqsimlash usullarini tushuntirib bering?*
- 7) *Sotishga asoslangan usul deganda nimani tushunasiz?*
- 8) *Natural ko'rsatkichlar usuli deganda nimani tushunasiz?*
- 9) *Sof sotish qiymati usuli deganda nimani tushunasiz?*
- 10) *Yalpi foyda doimiy ulushi usulini tushuntirib bering?*

30-BOB. XARAJATLARNI TO'LA TAQSIMLAB VA O'ZGARUVCHAN XARAJATLAR BO'YICHA TANNARXNI KALKULYATSIYA QILISH USULI

30.1. Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish bilan tannarxni o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish o'rtasidagi tafovutlar.

30.2. Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalashning foyda miqdoriga ta'sirini qiyoslash.

30.3. Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiyalashni quvvatlovchi dalillar.

Tayanch so'z va iboralar: direkt-kosting, veribl-kosting, Marjinal moliyaviy hisobot, Xarajatlar, xarajatlarni taqsimlash, sotishga o'zgaruvchan xarajatlar, natural ko'rsatkichlar, sof sotish qiymati.

30.1. Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish bilan tannarxni o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish o'rtasidagi tafovutlar.

Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish (abzorpshen-kosting) – bu mahsulot tannarxini sotilgan mahsulotlar va omborda mahsulot qoldig'i o'rtasidagi barcha ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlab kalkulyatsiyalash usulidir, ya'ni bu usuldan foydalanganda doimiy ishlab chiqarish sarflari zahira sig'imi bo'ladi. Kalkulyatsiyadan tashqi foydalanuvchilar uchun foyda va zarar to'g'risida hisobot tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalash (direkt- yoki

veribl-kosting).⁶⁷ Bu usulda faqat o'zgaruvchi ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga xarajat sifatida talqin qilinadi (zahira sig'imli xarajatlar), doimiy ishlab chiqarish xarajatlari esa davr xarajatlariga tegishli hisoblanadi. Direkt-kostingdan foydalanib tayyorlangan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot ichki hisobot sifatida qo'llaniladi. Bu hisobotda marjinal daromad ko'rsatiladi, bu daromad barcha o'zgaruvchi xarajatlar bilan daromadlar o'rtasidagi tafovutdan iborat.

Quyida xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiyalash (abzorpshen-kosting) va o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha (direkt- yoki veribl-kosting) kalkulyatsiyalashdan foydalanib tayyorlangan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlar keltirilgan.

Foyda va zararlar to'g'risida hisobot (abzorpshen-kosting), sh.b.

Sotishdan tushgan daromad	1 000
<i>Minus</i> Sotilgan mahsulot tannarxi (barcha ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi)	<u>600</u>
Yalpi foyda	400
<i>Minus</i> Ma'muriy sarflar va sotish bo'yicha sarflar (doimiy va o'zgaruvchi)	<u>300</u>
Operatsion foyda	<u>100</u>

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (direkt-kosting)¹, sh.b.

Sotishdan tushgan daromad	1 000
<i>Minus</i> O'zgaruvchi ishlab chiqarish xarajatlari (bevosita materiallar, to'g'ri mehnat, o'zgaruvchi ishlab chiqarish ustama sarflari)	<u>360</u>
<i>Minus</i> O'zgaruvchi ma'muriy sarflar va savdo sarflari	<u>120</u>
Marjinal daromad	520
<i>Minus</i> Doimiy xarajatlar:	
Doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari	240
Doimiy ma'muriy sarflar va sotish sarfi	<u>180</u>
Operatsion foyda	<u>100</u>

⁶⁷ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.630

¹ *Marjinal moliyaviy hisobot deb ham aytiladi*

30.2. Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalashning foyda miqdoriga ta'sirini qiyoslash

Shartlari	Foyda miqdoriga ta'sir
Ishlab chiqarish sotilgan mahsulotga teng	Agar ishlab chiqarilgan mahsulotning hammasi har bir davrda sotilsa, bu holda ikkala kalkulyatsiyadan foydalanganda operatsiya foydasi bir xil bo'ladi
Ishlab chiqarish sotilgan mahsulotdan ko'p	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining sotilgan mahsulot miqdoridan ko'p bo'lishi zahiralarining ko'payishiga olib keladi. Abzorpshen-kostingdan foydalanilganda doimiy IUXning bir qismi zahiradagi mahsulot birligining tannarxiga o'tadi. Direkt-kostingdan foydalanilganda barcha doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari shu davr sarflariga qo'shiladi. Shu sababli abzorpshen-kosting usulida hisoblangan foyda direkt-kosting bo'yicha hisoblangan foydadan ko'p bo'ladi.
Sotilgan mahsulot ishlab chiqarilgan mahsulotdan ko'p	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarilgan mahsulotdan ko'p bo'lishi zahiralarining kamayishiga olib keladi. Abzorpshen-kostingdan foydalanganda zahiradagi birliklarning tannarxiga o'tkazilgan doimiy ishlab chiqarish ustama sarflarining bir qismi sotilgan mahsulotning tannarxi sifatida sarflarga o'tadi. Direkt-kostingdan foydalanganda barcha doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari ular sodir bo'lgan davrning xarajatlariga qo'shilgan. Shu sababli abzorpshen-kostingda olingan foyda direkt-kosting bo'yicha hisoblangan foydadan kam bo'ladi.

Misol:

Quyida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniya bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Axborot uch davrni o'z ichiga oladi.

Sotish narxi, sh.b.	10
Mahsulot birligida o'zgaruvchi ishlab chiqarish sarflari, sh.b.	6
Davrning doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari, sh.b.	300
Noishlab chiqarish sarflari (ma'muriy, sotish sarflari – hammasi doimiy)	100

Birinci davr boshidagi zahiralari, birlik			0
	1-Davr	2-Davr	3-Davr
Sotish, birlik	150	140	160
Ishlab chiqarish, b.	150	170	140

Doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari davrdagi 150 b. hajmidagi mahsulotga taqsimlanadi. Zahiradagi mahsulot birligining tannarxi quyidagicha:

Direkt-kosting, 6 sh.b.
Abzorpshen-kosting, 8 sh.b.
(6 sh.b. + 300 sh.b./150 b.)

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (direkt-kosting), shartli birliklarda.

Ko'rsatkichlar	1-Davr	2-Davr	3-Davr
Sotilgan mahsulot, birlik	1500	1400	1600
Davr boshida tayyor mahsulot zahirasi	0	0	180
<i>Plyus</i> Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi	900	1020	840
<i>Minus</i> Davr oxirida tayyor mahsulot zahirasi	<u>0</u>	<u>180</u>	<u>60</u>
Sotilgan mahsulot tannarxi (o'zgaruvchi)	<u>900</u>	<u>840</u>	<u>960</u>
Marjinal daromad	600	560	640
Doimiy IUX	300	300	300
Noishlab chiqarish sarflari (ma'muriy va sotish sarflari)	<u>100</u>	<u>100</u>	<u>100</u>
Operatsion foyda	200	160	240

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (abzorpshen-kosting), shartli birliklarda

Ko'rsatkichlar	1-Davr	2-Davr	3-Davr
Sotilgan mahsulot, birlik	1500	1400	1600
Davr boshida tayyor mahsulot zahirasi	0	0	240
<i>Plyus</i> Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi	1200	1360	1120
<i>Minus</i> Davr oxirida tayyor mahsulot zahirasi	<u>0</u>	<u>240</u>	<u>80</u>
Tuzatishga qadar sotilgan mahsulot tannarxi	<u>1200</u>	<u>1120</u>	<u>1280</u>

Plyus Taqsimlanmagan IUX	0		20 ³
Minus Ortiqcha taqsimlangan IUX		(40) ²	
Tuzatish kiritilgach sotilgan mahsulot tannarxi	1200	1080	1300
Yalpi foyda	300	320	300
Noishlab chiqarish sarflari (ma'muriy va sotish sarflari)	<u>100</u>	<u>100</u>	<u>100</u>
Operatsion foyda	200	220	200

² Haqiqiy doimiy IUX 300 sh.b. Doimiy IUXdan 340 sh.b. mahsulotga o'tkazilgan (170 b. x 2 sh.b.). Ortiqcha taqsimlangan IUX - (40 sh.b.) (300 sh.b. - 340 sh.b.)

³ Haqiqiy doimiy IUX 300 sh.b. Doimiy IUXdan 280 sh.b. mahsulotga o'tkazilgan (140 b. x 2 sh.b.). Taqsimlanmagan IUX - 20 sh.b. (300 sh.b. - 280 sh.b.)

Foydani solishtirish

Ko'rsatkichlar	1-Davr	2-Davr	3-Davr
Abzorpshen-kosting, sh.b.	200	220	200
Direkt-kosting, sh.b.	200	160	240
Farqi	0	60 ⁴	(40) ⁵

⁴ (170 b.-140b.) x 2 sh.b./b. =60 sh.b.

⁵ (140 b.-160b.) x 2 sh.b./b.=(40) sh.b.

30.3. Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilishni quvvatlovchi dalillar

Direkt-kosting:

- Qaror qabul qilish uchun foydali axborot bilan ta'minlaydi

Xarajatlarni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlarga ajratish ishlab chiqarish yoki komponentlarni xarid qilishga doir qarorlar qabul qilish uchun, mahsulot turlarini aniqlash uchun axborot olish imkonini beradi.

- Foydani zahiralar o'zgarishi ta'siridan holi qiladi.

Direkt-kostingdan foydalanilganda foyda mahsulotni sotish hajmiga bog'liq bo'ladi, abzorpshen-kostingdan foydalanilganda foydaga sotilgan mahsulot hajmi ham, ishlab chiqarish hajmi ham ta'sir qiladi. Shu sababli direkt-kosting zahiralar bilan nayrang qilishga yo'l qo'ymaydi va menejerlar ishini baholashga juda mos keladi.

Abzorpshen-kosting:

- Doimiy ishlab chiqarish xarajatlariga etarli e'tibor beradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (XMHS) doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini zahiralar qiymatiga qo'shishni talab qiladi. Tashqi maqsadlar uchun abzorpshen-kostingdan foydalanish moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z hisobotlarini XMHS bo'yicha tuzadigan boshqa kompaniyalarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslashni ta'minlashga imkon beradi.

- Hisobotda xaddan ortiq zararlar va foydani aks ettirishdan qochish imkonini beradi

Mavsumiy biznesda zahiralarini ko'paytirish davrida direkt-kostingdan foydalanilganda doimiy ishlab chiqarish xarajatlari davr xarajatlariga qo'shiladi. Shu sababli zahiralarini ko'paytirish davrida katta zarar qayd etiladi, tovarlarni sotish davrida katta foyda qayd etiladi. Abzorpshen-kostingdan foydalanilganda zararlar va foyda ancha barobarlashadi.⁶⁸

Topshiriq 8-1. AX kompaniyasi o'z mahsulotini har bir birligini 2 sh.b. bilan sotadi. Kompaniya tovar-moddiy zahiralar (TMZ)ni hisoblashning FIFO usulidan va haqiqiy kalkulyatsiyalash tizimidan foydalanadi. Ya'ni ishlab chiqarish doimiy ustama sarflarini taqsimlash koeffitsienti ishlab chiqarishning haqiqatan ustama sarflarini haqiqiy ishlab chiqarish xajmiga taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi. Quyidagi axborot kompaniya faoliyatining dastlabki ikki yiliga oiddir:

Ko'rsatkichlar	1 Yil		2 Yil	
Mahsulotni sotish	1 000 b.		1 200 b.	
Ishlab chiqarilgan mahsulot	1 400 b.		1 000 b.	

⁶⁸ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.643

Sarflar:				
Ishlab chiqarish:				
O'zgaruvchi	700 sh.b.		500 sh.b.	
Doimiy	700		700	
Tijorat:				
O'zgaruvchi	100		120	
Ma'muriy:				
Doimiy		400		400

Talab qilinadi: 1. Abzorpshen-kostingni qo'llanib, har yilgi foyda va zararlar to'g'risida hisobot tayyorlang

2. Direkt-kostingni qo'llanib, har yilgi foyda va zararlar to'g'risida hisobot tayyorlang

3. Yuqorida aytilgan usullardan foydalanish natijasida har yilgi olinadigan operatsion foydadagi farqni tushuntiring.

8-2. Mavis kompaniyasi standart xarajatlarga asoslangan abzorpshen-kosting usulidan foydalanadi. O'zgaruvchi ishlab chiqarish sarflari, materiallar sarflari qo'shilgan holda mahsulot birligi 3 sh.b. ni tashkil qildi; ishlab chiqarishning standart me'yori – bir soatda 10 birlik. Byudjet va haqiqiy doimiy ishlab chiqarish ustama sarflarining umumiy miqdori 420 000 sh.b.ni tashkil qiladi. Doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari soatiga 7 sh.b. stavkasi bo'yicha taqsimlandi. (420 000/60,000 soat baza hajmi). Har bir birlik narxi 5 sh.b. Tovarning sotilgan birliklari hisobiga o'tkazilgan o'zgaruvchi tijorat sarflari va ma'muriy sarflar mahsulot birligiga 1 shartli birlikka teng bo'ldi. Doimiy tijorat va ma'muriy sarflar 120 000 sh.b.ni tashkil etdi. 2-yil davri boshida TMZ 30 000 birlikni, davr oxirida – 40 000 birlikni tashkil qildi. 2 – yilda sotilgan mahsulot hajmi 540 000 birlik.

Mahsulot birligiga standart sarflar 1-yilda ham, 2-yilda ham o'zgarmadi. Sodda bo'lishi uchun narxda og'ishlar, xarajatlar bo'yicha og'ishlar yoki ishlab chiqarish unumida o'zgarishlar bo'lmadi, deb tasavvur qiling.

Talab qilinadi: 1. Barcha taqsimlangan va taqsimlanmagan ustama sarflar yil oxirida sotiladigan mahsulot tannarxi bo'yicha tuzatish sifatida hisobdan

chiqarilishini nazarda tutib, 2-yil uchun foyda va zararlar to'g'risida hisobot tayyorlang.

2. Kompaniya prezidenti direkt-kosting usuli mavjudligini eshitdi. U sizdan direkt-kostingdan foydalanilsa, 2-yil hisoboti qanday ko'rinishda bo'lishini ko'rsatishni so'radi.

3. 1- va 2-yil foydasidagi tafovutni izohlang.

4. Ishlab chiqarish doimiy ustama sarflari abzorshen-kostingda qanday hisobga olinishini ko'rsatadigan jadval tayyorlang. Ya'ni jadvalda ikki liniya bo'ladi, biri- byudjet doimiy ustama sarflari (ular haqiqatan qilingan sarf hisoblanadi), ikkinchisi taqsimlash koeffitsienti uchun. Taqsimlangan va to'la taqsimlanmagan doimiy ustama sarflar jadvalda qanday ko'rsatilishi mumkinligini ko'rsating.

8-3. 2-vazifa shartlaridan foydalanilsin.

Talab qilinadi: 1. Direkt-kostingda mahsulot birliklarida zarar bo'lmaydigan nuqtani aniqlang.

2. Abzorshen-kostingda mahsulot birliklarida zarar bo'lmaydigan nuqtani ko'rsating. Tushuntiring.

3. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bazaviy xajmga teng deb tasavvur qiling, lekin mahsulot sira sotilmagan. Doimiy sarflar o'zgarishsiz qolgan. Biroq tijorat sarflari va ma'muriy sarflar bo'lmagan deb tasavvur qiling. a) direkt-kostingdan va b) abzorshen-kostingdan foydalanib operatsiya foydasi miqdorini hisoblang. Javobdagi farqlarni izohlab bering.

8-4. Qattiq iqtisodiy tanazzul davri. Kompaniya filialining menedjeri nima qilishni bilmay qolgan. Uni bo'limi boshqaruv xarajatlariga xomiylik qilayotgan nazoratchi tashvishlantirmoqda, bu xarajatlar har qachongidan ko'p. Shu bilan bir vaqtda menejer ahvoldan chiqish uchun narxni kamaytirishga majbur bo'lmoqda.

Talab qilinadi: 1. Kompaniya ishlab chiqarish ustama sarflarini taqsimlash uchun foydalana oladigan bazaviy xajmni aniqlang.

2. Narx darajasini belgilash chog'ida sarflarga doir axborot yanada foydaliroq bo'lishi uchun ustama sarflar qanday taqsimlanishi lozim.

3. Ishlab chiqarishga sarflar, markaz taqdim etgan xarajatlar yillik TMZni kalkulyatsiyalash uchun qanoatlanarli bo'ladimi?

8-5. Schetlar bo'yicha quyidagi qoldiqlarni ko'rib chiqing: tugallanmagan ishlab chiqarish– 200 000 sh.b.; tayyor mahsulot – 800 000 sh.b.; sotilgan mahsulot tannarxi – 1 000 000 sh.b. Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha og'ish 50 000 birlikni tashkil qildi, bu qulay. Boshqa barcha og'ishlar - 330 000 sh.b., bu ko'ngilsiz. Kompaniya ma'muriyati barcha og'ishlarni tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va sotilgan mahsulot qiymati bo'yicha tuzatish kiritilmagan qoldiqlariga mutanosib taqsimlashga qaror qildi.

Talab qilinadi: 1. Og'ishlarni mutanosib taqsimlash rejasini tayyorlash.

2. Barcha og'ish schetlarini yopadigan jurnal provodkasini tayyorlash.

3. Haqiqatan qilingan sarflarni ishlab chiqarilgan mahsulotga yaqinlashtirishga urinish mutanosib taqsimlash foydasiga asosiy dalildir. Bu misolda mutanosib taqsimlash chog'ida qanday noaniqlikka yo'l qo'yish mumkin? Izohlab bering.

Takrorlash uchun savollar

1. *Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish bilan tannarxni o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish o'rtasidagi tafovutni tushuntirib bering?*

2. *Tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalash (direkt-yoki veribl-kosting)ga ta'rif bering?*

3. *Xarajatlarni to'la taqsimlab kalkulyatsiyalash va tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalashning foyda miqdoriga ta'sirini aniqlang?*

4. *Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilishni quvvatlovchi dalillarni tushuntirib bering?*

31-BOB. SMETA TUZISH.

31.1. Asosiy smeta ta'rifi va byudjet turlari.

31.2. Smeta tuzishning afzalliklari va kamchiliklari.

31.3. Asosiy smetani tuzish jarayonlari.

Tayanch so'z va iboralar: smeta, operativ reja, ma'muriy reja, strategik reja, byudjet, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, aloqa, rag'batlantirish, nazorat, baho, o'qitish, operativ byudjet, sotuv byudjeti, tijorat sarflari byudjeti, ishlab chiqarish byudjeti, mehnat sarflari byudjeti, moliyaviy byudjet, kapital sarflar byudjeti.

31.1. Asosiy smeta ta'rifi va budjet turlari

Rejalashtirish nazorat bilan bir qatorda boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan xarakatlarni aniqlash jarayonidir.

Byudjetni rejalashtirish bu jarayonning eng batafsil darajasi bo'lib, bu tashkilotning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha yoki faoliyat sohalari bo'yicha rahbariyat tasdiqlagan dasturlar asosida ishlab chiqilgan alohida byudjetlarni tayyorlash jarayonidir. Ba'zan bu atama ba'zan qabul qilingan strategiya doirasida korxonada rejalashtirishning taktik maqsadlarini tanlashning yaxlit tizimi, kompaniyaning kelgusidagi o'preatsiyalari rejasini (xarajatlar va daromadlar smetasini) ishlab chiqish va shu rejalar bajarilishini nazorat qilish, ya'ni mohiyat e'tibori bilan ichki moliyaviy boshqarish tizimi sifatida talqin qilinadi.

Rejalar quyidagicha turkumlanishi mumkin:⁶⁹

1. Operativ reja — bu firma maqsadlariga erishish bilan bevosita bog'liq taktik reja. Ular yillik yoki uch oylik byudjetlar sifatida tuzilgan qisqa muddatli rejalaridir. Ishlab chiqarish rejasi, moddiy-texnika ta'minoti rejasi, umumiy ishlab

⁶⁹ Management Accounting for Business Decisions, 2nd Edition, by Colin Drury, 2012 p.655

chiqarish sarflari rejasi operativ rejaga misol bo'la oladi.

2. Ma'muriy rejalar — bular tashkiliy tuzilmani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash rejasidir. Ularning maqsadi - rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bajarilishining kutilgan darajasiga erishish mumkin bo'lgan tashkilotni tuzishdir. Ular o'rtacha muddatli, har yili qayta ko'rib chiqiladigan rejalaridir.

3. Strategik rejalar — bu biznesni rivojlantirishning va tashkilot uzoq muddatli tuzilmasining bosh rejasidir. Tashkilot strategiyasi muntazam ko'rib chiqilmaydi, balki zarur bo'lganda, ya'ni yangi texnologiyani joriy etish, nufuzli iste'molchilar o'zgargan, yangi raqobatchi paydo bo'lgan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

Byudjetni (smetani) rejalashtirish

Byudjet boshqaruv nazorati tizimining asosiy vositasidir. Deyarli barcha kompaniyalar (eng kichiklaridan tashqari) byudjet tuzadi. Ko'p kompaniyalar foyda olish uchun ma'sul markazlar bo'yicha kompaniyaning rejalashtiriladigan faoliyatini ko'rsatuvchi foyda rejasini yillik byudjet deb qaraydi. Foyda olmaydigan tashkilotlar ham byudjet tuzadi.

Byudjet nazarda tutilgan xarakatlar bajarilganga qadar tuzilgan moliyaviy xujjatdir. Uni ko'pincha moliyaviy xarakatlar rejasi ham deyiladi. (Buni qiymat o'lchovida ifodalangan reja deb tushunsa bo'ladi). «Byudjet» atamasini tushunishning kaliti bu bir varaq qog'oz emas, undan ko'proq narsa ekanini, unda moliyaviy va boshqa ma'lumotlar borligini anglab etishdir. Bu ma'lumotlar kelgusida sodir bo'ladigan voqealar turkumini rejalashtiradi. Bu bo'lajak moliyaviy operatsiyalarning farazidir.

Byudjet turlari va shakllarining soni cheksiz. Tuzilgan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdan, buxgalteriya balansidan farqli ravishda byudjetning qat'iy rioya qilinadigan standart shakli yo'q. Byudjetning tuzilishi, byudjet nima haqdaligiga, tashkilotning katta-kichikligiga, byudjetni tuzish korxonaning moliyaviy tuzilishiga integratsiya qilinganiga, byudjet tuzuvchilarning malakasiga va tajribasiga bog'liq.

Byudjetdagi axborot aniq va ravshan bo'lishi lozim. Ortiqcha axborot

ma'lumotlarning ahamiyatini va aniqligini tushunishni qiyinlashtiradi. Axborotning etarlicha bo'lmasligi xujjatda qabul qilingan asosiy cheklashlarni va ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligini anglab etmaslikka olib kelishi mumkin. Byudjetda bir vaqtning o'zida daromadlar ham, xarajatlar ham bo'lmasligi mumkin, ular muvozanatli bo'lishi ham shart emas. Masalan, materiallardan foydalanish byudjetida xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlarning rejalashtirilgan sarflarigina ko'rsatiladi. Shuningdek, byudjet butunlay pul ifodasida tuzilmagan bo'lishi mumkin, unda mehnat soati, mahsulot birligi, xizmat miqdori kabi va boshqa o'lchovlardan foydalanishi mumkin.

Byudjetni tayyorlash chog'ida uning yaxshi ifodalangan nomidan yoki sarlavhasi va qaysi davrga mo'ljallanganidan boshlash zarur. Uni ishlab chiquvchilar byudjetni taqdim etishning haqiqiy shaklini yaratadilar. Kompaniya byudjetning o'z shaklini barpo etishi va undan muntazam foydalanishi mumkin. Agar byudjetda yangi mahsulot yoki yangi xizmat turi to'g'risida axborot zarur bo'lsa, bu xujjatning yangi tuzilmasi va shakli talab qilinishi mumkin. Lekin hamma vaqt ham asosiy qoidaga amal qilish zarur, ya'ni byudjetdagi mavjud axborot juda aniq, bu axborotdan foydalanuvchilar uchun imkon qadar muayyan va muhim bo'lishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotda byudjet ko'p hollarda ma'lum davrga, odatda bir yilga mo'ljallab, miqdor bilan, odatda pul bilan ifodalangan reja deb qaraladi.

Byudjet (smeta) — bu ma'lum davrga qadar tayyorlangan va qabul qilingan, odatda erishish lozim bo'lgan daromadning yoki shu davr ichida qilinishi lozim bo'lgan sarf-xarajatlarning hamda ushbu maqsadga erishish uchun jalb etish zarur bo'lgan kapitalning rejalashtirilgan miqdorini pul bilan ifodalangan miqdoriy rejasidir.

Tafsillashtirilgan byudjetlar ko'pincha kelgusi cheklangan davrga, odatda uzog'i bilan bir yilga tuzilib, ancha qisqa davrlarga: uch oy, bir oy yoki to'rt xaftalik davrlarga bo'linadi. Qisqa boshqaruvni nazorat qilish maqsadida qisqa muddatli davrga reja tuziladi. Nazorat davri oxirida joriy faoliyatni tahlil qilish va baholash uchun haqiqiy ma'lumotlar byudjetdagi ma'lumotlarga solishtiriladi. Shu

munosabat bilan turli oylardagi kunlar sonidagi tafovut bo'lmashligi uchun bir oylik davrni emas, balki to'rt haftalik davrni qiyoslash afzaldir. Kunlar miqdoridagi farq qiyoslash chog'ida ma'lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Amalda yillik byudjet ko'p hollarda yilning choraklari bo'yicha ishlab chiqiladi va faqat birinchi chorak oylar bo'yicha tafsillashtiriladi. Byudjetlar yil davomida vaziyatni hisobga olib o'zgartirilishi mumkin. Uzluksiz yoki davomli byudjetlar keng qo'llaniladi. Ularning mohiyati shundaki, oy yoki yil choragi tugallangan sari byudjetga navbatdagi tafsillashtirilgan byudjet qo'shiladi va shu tariqa uzluksiz ichki yillik rejalash ta'minlanadi. Umuman, byudjetni ishlab chiqishning davriyligi rejalashtiriladigan ma'lumotlar hajmiga va muayyan korxonaning ehtiyojiga qarab belgilanadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi texnika va yangi texnologiyani joriy etish kabi muhim o'zgarishlar bo'lgan qo'shimcha kapital sarflashni talab qiladigan hollarda byudjetlar besh yilga va undan ko'proq davrga tuziladi. Tobora ko'payib boradigan miqdordan byudjetda uzoq muddatli rejalashtirish vositasi sifatida foydalaniladi.

31.2. Smeta tuzishning afzalliklari va kamchiliklari

Byudjetlashtirishning afzalligi korxonada moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Byudjetlashtirishda asosiy e'tibor mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Byudjetlashtirishning quyidagi ijobiy jihatlari mavjud:

1. korxonaning asosiy maqsadini ta'minlashda xizmat qiladigan jarayonlarni rejalashtiradi;
2. alohida bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
3. korxonada bo'linmalari rahbarlarini o'z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga ko'maklashadi;

4. korxonada xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rioya qilishlarini ta'minlashga xizmat qiladi;

5. korxonada alohida bo'linmalari rahbarlarini belgilangan rejalarning bajarilish darajasini baholashlarida asos bo'ladi.

Byudjetlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- korxonaning maqsadlariga erishishini ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish;

- barcha darajadagi rahbarlarni o'zlari javobgar markazlar maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;

- turli xil bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo'linmalar xodimlarining manfaatlari e'tiborga olinadi;

- korxonada joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta'minlash;

- javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo'yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o'tash;

- menejerlar malakasini oshirishda ko'maklashish.

Quyida ushbu vazifalarga batafsilroq to'xtalamiz.

Rejalashtirish. Asosiy reja echimlari odatda dasturni tayyorlash jarayonida ishlab chiqiladi, byudjetni tayyorlash jarayonining o'zi ham mohiyat jihatidan bu rejalarga aniqlik kiritishdir. Bunda ayrim bo'linmalar bo'yicha yoki kompaniyaning vazifalari bo'yicha yaqin davrdagi operatsiyalarga aniqlik kiritiladi.

Muvofiqlashtirish va aloqa. Har bir ma'suliyat markazi boshqa ma'suliyat markazlariga ta'sir qiladi va o'zi ham ularning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Byudjetni ishlab chiqish jarayonida faoliyatning ayrim turlari tashkilotning barcha bo'linmalari korxonaning umumiy maqsadini amalga oshirib, o'zaro kelishib ishlaydigan tarzda muvofiqlashtiradi. Ishlab chiqarish rejalari marketing bo'limining rejasi bilan muvofiqlashtirilishi juda muhimdir, ya'ni rejalashtirilgan

sotuv hajmiga va tayyor mahsulotning pirovard zahiralarning istalgan darajasiga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish muhimdir. Materiallarni xarid qilish rejasi ishlab chiqarish byudjetida belgilangan mahsulot miqdorini ishlab chiqarishga asoslanishi kerak va xokazo.

Rahbariyat rejalari barcha ijrochilar bu rejalarning mazmunini tushunmagunlaricha bajarilmaydi. Ularda qancha xizmat va tovarlarni ishlab chiqarish zarur, qanday odamlardan, qanday usullardan foydalanish zarur; qancha xom-ashyo va materiallarni sotib olish zarur, sotish uchun qanday narx belgilash, kelgusida qanday siyosatga va qanday cheklashlarga amal qilish kerak? - shu kabi aniq bandler bo'ladi. Bunday axborotga reklamaga, texnik xizmat ko'rsatishga sarflanishi mumkin bo'lgan eng ko'p summa, ma'muriyat sarflari, ish haqi stavkasi va ish vaqti miqdori, mahsulot sifatining zarur darajasi misol bo'la oladi. Tasdiqlangan byudjet bu rejalardagi miqdor axborotini va mavjud cheklashlarni muvofiqlashtirish uchun eng muhim vositadir.

Rag'batlantirish. Byudjet tuzish jarayoni ma'suliyat markazlarining rahbarlarini shu markazlarning maqsadlarini amalga oshirishga, demak umuman korxonaga maqsadini amalga oshirishga rag'batlantirish uchun qudratli vositadir. Har bir rahbar o'zlarining ma'suliyat markazidan nimalarni kutishayotganini yaxshi bilishi lozim.

Agar menejerlar o'z bo'linmalari byudjetini ishlab chiqishda faol ishtirok etsalar, byudjetning rag'batlantiruvchi ahamiyati yanada ortadi. Bo'linmalar va vazifalar bo'yicha byudjetlarni ishlab chiqishda hamda kelgusi davr uchun asosiy umumiy byudjetni tayyorlashda boshqaruvning barcha darajalarining bevosita ishtirok etishi ijrochilar ishtirokida rejalashtirish deb ataladi.

Nazorat. Byudjet uni shakllantirish paytida istakdagi natijalar to'g'risidagi hisobotdir. Puxta tayyorlangan byudjet eng yaxshi standart bo'lib, haqiqatda erishilgan natijalar unga qiyoslanadi, chunki unda byudjetni ishlab chiqish chog'ida faraz qilingan barcha o'zgarishlar mujassamlashadi.

Yaqin vaqtgacha joriy natijalarni o'tgan davrning natijalari bilan yoki o'tgan yilning shu davri natijalari bilan qiyoslash umumiy tajriba edi. Ayrim

tashkilotlarda bunday tartib hozirga qadar taqqoslashning asosiy usulidir. Lekin bunday tarixiy standartlarning muhim kamchiligi bor, chunki ular bilan taqqoslaganda faoliyat yo'nalishlaridagi va joriy yilga rejalashtirilgan dasturlardagi o'zgarishlar hisobga olinmaydi.

Haqiqiy natijalarni byudjetdagi ma'lumotlarga taqqoslash boshqaruvchilarning e'tiborini birinchi navbatda nimalarga qaratish zarurligini va zarur boshqaruv xarakterlarini ko'rsatadi. Haqiqatda erishilgan natijalar va byudjetdagi ma'lumotlarning o'rtasidagi chetga chiqishlarni tahlil qilish:

1) Birinchi navbatda e'tibor berishni talab qiladigan muammoli sohani aniqlashda yordam beradi;

2) byudjetni ishlab chiqish jarayonida ko'zda tutilmagan yangi imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi;

3) dastlab tuzilgan byudjet ma'lum darajada real emasligini ko'rsatishi mumkin.

Baho. Har oyda byudjetdan chetga chiqish (og'ish)larni aniqlash butun yil davomida nazorat maqsadlariga xizmat qiladi. Bir yillik haqiqiy va byudjet ma'lumotlarini qiyoslash har bir ma'suliyat markazi va ularning rahbarlarining ishiga yil oxirida baho berishning asosiy omilidir. Ba'zi kompaniyalarda menejerlarga mukofot uning ma'suliyat markaziga ijobiy og'ishdan ma'lum foiz sifatida hisoblanadi. (Masalan, tejalgan materiallar, mehnatga haq to'lash fondidan foiz sifatida)

O'qitish. Byudjet menedjerlarni o'qitishning eng yaxshi vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Byudjetlarni tuzish o'z bo'linmalarining faoliyatini va o'z ma'suliyat markazining boshqa markazlar va umuman tashkilot bo'yicha o'zaro munosabatlarni batafsil o'rganishga yordam beradi. Bu esa ma'suliyat markazi rahbari lavozimiga yangi tayinlangan shaxslar uchun juda muhimdir. Yillik byudjetni yoki o'z ishi byudjetini ishlab chiqishda tajribasi bor har qanday odam bu jarayonning ta'lim tabiatini tushunishi mumkin.

Umumiy (asosiy) byudjet

Umumiy byudjet umuman tashkilot uchun barcha bo'linmalar bo'yicha yoki

vazifalar bo'yicha muvofiqlashtirilgan ish rejasidir. U ikki asosiy byudjetdan — operativ va moliyaviy byudjetdan iborat.

Operativ byudjet. U yana joriy, davriy byudjet deyiladi. Operativ byudjet kompaniyaning segmenti uchun yoki alohida vazifasi uchun kelgusi yilga rejalashtirilayotgan operatsiyalarni ko'rsatadi. Uni tayyorlash jarayonida faraz (prognoz) qilinayotgan sotuv va ishlab chiqarish hajmlari kompaniyaning ishlab turgan har bir bo'linmasi uchun daromadlar va xarajatlarning miqdoriy bahosiga aylanadi. Operativ byudjet foyda va zararlar to'g'risida byudjet (faraziy) hisobotini o'z ichiga oladi, o'z navbatida bu hisobot sotuv byudjeti (daromadlar byudjeti), ishlab chiqarish byudjeti (ishlab chiqarish xarajatlarning barcha asosiy elementlari bo'yicha ayrim byudjetlarda tafsillashtirilgan holda), tovar moddiy zahiralari byudjeti hamda tijorat va umumiy, ma'muriy sarflar byudjeti asosida tuziladi (shakllanadi).

A. Sotuv byudjeti. Sotuv hajmining farazi byudjetni tayyorlash butun jarayonining boshlang'ich va eng nozik paytidir. Sotuv rejasi yuqori rahbariyat tomonidan marketing bo'limini tadqiq qilish asosida aniqlanadi. Ko'p hollarda sotuv hajmi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari bilan cheklanadi. Sotuv hajmi byudjeti va uning tovar tuzilishi kompaniyaning butun faoliyati darajasini va xarakterini belgilash bilan birga boshqa byudjetlarning ko'piga ta'sir qiladi, chunki boshqa byudjetlar sotuv byudjetida belgilangan axborotga asoslanadi. Sotuv xajmi bahosini aniqlash va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq muammolar keyinroq batafsil ko'rib chiqiladi.

B. Tijorat sarflari byudjeti. Bu byudjetda kelgusi davrda xizmat va mahsulotni sotish bilan bog'liq barcha taxminiy sarflar tafsillashtiriladi. Komission haq va transport xarajatlari kabi ba'zi sarflar o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, reklama xarajatlari va katta nazoratchilarning ish haqi kabi ayrim sarflari doimiy sarflardir. Tijorat sarflari byudjetini tuzish va so'ngra uning ijrosi uchun sotuv bo'limi ma'suldir.

C. Ishlab chiqarish byudjeti. Sotuvning rejalashtirilayotgan hajmi natura ifodasida aniqlangandan so'ng rejalashtirilgan sotuvni va zahiralarning zarur

darajasini ta'minlash uchun ishlab chiqarish zarur bo'lgan mahsulot birligi va xizmat hajmini aniqlash mumkin bo'ladi. Rahbariyat avvalo tayyor mahsulotlar zahirasi darajasi oldingidek qoladimi yoki u ko'paytirilishi, yoxud kamaytirilishi lozimligini aniqlashi lozim. Davr oxirida tayyor mahsulot zahiralarning istalgan darajasi to'g'risidagi, byudjet davri boshlanishida mavjud mahsulot to'g'risidagi va sotuv birligi miqdori to'g'risidagi axborot asosida ishlab chiqarish jadvali ishlab chiqiladi.

D. Materiallarni xarid qilish, foydalanish byudjeti. Materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanishning rejadagi ehtiyoji bir hujjatda yoki alohida mustaqil byudjetlarda tayyorlanishi mumkin. Ko'plar yagona hujjatni afzal ko'radi. Bu hujjatda ishlab chiqarish rejalarini amalga oshirish uchun xarid qilish lozim bo'lgan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarning turlari miqdori, xarid muddati aniqlanadi. Materiallardan foydalanish ishlab chiqarish byudjetida va moddiy zahiralarning taxmin qilingan darajasida aniqlanadi. Materiallar birligi miqdorini shu materiallarga xarid va sotuv narxlariga ko'paytirilib, materiallarni xarid qilish byudjeti olinadi.

E. Mehnat sarflari byudjeti. Bu byudjet rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmini bajarish uchun talab qilinadigan zarur ish vaqti soatlari mahsulot yoki xizmat birligi miqdorini mahsulot birligiga mehnat soatlari sarfini ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Shu hujjatda yoki alohida hujjatda mehnat sarfi zarur mehnat sarfini mehnatga haq to'lashning tegishli soat stavkalariga taqsimlab, pul bilan ifodasi aniqlanadi.

F. Umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjeti. Bu byudjet materiallarning to'g'ri (bevosita) xarajatlaridan bevosita mehnat xarajatlaridan farq qiladigan nazarda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlarining batafsil rejasi bo'lib, kelgusi davrda ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun shu xarajatlar qilinishi kerak. Bu byudjetning ikki maqsadi bor:

1) Ishlab chiqarish va unga xizmat qilish bo'yicha menejer, ishlab chiqqan barcha umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlarini birlashtirish.

2) Bu axborotlarni to'plab, bu sarflarni kelgusi hisob davrida mahsulotning

ayrim turlariga yoki xarajatlarni kalkulyatsiyalashning boshqa ob'ektlariga taqsimlash uchun shu xarajatlar normativlarini hisoblash.

J. Umumiy va ma'muriy sarflar byudjeti. Bu ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq sarflardan farq qiladigan, kelgusi davrda umuman korxonada bo'yicha faoliyatni davom ettirish uchun zarur bo'ladigan joriy operatsiya sarflarining batafsil rejasidir. Bu axborot rejalashtirilayotgan davrda korxonada faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash uchun ham zarur bo'ladi. Bu byudjet elementlarining ko'pchiligi doimiy xarajatlarni tashkil etadi.

Z. Foyda va zararlar to'g'risida faraziy (prognozniy) hisobot. Byudjet tuzish bo'yicha bosh menejer yoki direktor tayyorlangan davriy byudjetlar asosida materiallardan foydalanish, mehnat sarfi va umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlaridagi ma'lumotlardan foydalanib, sotilgan mahsulot tannarxi farazini ishlab chiqarish boshlashi mumkin. Daromadlar to'g'risidagi axborot sotuv byudjetidan olinadi. Kutilayotgan daromadlar va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib va tijorat xarajatlari hamda umumiy va ma'muriy sarflar byudjetlaridagi axborotlarni qo'shib, foyda va zararlar to'g'risida taxminiy hisobotni tayyorlash mumkin.


Ta'kidlash lozimki, ayni shu hisobotni tuzish operativ byudjetni tayyorlash chog'idagi so'nggi qadamdir.

Moliyaviy byudjet. Moliyaviy byudjet — bu moliyaviy mablag'larning faraz qilingan manbalari va kelgusi davrda ulardan foydalanish yo'nalishlari aks etadigan rejadir. Moliyaviy byudjetga kapital xarajatlar byudjeti, kompaniyaning pul mablag'lari byudjeti, ularga asoslanib tayyorlangan foyda va zararlar to'g'risida byudjet hisoboti, buxgalteriya byudjet balansi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot kiradi. Umumiy byudjetni tashkil qiluvchi asosiy qismlar 12.1 rasmda keltirilgan.

Kapital sarflar byudjeti. Kapital yotqizishga ehtiyojlarni aniqlash va ular uchun investitsiya resurslarini olish butun boshqaruv hisobining kompleks vazifasidir. Qanday uzoq muddatli aktivlarni sotib olishni hal qilish yoki investitsiyalar rentabelligini aniqlash bilan bog'liq shunday qaror qabul qilish

uchun tanlangan mezon asosida byudjet tuzish muammosi paydo bo'ladi. Uzoq muddatli kapital yotqizish xususidagi axborot xarid qilishga yoki qurishga sarflar masalasiga hamda kredit uchun foiz to'lashga, foyda va zararlar to'g'risidagi faraziy hisobotga daxl qilib, asosiy vositalar schetidagi qoldiqni va boshqa uzoq muddatli aktivlarni o'zgartirib, pul mablag'lari byudjetiga ta'sir qiladi. Demak, kapital sarflar bo'yicha barcha qarorlar rejalashtirilishi va umumiy byudjetga qo'shilishi lozim.

Barcha joriy byudjetlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Sotuv hajmining farazi byudjet tuzishda dastlabki qadam bo'ladi. Shundan so'ng tijorat sarflari byudjeti tayyorlanishi mumkin. Ishlab chiqarish byudjeti asosida esa to'g'ri materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanish byudjeti, mehnat byudjeti va ishlab chiqarish umumiy sarflari byudjeti ishlab chiqiladi. Ko'p hollarda umumiy va ma'muriy sarflar rejalari, kapital yotqizish rejasi boshqaruvning yuqori darajalarida qabul qilinadi. Biroq bunday axborotning ko'p qismi firma bo'linmalari darajasida ishlab chiqilishi va davriy byudjetlarga kiritilishi mumkin.



31.2- rasm. Byudjet tuzish bosqichlari

Pul oqimlari farazi / Pul mablag'lari byudjeti. Bu byudjet kompaniyaning umumiy faoliyatini rejalashtirish jarayonida eng muhim byudjet hisoblanadi, shu sababli uning asosiy maqsadlari va ishlab chiqish qoidalari keyinchalik alohida bo'limda ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida farazli hisobot. Umuman kompaniya uchun moliyaviy ahvolning farazini yoki buxgalteriya balansi loyihasini ishlab chiqish umumiy byudjetni tayyorlash jarayonidagi so'nggi qadamdir. Unda rejalashtirilgan faoliyat haqiqatda amalga oshishi nazarda tutiladi.

31.2. rasmda ko'rsatilganidek, barcha byudjetlardagi ma'lumotlardan shu prognoz uchun foydalaniladi. Pul mablag'lari byudjeti tayyorlangandan so'ng byudjet davri oxirida pul mablag'larining prognoz qoldig'ini bilib va sof foyda hamda zarur kapital yotqizish hajmini aniqlab, buxgalter prognoz balansini tayyorlash mumkin bo'ladi, bu balans asosiy byudjetni tuzish jarayonining qoldiq mahsulidir.

Rahbariyat ayni shu nuqtada taklif etilgan umumiy byudjetni qabul qilish yoki rejalarni o'zgartirib, byudjetning ayrim qismlarini yana ko'rib chiqishni hal qiladi.

Byudjetning bajarilishi. Byudjetning bajarilishi uchun butun ma'suliyat byudjet tuzish bo'yicha direktorning zimmasiga tushadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatini ikki muhim jihat belgilaydi. Birinchidan, kompaniyaning barcha ma'sul shaxslari nimalar kutilayotganini va maqsadlarni aniq va to'g'ri tushunishlari zarur. Kompaniyaning faoliyatiga jalb etilgan barcha shaxslar ulardan nimani kutishayotganini bilishlari va o'z maqsadlariga qanday erishish to'g'risida ko'rsatma olishlari lozim. Ikkinchidan, yuqori rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish tizimi ham juda muhimdir. Byudjet tuzish jarayoni qanchalik murakkab bo'lmasin, o'rta va quyi darajadagi rahbarlar oliy rahbariyat qoldiq natijalardan haqiqatan manfaatdorligiga byudjetning rejalashtirilgan maqsadlari bajarilishini rag'batlantirishiga ishonch hosil qilsalargina bu jarayon muvaffaqiyatli bo'ladi.

Byudjetning ijrosini baholash haqiqatda erishilgan natijalar byudjetda

rejalashtirilganidan chetga chiqqanligini tahlil qilishga asoslanadi. Chetga chiqishni (og'ishni) belgilash va ularning vujudga kelishining sabablarini aniqlash masalalari me'yoriy xarajatlarni hisobga olish va og'ishlarni (chetga chiqishni) tahlil qilish tizimiga bag'ishlangan navbatdagi bobda batafsil ko'rib chiqiladi.

Pul mablag'lari byudjeti. Pul mablag'larining xarakatlari korxonada operatsiya tsiklining eng muhim jihatlaridan biridir. Umumiy byudjetni tayyorlash doirasida pul mablag'lari byudjeti barcha davriy byudjetlar, kapital sarflar byudjeti, foyda va zararlar to'g'risidagi farazli hisobot tugallangandan keyingina ishlab chiqiladi.

Pul mablag'lari byudjeti (yoki pul oqimlari farazi) kelgusi davrdagi pul mablag'lari tushumi va to'lovlar rejasidan iborat. Unda umumiy byudjetning barcha fazalarida rejalashtirilgan operatsiyalar natijasida vujudga keladigan barcha pul mablag'lari oqimini jamlaydi. Byudjet umuman byudjet davri oxirida pul mablag'lari schetidagi kutilayotgan pirovard qoldiqni va yilning har bir oyi uchun moliyaviy ahvolni ko'rsatadi va shuning uchun byudjet tuziladi.

Shu tariqa pul mablag'lari miqdori eng ko'p va eng kam bo'ladigan davrlar rejalashtirilishi mumkin. Pul mablag'lari schetidagi katta qoldiq moliyaviy vositalardan mumkin bo'lgan eng ko'p samaradorlik bilan foydalanilmaganini bildiradi. Past daraja esa korxonada joriy majburiyatlarini to'lashga qodir emasligini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli pul mablag'larini puxta rejalash zarur.

Pul mablag'lari byudjetining tuzilishi va vazifalari. Pul mablag'lari byudjeti ikki qismdan kutilayotgan pul mablag'lari tushumi va kutilayotgan to'lovlardan iborat. Davr mobaynida kutilayotgan tushumlarni aniqlash uchun sotish byudjetidagi axborotdan, kreditga sotish yoki naqd pulga sotish to'g'risidagi ma'lumotlardan, olinishi lozim bo'lgan schetlar bo'yicha mablag' to'plash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Shuningdek, aksiyalarni sotish, aktivlarni sotish, qarz olish foiz va dividendlarni olish kabi boshqa manbalardan pul mablag'lari oqimi rejalashtiriladi.

Kutilayotgan to'lovlar summasi turli davriy byudjetlardan olinadi. Pul mablag'lari byudjetini tayyorlashga javobgar shaxs davrda materiallarga va ishchi

kuchiga qanday xarajatlar ko'zda tutilganini, qanday tovarlar va xizmatlarni sotib olish zarurligini, shuningdek ularga darhol haq to'lanishi yoki to'lovni kechiktirish mumkinligini bilishi kerak. Shu munosabat bilan kompaniyaning to'lovlar siyosatini va to'lash muhlatlarini bilish juda muhimdir.

Doimiy joriy sarflardan tashqari pul mablag'laridan uskunalarni va boshqa aktivlarni sotib olishga, qarzlarni qaytarishga va boshqa uzoq muddatli majburiyatlarni to'lashga sarflanishi mumkin. Bu axborotlarning hammasi pul mablag'larining to'g'ri byudjetini tuzish uchun to'plash zarur bo'ladi.

Byudjet mablag'lari byudjeti ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, u byudjet davri oxirida pul mablag'lari shetida pirovard qoldiqni ko'rsatadi. Bu qoldiq miqdorini buxgalteriya farazli (istiqbolli) balansi tugallanishiga qadar bilish zarur. Ikkinchidan, byudjet davri ichida har oyning oxirida pul mablag'lari qoldig'ini faraz qilib, moliyaviy resurslar ortiqcha yoki etishmagan davrlarni aniqlaydi.

31.3. Asosiy smetani tuzish jarayonlari

AVS kompaniyasi moy va yonilg'i nasoslari ishlab chiqarmoqchi bo'lyapti. Quyidagi boshlang'ich ma'lumotlar mavjud:

Asosiy materiallar qiymati:

Latun	\$ 1.20/kg
Alyuminiy	\$ 2.60/kg
Asosiy ishchilar ish haqi stavkasi	\$ 2.05/soat

Mahsulot birligiga materiallar va ishchi kuchiga ehtiyoj:

	<i>Moy nasosi</i>	<i>Yonilg'i nasosi</i>
Latun	12 kg	12 kg
Alyuminiy	6 kg	8 kg
Mehnat sarfi	14 s	20 s

Quyida sotish va zahiralarining rejadagi hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan:

	<i>Moy nasosi</i>	<i>Yonilg'i nasosi</i>	Summa
Rejadagi sotuv hajmi, b.	5000	1000	
Bir donaning sotish narxi	\$ 105.40	\$ 164.00	
Davr boshidagi zahira:	100 b.	50 b.	
	\$ 8670	\$ 5810	\$ 14480
Davr oxiridagi zahira:	1100 b.	50 b.	

Asosiy materiallar

	<i>Latun</i>	<i>Alyuminiy</i>
Davr boshida zahira	5000 kg x \$ 1.2 = \$ 6000	5000 kg x \$ 2.6 = \$ 13000
Davr oxirida zahira	6000 kg x \$ 1.2 = \$ 7200	1000 kg x \$ 2.6 = \$ 2600

Ishlab chiqarish ustama sarflari:

Yordamchi materiallar	\$ 30000
Bilvosita ish haqi	\$ 70000
Boshqa to'lovlar	\$ 25000
Elektr energiya	\$ 9000
Xizmat ko'rsatish	\$ 24500
Amortizatsiya	\$ 25000
Sug'urta mulki	\$ 4500
Nazoratchilar ish haqi	\$ 20000
JAMI:	\$ 208000

Tijorat sarflari:

Komission to'lov	\$ 20000
Reklama	\$ 3000
Savdo agentlariga ish haqi	\$ 10000
Transport sarflari	\$ 5000
Xizmatchilar ish haqi	\$ 10000
Idishlarga sarflar	\$ 1000
JAMI:	\$ 49000

Ma'muriy sarflar:

Ish haqi	\$ 21000
Boshqa sarflar	\$ 5000
JAMI:	\$ 26000

Talab qilinadi: Hozirgi davrga asosiy byudjetni tuzish

Echimi:

1 - qadam. «Sotuv byudjeti» (Sotuv dasturi)

Mahsulot	Talab, dona	Bir donaning narxi	Sotuv summasi, \$
Moy nasosi			
Yonilg'i nasosi			
JAMI:			

2 - qadam. «Ishlab chiqarish byudjeti» (Ishlab chiqarish dasturi)

	Moy nasosi, b.	Yoqilg'i nasosi, b.
Sotuv rejali hajmi		
<i>Plyus</i> Tayyor mahsulotning oxirgi zahirasi		
Umumiy ehtiyoj		
<i>Minus</i> Tayyor mahsulotning boshlang'ich zahirasi		
Ishlab chiqarish dasturi		

3 - qadam. «Asosiy materiallarning foydalanish va sotib olish byudjeti»

<i>Mahsulot</i>	<i>Ishlab chiqarish dasturi, birlik</i>	<i>Materiallar</i>			
		<i>Latun</i>		<i>Alyuminiy</i>	
		<i>Me'yor, kg/b.</i>	<i>Ehtiyoj, kg</i>	<i>Me'yor, kg/b.</i>	<i>Ehtiyoj, kg</i>
<i>Moy nasosi</i>					
<i>Yonilg'i nasosi</i>					
<i>Ishlab chiqarish ehtiyoji, kg</i>					
<i>Plyus Davr oxirida material zahirasi, kg</i>					
<i>Materiallarga umumiy ehtiyoj, kg</i>					
<i>Minus Davr boshida material zahirasi, kg</i>					
<i>Material xaridiga umumiy ehtiyoj, kg</i>					
<i>Material narxi, \$/kg</i>					
<i>Material xaridiga xarajat</i>					

4 - qadam «Ish vaqti byudjeti»

Mahsulot	Ishlab chiqarish dasturi, b.	Birlikka mehnat sarfi, s	Umumiy mehnat sarfi, s	Soatbay stavka, \$/s	Mehnat sarfi
<i>Moy nasosi</i>					
<i>Yonilg'i nasosi</i>					
JAMI:					

5 - qadam «Ishlab chiqarish ustama sarflari byudjeti»

Yordamchi materiallar	
Bilvosita ish haqi	
Boshqa to'lovlar	
Elektr energiya	
Xizmat ko'rsatish	
Amortizatsiya	
Sug'urta mulki	
Nazoratchilarning ish haqi	
JAMI:	
Asosiy mehnat soatlarining umumiy miqdori	

IUXni taqsimlash stavkasi	
---------------------------	--

6 - qadam «Mahsulot birligi va davr oxirida tayyor mahsulot zahiralarning tannarxi byudjeti»

Moddalar	Moy nasosi	Yoqilg'i nasosi
Asosiy materiallar:		
- latun		
- alyuminiy		
Mehnat sarflari		
Ishlab chiqarish ustama sarflari		
Mahsulot birligi tannarxi		
Davr oxirida tayyor mahsulotlar, b.		
Davr oxirida Tayyor mahsulot zahirasi tannarxi		
Jami:		

7 - qadam. «Sotilgan mahsulot tannarxi byudjeti»

Moddalar, \$	Moy nasosi	Yoqilg'i nasosi	Jami:
Asosiy materiallar:			
- davr boshidagi zahira			
- xarid			
-foydalanish uchun materiallar			
- Davr oxiridagi zahira			
- Ishlab chiqarishga berilgan materiallar			
Mehnat sarflari			
Ishlab chiqarish ustama sarflari			
Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi			
Davr boshida tayyor mahsulot zahirasi			
Sotishga tayyor mahsulot			
Davr oxirida tayyor mahsulot			
Sotilgan mahsulot tannarxi			

8 - qadam «Tijorat va ma'muriy sarflar byudjeti»

Tijorat sarflari:

Komission haq	
Reklama	
Savdo agentlariga ish haqi	
Transport sarflari	
Xizmatchilarning ish haqi	
Mahsulotni joylash sarflari	
Jami:	

Ma'muriy sarflar:

Ish haqi	
Boshqalar	
Jami:	

9 - qadam «Foyda byudjeti»

<i>Sotish</i>	
<i>Sotilgan mahsulot tannarxi</i>	
<i>Yalpi daromad</i>	
<i>Operatsion sarflar</i>	

Takrorlash uchun savollar

1. *Asosiy smeta ta'rif bering?*
2. *Operativ reja deganda nimani tushunasiz?*
3. *Ma'muriy rejalar deganda nimani tushunasiz?*
4. *Strategik rejalar deganda nimani tushunasiz?*
5. *Byudjetni (smetani) rejalashtirishni tushuntirib bering?*
6. *Byudjet deganda nimani tushunasiz?*
7. *Byudjetning vazifasi sanab o'ting?*
8. *Rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?*
9. *Muvofiqlashtirish va aloqa deganda nimani tushunasiz?*
10. *Rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?*
11. *Umumiy (asosiy) byudjet deganda nimani tushunasiz?*

12. *Sotuv byudjeti deganda nimani tushunasiz?*
13. *Moliyaviy byudjet deganda nimani tushunasiz?*
14. *Kapital sarflar byudjetini tushuntirib bering?*
15. *Pul mablag'lari byudjetining tuzilishi va vazifalarini tushuntirib bering?*

32-BOB. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH.

32.1. Boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari.

32.2. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish.

32.3. Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish.

32.4. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

32.5. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash.

32.6. Rivojlangan mamlakatlarda biznesni markazlashtiril magan holda boshqarish tajribasi.

Tayanch so'z va iboralar: samaradorlik, muhit, xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi, foyda, zararsizlik nuqtasi, marjinal daromad, marjinal daromad hajmi, marjinal daromad koeffitsiyenti, rentabellik chegarasi, grafik usul, ostonaviy tushum, relevantli daromad va xarajatlar.

32.1. Boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari

Korxonalar iqtisodiy faoliyatida boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni alohida o'rin tutadi, u yuqori malaka va amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish korxonada oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni aniqlashdan boshlanadi.

Boshqaruv qarorlari amal qilish davriga ko'ra strategik (uzoq muddatli) va qisqa muddatli qarorlarga bo'linadi.

Strategik boshqaruv qarorlari korxonaning oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur qarorlar korxonada rahbariyati tomonidan istiqbolli rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi.

Qisqa muddatli qarorlar qo'yilgan maqsadga erishishda qabul qilinadigan tezkor qarorlardir. Ular korxonaning joriy rejalarini tuzish, kadrlar masalasini hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlariga bir qancha talablar qo'yiladi. Bu talablar boshqaruv qarorlarining ishonchliligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish zarurati bilan izohlanadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1 *aniq yo'nalishga ega bo'lishi va korxonada manfaatlarini to'liq ifodalashga*. Bunda boshqaruv qarorlarining korxonada turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga hamda uning foydasini oshirishga yo'naltirilishi nazarda tutiladi;

2 *ilmiy-amaliy jihatdan asoslanishi*. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlili natijalari, uning iqtisodiy imkoniyatlari hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini to'liq hisobga olish zarur;

3 *aniq muddatlarda qabul qilinishi va amalga oshirilishi*. Boshqaruv qarorlarini amalga oshirish davri belgilab olinishi lozim. Bu holat uni o'z vaqtida va oqilona bajarilishini nazorat qilishga ko'maklashadi;

4 *tezkor bo'lishi*. Boshqaruv qarorlari bozor talablari va korxonada moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlardan kelib chiqib zarur hollarda tezkor qabul qilinishi zarur.

5 *yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishi*. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda unumsiz va ortiqcha xarajatlarni rejalashtirilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xodimlar manfaatlarini korxonaning umumiy manfaatiga mos bo'lishi, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan tejamli foydalanish, korxonaning iqtisodiy, texnikaviy salohiyatini tahlil etish kabi jihatlarga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu hol esa o'z navbatida korxonalardan boshqarishni bozor iqtisodiyotiga mos mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi. Ushbu mexanizmlar korxonalarning yuqori samaradorlik bilan faoliyat ko'rsatishi, bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini va mahsulotlarini raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashi zarur. Bu masalalarni hozirgi zamon menejmentisiz hal etish murakkab

hisoblanadi. Shu sababli, korxonalarni rivojlantirishda zamonaviy menejmentning mazmun va mohiyati, vazifalariga batafsilroq to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Menejmentga bag‘ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda uning mohiyati va mazmuniga turli yondoshuvlar mavjud (32.1-jadval):

32.1-jadval

Menejment atamasining mohiyati va mazmuniga mavjud yondoshuvlar

Menejmentning mohiyati quyidagicha aniqlanadi	Vazifa, faoliyat turi
	Fan va san‘at
	Boshqaruv organi yoki apparat
	Jarayon
	Insonlar kategoriyasi

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, menejmentning ko‘p yillik rivojlanishi boshqaruv faoliyatini ishlab chiqarish vazifasidan farq qiluvchi alohida vazifaga ajratadi.

Boshqaruv vazifa sifatida u tomonidan boshqaruv vazifalari, deb nom olgan boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Ular birinchi marta fransuz olimi A.Fayol tomonidan asoslangan edi. Bu vazifalar rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabilardan iborat. Keyinchalik, boshqaruv jarayonlarini yanada mukammallashtirish hisobiga ko‘pgina ishlanmalarda bu vazifalar to‘ldirib borilgan. Jumladan, menejment vazifalariga motivlashtirish, kommunikatsiya, tadqiq etish, baholash, qarorlarni qabul qilish kabilar qo‘shildi.

Menejmentni vazifa sifatida ko‘rib chiqish boshqaruv faoliyatini hamma turlarining tarkibi va mazmuni, shuningdek, ularni zamon va makondagi o‘zaro aloqadorligini ishlab chiqishni talab etadi.

Menejment mustaqil fan sifatida XIX asrning oxirida shakllana boshladi. Uning asosini ko‘p yillar davomida to‘planib borgan boshqaruv to‘g‘risidagi bilimlar tashkil etadi. Ular turli konsepsiyalar, nazariyalar, tamoyillar, boshqaruv uslublari va shakllarida o‘z aksini topgan. Menejmentning fan sifatidagi ta’rifi

asosida boshqaruv xususidagi bilimlarning shakllanganligi va muayyan tizimga keltirilganligiga alohida o‘rin beriladi. Bu esa birinchidan, korxonalariga joriy faoliyatni o‘z vaqtida samarali boshqarishga, ikkinchidan esa istiqbolni belgilash va unga mos korxonaning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bois, boshqaruv fani o‘zining nazariyasini ishlab chiqadi. Uning mazmunini esa boshqarish jarayonida insonlar faoliyatining qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, vazifalari va uslublari tashkil etadi.

Amaliyotda menejmentni san‘at sifatida tushunish keng tarqalgan. U xo‘jalik korxonalari murakkab tizim ekanligi va ularning faoliyatiga bir nechta tashqi va ichki muhit omillari ta‘sir etishiga asoslanadi. Bunday murakkab mexanizmni boshqarish yuqori sifat darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Shuning uchun ham menejment san‘at sifatida talqin qilinadi va u tegishli konsepsiya, nazariya, tamoyillar, shakl va uslublarga tayanadi.

Bu kabi yondoshuvlar korxonalar menejerlariga nafaqat ilmiy bilimlarni doimo to‘ldirib, yangilab borish, balki shaxsiy sifatlarni takomillashtirib borish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash layoqatini mustahkamlashni talab qiluvchi fan va san‘atni bir jarayonga birlashtirishga imkon beradi.

Korxonalarda ishlovchi xodimlar o‘z kuch va imkoniyatlarini aniq maqsadlarga erishishga yo‘naltirishlari uchun menejerlar ular bilan doimo aloqadorlikda bo‘lishlari va samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun sharoit yaratib berishlari zarur.

Menejment shuningdek, integratsion jarayon sifatida ham talqin qilinadi. Uning asosida yuqori kasbiy malakaxga ega mutaxassislar korxonalar faoliyatini tashkil etadi va maqsadlarni aniqlash, ularga erishish uslublarni ishlab chiqish yo‘li bilan korxonani boshqaradilar.

Ta‘kidlanganidek, menejment jarayoni rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, motivatsiya va nazorat qilish kabi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ular yordamida menejer korxonada ishlovchi xodimlarning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratadi.

Shu munosabat bilan boshqaruv jarayonini menejment sohasida yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassislar amalga oshiradi. Ular korxonani faoliyatini yuritadilar, maqsadlarni belgilaydilar, unga erishish usullarini ishlab chiqib amalda qoʻllaydilar. Bu sanʼatga maʼlum bir insonlar kategoriyasi – menejerlar ega boʻlishlari lozim. Ularning vazifasi xodimlarni oqilona boshqarish natijasida korxonani samarali faoliyat yuritishini taʼminlashdan iborat.

Koʻp hollarda menejment organ yoki boshqaruv apparati bilan tenglashtiriladi. Menejment-tijorat va notijorat korxonalarining oʻziga xos organidir. Korxonani bu organlarsiz bir butun tizim sifatida faoliyat koʻrsata olmaydi. Shuning uchun boshqaruv apparati har qanday korxonani tarkibiy qismi hisoblanib menejment faoliyatiga tenglashtirildi. Unda band boʻlgan xodimlarning bosh vazifasi pirovard maqsadga erishish uchun korxonani ixtiyoridagi barcha resurslardan samarali foydalanishni taʼminlashdan iboratdir.

Shunday qilib “menejment” atamasi boshqaruv xususidagi adabiyotlarda juda keng talqin etiladi. Binobarin, uning har qanday taʼrifi toʻliq emas. Masalan, menejment har xil tamoyillar, vazifalar va menejmentning sotsial-iqtisodiy uslublaridan foydalanish asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida harakat qiluvchi korxonalarining optimal xoʻjalik natijalariga erishishga qaratilgan kasbiy faoliyatining oʻziga xos turi. Bu taʼrifda urgʻu menejment kasbiy faoliyat turi ekanligiga berilmoqda.


Menejment alohida insonlar va jamoalarga tizimiy taʼsir etishni taʼminlaydi. Bundan maqsad, kelishilgan holda birgalikda faoliyat koʻrsatib, koʻzlangan maqsadga erishishdan iborat. Shuningdek, menejment harakatlarni tanlash, ularni kombinatsiyalash, ketma-ketligini belgilash, pirovard natijalarni baholashni nazarda tutadi.

Hozirgi zamon menejmentining quyidagi oʻziga xos xususiyatlari mavjud:

- 1 ishlab chiqarish va biznes samaradorligini oshirishga intilish hamda korxonani tomonidan rejalashtirilgan pirovard natijaga erishishga yoʻnaltirilganlik;
- 2 tashqi muhitdagi oʻzgarishlarga bogʻliq holda belgilangan maqsadlar va dasturlarga doimo ravishda tuzatish kiritib borish;

- 3 rejalashtirish jarayonini joriydan istiqbolga qarab o'zgartirish;
- 4 boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ko'p variantli hisoblarni amalga oshirish uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- 5 korxonada faoliyatini samarali boshqarishga barcha xodimlarni jalb etish;
- 6 boshqaruv jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil etish va tegishli moslashuvchan qarorlar asosida ish olib borish;
- 7 korxonada boshqaruvining barcha bo'g'inlarida innovatsion yondashuvdan keng foydalanish va h.k.lar.

Korxonani samarali boshqarish xodimlarni qo'yilgan maqsadga erishish uchun moddiy, iqtisodiy, huquqiy sharoitlardan foydalanib birgalikda harakat qilishlarini tashkil etadi. Xodimlar faoliyatining sharoitlari yaxlit holda korxonaning tashkiliy tuzilmasini tashkil etadi. Shu sababli, korxonani resurslar, ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot kabi uch elementdan iborat tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Bunda boshqaruv qismi ob'ektning holati to'g'risidagi va boshqa axborotlardan foydalanib qarorlar qabul qilish orqali boshqaruv jarayonini amalga oshiradi (32.1-rasm).



32.1-rasm. Korxonada boshqaruv jarayonining modeli

Shuni ta'kidlash zarurki, korxonani samarali boshqarish quyidagilarga bevosita bog'liq:

-aniq maqsadning mavjudligi. Bu korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratadi, uning xodimlari harakati yo'nalishlarini belgilab beradi;

-korxonaning barqarorligi, ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarda mustahkamlik hamda doimiylikni ta'minlaydigan ichki muvofiqlashti-ruvchi tizimning amal qilishi;

-korxonaning barcha ichki jarayonlarini o'z-o'zini tartibga solish tamoyili asosida muvofiqlashtirilganligi;

-korxonaning alohidaligi ya'ni uni boshqa korxonalardan ajratib turuvchi chegaraning mavjudligi;

-tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lgan korxonalarni samarali faoliyat ko'rsatishi va ularni istiqbolli rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot nuqtai-nazaridan korxonalarining samarali rivojlanishi quyidagi ijobiy afzalliklarga ega:

1 birinchidan, aholining mavjud ehtiyojlarini to'laroq qondirishga imkon beradi;


2 ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu esa bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining o'sishida namoyon bo'ladi;

3 uchinchidan, aholining yashash darajasi, farovonligi yaxshilaydi;

4 to'rtinchidan, mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.

Mikroiqtisodiy nuqtai nazardan esa, korxonaning olayotgan foyda miqdorini oshishi natijasida xodimlarning daromadlari ko'payadi, jamg'arishga ko'proq mablag' ajratilishi natijasida korxonaning ichki investitsiya qilish imkoniyatlari oshadi. Bu esa uni innovatsion asosda rivojlanishiga imkon beradi.

Amaliyotda, ko‘pchilik hollarda qabul qilinadigan qarorlar tor doiraga ega bo‘lib, korxonani istiqbolli rivojlantirish yo‘nalishlari va tamoyillarini ifodalay olmaydi. Bu holat esa respublikamiz korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning aniq bosqichlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi (32.2-rasm).



32.2-rasm. Korxonalarda boshqaruv qarorlari qabul qilishning asosiy bosqichlari

Boshqaruv qarorlari qabul qilishning dastlabki bosqichida korxonada bo‘linmalari amaliyotidagi muammolarni aniqlashga e‘tibor qaratiladi. Bu bosqichda korxonada buxgalteri tomonidan mavjud muammoni hal etish yo‘nalishlari ishlab chiqiladi.

Muammolar yechimlarining muqobil variantlari aniqlangandan keyin buxgalter har bir muhokama qilinayotgan variantlarni xarajatlarni hisoblash, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini tejash imkoniyati hamda xo‘jalik muomalalarining moliyaviy natijalarini aniqlashga ta‘sirini tahlil qiladi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning har bir bosqichida turli xil hisob axborotlaridan foydalaniladi.

Boshqaruv hisobida oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishda mavjud muammolar yechimiga ko‘p variantlilik tamoyili asosida yondashish talab qilinadi. Bunda muhokama qilinayotgan masalaning ikki yoki undan ortiq variantdagi

yechimi mavjud bo'lsa, ular orasida eng maqbulini tanlab olish boshqaruv hisobidagi muhim vazifalarda hisoblanadi.

Tanlash jarayonida menejer uchun boshqaruv samaradorligini baholash muhim hisoblanadi.

Qo'yilgan muammoni yechish uchun talab qilinadigan barcha axborotlar olingach, menejerlar qarorlar qabul qilishning samarali variantlarini tanlashlari mumkin.

Keyingi bosqichda korxonada buxgalteri qabul qilingan qarorlar natijalarini tahlil qiladi va o'z xulosalarini rahbariyatga taqdim etadi.

Agar mavjud muammolarning yechimlarini topish borasida boshqa choralar ko'rish zarurati bo'lmasa, boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni tugallangan hisoblanadi, aks holda barcha bosqichlar qaytadan amalga oshiriladi.

32.2. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday ishlab chiqarish korxonasi rahbari turli xil oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishga majbur bo'ladi.

“Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda” (Cost-Volume-Profit) o'zaro aloqadorlik tahlili zararsizlik nuqtasini aniqlashda menejerlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, mazkur tahlil tizimi yordamida buxgalterlar, auditorlar, ekspertlar va maslahatchilar korxonada moliyaviy natijasini haqqoniy baholash va yaxshilash uchun muhim tavsiyalar berishlari mumkin.

Zararsizlik nuqtasi korxonada daromadlari uning xarajatlarini to'liq qoplash nuqtasi bo'lib, moliyaviy natijalarni aniqlashning oddiy va aniq usuli hisoblanadi.

Baholar, korxonada xarajatlari, mahsulotni sotish hajmi va tarkibiga oid har bir qabul qilingan qaror pirovard-natija korxonada moliyaviy natijasida namoyon bo'ladi.

“Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda” quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1 ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish;
- 2 xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va foydaning o'zaro bog'liqligi

ta'siri natijasida xarajatlarning qanday o'zgarishi mumkinligini aniqlash;

3 korxonalar rahbarlarining qisqa muddatli boshqaruv qarorlari qabul qilishlariga ko'maklashish;

4 korxonani istiqbolli rivojlantirish imkonini beradigan variantlar orasidan eng maqbulini tanlash va h.k.

“Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda” tahlili tizimi nafaqat kichik tadbirkorlik sub'ektlari, balki yirik korxonalar rahbarlari uchun ham ishonchli boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimida xarajatlar, ishlab chiqarish jarayonlari va moliyaviy natijalar bog'liqligiga ta'sir etuvchi turli xil omillar o'rganiladi. Bu holat korxonalar menejerlarini muntazam ravishda sotish bahosi, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar, resurslarni sotib olish va ulardan oqilona foydalanish borasida qarorlar qabul qilishi zarurligi bilan ifodalanadi.

CVP-tahlili marjinal daromad, rentabellik ostonasi (zararsizlik nuqtasi), ishlab chiqarish dastagi va chidamlilikning marjinal zaxirasi kabi asosiy elementlardan iborat.

Marjinal daromad korxonalarda mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi tafovutni ifodalaydi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qoplovchi tushum hajmini hisoblash uchun korxonalarda marjinal daromad hajmi va koeffitsiyenti ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Marjinal daromad hajmi korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash va foyda olishga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Uni hisoblashning ikki usuli mavjud:

1 birinchi usulda mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumdan barcha o'zgaruvchan xarajatlar chiqarib tashlanadi;

2 ikkinchi usulda esa marjinal daromad hajmi korxonalar doimiy xarajatlari va foydasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Marjinal daromadning o'rtacha hajmi deganda, mahsulot bahosi bilan o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi tafovut tushuniladi. Bu ko'rsatkich mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan doimiy xarajatlarni qoplashga qo'shilgan

hissa va olingan foydani aks ettiradi.

Marjinal daromad koeffitsiyenti mahsulot sotishdan olingan tushumdagi marjinal daromadning ulushi yoki tovar bahosidagi marjinal daromadning o'rtacha ulushini ifodalaydi.

Rivojlangan mamlakatlar boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyotida CVP - tahlilini o'tkazishning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Ular ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zararsizlik nuqtasini aniqlash va unga ta'sir etadigan omillarni hisoblash uchun ko'plab formulalar qo'llaniladi. Shu bilan birga, amaliyotning o'zi ham shunday har tomonlama qulay formulani qo'llashni talab etadiki, u CVP - tahlilini tashkil etuvchi barcha baholarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va ancha oddiy yo'l bilan har bir omilning ta'sirini aniqlashga imkon tug'dirishi lozim. Bunday maqsadga erishish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$M_f = \frac{X_d + F}{M_b} = \frac{X_d + F}{B_m - X_{uz}}$$

bu yerda,

M_f - mahsulot hajmi;

X_d - doimiy xarajatlarning summasi;

F - foyda summasi;

M_b - marjinal daromadning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasi;

B_m - mahsulot birligi bahosi;

X_{uz} - o'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasi.

Quyida 100000 so'mlik foydani olish uchun rejalashtiriladigan sotish hajmini aniqlaymiz.

$$M_f = \frac{X_d + F}{B - X_{uz}} = \frac{500000 + 100000}{200 - 120} = 7500 \text{ kg}$$

1. Bu yerda mahsulotni zararsiz sotish hajmi quyidagini tashkil etadi:

$$M_z = \frac{X_d}{B - X_{uz}} = \frac{500000}{200 - 120} = 6250 \text{ kg}$$

2. Berilgan koordinatlardagi kutilayotgan foyda summasini aniqlaymiz:

$$F = M_f(B - X_{uz}) - X_d = 7500(200 - 120) - 500000 = 100000 \text{ so' m}$$

3. Berilgan koordinatlardagi doimiy xarajatlar summasini aniqlaymiz:

$$X_d = M_f(B - X_{uz}) - F = 7500(200 - 120) - 100000 = 500000 \text{ so' m}$$

4. Sotishlarning rejalashtirilgan bahosini aniqlaymiz:

$$B = X_{uz} + \frac{X_d + F}{M_f} = 120 + \frac{500000 + 100000}{7500} = 200 \text{ so' m}$$

5. O'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasini aniqlaymiz:

$$X_{uz} = B - \frac{X_d + F}{M_f} = 200 - \frac{500000 + 100000}{7500} = 120 \text{ so' m}$$

6. Marjinal daromadning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasini aniqlaymiz:

$$M_b = \frac{X_d + F}{M_f} = \frac{500000 + 100000}{7500} = 80 \text{ so' m}$$

“Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda” tahlilining muhim sharti korxonalar xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchanlarga bo'lish hisoblanadi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish va sotishlar hajmiga bog'liq bo'lmaydi, o'zgaruvchan xarajatlar esa - bu ikkita omilning o'zgarishiga mutanosib ravishda o'zgarib turadi. Shu bois, yuqorida keltirilgan formulalarga asosan zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun **mahsulotni zararsiz sotish koeffitsiyenti** ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_z = \frac{M_z}{M_\phi}$$

bu yerda,

K_z - mahsulotni zararsiz sotish koeffitsiyenti;

M_z - mahsulotni zararsiz sotish hajmi;

M_ϕ - mahsulotni foydali sotish hajmi.

Quyida mahsulotni zararsiz sotish koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$K_z = \frac{6250}{7500} = 0,83$$

Bu koeffitsiyent yordamida mahsulot sotish hajmiga bog'liq zararsizlik ko'rsatkichini aniqlaymiz.

1. Mahsulot sotish hajmini qiymat ko'inishida aniqlaymiz.

$$1500000 \times 0,83 = 1245000 \text{ so'm}$$

2. Mahsulotni zararsiz narxini belgilaymiz.

$$100 \times 0,83 = 83 \text{ so'm}$$

3. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarni aniqlaymiz.

$$60 \times 0,83 = 49,8 \text{ so'm}$$

4. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan marjinal daromad summasini aniqlaymiz.

$$40 \times 0,83 = 33,2 \text{ so'm}$$

SVR - tahlil tizimi hisob-kitoblarni soddalashtiradi va ularning mehnat talabliligini kamaytiradi, shuningdek, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishga imkon beradi.

SVR - tahlili amaliyotda goho zararsizlik nuqtasi tahlili deb ham yuritiladi.

Zararsizlik nuqtasi (rentabellik chegarasi) deganda, korxonada ishlab chiqarishning shunday hajmi va tushumi tushuniladiki, bunda barcha xarajatlar qoplanishi va dastlabki foyda olinishi ta'minlanadi ya'ni mahsulot (ishlar,


xizmatlar)ni sotishdan olinadigan tushum uning barcha xarajatlari yig'indisiga teng bo'ladi. Bu sotishlarning shunday hajmiki, unda korxonada foyda ham, zarar ham ko'rmaydi.

Mazkur nuqta "Xatarli", "O'lik" yoki "Muvozanat" nuqtasi deyiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu nuqtani VYeR ("Break-even point" - qisqartmasi) sifatida belgilanadi va u rentabellik nuqtasi yoki ostonasi deb ataladi.

Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari

Zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni hisoblash grafik, tenglamalar va marjinal daromad kabi usullar yordamida amalga oshiriladi.


Grafik usulda zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni topish "Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda" yaxlit grafigini tuzish imkonini beradi (32.3-rasm).



32.3-rasm. Zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni aniqlash tartibi

Keltirilgan rasmdagi zararsizlik nuqtasiga mos keluvchi tushum **ostonaviy tushum** deb ataladi. Zararsizlik nuqtasidagi ishlab chiqarish (sotish) hajmi ishlab

chiqarish (sotishlar)ning ostonaviy hajmi deb ataladi. Agar korxonalar sotishlarining ostonaviy hajmidan kam mahsulot sotsa, u zarar ko‘radi, ko‘p sotsa foyda oladi. Shuni ta’kidlash zarurki, ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi va yalpi foyda rasmsini tasvirlashda turli darajadagi ishlab chiqarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash muammosi paydo bo‘ladi. Zararsizlik nuqtasi rasmi bo‘yicha foyda va zararlar o‘rtasidagi oqilona nisbatni aniqlash uchun jami xarajatlar va daromadlar chiziqlari orasidagi masofa aniqlanadi. Bunda foydaning oshishiga mahsulot hajmini o‘zgarishi ta’sirini aniqlashda qulay usullardan biri foyda va mahsulot hajmi rasmi hisoblanadi (32.4-rasm).



32.4-rasm. Foyda va mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, gorizontalar o‘q ishlab chiqarish va sotish hajmini, vertikal o‘q esa hisobot davridagi foyda va zararlarini aks ettirgan.

Agar sotish hajmi nolga teng bo'lsa, unda maksimal zararlar doimiy xarajatlar summasiga teng bo'lishi shart, chunki korxonaning zararlari uning doimiy xarajatlari summasidan oshib ketmasligi lozim.

Har bir birlik mahsulot sotilganda, doimiy xarajatlardan yuqori 10000 so'mlik yalpi foydaga erishiladi, chunki foyda va zararlarning intervali 10000 so'mdan qilib belgilangan, natijada sotish hajmi 6000 donaga yetganda yalpi foyda doimiy xarajatlar yig'indisiga tenglashadi.

Bunda har bir 6000 donadan yuqori sotilgan mahsulot uchun 10000 so'mdan qo'shimcha foyda olinadi. Demak, sotish hajmi 10000 dona bo'lganda foyda summasi 400000000 so'mni ($40000 \text{ so'm} \times 10000 \text{ dona}$) tashkil etadi. Sotish hajmi va foyda o'rtasidagi bu nisbat rasmda punktir chiziq bilan ko'rsatilgan.

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish hajmi (quvvati) mashina va uskunalarning bo'sh turib qolishi, ularni ta'mirlash vaqti, ishdagi tanaffuslar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, u optimal yoki real imkoniyat darajasiga ega bo'ladi. Optimal imkoniyat - mashina va jihozlarning bo'sh turmasdan yuqori unum bilan ishlash darajasi hisoblanadi. Real imkoniyat esa - mashina va jihozlarning o'rtacha (normal) quvvat bilan ishlashi mumkin bo'lgan imkoniyatidir. Demak, optimal imkoniyatdan real imkoniyatni chegirib tashlasak, ishlab chiqarish quvvati kelib chiqadi, bu amaliyotda nazariy quvvat (imkoniyat) deb ham ataladi.

Shu o'rinda, ishlab chiqarish hajmi bilan o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasida o'zaro chiziqli bog'lanish mavjudligini ham ta'kidlab o'tish lozim ya'ni koordinata tekisligida xarajatlar va mahsulot birligi ma'lum nuqtalarda kesishadi. Biroq, hamma o'zgaruvchan xarajatlar ham ishlab chiqarish quvvati bilan to'g'ri chiziqli bog'lanishda bo'lmaydi. Shu sababli, ularni rejalashtirish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanish imkoniyati mavjud emas. Chiziqsiz bog'langan xarajatlarni shartli ravishda chiziqli bog'lanishga moslashtirish maqsadida «chiziqli aproksimatsiya» usulidan foydalaniladi.

Relevantli daromad va xarajatlar - haqiqiy olingan daromad va qilingan xarajatlar bo'lmay, ular kelajakda kutilayotgan daromad va xarajatlar hisoblanib, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaradi.


Ularni tan olishning ikkita mezon mavjud:

1 agar daromad va xarajatlarning kelgusi boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgarishi ko'zda tutilsa, ular relevantli deyiladi;

2 daromad va xarajatlarning miqdori boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgarsa ya'ni ko'p variantlilik vujudga kelsa, ular relevantli deyiladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, haqiqiy xarajatlar va olingan daromadlar relevantli deb qaralmaydi, chunki qanday boshqaruv qarorlari qabul qilishdan qat'i nazar ularning miqdorini o'zgartirib bo'lmaydi.

Ko'p variantlilik ya'ni relevantlik holatini quyidagicha tasvirlash mumkin (32.5-rasm).



32.5-rasm. Relevantlik darajasining aproksimatsiya chizig'i bilan o'zaro bog'liqligi

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, to'g'ri chiziqli o'zgaruvchan xarajatlar bilan egri chiziqli o'zgaruvchan xarajatlar ma'lum darajada alohida, ma'lum bir nuqtada esa bir tekisda harakat qiladi va keyinchalik yana ajralib ketadi. Mana shu chiziqlar qo'shilgan oraliq relevantlik darajasi deb ataladi.

To‘plamlar (tenglamalar) usuli yordamida zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

Yalpi tushum - O‘zgaruvchan xarajatlar-

- Doimiy xarajatlar = Foyda

Formula ko‘rsatkichlari hisob-kitobini quyidagicha yoyib chiqish mumkin:

(Bir birlik mahsulotning bahosi □ Bir birlik mahsulotning miqdori) - (Bir birlik mahsulotga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlar □ Bir birlik mahsulotning miqdori) - Doimiy xarajatlar = Foyda

Sotishlarning zararsizlik (kritik) nuqtasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

Marjinal daromad usuli tenglamalar usulining turlaridan biri hisoblanadi. Bunda zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Zararsizlik nuqtasi} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar}}{\text{Marjinal daromad normasi}}$$

Chidamlilikning marjinal zaxirasi - bu mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olinadigan haqiqiy tushumning sotishni zararsizligini ta‘minlovchi ostonaviy tushumdan oshib ketishini ko‘rsatuvchi kattalikdir. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula bilan topiladi:

$$\text{Chidamlilik marjinal zahirasi} = \frac{\text{Haqiqiy tushum-Ostanaviy tushum}}{\text{Haqiqiy tushum*100\%}}$$

Zararsiz sotuv vaqtida mahsulot bahosini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Mazkur formula yordamida ishlab chiqarish hajmini belgilash, sotish va zarur darajada foyda olish imkonini beradigan bahoni belgilash mumkin.

Korxonalarda ishlab chiqarish dastagi samarasini aniqlash tartibi

Ishlab chiqarish dastagi (leverage, so‘zma-so‘z tarjimada richag, dastak) - bu korxonada foydasini samarali boshqarishning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zaro mutanosibligiga asoslangan mexanizmidir. Uning yordamida sotish hajmi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda korxonada foydasi o‘zgarishini taxminlash,

shuningdek, zararsiz faoliyat yuritish nuqtasi topiladi. Korxonada xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchaga bo'lishga asoslangan marjinal usuldan foydalanishda ishlab chiqarish dastagi mexanizmini qo'llanishi zaruriy shartdir.

Ishlab chiqarish dastagi samarasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$s_{li} = \frac{MD}{F} \text{ yoki } \frac{Xd + F}{F} = 1 + \frac{Xd}{F}$$

bu yerda,

s_{li} - ishlab chiqarish dastagi samarasi;

MD - marjinal daromad;

X_d - doimiy xarajatlar;

F - foyda.

Ushbu formula yordamida topilgan ishlab chiqarish dastagi samarasining qiymati korxonada tushumi o'zgarishiga bog'liq ravishda foydaning o'zgarishini taxminlash imkonini beradi.

Ushbu holat quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$s_{LI} = \frac{DF}{DT}$$

bu yerda,

DF - foydaning o'zgarishi, % da;

DT - tushumning o'zgarishi, % da.

Yanada aniqroq tasavvur qilish uchun ishlab chiqarish dastagi samarasini «Andijonsut» aksiyadorlik jamiyatining 2019 yilgi ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz, (so'mda).

1) Sotishlar summasi (tushum)	575454
2) O'zgaruvchan xarajatlar	444096
3) Marjinal daromad (1q-2q)	131358
4) Doimiy xarajatlar	74045

- 5) Asosiy faoliyat(operatsion)
foydasi (3q-4q) 57313
- 6) Sotilgan mahsulot hajmi, dona 1050
- 7) Bir birlik mahsulot bahosi, so‘m 548,05
- 8) Ishlab chiqarish dastagi
samarasi (3q:5q) 2,29

Bizning misolimizda ishlab chiqarish dastagi samarasi 2,29 birlikni tashkil etadi (131358:57313). Bu shuni anglatadiki, korxonada tushumi 1%ga pasayganda, foyda 2,29%ga qisqaradi, tushum 23%ga pasayganda esa, biz rentabellik ostonasiga yetamiz ya'ni foyda nol bo'ladi. Faraz qilaylik, tushum 10%ga qisqardi va 517908,6 so'mni tashkil etdi (575454x10:100). Bunday sharoitda korxonada foydasi 22,9%ga qisqaradi va 27232,02 so'mni tashkil etadi.

$$I_d = \frac{M_x (B - X_{uz})}{M_x (B - X_{uz}) - X_d}$$

bu yerda,

I_d -ishlab chiqarish dastagi;

M_x -sotilgan mahsulot hajmi, dona;

B-bir birlik mahsulotning bahosi;

X_{uz} -bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar;

X_d -doimiy xarajatlar.

Ishlab chiqarish dastagi korxonada rahbarlariga xarajatlar va foydani boshqarish, yuqori foyda olish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishga ko'maklashuvchi moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich hajmining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar;
- sotish bahosi va hajmi;

- yuqoridagi omillar kombinatsiyasi (moliyaviy va ishlab chiqarish dastaklarini hisoblashda zanjirli bog‘lanish usulini qo‘llash).

Shuningdek, sotishlar hajmini o‘zgarishi foydaning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga nisbati turlicha bo‘lgan korxonalarda bir xilda bo‘lmasligi mumkin. Bunda korxonalar xarajatlarining umumiy summasidagi doimiy xarajatlarni solishtirma og‘irligi qancha past bo‘lsa, korxonalar tushumi o‘zgarishi sur‘atlariga nisbatan foyda hajmi shunchalik o‘sadi.

Ishlab chiqarish dastagi mexanizmining namoyon bo‘lishi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish dastagining ijobiy samarasiga korxonalar mahsulot ishlab chiqarishning zararsiz nuqtasini bartaraf etgandan keyingina erishish mumkin. Bunda korxonalar o‘zining avvalgi doimiy xarajatlarini qoplash uchun marjinal daromadning yetarli miqdorini belgilaydi;

2. Sotish hajmining bundan keyingi ortib borishi va zararsizlik nuqtasidan uzoqlasha borishi bilan ishlab chiqarish dastagi samarasi pasaya boradi. Sotish hajmini o‘shining har bir keyingi foizi foyda summasining o‘shini ta‘minlaydi;

3. Ishlab chiqarish dastagi mexanizmi teskari yo‘nalishga ham ega ya‘ni sotish hajmini pasayishida korxonalar foydasi hajmi ham kamayib boradi;

4. Ishlab chiqarish dastagi va korxonalar foydasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud, korxonalar foydasi qancha yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish dastagi samarasi shuncha past bo‘ladi va uning teskarisi ham kuzatiladi;

5. Ishlab chiqarish dastagi samarasi faqat qisqa muddatda yuzaga keladi ya‘ni korxonalar doimiy xarajatlari qisqa vaqt oralig‘idagina o‘zgarishsiz qoladi. Sotish hajmini ortishi jarayonida doimiy xarajatlarni summasining navbatdagi o‘zgarishi ro‘y berishi bilanoq korxonalar zararsizlikning yangi nuqtasini belgilashi va unga o‘zining ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim.

Korxonalar tovar bozorining sotish hajmi pasayishi mumkinligini belgilab beruvchi noqulay kon‘yunkturada, shuningdek, korxonalar iqtisodiy faoliyatining ilk bosqichlarida zararsizlik nuqtasi bartaraf etilmaganda, doimiy xarajatlarni pasaytirish uchun chora-tadbirlar ko‘riladi. Shuningdek, tovar bozorining qulay

kon'yunkturasida va chidamlilikni ma'lum marjinal zaxirasi mavjudligida doimiy xarajatlarni iqtisod qilishni amalga oshirishga bo'lgan talablar ancha pasayishi mumkin. Bunday sharoitlarda korxonada asosiy ishlab chiqarish vositalarini qayta jihozlashi va yangilashi, real investitsiyalar hajmini ancha kengaytirishi lozim. Zarurat tug'ilganda har bir korxonada doimiy xarajatlar summasi va hajmini pasaytirish uchun yetarli darajada resurslarga ega bo'lishi zarur. Ushbu resurslar tarkibiga tovar bozorining noqulay kon'yunkturasida ustama xarajatlar (boshqarish xarajatlari)ni imkon darajada qisqartirish, amortizatsiya ajratmalarini kamaytirish maqsadida nomoddiy aktivlar va asbob-uskunalarini foydalanilmayotgan qismini sotish, asosiy vositalarni sotib olmasdan ularni operativ lizing shartnomasi asosida olish, kommunal xizmatlar hajmini qisqartirish va h.k.lar kiradi.

O'zgaruvchan xarajatlarni tejashning asosiy zaxiralari qatoriga quyidagilar kiritiladi: xodimlar mehnat unumdorligini oshirish hisobiga asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xodimlari sonini kamaytirish, tovar bozorining noqulay kon'yunkturasida sharoitida xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari hajmini qisqartirish, xomashyo va materiallarni yetkazib berishning korxonada uchun qulay sharoitlarni yaratish va boshqarish.

Ishlab chiqarish dastagi mexanizmidan foydalanish doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni aniq maqsadga yo'naltirish va boshqarish, beqaror bozor sharoitida ular o'rtasidagi o'zaro nisbatni tezkor o'zgartirib borish hamda korxonada foydasini oshirishga imkon beradi.

Shunday qilib, CVP - tahlili korxonada rahbarlariga o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar, baho va mahsulot sotish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga, ishbilarmonlik riskini pasaytirish imkonini yaratadi. Uni universal formulasini qo'llash orqali o'tkaziladigan tahlil sifatini oshirishga erishiladi.

32.3. Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish

Investitsiya faoliyati korxonada tomonidan investitsiya resurslarini (pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, aqliy salohiyat, kredit, yer va boshqa ko'chmas

mulk ob'ektlari kabi) iqtisodiyot sohaslariga daromad (foйда) olishni yoki ijtimoiy samaraga erishishni maqsad qilib joylashtirilish jarayonini o'zida ifoda etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar yo'naltiriladigan sohaga ko'ra ishlab chiqarish va moliyaviy investitsiyalarga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan.

Ishlab chiqarish (real) investitsiyasi korxonalar faoliyatining muayyan sohasi va turiga, real kapital o'sishiga ya'ni ishlab chiqarish vositalari, aylanma mablag'lar qiymatini o'sishiga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini rivojlantirishga asosiy omil bo'luvchi xarajatlardir.

Moliyaviy (portfelli) investitsiyalar esa qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy qo'yilmalarga qilingan xarajatlarni ifodalaydi. Bu xarajatlarning bevosita moddiy kapitalni ko'paytirishga olmaydi, ammo korxonaga qo'shimcha foyda keltiradi. Qo'shimcha foyda tarkibiga qimmatli qog'ozlar kursining vaqtga qarab ijobiy o'zgarishi yoki ijobiy valyuta tafovuti kiritiladi.

Investitsiya pul mablag'larini biror-bir faoliyat turiga ma'lum muddatga sarflanishiga qarab, uzoq (1 yildan ortiq) va qisqa muddatli (1 yilgacha) investitsiyalarga bo'linadi.

Investitsiya xarajatlari faqat kelgusida daromad keltirganligi bois investitsiya faoliyati korxonalar uchun murakkab hisoblanadi. Shu sababli, korxonalar oqilona investitsiya qarorlari qabul qilish uchun dastlab taklif etilayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashlari hamda ularning ko'p mablag' talab qiladigan tomonlari haqida aniq ma'lumot olishga harakat qilishlari lozim.

Investitsiya loyihasi aniq, puxta o'ylangan g'oyaga, maqsadga ega bo'lgan (shu jumladan kapital qurilish ham), uni amalga oshirish uchun investitsiya qo'yilishini talab qiladigan xarajat dasturidir.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkita sharti mavjud: loyihaga ma'lum miqdorda mablag'lar sarflash zaruriyati, mablag'larni sarflash va qoplash (foйда olish) o'rtasida muayyan vaqt mavjudligi.

Investitsiya loyihalarini yaratish va uni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- investitsiya g'oyalarining shakllanishi ya'ni g'oyani tanlash va dastlabki

asoslash, ekologik nuqtai-nazardan bir qarorga kelish, uni amalga oshirish davomida qo'yiladigan talablarga javob berish;

- investitsiya imkoniyatlarini izlash ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulotga yoki xizmat turiga bo'ladigan talabni o'rganish loyiha ishtirokchilari tarkibi bo'yicha takliflar, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash;

- loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- shartnomaga oid hujjatlarni tayyorlash;
- tender savdolariga tayyorgarlik;
- salohiyatli investorlar bilan muloqotlar;
- loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- nostandart texnologik jihozlarni tayyorlovchi va yetkazib beruvchilarni aniqlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- ob'ektni ishlab chiqarishda tajribadan o'tkazish, iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi va ob'ektni loyiha quvvatiga yetkazish.

Investitsiya loyihalarni amaliyotga tadbiq qilish jarayoni ikkita bosqichga ajratiladi:

Loyihani ishlab chiqish loyiha maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan boshlang'ich jarayon bo'lib, u dastlabki hisob-kitoblarni bajarish, qulay variantlarni tanlash, loyiha qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslashdir.


Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda asosiy vazifa - loyihani amalga oshirish haqida qaror qabul qilish va bu loyihaga investitsiya ajratish maqsadida har taraflama texnik-iqtisodiy asosnoma tayyorlashdir. Agar loyiha tijorat xususiyatiga ega bo'lsa, texnik-iqtisodiy asosnomaga qo'shimcha ravishda loyihaning biznes-rejasi ham ishlab chiqilishi lozim.

Loyihani amalga oshirish uni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish, loyihani muayyan iqtisodiy voqelikka aylantirish, loyihani oldiga qo'yilgan barcha maqsadlarga erishishdir.

Amaliyotda investitsiya jarayoni uch asosiy fazaga bo'linadi. Bunda

investitsiya jarayonining butun davri loyihaning hayotiy muddati yoki hayotiy jarayoni deb ataladi.

Investitsiya loyihasi jarayoni fazalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini aniq tasavvur qilish uchun quyidagi rasmga murojaat qilamiz (32.6-rasm).



32.6-rasm. Investitsiya xarajatlari va ularni investitsiya loyihasining turli bosqichlarida keltirgan daromadining o'zgarishi

Keltirilgan rasmning quyi qismida loyihani amalga oshirish jarayonida sarflanadigan investitsiya zaxiralari hajmi, yuqori qismida esa loyihaga kapital sarflashdan olingan daromad (foyda)ning o'zgarishi tasvirlangan.

Investitsiya jarayonining dastlabki fazasida loyihani iqtisodiy va texnik jihatdan asoslash bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi ya'ni loyiha iqtisodiy, texnik va texnologik jihatdan qayta ishlanadi. Bu faza loyihani boshlang'ich hujjatlarini ishlab chiqish bilan yakunlanadi

Investitsiya oldi (dastlabki) fazasi investitsiya loyihasini ishlab chiqishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Mazkur faza investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki izlanishlardan boshlab uni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul

qilingungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Investitsiya jarayonining ikkinchi fazasi investitsiya fazasi deb ataladi. Bu fazaning asosiy vazifasi loyihaga ajratilgan moliyaviy investitsiyalarni to'g'ri sarflanishini hamda loyihada belgilangan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni va samaradorligini ta'minlashdir.

Investitsiya fazasida imoratlar va inshootlarni ta'mirlash ishlari bajariladi, jihozlar sotib olinadi va o'rnatiladi, ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllantiriladi, undan keyin mahsulotni turkumli ishlab chiqarish va sotishga o'tiladi.

Investitsiya fazasi tugab, loyiha amalga oshirila boshlagach, investitsiya xarajatlari hajmi kamayib boradi. Investitsiya loyihasi keltiradigan daromad hajmi esa ortadi, chunki u asta-sekin o'z samarasini bera boshlaydi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, sotish hajmining ko'paytirishga imkon beradi.

Loyihaning bu tariqa rivoji uning **foydalanish deb ataluvchi uchinchi fazasida** davom etadi. Uchinchi fazada ishlab chiqarish hajmini saqlab turish va ko'paytirish uchun asosiy vositalarning eskirishi orqali jamg'arilgan manbadan ham foydalaniladi. Unda mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromadni investitsiya xarajatlaridan oshishi kuzatiladi. Natijada t_1 vaqtda daromadning umumiy summasi loyihaga qo'yilgan kapital qo'yilma qiymatiga teng bo'ladi va loyihani qoplash nuqtasiga yetadi.

Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida uni moliyaviy jihatdan baholanadi. Buning uchun loyihani qoplash darajasi, investitsiyalar samaradorligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Korxonalar faoliyatida investitsiya manbalarining yetishmasligi doimo ulardan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Agar investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investitsiya hajmi yetarli bo'lsa, korxonalar sarflangan investitsiyadan, investitsiya zaxirasining har bir birligidan ehtimoli kutilgan eng ko'p iqtisodiy samara olishga harakat qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining paydo bo'lishi, turli xil mulk shakllarining rivojlanishi, iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamayishi, ichki va tashqi investorlarning faollashuvi rentabellikni aniqlashga yangicha yondashuv -

investitsiyalar (yoki ularning alohida elementlari: kapital qo'yilma, kapital) samaradorligini hisoblashni talab qilmoqda.

Sarflangan kapitaldan olinadigan **mutlaq iqtisodiy samara** (E) sarflangan kapital hisobiga olingan daromad (D) va investitsiya qo'yimlarining hajmi (I_x) o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$E = D - I_x$$

Kapital qo'yimlardan kelgan daromad miqdori ularning dastlabki hajmidan oshgan vaqt investitsiyalarni qoplash muddati deb ataladi. Keyingi holatda kapital sarflashdan olingan daromad kapital qo'yilmadan orta boshlaydi. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasidagi kapital sarflash samaradorligining eng zarur ko'rsatkichidir.

Amaliyotda kichik tadbirkorlik sub'ektlariga qilingan uzoq muddatli investitsiya qo'yimlari 2-3 yil ichida qoplanadi, uzoq muddatli investitsiya qo'yimlarini qoplash uchun esa 10-15 va undan ham ko'proq yil talab qilinadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi kapital qaytimiga nisbatan investitsiyalardan tushgan foyda bilan belgilanadi.

Iqtisodiy loyiha asosida amalga oshirilgan **investitsiyalarning samaradorligi** (I_s) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_s = \frac{F}{I_x}$$

bu yerda,

F - investitsiya natijasida olingan foyda.

Ushbu holatda investitsiya samaradorligi bir birlikdan ortiq bo'lishi kerak, shundagina qilingan xarajatlar qoplanadi. Xalqaro amaliyotda investitsiyalarning rentabelligi yillik balans foydasini (F) jami avanslangan kapitalga nisbati bilan aniqlanadi:

$$I_r = \frac{F}{A_1 + A_2 + A_3 + A_4}$$

bu yerda,

I_r avanslangan investitsiyalarning rentabelligi;

F- yillik balans foyda;

A_1, A_2, A_3, A_4 - choraklar bo'yicha avanslangan kapital qiymati.

Korxonalarining o'z mablag'larini kelgusida foiz stavkasi ko'rinishida foyda olish maqsadida joriy qiymatida vaqtinchalik investitsiyalash jarayoni *diskontlash*, uning natijasida hosil bo'lgan ko'rsatkich - *diskontlangan qiymat* deyiladi.

Xarajatlarni diskontlash koeffitsiyenti (D_k) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D_k = \frac{I_k}{P_{MO}}$$

bu yerda,

I_k - investitsiyalarning qiymati;

P_{MO} - yillik pul mablag'lari oqimi.

Investitsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddat talab qilinishi sababli mablag'larni investitsiyalash vaqtida pul mablag'larini ularning qaytimi bilan taqqoslash zaruriyati tug'iladi. Bu maqsadda pul mablag'larining kelgusi va haqiqiy qiymati tushunchalaridan foydalanish zarur.

Pul mablag'larining kelgusi qiymati joriy davrda investitsiyalangan mablag'larning summasini ifodalaydi, ular belgilangan foiz stavkasini hisobga olgan holda ma'lum vaqt oralig'ida shu summaga aylanadi.

Pul mablag'larining haqiqiy (hozirgi) qiymati foizning ma'lum stavkasini hisobga olgan kelgusi pul mablag'lari summasini bildiradi. Pul mablag'larining haqiqiy qiymatini aniqlash uchun ular qiymatini muayyan vaqtdagi diskontlashtirish jarayonini ham hisobga olish lozim, chunki u pul mablag'larining kelgusi miqdorda ortib borishiga teskari muomalani ifodalaydi. Bunday holda foiz summasi (diskont) pul mablag'larining yakuniy summasi (kelgusi qiymati)dan ayirib tashlanadi.

Mablag'larni investitsiya qilish va investitsiya foydasini shakllantirish bilan bog'liq moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish paytida pul mablag'lari

qiymatini oshira borish (kompaunding) hamda diskontlash jarayonlarini oddiy va murakkab foizlar bo'yicha hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Oddiy foizlar qisqa muddatli investitsiyalashda, murakkab foizlar esa uzoq muddatli investitsiyalashda qo'llaniladi.

Oddiy foizlar deganda mablag'larni investitsiyalash jarayonida shartnomaga asosan kelishilgan to'lovning hisobot davri (oy, chorak va h.k.) yakunida qo'yilmaning dastlabki (haqiqiy) qiymatiga asosan hisob qilinishi tushuniladi.

Oddiy foiz summasi qo'llanilganda qo'yilmani ortib borishi (kompaunding) jarayonida quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$I_p = K_0 \cdot p \cdot F_p$$

bu yerda,

I_p - investitsiyalashni kelishilgan davri uchun foiz stavkasi;

K_0 - qo'yilmaning dastlabki summasi;

p - investitsiyalash davomiyligi (har bir foiz to'lovi amalga oshiriladigan davrlar miqdori bilan ifodalangan);

F_p - o'nli kasr bilan ifoda etilgan, foydalaniladigan foiz stavkasi.

Ushbu holatda qo'yilmaning kelgusi qiymati (K_q) foiz summasini hisobga olgan holda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_q = K_0 \cdot (1 + p)^n = K_0 \cdot (1 + p \cdot n)$$

1-misol. Quyida berilgan shartlar orqali bir yil uchun foiz summasini aniqlash zarur. Qo'yilmaning dastlabki summasi 500000 so'm. Har chorakda to'lanadigan foiz stavkasi - 10%. Bu miqdorlarni formulaga qo'yib chiqib foiz summasini aniqlaymiz:

$$I_n = 500000 \cdot 4 \cdot 0,1 = 200000 \text{ so'm}$$

Qavs ichidagi ko'rsatkichlar ($1 + p \cdot n$) oddiy foizlar summasini ortib borishi koeffitsiyenti deyiladi. Bu koeffitsiyent doim bir birlikdan katta bo'ladi.

Pul mablag'i qiymatini diskontlash jarayonida oddiy foiz summasini hisob-

kitob qilishda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$D = K_b - K_0 \cdot \frac{1}{1 + p \cdot F_p}$$

2-misol. Quyidagi shartlar asosida bir yil uchun oddiy foiz bo'yicha diskont summasini aniqlash lozim. Qo'yilmaning yakuniy summasi 800000 so'm miqdorida belgilangan.

Har chorakda to'lanadigan diskont stavkasi 10%ni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlarni diskont summasini hisoblash formulasiga qo'yib chiqsak, quyidagi natijani olamiz:

$$D = 800000 - 800000 \cdot \frac{1}{1 + 4 \cdot 0,1} = 228571,4$$

Demak, bir yildan so'ng 800000 so'm olish uchun zarur bo'lgan investitsiya xarajatlarning haqiqiy qiymati quyidagicha bo'lishi lozim:

$$K_0 = 800000 - 228571,4 = 571428,6$$

Murakkab foiz deb, hisoblangan oddiy foiz summasi belgilangan har bir davrdan keyin to'lanmaydigan, balki asosiy qo'yilma summasiga qo'shib, keyingi to'lov davrida daromad keltiradigan investitsiya qilish natijasida yuzaga keladigan foyda summasiga aytiladi.

Qo'yilma summasini hisoblashda murakkab foizlar bo'yicha uning ortib borishi quyidagi formula orqali topiladi:

$$K_{bs} = K_0 \cdot (1 + F_p)^p$$

bu yerda,

K_{bs} - qo'yilmaning murakkab foizlar bo'yicha ortib borish qiymati.

Ushbu formulaga muvofiq foiz summasi (I_n) quyidagicha hisoblanadi:

$$I_p = K_0 \cdot F_p \cdot K_{bs}$$

3-misol. Quyidagi shartlar asosida investitsiyalashning butun davrida murakkab foiz summasi bilan qo'yilmaning kelgusi qiymatini aniqlash talab

qilinadi.

Qo'yilmaning dastlabki qiymati 500000 so'm.

Murakkab foizli usulda qo'llaniladigan va har chorakda to'lanadigan foiz stavkasi - 10%.

Investitsiyalashning umumiy davri ko'rsatkichlarini yuqoridagi formulaga qo'yib, qo'yilmaning kelgusi qiymatini aniqlaymiz:

$$K_{bs} = 500000 \cdot (1 + 0,11) = 555000$$

Ushbu holatda foiz summasi 55000 so'm (555000-500000)ni tashkil etadi.

Pul mablag'larining haqiqiy qiymatini hisoblashda murakkab foizlar bo'yicha diskontlash jarayonini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$K_x = \frac{K_0}{(1+F_p)^p}$$

bu yerda,

K_x -murakkab foizlar bo'yicha hisoblangan qo'yilmaning dastlabki summasi.

Shunga binoan diskont summasi (D_s) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$D_s = K_0 - K_x$$

4-misol. Quyidagi shartlar asosida bir yil uchun murakkab foizlar bo'yicha diskont summasi va pul mablag'ining haqiqiy qiymatini aniqlash zarur. Pul mablag'ining berilgan qiymati 500000 so'm.

Murakkab foizni diskontlash uchun foydalaniladigan stavkasi har chorakda 10%ni tashkil etadi.

Ushbu ko'rsatkichlarni formulaga qo'yib, pul mablag'ining haqiqiy qiymatini aniqlaymiz:

$$\text{Haqiqiy qiymat} = \frac{500000}{(1 + 0,1)^4} = 342465,8 \text{ so'm}$$

Shunga muvofiq, diskont summasi 157534,2 so'm (500000-342465,8)ni tashkil etadi.

Pul oqimlarini o‘zaro teng to‘lovlarining bunday bir tekisligi *annuitet* deb ataladi. Annuitetga misol qilib investitsiyalar bo‘yicha har chorakda to‘lanadigan foiz to‘lovlari summasi, ijaradagi mulk uchun bir tekis to‘lov va h.k.larni olish mumkin. Annuitet ko‘rinishidagi pul oqimlari to‘lovlarini ketma-ketligini aniqlash pul mablag‘larini ortib borish jarayonini hisoblashni ancha yengillashtiradi hamda ular qiymatini diskontlash uchun soddalashtirilgan formulalar to‘plamidan foydalanish imkonini beradi.

5-misol. Investor 500000 so‘mni 1 yil muddat bilan depozit qo‘yilmaga joylashtirishni mo‘ljallagan. Bir bank investorga murakkab foizlar bo‘yicha har chorakda 7,5% miqdorda to‘lashni, ikkinchisi esa 10% miqdorida to‘rt oyda bir marta, uchinchisi - 15% miqdorida yilda ikki marta, to‘rtinchisi - 30% miqdorida yiliga bir marta to‘lashni taklif qiladi.

Bu variantlarni taqqoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, investor uchun birinchi bank taklif etayotgan foiz stavkasi foydali hisoblanadi.

Annuitetning kelgusi qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$A_{kel} = A_{ts} * d_{koef}$$

bu yerda,

A_{kel} - ma’lum davr oxirida annuitetning kelgusi qiymati;

A_{ts} - annuitet to‘lovi summasi;

d_{koef} - annuitet qiymati ortib borishini foizning qabul qilingan stavkasi va davrlarini hisobga olgan maxsus jadval bo‘yicha aniqlanadigan koeffitsiyenti.

Investitsiyalashning qaysi varianti samaradorligini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (32.2-jadval).

32.2-jadval

Investitsiyalashning turli sharoitlarida qo‘yilmaning kelgusi qiymatini hisoblash

Variantlar	Qo‘yilmaning	Foiz	Yakuniy kelgusi qiymat
------------	--------------	------	------------------------

	haqiqiy qiymati	stavkasi	1 chorak	2 chorak	3 chorak	4 chorak
1	500000	0,075	537500	577812,5	621148,4	667734,5
2	500000	0,1	550000	605000	665500	732050
3	500000	0,15	575000	661250	760437,5	874503,1
4	500000	0,3	650000	845000	1098500	1428050

Shunga binoan, annuitetning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun formula quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$A_{hq} = \frac{A_{qs}}{A_{dk}}$$

bu yerda,

A_{hq} - annuitetning haqiqiy qiymati;

A_{qs} - annuitetni qoplash summasi;

A_{dk} qabul qilingan diskont stavkasi va davrlar miqdorini hisobga olib, maxsus jadvallar bo‘yicha aniqlanadigan annuitetni diskontlash koeffitsiyenti.

Pul mablag‘larining haqiqiy qiymatini baholashda inflyatsiya omili ham muhim ahamiyatga ega, u pul mablag‘larining sotib olish qobiliyatini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Investitsiyalash jarayonida pul oqimlarini samarali boshqarish bilan bog‘liq hisob-kitoblarga inflyatsiyaning ta‘sirini baholashda pul mablag‘larining nominal va haqiqiy qiymatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pul mablag‘larining nominal qiymati pulning sotib olish qobiliyati o‘zgarishini hisobga olmay uning hajmini baholashni nazarda tutadi.

Pul mablag‘larining haqiqiy qiymati esa ularning kelgusi va hozirgi qiymatini aniq hisoblashda samarali qo‘llanilishi mumkin.

Odatda, inflyatsiya ta‘sirini baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

1) inflyatsiya sur‘ati (I_s). Bu ko‘rsatkich muayyan davrda (n) baholarning investitsiya hisob-kitoblarida ifoda etilgan o‘nlik kasrdagi o‘rta darajadagi o‘shishni

ifodalaydi.

2) inflyatsiya indeksi ($I_{\text{indek.}}$).

$1QI_s$ deb belgilanadigan ko‘rib chiqilayotgan davrda (n) inflyatsiyani hisobga olgan holdagi pul mablag‘larining qo‘shilgan qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_{\text{haq}} = \frac{P_{\text{nom}}}{I_{\text{indeks}}}$$

bu yerda,

P_{haq} - pul mablag‘larining kelgusi haqiqiy qiymati;

$P_{\text{nom.}}$ - pul mablag‘larining kelgusi nominal qiymati;

Mazkur formula yordamida pul mablag‘lari qiymati ortib borishi jarayonidagi foizning foydalaniladigan stavkasida inflyatsiya darajasi hisobga olingan bo‘lmasa, pul mablag‘larining aniq to‘langan qiymatini aniqlash mumkin.

32.4. Biznes tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida respublikamiz korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish ya’ni biznes tarkibini o‘zgartirish (qayta tarkiblash) moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda ularni taqsimlash imkonini beradi.

Ushbu tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy maqsadi korxonaning tanlagan rivojlanish strategiyasiga muvofiq uning tashkiliy tuzilmasini mukammallashtirish, ishlab chiqarishni markazlash-magan holda boshqarishga erishish hisoblanadi.

Quyidagi holatlar korxonalarda qayta tarkiblash zaruratini yuzaga keltiradi:

- 1 mablag‘larni qayta investitsiyalash, rivojlanishning uzoq muddatli dasturini amalga oshirish, ularning uzluksiz moliyalanishini ta’minlash;
- 2 boshqarishning samarali tizimini shakllantirish;
- 3 birgalikdagi faoliyatdan olinadigan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni qat’iy nazorat qilish;

4 investitsiya loyihalari (biznes-rejalar)ni yagona standartlar asosida, xorijiy investorlar manfaatlari va tashqi omillar (inflyatsiya darajasi, soliq qonunchiligi, tarmoqning rivojlanish tamoyillari va h.k.)ni inobatga olgan holda rasmiylashtirish;

5 investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha rejalarini korxonadan tomonidan bajarilishini joriy nazorat qilish, tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilishda loyihalar borasidagi mavjud muammolar haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar qilish;

6 korxonaning moliyaviy-xo'jalik holati va investitsiya loyihalari samaradorligi tahlili asosida investitsiya faoliyatining strategik rejasini ishlab chiqish;

7 investitsiya loyihalarini moliyalash strategiyasini rejalashtirish. Bunda investitsiya loyihalariga mavjud moliyaviy resurslarni taqsimlash, ularni samaradorlik darajasiga qarab guruhlash talab etiladi;

8 fond bozoriga mablag'larni jalb etish uchun sharoitlar yaratish;

9 qarzlarni qayta tarkiblash va ularni to'lash borasidagi muammolarini hal etish.

Biznes tarkibini o'zgartirish (qayta tarkiblash) bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

1 bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini tez muddatlarda o'zgartirish;

2 ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;

3 aylanma mablag'lar aylanishi tezligini ta'minlash va nazorat qilish imkoniyati;

4 korxonaning ishlab chiqarish va boshqa bo'linmalari o'rtasida oqilona baho siyosati yuritilishiga erishish va h.k.

Shuningdek, biznes tarkibini o'zgartirish natijasida ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyasi, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishni boshqarishda muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu holat esa korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Qayta tarkiblash jarayonida korxonani boshqarishning tashkiliy tizimi tahlil qilib chiqiladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'limlari, sexlari bozorda talab mavjud bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtiriladi, samarali faoliyat ko'rsatmayotgan bo'limlar, ishlab chiqarish shohobchalari tugatiladi. Boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan qarzlarni foydalanilmayotgan asbob-uskuna, jihozlar yoki binolarni sotish hisobiga qoplanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonini xomashyo va material, texnik vositalar bilan ta'minlovchi korxonalar yoki firmalar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar ham qayta ko'rib chiqiladi. Shular qatorida qayta tarkiblashning boshqa chora-tadbirlari ham amalga oshiriladi.

Albatta, bunday usulni qo'llash birinchidan korxonaning bozor talablaridan kelib chiqqan holda mahsulot ishlab chiqarishi, ikkinchidan xarajatlarni samarasiz yo'naltirilayotgan qismini tejab qolish va korxonaning pirovard moliyaviy natijasini oshishiga olib keladi.

Qayta tarkiblash jarayoni zarar ko'rib kelayotgan korxonalar ishlab chiqarishini tiklash yoki amaldagi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga imkon berishini aniqlash uchun korxonaning so'nggi yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarining holati va dinamikasi, ularga soliqqa tortish tizimining ta'sirini tahlil qilish zarur.

Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1 faoliyat yakuniy natijalari (debitorlik va kreditorlik qarzlari tannarx, tushum, taqsimlanmaydigan foyda, rentabellik, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, xodimlar soni, mehnatga haq to'lash fondi);

2 investitsiya va ish faolligining holati (o'z va qarz mablag'lari, zaxira va xarajatlarning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi, zaxiralar va o'z mablag'larining aylanuvchanligi);

3 likvidlilik va to'lovga layoqatlilik (joriy likvidlilik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti).

Korxonalar aktivlarini qayta tarkiblashda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1 ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash;

- 2 korxonada foydalanilmayotgan aktivlarni sotish va ijaraga berish, garovga berish hamda ro'yxatdan chiqarish;
- 3 tugallanmagan ishlab chiqarish, safarbar etilgan va boshqa mol-mulkni konservatsiyalash;
- 4 yangi yuqori sifatli jihozlarni xarid qilish, ijaraga, lizingga olish;
- 5 omborlardagi zaxiralarni kamaytirish, foydalanilmayotgan binolarni ijaraga berish;
- 6 debitorlik qarzlari qaytarilishi ustidan nazorat qilishni kuchaytirish;
- 7 moliyaviy qo'yilmalarni sotish, garovga qo'yish, ishonchli boshqaruvga topshirish.

Korxonada passivlarini qayta tarkiblash (passivlarning tarkibi va asosiy unsurlari ya'ni ustav hamda zaxira kapitali, jamg'arma fondi, ijtimoiy soha fondi, maqsadli moliyalash va tushumlar, taqsimlanmaydigan foyda, uzoq muddatli va qisqa muddatli qarz mablag'lari, kreditorlik qarzlarni tahlil qilish) ham yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi.

Ustav kapitali va kreditorlik qarzlarni qayta tarkiblash jarayoniga to'xtalamiz. Faraz qilaylik, «A» korxonaning ustav kapitali «V» korxonanikiga qaraganda 6 marta ko'p. Mazkur holatda «V» korxonaning ustav kapitalini qayta tarkiblash korxonada mulkdorlari (aksiyadorlar) tarkibining o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu uning moliyaviy ahvolini yaxshilaydi, salohiyatli investorlarni topishga ko'maklashadi.

Ushbu jarayonning kamchiligi shundaki, bunda korxonada mulkdorlari ustav kapitalidagi o'z ulushlarining qisqarishiga rozi bo'lishga majbur. Ammo, mulkdorlar ustav kapitalidagi o'z ulushini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni saqlab qolishlari mumkin. Ayni paytda ular qayta tarkiblash yo'li bilan ustav kapitalini ma'lum darajada ko'paytirishdan manfaatdordir, chunki korxonada bankrotlikka uchraganda uning barcha majburiyatlari amalga oshirilganidan keyin qolgan mol-mulkni sotishdan mablag'lar olish mumkin.

Korxonalar va xoldingning moliyaviy ahvoriga budjet hamda budjetdan tashqari fondlarga qarzlarni bo'yicha qayta tarkiblash samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bankning qisqa muddatli kreditlarini uzoq muddatli qarzlarga qayta rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Faraz qilaylik, «A» korxonadagi kreditorlik va debitorlik qarzlari «V» korxonadagiga qaraganda ikki marta ko'p. Bunda mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlarga qarzarlar bir necha usullar bilan qayta tarkiblanadi. Jumladan, bu holda mol yetkazib beruvchilarni korxonaga ustav kapitalida ishtirok etishga qiziqtirishi mumkin. Bunday holatda ustav kapitalini oshirish va aksiyalar (ulushlar va paylar)ning bir qismini mol yetkazib beruvchilarga sotish qarzlarni to'lash imkonini beradi.

Qayta tarkiblash asosida mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzдорlikni ham bartaraf etish imkoniyati mavjud. Bunda qarzni ishlab chiqarilgan mahsulot yoki korxonaning aksiyalari bilan qoplash mumkin. Ammo, buning uchun Nizomga muvofiq xodimlar va aksiyadorlarning roziligini olish talab etiladi.

Passivlar va aktivlarni qayta tarkiblash nafaqat o'zaro uzviy bog'langan, balki ular boshqaruv tizimini qayta tarkiblashning uzviy qismi hisoblanadi. Xususan, passivlarni qayta tarkiblash o'z-o'zidan aktivlarning qayta tarkiblanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida boshqaruv tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Qayta tarkiblash maqsadida boshqaruv tuzilmasi uchta yo'nalishga ajratiladi:

1. ishlab chiqarishni boshqarish;
2. xodimlarni boshqarish;
3. integratsion boshqaruv.

Ishlab chiqarishni samarali boshqarish korxonani rivojlantirish strategiyasiga mos kelishi lozim. Bu esa nafaqat ishlab chiqarishni qayta tarkiblash, balki oqilona kadrlar siyosatini amalga oshirish, moliya-iqtisodiy, marketing va yuridik bo'linmalarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, kadrlarning miqdoriy va sifat tarkibini yangilashga asoslanadi.

Qayta tarkiblashdan oldin ishlab chiqarishni tezkor va strategik boshqarishning tahlili hamda shu asosda boshqaruv qarorlarini qabul qilish amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni qayta tarkiblashdan maqsad - ishlab chiqarishni tayyorlanayotgan mahsulotlarga buyurtmalar bilan imkon darajada ta'minlash, ularni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun sharoitlar yaratib berish hisoblanadi. Shuningdek, bunda ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, kapital mablag'lar tarkibini o'zgartirish, boshqaruv tizimining qayta tashkil etilishini nazarda tutuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ular sifatini oshirish istiqbollarini belgilash ham muhim masalalardan hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni qayta tarkiblash to'g'risida boshqaruv qarorlari qabul qilishning zarurati ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulotning moliyaviy-iqtisodiy va marketing jihatdan tahlilini talab darajasida emasligi hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari asosida joriy yilda va kelgusida qanday tovarlarni qancha miqdorda ishlab chiqarish va sotish imkoni mavjudligini aniqlash mumkin.

Qayta tarkiblash jarayonida korxonalarining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish mahsulot ishlab chiqarishning eng foydali yo'nalishlarini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Bu ma'lumotlar asosida korxonada boshqaruv va ishlab chiqarish bo'linmalarining yangi, samarali tarkibi shakllanadi. Qayta tarkiblashda rentabelli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi bo'linmalardan tashqari bo'linmalarni salbiy natijalar (zarur mutaxassislar shtatining qisqarishi, tushumning kamayishi va h.k.)ga olib kelishiga qaramasdan tugatishga to'g'ri keladi. Chunki, bu tadbir korxonani iqtisodiy sog'lomlashtirishga ko'maklashadi.

Shuningdek, ishlab chiqarishni qayta tarkiblashda quyidagilarga asoslanish zarur:

- 1 uy-joy kommunal xo'jaligi, kapital qurilish, yordamchi xo'jaliklar kabi ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan bo'linmalarni mustaqil xo'jalik sub'ektlariga ajratish;

- 2 rentabelli ishlab chiqarishni sho'ba va tobe jamiyatlarga ajratish;

3 tegishli xizmat turlarini sotish jarayonini boshqaruvchi bo‘linmalarga topshirish va h.k.

Bu holatlar korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini xarajatlar va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil etishni talab qiladi. Ishlab chiqarishni yuqori iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri xodimlarning malakali kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishidir.

Ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish uchun korxonani qayta tarkiblashning yalpi dasturini ishlab chiqiladi. Mazkur dastur tahliliy amallarning natijalarini sintezlash, ular asosida qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo‘llari, usullari, shart-sharoitlarini aniqlash, bu boradagi zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Qayta tarkiblash dasturi maqsad va vazifalar, qayta tarkiblanayotgan korxonaning umumiy xususiyatlari, moliyaviy-iqtisodiy holatining tahlili, tovar bozorlari kon‘yunkturasi va mahsulotlar assortimenti tahlili, boshqaruv tizimi, aktivlar va passivlarni qayta tarkiblash, qayta tarkiblash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning taqvim rejasi, moliyaviy reja, mas‘ul ijrochilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, qayta tarkiblashning samaradorligi, xatarlarni baholash, kafolatlar, qayta tarkiblashni amalga oshirilishining nazorati kabi bo‘limlardan iborat bo‘ladi.

Qayta tarkiblashning yalpi dasturini ishlab chiqish va joriy etish korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni rivojlanish strategiyasi va bozordagi xatti-harakatlari, shuningdek, ishlab chiqarish va marketingni rejalashtirishda hal etiladigan vazifalarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Dastur korxonani boshqarishning vakolatli organi tomonidan muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Ushbu organ tomonidan dasturning ijrochilari va rahbari tayinlanadi.

Dastur bajarilishining borishi haqida hisobotlar korxonaning boshqaruv organiga taqdim etiladi va zarur hollarda unga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Dasturning amalga oshirilishi bo‘yicha ishlar tasdiqlangan moliyaviy rejaga

muvoqif moliyalashtiriladi. Mazkur dastur korxonani qayta tarkiblash bo'yicha tadbirlar taqvim rejasining bajarilishi bilan yakunlanadi.

Qayta tarkiblashning yalpi dasturi nafaqat iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolgan korxonalarga, balki samarali faoliyat ko'rsatib turgan korxonalarga ham foydali bo'lishi mumkin. Chunki, u oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish zaruratini asoslash, ishlab chiqarishni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilashga ko'maklashadi. Dasturni amaliyotga joriy etish korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

32.5. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash


Korxonalarda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilishga bevosita bog'liq.

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshqaruvi samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini istiqbolli rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur holatda korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati ichki va tashqi omillar ta'sirida takomillashadi. Ular oldiga o'z faoliyatlarini bozor tamoyillaridan kelib chiqqan holda tashkil etish talabi qo'yiladi.

Bu kabi talablar korxonalarga xaridorlar ehtiyojlarini optimal darajada qondirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan hamda tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchan boshqaruv tizimini vujudga keltirishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda boshqaruv samaradorligi alohida o'rin egallaydi, chunki har bir iqtisodiy tizim va jarayon samarali boshqarishni talab qiladi. Iqtisodiyotning boshqarish samaradorligi deyilganda, avvalombor, boshqarish jarayonining natijaviyligi tushuniladi.

Agar korxonada boshqaruv faoliyatining natijaviyligi xodimlar faoliyatining pirovard natijaviyligi bilan to'g'ri kelsa, boshqarishda murakkab, ko'p qirrali ob'ektni baholash bo'yicha to'liq (umumiy) yoki shaklan samaradorlik yuzaga keladi (32.7.-rasm).



32.7-rasm. Korxonada boshqaruv samaradorligining turlari


Samaradorlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida boshqaruvning barcha tomonlarini qamrab oladi va iqtisodiy, tashkiliy, marketing hamda boshqa munosabatlarni ifodalaydi.

Boshqaruv samaradorligi boshqaruvning o'ziga emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Bu holat boshqaruv va ishlab chiqarishni bir-biridan ajratib bo'lmazligi, biroq bu yaxlitlikda ishlab chiqarish ustuvor hisoblanishi lozimligi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish faqat ishlab chiqarishni emas, balki korxonada faoliyatining boshqa jihatlari, xususan, bozorlarni o'rganish, xodimlar va moliyani boshqarish kabilarning samaradorligini oshirishni ham talab etadi. Shu

sababali, boshqaruv samaradorligi deganda pirovard natijada ob'ektni yaxlit tizim sifatida oqilona faoliyat ko'rsatishi va uning rivojlanishini ta'minlaydigan boshqarishni tushunish zarur.

Korxonada boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda uning uslubiy jihatdan mezon va ko'rsatkichlari aniqlanishi alohida ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun boshqaruv tizimi samaradorligining tahlilini o'tkazish lozim. Chunki o'tkaziladigan tahlil qanchalik chuqur va sifatli bo'lsa, boshqaruv samaradorligining ob'ektiv baholanishiga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tahlil jarayonida aniqlangan mezon va ko'rsatkichlardan foydalanib boshqaruv samaradorligiga baho beriladi. Quyidagi rasmda boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli keltirilgan (32.8.-rasm):



32.8-rasm. Boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, tahlil modeli shartli ravishda uchta blokka bo‘lingan:

I-blok - korxonaning ta‘minot tahlili (kadrlar, moddiy, texnik, axborot va h.k.);

II-blok - boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv jarayonlari tahlili;

III-blok - ishlab chiqarish bo‘linmalari va hisob tizimi holati tahlili.

Ushbu tahlil bloklari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash boshqaruv tizimi samaradorligi tahlilini sifatli va ishonchli o‘tkazishni ta‘minlaydi.

Shuni ta‘kidlash zarurki, muayyan ob‘ektning boshqaruv samaradorligiga baho berayotganda uning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi zarur.

Masalan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga tegishli xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- sub‘ektlarning strategik ahamiyatga molik ekanligi;
- ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmog‘i xususiyatlarining uyg‘unlashganligi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishida mahsulot tannarxining asosiy qismini xomashyo tashkil etadi ya‘ni bunda material sig‘imi yuqori;
- qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishiga tabiiy iqlim omillarining bevosita ta‘sir etishi.

Bundan tashqari, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda boshqaruv samaradorligini haqqoniy baholash quyidagi tamoyillarni hisobga olishni taqozo qiladi:

1. tezkorlik hamda boshqaruv jarayoni maqsad va vazifalarini bozor iqtisodiyoti talablarini e‘tiborga olgan holda amalga oshirish;
2. foydalilik va boshqaruvning tashkiliyligi ya‘ni ishlab chiqarish hamda korxonada boshqaruvining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash;
3. tejamkorlik yoki natijaviylik ya‘ni boshqaruvni imkon darajada kam mehnat, moddiy va moliyaviy xarajatlar sarflash orqali tashkil etish.
4. Yuqoridagilarga asoslanib xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar boshqaruvi samaradorligi mezonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:
5. ishlab chiqarishning yuqori darajadagi samaradorligi;
6. bozordagi ulushning ortishi;

7. xarajatlar darajasi;
8. tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorlik darajasi;
9. boshqaruv qarorlari qabul qilishning to'g'riligi va tezligi;
10. tizimning o'z-o'zini tartiblash va tashkil etish imkoniyati.

Bu mezonlardan kelib chiqib boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini quyidagicha asoslash mumkin (32.3.-jadval):

32.3.-jadval

Boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar hisob-kitobi	Tarkibiy ko'rsatkich-larning izohi
1.	Boshqaruv faoliyatining iqtisodiy samaradorligi (K_{is})	$K_{is} = \frac{D}{X_{is}}$	D - yillik daroma; X_{is} - mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga sarflangan bir yillik xarajatlar
2.	Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi (K_t)	$K_t = \frac{I_d}{A_o}$	I_d - ishlab chiqarish davri-ning davomiyligi; A_o - aylanma mablag'lar obo-rotining davomiyligi.
3.	Ishlab chiqarish va so-tish rentabelligi (K_r)	$K_r = \frac{F_s}{S_x}$	F_s - sof foyda; S_x - mahsulotni sotish hajmi.
4.	Kapitalni manevrlik darajasi (K_m)	$K_m = \frac{K_{ak}}{K_u}$	K_{ak} - aylanma mablag'lar summasi; K_u - o'zining kapitalini o'rtacha yillik kapitalidagi ulushi.
5.	Amortizatsiya ajratma-larining jang'arilishi (K_j)	$K_j = \frac{AF_b}{A}$	AF_b - asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati; A - amortizatsiya ajratma-lari summasi.

6.	Mahsulot rentabelligi (K_{mx})	$K_{mx} = \frac{T}{X}$	T - mahsulot sotishdan olingan tushum; X - mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xara-jatlar.
7.	Aksiyador kapitalidan foydalanish samaradorligi. Bitta aksiyaning qiymati (K_a)	$K_a = \frac{K_{ch}}{S_a}$	K_{ch} - muomalaga chiqarilgan aksiyalarning qiymati; S_a - sotilgan aksiyalarning qiymati.

Ushbu ko'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi sub'ektning nafaqat ichki samaradorligi, balki tashqi samaradorligini ham o'zida aks ettiradi.

Biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish yirik korxonalarda boshqaruvni kichik va o'rta biznes sub'ektlari boshqaruvi kabi tashkil etishni anglatadi.

Boshqaruv tizimini bunday tartibda shakllantirishning afzalligi yirik korxonalarining daromadi yuqoriligi va ularni ishsizlik darajasini pasaytirishga ko'maklashishi bilan ifodalanadi.

Biznesni amalga oshiruvchi shaxs biznes sub'ekti yoki biznesmen deb ataladi. Biznes xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, jumladan, mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishdan iborat faoliyat majmuini ifodalaydi. Iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi har bir mamlakatdagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi paytgacha respublikamizda kichik va o'rta biznesni istiqbolli rivojlantirish borasida ko'pgina amaliy ishlar qilindi, jumladan uni bevosita qo'llab-quvvatlovchi quyidagi maxsus qo'mita va kengashlar tashkil etildi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash;

2) Oliy Majlisning iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlik bo'yicha qo'mitasi;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining restrukturizatsiya xususiy lashtirish qo'mitasi;

4) Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi va h.k.

Ushbu davlat organlarining muhim vazifasi kichik va o'rta biznes sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy organlar, hokimliklar ham o'z hududiy xususiyatlariga asoslangan holda, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqib, amalga oshiradilar.

Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish maqsadida «Korxonalar to'g'risida», «Mulkchilik to'g'risida», «Kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda «Xususiy tadbirkorlik to'g'risida»gi Nizom qabul qilindi.

Kichik va o'rta biznes (KO'B) sub'ektlarini hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. KO'Blarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
2. KO'Blarda zamonaviy, rag'batlantiruvchi boshqaruv tuzilma-sini barpo qilish;
3. KO'Blarga moddiy-texnika bazani shakllantirishda yordam berish;
4. KO'Blarni ishonchli axborot manbalari bilan ta'minlash.

Ushbu me'yoriy hujjatlar respublikamiz iqtisodiyotida markazlashtirilmagan boshqaruvni yo'lga qo'yish, bu jarayonda kichik va o'rta biznes korxonalarining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishni markazlashtirilmagan holda boshqarishning muhim sharti iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish birliklarini vujudga keltirish hisoblanadi. Bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik jihatdan mustaqil yoki mustaqil bo'lmasligi mumkin.

Biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish zaruriyati korxonalar iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolganda ya'ni uning kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajara olmaslik hollarida ham yuzaga keladi.

Korxonalarda boshqarishning mazkur tartibini samarali joriy etish ularda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga bevosita bog'liq. Bunda korxonaning hisob tizimini xarajatlar va javobgarlik markazlari ustidan hamda rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishlar bo'yicha tezkor nazorat o'rnatish, shuningdek, bo'linmalar o'rtasida transfert baholarni to'g'ri shakllantirish, ular moliyaviy-xo'jalik faoliyatini batafsil aks ettiradigan segmentar hisobotlarni tuzishga imkon berishi talab qilinadi.

32.6. Rivojlangan mamlakatlarda biznesni markazlashtiril magan holda boshqarish tajribasi

AQSh iqtisodiyotida biznes tarkibini o'zgartirish amaliyoti XIX asrning 50-60-yillarida korxonalarda markazlashgan boshqaruvdan foyda, investitsiya kabi markazlarning huquq va majburiyatlarini oshirishga o'tilishi bilan boshlandi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, korxonalar o'rtasidagi raqobat kurashining kuchayishi ishlab chiqarishning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish, har qanday ichki va tashqi omillar ta'siriga tayyor turish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bunday sharoitda yirik korxonalar oldida vertikal integratsiyalashish darajasini haqqoniy baholash, uni pasaytirish imkoniyatlarini izlash, bo'linmalarning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash kabi vazifalar yuzaga keladi.

G'arb mamlakatlari tajribasining tasdiqlashicha, biznesni nomarkazlashtirishda korxonalar rahbariyati bozorni o'rganish, ishlab chiqarishni boshqarish va nazorat qilish, tovar va xizmatlarni sotish to'g'risida yetarlicha axborotlar to'plash borasida dastlabki marketing izlanishlarini amalga oshirmasdan iqtisodiy samaradorlikka erishishi qiyin.


Marketing izlanishlari tovar (ish va xizmat)larni bozorda foydali sotish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilishda asos vazifasini bajaradi. Mazkur izlanishlar mahsulotlar sifati va bahosiga ta'sir etuvchi omillar hamda ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlari (sotish hajmi va joyi, mol yetkazib beruvchilar, vositachilar va h.k.)ni ifoda etadi.

Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilishda quyidagilar marketing faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- 1) korxonaning istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- 2) joriy biznes faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish;
- 3) korxonaning ichki biznes tarkibini tahlil qilish;
- 4) korxonaning faoliyat ko'rsatayotgan tashkiliy tuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Korxonaning istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilishda uning bozorda muayyan faoliyat turi bo'yicha raqobatlashish darajasi aniqlanadi.

AQSh iqtisodchisi, strategik boshqarish bo'yicha yetuk iqtisodchi olim M.I.Porter korxonalar biznesining rivojlanishiga olib keluvchi to'rtta o'zaro raqobatlashadigan iqtisodiy sub'ektni ajratadi (32.9-rasm).



32.9-rasm. Bozorda harakat qiladigan o‘zaro raqobatlashuvchi iqtisodiy sub’ektlar

Korxonalar o‘z biznes faoliyatini tashkil qilishda mol yetkazib beruvchilar to‘g‘risidagi zarur axborotlarni hisobga olishi zarur. Mol yetkazib beruvchilar korxonalar faoliyatiga yetkazib beriladigan mahsulotlarni bahosi va sifatining maqbulligini ta‘minlash orqali ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu omillarning ta‘sir darajasi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. etkazib beriladigan o‘rinbosar mahsulotlarning yo‘qligi;
2. mahsulot (tovar)larning korxonaga uchun ahamiyatligi;
3. mol yetkazib beruvchilarning faoliyat doirasi (yirik yoki kichik korxonaga);
4. sotuvchi-mol yetkazib beruvchi tizimida xaridorlarning hissasi (agar bu hissa yuqori bo‘lmasa, sotuvchi baholarni oshirishi yoki mahsulot sifatini pasaytirishi mumkin).

Biznesni boshqarishga ta‘sir etuvchi mijoz va xaridorlarning o‘zaro aloqasi omili korxonalariga bozorda mustahkam o‘rin egallash uchun distributerlik tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Mijoz va xaridorlarning korxonaga faoliyatiga ta‘siri mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar bahosini pasaytirish va ularning sifatini oshirish bilan bog‘liq.

Ushbu omillarning ta‘sir darajasi quyidagilar orqali ifodalanadi:

1. mijoz va xaridorlarning zarur axborotlar bilan ta‘minlanganligi;
2. mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning xaridor uchun nafliligi va h.k.

Bozorda o‘rinbosar tovarlarning paydo bo‘lishi an‘anaviy, zamonaviy talablarga javob bermaydigan tovarlarni siqib chiqaradi. Shuningdek, bu holat bozorda raqobat muhitini shakllantiradi va korxonaga biznesini boshqarishga yangi talablarni qo‘yadi, jumladan:

- 1) mahsulot (tovar)larning yangi turini ishlab chiqarishni taqozo etadi;
- 2) faol marketing tadqiqotlarini olib borish, tovarlar reklamasini samarali yo‘lga qo‘yish zaruriyatini yuzaga keltiradi;
- 3) mahsulot (tovar)larning bahosini pasaytirish orqali ularning

raqobatbardoshligini ta'minlashni talab qiladi;

4) xaridor (mijoz)larga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, iste'molchilarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan omillar korxonalarda biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarishni tashkil etish va istiqbolli rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi biznesni samarali amalga oshirishda korporativ boshqaruvni joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Korporativ boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmalarning shakllanishi yirik va o'rta korxonalarni vujudga kelishi bilan bog'liq iqtisodiyotni kapitalizatsiyalash jarayonining boshlanishidir. Korporativ boshqaruvning asosini korporatsiya, xolding kabi tuzilmalar tashkil etadi.

«Korporatsiya» (lot. corporatio - birlashma) biznesni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, u umumiy maqsadlarga erishish, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashgan va huquqiy mustaqil sub'ektlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Ko'pchilik hollarda korporatsiyalar aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi va menejerlar tomonidan boshqariladi.

Korporativ boshqaruv konsepsiyasi dastlab Britaniyada 19-asrda ishlab chiqilgan. Korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1) korporativ boshqaruv tuzilmasi ko'p pog'onali bo'lib, nisbatan murakkabligi bilan ajralib turadi;

2) boshqaruv jarayoniga (strategiyasi va taktikasi) tegishli mexanizm orqali (aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi) ta'sir eta olish imkoni mavjud;

3) mulkdorni korxonaga egalik qilishi, biroq, uning korxonani joriy boshqarishga bevosita aralasha olmasligi;

4) ishlab chiqarishni boshqarish yollanma boshqaruvchilar tomonidan amalga oshirilishi, aksiyadorlarga esa nazorat qilish funksiyasi yuklatilishi;

5) aksiyadorlarning soni cheklanmaganligi, bu holat yirik investorlarga korxonani boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.

Korporativ boshqaruv tuzilmalarining mohiyatini tushunish uchun aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organi mazmuniga to'xtalib o'tish zarur. Chunki, mazkur tuzilmalarning asosini aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etadi.

Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvining umumiy tashkiliy tuzilmasi 3-ildoda keltirilgan.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi aksiyadorlik jamiyati boshqaruvining oliy organi bo'lib, u kamida bir yilda bir marta chaqiriladi. Bu organ korxonaviy rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, mavjud qonunchilik doirasida korxonani boshqarishning qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Umumiy majlislar oralig'idagi muddat ichida aksiyadorlarning huquqlarini himoya qiluvchi va Nizomda nazarda tutilgan vazifalarni bajaruvchi Kuzatuv kengash tuziladi. Kengash a'zolari yillik majlisda aksiyadorlar safidan saylanadi. Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvining a'zolari Kuzatuv kengashiga a'zo bo'la olmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi (ijro organi) yoki Nizomda ko'rsatilgan boshqa idoralar aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi hisoblanib, jamiyat faoliyatini tashkil qiladi va uning faoliyati yakunlari bo'yicha yig'ilishga yillik hisobotni taqdim etadi.

Aksiyadorlik jamiyatining Nizomiga muvofiq tayinlanadigan yoki saylanadigan boshqaruv raisi boshqaruv ishiga rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi ishonch qog'ozsiz jamiyat nomidan faoliyat ko'rsatishga haqlidir.

Aksiyadorlar safidan saylanuvchi taftish komissiyasi jamiyat boshqaruvining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi. Taftish komissiyasining a'zolari jamiyatning ijroiya organi tarkibiga kira olmaydilar.

Aksiyadorlik jamiyati har yili kamida bir marta o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilishga majburdir.

Jahon tajribasi boshqaruvni tashkil qilishning aksiyadorlik shakli yuqori samaraga ega ekanligini isbotlaydi.

Korporativ shaklidagi tuzilmalarning rivojlanishini tahlil qilishda ularning afzallik va kamchilik jihatlari inobatga olish zarur (32.4-jadval).

Korporatsiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Aksiyadorlar korporatsiyaning qarzlari bo'yicha, korporatsiya esa aksiyadorlarning qarzlari bo'yicha shaxsiy javobgarlikka ega emas	Korporatsiya mulkdorlarining ikki tomonlama soliqqa tortilishi
Yirik va mayda sarmoyadorlarni jalb etish yo'li bilan kapitalni tezda yig'ib olish imkoniyati mavjud	Yakka tadbirkorlik yoki hamkorlikka nisbatan korporativ faoliyatning ancha qat'iy tartibga solinishi
Aksiyalar egalari almashishi munosabati bilan korporatsiyaning faoliyati to'xtab qolmaydi	Aksiyadorlar uchun korporatsiyani joriy boshqarishda cheklanishlarning mavjudligi

Korporativ tuzilmalarning asosiy turlaridan biri xolding kompaniyasi hisoblanadi. Xolding (angl.) - boshqa kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish maqsadida ular aksiyalarining nazorat paketiga ega bo'lgan kompaniyadir. Amaliyotda sof va aralash xolding turlari mavjud.

Sof xolding aksiyalar nazorat paketiga egalik qila turib, boshqa korxonalar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Aralash xolding muayyan sohada (sanoat, savdo, transport va h.k.) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi".

Xoldingning tarkibiga kiruvchi korxonalar sho'ba korxonaga bo'lib, mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi.

Aksiyalar (paylar, ulushlar)ning nazorat paketi deganda korxonaga ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida va uning boshqaruv organlarida muayyan qarorlarning qabul qilinishi yoki rad etilishini ta'minlovchi, korxonaga kapitalida ishtirok etishning istalgan shakli nazarda tutiladi. Aksiyalarning nazorat paketlari to'g'risidagi qaror monopoliyaga qarshi organ tomonidan qabul qilinadi va tartibga solinadi.

Xolding aktivlari quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) qimmatli qog'ozlar;

2) muassislar tomonidan shartnoma asosida berilgan, shuningdek, xolding mablagʻlari hisobidan xarid qilingan aktivlar;

3) pul mablagʻlari va h.k.

Xoldinglar qisman yoki toʻliq xorijiy sarmoya asosida, shuningdek, xorijiy korxonalar aksiyalari nazorat paketlarini sotib olish yoʻli bilan ham tashkil qilinadi.

Xoldingning aktivlari tarkibiga shoʻba korxonalari aksiyalarining nazorat paketlari bilan bir qatorda aksiyalarning teng (paritet) paketlari (ikkita ishtirokchi boʻlganda 50 foiz) va boshqa xoʻjalik jamiyatlari kapitalidagi ishtirok paketlari (aksiyalarning nazoratsiz paketlari) kiritilishi mumkin.

Shoʻba korxonalar oʻz majburiyatlari boʻyicha ularga tegishli mol-mulk, shu jumladan bosh xoldingga tegishli boʻlgan aksiyalar nazorat paketining qiymati bilan javob berishadi.

Xolding kompaniyalarining tashkil etilishi moddiy, moliyaviy resurslarning integratsiyalashuviga erishish, ularni yirik investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirishga koʻmaklashadi.

Xolding korxonalarini alohida faoliyat turlari boʻyicha, amaldagi monopoliyaga qarshi meʼyoriy-huquqiy hujjatlar talablariga asoslangan holda birlashtiradi.

Xoldingni tashkil etish bosh kompaniya balansini taqsimlashni har tomonlama asoslangan tartib boʻyicha amalga oshirish, taʼsis hujjatlarini ishlab chiqish va ularni aksiyadorlar umumiy yigʻilishida tasdiqlash kabi bosqichlardan iborat.

Bosh va shoʻba korxonalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi. Taʼsis shartnomasida bosh va shoʻba korxonalar oʻrtasida balansning taqsimlanish tartibi belgilanadi, asosiy va aylanma mablagʻlar hajmi, shoʻba korxonalarining aylanma mablagʻlarini toʻldirishning umumiy asoslari belgilanadi.

Respublikamizda xolding kompaniyalarini shakllantirish ularning afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslashga bevosita bogʻliq (32.5.-jadval).

Odatda, xoldinglarning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun mustahkam ichki iqtisodiy aloqalar zarur hisoblanadi. Bunga esa uning barcha bo‘linmalarini birlashtirish, tashkil etish va boshqarish orqali erishiladi. Bunday tizimli yondashuvga asoslangan boshqaruvni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsad va vazifalarni belgilash; ish turlari va hajmini aniqlash maqsadida vazifalarni guruhlariga bo‘lish; javobgarlikni taqsimlash va boshqarish iyerarxiyasida darajalar sonini aniqlash; korxonani qo‘yilgan maqsadga erishishi uchun xodimlarni rag‘batlantiradigan muhitni shakllantirish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirishni ta‘minlovchi kommunikatsiya tizimini loyihalash.

32.5-jadval

Xolding kompaniyalarining afzallik va kamchiliklarini qiyosiy tavsifi

Afzalliklar	Kamchiliklar
Ishlab chiqarishni kooperatsiyala-shuvining rivojlanishi	Turli tadbirlar bilan bog‘liq xarajatlarning ko‘pligi
Aksiyalar bozorida faol qatnashish imkoni	Har bir korxonaning alohida taftish qilinishi
Bozordagi raqobatda ustunlikka erishish	Sho‘‘ba korxonalarining hisobot-larni har yili katta xarajat sarflab e‘lon qilishga majburligi
Uzoq muddatli investitsiya dasturlarining amalga oshirilishi	Monopoliya va raqobatning chegaralanishiga moyillik
Sarmoyadorlar uchun alohida korxonalariga qaraganda imtiyoz-larning ko‘pligi	Bozorni muayyan segmentlariga egalik qilish investitsiyalardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi
Sho‘‘ba korxonalarini o‘rtasida raqobatni yumshatish	Xolding ichidagi raqobatga barham berilishi iqtisodiy turg‘unlikka olib kelishi mumkin
Hisob yuritish va moliyaviy hisobotning birlashtirilishi	Oddiy aksiyadorlar uchun ayrim masalalarni hal etishning murakkabligi
Ishlab chiqarish xarajatlaridagi tejamkorlik	Baho shakllanishining nazorat qilinishi mustaqil korxonalarini bankrotlikka olib kelishi mumkin
Resurslarning mobilligini oshirish	Samarasiz korxonalar faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishi

Malakali xodimlar	Xolding afzalliklaridan keng foydalanish imkoniyatining yetish-masligi
-------------------	--

Mazkur boshqaruvni tashkil etishning muhim elementi bu uning tuzilmasidir. Korporatsiyaning tashkiliy tuzilmasiga ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvni har xil darajalaridagi vakolatlarni taqsimlash boshqaruv jarayonining samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Korporatsiya faoliyatini tashkiliy jihatlari uning maqsadi va strategiyasi bilan aniqlanadi.

Maqsad bu - korporatsiyaning kelajakdagi holatidir. Maqsad aniqlangandan so'ng uning strategiyasi ishlab chiqiladi. Korporatsiya o'z strategiyasini ishlab chiqishda moslashuvchan bo'lishi lozim. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning zamonaviy talablarga javob bermay qolishi, texnologiyalarni yangilash zaruratining yuzaga kelishi hollarida korxonada mahsulot nomenklaturasini takomillashtirish orqali bozordagi o'zgarishlarga tezda moslashishi zarur.

Jahon tajribasida korporatsiyani boshqarishda asosan 4 daraja farqlanadi.

Birinchi darajada korporatsiyani boshqarishning umumiy siyosati ishlab chiqiladi. Ikkinchisida esa boshqarish va uni muvofiqlashtirish amalga oshiriladi. Uchinchi darajada xizmat ko'rsatish va maslahatlar berish bo'linmalari tuziladi.

Korporatsiyani boshqarishning to'rtinchi darajasi boshqaruv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan.

AQSh korporatsiyalarida umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi direktorlar kengashi ichki va tashqi a'zolaridan iborat.

Ichki direktorlarga qat'iy belgilangan ma'muriy-boshqaruv vazifalarini bajaruvchilar kiradi. Ularni, odatda, «boshqaruvchi direktorlar» yoki boshqaruv tizimiga mansubligi sababli, «top-menedjerlar» deb ham atashadi.

Tashqi direktorlar - bu aksiyalarning asosiy egalari bo'lgan boshqa yirik firmalar, moliyaviy muassasalarning vakillaridir.

Agar ichki direktorlar muayyan miqdorda maosh olishsa, tashqi direktorlar faqatgina kengashning har bir majlisi uchun mukofot olishadi.

Boshqaruv kengashi tarkibida tashqi direktorlar sonini belgilash va ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat korxonalar rahbariyati tomonidan uning faoliyatini baholashga haqqoniy yondashish imkonini beradi. Shu sababli, Nyu-York fond birjasida kotirovkaga kengash tarkibida kamida uchta, taftish komissiyasida esa kamida beshta tashqi direktorga ega bo'lgan korxonalarining aksiyalariga ruxsat etiladi.

Rivojlangan mamlakatlar korxonalarining kuzatuv kengashlari tarkibida tafovutlar mavjud. Bu ularning vazifalaridagi farqlarga emas, balki aksiyadorlarning tarkibi va sonidagi farqlarga hamda tarixiy sabablarga bog'liq.

Masalan, AQSh tarixida kuzatuv kengashining tashqi a'zolari bir vaqtning o'zida boshqa korxonalarining boshqaruvchilari bo'lishgan edi. Mazkur holat hozirgi kunda ham tez-tez uchraydi.

AQShda yuqori texnologiyali korxonalarda kuzatuv kengashining tashqi a'zolari ilmiy muassasalarning xodimlari ham bo'lishi mumkin. Yirik korxonalarda ular turli «jamiyatlar»ning a'zolari hisoblanishadi. Ammo, kuzatuv kengashi a'zolarining uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha korxonalar boshqaruvining a'zolaridan iborat bo'lishi talab qilinadi.

O'z tarkibida sanoat tuzilmalarini birlashtiruvchi tashqi a'zolarga ega bo'lgan kuzatuv kengashlarining ustunlik tomonlari shundan iboratki, ular orqali korxonalar boshqaruvini baholashni sanoat sohasida yetarlicha ish tajribasiga ega bo'lmagan kengash a'zosi qaraganda muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Kengashning tashqi a'zolari, shuningdek, boshqaruvni kelgusi rivojlantirish borasida ham maslahatlar berishlari mumkin.

Britaniyada korxonalar kuzatuv kengashlarining tarkibi ko'p jihatdan AQSh korxonalarining amaliyoti bilan o'xshash, lekin Britaniyada kuzatuv kengashi raisi kengashning mustaqil a'zosi hisoblanadi. Ikkinchidan, kuzatuv kengashida korxonalar boshqaruvining ko'p a'zolari ishtirok etishadi.

Germaniya korxonalarida esa amaldagi qonunchilikka muvofiq, kuzatuv kengashi tarkibida korxonalar boshqaruvining vakillari qatnashmaydi. Bunda faqat aksiyadorlar va korxonalar xodimlari kengashning a'zolari hisoblanadilar.

Shuningdek, Germaniyada banklar yirik kompaniyalarning aksiya paketlariga egalik qiladi va kuzatuv kengashi tarkibiga kiradi. AQShda banklar uchun kompaniyaning aksiyadori bo'lish taqiqlangan.

Germaniyaning yirik kompaniyalarida 1949 yildan boshlab kengashlarning deyarli 50 foizi kompaniyalar xodimlaridan tashkil etiladigan bo'ldi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, xolding kompaniyalarida biznesni qayta tarkiblashni amalga oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri xolding tarkibiga bank va boshqa moliya tuzilmalarini kiritgan holda uni moliya-sanoat guruhiga aylantirishdir.

Moliya-sanoat guruhlari (MSG) moliyaviy, ishlab chiqarish va tovar kapitalini qayta ishlab chiqarish, jamg'arish va uni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirishni ta'minlovchi davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ularni tuzish asoslarini «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Moliya-sanoat guruhlari to'g'risidagi Nizom, shuningdek, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari tashkil etadi.

MSGda ishtirok etish korxonalarga quyidagi afzalliklarni beradi:

1. istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun investitsiyalarni birlashtirish;
2. ilmiy-tekshirish ishlarini olib borish, yangi texnologiyalarni yaratish maqsadida ilmiy-tadqiqot bo'linmalarini saqlab turish uchun zarur resurslarni to'plash;
3. investitsiyalarni kam rentabelli tarmoqlardan foydali tarmoqlarga o'tkazish imkoniyati;
4. investitsiyalarni amalga oshirish uchun kredit resurslari bilan ta'minlash;
5. bozorni tadqiq qilish, mahsulot va xizmatlarni sotishni yaxshilash uchun yagona marketing xizmatini tashkil etish;

6. yagona ta'minot xizmatini barpo etish va guruhning barcha korxonalari uchun ulgurji xarid qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini yaratish va h.k.

Banklar uchun MSGda ishtirok etishning jozibadorligi ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etish, o'z navbatida foyda olishning yangi manbalariga ega bo'lish, bank faoliyatini kengaytirish va tabaqalashdan iborat.

Kelgusida MSGga kirishdan pensiya jamg'armalari, investitsiya va sug'urta kompaniyalari ham manfaatdordir. Bunda zaxiralarni yuqori daromadli aktivlarga investitsiya qilish bilan shug'ullanuvchi nodavlat pensiya jamg'armalari uchun pensiya miqdorini oshirish maqsadi qo'yiladi.

Investitsiya kompaniyalari omonatchilar jamg'armalarini jalb etgan holda olingan pul mablag'larini guruhning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qiladi. MSGga kiruvchi korxonalarining korporativ qimmatli qog'ozlarini oldindan taxminlash mumkin. Shuning uchun guruhning qisqa va uzoq muddatli investitsion loyihalarida ishtirok etish xatari investitsiya kompaniyasi uchun ancha pasayadi.

Takrorlash uchun savollar

1. *“Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda” tahlili korxonada ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda qanday ahamiyatga ega?*
2. *“Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda” tahlilining qanday asosiy elementlari mavjud?*
3. *Zararsizlik nuqtasi qanday hisoblanadi?*
4. *Marjinal daromadni aniqlashning qanday usullari mavjud?*
5. *Chidamlilikning marjinal zaxirasining iqtisodiy mohiyati nimada?*
6. *Korxonalarda ishlab chiqarish dastagi mexanizmidan foydalanish qanday xususiyatlarga ega?*
7. *Ishlab chiqarish dastagi o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?*
8. *Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjud?*

9. *Investitsiyalar samaradorligi qanday aniqlanadi?*

10. *Korxonalarda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish zaruratini izohlang.*

11. *Kichik biznes sub'ektlarida boshqaruvni tashkil etish qanday ijobiy afzalliklarga ega?*

12. *Korxonada biznesini markazlashtirilmagan holda boshqarish qanday hollarda yuzaga keladi?*

13. *Korxonalarda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda marketing izlanishlari qanday ahamiyatga ega?*

14. *Korxonalar biznesini samarali boshqarishga qanday omillar ta'sir etadi?*

33-BOB. TRANSFERT BAHONI SHAKLLANTIRISH.

33.1. Korxonada baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'ri va mazmuni.

33.2. Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari.

33.3. Transfert bahoni belgilash usullari.

33.4. Transfert bahoni xarajatlar va qiymat yondashuvlari asosida shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: transfert baho, baho siyosati, qiymatli yondashuv, faol yondashuv, xarajatlar yondashuvi, o'zgaruvchan xarajatlar plus foyda, haqiqiy tannarx plus qo'shimcha foyda, shartnomaviy bozor bahosi, demografiya, siyosat va huquq, iqtisodiyotdagi o'sish.

33.1. Korxonada baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'ri va mazmuni

Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida sotiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)larga ilmiy asoslangan baho siyosatini ishlab chiqish boshqaruvi hisobining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Amaliyotda har bir korxonada o'z mahsulotini ishlab chiqarish boshlashidan avval qancha foyda olishi mumkinligini rejalashtiradi. Korxonada foydasi mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanadigan haqiqiy xarajatlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu holatda mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishi bo'yicha baland yoki past bo'lishi mumkin emas, u talab va taklif asosida tartibga solib borilishi lozim.

Inflyatsiya jarayonida ya'ni baholarning o'sishi sodir bo'layotgan paytda pulning foydaliligi pasayib boradi. Shu sababli, bunday sharoitda barcha hisob-kitoblar qisqariy yoki bazis davr baholarida amalga oshirilishi zarur, aks holda, noto'g'ri ma'lumotlar asosida oqilona moliyaviy boshqaruv qarorlari qabul qilib

bo'lmaydi. Shu nuqtai-nazardan qig'siy baholardan foydalanish moliyaviy menejmentdagi barcha hisob-kitoblarga tegishli talab hisoblanadi. Bunda bir o'lchamning o'zgarishi ikkinchi o'lchamning o'zgarishiga qanday ta'sir etishi tahlil qilinadi.

Ishlab chiqarishning hajmi va baholar darajasi turlicha bo'lgan holatda foyda summasini solishtirishning bir nechta varianti mavjud. Mahsulotning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish umumiy tushumning ma'lum bir birlikda oshishiga olib keladi va u cheklangan tushum deyiladi. Bunda o'z navbatida xarajatlar miqdorining ham bir birlik miqdorida oshishi kuzatiladi va u cheklangan xarajatlar deb ataladi. Maksimal foyda cheklangan tushum bilan cheklangan xarajatlar bir-biriga teng bo'lgan g'ki ular bir-biriga maksimal darajada yaqinlashgan holda yuzaga keladi.

Foydalilikning cheklanganligi nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarishning o'sishi tufayli cheklangan tushum cheklangan xarajatlarga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sib borgunga qadar foyda hajmi o'sib boraveradi, biroq, cheklangan xarajatlar cheklangan tushumdan oshib ketgan paytda mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish zarur. SHunday qilib, cheklangan xarajatlarning cheklangan tushumga yaqinligi (maksimal) eng yuqori darajada ta'minlanganda yoki unga tenglashtirilganda mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va bahosi ishlab chiqaruvchini eng yuqori (maksimal) foyda bilan ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada bahoni shakllantirish va boshqarish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun boshqaruv tizimida bahoni shakllantirish bo'yicha funktsional bloklarning o'zaro aloqasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, bahoning shakllanishi nafaqat tashqi muhit ta'siriga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tashqi muhitda quyidagi makrodarajadagi o'zgarishlar korxonada faoliyatida bahoni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

1. *Iqtisodiyotdagi o'sish va pasayish* (har qanday mahsulotga bo'lgan ehtig'j aholining real daromadlari, investitsiya faolligi, davlat xarajatlari, kredit

olish va uni qaytarish imkoniyatlari, baholarning o'zgarishiga bog'liq). Shu sababli tashqi muhitni tahlil qilish korxonani baholash uchun boshlang'ich nuqta va qadam bo'lib hisoblanadi;

2. *Tabiiy resurslarga yaqinlik va ularning zahirasiga ega bo'lish* nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchi, balki qayta ishlovchi korxonalarni ham strategik rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega;

3. *Siyosat va huquq*. Korxonaning faoliyat yuritishida davlatning iqtisodiy barqarorligi, turli xil mulk egalarining huquqiy jihatdan muhofaza qilinganligi, soliq qonunchiligining o'zgarib turishi, bojxona huquqi kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega;

4. *Demografiya*. Korxonaga joylashgan hududdagi aholining soni va tarkibi uning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar hududda tug'ilish darajasi yuqori bo'lsa, bolalarbop mahsulotlar assortimentiga talab katta bo'ladi g'ki katta g'shdagi aholining hissasiga qarab ularning talabidagi mahsulotlar ishlab chiqarish zarur bo'lsa, korxonaga shunga qarab mo'ljal olishi zarur;

5. *Ijtimoiy-madaniy muhit*. Jamiyatning iqtisodiy farovonligi oshib borishi bilan unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga, aholining kam ta'minlangan va ishsiz qatlamlarini himoya qilishga imkoniyat oshib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarda baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar tashqi va ichkiga bo'linadi.

Tashqi omillar quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. korxonaga ishlab chiqarayotgan tovarga bozordagi umumiy talab;
2. bozorga shu xilda boshqa firmalar tomonidan chiqarilgan tovarlar hajmi;
3. ushbu tovarlarning sifati va bahosi;
4. xaridorlarni mahsulot bahosi past bo'lishiga g'ki tovar sifati yuqori bo'lishiga qiziqishi.

Bahoning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki omillarga quyidagilar kiritiladi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi;
- uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni qoplash imkoniyati;
- mehnat va materiallar sifati;
- ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- cheklangan resurslardan foydalanish darajasi.

Transfert baholar mexanizmini ishlab chiqarish korxonasi baho siyosatining tarkibiy o'zini hisoblanadi.

Transfert baho korxonasi ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan bahodir.

33.2. Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida transfert bahoni aniqlash ishlab chiqarishni tashkil etishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan shakllariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarish markazlashtirilgan holda tashkil etilgan sharoitda javobgarlik markazlari o'rtasida mahsulot va xizmatlar almashinuvi ko'proq haqiqiy (normativ) tannarx asosida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilmagan holda tashkil etilgan ishlab chiqarishlarda javobgarlik markazlari nisbatan mustaqil bo'lib, korxonasi ichidagi uzatuv (topshirish) bahosi har bir bo'linma foydasining aniqlash va ishonchli ko'rsatkichini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutilgan holda o'rnatilgan bo'lishi kerak. Korxonasi ichidagi uzatuv (topshirish) bahosini tanlash nafaot bo'linma faoliyati natijalarini aniqlash uchun, balki qanday qilib ishlab chiqarish va sotib olish", "sotish va bundan keyin ishlov berish" kabi savollar bo'yicha qarorlar qabul qilish shuningdek, ishlab chiqarishning muqobil variantlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Transfert bahoni aniqlash quyidagi asosiy talablarga tayanadi:

- ishlab chiqarish korxonasining pirovard maqsadiga erishishini va alohida bqlinmalar maqsadini korxonaning umumiy maqsadi bilan uyg`un holda birikib ketishini ta`minlash;
- boshqaruvning turli darajalarida menejerlar uchun moslashuvchan va bir xilda bqlish;
- markazlashtirilmagan holda boshqarish sharoitida sotuvchi va xaridor bqlinmalar rahbarlariga ularning mustaqilligini saqlab qolishga imkon tug`dirishi kerak;
- ichki va tashqi bozorlarning qzgaruvchan sharoitlarini tez ilg`ab olish, foydani samarali sohalarga yo`naltirish imkonini berish. Masalan, yuqori foydani soliqlardan imtiyozlar mavjud bo`lgan sohalarga, yuqori bo`lmagan foydani esa soliqlari yuqori bqlgan sohalarga yo`naltirish lozim;
- amaldagi qonunlar talablari asosida shakllantirilishi va ularga mos kelishi.

33.3. Transfert bahoni belgilash usullari

Korxonada ichki bqlinmalari o`rtasida transfert baholarni shakllantirishda uni belgilash usullariga alohida e`tibor qaratish zarur:

Transfert baholarni belgilashning quyidagi usullari mavjud:

- bozor bahosi;
- to`liq tannarx plyus foyda (to`liq tannarxdan % sifatida);
- o`zgaruvchan xarajatlar plyus foyda (o`zgaruvchan xarajatlardan % sifatida);
- tomonlarning o`zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho;
- to`liq yoki qisqartirilgan tannarx.

Korxonada boshqaruvchilari, bo`linma-sotuvchilar va bo`linma-xaridorlarning talablariga birdek javob beradigan yagona transfert baho mavjud emas. Amaliyotda korxonalarining bir qismi shartnomaviy bozor bahosidan

transfert baho sifatida foydalanadi, boshqa bir qismi esa «to'liq tannarx plyus foyda» usulidan foydalanishni afzal ko'radi.

Mahsulot (ish, xizmat)larning **shartnomaviy bozor bahosi** hajmi qulay transfert baho hisoblanadi, chunki bu baho har bir markazning foydasini mustaqil xo'jalik birligi sifatida tahlil qilib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Agar tashqi bozorda baho aniq bqlsa (masalan, yangi mahsulot turiga muqobil tovarlar bozori bqlmaganda va baho oldindan belgilanmagan bqlsa), unda «**to'liq tannarx plyus foyda**» ya'ni tqliq tannarxdan foiz sifatida olingan bahoni qqlash lozim bqladi, chunki bunday baho bozor bahosiga yaqin hisoblanadi va bqlinmalar faoliyati kamchiliklarini aniqlashga imkon tug'diradi.

Bahoga ustama belgilash vaqtida butun korxonani foydalilik koeffitsentini emas, balki mazkur bqlinmaning xarajatlari xususiyatlarini hisobga olish zarur. Amaliyotda foyda ko'pincha moliyaviy qqyilmalardan olingan daromad hisoblanadi hamda belgilangan reja ko'rsatkichi bilan solishtirilib boriladi. Agar transfert baho sifatida «**o'zgaruvchan xarajatlar plyus foyda**» usulidan foydalanilsa xomashyo, materiallar, xizmatlar va ish haqi kabi xarajatlarni qzgarishiga tuzatishlar kiritadigan qoidaga amal qilinadi.

Transfert baho **haqiqiy tannarx plyus qo'shimcha foyda** tarzida belgilanishi ham mumkin. Mazkur usuldan menejerlar qz bqlinmalarida mablag'lar sarfi uchun javobgar bqlgan hollarda foydalanadi, biroq, bu usul mablag'larni tejash imkoniyatini pasaytiradi ya'ni haqiqiy tannarx qancha yuqori bqlsa, bo'linma-sotuvchi sotish bahosini shuncha yuqori belgilaydi. Shuni nazarda tutish zarurki, tannarx asosida transfert baholarni belgilash vaqtida korxonalar tarkibiga kiruvchi bqlinmalarni foyda yoki investitsiya markazlari sifatida emas, balki xarajatlar markazlari sifatida qarab chiqish lozim. Bunday sharoitda o'zgaruvchan xarajatlar asosida belgilangan transfert baholar samarali hisoblanadi. Bu usulda quyidagi ikkita shartga amal qilinadi:

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga sarflangan aktivlar qiymati bir xil;

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga to'g'ri keladigan

o'zgaruvchan xarajatlar darajasi qolgan xarajatlarga nisbatan deyarli o'zgarmas.

O'zgaruvchan xarajatlar asosida korxonada ichidagi topshiruvlar paytidagi baho usuli tqliq tannarx asosidagi usuldan korxonada zahiralardan yanada samaraliroq foydalanishni ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

33.4. Transfert bahoni xarajatlar va qiymat yondashuvlari asosida shakllantirish

Transfert baho siyosati masalasi bo'yicha moliyachi va marketologlar o'rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv - xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahs-munozara kelib chiqadi. Ularning mohiyatini 33.1.-jadval yordamida ifodalash mumkin.

33.1.-jadval.

Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan g'ndashuvlar

T/n	Xarajatlar asosidagi yondashuv	qiymat yondashuvi
1.	<i>Mahsulot</i> ↓	<i>Xaridorlar</i> ↓
2.	<i>Texnologiya</i> ↓	<i>qiymatliklar</i> ↓
3.	<i>Xarajatlar</i> ↓	<i>Baho</i> ↓
4.	<i>Baho</i> ↓	<i>Xarajatlar</i> ↓
5.	<i>qiymatliklar</i> ↓	<i>Texnologiya</i> ↓
6.	<i>Xaridorlar</i> ←	<i>Mahsulot</i> ←

Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan **xarajatlar yondashuvi** eng sinalgan va ishonchli yondashuvdir. Uning asosida real kategoriya yotadi, bu - mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlardir. Ushbu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarishga va sotishga sarflangan haqiqiy xarajatlar kategoriyasi orqali ifodalanadi hamda buxgalteriyada dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Buning ustiga, ma'lum darajada bu yondashuvning nufuzi uni iqtisodiy nazariyada qllab-quvvatlanishi bilan bog'liq, chunki, mahsulotlar o'rtasida xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, tannarxni shakllantirish va boshqarish bahoni korxonada uchun naflilik nuqtai-nazaridan daromad olish manbaiga aylantiradi

Mahsulotni sotishda baho darajasini sotishning va shunga mos ravishda ishlab chiqarishning taxminiy hajmi belgilaydi. SHu bilan birga, boshqaruv hisobi e'tirof etadiki, mahsulot birligini ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari o'zgarishi bevosita ishlab chiqarish miqyosiga bog'liq. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi bilan bir buyumga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar summasi va ishlab chiqarishga sarflanadigan o'rtacha xarajatlar hajmi ham qsadi. Binobarin, tadbirkor menejer transfert bahoni belgilayotganda xarajatlar usuli asosida yoki raqobatchilar tomonidan baho bo'yicha qabul qilingan qarorlar ta'siri ostida passiv baho belgilash yo'lini tanlamasligi lozim.

Eng oqilona yondashuv - transfert bahoni shakllantirishga nisbatan **faol yondashuv** usuli bo'lib, bunda transfert bahoni boshqarish orqali sotishlarning zarur hajmiga mos keluvchi o'rtacha xarajatlar hajmiga erishiladi, bu esa korxonani foydalilikning kutilayotgan darajasiga olib chiqadi.

Transfert bahoni shakllantirishga faol g'ndashuv mantiqiga qxshash masalalarni quyidagicha ta'riflash mumkin: “Eng past bahoda sotiladigan tovarlar miqdorini katta miqdordagi foyda olish uchun qanchagacha oshirishimiz kerak?” yoki “Sotiladigan mahsulotlarning qancha miqdorini ko'proq foyda olish uchun yuqoriroq bahoda sotish kerak?”.

Aynan mana shunday yondashuv “zaif” bozorlarda (ya'ni, talab pasayib boruvchi bozorlarda) yoki “kuchli” bozorlarda (ya'ni, talab ortib boruvchi bozorlarda juda yuqori baholar xarajat g'ndashuvini jiddiy kamchiligini chetlab qtish imkonini beradi).

Shuni ta'kidlash joizki, transfert bahoni shakllantirishga xarajatli g'ndashuvdan voz kechish korxonalar menejerlariga oson bqlmaydi, chunki ular ishlab chiqarishga yangi mahsulot uchun investitsiya qilish va bahoni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilinguncha, kutilayotgan foydani aniqlashlari lozim.

Loyihalashtirilayotgan yangi mahsulot zamonaviy texnik darajaga mos keluvchi qlchamlar va xususiyatlarga ega bqlishi, konstruktorlik xizmatlari, texnologlar, moliya-iqtisodiy bo'lim va buxgalteriyada texnik-iqtisodiy

asosnoma (TIA) bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. SHu bosqichning qzida baho aniqlanadi, u xarajatlarning qrnini tqldirishi va investitsiyalarni zaruriy darajada qoplashi kerak. Shundan sqng marketologlar (agar shunday mutaxassislar bor bo'lsa) mahsulot sotish hajmini aniqlaydilar. Ular mahsulot sotishni tashkil etish, mahsulot xossasi va sifatiga xaridorlarni ishontirishga intiladilar. Agar bunday “targ`ibot” natijalari ijobiy natija bermasa, korxonah rahbariyati odatda bahoni pasaytirish taklifi hisobiga vaziyatni saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday sharoitda, odatda, xaridorlar bozorda ustunlik qiladigan vaziyat yuzaga keladi. Bunda aynan ular qz shartlarini qo`yadilar va bahoni yanada pasaytirishga erishadilar.

Transfert bahoni shakllantirishga xarajatli g`ndashuvni mqljal qilib muvaffaqiyatga erishish g`oyat mushkul. Bunday sharoitda transfert bahoni shakllantirishga nisbatan **qiymatli yondashuvga** ko`proq e`tibor berish lozim

Transfert bahoga nisbatan qiymatli yondashuvning vazifasi korxonah mijozlarining rag`batlantirilishidan iborat emas. Bunday natijaga bahoga katta chegirmalar berish hisobiga ham erishish mumkin, lekin qiymatli g`ndashuv korxonah uchun sotishlar hajmini tobora avj olishi hisobiga emas, balki “qiymat - xarajatlar” nisbatining mutanosibligiga erishish hisobiga foyda olishni ta`minlashi kerak.

Transfert bahoni shakllanishi mehnat bozorida raqobatda bo'lgan boshqa korxonahlar ta`siriga ham bog`liq. Shu bois, korxonahning baho siyosati buxgalterlar, moliyachilar, marketologlar, menejerlar va bozorni qrganuvchi axborot xizmatchilarining doimiy hamkorligi natijasida tug`iladi va takomillashadi. Bunday sharoitda baho siyosatini shakllantirish korxonahga foyda, xaridorga esa ko`proq naf keltirishi lozim.

Nazarimizda, transfert bahoni shakllantirishda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mahsulotni zararsiz sotish bahosini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

Yuqorida ta`kidlangan zararsizlik bahosini aniqlash uchun quyidagi misoldan foydalanamiz.

1-misol. «Shahrixonsut» AJning 2013 yilgi faoliyatini izohlaydigan quyidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Sotishdan olinadigan tushum, so'm	358357
O'zgaruvchan xarajatlar, so'm	288916
Marjinal daromad, so'm	69441
Doimiy xarajatlar, so'm	45568
Operatsion foyda, so'm	23873
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, dona	205

Birinchi navbatda, ostonaviy tushumni belgilab olish uchun quyidagicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Marjinal daromad hajmini topamiz:

$$358357 - 288916 = 69441$$

3. Marjinal daromad koeffitsientini chiqarib tashlaymiz:

$$69441 : 358357 = 0,19$$

4. Ostonaviy tushum (zararsizlik nuqtasi)ni aniqlaymiz:

$$45568 : 0,19 = 239831,6$$

Ostonaviy tushumni hisoblab topgach, uning g'rdamida mahsulotni zararsiz sotish bahosi aniqlanadi:

$$239831,6 : 205 \text{dona} = 1169,9$$

Demak, mahsulotni bir birligini sotish bahosi $358357 : 205 \text{dona} = 1748,08$ so'm bqlsa, bir birlikka to'g'ri keladigan foyda summasi 578,18 so'mni tashkil etadi.

Baho ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashi va korxonaga foyda keltira boshlashiga imkon berish uchun uni sotiladigan mahsulotga qanday belgilash lozim? Bu savolga javob berish uchun quyidagi misoldan foydalanamiz.

2-misol. Korxonada 5000 dona mahsulot sotishni rejalashtirgan, bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan qzgaruvchan xarajatlar 1600 so'mni tashkil etadi Doimiy xarajatlar - 2000000 so'm. Korxonada 3000000 so'm miqdorida foyda olishni mqljallagan. Mahsulotni qanday bahoda sotish

kerak?

1. Dastlab, marjinal daromad hajmini aniqlaymiz. Buning uchun doimiy xarajatlarga foydaning rejalashtirilgan hajmini qo'shamiz.

$$2000000 \text{ so'm} + 3000000 \text{ so'm} = 5000000 \text{ so'm}$$

2. Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan marjinal daromad summasini topish uchun yalpi marjinal daromad summasini sotiladigan mahsulotlar miqdoriga bqlamiz:

$$5000000 \text{ so'm} : 5000 \text{ dona} = 1000 \text{ so'm.}$$

3. Mahsulot birligi bahosini aniqlash uchun qzgaruvchan xarajatlar orqali hisoblangan marjinal daromad summasiga doimiy xarajatlar va foydani qo'shish natijasida aniqlangan marjinal daromad summasini qo'shamiz:

$$1600 \text{ so'm} + 1000 \text{ so'm} = 2600 \text{ so'm}$$

Zararsizlik bahosini tahlil qilishga doir yuqorida keltirilgan formulalar mahsulotning belgilangan hajmini sotish jarag'nida foydaning ma'lum darajasiga erishish uchun sotishning zararsiz bahosini aniqlashga kqmaklashadi.

Demak, moslashuvchan transfert baho siyosatini yuritish va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish, iste'molchilarni rag'batlantirish hamda tovar bozoridagi raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Transfert bahoga ta'rif bering.*
2. *Korxonada faoliyatini rivojlantirishda oqilona transfert baho siyosatini ishlab chiqishning zarurati nimada?*
3. *Transfert baho va xarajatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?*
4. *Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuvining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?*
5. *Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan qiymat yondashuvining qanday afzalliklari bor?*
6. *Korxonada transfert bahoni belgilash qanday talablar asosida amalga*

oshiriladi?

7. Transfert bahoni shakllantirish usullariga izoh bering.

Transfert bahoni shakllantirishda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash qanday ahamiyatga ega?

34-BOB. KORXONA SEGMENTAR HISOBOTI.

- 34.1. Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllari.
- 34.2. Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari.
- 34.3. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida.
- 34.4. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash.

Tayanch so'z va iboralar: transfert baho, baho siyosati, qiymatli yondashuv, faol yondashuv, xarajatlar yondashuvi, o'zgaruvchan xarajatlar plyus foyda, haqiqiy tannarx plyus qo'shimcha foyda, shartnomaviy bozor bahosi, demografiya, siyosat va huquq, iqtisodiyotdagi o'sish.

34.1. Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllari

Bozor munosabatlari sharoitida biznes segmenti deb ataluvchi yangi atama boshqaruv hisobiga kirib keldi.

Biznes segmenti - bu korxonaning ma'lum qismini yoki nisbatan mustaqil bqlinmasini muayyan vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratishdir.

Boshqaruv hisobi korxonaning tashkiliy tuzilmasini hisobga olgan holda, javobgarlikning turli markazlari (biznes segmentlari) majmuidan tarkib topadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda segmentlar bo'yicha hisobotni shakllantirish tartibi 14-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) bilan tartibga solinadi. Bu standart 1993 yildan amal qilib kelmoqda. Unga ko'ra, segmentlarning ikkita: xo'jalik va geografik turlari ajratib ko'rsatiladi.

Geografik segment - bu muayyan iqtisodiy muhitda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, risk va foyda kabi iqtisodiy shart-sharoitlar ta'sirida, ma'lum makonda harakat qiluvchi ajratib qyilgan komponentdir.

Segmentlarni ajratishni taqozo etadigan, farq qiluvchi holatlarni ya'ni ko'pchilik omillarning mos tushishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (34.1.-jadval).

34.1-jadval

Xo'jalik va geografik segmentlarning belgilari bo'yicha qiyosiy tavsifi

Segment hosil qilish uchun mezon	Segmentlar	
	Xo'jalik	Geografik
<p>Xo'jalik g'ki geografik segmentlarni hisobot cegmenti sifatida ajratishni taqozo etadigan omillar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - sotishlarning 50% dan ortig'i tash-qarida sodir bo'lgan holda; - jami segmentlarni sotishdan olingan tushumlari, segment faoliyati natijalari aktivlarning 10%idan ortiq g'ki unga teng bo'lgan umumiy summasiga ega bo'lganda; - korxonalarini 75%idan kam bo'lmagan ulushi hisobot segmentlarini tashqi faoliyatining birgalikdagi jami tushumiga to'g'ri kelganda hisobotlar muvofiqlashtiriladi. 	<p>Agarda quyidagi belgilar bo'yicha qxshashliklar mavjud bo'lsa, mahsulot (ish, xizmat) lar ishlab chiqaruvchi xo'jalik bo'linmalari qzaro bog'liq bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ularning tavsifla-nishida; - ishlab chiqarish ja-rag'nlari tavsifida; - mijozlar turi va tavsifida; - segmentning asosiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan xarajat-lar va daromadlarni taqsimlash usullarida; - muayyan faoliyat turlari uchun tartibga soluvchi muhit ta-lablarida (masalan, soliqlar, banklar va sug'urtada). 	<p>Bir nechta mamlakat-lardagi guruh, alohida mamlakat, mamlakat ichidagi mintaqada joylashgan segmentlar quyidagi belgilarga ko'ra geografik segment hisoblanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qxshash iqtisodiy va sig'siy shart-sharoitlar; - amalga oshiriladi-gan muomalalarning qxshashligi; - mazkur geografik hududdagi muomalalar bilan bog'liq favqulod-da risklar kutilayot-ganda; - valyuta nazorati-ning alohida qoidalari amal qilganda; - valyuta muomalala-ridan kutilayotgan risklar mavjud bo'l-ganda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1996 yil 30 avgustdagi 1-sonli qarori bilan kuchga kiritilgan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida ta'kidlanganki, korxonalar rahbari hisob va hisobotning ichki xo'jalik tizimini, xo'jalik muomalalarini nazorat qilish tartibini, tashqi iste'molchilar uchun moliyaviy hisobotni, soliqlar va moliyaviy hujjatlarning boshqa shakllarini va hokazolarni tashkil etishga majbur.

Tashqi iste'molchilar uchun segmentlar bo'yicha moliyaviy hisobotni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 14 avgustda 474-son bilan rqyxatga olingan "Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot" nomli O'zbekiston Respublikasining 1-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) bilan tartibga solinadi. Ushbu standartning 96-bandida

quyidagilar ta'kidlanadi: "foydalanuvchi uchun hisob siyosatini g'ritishning o'ziga xos ustuvorligi ko'rilganda rahbarlar xo'jalik yurituvchi sub'ektning tavakkalchiligiga va pul oqimining kelajagini baholash imkoniyatini berishini hisobga olishlari kerak.

Hisob siyosatining yoritilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ushbu axborot bilan chegaralanmaydi:

Faoliyat turlarini, geografik segmentlar va chiqimlarni segmentlar o'rtasida taqsimlash usullarini aniqlash".

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatilgan me'yoriy hujjatlarda segmentlar bo'yicha hisob va hisobot muammosi o'zining tqliq echimini topmagan.

Tashqi iste'molchilar uchun mqljallangan va moliyaviy hisob ma'lumotlari manbasida ishlab chiqiladigan moliyaviy hisobotdan farq qilgan holda segmentar hisobot ichki iste'molchilar uchun mqljallanadi va maxfiy hisoblanadi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra, buxgalteriya hisobini yuritishda maxfiylikka rioya qilinadi, buxgalteriya g'zuvlari mazmuni bilan tanishishga faqat rahbariyat ruxsati bilan yoki qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda yo'l qyiladi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotda ko'pincha soliq va boshqa nazorat organlari boshqaruv hisobi hamda hisoboti ma'lumotlariga bevosita kirib borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Boshqaruv hisobida mustaqil ishlab chiqilgan yoki markazlashtirilgan holda tasdiqlangan boshqaruv hisobotlari maqsadga muvofiq. Bu hisobot shakllarini an'anaviy jurnal-order shaklini qllamaydigan korxonalar (kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari, buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini qllayotgan korxonalar, buxgalteriya hisobini kompyuterda maxsus ishlab chiqilgan jadvallarda olib borayotgan korxonalar), shuningdek, hisobning jurnal-order shaklini qllashga moslashtirilgan korxonalar ham (analitik hisob shakllariga o'zgartirish kiritish yo'li bilan, masalan, yangi qo'shimcha qator va ustunlar qo'shish orqali, ammo mavjud hisob tizimini buzmasdan zarur

ma'lumotlar olish uchun muvofiqlashtiriladi) yuritishlari mumkin.

Boshqaruv hisobotining standart (minimal) to'plamiga asos bo'ladigan quyidagi muhim shakllarini keltirish mumkin:

- materiallar va butlovchi qismlar zahiralari to'g'risida hisobot;
- tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha hisobot;
- ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) to'g'risida hisobot;
- xarid qilingan qiymatliklar to'g'risida hisobot;
- tayyor mahsulot zahiralari to'g'risidagi hisobot;
- sotishlar to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida hisobot;
- yig'ma hisobot.

Moliyaviy hisobotning afzallik tomoni moliyaviy holatni, korxonada faoliyati natijalarini tahlil etishda axborot manbasi sifatida qullanilishida namog'n bo'lsa, segmentar hisobot ma'lumotlari esa biznesning har bir segmenti ish sifatini baholash imkonini beradi.

34.2. Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari

Mamlakatimiz va MDH hisob amaliyotida bunday tajribaning mavjud emasligini hisobga olgan holda, segmentar hisobot tuzishning ba'zi tamoyillarini ko'rib chiqish zarur:

- segmentar hisobot aniq manzilli, ishonchli, tushunarli, muhimlik kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi hamda asosan xarajatlar, daromadlar, mahsulot sotish hajmini hisobga olishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim;
- ichki hisobot tezkorlik, ehtiyotkorlik, taqqoslanuvchanlik xususiyatlariga ega bo'lishi hamda menejerning rejalari, psixologiyasi va usulini nazarda tutishi kerak;
- segmentar hisobot ahamiyatli, haqqoniy, xolis taqdim etilgan bo'lishi,

izchil va tugallangan bo'lib, javobgarlik markazi ishini yanada yaxshilashga yo'naltirilishi lozim;

- segmentar hisobotning shakllari va registrlarini tez-tez o'zgartirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu holat ularning samaradorligini pasaytiradi;

- boshqaruvchiga minimal hajmdagi hamda murakkab hisob-kitoblarsiz, tizimlashtirilgan hisobot taqdim etilishi lozim;

- hisobotning bosh maqsadi korxonani jipslashtirish, ularning salohiyatlarini korxonaga investitsiya loyihalari va biznes rejasini amalga oshirishga yo'naltirishi lozim.

- boshqaruv segmentar hisoboti korxonaga hisob siyosatiga muvofiq kelishi bilan birga moliyaviy hisobning xalqaro standartlari, hisob va hisobotning milliy standartlari, davlatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy manbaga ham asoslanishi lozim.

34.3. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida

Segmentlar bo'yicha hisobotni javobgarlik markazlari bo'yicha shakllantirilgan hisobot sifatida ta'riflash mumkin.

Segmentlar (javobgarlik markazlari) bo'yicha hisobni tashkil etish zarurati munosabati bilan boshqaruv hisobida ularning chegaralarini quyidagi mezonlarga muvofiq belgilash lozim:

- mustaqil segment hisobotlari qanday ko'rinishda bo'lishi lozim (ya'ni, segmentar hisobot birliklarini ajratish mezonlari);

- segmentlararo o'zaro hisob-kitoblarda bahoni shakllantirishning qaysi usuli qo'llanilishi zarur;

- daromadlar va xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni segmentlarga taqsimlash uchun qanday asos mavjud bo'ladi?

Mustaqil segment hisoboti shakllanishi shart-sharoitlari sifatida har bir

xo'jalik va geografik segmentning ichki hisobotlaridan foydalanish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar segmentlari o'rtasida ichki hisob-kitob narxlarini qaratish ya'ni transfert baho hosil bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi, bunda bitta javobgarlik markazi o'z mahsuloti yoki xizmatlarini boshqa javobgarlik markaziga uzatadi, natijada bo'linmalar o'rtasida qisib boruvchi tartibdagi baholar yuzaga keladi.

Transfert baholari bo'yicha segmentar hisobotni tuzishda, transfert baholarni hisob-kitob qilishning quyidagi usullari tahlil qilinadi:

- bozor baholari asosidagi;
- tannarx (o'zgaruvchan yoki tqliq) asosidagi “tannarx plyus” tamoyili bo'yicha;
- shartnomaviy transfert baholari asosidagi (mahsulot ishlab chiqarish jarag`nida bozor kon`yunkturasi va xarajatlari ta`siri ostida).

Bozor baholarini shakllanishi ob`ektiv xususiyatga ega bo'lgan sharoitda transfert bahosi ham javobgarlik markazlari menejerlarining va xaridorlarning munosabatlari hamda malakalariga bevosita bog`liq bo'lmaydi. Bu usulning zaif tomonini ham ta'kidlash lozim ya'ni uning joriy etilishi rivojlangan bozor muhitini talab qiladi, bundan tashqari korxonalar javobgarlik markazlari (segmentlari) ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga bozor baholarining darajasi to'g'risida axborot yig`ish uchun qo'shimcha xarajatlar qilishi lozim.

“Tannarx plyus” nomli ikkinchi usulda kutilayotgan foyda miqdori ustiga ma'lum foiz qo'yiladi. Masalan, bitta bo'linma mahsulot (ishlar, xizmatlar) tqliq tannarxining 110 %li hisob-kitobidan kelib chiqsa, boshqa segment esa segmentni uzatuvchi mahsulot birligiga o'zgaruvchan tannarxni 150 %li hisob-kitobidan kelib chiqishi mumkin.

Uchinchi usul bo'yicha transfert baho hosil qilishda shartnomaviy bahoni aniqlashning quyidagi formulasidan foydalaniladi:

$$Tb = Mqt + Umd$$

bu erda,

Tb - transfert bahosi;

Mqt - mahsulotning ishlab chiqarish (o'zgaruvchan) tannarxi;

Umd - umumiy marjinal daromad.

34.4. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar amaliyotida segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobining 14-sonli «Segmentlar bo'yicha hisobot» nomli xalqaro standarti (BHXS)ga ko'ra, segmentar hisobotda birlamchi aks ettiriladigan quyidagi holatlar nazarda tutilishi lozim:

- tashqi mijozlardan olinadigan daromadlar;
- boshqa segmentlar bilan bo'ladigan muomalalardan olinadigan daromadlar;
- aktivlarning balans summasi;
- segmentlarning majburiyatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish xarajatlari;
- amortizatsiya xarajatlari;
- assotsiatsiyalashgan kompaniyalar yoki qo'shma korxonalar faoliyatida ishtirok etishdan olingan sof foyda yoki zararlar va investitsiyalar hissasi;
- daromadlar va xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni taqqoslash.

Segment daromadlari korxonaga segmentiga yoki umumiy tushum tarkibiga bevosita kiritilishi mumkin.

Segment daromadlariga quyidagi ko'rsatkichlar tegishli emas:

- moliyaviy qo'yilmalarni sotishdan olingan foizlar, dividendlar va daromadlar (bunday daromadlar segmentning asosiy faoliyati bo'lgan hollar bundan mustasno);
- favqulodda daromadlar (fors-major majburiyatlar).

Segment xarajatlariga quyidagilar kiritilmaydi:

– qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qyilmalar bo'yicha xarajatlar (ular segmentning asosiy faoliyati bo'lgan hol bundan mustasno);

– daromad (foyda) solig'i;

– favqulodda xarajatlar (fors-major majburiyatlari).

Korxonada ichki (segmentar) hisobotlarni buxgalter boshqaruv hisobi ma'lumotlariga asoslanib tuzadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Korxonada biznes samaradorligini baholashda boshqaruv segmentar hisobotining ahamiyati nimalardan iborat?

2. Geografik segmentga ta'rif bering.

3. Xo'jalik va geografik segmentlarning qanday farqli jihatlari mavjud?

4. Segmentlar bo'yicha hisobotni tuzish qanday tamoyillarga asoslanadi?

5. Transfert baholari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish qanday xususiyatlarga ega?

6. Boshqaruv segmentar hisobotining qanday shakllari mavjud?

7. Segment xarajatlari nima?

8. Segment daromadlari nimalardan tashkil topadi?

35-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

35.1. Boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish istiqbollari.

35.2. Boshqaruv hisobini isloh qilishning nazariy va amaliy jihatlari.

Tayanch so'z va iboralar: transfert baho, baho siyosati, boshqaruv hisobi, vakillik xarajatlari, safar xarajatlari, devonxona xarajatlari, pochta xarajatlari.

35.1. Boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish istiqbollari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz korxonalarida boshqaruv hisobini samarali tashkil etish uning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirishga bevosita bog'liq.

Mamlakatimiz qonunchiligida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda boshqaruv hisobini yuritishning ayrim jihatlari belgilab beradigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Ularni quyidagi jadvalda ifodalash mumkin (35.1.-jadval):

35.1.-jadval

O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini yuritishga doir qabul qilingan asosiy qonun va me'yoriy xujjatlar

T/r	Me'yoriy hujjatning nomi	Qabul qilingan vaqti
1.	«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan
2.	«Mahsulot (ish va xizmat)lar tan-narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanti-rish tartibi to'g'risidagi Nizom»	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qaror bilan o'zgar-tirishlar kiritilgan)

3.	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustda 474-son bilan ro'yxatga olingan
4.	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 avgustda 484-son bilan ro'yxatga olingan
5.	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliya-tini schetlar rejasi va uni o'o'llash bo'yicha Yo'rio'noma» nomli 21-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrdagi 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son bilan ro'yxatga olingan

Ushbu jadvalda keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda boshqaruv hisobi elementlarini joriy etishga imkon beradi.

Jumladan, «Buxgalteriya hisobi» to'g'risidagi Qonunning 7-moddasiga ko'ra, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxonada, muassasa va tashkilot rahbari amalga oshiradi. SHuningdek, rahbar ichki hisob va hisobot tizimi ishlab chiqilishini ta'minlashi shart. Bu holat esa korxonada boshqaruv hisobini tashkil etish va uni yuritish tartibini belgilashga korxonada rahbari javobgar ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, «Mahsulot (ish va xizmat)lar tan-narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da ishlab chiqarish va davr xarajatlarining tarkibi, tasniflanishi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi ko'rsatib berilgan.

Unga muvofiq, barcha xarajatlar quyidagi tartibda guruhlanadi:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan xarajatlar;
- 9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» schetlarida hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;

– 9720-«Favquloddagi zararlar» schetida hisobga olinadigan favquloddagi zararlar.

Bu esa o'z navbatida korxonalarda boshqaruv hisobining muhim elementi hisoblangan xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini oqilona tashkil etishga ko'maklashadi.

Shu o'rinda, respublikamiz korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashni rivojlangan mamlakatlar boshqaruv hisobida keng qo'llanilayotgan «Direkt-kosting» hisob tizimiga yaqinlashtirishda ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-sonli milliy standarti muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, boshqaruv hisobi schetlar rejasini ishlab chiqish, mazkur schetlarning o'zaro bog'liqligini ifodalash korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini schetlar rejasi va uni o'zlashtirish bo'yicha Yo'riqnoma» nomli 21-sonli milliy standarti amal qilmoqda. Ushbu schetlar rejasi 9 ta bo'lim, 249ta balans va 14ta balansdan tashqari schetlardan iborat. Ularda moliyaviy va boshqaruv hisobida sodir bo'ladigan xo'jalik muomalalarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirishning umumiy tartibi bayon etilgan.

Korxonalarda boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishda ular tomonidan ishlab chiqiladigan ichki boshqaruv (segmentar) hisobotlari alohida o'rin tutadi. Bu hisobot shakllari materiallar va butlovchi qismlar zahiralari to'g'risida, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) to'g'risida, xarid qilingan qiymatliklar to'g'risida, tayyor mahsulot zahiralari to'g'risida, sotishlar to'g'risida, pul mablag'lari harakati to'g'risida, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida hisobot kabilardan iborat bo'ladi. Mazkur boshqaruv hisoboti shakllari korxonalar rahbariyatini javobgarlik markazlari (bo'linmalari)da moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari harakati to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

35.2. Boshqaruv hisobini isloh qilishning nazariy va amaliy jihatlari

Boshqaruv hisobi elementlari respublikamiz iqtisodiyoti uchun yangilik emas. Sobiq ittifoq davrida yuqoridan markazlashtirilgan rejalashtirish sharoitida reja va moliyaviy bo'limlarining buxgalteriya xizmatidan asta-sekin ajralib chiqishi unga buxgalteriya vakolatining bir o'ismini berilishiga imkon tug'dirdi. Buxgalter va boshqa iqtisodchi mutaxassislar (reja bo'yicha iqtisodchi, mehnat va ish hao'i bo'yicha iqtisodchi, moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha iqtisodchi va h.k.) tor doiradagi hisob va rejalashtirish bilan cheklanib o'oldilar.

Bu jarayon natijasida buxgalteriya hisobining butun tizimi deyarli moliyaviy tizimga aylandi va faqat voqealarni qayd etuvchi xizmat turiga aylanib qoldi.

Mustaqillik davrida esa bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarishning markazlashgan tizimidan voz kechilib, ko'p ukladlilik, biznes rejalashtirish, erkin narxlarni shakllantirish, istiqbolli loyihalarni tanlash, segmentlarning javobgarligi kabi yangi iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar kirib keldi, mulk egasiga ko'p sonli xodimlarni saqlab turish samarali bo'lmay qoldi. Bu holatlar mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tarkibida boshqaruv hisobini tashkil etish va rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Boshqaruv hisobining shakllanishi bilan buxgalter-analitik zimmasiga nafaqat xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, balki korxonalar hisob siyosatini shakllantirish, byudjetlashtirish, loyihalar tahlili, segmentlar bo'yicha xarajat va daromadlarni hisobga olish, ichki xo'jalik transfert baholarini o'rnatish, hisob tizimini kompyuterlashtirish kabilar ham yuklatildi.

Hozirgi vaqtda boshqaruv hisobini qo'llashda ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Ko'pgina hollarda buxgalterlar moliyaviy hisob va hisobot, soliqlar hisobi va hisoboti fan sifatida tan olinganligi, uning ob'ektlari va sub'ektlari ma'lum bo'lganligiga qaramasdan buxgalterlarning ko'p vaqti shu masala bilan

band bo'lib, boshqaruv hisobining samarali tizimini tashkil etish uchun vaqt etishmasligini ta'kidlashadi. Shunga qaramasdan, amaliyotning ko'rsatishicha, buxgalterning buxgalter-menejerga aylanishi tendentsiyasi kuchaya boshladi.

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, respublikamizda boshqaruv hisobini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar faoliyatini byudjetlashtirish (rejalashtirish);
- boshqaruv hisobini yuritishga mo'ljallangan yangi schetlar rejasini ishlab chiqish;
- xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashning zamonaviy usul va tizimlarini qo'llash imkoniyatlarini baholash;
- investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish;
- segmentlar bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzishni tashkil qilish;
- korxonalarda transfert bahoni shakllantirish usullarini joriy etish.

Korxonalarda boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirishni amalga oshirishning zarurati shu bilan belgilanadiki, uning yordamida rejalashtirilgan hisobot davrida korxonalar rahbari va xodimlari oldida turgan maqsad va vazifalarni shakllantirish, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, daromad va xarajatlarni aniqlash, amalga oshiriladigan hisob-kitoblar to'g'riligini kuzatib borish mumkin.

Mamlakatimizda boshqaruv hisobining rivojlanishi mavjud buxgalteriya hisobi tizimining ikki mustaqil: moliyaviy va boshqaruv hisobi schetlar rejasiga bo'linishiga olib keldi.

Boshqaruv hisobining kontseptsiyasi schetlar rejasini amaliyotga joriy etish ikki razryadli buxgalteriya hisobi schetlari tizimidan to'rt razryadli tizimga o'tish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu amaliyotda qo'llanib kelinayotgan schetlar rejasini bo'lib, bunda barcha schetlar balans tuzishda ishtirok etadi. To'rt razryadli schetlar tizimi ularni to'rtta razryadga ajratadi:

- a) balans schetlari ya'ni balans tuzishda ishtirok etuvchi schetlar;
- b) operatsion, "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" usuli bo'yicha

moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalaniladigan schetlar (35.2.-jadval).

35.2.-jadval

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati boshqaruv hisobi schetlari rejasini ishlab chiqarish xarajatlari turlari bo'yicha tasniflanishi

Schetlar	Schetlar nomi	Schetlar tipi
	2	3
1000	Materiallar hisobi schetlari	A
1010	Xomashyo va materiallar (yig`uvchi schet)	
1020	Asosiy xomashyo va materiallar	
1030	yordamchi xomashyo va materiallar	
1040	Yarim fabrikatlarni ichki ehtiyojlar uchun iste`mol qilish	
1100	Energiya xarajatlari	A
1110	yoqilg`i (turlari bo'yicha)	
1120	Energiya (turlari bo'yicha)	
1200	Ishlab chiqarishning mehnat xarajatlari	A
1210	Ish haqi (yig`uvchi schet)	
1220	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning ish haqi	
1230	yordamchi ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi	
1240	Boshqa turdagi ish haqi va turli kompensatsiyalar	
1300	Ishlab chiqarishning ijtimoiy xarajatlari	A
1310	Korxonaning ijtimoiy xarajatlari (yig`uvchi schet)	
1320	Ijtimoiy sug`urta va ta`minot xarajatlari	
1330	Xodimlar hayotini uzoq muddatli sug`urtalash	
1340	Ixtiyoriy shaxsiy sug`urta	
1350	Xodimlarni saqlash bo'yicha boshqa ijtimoiy xarajatlar	
1400	Ishlab chiqarishning ustama xarajatlari	A
1410	Asosiy vositalar va boshqa mulklarning eskirishi	

1420	TSex darajasidagi boshqaruv xarajatlari	
1430	har xil yordamchi xizmatlarni to'lash xarajatlari	
1440	Boshqa ustama xarajatlar	
1500	To'lanadigan majburiyatlar	A
1510	Yer solig'i (soliqlarning turlari bo'yicha)	
1520	Yo'l fondiga to'lovlar	
1530	Turli xil davlat yig'imlari va badallari	
1540	Auditorlik va maslahat xizmatlari uchun to'lovlar	
1550	Kredit uchun to'langan foizlar (komission xarajatlar bilan birgalikda)	
1560	Boshqa xarajatlar	
1600	Transport, vakillik va safar xarajatlari	A
1610	Umumiy transport xarajatlari	
1620	YUklarni jo'natish xarajatlari	
1630	Safar xarajatlari	
1640	Pochta xarajatlari	
1650	Devonxona xarajatlari	
1660	Vakillik xarajatlari	
1700	Kalkulyatsiya qilinadigan ishlab chiqarish xarajatlari	A
1710	Moddiy xarajatlar	
1720	Mehnat haqi xarajatlari	
1730	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	
1740	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	
1750	Boshqa xarajatlar	

Korxonalarda xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasining zamonaviy usul hamda tizimlarini qo'llash ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini to'g'ri aniqlash, chetlanishlar hisobi va tahlilini yuritish kabi imkoniyatlarni beradi. Ularga «Direkt-kosting», «Standart-kost», «JIT», «ABC», «SCA» va «FQT»larni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobida oqilona investitsiya qarorlari qabul qilishni ta'minlash korxonaning investitsiya faoliyati murakkabligi va dastlab taqdim

qilinayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularning ko'p mablag` talab qiladigan tomonlarini tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Shuningdek, korxonada bo'linmalarida sodir bo'lgan muomalalarni to'liq hisobga olish ularni muayyan vakolatlar va mas'uliyatlar bo'yicha segmentlarga ajratishni taqozo etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Boshqaruv hisobini takomillashtirishda buxgalteriya hisobining milliy standartlari qanday o'rin tutadi?*

2. *Respublikamizda boshqaruv hisobini mukammallashtirishda buxgalteriya hisobi turlari o'rtasidagi aloqadorlikni qanday izohlaysiz?*

3. *Boshqaruv hisobini rivojlantirishning nazariy yo'nalish-lari nimalardan iborat?*

4. *Boshqaruv hisobini rivojlantirishning amaliy yo'nalish-larini sanab bering?*

5. *Korxonalarda boshqaruv hisobini samarali tashkil etishda boshqaruv hisobi schetlar rejasi qanday ahamiyatga ega?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2016 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni 2016 yil 13 aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Yangi tahriri. 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son Qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomi. 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.
11. Abdug‘aniyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari.-T.: TMI. 2003 y.
12. Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012.
13. Друри К.. Управленческий и производственный учет. М.: ЮНТИ-ДАНА. 2003.
14. Financial and managerial accounting, 12e, Carl S.Warren, James

M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 2014

15. Wan Madznah Wan Ibrahim, Mohd Rizal Palil “Fundamentals of business accounting” Oxford university Press, 2014 y.

16. Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziev I. Moliyaviy va boshqaruv hisobi – T.: Iqtisod-moliya. 2008 y.

17. Jo‘raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y.

18. Jumaniyozov K., Maqsudov B. Boshqaruv hisobi asoslari.-T.: Fan. 2000 y.

19. Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma.-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2008 y.

20. Pardayev A.X., Pardayev P.X. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma.- T.: Akademiya. 2002.

21. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015 y.

22. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: Iqtisod moliya. 2005 y.

23. Волкова О.Н. Управленческий учет. Учебник. Москва 2006 г.

Internet saytlari

www.gov.uz. (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)

www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti)

www.ziyonet.uz (Axborot ta’lim tarmog‘i)

www.lex.uz (O‘z.R. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

MUNDARIJA

	KIRISH	
15-BOB.	ASOSIY VOSITALAR HISOBI	
15.1.	Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish hamda uning vazifalari.	
15.2.	Asosiy vositalarni turkumlash va ularni baholash.	
15.3.	Asosiy vositalarni xo‘jalik sub’ekti balansiga kirim qilish yo‘llari	
15.4.	Kapital qo‘yilmalarni hisobga olish	
15.5.	Asosiy vositalar xarakatini hujjatlashtirish	
15.6.	Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari	
15.7.	Asosiy vositalarni ta’mirlash operatsiyalarini hisobga olish	
15.8.	Asosiy vositalarni qayta baholash muomalalarini hisobda aks ettirish	
15.9.	Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi	
15.10.	Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi	
16-BOB.	NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI	
16.1.	Nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish	
16.2.	Nomoddiy aktivlarni turkumlash va baholash	
16.3.	Nomoddiy aktivlarni kirim qilish va xarakatini hujjatlashtirish	
16.4.	Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari	
16.5.	Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi	
16.6.	Biznes birlashuvining qismi sifatida sotib olish. Gudvill hisobining xususiyatlari	
17-BOB.	TAYYOR MAHSULOT (TOVAR, ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNING SOTILISHINI HISOBGA OLISH	
17.1.	Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning turkumlanishi	
17.2.	Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni baholash	
17.3.	Tayyor mahsulot (tovar)larning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi	

17.4.	Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotilishini xujjatlashtirish	
17.5.	Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni turli shartlar bilan realizatsiya qilishni hisobda aks ettirish	
17.6.	Konsignatsiya muomalalarini hisobda aks ettirish	
17.7.	Tayyor mahsulot (tovar)lar qaytishini hisobga olish	
18-BOB.	XUSUSIY KAPITAL HISOBI	
18.1.	Xususiy kapital hisobini tashkil etish va uning vazifalari	
18.2.	Xususiy kapital tarkibi	
18.3.	Turli mulkchilik shakllarida ustav kapitalini shakllantirish va uning o'zgarishini hisobga olish	
18.4.	Qo'shilgan kapital hisobi	
18.5.	Rezerv kapitalini shakllantirish va ishlatishni hisobga olish	
18.6.	Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi	
18.7.	Maqsadli tushumlar hisobi	
19-BOB.	MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI	
19.1.	Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari	
19.2.	Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi. Daromadlarni tan olish va baholash	
19.3.	Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish	
19.4.	Davr xarajatlari tarkibi va hisobi	
19.5.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisobda aks ettirish	
19.6.	Favqulodda foyda va zararlar hisobi	
19.7.	Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish	
19.8.	Sof foyda va uning ishlatilishini hisobda aks ettirish	
20-BOB.	HISOBOTLARNI TUZISH VA TAQDIM ETISH	
20.1.	Moliyaviy hisobot va uning tarkibi. Oraliq moliyaviy hisobotlar	
20.2.	Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi (inventarizatsiya)	

20.3.	Moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar	
20.4.	Buxgalteriya balansi va uni tuzish tartibi	
20.5.	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	
20.6.	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va uni tuzish usullari	
20.7.	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	
20.8.	Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izohlar	
21-BOB.	BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH	
21.1.	Boshqaruv hisobi, uning predmeti va metodi	
21.2.	Boshqaruv hisobining tarixiy shakllanishi	
21.3.	Boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi bog'liqlik	
21.4.	Moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro bog'liqligi	
22-BOB.	XARAJATLARNI TURKUMLASH VA ULARNING HISOBI	
22.1.	Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turli xil belgilariga qarab turkumlanishi	
22.2.	Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil etish	
22.3.	Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish	
22.4.	Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish	
23-BOB.	XARAJATLARNI BAHOLASH VA ULAR DINAMIKASI	
23.1.	Xarajatlar vazifalarini, ahamiyati va umumiy qoida (printsip)lari	
23.2.	Xarajatlarni baholashda muhandislik va buxgalteriya usullarining afzalliklari	
23.3.	Xarajatlarni baholashda grafik va miqdor usullarni ko'llashning xususiyatlari	
24-BOB.	MATERIAL XARAJATLARINING HISOBI	
24.1.	Materiallarni boshqarish jarayonining asosiy tushunchalari	
24.2.	Materiallarni hisobga olishning uzluksiz va davriy tizimini	

	farqlash	
24.3.	Ishlab chiqarishga beriladigan materiallar qiymatini baholash	
25-BOB	MEHNAT XARAJATLARI HISOBI	
25.1.	Ishchi kuchi xarajatlarini hisobga olish	
25.2.	Korxonalarining boshqaruv tizimida mehnat haqi xarajatlari tahlili	
25.3.	Mehnatga haq to'lash shakllari	
25.4.	Ishchi kuchi qo'nimsizligi va mehnat unumdorligi	
26-BOB	USTAMA XARAJATLAR HISOBI	
26.1.	Ustama xarajatlarni taqsimlash bosqichlari va zarurati	
26.2.	Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona va alohida stavkalari qo'llash	
26.3.	Ustama xarajatlarni taqsimlashning amaliy va rejali stavkalari	
26.4.	Ustama xarajatlarni taqsimlashning to'g'ri (bevosita) usuli	
27-BOB.	BUYURTMALI KALKULYATSIYA QILISH USULI	
27.1.	Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalash tavsifi	
27.2.	Buyurtmalar bo'yicha kalkulyatsiyalashga asosiy yondashuv	
27.3.	Haqiqiy va me'yoriy kalkulyatsiyalash usullaridagi farqlar	
27.4.	Tugallanmagan shartnomalar bo'yicha foydani aniqlashga	
28-BOB.	JARAYONLI KALKULYATSIYA QILISH USULI	
28.1.	Jarayonli kalkulyatsiya tavsifi	
28.2.	Ekvivalent birliklarni hisoblash	
28.3.	Boshqa jarayonga o'tkaziladigan tayyor mahsulotni va tugallanmagan ishlab chiqarishni o'rtacha tortilgan usuli va FIFO usuli bo'yicha baholash	
29-BOB	KOMPLEKS ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING TAQSIMLANISHI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH	
29.1.	Kompleks xarajatlar to'g'risida tushunchalar	

29.2.	Kompleks xarajatlarni taqsimlash usullari	
29.3.	Qo'shimcha mahsulotni hisobga olish	
30-BOB	XARAJATLARNI TO'LA TAQSIMLAB VA O'ZGARUVCHAN XARAJATLAR BO'YICHA TANNARXNI KALKULYATSIYA QILISH USULI	
30.1.	Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish bilan tannarxni o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish o'rtasidagi tafovutlar	
30.2.	Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalashning foyda miqdoriga ta'sirini qiyoslash	
30.3.	Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiyalashni quvvatlovchi dalillar	
31-BOB	SMETA TUZISH	
31.1.	Asosiy smeta ta'rifi va byudjet turlari	
31.2.	Smeta tuzishning afzalliklari va kamchiliklari	
31.3.	Asosiy smetani tuzish jarayonlari	
32-BOB	BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH	
32.1.	Boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari	
32.2.	Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish	
32.3.	Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish	
32.4.	Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish	
32.5.	Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash	
32.6.	Rivojlangan mamlakatlarda biznesni markazlashtiril magan holda boshqarish tajribasi	
33-BOB	TRANSFERT BAHONI SHAKLLANTIRISH	
33.1.	Korxonada baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni va mazmuni	
33.2.	Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari.	
33.3.	Transfert bahoni belgilash usullari.	

33.4.	Transfert bahoni xarajatlar va qiymat yondashuvlari asosida shakllantirish	
34-BOB.	KORXONA SEGMENTAR HISOBOTI	
34.1.	Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllari	
34.2.	Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari	
34.3.	Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida	
34.4.	Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash	
35-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	
35.1.	Boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish istiqbollari	
35.2.	Boshqaruv hisobini isloh qilishning nazariy va amaliy jihatlari	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	
1-ГЛАВА.	УЧЕТ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ	
15.1.	Организация учета основных средств и его задачи.	
15.2.	Классификация и оценка основных средств	
15.3.	Способы перевода основных средств на баланс хозяйствующего субъекта	
15.4.	Учет капитальных вложений	
15.5.	Документирование движения основных средств	
15.6.	Порядок и методы начисления амортизации основных средств	
15.7.	Учет операций по ремонту основных средств	
15.8.	Учет переоценки основных средств	
15.9.	Порядок списания основных средств с баланса предприятия	
15.10.	Учет полученных и сданных в аренду основных средств	
16-ГЛАВА.	УЧЕТ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ	
16.1.	Организация учета нематериальных активов	
16.2.	Классификация и оценка нематериальных активов	
16.3.	Документирование движения и поступления нематериальных активов	
16.4.	Порядок и методы начисления амортизации нематериальных активов	
16.5.	Учет выбытия нематериальных активов	
16.6.	Приобретение в рамках объединения бизнеса. Особенности учета Гудвилл	
17-ГЛАВА.	УЧЕТ ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ (ТОВАРОВ, РАБОТ, УСЛУГ) И ИХ РЕАЛИЗАЦИИ	
17.1.	Понятие готовой продукции и её классификация	

17.2.	Оценка готовой продукции (товаров, работ, услуг)	
17.3.	Учет готовой продукции (товаров) на складе и в бухгалтерии	
17.4.	Документальное оформление реализации готовой продукции (товаров, работ, услуг)	
17.5.	Учет реализации готовой продукции (товаров, работ, услуг) на разных условиях	
17.6.	Учет консигнационных операций	
17.7.	Учет возврата готовой продукции (товаров)	
18-ГЛАВА.	УЧЕТ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА	
18.1.	Организация учета собственного капитала и его задачи	
18.2.	Состав собственного капитала	
18.3.	Учет формирования уставного и его изменений при разных формах собственности	
18.4.	Учет добавленного капитала	
18.5.	Учет формирования и использования резервного капитала	
18.6.	Учет выкупленных собственных акций	
18.7.	Учет целевых поступлений	
19-ГЛАВА.	УЧЕТ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ	
19.1.	Показатели финансовых результатов	
19.2.	Учет доходов от основной операционной деятельности. Признание и оценка дохода	
19.3.	Учет доходов от прочей основной деятельности	
19.4.	Состав и учет расходов периода	
19.5.	Учет доходов и расходов от финансовой деятельности	
19.6.	Учет чрезвычайных прибылей и убытков	
19.7.	Определение прибыли до налогообложения и учет налогообложения	

19.8.	Учет чистой прибыли и её использование	
20-ГЛАВА.	СОСТАВЛЕНИЕ И ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ОТЧЕТНОСТИ	
20.1.	Финансовая отчетность и её структура. Промежуточная финансовая отчетность	
20.2.	Порядок подготовки (инвентаризация) к составлению финансовой отчетности	
20.3.	Пользователи информации финансовой отчетности	
20.4.	Бухгалтерский баланс и порядок его составления	
20.5.	Отчет о финансовых результатах	
20.6.	Отчет о движении денежных средств и порядок его составления	
20.7.	Отчет о собственном капитале	
20.8.	Понятие финансовой отчетности, приложения и пояснения	
21-ГЛАВА.	ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	
21.1.	Управленческий учет, его предмет и методы	
21.2.	Историческое формирование управленческого учета	
21.3.	Взаимосвязь между управленческим и производственным учетами	
21.4.	Взаимосвязь финансового и управленческого учетов	
22-ГЛАВА.	КЛАССИФИКАЦИЯ РАСХОДОВ И ИХ УЧЕТ	
22.1.	Понятие о расходах и их классификация по различным признакам	
22.2.	Организация учета расходов основного и вспомогательного хозяйств	
22.3.	Учет вспомогательных расходов	
22.4.	Организация учета расходов по центрам ответственности	
23-ГЛАВА.	ОЦЕНКА РАСХОДОВ И ИХ ДИНАМИКА	

23.1.	Задачи, значение и общие правила (принципы) расходов	
23.2.	Преимущества инженерных и бухгалтерских методов при оценке расходов	
23.3.	Особенности применения графического и стоимостного методов при оценке расходов	
24-ГЛАВА.	УЧЕТ МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАТРАТ	
24.1.	Основные понятия процесса управления материальных затрат	
24.2.	Отличие непрерывной и периодической систем учета материалов	
24.3.	Оценка стоимости материалов отпущенных в производство	
25-ГЛАВА.	УЧЕТ ТРУДОВЫХ РАСХОДОВ	
25.1.	Учет трудовых расходов	
25.2.	Анализ трудовых расходов в системе управления предприятиями	
25.3.	Формы оплаты труда	
25.4.	Текучесть трудовых ресурсов и эффективность труда	
26-ГЛАВА.	УЧЕТ НАКЛАДНЫХ РАСХОДОВ	
26.1.	Необходимость и этапы распределения накладных расходов	
26.2.	Применение общих и частных (отдельных) ставок рапределения накладных расходов	
26.3.	Фактические и плановые ставки распределения накладных расходов	
26.4.	Прямой метод распределения накладных расходов	
27-ГЛАВА.	ПОЗАКАЗНЫЙ МЕТОД КАЛЬКУЛЯЦИИ	
27.1.	Характеристика позаказного метода калькуляции	
27.2.	Основной подход к позаказному методу калькуляции	

27.3.	Отличия методов фактической и нормативной калькуляции	
27.4.	Основные проводки при позаказной калькуляции	
28-ГЛАВА.	ПОПРОЦЕССНЫЙ МЕТОД КАЛЬКУЛЯЦИИ	
28.1.	Характеристика попроцессной калькуляции	
28.2.	Расчет эквивалентных единиц	
28.3.	Оценка готовой продукции переводимой в следующий процесс и незавершенного производства методами средневзвешенных затрат и FIFO	
29-ГЛАВА.	РАСПРЕДЕЛЕНИЕ РАСХОДОВ КОМПЛЕКСНОГО ПРОИЗВОДСТВА И СОВМЕСТНОЙ ПРОДУКЦИИ	
29.1.	Понятие о комплексных расходах	
29.2.	Методы распределения комплексных расходов	
29.3.	Учет совместной продукции	
30-ГЛАВА.	МЕТОДЫ КАЛЬКУЛЯЦИИ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРИ ПОЛНОМ РАСПРЕДЕЛЕНИИ РАСХОДОВ И ПО ПЕРЕМЕННЫМ РАСХОДАМ	
30.1.	Отклонения между расходами при калькуляции себестоимости с полным распределением расходов и по переменным расходам	
30.2.	Сравнительная характеристика прибыли получаемой при калькуляции себестоимости с полным распределением расходов и по переменным расходам	
30.3.	Доказательства в поддержку калькуляции себестоимости с полным распределением расходов и по переменным расходам	
31-ГЛАВА.	СОСТАВЛЕНИЕ СМЕТЫ	
31.1.	Понятие главной сметы и виды бюджетов	
31.2.	Преимущества и недостатки составления смет	

31.3.	Процессы составления главной сметы	
32-ГЛАВА.	ПРИНЯТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ	
32.1.	Управленческие решения и этапы их принятия	
32.2.	Анализ безубыточности производства	
32.3.	Принятие управленческих решений по инвестиционным проектам	
32.4.	Принятие управленческих решений по изменению структуры бизнеса	
32.5.	Оценка эффективности управления при принятии решений по изменению структуры бизнеса	
32.6.	Практика децентрализованного управления бизнеса развитых стран	
33-ГЛАВА.	ФОРМИРОВАНИЕ ТРАНСФЕРТНОЙ ЦЕНЫ	
33.1.	Роль и содержание трансфертной цены в ценовой политике предприятия	
33.2.	Порядок и принципы формирования трансфертной цены	
33.3.	Методы определения трансфертной цены.	
33.4.	Формирование трансфертной цены на основе подходов с позиции расходов и стоимости	
34-ГЛАВА.	СЕГМЕНТАРНАЯ ОТЧЕТНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ	
34.1.	Сущность, виды и формы сегментарной отчетности	
34.2.	Принципы составления сегментарной отчетности предприятий	
34.3.	Сегментарная отчетность в качестве основного критерия оценки деятельности центров ответственности	
34.4.	Определение доходов и расходов по сегментам	
35-ГЛАВА.	НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	

35.1.	Перспективы совершенствования нормативно-правовой базы управленческого учета	
35.2.	Теоретические и практические стороны реформирования управленческого учета	
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	